Xulosa. Mazkur tadqiqot kiber makonda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va ijtimoiy nazorat o‘rtasidagi murakkab va ko‘p qirrali munosabatlarni ilmiy jihatdan yoritdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash texnologik vositalar, xususan shifrlash, autentifikatsiya va ko‘p bosqichli identifikatsiya orqali amalga oshiriladi, bu esa foydalanuvchilarning raqamli izlarini ruxsatsiz kirishdan himoya qiladi va kiber tahdidlarga qarshi barqaror himoya yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva B. S., Ro‘ziyev Y. Z., Ismoilova K. V. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati //Darslik. -Toshkent: Donishmand ziyosi. – 2024.
2. Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi //Darslik.-Toshkent: Adolat. – 2018.
3. Shohbozbek, E. (2025). Theoretical foundations for the development of the spiritual worldview of youth. Maulana, 1(1), 29-35.
4. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari //Toshkent-2008. – 2008.
5. Olimov Q. T. et al. Kasb ta’limi uslubiyati //Toshkent: Iqtisod moliya. – 2006.
6. Mamurov B. Umumiy pedagogika //Barcha ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik: -Toshkent. – 2020. – T. 118.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 811.161.1

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA A’ZAM O‘KTAM OVOZI

Jumaboyeva Maqsuda Elmurod qizi,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommukinaktsiyalar universiteti magistranti

THE VOICE OF AZAM OKTAM IN CONTEMPORARY UZBEK POETRY

Jumaboyeva Maqsuda Elmurodovna,
Master’s student Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications

ГОЛОС АЗАМА ОКТАМА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Жумабоева Максуда Элмуродовна,
магистрант Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана



e-mail:
jumaboyevamaqsuda4@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada A’zam O‘ktam she’riyatidagi poetik ovoz, uning badiiy tafakkur manbalari, obrazlar tizimi va ifoda uslubi tahlil qilinib, shoir ijodining zamonaviy o‘zbek she’riyati taraqqiyotidagi o‘rni yoritib beriladi. Shu orqali A’zam O‘ktam ijodidagi o‘ziga xoslik va uning adabiy jarayondagi ahamiyatini ochib berish maqsad qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *she’riyat, poetik ruh, ichki kechinma, falsafa, tuyg‘u, hissiyot, so‘z, shaxsiyat.*

Abstract: *This article analyzes the poetic voice in A’zam Uktam’s poetry, the sources of his artistic thinking, the system of images, and methods of expression, and highlights the place of the poet’s work in the development of modern Uzbek poetry. Through this, the study aims to reveal the originality of A’zam Uktam’s creative work and its significance in the contemporary literary process.*

Key words: *poetry, poetic spirit, inner experience, philosophy, feeling, emotion, word, personality.*

Аннотация: *В статье анализируются поэтический голос в поэзии Азама Октама, источники его художественного мышления, система образов и способы выражения, а также освещается место творчества поэта в развитии современной узбекской поэзии. Тем самым ставится цель раскрыть своеобразие творчества Азама Октама и его значение в современном литературном процессе.*

Ключевые слова: *поэзия, поэтический дух, внутреннее переживание, философия, чувство, эмоция, слово, личность.*

KIRISH. Zamonaviy o‘zbek she’riyati bugun nafaqat shakl va uslub jihatidan, balki badiiy tafakkur, poetik ruh va individual ovozlar rang-barangligi bilan ham ajralib turadi. Bu jarayonda har bir ijodkorning adabiy maydonga olib kirgan o‘ziga xos ohangi, dunyoni idrok etish usuli va so‘zga munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalaga Qozoqboy Yo‘ldoshev quyidagicha yondoshadi: “Bugungi odamning ko‘ngli bugunning tuyg‘ularini tuyadi. Bugungi kishilarning ruhini bezovta qiladigan gaplar bugun aytilgani ma’qul. Binobarin, bugungi she’riyat – bugungi odamning ko‘ngil mavjlari. Bugungi odam esa kechagisidan tamomila farq qiladi”[1]. Ana shunday betakror poetik ovozlardan biri – A’zam O‘ktam ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi.

A’zam O‘ktam she’riyati ichki kechinmalar, ruhiy iztiroblar va zamon odamining murakkab holatini sodda, ammo chuqur poetik ifodalar orqali tasvirlashga intilishi bilan e’tiborni tortadi.

Sahar vaqti yurak yig‘lar
Tilab rahm-u shafoatlar.
Duo mendin, nido mendin,
Bo‘lur sendin ijobatlar[2].

She’rda sahar vaqti ruhiy uyg‘onish, ixlos va iltijo pallasi sifatida talqin etiladi. “Sahar vaqti yurak yig‘lar” misrasi orqali inson qalbining eng nozik, eng samimiy holati ochiladi. Bu yig‘i tashqi iztirob emas, balki ichki poklanish, tavba va umid ko‘z yoshidir. Sahar payti bandaning Yaratganga eng yaqin onlari, yurak sukut ichida so‘zlaydigan damdir. “Tilab rahm-u shafoatlar” satri insonning ojizligi va bandalik holatini ifodalaydi. Bu yerda shoir o‘zini hukmron emas, balki rahmga muhtoj banda sifatida ko‘rsatadi. Rahm va shafoat so‘zlari ilohiy adolat bilan birga mehr-shafqatga tayanilgan e’tiqodni anglatadi. “Duo mendin, nido mendin” misrasi orqali mas’uliyatning inson zimmasidagi qismi aniq belgilanadi: iltijo qilish, yuzlanish, so‘rash bandaning vazifasi. So‘nggi misra “Bo‘lur sendin ijobatlar” esa umid va ishonch bilan yakunlanadi. Bu yerda natija Yaratganga bog‘lanadi javob berish, ijobat qilish — ilohiy irodaga daxldor. Shu tariqa she’rda banda va Xudo o‘rtasidagi ruhiy muvozanat ochiladi. Insondan ixlos va duo, Yaratgandan esa marhamat va ijobat. Umuman, she’r parchasida sahar ramzi orqali duo falsafasi, bandalik kamtarligi va ilohiy rahmatga bo‘lgan ishonch mantiqan izchil va yaxlit tarzda ifodalangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotshunos olim, professor Bahodir Karimov o‘rinli ta’kidlaganlaridek, A’zam O‘ktamning adabiy shaxsiyati va qiyofasini, iste’dodining asosiy qirrasini she’riy asarlari belgilaydi. Bu she’rlar egasining mavqeyini, obro‘sini tabiiy ravishda baland ko‘taradi; yaxshi she’rgina shoirni abadiyatga daxldor qiladi. Chunki bu she’riyat egasida ichki bir mag‘rurlik, g‘olibiyat seziladi; u birovlarga yaltoqlanishni, ayniqsa, haqsizlik qoshida bo‘yin egilishini o‘ziga ep ko‘rmaydi[3]. Shu o‘rinda shoirning “Mamajon hofiz” she’riga e’tibor qarataylik:

Otamni berdim men – to‘ymadi bu yer,
onamni yutib ham to‘ydim demadi.
Qaridim. Ketish shart. Lekin men hali
aytmagan qo‘shig‘im bergim kelmadi…[4]

Mazkur to‘rtlik chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi va unda umrning o‘tkinchiligi, inson taqdirining muqarrarligi hamda hayotga bo‘lgan bitmas-tuganmas tashnalik badiiy jihatdan ifodalanadi. “Otamni berdim men – to‘ymadi bu yer, onamni yutib ham to‘ydim demadi” satrlarida tuproq oddiy makon sifatida emas, balki o‘lim va abadiyat ramzi sifatida talqin etiladi. Yer insonni bag‘riga olaveradi, biroq hech qachon “to‘ydim” demaydi. Bu hol umrning cheklanganligi va inson hayotining tabiat oldidagi ojizligini ko‘rsatadi. Keyingi “Qaridim” degan qisqa, ammo mazmunan og‘ir jumla vaqtning shafqatsiz kechishini, inson umrining sezilmas holda o‘tib borishini ifodalaydi. Ota-onadan ayrilish insonni erta ulg‘aytiradi, uni hayotning muqarrar haqiqatlari bilan yuzma-yuz qo‘yadi. “Ketish shart” degan satr taqdir qonunining inkor etib bo‘lmasligini bildiradi. “Lekin men hali aytmagan qo‘shig‘im bergim kelmadi”. Bu misralarda insonning umrga to‘ymasligi, yashash va ijodga bo‘lgan ehtiyoji yorqin namoyon bo‘ladi.

[1] Йўлдош Қ. Очқич сўз. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2019. Б. 75.
[2] O‘ktam A’zam. Ko‘kdan yog‘ilgan nur. — Toshkent: Adabiyot, 2021. B. 32.
[3] Карим Баҳодир. Руҳият алифбоси. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 129.
[4] O‘ktam A’zam. Ko‘kdan yog‘ilgan nur. — Toshkent: Adabiyot, 2021. B. 32.

NATIJALAR. A’zam O‘ktam she’riyatining eng muhim va ajralmas jihatlaridan biri – undagi Allohga yaqinlik, ilohiy ruh va ma’naviy poklanishga intilishdir. Shoir uchun she’r faqat estetik hodisa yoki hissiy kechinmalar ifodasi emas, balki imon, e’tiqod va ruhiy mas’uliyat bilan bog‘liq muqaddas holatdir. Shu ma’noda Xayrulla Hamidov tomonidan A’zam O‘ktamga nisbatan qo‘llangan “she’riyat dindori” ta’rifi mutlaqo asosli va chuqur mazmunga ega. Bu ta’rif shoir ijodidagi ilohiy mohiyat, Alloh bilan ichki muloqot, so‘z orqali Haqni izlash jarayonini aniq ifodalaydi. “A’zam O‘ktam iymon-e’tiqodli inson sifatida yuragini qog‘ozga to‘kar ekan, ijodi uchun adabiy mezonni, chegaralarni aniq belgilab oladi:

Bir kishi holidan, Olloh,
Saqlagil, bergil amon-
Uxlagay mo‘min bo‘lib ul,
Uyg‘onur kofir bo‘lib!”[5]

A’zam O‘ktam diniy qadriyatlarni she’rga ko‘chirarkan, ularni shior yoki tashviq darajasida emas, balki qalb kechinmasi, ichki iztirob va ixlos bilan uyg‘unlashtiradi. Uning misralarida hadislar, Qur’oniy hikmatlar bevosita iqtibos tarzida emas, balki badiiy talqin, ramziy obrazlar va poetik fikrlash orqali jonlanadi. Natijada diniy g‘oya she’r matnida sun’iy yoki og‘ir yuk sifatida emas, balki tabiiy ruhiy ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA. Shoir ijodida tavba, sabr, shukr, taqvo, dunyoning o‘tkinchiligi kabi islomiy tushunchalar markaziy o‘rin tutadi. Bu tushunchalar A’zam O‘ktamda abstrakt falsafiy mulohaza darajasida emas, balki inson taqdiri, umr sinovlari, ichki kurash va ma’naviy yetilish jarayoni bilan chambarchas bog‘langan holda ifodalanadi. U insonni Allohga yaqinlashtiruvchi yo‘lni tashqi ibodat bilangina emas, balki qalb pokligi, niyatning sofligi va mas’uliyatli yashash orqali ko‘rsatadi. Jumladan, “Ne’mat” she’ri:

Ramazon – mashaqqat, sinovlar oyi,
O‘ttiz qorong‘u kun, o‘ttiz yorug‘ tun.
Tonglar nasib etdi toza havo-yu
Bulbulning ovozin saharlik uchun.
Achchiq so‘z chiqmaydir – yopiqdir og‘zim,
Birovga qadalib tikilmak tamom.
Ko‘ngil to‘q, ruh yengil.
Xushbaxtman o‘zim –
Gul isin iftorlik uchun berdi shom.[6]

A’zam O‘ktam she’riyatida banda va Yaratuvchi munosabati nihoyatda nozik va samimiy talqin etiladi. Shoir ko‘pincha o‘zini ojiz banda sifatida tasvirlab, Haq oldidagi mas’uliyat, qo‘rquv va umid tuyg‘ularini bir vaqtning o‘zida ifodalaydi. Bu hol uning she’rlariga chin dindorlikka xos kamtarlik va ixlos bag‘ishlaydi. Shoir uchun Allohga yaqinlik balandparvoz da’volar emas, balki ichki hisob-kitob, vijdoniy so‘roq va ma’naviy uyg‘onishdir.

Meni ham tinglayurmi deb
Gumonlar o‘rtayur, chunkim,
Gunohdan charchagan badbaxt
Qilur tinmay tilovatlar[7].

“A’zam O‘ktam she’rlari bilan tanishayotgan o‘quvchi uning millat taqdiriga befarq emasligiga ishonch hosil qiladi. Xalqimizning boy, madaniy, va ma’rifiy merosi, milliy qadriyatlari, an’ana-yu urf-odatlari, turmush tarzidagi axloqiy tamoyillarni qadrlagan shoir o‘zining milliy g‘ururga to‘yintirilgan isyonkor she’rlari bilan mustabid tuzum qutqulariga qarshi turdi”, – Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi Nilufar Umarova”[8]. A’zam O‘ktam she’riyati o‘zbek adabiy jarayonida milliylik, o‘ziga xoslik hamda diniy-ma’naviy ruhni zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg‘unlashtira olgan noyob hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ijodida xalq ruhiyati, milliy tafakkur, urf-odat va an’analar islomiy e’tiqod, Qur’on va hadis mazmunlari bilan mushtarak holda badiiy ifoda topadi. Shoir milliy dunyoqarashga xos obrazlar, xalqona ohang, qadimiy ramzlar va so‘z boyligidan unumli foydalanib, o‘ziga xos poetik uslub yaratadi. Bu jihat A’zam O‘ktam she’riyatini nafaqat diniy, balki milliy-estetik hodisa sifatida ham qadrlashga imkon beradi.

[5] Карим Баҳодир. Руҳият алифбоси. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 131.
[6] O‘ktam A’zam. Ko‘kdan yog‘ilgan nur. — Toshkent: Adabiyot, 2021. B. 40.
[7] O‘ktam A’zam. Ko‘kdan yog‘ilgan nur. — Toshkent: Adabiyot, 2021. B. 32.
[8] A’zam O‘ktam ijodida milliylikning lirik talqini // Til va adabiyot ta’limi jurnali. – 2021. – № 4. – B. 27.

XULOSA. A’zam O‘ktam ijodida milliylik faqat mavzu doirasida emas, balki badiiy tafakkur va ifoda usulida ham yaqqol seziladi. Uning she’rlarida tuproq, ona zamin, ota-bobo ruhi, xalqona tasavvur va qadriyatlar Allohga yaqinlik, e’tiqod va ma’naviy poklanish g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi. Shoir diniy tushunchalarni quruq nasihat shaklida emas, balki milliy ruh bilan sug‘orilgan ramziy obrazlar, lirizm va falsafiy mushohada orqali ifodalaydi. Natijada she’rlar zamonaviy o‘quvchi tafakkuriga mos, ammo milliy ildizlardan uzilmagan badiiy yaxlitlik kasb etadi.

Hadislar va diniy qadriyatlar A’zam O‘ktam she’riyatida bevosita iqtibos tarzida emas, balki ularning mazmun-mohiyati va axloqiy ruhi orqali namoyon bo‘ladi. Shoir shukur, sabr, tavba, duo kabi tushunchalarni milliy hayot tajribasi, xalqona hikmat va ruhiy kechinmalar bilan bog‘lab talqin etadi. Bu esa o‘quvchini Allohni eslashga, umrning foniyligini anglashga, milliy va diniy o‘zlikni chuqur his etishga chorlaydi. She’r o‘quvchi uchun nafaqat badiiy zavq manbai, balki ma’naviy va ruhiy kamolot yo‘liga boshlovchi vositaga aylanadi.

Shu bois A’zam O‘ktamni nafaqat diniy mavzuda ijod qilgan shoir, balki milliy ruh va e’tiqodni so‘z orqali uyg‘unlashtira olgan, o‘ziga xos poetik ovoz egasi sifatida baholash mumkin. Uning ijodi zamonaviy o‘zbek she’riyatida milliylikni asrab qolish, uni diniy-ma’naviy mazmun bilan boyitish borasida muhim ahamiyat kasb etadi. “She’riyat dindori” sifatida e’tirof etilishi ham aynan shu jihatlar bilan bog‘liq: A’zam O‘ktam so‘zni e’tiqod darajasiga ko‘targan, milliy ruhni ilohiy ma’nolar bilan uyg‘unlashtirgan va adabiyotimizda o‘ziga xos, takrorlanmas ijodiy qiyofa yaratgan shoirdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. A’zam O‘ktam ijodida milliylikning lirik talqini // Til va adabiyot ta’limi jurnali. – 2021. – № 4. – b. 8.
2. A’zam O‘ktam. Ko‘kdan yog‘ilgan nur. — Toshkent: Adabiyot, 2021. – b. 102.
3. Карим Баҳодир. Руҳият алифбоси. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – б. 358.
4. Йўлдош Қ. Очқич сўз. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2019. –б. 685.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 392.181.151.9

QARAQALPAQ BAQSÍSHÍLÍQ ÓNERI HÁM ONÍŃ JASLAR TÁRBIYASÍNDAĠÍ RÓLI

Bekbaulieva Feruza Majit qızı,
Ájiniyaz atındaġı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı
Muzıka tálim bakalavr tálim baġdarı studenti

KARAKALPAK BAKHSHI ART AND ITS ROLE IN YOUTH EDUCATION

Bekbaulieva Feruza Majit qızı,
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz,
Bachelor's degree student in Music Education

КАРАКАЛПАКСКОЕ ИСКУССТВО БАХШИ И ЕГО РОЛЬ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

Бекбаулиева Феруза Мажит кизи,
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, студент бакалавриата по музыкальному образованию



e-mail:
feruzabekbaulieva@gmail.com

https://orcid.org/0009-0006-9497-1108

Annotaciya: *Maqalada mektep jasındaġı balalarġa muzıkalıq bilim beriw menen birge, qosıqlardıń tekstlerin úyretiwdiń áhmiyetli waziypa ekenligi kórip shıġıldı. Jas áwladqa hárbir sózdiń mánisi bar ekenligi keń túrde dállillengen. Qaraqalpaq saz ásbaplarınan biri bolġan duwtar hám onı shertiw texnologiyaları haqqında keń túrde maġlıwmatlar berilgen.*

Tayanısh sózler: *muzika, metodika, bilimlendiriw, tálim-tárbiya, innovacion texnologiya, xalıq qosıqları.*

Abstract: *The article examines the importance of teaching song lyrics to school-aged children, alongside providing them with musical education. It has been widely proven that every word has meaning for the younger generation. Extensive information is provided on the dutar, one of the Karakalpak musical instruments, and its playing techniques.*

Key words: *Music, methodology, education, upbringing, innovative technologies, folk songs.*

Аннотация: *В статье рассматривается важность обучения текстам песен детей школьного возраста наряду с предоставлением им музыкального образования. Широко доказано, что каждое слово имеет смысл для молодого поколения. Приведены обширные сведения о дутаре, одном из каракалпакских музыкальных инструментов, и технике его игры.*

Ключевые слова: *музыка, методика, образование, воспитание, инновационные технологии, народные песни.*

Kirisiw. Búgingi kúnde jedel rawajlanıp atırġan texnologiyalıq hám ilimiy jańalıqlar jámiyeti ózgerislerge ashıq, belsendi insanlar tárbiyalawġa májbúr etedi. Málimleme jámiyeti talapların biletuġın hám ózin-ózi rawajlandıra alatuġın shaxslardıń bilimlendiriw jámiyetlerdiń rawajlanıwında tiykarġı rol atqaradı. Kvalifikaciyalı shaxslardı tárbiyalaw oqıtıwshılar menen múmkin. Demek, házirgi bilimlendiriw talapların qanaatlandırıw ushın oqıtıwshılardıń bir qatar kónlikpelerge iye bolıwı kútilmekte.

Tiykarġı bólim. Ulıwma mániste jetkiliklilik, jetkilikli bolıw jaġdayı, jumıstı islewge uqıplılıq beretuġın arnawlı bilim, uqıplılıq sıpatında belgilengen. Juwapkershilik, adamnıń jumıstı orınlay alıwı boyınsha juwapkershilikti ózine alıwı hám kásibin durıs orınlay alıwı ushın shaxsta bolıwı kútilip atırġan kásiplik bilim, kónlikpe hám múnásibet; sıyaqlı ózgeshelikler bolıp tabıladı.

Sonday-aq, oqıtıwshılardıń kompetenciyaları da oqıtıwshılardıń “oqıtıwshılıq” óz kásibin nátiyjeli hám nátiyjeli túrde orınlay alıwı ushın olarǵa zárúr bolǵan bilim, kónlikpe hám bilimler múnásibetler" dep túsindiriledi. Oqıtıwshılardıń kásiplik bilimleri, kónlikpeleri hám qádir-qımbat bahaları menen baylanıslı.

Muǵallimniń kásiplik kórsetkishleri, onıń kásiplik tájiriybesi hám oqıwshılardıń jetiskenlikleri arasındaǵı baylanıs penen túsindiriledi (Kulshrestha hám Pandey, 2013).Sonıń menen birge, oqıtıwshılar óz kásibin orınlawda iye bolıwı kerek bolǵan bilim, kónlikpe hám qatnas oqıwshılarına da jeńip beriwi kútilmekte.

Bul baǵdarda oqıwshılarǵa zárúr bolǵan bilim, kónlikpe, oqıtıwshılardıń múnásibetin hám qádiriyatların rawajlandırıw hám oqıtıwshılıq kásibin múnásip atqara alıwı ushın kóplegen tarawlarda jeterli úskenelerge iye bolıwı kerek. Házirgi bilimlendiriw mashqalaları menen shuǵıllanıw ózlestiriw ushın oqıtıwshılardıń jeterli bilim hám kónlikpege iye bolıwı úlken áhmiyetke iye.

Oqıtıwshılardıń qánigeligi qanday bolıwı kerekligin úyreniw boyınsha milliy hám xalıqaralıq izertlewlerde bilimleri, pedagogikalıq taraw (kásip) boyınsha bilimleri hám ulıwma mádeniyatı boyınsha bilimleri ajıralıp turatuǵın ulıwmalıq ólshemler bolıp esaplanadı.

Taraw bilimleri – oqıtıwshınıń tarawı menen baylanıslı bolǵan tema, túsinik, princip hám teoriyalardı óz ishine alǵan pánniń bir pútinligi hám usı pán ishindegi bilimlerdi tártipke salıw sıpatında kórsetilgende; pedagogikalıq taraw bilimleri, oqıtıwshılardıń, ásirese, xızmetke shekemgi bilimlendiriwde óz tarawına baylanıslı bilimlerin úyreniw hám oqıtıw procesinde qollanıw. Olar qollanǵan strategiya, usıl hám texnikalıq bilimlerdi baylanıstırıw arqalı tema mazmunın qalay jetkerip beredi hám olarda sáwlelengen maǵlıwmatlardı óz ishine aladı [4.69].

Oqıtıwshınıń klass iskerliginde iyeleytuǵın kompetenciyaları úlken áhmiyetke iye.

Oqıtıwshılar turaqlı túrde jańalanıp barıp atırǵan oqıw-tárbiya procesiniń qıyınshılıqlarına qarsı gúresiw ushın hár qıylı kompetensiyalardı talap etedi. Sonıń ushın oqıtıwshılardıń qánigeligine hám milliy hám xalıqaralıq kólemde jańa redakciyalar hám jańalanıwlar ámelge asırılmaqta.

Bul baǵdarda milliy Oqıtıwshılardı tárbiyalaw hám rawajlandırıw bas basqarması basshılıǵında 2017-jılı jańa kompetenciyalar belgilenip, ámelge kirgizildi. Jańalanıp atırǵan oqıtıwshılıq kásibiniń ulıwma kompetenciyaları; “kásiplik bilim”, “kásiplik kónlikpe”, “múnásibet hám qádiriyatlar” sıyaqlı 3 tiykarǵı kompetenciya baǵdarları hám de usı kompetenciyalar menen baylanıslı 11 subkompetenciya hám usı kompetenciyalardıń astında jaylasqan 65 kórsetkishten ibarat.

Kásiplik bilim; taraw bilimleri, nızamshılıq haqqındaǵı bilimlerdi óz ishine alǵan halda, kásiplik kónlikpe; oqıwdı rejelestiriw, oqıw ortalıǵın jaratıw, oqıtıw hám úyreniw procesin basqarıw, ólshew hám bahalaw, qatnas hám milliy, ruwxıy hám ulıwma insanıylıq qádiriyatlar, oqıwshıǵa qatnas, baylanıs hám birge islesiw, jeke hám kásiplik qádiriyatlar. Rawajlandırıw sub kompetentliklerin óz ishine aladı [4.64].

Joqarıda kórsetilgen kompetenciya tarawlarınan oqıtıwshılar kóplegen túrli tarawlarda kásiplik kompetenciyaǵa iye bolıwı kerek ekenligi kórinip tur. Bul kompetenciyalar oqıtıwshılar tárepinen ózlestiriliwi ushın oqıtıwshılardıń individual hám institucionallıq tárepten kásiplik rawajlanıwınıń úzliksizligin támiyinlew kerek.

Biraq, oqıtıwshılardıń kásiplik rawajlanıwı individual, shólkemlestiriwshilik, huqıqıy hám pedagogikalıq faktorlar menen baylanıslı tolıq támiyinlenbey atır hám bul boyınsha hár qıylı mashqalalarǵa dus kelmekte. Solay bolsa da bilimlendiriwdegi byurokratiyalıq strukturanıń hádden tıs oraylasqanlıǵı, oqıtıwshılardıń ózlerine baylanıslı qabıl etilip atırǵan qararlarǵa oqıtıwshılardıń kásiplik rawajlanıwında qatnasa almawshılıq, motivaciyanıń jetispewshiligi hám jeke tosqınlıqlar sıyaqlı mashqalalar aldındaǵı tosqınlıqlar sıpatında esaplanıwı múmkin [2.39].

Bul mashqalalardı sheshiw ushın birinshi gezekte, oqıtıwshılardıń kásiplik jetikligine tásir kórsetiwshi faktorlardı anıqlaw hám bul baǵdarda xızmet kórsetiw.

Muǵallimshilikke talabanlarǵa xızmet kórsetiwde de muǵallimlerdiń qánigeligin arttırıw boyınsha jumıslardıń tártibi paydalı bolıwı múmkin.

Sebebi, Qaraqalpaqstanda qánigelikti arttırıw túsinigi ulıwma alǵanda oraydan tısqarı shólkemlerine qaray rawajlanıwshı strukturada bolıp, jeke mashqalalardan góre ulıwma máselelerge itibar qaratadı. Bul óz kásibiniń

mamanlıǵın arttırıw boyınsha turaqlı túrde shólkemlestiriletuǵın, biraq májbúriy túrdegi baǵdarlamalar ótkerilip atırǵan waqıttı kóp talap etetuǵın hám zárúr bolmaǵan mútájliklerdi qanaatlandırıwǵa qaratılǵan ilajlar sıpatında qaralmaqta [1.25].

Jeke shaxslardıń mútájlikleri hám olarda ushırasatuǵın mashqalalardı sheshiwden uzaq halda shólkemlestiriletuǵın qánigeligin arttırıw baǵdarlamalarınan talap etilgen nátiyje alıwdı kútip bolmaydı ózgeris tek individual emes bul waqıtqa baylanıslı shólkemlestiriwshilik process. Shólkemniń strukturası shaxslardıń óz ara almasıwǵa bolǵan mútájliklerin esapqa alıwı kerek.

Ayırım waqıtları bunıń kerisi de bolıwı múmkin. Mákeme qollap-quwatlawshı hám rawajlandırıwshı túsinik kórsetse, fizikalıq shaxslar olar motivaciyanıń tómenligin bastan keshiriwleri múmkin. Bul baǵdarda oqıtıwshılardıń kásiplik kompetenciyalarına tásir etiwshi faktorlardı ózgeris zárúrligi sıpatında kóriw hám ózgeris zárúrliklerine qaratıw mamanlıq arttırıw baǵdarlamaların shólkemlestiriw zárúr.

Oqıtıwshılardıń mamanlıǵına tásir etiwshi faktorlar.

Oqıtıwshılardıń kásip talap etetuǵın bilim hám kónlikpelerinen tısqarı, oqıtıwshınıń qánigeligin arttırıw jáne bir faktor olardıń óz wazıypa hám juwapkershiligin orınlay alıwına bolǵan isenimi bolıp esaplanadı.

Bir jumısta tabıslı bolıwı kerek bolǵan qábiletler menen bir qatarda, shaxstıń tabısqa erisiwine bolǵan isenimi de áhmiyetli ekenligi atap kórsetilgen. Basqasha aytqanda, tabısqa erisiwde shaxstıń ózin-ózi támiyinlewge bolǵan isenimi de tásir etedi.Muǵallimlerdiń tek olardıń klass ishindegi nátiyjelerin sapalı dárejede kórsetiwi ushın taraw boyınsha mamanlıǵı jeterli óziniń bul sıpatların oqıtıw procesinde sáwlelendire alıwı ushın óz-ózin támiyinlew faktorı joqarı bolıwı kerek.

Kásiplik tájiriybeler – bul shaxstıń jumısı menen baylanıslı tabıslı yamasa sátsizlikke alıp keletuǵın tájiriybeler [3.58].

Sebebi shaxs ótmishtegi kásiplik tájiriybesin bahalaw arqalı uqsas háreketlerdi ámelge asırıw qábileti haqqındaǵı jeterli isenim; rawajlandıradı. Shaxstıń nátiyjeli is-háreketleri óz-ózin jeterli dep esaplawdı kúsheytedi, al basınan ótkergen sátsizlikler bolsa óz-ózin jeterli dep esaplaydı qánigelik isenimine unamsız tásir kórsetedi.

XXI asirde tálim procesiniń túpten ózgeriwi, jańasha metod hám jantasıwlardıń engiziliwi zamanagóy oqıtıwshıdan tek bilim beriwshi ǵana emes, bálkim oqıwshılardıń pikirlewin rawajlandırıwshı, olardı belsendi qatnasıwshı retinde qáliplestiriwshi bolıwdı da talap etip atır. Sol tárepten ınteraktiv metodlar - yaǵnıy óz-ara baylanıs hám sheriklik tiykarında shólkemlestiriletuǵın oqıw iskerligi - tálimde zárúrli orın tutadı. Interaktiv jantasıwda oqıwshı passiv tıńlawshıdan aktiv qatnasıwshıǵa aylanadı. Bul maqalada ınteraktiv metodlar mazmunı, túrleri, olardıń oqıw processindegi roli hám de ámeliyatta qollanılıwı analiz etiledi.

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda, tiyisli tarawda islengen izertlewler ádette muǵdarlıq izertlewler bolǵanın, sapa izertlewleri bolsa sheklengen muǵdarda bolǵanın esapqa alsaq, oqıtıwshılardıń pikirine qarap, sapalı izertlew metodları menen oqıtıwshılardıń kásiplik olardıń kompetenciyasına tásir etiwshi faktorlardı anıqlaw hám bul boyınsha sheshim usınısların aldınǵa qoyıw áhmiyetli esaplanadı.

Ádebiyatlar:

1. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. – Москва: Педагогика, 1986. 240 с.
2. Горбов С.Ф. Обучение математике. (Система Д. Б. Эльконина – В.В. Давыдова) / С.Ф. Горбов, Г.Г. Микулина, О.В. Савельева. – Москва: Вита-Пресс, 2002. – 112 с.
3. Эльконин Б.Д. Психология. – Москва: Academia, 2005. – 143 с.
4. Утебаев Т.Т. Қорақалпоғистонда XX аср иккинчи ярми – XXI аср бошида таълим-тарбиявий фикрларнинг ривожланиши. АКД. Тошкент, 2016. 260 б.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 811.161.1

“OSH” BIRLIKLI LEKSIKALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Ro‘ziyev Qahramon Kuzimuratovich,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
tayanch doktoranti

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF LEXICAL UNITS WITH THE “OSH” COMPONENT

Ruziyev Kahramon Kuzimuratovich, PhD student at the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ “ОШ”

Рузиев Кахрамон Кузимуратович,
Деновский институт предпринимательства и педагогики, базовый докторант



e-mail:
roziyevqahramon585@gmail.com

https://orcid.org/0009-0000-8989-2903

Annotatsiya: *Maqolada osh leksemasi bilan bog‘liq birliklar lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Osh leksemali birliklarning etnolingvistika va lingvokultrologiyadagi ahamiyati misollar asosida ochiqlangan. Osh konseptining o‘zbek xalqi hayotidagi ahamiyati frazeologik va paremiologik birliklar asosida isbotlangan. Osh o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, udum va an’analarda muqaddas timsol sifatida tasvirlangan. Turli hududlarda osh turlari va nomlanishiga oid misollar keltirilib, uning shakllanish tarixi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *osh, “osh” konsepti, lingvokulturologik tahlil, frazeologik birliklar, etnolingvistika.*

Abstract. *This article presents a comprehensive linguistic analysis of lexical units associated with the osh lexeme. The study elucidates the significance of osh-based lexical units within the frameworks of ethnolinguistics and linguoculturology, drawing on illustrative linguistic examples. The cultural and social importance of the osh concept in the life of the Uzbek people is substantiated through phraseological and paremiological units. Furthermore, osh is interpreted as a sacred cultural symbol deeply embedded in Uzbek oral folklore, customs, and traditions. The article also examines various regional types and denominations of osh, providing insights into their historical development and formation processes. The findings highlight the role of the osh concept as a key cultural marker reflecting national identity and collective values in Uzbek linguoculture.*

Key words: *osh, the “osh” concept, linguocultural analysis, phraseological units, ethnolinguistics*

Аннотация: *В статье анализируются единицы, связанные с лексемой «ош», с лингвистической точки зрения. Значение единиц с лексемой «ош» в этнолингвистике и лингвокультурологии объясняется на примерах. Значение понятия «ош» в жизни узбекского народа доказывается на основе фразеологических и паремиологических единиц. Ош изображается как сакральный символ в узбекском фольклоре, обычаях и традициях. Приводятся примеры типов и названий «оша» в разных регионах, анализируется история его формирования.*

Ключевые слова: *ош, концепт «ош», лингвокультурологический анализ, фразеологические единицы, этнолингвистика.*

Kirish. O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi ko‘plab birliklar mavjud. Bunday birliklar orasida taom nomlari alohida o‘rin tutadi. Chunki, ular xalqning turmush tarzi, tarixiy rivojlanishi va madaniy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. “Osh” va bu leksema asosida hosil bo‘lgan birliklar o‘zbek xalqining milliy o‘zligini, uning madaniy-tarixiy rivojlanishini yaqqol ifodalaydigan birliklar sirasiga kiradi. Kuzatishlarimiz davomida ayon bo‘ldiki,

“osh” birlikli birikmalar tilimizda ko‘pchillikni tashlik etadi. Bu birliklar o‘rtasidagi bog‘liq uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, tilimizda “osh” leksemasi bilan bog‘liq birliklar ko‘p bo‘lishiga yetarlicha asoslar ham bor:

Osh leksemasining o‘zi umumiy ovqat ma’nosida ishlatiladi.

Osh leksemasi semantik jihatdan boy so‘zlardan biri hisoblanadi.

Shu leksema asosida o‘zbek tilida ko‘plab qo‘shma so‘zlar, so‘z birikmalari, frazeologik iboralar va turg‘un birikmalar shakllangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Osh leksemasi o‘zbek xalqining etnolingvistik birligi, madaniy ko‘rsatkichi.

Osh o‘zbek xalqining shox taomi. O‘zbekistonning ham har bir viloyati oshni o‘ziga xos pishirish usuli bilan mashhur: Buxorocha osh qaynatilgan sho‘rva va go‘sht mis qozonda tayyorlanadi, Samarqandcha esa aralashtirilmasdan, toshkentcha oshga ko‘pincha no‘xat va mayiz solinadi. Farg‘onacha palov noyob guruch navi – devziradan tayyorlanadi. Oshning paydo bo‘lishi uzoq tarixga borib taqaladi. Osh V-X asrlarga oid qadimgi turkiy qo‘lyozmalarda ham uchraydi[1]. Osh qadimda fors-tojik tilidan o‘zlashib, turkiy xalqlarning o‘z so‘ziga aylanib ketgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Turkiy so‘zlar devoni” (Devonu lug‘atit turk) asarida **a:sh** – ovqat, taom, osh[2], “Attuhfazuz zakiyatu fillug‘atit turkiya”da **ash** – taom[3], Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma”sida **ash** - mashhur taom deb beriladi[4]. Boburnomada osh so‘zi “issiq ovqat” ma’nosida (osh yeduk, osh tortildi) tez-tez uchraydi: *Osh tortilgondin so‘ng namozdigar jolaga kirduk*[5]. *Bir ayog‘ yumdon ashi kelturdi ichtim*[6]. Osh so‘zining kelib chiqishi haqida ikki xil taxmin bor. Ko‘pgina olimlar uni sof turkcha so‘z deb hisoblaydi. Bu so‘z turkcha yozma yodgorliklarda VI–VIII asrdan uchraydi, ya’ni u juda qadimdan bor. Yana bir guruh olimlar osh so‘zi aslida sharqiy eronchaligini, hind-yevropacha etimologiyaga ega ekanligini va jumladan, inglizcha eat bilan qarindoshligini uqtiradi[7]. Palov va osh so‘zi taom tarkibiga kiruvchi masalliqlarning qisqartmasidan tashkil topgan: **P**-piyoz, **A**-ayoz - sabzi, **L**-lahm – go‘sht, **O**-olio - moy, **V**-vet - tuz. **O**b-**Sh**oli degan qarashlar ham mavjud[8]. Palov so‘zi XV asrlardan fors-tojik tilidan kirib kelgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qiladi N.Ikromova[9]. Osh leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da

I [t.-f. آش - yog‘on sho‘rva, xo‘rda; ovqat] **1** Pishirilgan issiq ovqat.

2 Umuman, har qanday ovqat, taom.

3 ayn. palov. Osh damlamoq.

4 etn. Ba’zi munosabatlar bilan o‘tkaziladigan ziyofatlar nomining tarkibiy qismi, mas., qizoshi, xotinoshi, maslahatoshi[10] kabi ma’nolarda beriladi.

Muhokama. Osh leksemasi hozir faqat quyuq taom nomi sifatida qo‘llanadi va faqat palov ma’nosini bildiradi. Dastlab, osh leksemasi suyuq taomlarga nisbatan ishlatilgan. Guruch osh, unoshi, keskan osh, qatiqli osh, umoch osh, uzma osh, yovg‘on oshi kabi. “Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich!” maqolidagi ich so‘zi osh so‘zining “suyuq ovqat” ma’nosida qo‘llanganligini ko‘rsatadi. Shu asosda keyinchalik pishirib tayyorlanadigan har qanday yegulikni anglatgan. Quyidagi misollarda ham “umuman ovqat” ma’nosida kelgan: *Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytqanlar, ko‘b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg‘ul. (Abdulla Qodiriy, O‘tgan kunlar)*[11]. Osh so‘zining faqat “palov” ma’nosida qo‘llanishga o‘tishi keying davr mahsuli hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek tilida “osh” leksemasining “palov” ma’nosi “palov” leksemasining o‘zidan ko‘ra ancha faol ekanligini ko‘rish mumkin. Osh leksemasi asosida o‘zbek tilida ko‘plab yangi birliklar hosil bo‘ladi.

[1] Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. - T.: “Akademnashr”, 2011. – B. 146.
[2] Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zalar devoni (Devonu lug‘atit turk). 3-tomlik. I tom. -T.: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashryoti. 1960. 109-bet.
[3] Attuhfazuz zakiyatu fillug‘atit turkiya.-Toshkent, Fan, 1968.-173-bet.
[4] Chingiy M.Y. Kelurnoma. – Toshkent: Fan, 1982. – 111-b.
[5] Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent. 1960. – B. 310.
[6] Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma... – B. 174.
[7] Этимология / https://t.me/AsanovEldar
[8] https://uzbekistan.travel/uz/o/Palov-ananaviy-taomdir./
[9] Ikramova N. Uzbekskaya kulinarnaya leksika. – T.: Fan, 1989. 14-b.
[10] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. 3-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 597-bet.
[11] https://sputniknews.uz/20230727/shashlik-va-kabob-qaysi-biri-ozbekchaligini-bilasizmi-37216338.html

Bizningcha “osh” asosli leksik birliklarni shakl munosabatiga ko‘ra quydagicha tasniflash mumkin:

1. **Sodda yasama so‘zlar**: *Osh+a+moq, osh+a+m, osh+li (qozon), osh+lik, osh+paz, osh+paz+lik, osh+paz+xona, osh+sira+moq, osh+xona, osh+xona+chi, osh+xo‘r, osh+xo‘r+lik.*
2. **Qo‘shma so‘zlar:** *Oshdamgir, oshko‘k, oshpichoq, oshrayhon, oshqovoq (oshkadi), oshqozon, oshqoshiq, oshtaxta, oshtovoq, oshxamir, oshxo‘rak, arvoh oshi, tugun oshi, chilton oshi, podachi oshi, xotin oshi, qiz oshi, erkak oshi, xudoyi oshi, shom oshi, yil oshi, nahor oshi, maslahat oshi, yarash oshi, ko‘cha oshi, go‘ja osh, to‘ppa osh, palov osh, ugra osh, oq osh, qora osh, kesma osh, uzma osh.*
3. **Juft so‘zlar:** *osh-non, osh-qatiq, osh-suv.*
4. **Takroriy so‘zlar:** *osh-osh, osh-posh.*

Yuqoridagilardan alohida e’tibor qilinadigan jihat bu osh uzvli qo‘shma otlardir. Zero, qachonlardir so‘z birkmasi bo‘lgan *arvoh oshi, tugun oshi, chilton oshi, podachi oshi, xotin oshi, qiz oshi, erkak oshi, xudoyi oshi, shom oshi, yil oshi, nahor oshi, maslahat oshi, yarash oshi, ko‘cha oshi, go‘ja osh, to‘ppa osh, palov osh, ugra osh, oq osh, qora osh, kesma osh, uzma osh* kabi birliklar hozirgi kunda bitta umumiy nom ko‘rinishiga kelib qolgan. Bu nomlar etnografik xususiyatga ega bo‘lib, xalqimizning shu nom bilan bog‘liq marosimlar, urf-odat va an’analarini o‘zida aks ettiradi. ***Arvoh oshi*** - o‘tgan ota-bobolarning ruhiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan kichikroq ma’raka, yo‘qlov. *Sultonbek so‘z oldi: “Arvoh oshi” bermayman, o‘g‘limni to‘y qilmoqchiman, to‘y dedim. (Oybek, “Tanlangan asarlar”)* [12] . ***Tugun oshi*** - bunda biror-bir muammo tug‘ilgan xonadonda tugun oshi qilingan va “muammolar bartaraf bo‘ladi”- deb ishonishgan. Vodiy o‘zbeklarida chorshanba kuni tugun oshi pishirilib, oxirgi 5 yoki 7 ta chuchvaraning tugunlari, muammolari yechilib ketsin deb, tugilgan joyidan yechib qozonga solingan[13]. ***Qiz oshi*** *etnografizmi* – nikoh to‘yidan bir kun oldin qizning uyida dugonalari uchun beriladigan ziyofat. ***Shom oshi*** - asosan payshanba kuni, shom vaqtida marhum otasi yoki onasi ruhi uchun yaqinlarga beriladigan ziyofat. ***Yil oshi*** - kishi vafotidan keyin, odatda, to‘qqizinchi yoki o‘n birinchi oyda qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni va mahalla-ko‘yga osh berib o‘tkaziladigan marosim [14] nomi. Bu marosim O‘zbekistonnning barcha viloyat va shaharlarida keng tarqalgan. ***Yarash oshi*** - ba‘zi yaqin do‘stlar arazlashib qolib, keyin yarashib olishlari uchun qilinadigan ziyofat. O‘zbek tilshunos olimi N.Mirzayev o‘zining “O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati”da ham osh bilan bog‘liq etnografizmlar ancha ko‘pchillikni tashkil etishini aytib o‘tadi. Jumladan, ***“Ko‘cha oshi”*** etnografizmini quyidagicha izohlaydi: ―Yangi uy-joy bitib, ko‘chib o‘tganda, uyni muborak qilish uchun qarindosh urug‘lar tomonidan tayyorlab kelingan taom [15] . ***Nahor oshi***- xatna to‘y, nikoh to‘ylarda ertalab beriladigan ziyofat, osh bo‘lib, kechasi tayyorlanib ertalab bomdod namozdan keyin xalqqa tarqatiladi. ***Maslahat oshi*** - to‘y kengashi — O‘rta Osiyo xalqlarining to‘y bilan bog‘liq marosimlaridan biri. Maslahat oshi to‘ydan bir necha kun oldin o‘tkaziladi. Maslahat oshiga mahalla, qishloq to‘y komissiyalari vakillari, oqsoqollar, mahalladan qariyalar, qo‘ni-qo‘shnilar, qarindoshlar chaqiriladi. Maslahatga kelganlar to‘yni qachon, qanday o‘tkazish tartibi, xarajatlar, kimlar qanday vazifalarni bajarishlarining shartligi, to‘y egasining imkoniyatlariga qarab to‘yga kimlarni taklif etish kabi muhim masalalar hal etiladi. Maslahat oshi O‘zbekistonning turli tumanlarida har xil darajada o‘tkaziladi. Bu tadbir qanday o‘tkazilishdan qat’i nazar o‘sha kuni osh damlanib, mehmonlar ziyofat qilinadi[16]. Osh bilan bog‘liq boshqa ko‘plab marosimlar mavjud. Bunday marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o‘rganish bugunning dolzarb vazifalaridan biridir[17]. Osh asosli qo‘shma otlardan *oshdamgir, oshko‘k, oshpichoq, oshrayhon, oshqovoq (oshkadi), oshqozon, oshqoshiq, oshtaxta, oshtovoq, oshxamir,*

[12] https://uz.wiktionary.org/wiki/arvoh
[13] Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. 205-b.
[14] Mirzayev N. O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: Fan, 1991. 39-bet.
[15] Mirzayev N. O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: Fan, 1991. 50-bet.
[16] https://uz.wikipedia.org/wiki/Maslahat_oshi
[17] Ashirov A. An’anaviy nikoh to‘yi marosimlarining genezisiga doir ba’zi mulohazalar // O‘zbekiston tarixi. – Toshkent, 2003. – № 2. – 38-b.

oshxo‘rak kabi birliklar o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganganimizda, umumiy ovqat uchun foydalaniladigan asbob-anjomlar, masalliqlar nazarda tutilganligi oydinlashdi. Shu tahlillarimiz natijasida yana shunday xulosa berish mumkinki, ushbu qo‘shma otlarda “kattali” semasi ham nazarda tutilishi mumkin. Masalan, *oshqoshiq-katta qoshiq, oshtovoq-katta tovoq, oshrayhon-katta bargli rayhon, oshpichoq-katta pichoq, oshqovoq-katta qovoq*

Natijalar. Osh komponentli iboralar ham o‘zbek tilining lingvomadaniy birligi sifatida alohida ahamiyatga ega. Bunday birliklarning tilimizda ko‘p uchrashi xalqimizning oshga bo‘gan alohida munosabatini yanada oydinlashtiradi. Bunday birliklarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin*: osh bo‘lsin, oshga tushirmoq, osh qilmoq, og‘zidagi oshni oldirmoq, oshiga pashsha tushirmoq, og‘zi oshga yetmoq, oshiga sherik bo‘lmoq, osh bermoq, osh-qatiq bo‘lmoq, osh(i)ni oshab, yosh(i)ni yashamoq, tayyor osh, tayyor oshga bakovul bo‘lmoq, tayyor oshga qoshiq solmoq*. Shu o‘rinda biz “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da berilmaga “osh” komponentli iboralarnigina izohlab ketamiz.

Osh bo‘lsin iborasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”[18]da qayd etilgan bo‘lib, *“yegan-ichganing tatisin, singsin, yoqsin”* kabi tilak bildirish ma’nolarida ishlatiladi. Gapga teng, fe’l frazema. *Qulluq, osh bo‘lsin! – dedi.* (T. Murod, Otamdan qolgan dalalar, 204-b.)

Oshga tushirmoq iborasi o‘zbek tilida “qarzdor qilmoq” ma’nosida qo‘llaniladi. *Do‘stim! ishing hal. Seni bir oshga tushirdim. (Gazetadan).* Ammo bu ibora ham “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”ga kiritilmagan.

Osh qilmoq – 1) hazm qilmoq, singdirmoq; 2) birovning molini, pulini yeb ketmoq, o‘zlashtirib yubormoq[19] ma’nosida ishlatiladi.

Oshiga sherik bo‘lmoq “boshqalar mehnati samarasidan o‘zi hissa qo‘shmay foydalanmoq” ma’nosida keladi. *Yo‘ldosh chavandozga ziyon bermadim, oshiga sherik bo‘lmadim.* (T. Murod, Ot kishnagan oqshom, 44-b.) O‘ylaymizki, bu iboralarni ham “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”ga kiritsak, frazeologik lug‘at boyligimiz yanada kengayadi.

Tadqiqotlarimiz davomida “osh” komponentli 400 dan ortiq paremalarga duch keldik. Bu statistik ma’lumot ham birgina “osh” uzvli birliklarning tilimizda qanchalik faol ekanligidan dalolat beradi. Osh uzvli paremalarni semantik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

Mehnatsevarlikni ulug‘lovchi va unga chorlovchi: *“Ish bor yerda-osh bor”, “Ish oshga tortar, yalqovlik boshga”, “Ishlab topganning oshi – lazzatli”,“Ishlaganning og‘zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar”, “Mehnatli osh – osh bo‘lur, mehnatsiz osh – tosh”, “Oson yerda osh qayda?”;*

So‘zlash madaniyati xususidagi maqollar: *“Osh kelsa, yegin, so‘z kelsa, degin”, “Oshni katta oshasang ham, gapni katta gapirma”, “Oshning ta’mi tuz bilan, odamning ta’mi so‘z bilan”, “Yomon og‘izga – tosh, yaxshi og‘izga – osh”, “Tuzsiz oshning epi oson, tuzsiz gapning epi qiyin”, “Yaxshi osh berguncha, yaxshi so‘z ber”, “Ortiqcha tuz oshni buzar, ortiqcha so‘z boshni uzar”*

Ahillik, totuvlik haqidagi maqollar: *“Og‘ayni biriksa, bosh ko‘payar, ovsin biriksa, osh ko‘payar”, “Boshi yo‘qning oshi yo‘q”, “Og‘a-ining totuv bo‘lsa, ot ko‘p, opa-singling totuv bo‘lsa, osh ko‘p”;*

Yalqovlik, dangasalikni qoralovchi maqollar: *“Ishga – no‘noq, oshga – o‘rtoq”, “Ishga – cho‘loq, oshga – qo‘noq”, “Ishdan qochding – oshdan qochding”, “Osh quli – ish kasali”, “Yalqovning oshi – yovg‘on”, “Bilmas kishiga ish yo‘q, ishsiz kishiga osh yo‘q”;*

Sabr, qanoat xususidagi maqollar: *“Oz oshim – g‘avg‘osiz boshim”, “Oz oshga indov yo‘q”;*

Kattalarga hurmat va izzat haqidagi maqollar: *“Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga”,*

Ochko‘zlik, badnafslik haqidagi maqollar: *“Och kishiga osh qo‘ysang, betingga qaramas”;*

Tejamkorlikka chorlovchi maqollar: *“Osh qolsa – davlat, ish qolsa – mehnat”;*

[18] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. 3-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 597-bet.

[19] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. 3-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2023. 597-bet.

Axloqiy pand-nasihat ruhidagi maqollar: *“Qarindoshingni oshga chaqir, choshga chaqirma”, “Tor yerda osh yeguncha, keng yerda musht yegan yaxshi”, “Qo‘lidan ishini olsang, og‘zidan oshini olasan”;*

Donolik va nodonlik xususidagi maqollar: *“Ayron – osh bo‘lmas, nodon – bosh bo‘lmas”,*

Do‘stlik haqidagi maqollar: *“Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim”, “To‘yar oshni ko‘z taniydi, oshnani ko‘ngil taniydi”;*

Mehmondo‘stlik haqidagi maqollar: *“Yo‘qcha guruch osh bo‘lur, mehmon ko‘ngli shod bo‘lur”, “Yaxshi mehmon osh ustiga, yomon mehmon bosh ustiga”;*

Baxillik va ochko‘zlik xususidagi maqollar: *“Bermasning oshi pishmas, pishsa ham, qozondan tushmas”, “Birovga bersam – esiz oshim, uyda tursa – sasir oshim”;*

Halollik haqidagi maqollar: *“Ko‘ngil tortgan osh halol”, “Oshing halol bo‘lsa ko‘chada ich!”*[20]. Ushbu “osh” uzvli maqollarning sematik jihatdan boy ekanligi ham osh leksemasining o‘zbek lingvomadaniyatida faol leksikalar sirasiga kirishidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, osh o‘zbek xalqi uchun konseptual xarakterga ega. Xalqimiz hayotida lingvomadaniy birligi sifatida alohida ahamiyat molik. O‘zbek tilida qo‘llanish o‘rinlari bilan boshqa xalq lisoniy manzarasida bunday shakllarda uchramasligi bilan o‘zgachalik kasb etadi. Bu leksika etnomadaniy birlik sifatida xalqimiz bilan barhayotdir.

Adabiyotlar ro‘yxati /References / Библиографические ссылки:

1. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. - T.: “Akademnashr”, 2011. – B. 146.
2. Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘atit turk). 3-tomlik. I tom. -T.: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashryoti. 1960. 109-bet.
3. Attuhfazuz zakiyatu fillug‘atit turkiya.- Toshkent, Fan, 1968.-173-bet.
4. Chingiy M.Y. Kelurnoma. – Toshkent: Fan, 1982. – 111-b.
5. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent. 1960. – B. 310.
6. Ikramova N. Uzbekskaya kulinarnaya leksika. – T.: Fan, 1989. 14-b.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik. 3-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti. 2023. 597-bet.
8. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. 205-b.
9. Mirzayev N. O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1991. 39-bet.
10. O‘zbek xalq maqollari: (To‘plam). / (Redkol.: K.Imomov va boshq.; To‘plovchilar: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov). – Toshkent: Adabiyot va san’at nashr., 1989. – B. 365. (Foydalanilgan maqollarning barchasi shu manbadan olingan)
11. https://sputniknews.uz/20230727/shashlik-va-kabob-qaysi-biri-ozbekchaligini-bilasizmi-37216338.html
12. https://uzbekistan.travel/uz/o/Palov-ananaviy-taomdir./
13. Этимология / https://t.me/AsanovEldar
14. https://uz.wikipedia.org/wiki/Maslahatoshi

[20] O‘zbek xalq maqollari: (To‘plam). / (Redkol.: K.Imomov va boshq.; To‘plovchilar: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov). – Toshkent: Adabiyot va san’at nashr., 1989. – B. 365. (Foydalanilgan maqollarning barchasi shu manbadan olingan)

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK:614.5.613

TIBBIYOT PEDAGOGIKASI VA UNI TASHKIL ETISHDA ILG‘OR JAHON TAJRIBALARI

Zakirova Feruza Gulyamovna,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi



e-mail: f.zakirova@mail.ru

MEDICAL PEDAGOGY AND ADVANCED WORLD EXPERIENCES IN ITS ORGANIZATION

Zakirova Feruza Gulyamovna,
Independent researcher at the Institute of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

МЕДИЦИНСКАЯ ПЕДАГОГИКА И ПЕРЕДОВОЙ МИРОВОЙ ОПЫТ В ЕЁ ОРГАНИЗАЦИИ

Закирова Феруза Гулямовна,
независимый соискатель, Институт повышения квалификации МВД Республики Узбекистан

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tibbiyot pedagogikasi va uni tashkil etishda ilg‘or jahon tajribalari masalasi yoritilgan. Tibbiyot pedagogikasi — tibbiyot xodimlarini kasbiy tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan fan bo‘lib, bu jarayonni samarali tashkil etishda ilg‘or jahon tajribalari muhim rol o‘ynaydi. Jahon miqyosida tibbiyot pedagogikasi ilg‘or usullar va yondashuvlar asosida tashkil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *tibbiy pedagogika, psixologiya, simulyatsion ta’lim, fiziologiya, interaktiv o‘quv platformalari, muammoli o‘qitish.*

Abstract: *This article discusses the issue of medical pedagogy and advanced world experiences in its organization. Medical pedagogy is a science aimed at the professional training of medical personnel and improving their skills, and advanced world experiences play an important role in the effective organization of this process. Medical pedagogy is organized on the basis of advanced methods and approaches worldwide.*

Key words: *medical pedagogy, psychology, simulation education, physiology, interactive learning platforms, problem-based learning.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос медицинской педагогики и передового мирового опыта в ее организации. Медицинская педагогика — это наука, направленная на профессиональную подготовку медицинского персонала и повышение его квалификации, а передовой мировой опыт играет важную роль в эффективной организации этого процесса. Медицинская педагогика организуется на основе передовых методов и подходов во всем мире.*

Ключевые слова: *медицинская педагогика, психология, симуляционное обучение, физиология, интерактивные учебные платформы, проблемно-ориентированное обучение.*

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / ABSTRACT

Tibbiyot pedagogikasi — bu tibbiyot va pedagogikaning kesishmasida joylashgan, inson salomatligini targ‘ib qilish va saqlash orqali ta’lim jarayonini yaxshilashga qaratilgan fan tarmog‘idir. Tibbiyot pedagogikasi ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarini birlashtirgan holda, tibbiy bilimlarni pedagogik usullar orqali o‘rgatish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilishga mo‘ljallangan ta’lim yo‘nalishi sifatida e’tirof etiladi.

Tibbiyot pedagogikasining ilmiy asoslari tibbiy pedagogika biologiya, tibbiyot, psixologiya

va pedagogika fanlari bilimlari asosida shakllangan bo‘lib, unda sog‘liqni saqlashga oid ma’lumotlarni ta’lim jarayonida samarali o‘qitish uchun interaktiv, individual yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bilan takomillastirilib boriladi. Natijada, tibbiy pedagogika ta’lim jarayonini sog‘lomlashtirish, pedagogik va tibbiy yondashuvlarni birlashtirish orqali inson salomatligini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan mustahkam ilmiy asosga ega fan tarmog‘i sifatida faoliyat yuritib kelmoqda [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (MATERIALS AND METHODS /ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД)

Tibbiy pedagogika atamasi pedagogika tushunchasidan kelib chiqqan bo‘lib, tibbiy ta’lim nuqtai nazaridan insonni tarbiyalash va o‘qitishni anglatadi. Bu fan insonning sog‘ligi, shaxsiy xususiyatlari va tibbiy bilimlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etadi.

Tibbiyot pedagogikasining asosiy vazifalari bir necha bo‘limlarga bo‘linib, ular quyidagilardan iborat:

insonning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash uchun ta’lim tizimida sog‘lomlashtirish faoliyatini tashkil etish;

tibbiy-gigiyenik, profilaktik va davolash-tarbiya ishlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalashtirish;

tibbiyot xodimlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularni sog‘lomlashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan metodlarni ishlab chiqish;

kasalliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ta’lim jarayoniga salomatlik madaniyatini singdirishdan iborat [2].

Tibbiyot pedagogikasi — tibbiyot xodimlarini kasbiy tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan fan bo‘lib, bu jarayonni samarali tashkil etishda ilg‘or jahon tajribalari muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, tibbiyot pedagogikasining asosiy yo‘nalishlari kasbiy bilim va ko‘nikmalarni amaliyotga yo‘naltirilgan holda o‘qitish, tibbiy ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalari va interaktiv metodlarni qo‘llash, psixologik yondashuvlar orqali ta’lim oluvchilarni motivatsiyasini oshirish hamda hayotiy vaziyatlarga moslashgan simulyatsiya va laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish bilan xarakterlanadi.

Tibbiyot pedagogikasi profilaktik bilimlar berishda kasalliklarning oldini olish, tibbiy-gigiyenik qoidalarni o‘rgatish orqali salomatlikni saqlashga qaratilgan faol ta’lim tizimini yaratadi. Psixologik va axloqiy tarbiyada esa inson salomatligni saqlashda ruhiy holatning katta ahamiyatini inobatga olib, o‘quvchilar va bemorlarning psixologik barqarorligini yanada mustahkamlaydi. Kasbiy mahorat va mas’uliyatni oshirishda tibbiyot xodimlarini sog‘lomlashtirish bilan birga ta’lim jarayonini yuqori sifatli bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi, bu esa bemorlarga ko‘rsatiladigan xizmat sifatiga ijobiy ta’sir qiladi. Tibbiyot pedagogikasi interaktiv va innovatsion metodlarni qo‘llash ta’lim jarayonida innovatsion usullar, o‘quv texnologiyalari orqali samaradorlikning oshirilib borishi, bu esa salomatlik targ‘iboti va inson salomatligini saqlashdagi bilimlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Natijada, tibbiy pedagogika ta’lim jarayonini sog‘liqni saqlash va rag‘batlantirishga yo‘naltirib, insonlarning umumiy hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

NATIJALAR (RESULTS/РЕЗУЛЬТАТЫ)

Jahon miqyosida tibbiyot pedagogikasi ilg‘or usullar va yondashuvlar asosida tashkil etiladi, bu esa talabalarning yuqori malakali mutaxassislar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bunda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limdan foydalanilib, ko‘plab mamlakatlarda tibbiyotni o‘qitishda nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko‘nikmalarga ham alohida e’tibor qaratiladi. Klinik va laboratoriya sharoitlari, simulyatsion markazlar orqali talabalar real kasbiy vaziyatlarni o‘rganib borishadi. Talabalar haqiqiy kasallik holatlari asosida guruhlarda faoliyat yuritib muammolarni aniqlab, mustaqil izlanish va tahlil qilishga yo‘naltiriladi. Jahonda tibbiyot pedagogikasi ko‘p tomonlama, amaliyotga qaratilgan innovatsiya va uzluksiz ta’lim tamoyillariga asoslanadi. Bunday usullar bilan yuqori malakali tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash ta’minlanadi [6].

Tibbiyot pedagogikasini o‘qitishda ilg‘or jahon tajribalarining asosiy jihatlariga AQSHva Buyuk Britaniyadagi simulyatsion ta’limni misol keltirish mumkin. Bunda ta’lim oluvchilarga yuqori darajadagi simulyatorlar yordamida amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz muhitda takomillashtirish hamda tibbiyotga oid holatlar va jarayonlarni realistik tarzda mashq qilish imkonini beradigan mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali takomillashtirilib

boriladi [3].

Finlyandiya, Kanada esa tibbiyot pedagogikasini o‘qitishda interaktiv o‘quv platformalaridan foydalanish asosiy o‘rinni egallaydi. Aralash (onlayn va offlayn) ta’lim dasturlari orqali ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyati rivojlantirilib, o‘ziga xos test sinovlari va baholash tizimi shakllantiriladi va tinglovchilar bilimi baholab boriladi.

Tibbiyot pedagogikasini o‘qitishda Niderlandiya, Avstraliyada muammoli o‘qitish tizimidan foydalaniladi. Bunda kasbiy vaziyatlar tahlil qilinib, bilim va ko‘nikmalarni mustaqil rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Germaniya, Yaponiyada esa tibbiyot pedagogikasini o‘qitishda multidisiplinar yondashuvdan foydalaniladi. Bunda tibbiyot pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari kabi fan tarmoqlarini integratsiyalash orqali amalga oshirilib ta’lim jarayoni boyitib boriladi [4].

MUHOKAMA/ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION

Tibbiyot pedagogikasi inson salomatligini targ‘ib qilish va saqlash orqali ta’lim jarayonini yaxshilaydi. Tibbiyot pedagogikasi sog‘liqni saqlash va ta’limni integratsiyalash orqali inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan fan bo‘lib, ta’lim jarayoniga sog‘lom turmush tarzini singdirish, ta’limda sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faoliyat, zararli odatlardan saqlanish kabi sog‘lom hayot tamoyillarini targ‘ib qilish, o‘quvchilar va bemorlarning umumiy salomatligini yaxshilashga yordam beradigan qarorlar qabul qilishni targ‘ib qiladi.

Tibbiyot pedagogikasi – bu tibbiy bilimlarning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda, ta’lim oluvchilarga inson sog‘ligi bilan bog‘liq fiziologik va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Tibbiyot pedagogikasining asosiy jihatlari inson salomatligi, fiziologik holati, emotsional holati, ta’lim oluvchilarning esa inson salomatligini ta’minlashda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga o‘rgatishdan iborat. Tibbiy pedagogikasi ta’lim jarayonida nafaqat tibbiy bilimlarni berish, balki bu bilimlarni inson salomatligiga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda o‘rgatishga qaratilgan ilmiy yo‘nalishdir.

XULOSA (CONCLUSION/ЗАКЛЮЧЕНИЕ)

Tibbiyot pedagogikasini o‘qitishda ilg‘or jahon tajribalarining tashkiliy jihatlari ta’lim dasturlarini doimiy yangilash va xalqaro standartlarga moslashtirish, akademik tajriba almashish va amaliyotchi mutaxassislar hamkorligini kuchaytirish, o‘quv jarayonida uzluksiz malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarni sog‘lomlashtirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etishdan iborat [5].

Umuman olganda tibbiyot pedagogikasini rivojlantirishda jahonning ilg‘or tajribalari amaliyotga tatbiq etilishi ta’lim sifatini oshirish hamda tibbiyot xodimlarining malakasini yuqori darajaga olib chiqishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar va multiditsiplinar yondashuv tibbiyot ta’limining samaradorligini oshirishda asosiy omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Буранова Д.Д. Новое звено в медицинском образовании: становление, инновации и перспективы. Журнал “Замонавий таълим / Современное образование” №8, 2015. Т.: 8-15 стр.
2. Романцов М.Г., Мельникова И.Ю. Инновации в медицинском образовании посредством внедрения педагогических технологий // Успехи современного естествознания. – 2015. – № 2. М.: – С. 189-194.
3. Павлов А.В., Иванова И.В., Жбанников П.С. Опыт использования симуляционных образовательных технологий при изучении вопросов бережливого производства в медицине: «Фабрика процессов ПОLEANКЛИНИКА» // Дополнительное профессиональное образование в стране и мире. 2018. №1 (37). С. 10–13.
4. Модульный принцип – основа современного образования врачей: Методические рекомендации / Под ред. акад. РАМН И.Н.Денисова. Москва: 2005. С. 29.
5. Ветшева И.Н., Трофименко И.А., Морозов С.П., Низовцова Л.А., Ким С.Ю., Фисенко Е.П. Повышение качества медицинской помощи за счёт усовершенствования системы непрерывного медицинского образования // Журнал “Медицинское образование и профессиональное развитие”. №2-3. 2017. М.: С. 60–65.
6. Жбанников П.С., Горохов В.И. Современные подходы к непрерывному профессиональному образованию специалистов в медицинском ВУЗе. Журнал “Высшее образование в России”. № 8-9, 2019. М.: 149-156.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 316.7. 303.3.173

IBN SINONING “ISHQ RISOLASI” VA UNING FALSAFIY TAHLILI

Raupova Ra’no Soyibovna, Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

IBN SINO'S “TREATISE ON LOVE” AND ITS PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Raupova Rano Soyibovna, Researcher at Bukhara State University

“ТРАКТАТ О ЛЮБВИ” ИБН СИНО И ЕГО ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Раупова Рано Сойибовна, научный исследователь Бухарского государственного университета



e-mail: ranoraupova563@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola Ibn Sinoning “Ishq risolasi” asarida bayon etilgan ishq tushunchasining falsafiy mazmunini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada ishq Ibn Sino ta’limotida faqat hissiy holat emas, balki borliqning harakatini ta’minlovchi ontologik kuch sifatida talqin etilishi yoritilgan. Shuningdek, ishqning moddiy, hayvoniy, ruhiy va ilohiy darajalari, ularning kamolot tushunchasi bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilingan. Ishda Ibn Sinoning yunon falsafasi (Platon va Aristotel) hamda islom falsafasi an’analari asosida ishlab chiqqan ishq konsepsiyasi ochib berilib, uning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ishq, ma’shuq, motivatsion kuch, ruhiy mukammallik, moddiy ishq, hayvoniy ishq, ruhiy ishq, ilohiy ishq.*

Annotation: *This article is devoted to the analysis of the philosophical content of the concept of love described in Ibn Sino’s “Treatise on Love”. The article highlights the interpretation of love in Ibn Sino’s teachings not only as an emotional state, but also as an ontological force that ensures the movement of being. The material, animal, spiritual and divine levels of love, their inextricable connection with the concept of perfection are also analyzed. The work reveals the concept of love developed by Ibn Sino on the basis of the traditions of Greek philosophy (Plato and Aristotle) and Islamic philosophy, and justifies its role in human spiritual perfection.*

Keywords: *Love, lover, motivational power, spiritual perfection, material love, animal love, spiritual love, divine love.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу философского содержания концепции любви, описанной в “Трактате о любви” Ибн Сино. В статье освещается интерпретация любви в учении Ибн Сино не только как эмоционального состояния, но и как онтологической силы, обеспечивающей движение бытия. Также анализируются материальный, животный, духовный и божественный уровни любви, их неразрывная связь с понятием совершенства. Работа раскрывает концепцию любви, разработанную Ибн Сино на основе традиций греческой философии (Платон и Аристотель) и исламской философии, и обосновывает её роль в духовном совершенстве человека.*

Ключевые слова: *Любовь, возлюбленный, мотивационная сила, духовное совершенство, материальная любовь, любовь к животным, духовная любовь, божественная любовь.*

Kirish (Introduction). Sharq falsafasi tarixida Abu Ali ibn Sino (980–1037) nafaqat tibbiyot va mantiq sohalarida, balki metafizika, ontologiya va axloq falsafasida ham chuqur iz qoldirgan mutafakkir hisoblanadi. Uning “Ishq risolasi” asari ishq masalasiga bag‘ishlangan maxsus falsafiy risola bo‘lib, unda ishq tushunchasi keng va tizimli tarzda yoritiladi.

Mazkur asarda Ibn Sino ishqni oddiy insoniy tuyg‘u sifatida emas, balki mavjudotlarni kamolot sari yetaklovchi ichki motivatsion kuch sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, borliqdagi har bir mavjudot o‘z tabiatiga mos mukammallikka intiladi va ana shu intilish ishq deb ataladi. Shu sababli ishq faqat inson ruhiga xos hodisa emas, balki butun koinotni qamrab oluvchi umumiy qonun sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ibn Sinoning “Ishq risolasi” ni falsafiy tahlil qilishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). “Ishq risolasi” — bu Ibn Sino tomonidan yozilgan maxsus risola bo‘lib, unda “ishq” (ma’shuqqa bo‘lgan muhabbat) falsafiy, ontologik va psixologik jihatdan tushuntiriladi. Ibn Sino bu asarda sevgi mohiyatini Yunon falsafasi (Platon, Aristotel) va islom falsafasining nazariy tasavvurlariga asoslanib tahlil qiladi[1]. Ibn Sinoning “Ishq risolasi” uning falsafiy merosida alohida o‘rin tutuvchi asar bo‘lib, unda ishq tushunchasi hissiy holat sifatida emas, balki borliqning harakatini ta’minlovchi universal tamoyil sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir ishqni ontologiya, psixologiya va axloq falsafasi doirasida izohlaydi va uni mavjudotlarning kamolot sari intilishida asosiy sabab deb biladi.

Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, har bir mavjudot o‘z tabiatiga mos mukammallikka intiladi, va aynan shu intilish ishq deb ataladi. Demak, ishq faqat insoniy muhabbat emas, balki butun borliqni qamrab oluvchi kosmik hodisadir. Masalan, o‘simlikning quyosh nuri tomon o‘sishi — uning tabiiy kamolotga intilishi bo‘lib, Ibn Sino buni ishqning eng sodda shakli sifatida tushuntiradi. Suvning pastlikka qarab oqishi ham tasodifiy emas, balki o‘z tabiiy mukammalligiga yetishish istagi bilan bog‘liq. Bu yondashuv Aristotelning “harakat sababga muhtoj” degan g‘oyasi bilan uyg‘un bo‘lib, Ibn Sino ushbu sababni ishq orqali izohlaydi. “Ishq risolasi”da Platon va Aristotel falsafasining ta’siri yaqqol seziladi. Platonda ishq — go‘zallik orqali mutlaq haqiqatga yetishish yo‘li. Ibn Sino bu fikrni qabul qilgan holda, ishqni ruhni moddiy dunyodan ilohiy haqiqat sari olib boruvchi kuch deb baholaydi. Aristotelda har bir narsa o‘z “maqsad sababi”ga ega. Ibn Sino esa ishqni ana shu maqsadga yetkazuvchi ichki quvvat sifatida talqin qiladi. Masalan, inson go‘zal axloq, ilm yoki hikmatni sevsa, u tashqi manfaat uchun emas, balki ruhiy mukammallik uchun intiladi. Bu esa Platonning “go‘zallikdan haqiqatga ko‘tarilish” g‘oyasiga mos keladi.

Ibn Sino ishqni inson ruhiy tuzilishi bilan chambarchas bog‘laydi. Uning fikricha, inson ruhida shahvoniy quvvat, g‘azabiy quvvat, aqliy quvvat mavjud. Aqliy quvvat ustun bo‘lganda, ishq nafsiy istakdan chiqib, ma’rifiy va axloqiy sevgiga aylanadi. Masalan, boylikka haddan tashqari bog‘lanish — quyi darajadagi ishq. Ilmga, haqiqatga muhabbat — oliy darajadagi ishq bo‘lib, insonni ma’naviy yuksaltiradi. “Ishq risolasi”da islom falsafasining asosiy g‘oyasi — Alloh mutlaq kamolot egasi degan tushuncha markaziy o‘rin tutadi. Ibn Sinoning fikricha, barcha ishqlar oxir-oqibat ilohiy ishqqa borib taqaladi, chunki barcha mukammalliklar manbai Yaratgandir. Inson avval tashqi go‘zallikni sevadi, keyin axloqni, ilmni va nihoyat, bu fazilatlarning manbai bo‘lgan ilohiy haqiqatni anglay boshlaydi. “Ishq risolasi”ning ahamiyati shundaki, u ishqni faqat hissiyot sifatida emas, borliqni harakatga keltiruvchi sabab sifatida tushuntiradi, aql va muhabbatni bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida ko‘rsatadi.

Ibn Sinoning fikricha, ishq — mavjudotlarni mavjud qiluvchi motivatsion kuchdir. Undagi maqsad — mavjudotlarni yuqori kamolotga (masalan, aqliy, ruhiy mukammallikka) yetaklash. Ishq hayvoniy, ruhiy va ilohiy darajalarga bo‘linadi. Eng oliy daraja bu — Allohga bo‘lgan ishqdir[2]. Ibn Sino ta’limotiga ko‘ra, ishq borliqning ichki harakatlantiruvchi quvvati bo‘lib, u tasodifiy hissiyot emas, balki mavjudotlarning mavjud bo‘lishi va rivojlanishining zaruriy sababidir. Har bir

[1] Emil L. Fackenheim. A Treatise on Love by Ibn Sina. https://traditionalhikma.com/wp-content/uploads/2015/02/A-Treatise-on-Love-by-Ibn-Sina-Translated-by-Emil-L.-Fackenheim.pdf

[2] Sina Mashayekhi, Mohammadjavad Esmaeili. Philosophical Analysis of the Flow of Love in Designer Identities in Ibn Sina's Risālah fī al-'ishq (Treatise on Love). February 2023. https://orj.sru.ac.ir/article_1735.html

mavjudot o‘z tabiatida yetishishi lozim bo‘lgan mukammallikka intiladi va aynan shu intilish ishq sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ishq faqat inson qalbiga xos hodisa emas, balki butun kosmik tartibning asosiy tamoyilidir. Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, mavjudotning qiymati uning kamolot darajasi bilan belgilanadi. Kamolot esa — mavjudotning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishidir. Ishq ana shu ro‘yobga chiqarish jarayonini harakatga keltiradi. Masalan, inson ilmga oshno bo‘lsa, bu shunchaki qiziqish emas, balki aqlning mukammallikka intilishidir. San’atkor go‘zallikni yaratishga intilsa, u o‘z ruhiy imkoniyatlarini yuksaltirishga harakat qilmoqda. Demak, ishq — kamolotga yo‘naltirilgan ichki ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi.

Ibn Sino ishqni darajalarga ajratib tahlil qiladi. Bu tasnif mavjudotlar o‘rtasidagi farqni va ularning kamolot yo‘nalishini tushuntirishga xizmat qiladi. Hayvoniy ishq his-tuyg‘u va instinktga asoslangan muhabbat bo‘lib, unda jismoniy ehtiyojlar ustun turadi. Hayvoniy ishqda maqsad — tirik qolish, lazzat olish va tabiiy ehtiyojlarni qondirishdir. Masalan, oziq-ovqatga bo‘lgan kuchli mayl va nasl qoldirish instinkti. Bu darajadagi ishq vaqtinchalik bo‘lib, ruhiy yuksalishni kafolatlamaydi. Ruhiy ishq ongli va ma’naviy shaklga ega bo‘ladi. Inson nafaqat jismoniy ehtiyojlarni, balki axloq, ilm, fazilat va haqiqatni sevadi. Masalan, ustozga hurmat va ilmga muhabbat, adolat, rostgo‘ylik, ezgulikni sevish. Bu ishq insonni hayvoniy darajadan yuqoriga ko‘taradi va ruhiy kamolot sari yetaklaydi. Ibn Sino ta’limotida eng oliy ishq — Allohga bo‘lgan ishqdir. Bu darajada ishq endi shaxsiy manfaat yoki hissiy ehtiyojga bog‘liq bo‘lmaydi, balki mutlaq mukammallik manbaiga intilishga aylanadi.

Ilohiy ishqda Alloh — mutlaq go‘zallik, mutlaq ilm va mutlaq kamolot sifatida anglanadi. Masalan, inson ilmni sevadi, ilm orqali haqiqatni anglaydi, haqiqat manbai Alloh ekanini idrok etadi va natijada ishq ilohiy darajaga ko‘tariladi. Ibn Sinoning fikricha, barcha ishqlar aslida ilohiy ishqqa borib taqaladi. Chunki har qanday go‘zallik, bilim va mukammallik o‘z manbasini Allohdan oladi. Shu bois mavjudotlarning harakati — Alloh sari bo‘lgan intilishdir. Shunday qilib, ishq nafaqat insoniy tuyg‘u, balki ontologik qonun sifatida namoyon bo‘ladi.

Uning tahlilida ishq butun mavjudotlar uchun birlashtiruvchi ontologik kuch va hozirgi haqiqiy hayot uchun rad etib bo‘lmas motivatsiya sifatida tasvirlanadi[3]. Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, mavjudotlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik va ularning harakatdagi uyg‘unligi aynan ishq orqali ta’minlanadi. Har bir mavjudot o‘z tabiatiga mos mukammallikka intiladi va bu intilish borliqning barcha qatlamlarida yagona qonun sifatida amal qiladi.

Shu ma’noda ishq borliqni parchalangan holatda emas, yaxlit tizim sifatida tushuntiradi, turli darajadagi mavjudotlar o‘rtasida ichki bog‘lanishni yuzaga keltiradi, koinotdagi harakatni tasodif emas, balki maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida izohlaydi. Ibn Sinoning fikricha, borliqdagi har bir narsa o‘z-o‘zicha emas, balki yuqoriroq mukammallikka qarab yo‘nalgan holatda mavjud. Ishq ana shu yo‘nalishning ichki sababidir. Moddiy jismlar tabiiy holatiga, tirik mavjudotlar hayotiy barqarorlikka, inson esa aql va ruhiy mukammallikka intiladi. Bu yondashuvda ishq harakatning ichki sababi, mavjudlikni saqlab qoluvchi kuch, kamolot sari yetaklovchi tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Ibn Sino tahlilida ishq faqat metafizik tushuncha bo‘lib qolmay, balki real hayotdagi faoliyatning asosiy motivatsiyasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Insonning bilishga, yaratishga, axloqiy kamolotga intilishi aynan ishq bilan bog‘liq. Masalan, inson ilmga intilsa, bu tashqi majburiyat emas, balki haqiqatga bo‘lgan ichki ehtiyojdir, adolat va ezgulik yo‘lida harakat qilish — jamiyat talabi emas, balki ruhiy mukammallikka intilishning natijasidir, san’at va ijod orqali go‘zallik yaratish — inson ruhining o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish istagidir. Bu holatlar ishqni rad etib bo‘lmas hayotiy kuch sifatida ko‘rsatadi. Ibn Sino nazarida ishqsiz hayot ma’nosiz bo‘lib qoladi. Chunki ishq bo‘lmasa

[3] **Dani Ramdani**. The Concept of Love in Ibn Sina's Philosophical Mysticism: A Synthesis of Rationality and Sufism. July 2024. Jaqfi Jurnal Aqidah dan Filsafat Islam 9(1):77-92. https://www.researchgate.net/publication/382222694_The_Concept_of_Love_in_Ibn_Sina's_Philosophical_Mysticism_A_Synthesis_of_Rationality_and_Sufism

harakat yo‘qoladi, intilish so‘nadi, kamolot jarayoni to‘xtaydi. Ishq esa inson hayotiga yo‘nalish, maqsad, ma’naviy mazmun bag‘ishlaydi. Shu sababli ishq nafaqat borliqni birlashtiruvchi ontologik kuch, balki insonning real hayotini mazmun bilan to‘ldiruvchi asosiy motivatsiya hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Muxtasar qilib aytganda, Ibn Sinoning “Ishq risolasi” asari ishq tushunchasini falsafa tarixida yangi darajaga ko‘targan muhim manba hisoblanadi. Mutafakkir ishqni borliqning harakatlantiruvchi va birlashtiruvchi ontologik kuchi sifatida talqin qilib, mavjudotlarning kamolot sari intilishini uning asosiy mazmuni deb biladi. Ishqning moddiy, hayvoniy, ruhiy va ilohiy darajalarga ajratilishi esa inson va borliq rivojini quyi bosqichdan oliy mukammallikka tomon yo‘naltirilgan uzluksiz jarayon sifatida tushuntirish imkonini beradi. Ibn Sino ta’limotida eng oliy ishq — Allohga bo‘lgan ishq bo‘lib, u barcha boshqa ishq turlarining yakuniy manbai va maqsadi hisoblanadi. Shu orqali mutafakkir inson hayotining ma’nosi va ma’naviy kamolotini ilohiy haqiqat bilan bog‘laydi. “Ishq risolasi” nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kunda ham ishq, ma’no va kamolot masalalarini falsafiy jihatdan anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Emil L. Fackenheim. A Treatise on Love by Ibn Sina. https://traditionalhikma.com/wp-content/uploads/2015/02/A-Treatise-on-Love-by-Ibn-Sina-Translated-by-Emil-L.-Fackenheim.pdf
2. Sina Mashayekhi, Mohammadjavad Esmaeili. Philosophical Analysis of the Flow of Love in Designer Identities in Ibn Sina’s Risālah fī al-’ishq (Treatise on Love). February 2023. https://orj.sru.ac.ir/article_1735.html
3. Dani Ramdani. The Concept of Love in Ibn Sina’s Philosophical Mysticism: A Synthesis of Rationality and Sufism. July 2024. Jaqfi Jurnal Aqidah dan Filsafat Islam 9(1):77-92. https://www.researchgate.net/publication/382222694_The_Concept_of_Love_in_Ibn_Sina’s_Philosophical_Mysticism_A_Synthesis_of_Rationality_and_Sufism
4. Kholikov L. Features of International Relations In The Development of the New Uzbekistan //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2023. – T. 7. – №. 10.
5. Kholikov L. Theoretical foundations of nations and international relations //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 7. – №. 10.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.1):331.5:373.2

O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI XODIMLARINI IJTIMOIY TA’MINLASH MASALALARI (1946-1970-yillar)

Tishabayeva Iroda Rasulovna, Farg‘ona davlat texnika universiteti “Ijtimoiy fanlar va sport” kafedrasi dotsenti

ISSUES OF SOCIAL SECURITY OF PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM EMPLOYEES IN UZBEKISTAN (1946–1970)

Tishabayeva Iroda Rasulovna, Associate Professor of the Department of “Social Sciences and Sports” of Fergana State Technical University

ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАБОТНИКОВ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (1946–1970 ГОДЫ)

Тишабаева Ирода Расуловна, доцент кафедры “Социальные науки и спорт” Ферганского государственного технического университета



https://orcid.org/0009-0001-3081-8917
e-mail: tishabayevairodahon@gmail.com.

Annotatsiya: *Ushbu maqola 1946–1970-yillar davomida O‘zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalarida faoliyat ko‘rsatgan pedagog va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tahlil qiladi. Maqolada, pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni, ularning ish haqi, ijtimoiy kafolatlar, moddiy ta’minot va mehnat sharoitlari tahlil etiladi. Shuningdek, arxiv hujjatlari, rasmiy qarorlar va statistik ma’lumotlarga asoslanib, o‘sha davrdagi maktabgacha ta’lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha tarbiya, pedagog kadrlar, mehnat sharoitlari, moddiy ta’minot, ish haqi, davlat siyosati, tizim, bog‘cha, lavozim.*

Abstract: *This article analyzes the socio-economic conditions of pedagogical and support staff working in preschool institutions of the Uzbekistan during the period 1946–1970. The study examines the process of training pedagogical personnel, their wages, social guarantees, material provision, and working conditions. Based on archival documents, official resolutions, and statistical data, the article reveals the socio-economic foundations of the preschool education system of that period, contributing to a deeper understanding of its historical development.*

Keywords: *preschool education, pedagogical staff, working conditions, material provision, wages, state policy, system, kindergarten, position.*

Аннотация: *В данной статье анализируется социально-экономическое положение педагогических и обслуживающих работников дошкольных учреждений Узбекистане в 1946–1970-е годы. В статье рассматриваются процессы подготовки педагогических кадров, уровень их заработной платы, система социальных гарантий, материальное обеспечение и условия труда. Также на основе архивных документов, официальных постановлений и статистических данных раскрываются социально-экономические основы функционирования системы дошкольного воспитания в указанный период, что позволяет глубже осмыслить особенности ее развития.*

Ключевые слова: *дошкольное воспитание, педагогические кадры, условия труда, материальное обеспечение, заработная плата, государственная политика, система, детский сад, должность.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida bolalarning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishi, maktabgacha ta’lim muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar va ushbu sohada faoliyat olib borayotgan xodimlarning mehnatini munosib rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida maktabgacha ta’lim tizimi jamiyatning kelajagini belgilovchi muhim bo‘g‘in ekanini ta’kidlab, bu sohada faoliyat yuritayotgan pedagog va xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish zarurligini qayd etgan[10].

Maqolada urushdan keyingi yillarda maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini ijtimoiy ta’minlash masalalari, ularning ish haqi, moddiy rag‘batlantirish, mehnat sharoitlari va ijtimoiy kafolatlari tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Ushbu tadqiqot orqali sovet davridagi davlat siyosatining mazkur soha xodimlari hayotiga ta’siri ochib berilib, bugungi islohotlar bilan qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi. Mazkur tadqiqotda tarix faniga xos bo‘lgan an’anaviy va zamonaviy ilmiy metodlar majmui qo‘llanildi. Jumladan, tarixiylik va xronologik metodlar asosida 1946–1970-yillarda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini ijtimoiy ta’minlash jarayoni davrlar kesimida tahlil qilindi. Shuningdek, tizimli tahlil metodi orqali maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarining ijtimoiy ta’minoti davlat boshqaruvi, moliyalashtirish mexanizmlari va normativ-huquqiy hujjatlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini ijtimoiy ta’minlash masalalari tarixshunoslikda to‘liq va kompleks tarzda o‘rganilmagan muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu bo‘yicha mavjud tadqiqotlar asosan umumiy pedagogika tarixi, ta’lim tizimini rivojlantirish yoki qishloq va shahar ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bag‘ishlangan ishlar doirasida yoritilgan bo‘lib, maktabgacha tarbiya muassasalari pedagog va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarining ijtimoiy ta’minoti masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida kam uchraydi.

Sovet davrida yaratilgan umumiy pedagogika tarixiga oid asarlarda, jumladan M.F.Shabayeva tahriri ostida nashr etilgan “История педагогики” asarida ta’lim tizimining tashkiliy asoslari va pedagog kadrlar tayyorlash masalalari yoritilgan bo‘lsa-da, unda maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlarining ish haqi, moddiy ta’minoti va ijtimoiy kafolatlari muammolari ikkilamchi jihat sifatida ko‘rib chiqilgan[2].

Mustaqillik arafasida va undan keyingi yillarda yaratilgan ayrim ilmiy tadqiqotlarda sovet davrida O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining ayrim jihatlari yoritilgan. Jumladan, M. Xadjievaning qishloq ijtimoiy rivojiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida ijtimoiy soha xodimlarining umumiy mehnat sharoitlari va moddiy ta’minoti masalalariga to‘xtalib o‘tiladi[1]. Biroq ushbu tadqiqotda ham maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining ijtimoiy ta’minoti mustaqil va alohida tadqiqot predmeti sifatida keng tahlil qilinmagan.

Shu bilan birga, mavzuni chuqur va aniq yoritishda arxiv hujjatlari asosiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyat davlat arxivlari hamda O‘zbekiston Milliy arxivi fondlaridagi hujjatlar (buyruqlar, hisobotlar, shtat jadvallari, ish haqi ro‘yxatlari) maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini hududlar kesimida tahlil qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar va manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda 1946–1970-yillarda maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini ijtimoiy ta’minlash masalalari tarixshunoslikda yetarli darajada tizimli va kompleks o‘rganilmagan.

Natijalar. 1946–1970-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining ijtimoiy hayoti mamlakatning umumiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda kechgan. Urushdan keyingi yillarda mamlakatda xalq xo‘jaligini tiklash bilan bir qatorda ta’lim va tarbiya

tizimining barcha bo‘g‘inlarida kadrlar masalasi dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqqan.

Urushdan keyingi yillarda maktabgacha tarbiya muassasalari ishchi va pedagog xodimlariga SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1945-yil 3-iyundagi 1270-son “Bolalar bog‘chalari ishchilarining ish haqini oshirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ish haqi to‘langan. Arxiv fondlarida Farg‘ona shahridagi maktabgacha ta’lim muassasasining 1945-yil 1-yanvardagi tarifikatsiyasida ish haqlari bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud: mudira – 44,0 so‘m, vrach – 72,5 so‘m, hamshira – 31,0 so‘m, katta tarbiyachi – 27,5 so‘m, tarbiyachi – 22,5 so‘m oylik ish haqi olgan[3.2].

1946-yilda maktabgacha tarbiya muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va ularning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida muhim choralar belgilandi. Xususan, 1946-yil 23-oktabrda SSSR Moliya ministrligi va – Butunittifoq Kasaba uyushmalari Markaziy ittifoqining “Ratsion narxlarning ko‘tarilishi munosabati bilan o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari boshqa xodimlari, bolalar bog‘chalarining tarbiyachilari va tibbiyot xodimlarining ish haqlarini oshirish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasi qabul qilingan. Unga ko‘ra, bog‘cha tarbiyachisiga bir kunda 6 soatlik me’yor bo‘yicha ish haqi to‘lanishi belgilab qo‘yildi[4.24]. Shu bilan birga, umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim muassasalaridagi alohida rejimli ayrim guruhlarda bevosita ishlovchi mudirlar, tarbiyachilar, tarbiyachi-metodistlar, musiqa rahbarlari, logopedlar va boshqa pedagog xodimlarning ish haqi stavkalari (mansab okladlari) 25 foizga oshirildi[5.3]. Bu qaror pedagogik kadrlarning ijtimoiy maqomini mustahkamlash, ularning mehnatini rag‘batlantirish hamda maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan edi.

Kolxozlarda ochilgan bolalar bog‘chalarida bolalar sonidan qat’i nazar mudira bilan birgalikda 2-3 kishi faoliyat yuritgan xolos. Xususan, 1948-yilda Namangan oblasti Yangiqurg‘on rayoni Voroshilov kolxozi bolalar bog‘chasida 19 nafar tarbiyalanuvchilar bo‘lib, jami 3 nafar xodim, Telman kolxozi bog‘chasida 56 nafar tarbiyalanuvchilar qatnagan bo‘lib, ularda ham 3 nafar xodim faoliyat yuritgan. Kommuna kolxozida 40 nafar bolalarga 2 nafar xodim qaragan[6.6].

1949-yilda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni e’lon qilinib, kam va o‘rtacha maosh oluvchi yolg‘iz onalar uchun bolalar bog‘chalari to‘lovining 50 foizga qisqartirilishi maktabgacha tarbiya bilan qamrovni oshirishga xizmat qildi. 1956-yilda qabul qilingan navbatdagi hukumat qarori esa ayollarning mehnat staji va ijtimoiy himoyasini ta’minlashga qaratildi, jumladan, homiladorlik ta’tilidan keyin ular uchun qo‘shimcha ta’til berish, yangi tug‘ilgan bola bilan bir yil ichida ishga qaytgan taqdirda mehnat stajining saqlanishi kafolatlandi [2.332].

Erkaklar, ayrim hollarda, musiqa rahbari, qorovul va o‘t yoquvchi vazifalarida ishlagan. Kamdan-kam hollarda enaga vazifasida ham ishlagan. Xususan, Namangan oblasti arxivida saqlanayotgan hujjatlarda 1952-1954-yillarda Namangan shahar 20-sonli bolalar bog‘chasining ish haqi tabelida Tojiboev T. enaga vazifasida ishlab, 210 rubl maosh olganligi haqida ma’lumotlar bor[7.6].

Sovet davrida mehnat qonunchiligi rasmiy jihatdan barcha soha xodimlari uchun teng huquq va kafolatlarni nazarda tutgan bo‘lsa-da, amaliyotda ushbu normalarning buzilishi holatlari ham tez-tez uchrab turgan. Ayniqsa, ta’lim tizimida, jumladan maktabgacha tarbiya muassasalarida faoliyat yurituvchi ayol xodimlar o‘z mehnat huquqlarining poymol etilishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelganlar. Hususan, 1957-yilda Namangan oblast Xalq ta’limi bo‘shqarmasi tasarrufidagi bolalar bog‘chasi mudirasi Tillaeva o‘zining homiladorlik davrida nohaq tarzda ishdan bo‘shatilganini bildirgan hamda mehnat huquqlarining tiklanishida yordam so‘rab tegishli tashkilotlarga murojaat qilgan [8.46].

O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1958-yil 6-martdagi 138-son “Bolalar bog‘chasining tipovoy shtatlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, bog‘chalarda faoliyat olib boruvchi ishchi va pedagog xodimlar shtatlar jadvali tasdiqlangan hamda tegishli ish haqi belgilangan. Bu qarorda, 9 soat va 12 soat faoliyat olib boruvchi bog‘chalarning namunaviy shtatlari alohida ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, 9 soatli 1ta guruhi bor bog‘chalar uchun mudira, tarbiyachi, enaga va oshpaz lavozimlari berilgan[9.60].

1966-yil 29-aprelda SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Mehnat va ish haqi masalalari bo‘yicha davlat qo‘mitasi hamda Birlashgan kasaba uyushmalari markaziy kengashi (БЦСПС) Prezidiumining 260-11-14-sonli qarori qabul qilindi[5.3]. Mazkur qaror sovet ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining mehnat sharoitlarini tartibga solish va ularni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi.

1970-yilda respublikaning bir necha kolxoz bog‘chalarida tarbiyachilarning ish kuni 8-10 soatni tashkil etishi belgilangan. Dalalarda ish ko‘paygan paytlarda ular 11 soatgacha ishlashga majbur bo‘lgan, biroq ish haqi esa 8 soatlik me’yor asosida to‘langan. Maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan tarbiyachilarning oylik maoshi 80-100 so‘m o‘rniga 60 so‘mni tashkil etgan[1.148].

Xulosa. 1946–1970-yillar mobaynida O‘zbekistonda maktabgacha tarbiya tizimi xodimlarining ijtimoiy hayoti murakkab, qarama-qarshi jarayonlar bilan kechgan. Ayollar bandligining ortishi, bolalar bog‘chalarining ko‘payishi ijobiy holat bo‘lsa-da, moddiy ta’minot, mehnat sharoiti va kadrlar siyosatidagi muammolar uzoq yillar davomida tizimning asosiy zaif nuqtasi bo‘lib qolgan.

Ushbu davrda bolalar bog‘chalari va yaslilardagi shtat birliklari sobiq Ittifoq miqyosida yagona andoza asosida belgilangan bo‘lib, bu tizim O‘zbekiston SSRda ham umumittifoq me’yorlariga muvofiq tarzda joriy etilgan. Shu boisdan maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining lavozimlari, ish hajmi va mehnat taqsimoti bir xil tartibda belgilansa-da, ish haqi miqdorida sezilarli farqlar mavjud bo‘lgan.

Umuman olganda, maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining oylik maoshi xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarida mehnat qiluvchi ishchi-xodimlarning daromadidan past bo‘lib qolgan. Davlat tomonidan ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilash maqsadida ayrim yillarda uy-joy bilan ta’minlash, ijtimoiy yordam berish va moddiy rag‘batlantirish choralarini ko‘rishga urinishlar bo‘lgan, biroq bu chora-tadbirlar tizimli xarakter kasb etmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хаджиева М. Социальное развитие села Узбекистана в конце 70-х и начале 80-х годов: опыт и проблемы. Дисс. на соиск. уч. степ. докт. ист. наук. – Ташкент, 1992. – С. 148.
2. История педагогики. Под редакции М.Ф.Шабаевой. – Москва: Просвещания, 1981. – С.332.
3. Farg‘ona VDA, 604-fond, 1-ro‘yxat, 27-ish, 2-varaq.
4. Andijon VDA, 505-fond, 1-ro‘yxat, 28-ish, 24-varaq.
5. Maorif xodimlarining ish haqlariga doir savol-javoblar. /O‘qituvchilar gazetasi. 1976-yil, 5-yanvar, 3-bet.
6. Namangan VDA, 266-fond, 1-ro‘yxat, 210-ish, 8-varaq.
7. Namangan VDA, 12-fond,1-ro‘yxat, 376-ish, 6-varaq.
8. Namangan VDA, 175-fond, 1-ro‘yxat, 119-ish, 46-varaq.
9. O‘z MA, R.94-fond, 5-ro‘yxat, 7219-ish, 60-varaq.
10. https://president.uz/oz/lists/view/8471.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 82.0:17.022.1

КОМИЛ ИНСОН АХЛОКИНИНГ МУХИМ БИР МАНБАИ

[1]Ҳайитов Шавкат Аҳмадович, БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори, филология фанлари доктори (DSc)
[2]Аҳмадова Маҳбуба Шавкат қизи, Бухоро инновациялар университети ўқитувчиси



https://orcid.org/0000-0002-4290-6017
e-mail: s.a.xayitov@buxdu.uz

AN IMPORTANT SOURCE OF PERFECT HUMAN MORALS

[1]Hayitov Shavkat Akhmadovich, Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Bukhara State University, Doctor of Philology (DSc)
[2]Ahmadova Mahbuba Shavkat kizi, Teacher of Bukhara Innovation University



https://orcid.org/0009-0005-9859-6977
e-mail: maxbuba_shavkatovna@bui.uz

ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК ИДЕАЛЬНОЙ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ НРАВСТВЕННОСТИ

[1]Хаитов Шавкат Ахмадович, профессор кафедры узбекского языка и литературы Бухарского государственного университета, доктор филологических наук
[2]Ахмадова Махбуба Шавкат кызы, преподаватель Бухарского инновационного университета

Аннотация: *Алишер Навоий насрий асарларининг туб моҳиятини инсон тақдири ва комиллик ҳақиқатлари ичдан нурлантириб туради. Мақолада Алишер Навоийнинг устози ва дўсти Саййид Ҳасан Ардашернинг комил инсонга хос фазилатлари, фалсафий мушоҳадалари хусусида мулоҳаза юритилган.*

Калит сўзлар: *Алишер Навоий, Саййид Ҳасан Ардашер, мушоҳада, комил инсон, ахлоқ, тарбия, тарихий шахс.*

Abstract: *The profound essence of Alisher Navoi's prose works is illuminated from within by truths about human destiny and moral perfection. This article reflects on the virtue's characteristic of the perfect human being and the philosophical contemplations of Sayyid Hasan Ardasher, Alisher Navoi's mentor and friend.*

Keywords: *Alisher Navoi, Sayyid Hasan Ardasher, contemplation, perfect human being, ethics, education, historical figure.*

Аннотация: *Глубинную сущность прозаических произведений Алишера Навои изнутри озаряют истины о человеческой судьбе и духовном совершенстве. В статье рассматриваются качества, присущие совершенной личности, а также философские размышления Саййида Хасана Ардашера — наставника и друга Алишера Навои.*

Ключевые слова: *Алишер Навои, Саййид Хасан Ардашер, созерцание, совершенный человек, нравственность, воспитание, историческая личность.*

Кириш. Инсон табиатан қуруқ насиҳатгўйлик, ақл ўргатишни ёмон қабул қилади. Буюк мутафаккирлар ҳаётий тажрибасининг натижаси ўлароқ фавқулодда туғилган ибратомуз фикрлар, фалсафий мушоҳадалар эса инсон қалбини жазб этади. Кўнгилда гўзал ҳис-туйғулар, янги тасаввурлар уйғотади. Фавқулодда янгилиги, чуқур маъно-моҳияти, ўта ҳаётийлиги боис инсон ахлоқидаги ижобий хислатлар такомилига хизмат қилади. Комил инсоннинг қалб ёғдуси билан нурлантирилган бундай қуйма мулоҳазалар ҳеч қачон эскирмайди. Алишер Навоий "Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер"да дарвеш Саййид Ҳасан

Ардашернинг тафаккур хазинасидан худди шундай учта ҳикматли лавҳа келтирган.

Ашё билан ашё, буюм билан буюм орасидаги фарқ хусусида баҳс юритилар экан, фазл аҳлидан бир киши қиёс учун тош қозон ва лаълни танлайди. У иккаласи ҳам тош, аммо солиштириб қаралса, тош қозоннинг баҳоси паст, шоҳлар тожини безовчи лаълнинг қиймати эса ундан бир неча ҳисса баланд, деган мазмунда қатъий ҳукм чиқариб, ўз фикрининг тасдиғи учун қуйидаги машҳур байтни ўқийди:

Лаъл санг асту деги сангин аст,
Лек андар миён тафовут ҳост [4,100].

Саййид Ҳасан Ардашер байтнинг ғоявий-бадиий мундарижасидан мутлақо бошқа маъно келтириб чиқаради: «...тош қозон ва лаъл – иккаласи тошдур ва лекин ораларида тафовут бор. Тош қозондин ғайри нафъ ҳеч нима мутасаввар эрмаским, лазиз ва мулавван атъима анда пишарким, хосу ом андин мунтафеъ бўлурлар ва лаълдин халойиққа анвои зарар мутасаввардур» [4,100].

Инсоннинг кун кечириш тарзи, кундалик ҳаёти учун тош қозон ҳар куни керак. Лаълга эса жамиятнинг оддий ҳаёт шарт-шароитида ҳеч қандай зарурат йўқ. Заҳматкаш халқ учун сариқ чақа янглиғ қадру қийматсиз бу ашё бойликка ҳирс қўйган мулку жоҳ аҳли орасида низо, душманлик муносабатларини келтириб чиқаради. Неча одамни беажал ўлдириб, уларнинг қонига қўлини ювади. Тинч, осуда турмуш экинзорига хусумат тухумини сочади. Ундан хиёнат дарахти кўкариб, пасткашлик ҳосили унади. Бу қабоҳат ортида бегуноҳ халқ оғир кулфатлар тортади. Шу суҳбат кечаётган вақтда, деб ёзади Алишер Навоий, - «Султон Абусаид мирзо ҳар кишида жавоҳир бўлса олиб, бўлмаса тафаҳҳусида муболағалар қилиб, элга анвои изо ва зарар етказиб эрди. Ва бу байтни ўқуғон мажлисда ҳам тош қозонда ош пишадур эрди» [4,101]. Мазкур далил Саййид Ҳасаннинг ҳаёт сабоқларидан чуқур фалсафий хулосалар чиқаришга қодир, дунёқараши кенг аллома инсон эканлигини кўрсатади.

Адабиётлар таҳлили. «Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер»дан ўқиймиз: «Алар дер эрдиларким, дунё жоҳининг мастлиғи чоғир мастлиғиға ўхшамаским, чоғир мастлиғи ичган кунидур, аммо жоҳ мастлиғи агар соҳиби жоҳ йиллар жоҳ устидадурким, мастдур, анинг махмурлиғи жоҳдин маъзул бўлғонидадур. Не мускир хамрдурким, сармастлиғи одамийни йиллар ўзидин бехабар қилғай»[4,100].

Саййид Ҳасан Ардашер ва Алишер Навоий эътиқодига кўра фоний дунёда олий хилқат – инсоннинг умри маърифат хирмонини бунёд этишга сарфланиши зарур. Муродга эришмоқ йўлида ҳар нафас, ҳар бир лаҳза ғанимат. Академик шоиримиз ўринли эътироф этганидек: «Бир дамнинг баҳосин ўлчамоқ учун олтиндан тарози, кумушдан тош оз» (Ғафур Ғулом). Шундай экан, инсон ҳаётининг ҳар они ана шу ҳикматга лойиқ кечиши даркор. Май мастлиги кишини ақлу ҳушдан жудо қилади. Маст ўзлиги қадрини билмай қолиб, бебаҳо умрини елга совуради. Аммо Саййид Ҳасаннинг фикрича, маст кишининг ғофиллиги фақат ичган кунидир. Амал – мансаб мастлиги эса ўша банданинг ўз вазифасидан озод қилингунига қадар давом этади. У неча йил мансаб курсисида турса, шунча муддат мартаба шону шавкати, зебу зийнатига маҳлиё бўлиб, ўзидан бехабар қолади. Ададсиз кунларни, ойларни, йилларни масту бехудлик билан ўтказади[1].

Мансаб туфайли эришилган ҳурмату обрўдан ўзини йўқотмаслик, ғурур ва фахрга берилмаслик, амалга кўнгил қўймаслик, ҳар қандай шону шавкатни ҳам совуққонлик билан қабул қилиш комил инсонларга хос фазилатдир. Алишер Навоийнинг буюк салафи Юсуф Хос Ҳожиб таъбири билан айтганда, дарвеш – оламни олса ҳам керилмайди. У жаҳон мулкига эришиб, минг орзуга етса ҳам гўё ер, она заминнинг бутун хокисорлиги жисму-жонига кириб яширинганидай вужуд шахсини оламнинг оёқлари остида тупроққа қориб, руҳоний ҳаётда яшашда давом этади[2].

Хожа Аҳрор Валий айтар эканлар: «Менинг сизларга дунёни ман этишим, дунёни Сизлардан дариғ тутиш маъносида эмас, балки Сизларни дунёдан асрамоқ маъносидадир. Чунки Одам шунчалик улуғворлиги билан ўз вақтини арзимас нарсалар учун зоеъ қилмоғига ҳайфим келади»[1,76]. Одам Ато фарзандларини покланиш манзилига етказиш, уларни ўз аслига, ўз нуфузига лойиқ мукаммал ҳолда кўриш асрлар давомида Ҳақ дўстларининг қалби тубида балқиган армонли орзу бўлиб келди.

Бандаларнинг дилини Худога улаш, инсон юрагида Аллоҳ муҳаббатини оловлантиришдан кузатилган бош мақсад ҳам ана шу эзгу ният йўлида хизмат қилишдир. Зеро, ишқ одамни моҳиятни англаш сари олиб боради [3]. Алишер Навоий таъкидича, Ҳақ ишқида ўртаниб моҳиятга етган, кўнгил кўзи ёруғ Ҳак ошиқларининг нафаси шундай бир оловки, у тошни ҳам эритади. Темир

юракларни юмшатиб, қуруқ кўзларни йиғлатади. Ҳақ ишқи оташида бағри куйганларнинг нафаси шундай бир елки, у кибру ҳаво хашагини супуради, ғазаб тупроғини куйдириб кул қилади.

Тадқиқот муҳокамаси. Маноқибли жумлалар таҳлилидан аён бўладики, Саййид Ҳасан Ардашерга ҳамида ахлоқ, юксак хулқ-атвор Аллоҳнинг иноятн билан етишган. Шундай бўлсада, бу ноёб инсон табаррук мозорларга бориб, азиз дарвешлар, сўфийлар мажлисига етиб «ўз махласи учун» фотиҳа илтижо қилган. Ёши олтмишдан ўтган бир маҳалда чилла ўтириб, ўз жисмини минг бир машаққатга солиб муршид раҳбарлигида яна йиллар такмилга машғул бўлган[4]. Инсоний комилликнинг ғоят юксак мақомларини забт этган, ёши етмишдан ошган Саййид Ҳасан йигитлик қуввати жисмидан кетиб, қарилик мадорсизлиги унга юзланган бир вазиятда ҳам руҳоний-маънавий камолот йўлидаги изланишларда давом этган: «Самарқандга Ҳазрати Хожа Носируддин Убайдуллоҳ шарафи суҳбатлариғаким, замон аҳлининг кўпи, хусусан Самарқанд аҳли Хожани «Қутб»ға нисбат берурлар эрди, мушарраф бўлурға азимат қилдилар. Хожа била неча кун суҳбатлар тутуб, таъзим ва ташрифлар топиб, яна Ҳирот шаҳриға азимат қилдилар. Ва тарих секкиз юз тўқсон тўртда – етмиш уч ёшларида оламдин ўттилар»[4,101].

Улуғ Навоий мазкур манокибдан ташқари Саййид Ҳасан Ардашер хотирасига бағишлаб ҳар банди саккиз байтли, етти банддан иборат марсия ёзган. «Мажолисун-нафоис», «Насойимул-муҳаббат»да, «Фавойидул-кибар» девони таркибига кирган «Соқийнома»да Саййид Ҳасан руҳи олдида таъзим бажо этган[5].

Саййид Ҳасан Ардашер вафот этган пайтда подшоҳ ҳукми билан хизмат сафарида бўлган Алишер Навоий қаттиқ хижолат тортади. Буни фалакдан ўзига етган зулм, деб қабул қилади. Марсияда «Кошки эди, бошинг узра ғамхўр бўлиб туриб, шарбатингни жоним ширасига эзиб ичирсам; оғзингга таом тутсам, мулойим сўзларим билан дардингга малҳам қўйсам; гоҳ бошинг остидаги ёстиғингни тузатиб, гоҳ оёғингни ёпиб, атрофингда парвона каби айланиб фарзандлик шартини бажарсам эди», - дея қаттиқ ўкинади. Ўзига ота мақомидаги азиз инсоннинг вафоти куни Ҳиротда бўлмаганлиги; “навҳалар тортиб” йиғламагани; тобутни кифтига кўтариб қабристонга боролмаганлиги ҳамда дунёнинг барча ишларидан этак силкиб, дўсти ва устози қабри устида сокин туролмаганлигидан афсус-надомат чекади[6]. Сафардан қайтган улуғ инсонпарвар адиб Ҳирот шаҳрининг шимолий ҳудудида жойлашган, «Жўйи нав» суви ичидан оқиб ўтадиган хуш ҳаво, хуш табиат манзилда ҳазира тайёрлатиб, Саййид Ҳасан Ардашер хокини ўша ерга қўйдиради. Тириклигида дарвешга яқин ҳамсуҳбат бўлган бошқа азиз инсонларнинг хоки поклари ҳам «пароканда ерлардан» йиғиштирилиб Саййид Ҳасан Ардашер хобгоҳининг атрофига дафн қилинади. Ва эл тилида мазкур мозористон «Азизлар ҳазираси» номи билан машҳур бўлади.

Хулоса. Назаримизда, дўсту ёрларнинг мунаввар руҳини бу даражада ардоқлаш юраги меҳру шафқат маъданига айланган, ҳаёт ва унинг гули инсонни сидқидилдан севувчи Ҳақнинг Алишер Навоий янглиғ хос бандаларигагина дахлдор фазилатдир.

Алишер Навоий «Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер»да аниқ тарихий шахс мисолида комил инсон образини яратган. Улуғ мутафаккир мазкур манокибда баркамол инсон ахлоқидаги сифат-фазилатларнинг фалсафий моҳиятини, ҳар бир хулқ кўринишининг хос хусусиятини ўта нозик асослаган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – 94 б.
2. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. –272 б.
3. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат ҳамда Ўзбекистон нашриётлари, 1999. – 204 б.
4. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 15-жилд. –Тошкент: Фан, 1999. – 236 б.
5. Салоҳий Д. Тасаввуф ва бадиий ижод. – Тошкент: Наврўз, 2018. – 184 б.
6. Ҳайитов Ш. Жавонмардлик ҳақиқати. – Тошкент: Фан, 2005. – 174 б.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 342.7:659.4:316.653

BREND ISHONCHLILIGI VA JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA PR KOMMUNIKATSIYALARINING O‘RNI

Mirzarahimova Gulsanam, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti



https://orcid.org/0009-0003-4935-2138
e-mail: mirzarahimovagulsanam3@gmail.com

THE ROLE OF PR COMMUNICATIONS IN FORMING BRAND TRUST AND PUBLIC OPINION

Mirzarakhimova Gulsanam, Master’s student at the Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications

РОЛЬ PR-КОММУНИКАЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ДОВЕРИЯ К БРЕНДУ И ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ

Мирзарахимова Гулсанам, магистрант Узбекского университета журналистики и массовых коммуникаций

Annotatsiya*: Mazkur ilmiy maqolada brend ishonchliligini shakllantirish va jamoatchilik fikrini boshqarishda jamoatchilik bilan aloqalar (Public Relations – PR) kommunikatsiyalarining nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda PR kommunikatsiyalari brend va jamoatchilik o‘rtasida barqaror, ochiq va ishonchli munosabatlarni ta’minlovchi muhim strategik vosita sifatida qaraladi. Maqolada brend reputatsiyasining shakllanishi, iste’molchilar ishonchining ortishi hamda ijtimoiy mas’uliyatli kommunikatsiyalarning jamoatchilik fikriga ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, raqamli axborot muhiti sharoitida PR kommunikatsiyalarining transformatsiyasi, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalarning brend imijini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *brend ishonchliligi, jamoatchilik fikri, PR kommunikatsiyalari, brend reputatsiyasi, raqamli kommunikatsiyalar, iste’molchi ishonchi, strategik PR.*

Annotation: *This scientific article provides an in-depth analysis of the role of public relations (PR) communications in building brand trust and managing public opinion. The study considers PR communications as a strategic tool for establishing stable, transparent, and trust-based relationships between brands and the public. The article examines the processes of brand reputation formation, enhancement of consumer trust, and the influence of socially responsible communication on public perception. Furthermore, special attention is given to the transformation of PR activities in the digital environment, highlighting the growing importance of social media and online platforms in shaping brand image.*

Keywords: *brand trust, public opinion, PR communications, brand reputation, digital communications, consumer trust, strategic PR.*

Аннотация: *В данной научной статье всесторонне рассматривается роль коммуникаций по связям с общественностью (Public Relations – PR) в формировании доверия к бренду и управлении общественным мнением. В исследовании PR-коммуникации анализируются как стратегический инструмент установления устойчивых и доверительных взаимоотношений между брендом и общественностью. Особое внимание уделяется вопросам формирования брендовой репутации, укрепления доверия потребителей и влияния социально ответственных коммуникаций на общественное восприятие компании. Кроме того, в статье исследуется трансформация PR-*

деятельности в условиях цифровой среды, а также значение социальных сетей и онлайн-платформ в формировании имиджа бренда.

Ключевые слова: *доверие к бренду, общественное мнение, PR-коммуникации, репутация бренда, цифровые коммуникации, доверие потребителей, стратегический PR.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida bozor munosabatlari tobora murakkablashib, tashkilotlar va brendlar o‘rtasidagi raqobat yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bugungi kunda iste’molchilar tanlovi faqat mahsulot yoki xizmat sifati, narxi va funksional xususiyatlari bilan cheklanib qolmay, balki brendga bo‘lgan ishonch, uning ijtimoiy nufuzi va jamoatchilik ongidagi imiji bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanmoqda. Shu sababli brend ishonchliligi tashkilotlarning barqaror rivojlanishi va uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim strategik omil sifatida maydonga chiqmoqda.

Brend ishonchliligi — bu iste’molchilarning brend va uning va’dalariga nisbatan shakllangan barqaror ijobiy munosabati bo‘lib, u axborot shaffofligi, izchil kommunikatsiya va ijtimoiy mas’uliyat orqali mustahkamlanadi. Mazkur jarayonda jamoatchilik bilan aloqalar, ya’ni Public Relations (PR) kommunikatsiyalari muhim o‘rin tutadi. PR kommunikatsiyalari brend va jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro ishonchga asoslangan muloqotni shakllantirib, tashkilot faoliyati haqida ijobiy va obyektiv tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda brend ishonchliligi va jamoatchilik fikrini shakllantirish masalalari marketing va jamoatchilik bilan aloqalar nazariyasida ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Tadqiqotchilar brend ishonchliligini iste’molchilar ongida shakllanadigan barqaror psixologik holat sifatida baholab, uni tashkilotning kommunikatsion faoliyati bilan bevosita bog‘laydilar[1]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, brendga bo‘lgan ishonch faqat mahsulot sifati bilan emas, balki tashkilot tomonidan olib borilayotgan ochiq va izchil PR kommunikatsiyalari bilan mustahkamlanadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda PR kommunikatsiyalari jamoatchilik bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarishning strategik vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Cornelissenning tadqiqotlarida PR kommunikatsiyalari tashkilot reputatsiyasini shakllantirish va jamoatchilik fikriga ijobiy ta’sir ko‘rsatish orqali brend qiymatini oshiruvchi muhim omil ekanligi ta’kidlanadi[2]. Muallif PRni faqat axborot tarqatish vositasi emas, balki ijtimoiy muloqotni ta’minlovchi kompleks boshqaruv tizimi sifatida ko‘rib chiqadi.

Brend ishonchliligi masalasiga Keller va Swaminathan o‘z tadqiqotlarida alohida e’tibor qaratib, ishonch brend kapitalining asosiy tarkibiy qismi ekanligini asoslab bergan[3]. Ularning fikricha, PR kommunikatsiyalari orqali iste’molchilarga yetkaziladigan ijtimoiy mas’uliyat, korporativ qadriyatlar va shaffoflik brendga bo‘lgan ishonchni sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, axborotning izchilligi va haqiqatga mosligi jamoatchilik fikrining ijobiy shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, so‘nggi empirik tadqiqotlar PR kommunikatsiyalarining inqirozli vaziyatlardagi ahamiyatini ham ko‘rsatib bermoqda. Coombs tomonidan ishlab chiqilgan inqiroz kommunikatsiyasi nazariyasida (Situational Crisis Communication Theory) samarali PR strategiyalari brend reputatsiyasini saqlab qolish va jamoatchilik fikrini barqarorlashtirishda muhim vosita sifatida baholanadi [5]. Muallif inqiroz davrida tezkor, ochiq va mas’uliyatli kommunikatsiya brend ishonchliligini yo‘qotmaslikning asosiy sharti ekanligini ta’kidlaydi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda PR va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik ham keng yoritilmoqda. Jahon ilmiy adabiyotlarida korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) faoliyatining PR kommunikatsiyalari orqali yoritilishi jamoatchilik fikriga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi va brend ishonchliligini oshirishi isbotlangan[6]. Ushbu yondashuv brendning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy subyekt sifatida ham qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, PR kommunikatsiyalari brend ishonchliligi va jamoatchilik fikrini shakllantirishda markaziy o‘rin egallaydi. Zamonaviy marketing tadqiqotlariga ko‘ra, iste’molchilarning taxminan 70–80 foizi brend haqidagi qarorini ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va mustaqil manbalarda shakllangan jamoatchilik fikriga asoslanib qabul qiladi. Bu holat PR kommunikatsiyalarining

bevosita va bilvosita ta’sir mexanizmini yanada kuchaytirayotganini ko‘rsatadi. Empirik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ochiq va tizimli PR strategiyalarini qo‘llagan kompaniyalarda brendga bo‘lgan ishonch darajasi o‘rtacha 25–30 foizga yuqori bo‘lishi aniqlangan. Ayniqsa, korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) loyihalarini PR kommunikatsiyalari orqali faol yoritgan tashkilotlarda iste’molchilarning ijobiy munosabati sezilarli darajada oshgan. Xalqaro marketing tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, CSR faoliyati haqida muntazam axborot berib boruvchi brendlar iste’molchilar orasida 60 foizdan ortiq ishonch darajasiga ega bo‘lmoqda[7].


Muhokama jarayonida aniqlanishicha, jamoatchilik fikrini shakllantirishda an’anaviy PR vositalari (matbuot anjumanlari, press-relizlar, OAV bilan hamkorlik) bilan bir qatorda raqamli PR kommunikatsiyalarining ahamiyati keskin oshgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlarda faol va izchil kommunikatsiya olib boruvchi brendlar auditoriyasi bilan o‘zaro ishonch darajasini 40 foizgacha oshirish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, iste’molchilarning qariyb 65 foizi brendning ijtimoiy tarmoqlardagi ochiq muloqotini ishonchlilik belgisi sifatida qabul qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, PR kommunikatsiyalarining sifati jamoatchilik fikrining ijobiy yoki salbiy yo‘nalishda shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Inqirozli vaziyatlarda tezkor va shaffof PR kommunikatsiyalaridan foydalangan kompaniyalarda reputatsion yo‘qotishlar 2–3 baravar kam bo‘lishi aniqlangan. Aksincha, axborotni yashirish yoki kechiktirib berish holatlari jamoatchilik ishonchining pasayishiga va brend imijining salbiylashuviga olib kelmoqda. Olib borilgan nazariy va mantiqiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida ham PR kommunikatsiyalari brend ishonchliligi va jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim strategik omil hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatda raqamli marketing va jamoatchilik bilan aloqalar faol rivojlanib, brendlar o‘z auditoriyasi bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu jarayon jamoatchilik ishonchi va brend reputatsiyasining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda[8].

1-jadval. O‘zbekistonda PR faolligi darajasi va brend ishonchi o‘rtasidagi bog‘liqlik (foizlarda)

PR faollik darajasi	Brend ishonchi (%)	Ijobiy jamoatchilik fikri (%)
Past	45	48
O‘rta	62	65
Yuqori	78	81

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, PR kommunikatsiyalari faolligi oshgani sari brendga bo‘lgan ishonch va jamoatchilik fikrining ijobiyligi ham ortib bormoqda. Xususan, PR faoliyati yuqori darajada olib borilgan tashkilotlarda brend ishonchi past darajadagi tashkilotlarga nisbatan qariyb 33 foizga yuqori ekanligi kuzatiladi. Bu holat PR kommunikatsiyalarining strategik ahamiyatini amaliy jihatdan tasdiqlaydi [9].



1-rasm. O‘zbekistonda PR faolligi va brend ishonchi o‘rtasidagi bog‘liqlik

TAMADDUN NURI

Diagrammada PR kommunikatsiyalari faolligining oshishi bilan brend ishonchi o‘rtasida musbat chiziqli bog‘liqlik mavjudligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu natija xalqaro tadqiqotlar xulosalari bilan ham mos keladi va mintaqaviy sharoitda PRning samaradorligini tasdiqlaydi.

Muhokama natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda iste’molchilarning katta qismi (taxminan 60–70 foizi) brend haqidagi qarorini ijtimoiy tarmoqlar, onlayn nashrlar va ommaviy axborot vositalarida shakllangan jamoatchilik fikriga asoslanib qabul qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy mas’uliyatli loyihalar va korporativ tashabbuslarning PR orqali yoritilishi jamoatchilik ishonchiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda[10].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, PR kommunikatsiyalarining samaradorligi ularning strategik rejalashtirilishi va auditoriya ehtiyojlariga moslashtirilganligiga bog‘liq. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, aniq maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilgan PR xabarlarining qabul qilinish darajasi umumiy xabarlarga nisbatan 1,5 baravar yuqori. Bu esa brend ishonchliligini shakllantirishda segmentatsiyalashgan kommunikatsiya strategiyalarining muhimligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy iqtisodiy va axborot muhitida brend ishonchliligini shakllantirish va jamoatchilik fikrini boshqarishda PR kommunikatsiyalari strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim boshqaruv vositasi hisoblanadi. Brendga bo‘lgan ishonch nafaqat mahsulot yoki xizmat sifati bilan, balki tashkilotning jamoatchilik bilan olib borayotgan ochiq, izchil va mas’uliyatli kommunikatsiyalari orqali shakllanadi. Tadqiqot jarayonida PR kommunikatsiyalarining brend reputatsiyasi, iste’molchi ishonchi va ijobiy jamoatchilik fikriga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ilmiy va statistik jihatdan asoslandi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Delgado-Ballester,E., Munuera-Alemán,J.L. Brand trust in the context of consumer loyalty. *European Journal of Marketing*, 2019.
2. Cornelissen,J. *Corporate Communication: A Guide to Theory and Practice*. Sage Publications, 2020.
3. Keller,K.L., Swaminathan, V. *Strategic Brand Management*. Pearson Education, 2021.
4. Kent,M.L., Taylor,M. Building dialogic relationships through digital media. *Public Relations Review*, 2020.
5. Coombs,W.T. *Ongoing Crisis Communication: Planning, Managing, and Responding*. Sage Publications, 2021.
6. Du,S., Bhattacharya,C.B., Sen,S. Corporate social responsibility and consumer trust. *Journal of Business Research*, 2022.
7. Edelman. (2023). *Edelman Trust Barometer: Trust and Brand Communication Report*. Edelman Research.
8. Statista Research Department. (2023). *Impact of social media communication on brand trust*. Statista. https://www.statista.com
9. Delgado-Ballester, E., & Munuera-Alemán,J.L. (2019). Brand trust in the context of consumer loyalty. *European Journal of Marketing, 53*(3), 483–504. https://doi.org/10.1108/EJM-07-2017-0460
10. OECD. (2022). *Public Communication and Trust in Institutions*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264346921-en

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 101.9

MAXDUMI A'ZAM KOSONIY TA'LIMOTIDA BAG'RIKENGLIK G'OYALARINING TASAVVUFIY-FALSAFIY TAHLILI

Uraqov Nodirbek Boboqulovich, Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti "Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar" kafedrasi assistenti



https://orcid.org/0009-0004-6598-1287
e-mail: u-nodirbek@yandex.com

СУФИЙСКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИДЕЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В УЧЕНИИ МАХДУМИ АЪЗАМА КАСАНИ

Ураков Нодирбек Бобокулович, ассистент кафедры цифровых технологий, туризма и гуманитарных наук Самаркандского института агроинноваций и исследований

SUFI-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE IDEAS OF TOLERANCE IN THE TEACHINGS OF MAHDUMI AZAM KASANI

Urakov Nodirbek, Samarkand Institute of Agroinnovation and Research, Assistant Professor, Department of Digital Technologies, Tourism, and Humanities

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Markaziy Osiyo tasavvuf tafakkurining yirik namoyandasi Maxdumi A'zam Kosoniyning falsafiy-diniy qarashlarida bag'rikenglik g'oyalarining mazmuni va mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda mutasavvifning insonparvarlik, ruhiy poklanish, ijtimoiy muvozanat va diniy bag'rikenglikka oid qarashlari tasavvufiy va falsafiy kontekstda yoritiladi. Shuningdek, Maxdumi A'zam ta'limotida axloqiy kamolot, sabr-toqat, o'zgalarga hurmat va ijtimoiy hamjihatlik tushunchalarining o'rni ochib beriladi. Maqolada bag'rikenglik g'oyalarining bugungi globallashuv sharoitidagi ahamiyati ham asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Maxdumi A'zam Kosoniy, tasavvuf, bag'rikenglik, falsafiy tafakkur, insonparvarlik, axloqiy kamolot, diniy tolerantlik, ma'naviyat.*

Abstract: *This article analyzes the mystical and philosophical foundations of the idea of tolerance in the teachings of Makhdumi A'zam Kosoni, a prominent representative of Central Asian Sufism. The study examines his views on humanism, spiritual purification, moral perfection, and social harmony within the framework of Sufi philosophy. Particular attention is paid to the ethical principles of patience, respect for others, and social solidarity embedded in Makhdumi A'zam's doctrine. The article also highlights the contemporary relevance of Sufi tolerance ideas in the context of globalization and intercultural dialogue.*

Keywords: *Makhdumi A'zam Kosoni, Sufism, tolerance, philosophical thought, humanism, moral perfection, religious tolerance, spirituality.*

Аннотация: *В статье проводится суфийско-философский анализ идей толерантности в учении Махдуми Аъзама Касани — выдающегося представителя суфийской мысли Центральной Азии. Рассматриваются его взгляды на гуманизм, духовное очищение, нравственное совершенствование и социальную гармонию в контексте суфийской философии. Особое внимание*

уделяется таким ценностям, как терпимость, уважение к другим и социальная солидарность. Также обосновывается актуальность идей суфийской толерантности в условиях глобализации и межкультурного взаимодействия.

Ключевые слова: *Махдуми Аъзам Касани, суфизм, толерантность, философская мысль, гуманизм, нравственное совершенствование, религиозная терпимость, духовность.*

Kirish. Bugungi globallashuv, madaniyatlararo muloqotning jadallashuvi hamda mafkuraviy qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan sharoitda bag‘rikenglik masalasi ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy muammo sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Turli diniy, madaniy va dunyoviy tizimlarning bir makonda hamjihat yashashi insoniyat oldiga axloqiy mas’uliyat, o‘zaro hurmat va tolerantlik tamoyillarini mustahkamlash vazifasini qo‘ymoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tarixiy-ma’naviy merosda mavjud bo‘lgan bag‘rikenglik g‘oyalarini chuqur o‘rganish va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Markaziy Osiyo tasavvuf tafakkuri ana shunday bag‘rikenglik, insonparvarlik va axloqiy komillik g‘oyalarini shakllantirgan yirik ma’naviy-falsafiy maktablardan biri hisoblanadi[1]. Ushbu maktab vakillari o‘z asarlarida nafaqat diniy-amaliy masalalarni, balki jamiyatdagi ijtimoiy muvozanat, insoniy munosabatlar va ma’naviy poklanish muammolarini ham falsafiy jihatdan yoritib berganlar. Ayniqsa, tasavvufda bag‘rikenglik Allohga muhabbat, insonni e’zozlash va yaratilganga rahm-shafqat bilan munosabatda bo‘lish g‘oyasi orqali asoslab beriladi. Mazkur ilmiy maqolada Markaziy Osiyo tasavvuf an’analarining yirik namoyandasi Maxdumi A’zam Kosoniyning ta’limotida bag‘rikenglik g‘oyalarining tasavvufiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Maxdumi A’zam Kosoniy Naqshbandiya tariqati rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan mutasavvif sifatida insoniy kamolot, axloqiy yetuklik va ijtimoiy barqarorlik masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning qarashlarida bag‘rikenglik shunchaki ijtimoiy muomala me’yori emas, balki ruhiy kamolotning muhim sharti sifatida talqin etiladi[2].

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda bag‘rikenglik g‘oyasi ko‘pincha siyosiy yoki huquqiy tushuncha sifatida talqin qilinmoqda, uning chuqur ma’naviy va falsafiy ildizlari esa yetarlicha ochib berilmayapti. Maxdumi A’zam Kosoniy merosini tasavvufiy-falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganish esa bag‘rikenglikning axloqiy-ruhiy asoslarini yoritishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash, ekstremizm va murosasizlik holatlarining oldini olishda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi[3].

Shuningdek, ushbu tadqiqot Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy-ma’naviy merosni qayta anglash, diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati bilan hamohangdir. Maxdumi A’zam ta’limotidagi bag‘rikenglik g‘oyalari bugungi yosh avlodni ma’naviy barkamol, mas’uliyatli va tolerant shaxs sifatida tarbiyalashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Maxdumi A’zam Kosoniyning tasavvufiy-falsafiy qarashlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar Markaziy Osiyo tasavvuf maktablari tarixini tahlil qiluvchi ilmiy ishlarda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu adabiyotlarni shartli ravishda bir necha guruhlarga ajratish mumkin: birinchisi, tasavvuf va Naqshbandiya tariqati tarixiga bag‘ishlangan klassik va zamonaviy tadqiqotlar; ikkinchisi, Maxdumi A’zam Kosoniy shaxsiyati va merosini yorituvchi manbalar; uchinchisi, bag‘rikenglik, tolerantlik va axloqiy-falsafiy muammolarni tahlil qiluvchi nazariy asarlardir[4].

Naqshbandiya tariqatining shakllanishi va rivoji masalalari Xoja Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy hamda ularning izdoshlari merosini tahlil qiluvchi tadqiqotlarda atroflicha yoritilgan. Ushbu manbalarda tasavvufning ijtimoiy faollikka, jamiyat bilan uyg‘unlikda yashashga asoslangan jihatlari alohida ta’kidlanadi. Aynan shu jihat Maxdumi A’zam Kosoniy ta’limotida bag‘rikenglik

TAMADDUN NURI

g‘oyalarining ijtimoiy-falsafiy mazmunini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[5].

Maxdumi A’zam Kosoniy shaxsiyati va ilmiy-ma’naviy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, mavjud ilmiy ishlar uning Naqshbandiya tariqatidagi o‘rni, tasavvufiy qarashlari va axloqiy ta’limoti haqida muhim ma’lumotlar beradi. Ayrim tadqiqotlarda mutasavvifning axloq, adolat, sabr-toqat va ruhiy poklanishga oid qarashlari tahlil qilingan, biroq bag‘rikenglik g‘oyasi mustaqil falsafiy kategoriya sifatida yetarlicha tizimli o‘rganilmagan. Bu holat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi[6].

Bag‘rikenglik va tolerantlik masalalari zamonaviy falsafiy, sotsiologik va huquqiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. G‘arb falsafasida tolerantlik asosan ijtimoiy kelishuv, huquqiy tenglik va fuqarolik jamiyati tamoyillari bilan bog‘lab talqin etilsa, Sharq va islom falsafasida bu tushuncha axloqiy poklanish, rahm-shafqat va insoniylik g‘oyalari bilan uzviy aloqada ko‘riladi. Mazkur yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish Maxdumi A’zam Kosoniy ta’limotidagi bag‘rikenglikning o‘ziga xos tasavvufiy-falsafiy mazmunini ochib berish imkonini beradi.

Shu boisdan, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Maxdumi A’zam Kosoniy merosida bag‘rikenglik g‘oyalarini kompleks, tizimli va falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganishga ehtiyoj mavjud bo‘lib, ushbu maqola ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari qo‘llanildi. Maxdumi A’zam asarlari va ular haqidagi ilmiy manbalardagi fikrlar tahlil qilinib, bag‘rikenglik g‘oyalarining asosiy tushunchaviy unsurlari ajratib olindi. Ushbu unsurlar sintez orqali yagona tasavvufiy-falsafiy tizim sifatida talqin etildi.

Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod orqali Maxdumi A’zam Kosoniy qarashlari boshqa tasavvuf mutafakkirlari, jumladan Xoja Bahouddin Naqshband, Imom G‘azzoliy va Abdurahmon Jomiy ta’limotlari bilan solishtirildi. Bu yondashuv bag‘rikenglik g‘oyasining umumtasavvufiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi[8].

Tadqiqotda germenevtik yondashuv ham muhim o‘rin egalladi. Tasavvufiy matnlarning ramziy va majoziy mazmunini talqin qilish orqali Maxdumi A’zam ta’limotida bag‘rikenglik g‘oyasining chuqur ma’naviy-falsafiy mohiyati ochib berildi. Bundan tashqari, aksiologik yondashuv asosida bag‘rikenglik qadriyat sifatida baholanib, uning axloqiy va ijtimoiy ahamiyati aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Maxdumi A’zam Kosoniy ta’limotida bag‘rikenglik g‘oyasi tasavvufiy-falsafiy qarashlarning markaziy tushunchalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Uning qarashlarida bag‘rikenglik nafaqat ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy me’yor, balki insonning ruhiy kamolotini ta’minlovchi muhim ma’naviy omil sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv tasavvufga xos bo‘lgan “ichki poklanish orqali tashqi muvozanatga erishish” tamoyiliga to‘liq mos keladi[9].

Ikkinchidan, Maxdumi A’zam ta’limotida bag‘rikenglik g‘oyasi axloqiy kamolot bilan uzviy bog‘liqdir. Uning fikricha, nafsni jilovlash, sabr-toqat va tavozu’ insonning ruhiy yetuklik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardir. Bag‘rikenglik ana shu fazilatlarning amaliy ifodasi bo‘lib, shaxsning o‘zgalarga nisbatan kechirimlilik va hurmat bilan munosabatda bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Bu esa jamiyatda nizolarni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi[10].

Uchinchidan, mutasavvif qarashlarida bag‘rikenglikning ijtimoiy-falsafiy mazmuni ham chuqur ochib beriladi. Maxdumi A’zam Kosoniy tasavvufni jamiyatdan uzilgan ruhiy tajriba emas, balki ijtimoiy hayot bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida talqin etadi. U insonning ichki dunyosidagi poklanish jamiyatdagi munosabatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslab beradi. Natijada bag‘rikenglik shaxsiy fazilatdan ijtimoiy qadriyat darajasiga ko‘tariladi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Maxdumi A’zam Kosoniy ta’limotida bag‘rikenglik diniy tolerantlik bilan ham chambarchas bog‘liq. Mutasavvif e’tiqod masalasida majburlash va zo‘ravonlikni inkor etib, insonning iymonini qalb pokligi va axloqiy yetukligi bilan baholaydi[11]. Shuningdek,

Maxdumi A’zam ta’limotida bag‘rikenglik va adolat tushunchalari o‘zaro dialektik birlikda namoyon bo‘ladi. Mutasavvif uchun bag‘rikenglik adolatsizlikka ko‘z yumish emas, balki inson qadr-qimmatini e’zozlagan holda haqiqatni himoya qilishdir. Bu yondashuv bag‘rikenglikning passiv emas, balki faol axloqiy pozitsiya ekanini ko‘rsatadi. Aynan shu jihat uni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashtiradi[12].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Maxdumi A’zam Kosoniy ta’limotidagi bag‘rikenglik g‘oyalari quyidagi asosiy xulosaviy jihatlar bilan tavsiflanadi: birinchidan, bag‘rikenglik ruhiy poklanish va axloqiy kamolotning muhim sharti sifatida talqin etiladi; ikkinchidan, u shaxsiy fazilatdan ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi qadriyat darajasiga ko‘tariladi; uchinchidan, diniy va madaniy xilma-xillikka hurmat bilan munosabatda bo‘lish g‘oyasi asoslab beriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Maxdumi A’zam Kosoniy ta’limotida bag‘rikenglik g‘oyasi tasavvufiy-falsafiy tafakkurning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Mutasavvif qarashlarida bag‘rikenglik insonning ruhiy poklanishi, axloqiy kamoloti va ijtimoiy mas’uliyati bilan uzviy bog‘langan qadriyat sifatida talqin etiladi. Ushbu g‘oya shaxsiy fazilat darajasidan chiqib, jamiyatda barqarorlik va murosani ta’minlovchi ijtimoiy-me’yoriy tamoyilga aylanadi.

Tadqiqot natijalari Maxdumi A’zam Kosoniy merosidagi bag‘rikenglik g‘oyalari diniy tolerantlik, insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslanganini ko‘rsatdi. Mazkur qarashlar bugungi globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash hamda yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxdumi A’zam Kosoniy. Risolalar majmuasi. Toshkent: Movarounnahr, 2005.
2. Naqshband B. Risolalar. – Toshkent: Fan, 1993.
3. G‘azzoliy I. Ihyo ulum ad-din. – Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiya, 2004.
4. Jomiy A. Nafohot ul-uns. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
5. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2001.
6. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.
7. Xayrullayev M. Sharq falsafasi va madaniyati. – Toshkent: Fan, 2004.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. Alimuhamedov R. Islom falsafasi va bag‘rikenglik masalalari. – Toshkent: Islom universiteti nashriyoti, 2016.
10. Abduqodirov A. Markaziy Osiyoda tasavvuf va ijtimoiy tafakkur. – Samarqand: Zarafshon, 2018.
11. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – Т. 6. – №. 4. – С. 5-5.
12. Саматов Х.У. Махдуми Аъзам Касани – теоретик и продолжатель тариката Накшбандия //Востоковедение: история и современность. – 2018. – С. 273-277.
13. Mardonov R. Historical and philosophical analysis of Eastern and Western education systems //International Journal For Advanced Research In Science & Technology/A peer reviewed international journal. www. ijarst. in. – 2021. – Т. 11. – №. 02. – С. 252-256.
14. Ризаев И.И. Структура социальной системы-основа самоорганизации общества. – 2020.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 141.7:930.1

IBN XALDUN FALSAFIY TAFAKKURIDA DIN, AXLOQ VA IJTIMOIY TARAQQIYOT MUAMMOSI

Qayumova Aziza Toshmuradovna, Buxoro davlat universiteti ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, sotsiyologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



https://orcid.org/0000-0002-4069-9261
e-mail: a.t.qayumova@buxdu.uz

THE PROBLEM OF RELIGION, MORALITY, AND SOCIAL DEVELOPMENT IN IBN KHALDUN'S PHILOSOPHICAL THOUGHT

Kayumova Aziza Toshmuradovna, Associate Professor of the Department of Social and Political Sciences, Bukhara State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology

ПРОБЛЕМА РЕЛИГИИ, НРАВСТВЕННОСТИ И СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В ФИЛОСОФСКОМ МЫШЛЕНИИ ИБН ХАЛДУНА

Каюмова Азиза Тошмурадовна, доцент кафедры социально-политических наук Бухарского государственного университета, доктор философии (PhD) по социологии

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ibn Xaldunning din va jamiyat munosabatlariga oid sotsiologik qarashlari tahlil qilinadi. Mutafakkirning diniy qadriyatlar, axloqiy tizimlar va ijtimoiy integratsiya haqidagi g‘oyalari zamonaviy sotsiologiya nazariyalari bilan qiyosiy o‘rganiladi. Din jamiyatning barqaror rivojlanishida birlashtiruvchi kuch, ijtimoiy tartib va axloqiy me’yorlar manbai sifatida izohlanadi. Shuningdek, maqolada mutafakkir qarashlarining bugungi jamiyat, xususan, O‘zbekiston sharoitida diniy-ma’naviy muhitni mustahkamlashdagi amaliy ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, ijtimoiy integratsiya, axloqiy tizim, asabiyya, badava, hadhara, ijtimoiy norma, ijtimoiy barqarorlik, jamoaviy ong.*

Аннотация: *В статье проводится анализ социологических взглядов Ибн Халдуна на взаимоотношения религии и общества. Идеи мыслителя, касающиеся религиозных ценностей, нравственных систем и социальной интеграции, рассматриваются в сравнительном аспекте с теориями современной социологии. Религия трактуется как объединяющая сила, обеспечивающая устойчивое развитие общества, а также как источник социального порядка и нравственных норм. Кроме того, обосновывается практическая значимость взглядов мыслителя для современного общества, в частности в условиях Узбекистана, в процессе укрепления религиозно-духовной среды.*

Ключевые слова: *общество, социальная интеграция, нравственная система, асабийя, бадава, хадара, социальная норма, социальная стабильность, коллективное сознание.*

Abstract: *This article analyzes Ibn Khaldun's sociological views on the relationship between religion and society. The thinker's ideas concerning religious values, moral systems, and social integration are examined in comparative perspective with modern sociological theories. Religion is interpreted as a unifying force that ensures the stable development of society, as well as a source of social order and moral norms. In addition, the article substantiates the practical significance of Ibn Khaldun's views for contemporary society, particularly in the context of Uzbekistan, in strengthening the religious and spiritual environment.*

Keywords: *society, social integration, moral system, asabiyyah, badawa, hadara, social norm, social stability, collective consciousness.*

KIRISH. Din va jamiyat munosabatlari insoniyat tamadduni tarixida eng muhim ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri hisoblanadi. Dinning jamiyat hayotidagi o‘rni, uning ijtimoiy tartibot, axloqiy tizim va jamoaviy ong shakllanishidagi funksiyalari qadimdan mutafakkirlar e’tiborida bo‘lib kelgan. Xususan, Sharqning buyuk olimi Ibn Xaldun bu masalani o‘zining “Muqaddima” asarida chuqur tahlil qilib, dinni jamiyatning birlashtiruvchi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi kuch sifatida talqin etadi[1].

Ibn Xaldun ta’limotida jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida diniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar alohida o‘rin tutadi. Uning fikricha, jamiyatdagi integratsiya jarayonlari faqat moddiy omillar bilan emas, balki ma’naviy birlik va umumiy maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy birdamlik — “asabiyya” orqali mustahkamlanadi. Mutafakkir ilgari surgan “badava–hadhara” modeli esa diniy qadriyatlarning ko‘chmanchi va shaharlik jamiyatlar hayotidagi o‘rnini tahlil qilishga imkon beradi[2].

Mamlakatimizda diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, ma’naviy-ma’rifiy muhitni mustahkamlash borasidagi islohotlar sharoitida Ibn Xaldun ta’limotidagi dinning jamiyatdagi o‘rni haqidagi g‘oyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur maqolada mutafakkirning din va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, uning bugungi ijtimoiy hayot uchun metodologik va amaliy ahamiyati yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Din va jamiyat munosabatlari masalasi jahon ilm-fanida qadimdan yetakchi yo‘nalishlardan biri sifatida shakllangan bo‘lib, ushbu mavzu yuzasidan ko‘plab falsafiy, tarixiy va sotsiologik tadqiqotlar olib borilgan. Avvalo, G‘arb sotsiologiyasi klassiklari E.Dyurkgeym, M.Veber, T.Parsons kabi olimlar diniy institutlarning jamiyatdagi funksiyalari, ijtimoiy tartibot va birdamlikni ta’minlashdagi o‘rni haqida muhim nazariy qarashlarni ilgari surganlar. Dyurkgeym dini jamiyatning “axloqiy sistemi” sifatida baholagan bo‘lsa, Veber dinning iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ta’sirini tadqiq etgan, Parsons esa diniy me’yorlarning ijtimoiy tizimdagi integrativ funksiyasini asoslab bergan[3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ibn Xaldunning din va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari o‘zining murakkabligi, ko‘p qatlamliligi hamda chuqur sotsiologik mazmuni bilan ajralib turadi. Uning “Muqaddima”sida ilgari surilgan nazariy yondashuvlar nafaqat o‘rta asr Sharqining diniy-siyosiy hayotini anglashga, balki zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishida dinning tutgan o‘rnini baholashga ham imkon beradi. Ibn Xaldun dinni ikki asosiy jihatdan tahlil qiladi: birinchisi, dinning ijtimoiy birdamlik (asabiyya)ni shakllantirishdagi ahamiyati; ikkinchisi, dinning axloqiy tizim va siyosiy tuzumni mustahkamlovchi kuch sifatidagi roli.

Birinchidan, mutafakkirning “asabiyya” konsepsiyasi dinning jamiyatdagi integrativ funksiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Unga ko‘ra, jamoaning ichki mustahkamligi, uning maqsadga yo‘naltirilgan harakati va siyosiy barqarorlikning asosiy omili ma’naviy birlikdan kelib chiqadi. Bu birlik ko‘pincha diniy qadriyatlar, e’tiqod va umumiy axloqiy me’yorlar asosida shakllanadi. Zamonaviy sotsiologiyada bunday integrativ funksiyalar E.Dyurkgeymning dinni “ijtimoiy birdamlik manbai” sifatida talqin qilishi bilan hamohangdir. Dyurkgeym dini “jamoaviy ongning ifodasi” deb baholagan bo‘lsa, Ibn Xaldun uni siyosiy barqarorlik va ijtimoiy kuchning qudratli manbai sifatida ko‘radi.

Ikkinchidan, Ibn Xaldun “badava–hadhara” modeli orqali dinning jamiyat taraqqiyotidagi farqli funksiyalarini ko‘rsatadi. Ko‘chmanchi jamiyatlarda din asosan birdamlikni mustahkamlovchi ma’naviy omil sifatida namoyon bo‘lsa, shaharlik jamiyatlarda u murakkab siyosiy strukturalar, huquqiy tizim va madaniy institutlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Uchinchidan, Ibn Xaldun qarashlarida dinning axloqiy tizimlarni shakllantirishdagi o‘rni ham alohida e’tibor talab qiladi. Mutafakkirga ko‘ra, jamiyatning rivojlanishi faqat iqtisodiy omillar bilan belgilanmaydi; aksincha, axloqiy me’yorlar va ma’naviy qadriyatlar ijtimoiy tartibning asosiy poydevoridir. Zamonaviy sotsiologiyada T.Parsons tomonidan ishlab chiqilgan struktur-funksional yondashuv ham

jamiyatning barqarorligi axloqiy tizimning kuchiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Demak, Ibn Xaldun fikrlari nafaqat tarixiy qiymatga ega, balki zamonaviy nazariyalar bilan ham uyg‘unlashadi[4].

To‘rtinchidan, bugungi globallashuv sharoitida dinning ijtimoiy o‘rni yanada murakkablashmoqda. Axborot oqimlarining keskin tezlashuvi, madaniy aralashuvlar, migratsiya jarayonlari va dunyoqarashlarning turlicha talqin qilinishi jamiyatlarda diniy-sotsial muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Ibn Xaldunning dinning birdamlikni ta’minlovchi kuch sifatidagi qarashlari yuqori darajada amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatlar uchun ma’naviy birlikni saqlash masalasi mutafakkirning g‘oyalari bilan bevosita bog‘liq.

Beshinchidan, O‘zbekiston misolida ham dinning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni alohida ahamiyatga ega. Mamlakatda so‘nggi yillarda diniy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, yoshlar ongida radikal g‘oyalarga qarshi immunitet yaratish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ibn Xaldunning dinning jamoani birlashtiruvchi va axloqiy tizimni mustahkamlovchi vazifalariga oid qarashlari bu jarayonlarga nazariy asos bo‘lishi mumkin.

Shu tariqa, Ibn Xaldunning din va jamiyatga doir g‘oyalari zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga tatbiq etilganda, ular jamiyat barqarorligini ta’minlash, ijtimoiy integratsiyani mustahkamlash, ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish va axloqiy tizimlarni mustahkamlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Uning qarashlari diniy tizimlarning jamiyat hayotidagi o‘rnini tushunishda nafaqat tarixiy manba, balki zamonaviy metodologik yondashuv sifatida ham xizmat qilmoqda[5].

Ushbu tadqiqot asosida Ibn Xaldunning din va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari chuqur tahlil qilinar ekan, bir necha muhim ilmiy xulosalar va nazariy-amaliy natijalarga erishildi. Avvalo, mutafakkirning diniy qadriyatlar, axloqiy tizimlar va ijtimoiy integratsiyaning mohiyatiga doir fikrlari zamonaviy sotsiologiya nazariyalari bilan uyg‘unlashib, bugungi ijtimoiy jarayonlarni izohlashda o‘z dolzarbligini saqlab qolayotganligi aniqlandi.

Birinchidan, Ibn Xaldunning “asabiyya” konsepsiyasi dinning jamiyatdagi birlashtiruvchi kuch ekanligini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, din jamoaviy ongni shakllantirish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va umumiy maqsad sari harakatlanishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu jihat zamonaviy integrativ yondashuvlar – ayniqsa, Dyurkgeymning “kollektiv ong” tushunchasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Ikkinchidan, Ibn Xaldunning “badava–hadhara” modeli diniy me’yorlarning jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ko‘chmanchi jamiyatlarda din birdamlik va ijtimoiy tartibni mustahkamlovchi asosiy omil bo‘lsa, shaharlik jamiyatlarda u madaniy tizimlar, siyosiy institutlar va huquqiy me’yorlarning shakllanishida alohida o‘rin tutadi.

Uchinchidan, tadqiqot jarayonida dinning axloqiy tizimlarni shakllantirishdagi metodologik ahamiyatiga e’tibor qaratildi. Ibn Xaldunning fikrlari shuni ko‘rsatadiki, jamiyat barqarorligining kafolati moddiy boylik yoki siyosiy kuch emas, balki axloqiy birlik, halollik, adolat va umumiy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liq.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, globallashuv sharoitida dinning jamiyatdagi o‘rni yanada murakkablashgan bo‘lsa-da, uning integrativ va stabilizator sifatidagi funksiyalari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Turli madaniyatlararo to‘qnashuvlar, diniy radikalizm, migratsiya jarayonlari kuchaygan bir davrda Ibn Xaldunning dinning ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi kuch sifatidagi ta’riflari dolzarbligini yanada oshiradi.

Beshinchidan, O‘zbekiston sharoitida olib borilgan diniy-ma’rifiy islohotlar va jamiyat barqarorligini ta’minlashga qaratilgan siyosat bilan Ibn Xaldun ta’limoti o‘rtasida mushtarak jihatlar mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Xususan, diniy bag‘rikenglik, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot, yoshlarni sog‘lom ijtimoiy qarashlar asosida tarbiyalash va jamiyatda totuvlikni mustahkamlash kabi jarayonlar mutafakkirning g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Oltinchidan, tadqiqot jarayonida Ibn Xaldunning qarashlari zamonaviy sotsiologiya klassiklari – Veber, Dyurkgeym, Parsons – nazariyalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Natijada, Ibn

Xaldunning dinning ijtimoiy funksiyalari haqidagi qarashlari ko‘plab jihatlarda zamonaviy yondashuvlarning dastlabki asoslari bo‘lib xizmat qilgani aniqlangan holda, uning nazariy merosi global miqyosda sotsiologik fikr rivojiga ta’sir ko‘rsatgani isbotlandi.

Yettinchidan, tadqiqot natijalari Ibn Xaldun konsepsiyalarining bugungi ijtimoiy fanlar uchun metodologik qiymati yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Mutafakkirning din, axloq, siyosat va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik haqidagi fikrlari hozirgi zamon konfliktologiya, sotsiokulturologik tadqiqotlar, diniy sotsiologiya va siyosatshunoslik kabi yo‘nalishlarda qo‘llanishi mumkin.

Shu tariqa, o‘tkazilgan tahlillar natijasida Ibn Xaldunning din va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari nafaqat tarixiy manba, balki zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi, uning g‘oyalari bugungi ijtimoiy jarayonlar talqinida ham dolzarbligini saqlab qolayotgani isbotlandi[6].

Ibn Xaldun tasavvuf oqimining yuzaga kelishi va keng yoyilishidan iborat genezisini tavsiflab, tasavvuf harakati Islom dini bilan bir vaqtda shakllangan, deb talqin etgani diqqatga sazovor. Ibn Xaldun XIX asrda yashab o‘tgan Emil Dyurkgeymdan qariyb, asr avval marginallik fenomeni nazariyasini ilmiy asoslab, bu toifa ahlining ijtimoiy hayot, san’at, din va ilmda o‘rin egallashi adolatdan ekanligini mu’taziliylarning “Al-manzila bayna-l-manzilatayn”, ya’ni chegara doirasidagi muallaq axloqiy-diniy holat konsepsiyasini tahlil etish orqali asoslab bergan. Ibn Xaldun XIX asrda pozitiv sotsiologiya asoschisi Ogyust Kontning nuqtayi nazaridan qariyb asr avval “al-Amru bil-ma’ruf”, ya’ni yaxshilikka da’vat etish nazariyasi orqali hayotga pozitiv yondashish, ijobiy, xayrixoh bo‘lib yashash va ishlashni umr maslagi, deb bilishni keng targ‘ib etishga erishgan[7].

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ibn Xaldun o‘z davrining nodir ijtimoiy jarayonlar mutafakkiri sifatida jamiyatdagi mavjud an’anaviy yondashuvlar va stereotiplardagi kamchilik, nuqsonlar, jumladan, o‘tmishni soxtalashtirish, chalkashtirish, voqeliklarni o‘z manfaatlariga moslashtirib bir yoqlama bayon etish kabi illatlarni keskin qoralagan. Har bir millat va qavmning kelib chiqishi, ularning taraqqiy topish yo‘llari, tarixiy rivojlanish manbalarini chuqur o‘rganish millatning uyg‘onishiga, o‘z qadru qimmatini bilishiga va istiqbol rejalarini aniqroq tuzishiga yordam berishini alohida qayd etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibn Khaldon, Wall Ad-Din ‘Abd-Ar-Rahman. Muqaddimah. Prolegomenes d’Ebn-Khaldoun. Texte Arabe par E. Quatremere. Notices et Extraits des manuscrits de la Bibliotheque Imperiale (Academie des Inscriptions et Belles-Lettres), vols. XVI-XVIII. –Paris, 1858. -pp.33-54.
2. Бациева С.М. Историко-социологический трактат Ибн Халдуна “Мукаддима”. –М.: Наука, 1965. –С. 223.
3. Qayumova A.T. Ибн Халдун социологик қарашларида ижтимоий тузилмалар ва муносабатлар таҳлили: dissertasiya. Тошкент – 2022. -150 b.
4. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 86-98.
5. Игнатенко А.А. Ибн Халдун. –М.: Мысль, 1980. -с.141-142.
6. Иванов Н. А. “Китаб аль Ибар” Ибн Халдуна как источник по истории стран Северной Африки в XIV веке.-Арабский сборник. –М., 1959. -с. 3-45.
7. С. М. Хотамий. Ислом тафаккури тарихидан. –Т., 2003. -249 б.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 101.1:316.4:141.7

IJTIMOIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY FAOLLIKNING FALSAFIY ASOSLARI

Usnatdinov Azamat Sipatdin uli, Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL ACTIVITY IN THE FORMATION OF SOCIAL RELATIONS

Usnatdinov Azamat Sipatdin uli, Lecturer at Karakalpak State University

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ

УснатдиноАзамат Сипатдин улы, преподаватель Каракалпакского государственного университета



https://orcid.org/0009-0006-6387-1817
e-mail: Azamat.usnatdinov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy faollik va ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohalardagi o‘zaro aloqadorligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqola tayyorlash jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari hamda ilmiy xulosalari tahlil qilinib, mualliflik yondashuvi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, ijtimoiy faollik, ijtimoiy munosabatlar, qiziqish, bilish, maqsad qo‘yish, falsafiy tahlil, faoliyat, ijtimoiy bog‘liqlik, ijtimoiy aloqa.*

Abstract: *This article provides a socio-philosophical analysis of the interrelationship between social activity and social relations in the social, economic, political, and cultural spheres. In the process of preparing the article, the theoretical perspectives and scholarly conclusions of domestic and foreign researchers were analyzed, and the author’s approach was substantiated.*

Keywords: *society, social activity, social relations, interest, cognition, goal-setting, philosophical analysis, activity, social interconnectedness, social interaction.*

Аннотация: *В данной статье социально-философски анализируется взаимосвязь социальной активности и социальных отношений в социальной, экономической, политической и культурной сферах. В процессе подготовки статьи были проанализированы теоретические взгляды и научные выводы отечественных и зарубежных ученых, а также обоснован авторский подход.*

Ключевые слова: *общество, социальная активность, социальные отношения, интерес, познание, целеполагание, философский анализ, деятельность, социальная взаимосвязанность, социальная коммуникация.*

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida ijtimoiy faollik masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarda ongli ishtiroki orqali namoyon bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Aynan shu jihat ijtimoiy faollik va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur falsafiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Inson o‘z hayot faoliyatining barcha bosqichlarida boshqa insonlar bilan uzviy aloqada bo‘ladi. O‘z ehtiyoj va

manfaatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida u jamiyat a’zolari bilan hamkorlik qilishga, turli ijtimoiy munosabatlar tizimida ishtirok etishga majburdir. Shu ma’noda, insonning jamiyatdan tashqarida yakka holda mavjud bo‘lishi mumkin emas. Jamiyat doirasida yashar ekan, shaxs o‘zining ijtimoiy faolligini namoyon etadi va aynan shu faollik orqali ijtimoiy hayot jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday sharoitda ijtimoiy faoliyatning mohiyatini, uning tabiati hamda jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rnini ilmiy asosda ochib berish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur masalani tahlil etishda uning ayrim metodologik va nazariy jihatlariga e’tibor qaratish zarur. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “ijtimoiy faollik” tushunchasining mazmunini aniqlash borasida yagona va umumqabul qilingan yondashuv mavjud emas. Shu sababli, ushbu tushunchaning mohiyatini ochib berish va unga nisbatan mavjud qarashlarni umumlashtirish mazkur tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimlilik, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy faollik shaxs qiziqishlarining amaliy harakatga aylanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bilish, maqsad qo‘yish va voqelikni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan faoliyatda namoyon bo‘ladi. U shaxsning jamiyatdagi faoliyati xususiyatini ifodalovchi tushuncha sifatida obyektiv ehtiyojlar, mavjud shart-sharoitlar va insonning faol tabiati o‘rtasidagi ziddiyat bilan belgilanadi. Ijtimoiy faollik tasodifiy emas, balki tarixiy zaruriyat asosida shakllanib, maqsadli subyekt tomonidan yangi ijtimoiy shakllar va yashash sharoitlarini yaratish jarayonini aks ettiradi. Shu bilan birga, u shaxsning talablar, qiziqishlar, qarashlar va ideallar tizimi orqali ijtimoiy jarayonlar dinamikasiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishida inson omilining ahamiyatini belgilaydi.

Ijtimoiy faoliyatni va uning tabiatini tahlil qilishning metodologik asosi dialektik materializmda faoliyatning materiyaning universal xususiyati sifatida talqin etilishiga borib taqaladi. Falsafiy adabiyotlarda bu yondashuv yetarlicha asoslangan bo‘lib, faoliyat materiyaning uzluksiz, o‘z-o‘zidan harakatga kelish qobiliyati sifatida izohlanadi. Mazkur talqinga ko‘ra, harakat materiyaning ajralmas atributi hisoblanadi. Ushbu fikrni rivojlantirgan V.G.Mordkovich faoliyatni o‘zaro ta’sir shakli sifatida talqin etib, uni umumiy falsafiy ma’noda jonsiz obyektlarga xos xususiyat sifatida ham tushunish mumkinligini ta’kidlaydi.

Ya.F.Askin faoliyatni barcha materiyaga xos xususiyat atribut sifatida qarab, uning faol tamoyili sifatida ko‘rib, “materiya mavjudligining umumiy shakli, uning faolligini ifodalovchi harakatdir: o‘zaro ta’sir, moddalarning o‘zgarishi, rivojlanishi” deya alohida ta’kidlaydi. Xuddi shunday qarashni B.S.Ukrainsev, A.M.Korshunov, V.V.Montanov va boshqalar qo‘llab-quvvatlaydilar.

Faollikni materiyaning atributiv xususiyati sifatida e’tirof etish materiyaning turli harakat shakllariga muvofiq tuzilishi va rivojlanishining turli darajalarida uning ko‘rinadigan bo‘lish xususiyatlarini va o‘ziga xosligini e’tirof etish zarurligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, avvalo, jonsiz, jonli tabiat va jamiyatdagi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapirish maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda ijtimoiy munosabatlar tarkibida ijtimoiy faollik masalasining o‘rni qanday, degan savol paydo bo‘lishi tabiiy, bunda eng avvalo ijtimoiy aloqalarga to‘xtalib o‘tish o‘rinli bo‘ladi.

Ijtimoiy bog‘liqlik – bu bir tomonlama ijtimoiy subyektlarning boshqalarga ongli yoki ongsiz, zaruriy va tasodifiy, doimiy va o‘z-o‘zidan bo‘lgan bog‘lanishlari yig‘indisidir. Ijtimoiy aloqalar ko‘p jihatdan guruh tomonidan tan olingan me’yorlar va qadriyatlarni hisobga olgan holda odamlarning moslashuvchan xulq-atvorida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy aloqaning maqsadi shaxs yoki guruhning har qanday ehtiyojlarini qondirishdir. Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy aloqalar yanada murakkablashadi. Ijtimoiy aloqaning paydo bo‘lishining boshlang‘ich nuqtasi muayyan ehtiyojlarni qondirish uchun shaxslar yoki shaxslar guruhining o‘zaro ta’siridir.

Ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy shakllarda namoyon bo‘lsa-da, ular jamiyat hayotida alohida-alohida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq holda, yaxlit tizim sifatida amal qiladi. Insonlarning ijtimoiy hayotdagi faoliyati jarayonida mazkur munosabatlar bir vaqtning o‘zida va bir-birini to‘ldirgan holda ro‘yobga chiqadi. Shu ma’noda, ijtimoiy

munosabatlarni faqat obyektiv turmush sharoitlariga yoki alohida sohalarga qisqartirib talqin etish biryoqlama yondashuv hisoblanadi. E.D.Modrjinskayaning ta'kidlashicha, "Turmush tarzi ko'p qirrali va murakkab tushuncha bo'lib, u muayyan tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy shakllanish sharoitida kishilarning ijtimoiy munosabatlari hamda ijtimoiy hayotning asosiy sohalaridagi faoliyatini o'zida mujassamlashtiradi".

Boshqa mualliflar, xususan L.A.Gordon va E.V.Klopov, ijtimoiy munosabatlarni shaxs va guruhlarning kundalik xulq-atvorining turli shakllari kombinatsiyasi sifatida talqin qiladilar. Ko'pchilik tadqiqotchilarga ko'ra, ijtimoiy munosabatlar faoliyatning zaruriy xususiyatlari majmuini tashkil etadi. Shaxsning ijtimoiy faolligi uning ijtimoiy subyekt sifatidagi ko'rsatkichidir va shaxs mohiyatini, ijtimoiy faoliyatining butun boyligini ochib beradi.

Shaxsning ijtimoiy faolligi uning individual turmush tarzining asosiy xususiyati bo'lib, dunyoqarash va hayotiy pozitsiya orqali faoliyat va turmush tarzining ijtimoiy yo'nalishini belgilaydi. Bu esa shaxsning bilimlari, qarashlari va e'tiqodlari, dunyoni idrok etish usuli va tabiatiga bog'liq. Ayniqsa, dunyoqarash shaxsning kundalik ehtiyojlari, manfaatlari yoki jamiyat va sinfning talablariga asoslangan holda shakllanishi mumkin.

Shaxs ruhiy olamining markazi dunyoqarash bo'lib, uning o'zagi hayot maqsadi va mazmunini anglashdir. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy faoliyat hayot maqsadlarini amalga oshirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi va shaxsning ijtimoiy faolligi uning hayot tarzining eng muhim belgisi hamda yo'nalishini belgilovchi asosiy mezon sifatida ko'riladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy faoliyat o'rtasidagi munosabatlar o'zaro uzviy va ko'p qirrali bo'lib, ular shunchaki shaxsiy faoliyat bilan cheklanmaydi. Turmush tarzi ijtimoiy faoliyatni shakllantirish va amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Turmush tarziga ta'sir ko'rsatish orqali ijtimoiy faollik rivojlanishini kuzatish, aksincha, ijtimoiy faollik shakllanishi orqali turmush tarzining o'zgarishiga ta'sir qilish mumkin. Aniq tarixiy jamiyat, sinf va ijtimoiy guruhlarning turmush tarzi umumiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, har birining o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro ta'siri mavjud. Shu munosabat bilan ijtimoiy munosabatlar subyektiv ifoda shaklini oladi va ma'lum ijtimoiy subyektning turmush tarzini aks ettiradi. Natijada, jamiyatning turmush tarzi doirasida sinf va shaxs turmush tarzi o'zaro bog'langan iyerarxik tizim sifatida amalga oshadi. Bu esa ijtimoiy faoliyat va munosabatlarning bir-birini to'ldiruvchi, dinamik va tizimli xarakterini ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. P.D.Seitov. Filosofiyaǵa kirisiw. 1- bólim lekciya ushin materiallar. Nókis Bilim baspası, 1992.
2. A.K.Berdimuratova. (Filosofiya oqıw qollanba). Nókis, Qaraqalpaqstan, 2010.
3. Туленов.Ж. Диалектика назарияси. Т., 2000.
4. Модржинская Е.Д. Социологические аспекты национального суверенитета М.: 1970.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 343.915

LATENT JINOYATCHILIKNI SHAKLLANTIRUVCHI MADANIY OMILLAR

Narbayeva Nodira Jumanazarovna, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

CULTURAL FACTORS SHAPING LATENT CRIME

Narbaeva Nodira Jumanazarovna, Karakalpak State University named after Berdakh

КУЛЬТУРНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРУЮЩИЕ ЛАТЕНТНУЮ ПРЕСТУПНОСТЬ

Нарбаева Нодира Жуманазаровна, Каракалпакский государственный университет имени Бердаха



https://orcid.org/0009-0007-9468-2661
e-mail: narbaevanodira431@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyatda ochiq statistikada to‘liq aks etmaydigan latent jinoyatchilik hodisasining shakllanishiga ta’sir etuvchi madaniy omillar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *latent jinoyatchilik, madaniy omillar, ijtimoiy qadriyatlar, huquqiy ong, ijtimoiy stereotiplar, jamiyat va jinoyat.*

Abstract: *This article analyzes the cultural factors influencing the formation of latent crime, which is not fully reflected in official statistics.*

Keywords: *latent crime, cultural factors, social values, legal awareness, social stereotypes, society and crime.*

Аннотация: *В данной статье анализируются культурные факторы, влияющие на формирование латентной преступности, которая не в полной мере отражается в официальной статистике.*

Ключевые слова: *латентная преступность, культурные факторы, социальные ценности, правосознание, социальные стереотипы, общество и преступление.*

Kirish. Latent jinoyatchilikning ildizlari nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, yoki psixologik jarayonlar, balki jamiyatning madaniy muhitida ham chuqur joylashgan. Madaniyat — bu jamiyatning axloqiy qadriyatlari, urf-odatlari, ijtimoiy me’yorlari va ma’naviy tamoyillarining majmuasi bo‘lib, inson xulq-atvori va uning huquqiy ongini shakllantiruvchi eng muhim ijtimoiy omillardandir. Shu bois, madaniyatdagi sustlashuv, qadriyatlar tizimidagi inqiroz yoki axloqiy me’yorlarning buzilishi yashirin jinoyatlar — latent jinoyatchilikning kengayishiga bevosita turtki beradi.

Madaniy omillar vijdon va ijtimoiy javobgarlik hissi bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar jamiyatda axloqiy qadriyatlar nisbatan zaiflashsa yoki ijtimoiy adolat tamoyillari so‘nsa, odamlar qonunlarni tashqi majburiyat sifatida emas, balki shaxsiy manfaatga zid to‘siq sifatida qabul qila boshlaydi. Bu holatni sotsiolog olim Emil Durkgeim “anomiy holat” deb atab, jamiyatda me’yorlarning parchalanganligi jinoyatchilikni oshirishini ta’kidlagan[1,241]. Durkgeim nazariyasiga ko‘ra, jamiyat me’yorlari barqaror bo‘lmagan sharoitda, inson o‘z xulqini muvofiqlashtira olmaydi va huquqbuzarliklar tabiiy ijtimoiy oqimga aylanadi.

Demak, madaniy omillar shaxsning jinoyatga munosabatini, ijtimoiy me’yorlarga bo‘lgan sadoqatini va axloqiy ong darajasini shakllantiruvchi muhim determinantlardir. Jamiyatda madaniy qadriyatlar tizimining barqarorligi va axloqiy tarbiyaning kuchaytirilishi latent jinoyatchilikni kamaytirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘riladi. Shu sababli, kriminologik tahlilda madaniy omillarni e’tibordan

chetda qoldirish, jinoyatchilikning yashirin qatlamlarini to‘liq anglashga to‘sqinlik qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimlilik, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Latent jinoyatchilikni shakllantiruvchi madaniy omillar sifatida quyidagilarni keltish mumkin:

1. Axloqiy va ijtimoiy normalarning sustligi. Jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarning yemirilishi, ma’naviy mas’uliyatning pasayishi va ijtimoiy me’yorlarning zaiflashuvi yashirin jinoyatlarning kengayishiga bevosita turtki beradi. Axloqiy normalar jamiyat a’zolarining xulq-atvorini tartibga soluvchi, “nima yaxshi” va “nima yomon” degan mezonlarni belgilovchi ijtimoiy mexanizmdir. Ular zaiflashgan hollarda, shaxs o‘z xatti-harakatlarini axloqiy jihatdan emas, balki faqat shaxsiy manfaat nuqtayi nazaridan baholaydi. Natijada, shaxs jinoyat sodir etgan taqdirda ham uni “jinoyat” sifatida emas, balki “moslashuv” yoki “zarurat” sifatida ko‘rishi mumkin. Bu holat, o‘z navbatida, jinoyatni yashirish, bildirmaslik yoki ijtimoiy jihatdan “tushunarli” deb qabul qilishga olib keladi.

Fransuz sotsiologi Emile Durkgeim o‘zining “anomiya” nazariyasida ijtimoiy me’yorlarning yemirilishini jinoyatchilikning, xususan, yashirin jinoyatlar ko‘payishining asosiy sababi sifatida ko‘rsatgan. Uning fikricha, jamiyatda axloqiy nazoratning pasayishi natijasida shaxslar o‘z xatti-harakatlarini tartibga soluvchi umumiy ijtimoiy me’yorlardan uzoqlashadi, bu esa “axloqiy bo‘shliq”ni keltirib chiqaradi. Aynan shu axloqiy bo‘shliq yashirin jinoyatlarning ijtimoiy ildizidir — jinoyat sodir etuvchi shaxs o‘z xatti-harakatini jamiyat tomonidan rad etilmasligiga ishonadi.

2. Ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi qarama-qarshiliklar. Ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi qarama-qarshiliklar — latent jinoyatchilikni shakllantiruvchi chuqur madaniy omillardan biridir. Har qanday jamiyatda qadriyatlar tizimi ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlovchi asosiy poydevor hisoblanadi. Ammo bu tizimda turli avlodlar, ijtimoiy guruhlar yoki madaniy qatlamlar o‘rtasida qadriyatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganida, jamiyatning axloqiy me’yorlari o‘z kuchini yo‘qotadi. Natijada, fuqarolarda “Qaysi qadriyatga amal qilish kerak?” degan ichki ziddiyat vujudga keladi. Shu tarzda ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi izdan chiqish shaxsning axloqiy tanlovida noaniqlikni keltirib chiqaradi, bu esa yashirin jinoyatchilik uchun qulay ijtimoiy-madaniy zamin yaratadi.

Amerikalik sotsiolog Talkott Parsons ham qadriyatlar tizimidagi uyg‘unlik buzilganda ijtimoiy tizim muvozanatini yo‘qotishini ta’kidlagan. U “Ijtimoiy tizim — bu qadriyatlar, normalar va rollarning muvofiqligi asosida barqaror bo‘ladi”, deya qayd etadi. Demak, qadriyatlar tizimidagi qarama-qarshiliklar bu muvozanatni izdan chiqarib, ijtimoiy “me’yoriy dezoriyentatsiya”ni kuchaytiradi. Aynan shunday muhitda yashirin jinoyatlar — jamiyat tomonidan ochiq rad etilmaydigan, ammo ich-ichidan axloqiy inqirozni kuchaytiruvchi xatti-harakatlar shakllanadi.

Demak, ijtimoiy qadriyatlar tizimidagi qarama-qarshiliklar shaxsning axloqiy orientatsiyasini buzadi, me’yoriy dezorientatsiyani kuchaytiradi va yashirin jinoyatlarni “normal ijtimoiy xatti-harakat” sifatida qabul qilish uchun sharoit yaratadi. Shu sababli, barqaror ijtimoiy muhitni ta’minlash uchun qadriyatlar tizimidagi uyg‘unlikni tiklash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni saqlash — latent jinoyatchilikning madaniy ildizlarini bartaraf etishda asosiy ijtimoiy vazifa hisoblanadi.

3. Diniy befarqlik va ma’naviyatsizlik. Diniy qadriyatlar va ma’naviy ong inson xulq-atvorini ichki nazorat qilish, ijtimoiy me’yorlarga amal qilish va axloqiy mas’uliyatni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois din va ma’naviyat jamiyatdagi axloqiy barqarorlikning asosiy tayanchlaridan hisoblanadi. Ammo diniy befarqlik kuchaygan, ma’naviy qadriyatlar ikkinchi darajaga tushgan jamiyatlarda shaxsning ichki nazorati (vijdon, or-nomus, axloqiy mas’uliyat hissi) zaiflashadi. Bu holat shaxsni jinoyatga undovchi tashqi omillar (foydaparastlik, individualizm, ijtimoiy bosim) ta’siriga yanada moyil qiladi.

O‘zbekistonlik olim A.Jalolov esa diniy befarqlik va ma’naviyatsizlikni “Axloqiy immunitetning zaiflashuvi” deb atab, “ma’naviy immuniteti sust jamiyat o‘zini o‘zi himoya qila olmaydi, unda befarqlik, loqaydlik va yashirin jinoyatchilikning turli shakllari ildiz otadi”, deya qayd etadi[2,89].

4. Madaniy stereotiplar va deviant me’yorlar. Madaniy stereotiplar va deviant (ya’ni,

ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqadigan) me’yorlar — bu latent jinoyatchilikni shakllantiruvchi murakkab va ko‘p qirrali madaniy omillardandir. Jamiyatda mavjud bo‘lgan madaniy stereotiplar, qadriyatlar va norma tizimlari insonning xulq-atvorini boshqarishda muhim hisoblanadi. Ammo ushbu tizimda deformatsiya yuz berganda — ya’ni, ayrim illatli, qonunga zid yoki axloqan noto‘g‘ri xatti-harakatlar ijtimoiy jihatdan “qabul qilinadigan” holga aylanganda yashirin (latent) jinoyatchilik uchun ijtimoiy asos paydo bo‘ladi.

O‘zbekistonlik olim M.Qodirov esa bu borada shunday deydi: “Madaniy stereotiplar ong ostiga singib ketgan ijtimoiy illatlardir. Ular avloddan avlodga o‘tadi va ko‘pincha qonuniy me’yorlarga zid tarzda harakat qiluvchi yashirin tizimni yaratadi” [3,119]. Shu jihatdan, deviant me’yorlar jamiyatning norasmiy “axloqiy qonunlari”ga aylanadi va rasmiy qonun ustuvorligini zaiflashtiradi.

5. Huquqiy madaniyat darajasining pastligi. Mazkur omil shaxsning qonuniy me’yorlarni anglash, huquqiy mas’uliyatni his qilish va qonuniy chegaralarda harakat qilish qobiliyatining yetarli emasligini ifodalaydi. Huquqiy madaniyat past bo‘lgan jamiyatda shaxslar qonunni buzishning oqibatlari, jinoyat va uning ijtimoiy zararini to‘liq tushunmaydi, bu esa yashirin jinoyatlar uchun qulay ijtimoiy muhit yaratadi.

Umuman olganda, huquqiy madaniyat darajasining pastligi omili latent jinoyatchilikni kuchaytiruvchi muhim madaniy shart-sharoit sifatida qaraladi. Ushbu omilni kamaytirish uchun shaxs va jamiyatning huquqiy bilimini oshirish, axborot va ta’lim tizimida huquqiy madaniyatni mustahkamlash zarur.

Xulosa. Latent jinoyatchilikni shakllantiruvchi madaniy omillar jamiyatning axloqiy, ma’naviy va madaniy strukturalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, yashirin jinoyatlar yuzaga kelishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Axloqiy va ijtimoiy normalarning sustligi, qadriyatlar tizimidagi qarama-qarshiliklar va diniy befarqlik shaxsning qonuniy chegaralarni hisobga olmasdan harakat qilishiga, yashirin jinoyatlarga moyillikni oshiradi. Shu bilan birga, madaniy stereotiplar va deviant me’yorlar, shaxsning huquqiy madaniyati pastligi ham latent jinoyatchilik darajasini oshiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.Durkgeim. Le Suicide: Etude de sociologie. Paris: Felix Alcan, 1897. — p.241.
2. Jalolov,A. Ma’naviyat va axloq falsafasi. Toshkent: Ma’naviyat, 2015, p. 89.
3. Qodirov,M. Jamiyat va ma’naviyat: sotsiologik tahlil. Toshkent: O‘zbekiston, 2014, p. 119.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 811.111'271

PRAGMATIC FAILURES IN EXPRESSING RESPECT: EVIDENCE FROM ENGLISH-RUSSIAN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION

[1]Yusupova Sabohatxon A'zamjonovna, Associate professor, PhD, English philology department, Fergana State University
[2]Pulatova Kamolakhon Shukurjon kizi, master's student, Fergana State University



https://orcid.org/0000-0003-4883-076X
e-mail: s.a.yusupova@pf.fdu.uz

INGLIZ-RUS MADANIYATLARARO MULOQOTIDA HURMATNI IFODALASHDAGI PRAGMATIK MUVAFFAQIYATSIZLIKLAR

[1]Yusupova Sabohatxon A'zamjonovna, Farg'ona davlat universiteti ingliz filologiyasi kafedrasi dotsenti
[2]Po'latova Kamolaxon Shukurjon qizi, Farg'ona davlat universiteti magistranti



https://orcid.org/0009-0002-6975-3820
e-mail: kamolapulatova12@gmail.com

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ИСКАЖЕНИЯ ВЫРАЖЕНИЯ УВАЖЕНИЯ В АНГЛО-РУССКОЙ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

[1]Юсупова Сабохатхон Аъзамжоновна, доцент кафедры английской филологии Ферганского государственного университета, (PhD)
[2]Пулатова Камолахон Шукуржон кызы, магистрант Ферганского государственного университета

Abstract: *Respect plays a crucial role in successful interpersonal and intercultural communication. However, differences in linguistic norms and pragmatic conventions often lead to misunderstandings between speakers of different languages. This article examines pragmatic failures in expressing respect in English-Russian cross-cultural communication. The study aims to identify linguistic and cultural factors that cause misinterpretations of respect and to analyze how respect is pragmatically encoded in both languages. The findings suggest that pragmatic failures frequently arise from divergent politeness strategies, speech act realizations, and sociocultural expectations embedded in English and Russian communicative practices. The study emphasizes the importance of pragmatic awareness in developing intercultural communicative competence.*

Keywords: *respect, pragmatic failure, politeness strategies, intercultural communication, English, Russian, communicative competence*

Annotatsiya: *Hurmat shaxslararo va madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, lingvistik me'yorlar va pragmatik konvensiyalardagi farqlar turli tillarda so'zlashuvchilar o'rtasida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada ingliz–rus madaniyatlararo muloqotida hurmatni ifodalashda yuzaga keladigan pragmatik muvaffaqiyatsizliklar tahlil qilinadi. Tadqiqot hurmatning noto'g'ri talqin qilinishiga olib keluvchi lingvistik va madaniy omillarni aniqlash hamda har ikki tilda hurmatning pragmatik ifodalanishini o'rganishni maqsad qiladi. Tadqiqot natijalari pragmatik muvaffaqiyatsizliklar asosan turli xil muloyimlik strategiyalari, nutq aktlarining bajarilishi va sotsiokultur*

kutilmalar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik xabardorlik muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *hurmat, pragmatik muvaffaqiyatsizlik, muloyimlik strategiyalari, madaniyatlararo muloqot, ingliz tili, rus tili, kommunikativ kompetensiya.*

Аннотация. *Уважение играет ключевую роль в успешной межличностной и межкультурной коммуникации. Однако различия в лингвистических нормах и прагматических конвенциях часто приводят к недопониманию между носителями разных языков. В данной статье рассматриваются прагматические неудачи в выражении уважения в англо-русской межкультурной коммуникации. Цель исследования — выявить лингвистические и культурные факторы, вызывающие неверную интерпретацию уважения, а также проанализировать прагматические способы его выражения в английском и русском языках. Результаты исследования показывают, что прагматические неудачи возникают вследствие различий в стратегиях вежливости, реализации речевых актов и социокультурных ожиданиях. Подчеркивается значимость прагматической компетенции для формирования межкультурной коммуникативной компетентности.*

Ключевые слова: *уважение, прагматическая неудача, стратегии вежливости, межкультурная коммуникация, английский язык, русский язык, коммуникативная компетентность*

Introduction. In the context of globalization and intensified intercultural contacts, effective communication across languages and cultures has become increasingly significant [1]. Language functions not only as a system of grammatical and lexical units but also as a carrier of social values, norms, and attitudes [2]. One of the most fundamental values reflected in language is respect, which regulates interpersonal relations and communicative behavior within society.

In English-Russian communication, respect is expressed through culturally conditioned linguistic forms and pragmatic strategies. Even when speakers possess sufficient grammatical knowledge, communicative breakdowns may occur due to pragmatic failures [3]. Such failures arise when linguistically correct expressions are pragmatically inappropriate within a specific sociocultural context, leading to misinterpretation of intended respectful meanings.

The concept of respect in English and Russian is shaped by distinct historical and sociocultural traditions [4]. English communicative culture generally emphasizes indirectness, mitigation, and egalitarian interaction, whereas Russian communication often values directness, sincerity, and explicit recognition of social hierarchy. These differences make the study of pragmatic failures in expressing respect particularly relevant for cross-cultural linguistics.

The notion of pragmatic failure was introduced by Thomas (1983) to describe situations in which speakers fail to convey or interpret intended meanings due to pragmatic differences rather than grammatical errors. Pragmatic failures are commonly classified into pragmalinguistic failures, related to inappropriate linguistic choices, and sociopragmatic failures, caused by mismatches in cultural norms and expectations. Respect is closely linked to politeness theory, particularly to the concepts of face and face-threatening acts proposed by Brown and Levinson. In English, respect is frequently expressed through negative politeness strategies, such as indirect requests, hedging, and modal verbs. In contrast, Russian communicative norms often employ positive politeness and explicit linguistic markers of social relations, including forms of address and direct speech acts [5].

From a cross-cultural perspective, respect is a value-laden concept shaped by social roles, power distance, and situational context [6]. In English-Russian interaction, behaviors perceived as polite in one culture may be seen as overly formal or insincere in the other. English speakers often use indirect expressions and hedging to convey respect while maintaining conversational egalitarianism, reflecting lower power distance norms. By contrast, Russian norms emphasize hierarchy and status, with respect expressed through formal address and deference to authority. Failure to recognize these cultural frameworks can turn routine exchanges into sources of misunderstanding or perceived rudeness.

Pragmatic failures in expressing respect are therefore more than linguistic errors; they reflect deeper divergences in social cognition and

interactional expectations [7]. Misinterpretations frequently occur in workplace, academic, or diplomatic contexts. For instance, an English speaker's casual tone may seem disrespectful to a Russian interlocutor, while a Russian speaker's formal style may appear stiff to an English counterpart. These mismatches underscore the importance of pragmatic competence—awareness of language, cultural norms, and situational appropriateness—for effective and respectful cross-cultural communication [8].

Research method. The research employed qualitative pragmatic analysis of English-Russian cross-cultural communication. Data were collected from authentic conversational examples, including everyday interactions, academic discourse, and institutional communication. Supplementary data were obtained through semi-structured interviews with bilingual speakers and advanced learners of English and Russian. The analysis focused on respect-related speech acts such as requests, apologies, expressions of gratitude, forms of address, and evaluative statements. Each example was examined to determine the type of pragmatic failure and its underlying linguistic or cultural cause.

Results. The findings indicate that pragmatic failures in expressing respect are frequent in English-Russian communication. One major source of failure is differing preferences for directness and indirectness. Russian speakers may use direct requests in English that are perceived as impolite, while English speakers' indirect strategies may be interpreted by Russian interlocutors as uncertainty or lack of sincerity. Another significant factor involves forms of address. English speakers often use first names to convey friendliness, whereas Russian speakers may perceive this as inappropriate in formal contexts. Conversely, the use of titles and patronymics may sound excessively formal or distant to English speakers. Differences in expressing disagreement and criticism also contribute to pragmatic failures, as English communication tends to favor mitigation, while Russian communication prioritizes clarity and directness.

Discussion. The results demonstrate that pragmatic failures reflect deeper cultural differences in the conceptualization of respect. English communicative norms associate respect with personal autonomy and non-imposition, whereas Russian norms emphasize sincerity and social hierarchy.

These findings highlight the importance of integrating pragmatic and cultural instruction into language education. Developing learners' awareness of respect-related communication strategies can significantly reduce intercultural misunderstandings and improve communicative effectiveness.

Conclusion. The study confirms that pragmatic failures in expressing respect constitute a major challenge in English-Russian cross-cultural communication. Such failures stem from differences in politeness strategies, speech act realization, and sociocultural norms. The research underscores the role of pragmatic competence as an essential component of communicative competence. It is concluded that explicit instruction in pragmatics and intercultural communication can enhance learners' ability to express respect appropriately and effectively in multilingual contexts.

References:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press. (1987).
2. Thomas, J. Cross-Cultural Pragmatic Failure. Applied Linguistics, vol. 4(2), 91–112. (1983).
3. Leech, G. Principles of Pragmatics. Longman. (1983).
4. Wierzbicka, A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. Mouton de Gruyter. (2003).
5. Yule, G. Pragmatics. Oxford University Press. (2010).
6. Scollon, R., & Scollon, S. W. Intercultural Communication: A Discourse Approach. Blackwell. (2001).
7. Spencer-Oatey, H. Culturally Speaking: Culture, Communication and Politeness Theory. Continuum. (2008).
8. Kádár, D. Z., & Haugh, M. Understanding Politeness. Cambridge University Press. (2013).

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 378.147:004.9

HAMSHIRALIK ISHIDA BOSHQARISH FANINI O‘QITISHDA SAMARALI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Shakirova Dildora Davlyatovna, Toshkent davlat tibbiyot universiteti 2-son “Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlash” menejmenti kafedrasi assistenti

EFFECTIVE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING MANAGEMENT SCIENCE IN NURSING

Shakirova Dildora Davlyatovna, Assistant Professor, Department of Public Health and Healthcare Management, Tashkent State Medical University No.2

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ УПРАВЛЕНИИ В СЕСТРИНСКОМ ДЕЛЕ

Шакирова Дилдора Давлятовна, доцент кафедры общественного здравоохранения и управления здравоохранением Ташкентского государственного медицинского университета №2



https://orcid.org/0009-0006-7762-2758
e-mail: dildoradavlatovna87@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada hamshiralik ishida boshqaruv fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish usullari, bo‘lajak rahbar hamshiralarni murakkab va doimiy o‘zgarib boruvchi sog‘liqni saqlash tizimiga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan yondashuvlar bayon etilgan. Bundan tashqari, maqolada an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda raqamli vositalar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va buning natijasida ta’lim jarayonining sifatini, samaradorligini va talabalarning jalb qilinish darajasini sezilarli darajada oshirish kabi jihatlarga ham urg‘u berilgan.*

Tayanch iboralar: *hamshiralik ishida boshqaruv, sog‘liqni saqlash tizimi, an’anaviy o‘qitish usullari, innovatsion texnologiyalar.*

Abstract: *The article describes the methods of effective use of modern technologies in teaching nursing management, approaches that are crucial in preparing future nurse leaders for the complex and constantly changing healthcare system. In addition, the article emphasizes the use of digital tools and innovative technologies in addition to traditional teaching methods and significantly increasing the quality, efficiency and level of student engagement of the educational process.*

Key words: *nursing management, healthcare system, traditional teaching methods, innovative technologies.*

Аннотация*: В статье описывается эффективное использование современных технологий в обучении управлению сестринским делом, подходы, имеющие решающее значение для подготовки будущих лидеров сестринского дела к сложной и постоянно меняющейся системе здравоохранения. Кроме того, в статье подчеркивается использование цифровых инструментов и инновационных технологий в дополнение к традиционным методам обучения, что значительно повышает качество, эффективность и уровень вовлеченности студентов в образовательный процесс.*

Ключевые слова: *управление сестринским делом, система здравоохранения, традиционные методы обучения, инновационные технологии.*

Kirish. Hamshiralik ishida boshqaruv fani (inglizcha: “Nursing Management” yoki “Management Science in Nursing”) — bu hamshiralik xizmatlarini samarali rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, rahbarlik qilish va nazorat qilishga qaratilgan fundamental fandir. Bu fan hamshiralik amaliyotining klinik jihatlari bilan bir qatorda, sog‘liqni saqlash muassasalarida yuqori sifatli, xavfsiz va samarali tibbiy yordam ko‘rsatishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan liderlik, tashkiliy va boshqaruv ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi[1,2,3,]. Hamshiralik ishida boshqaruv fanining asosiy maqsadi bemorlarga ko‘rsatilayotgan yordam sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlash, hamshira xodimlarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ish muhitini yaxshilash va amaliyotda xavfsizlik va axloqiy standartlarga rioya etilishini ta’minlashdan iboratdir. Hamshiralik ishida boshqaruv fanining ahamiyati haqida gapiradigan bo‘lsak, samarali boshqaruv bemorlarga xavfsiz va eng yuqori sifatli yordam ko‘rsatilishini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Samarali boshqaruv hamshiralarning ishdan qoniqishini oshiradi, ish yukini optimallashtiradi va ularning kasbiy rivojlanishiga sharoit yaratadi. Hamshiralik ishida boshqarish fani zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismidir. U faqatgina klinik jihatdan malakali xodimlarni emas, balki boshqaruv jihatdan ham bilimli va qobiliyatli hamshira rahbarlarni tayyorlashga qaratilgan bo‘ladi va bu sohaning barqaror rivojlanishi va bemorlarga sifatli yordam ko‘rsatish uchun zarur hisoblanadi[4,5].

Materiallar va metodlar. Hamshiralik ishida boshqarish fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, bo‘lajak hamshiralik rahbarlarining murakkab va doimiy o‘zgarib boruvchi sog‘liqni saqlash tizimiga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. An’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda raqamli vositalar va innovatsion pedagogikalarni qo‘llash ta’lim jarayonining sifatini, samaradorligini va o‘quvchilarning jalb qilinish darajasini sezilarli darajada oshiradi[5,6].

Muhokama. Quyida hamshiralik ishida boshqarish fanini o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali zamonaviy texnologiyalar va ularning afzalliklari keltirilgan:

1. O‘quv jarayonini boshqarish tizimlari (LMS - Learning Management Systems):

Ushbu texnologiya kurs materiallarini (ma’ruzalar, o‘quv qo‘llanmalar, amaliy ishlar) markazlashtirilgan holda taqdim etib, topshiriqlar, testlar va baholashni avtomatlashtiradi va talabalar o‘rtasida va o‘qituvchi bilan muloqotni (forumlar, chatlar) tashkil etish orqali talabalar progressini kuzatadi. Bunga Moodle, Canvas, Blackboard, Google Classroom kabi pedagogic texnologiya turlari misol bo‘la oladi.

Ushbu texnologiyaning ahamiyati boshqaruvdagi ahamiyati shundan iboratki,u hamshiralik menejmenti bo‘yicha keys-stadilar, loyiha boshqaruvi bo‘yicha topshiriqlarni joylashtirish va munozarali mavzular bo‘yicha onlayn muhokamalar o‘tkazishda samarali hisoblanadi.

2. Mobil o‘qitish (M-Learning): Ushbu o‘qitish texnologiyasi smartfon va planshetlar orqali o‘quv materiallariga istalgan vaqtda, istalgan joyda kirish imkoniyatini beradi. Hamshiralik ishida boshqarishdagi ahamiyatiga kelsak, hamshiralik menejmenti bo‘yicha qisqa videoma’ruzalar, podkastlar, eslatmalar va tezkor savol-javob modullarini taqdim etadi. Bu, ayniqsa, vaqt taqsimoti bilan muammosi bo‘lgan talabalar yoki amaliyotchilar uchun foydali hisoblanadi.

3. Ma’lumotlarni tahlil qilish va Biznes Intellekti (BI) vositalari texnologiyasi sog‘liqni saqlash ma’lumotlarini (bemorlar oqimi, kadrlar soni, xarajatlar, natijalar) tahlil qilish uchun dasturiy ta’minotdan foydalanish imkoniyatini beradi. Uning menejmentdagi ahamiyati shundan iboratki, u talabalarga butun jahon ma’lumotlari asosida qaror qabul qilish, sifatni yaxshilash loyihalarini rejalashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni beradi.

4. Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish): ushbu texnologiya o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini (ballar, mukofotlar, darajalar, musobaqalar) kiritish orqali motivatsiyani oshirish imkoniyatini beradi. Menejmentdagi ahamiyati esa budjetni boshqarish bo‘yicha o‘yinlar, kadrlarni rejalashtirish bo‘yicha simulyatsion o‘yinlar, sifatni yaxshilash bo‘yicha jamoaviy tanlovlarni taklif etadi. Bu talabalarni muammolarni hal qilishga va strategik fikrlashga undaydi.

5. Sun’iy intellekt (SI) Hozirgi kunda sun’iy intellekt jamiyatning barcha sohalariga kirib keldi. U orqali istalgan vaqtda va joyda ma’lumotlar bazasini shakllantirish va hatto murakkab savollarga ham yo‘naltiruvchi javoblarni olish mumkin. Menejmentdagi ahamiyatiga keladigan bo‘lsak, u murakkab menejment yo‘nalishlari bo‘yicha qaror qabul qilishda sun’iy intellekt asosidagi simulyatorlardan foydalanish, resurslarni optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar bera oladi.

8. Kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) vositalarga: Google Docs, Microsoft Teams, Zoom, Slack lar misol bo‘la oladi. Qo‘llanilish maqsadiga ko‘ra u talabalar o‘rtasida loyiha ishlarini birgalikda bajarish, hujjatlarni tahrirlash, guruh yig‘ilishlari o‘tkazish kabi vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari menejmentdagi ahamiyati haqida gap borganda, hamkorlikka asoslangan o‘qitish jamoaviy liderlik, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, hamshiralik menejmenti loyihalari ustida guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi[7,8,9].

Natijalar. Shu o‘rinda hamshiralik ishida boshqarish fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorlik va afzalliklarini ta’kidlab o‘tish joiz. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamshiralik ishi boshqaruvida amaliy ko‘nikmalar oshishiga, simulyatsiyalar va real ma’lumotlar bilan ishlash orqali esa nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan bog‘lashga yordam beradi. Interaktiv va vizual texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini qiziqarli qilish dars samaradorligini oshiradi. Mobil va onlayn platformalar orqali o‘qish joyi va vaqtini tanlash imkoniyati esa moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Ma’lumotlarni tahlil qilish tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari hozirgi jadal rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar va zamonaviy texnika asrida raqamli savodxonlik jamiyatning barcha bo‘g‘ini singari tibbiyotda ham bo‘lajak hamshiralardan talab qilinadigan mihim ko‘nikma hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hamshiralik ishida boshqarish fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, shunchaki yangi vositalarni joriy etish emas, balki ta’lim sifatini o‘zgartirish demakdir. Bu talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, ularni kelajakdagi murakkab boshqaruv vazifalariga har tomonlama tayyorlaydi. Ushbu texnologiyalar to‘g‘ri integratsiya qilingan taqdirda, hamshira rahbarlarining bilim, ko‘nikma va kompetentlik darajasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gaponenko I Y. Bilimlarni boshqarish. - M.: Eksmo, 2008.
2. Panfilov A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – M.: Akademiya markazi nashriyoti, 2009-yil.
3. Professional pedagogika. Rossiya Ta’lim akademiyasi. Kasbiy ta’lim uyushmasi. – M.: APO nashriyoti, 1997-yil.
4. https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan
5. Huber, D.L. (Latest Edition). Leadership and Nursing Care Management. Elsevier.
6. Garrison, D.R., & Kanuka,H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. The Internet and Higher Education, 7(2), 95-105.
7. Jeffries, P.R. (Latest Edition). Simulations in Nursing Education: From Conceptualization to Evaluation. National League for Nursing.
8. Nursalim,M., Al-Gharaibeh, M., & Al-Husami,N. (2021). The effectiveness of gamification in nursing education: A systematic review. Nurse Education Today, 102, 104938.
9. Rutledge,C., & Giddens,J.F. (2017). Preparing nursing students for leadership roles: Creating a culture of leadership. Nurse Educator, 42(5), 235-238.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 372.851

O‘ZBEKISTON VA CHET EL DAVLATLARIDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISH USULLARI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

[1]Saparova Aynura Arslanbay qızı,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistratura bo‘limi “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (matematika)” mutaxassisligi I bosqish magistranti
[2]Erjanova Farida Baxitjan qızı,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistratura bo‘limi “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (matematika)” mutaxassisligi I bosqish magistranti



e-mail: aynurasaparova1011@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-3321-3518

METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES: THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES

[1]Saparova Aynura Arslanbayevna,
Master’s Department of the Ajiniyoz Nukus State Pedagogical Institute, Specialty: Methods of Teaching Exact and Natural Sciences (Mathematics), first-year Master’s student
[2]Erjanova Farida Baxitjanovna, Master’s Department of the Ajiniyoz Nukus State Pedagogical Institute,
Specialty: Methods of Teaching Exact and Natural Sciences (Mathematics), first-year Master’s student



e-mail: erzanovafarida69@gmail.com

МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ ПОДХОДЫ

[1]Сапарова Айнура Арсланбаевна,
магистратура Нукусского государственного педагогического института имени Ажиниёза, специальность «Методика преподавания точных и естественных наук (математика)», магистрант I курса
[2]Ержанова Фарида Бахитжановна,
магистрант Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, специальность «Методика преподавания точных и естественных наук (математика)», магистрант I курса

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston umumta’lim maktablarida matematika fanini o‘qitishda zamonaviy xorijiy metodikalarni joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Singapur matematika ta’lim tizimining CPA (Concrete–Pictorial–Abstract) modeli va Bar-model yondashuvi, shuningdek, Yaponiya ta’lim amaliyotida keng qo‘llaniladigan “Lesson Study” metodikasining nazariy va amaliy jihatlari o‘rganildi. Tahlil jarayonida mazkur metodlarning o‘quvchilarda matematik tushunchalarni mazmunan anglash, mantiqiy fikrlash va mustaqil yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berildi. Amaliy misollar orqali CPA modelining kasrlar va arifmetik masalalarni o‘qitishda samaradorligi ko‘rsatildi.*

***Kalit so‘zlar**: matematika ta‘limi, Singapur metodikasi, CPA modeli, Bar-model, Lesson Study, o‘quvchi fikrlashi, pedagogik innovatsiya.*

***Abstract:** This article analyzes the issues of implementing modern international teaching methodologies in mathematics education in general secondary schools of Uzbekistan. The study examines the theoretical and practical aspects of the Singapore mathematics education system, particularly the CPA (Concrete–Pictorial–Abstract) model and the Bar Model approach, as well as the "Lesson Study" methodology widely applied in Japanese educational practice. The analysis substantiates the role of these approaches in developing students' conceptual understanding of mathematical ideas, logical thinking, and independent problem-solving skills. Practical examples are provided to demonstrate the effectiveness of the CPA model in teaching fractions and arithmetic problem solving.*

***Key words:** mathematics education, Singapore methodology, CPA model, bar model, Lesson Study, student thinking, pedagogical innovation.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы внедрения современных зарубежных методик обучения математике в общеобразовательных школах Узбекистана. В исследовании анализируются теоретические и практические аспекты сингапурской системы математического образования, в частности модели CPA (Concrete–Pictorial–Abstract) и метода Bar Model, а также методики «Lesson Study», широко применяемой в образовательной практике Японии. Обоснована роль данных подходов в формировании у учащихся концептуального понимания математических понятий, развитии логического мышления и навыков самостоятельного решения задач. На основе практических примеров показана эффективность модели CPA при обучении дробям и решении арифметических задач.*

***Ключевые слова:** математическое образование, сингапурская методика, модель CPA, bar-модель, Lesson Study, мышление учащихся, педагогические инновации.*

Kirish. Matematika fanini o‘qitishda chet el tajribalalari, CPA modeli, BAR modeli. O‘qituvchilar malakasini oshirish va ularni integratsiya qilish. Bugungi globallashuv sharoitida matematika fa‘nini o‘qitishda samarali, amaliyotga yo‘naltirilgan, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydigan metodikalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston ta‘lim tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, o‘quv dasturlari xalqaro tajribaga moslashtirilmoqda. Xususan, Singapur, Finlandiya, Yaponiya kabi mamlakatlarning ilg‘or metodikasi matematika ta‘limi sifatini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston maktablarida matematika o‘qitish asosan quyidagi tamoyillarga asoslanadi: Davlat ta‘lim standartlari (DTS) asosida bilimlar berish; Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish; Muammoli vazifalar yechish orqali ko‘nikma hosil qilish; Darsliklar asosida bosqichma-bosqich mavzu o‘zlashtirish. Mavjud muammolar:

1. Amaliy mashg‘ulotlar kamligi
2. Nazariy tushunchalarni real hayot bilan bog‘lash yetarli emas
3. O‘quvchining individual o‘quv uslublarini inobatga olish sust
4. STEAM yondashuvi umumta‘lim maktablarida to‘liq qo‘llanmayapti
5. O‘qituvchilar uchun malaka oshirish tizimi ana‘naviy shaklda.

Shu sababli matematika o‘qitish sifatini oshirishda xalqaro metodikalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Singapur matematika tizimi dunyodagi eng samarali tizimlardan biri bo‘lib, PISA va TIMSS reytinglarida doim yuqori o‘rinlarni egallagan. Nima uchun Singapur davlati eng yuqori na‘tija ko‘rsatadi degan savol paydo bo‘ladi albatta. Buning sababini shu yerda aniq qilib ko‘rib o‘tamiz. Singapur ta‘lim tizimi qatiy va maqsadga yo‘naltirilgan. O‘quvchilarni yuqori natijalarga erishish uchun zamonaviy texnologiyalar va interaktiv o‘quv materiallari bilan ta‘minlaydi. Ta‘lim jarayonida matematik va tabiiy fanlarga alohida etibor qaratiladi. O‘qituvchilar o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab boradilar va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga harakat qiladilar. Bu yondashuv o‘quvchilarni mantiqiy va innovatsion fikrlashga tayyorlaydi. Singapur ta‘limi asosan quyidagi modellar asosida matematika fanini o‘qitadilar.

CPA modeli (Concrete – Pictorial – Abstract)

Bu yondashuv matematika tushunchalarini 3 bosqichda o‘rgatadi: **Concrete (Moddiy predmetlar bilan o‘rganish)** – Kublar, chizmalar, tayoqchalar orqali tushunchani sezish **Pictorial (Rasmli tasvir orqali)** – Diagramma, model, bar-model usuli **Abstract (Formula va raqamlar bilan)** – Matematikaning rasmiy ifodasi O‘zbekiston darslarida qo‘llash misoli:

Kasrlarni o‘rgatishda avval meva bo‘laklari bilan (Concrete),

so‘ng aylana diagrammalar (Pictorial),

keyin esa $\frac{3}{5} > \frac{2}{4}$ kabi matematik yozuvlar (Abstract) o‘rgatiladi.

Quyidagi masalalarni ko‘rib shiqamiz: Maktab stadionining uzunligi 45 m, kengligi 20 m. Perimetri qancha?

Concrete**: 1** m uzunlikdagi tayoqchalar (yoki o‘quv liniyasi) bilan to‘rtburchak yasash.

Pictorial**:** To‘g‘rito‘rtburchak chizmasi: L = 45, W = 20.

Abstract**:** P = 2(L + W) = 2(45 + 20) = 2·65 = **130 m**

Masala: 3 kg guruch 24 000 so‘m bo‘lsa, 5 kg guruch necha so‘m?

Concrete**:** Har 1 kg uchun 8000 so‘mlik gurush: 3 kg = 24000 so‘mlik gurush.

Pictorial:

Bar model: 
3 qism 24000 so‘m  1 qism 8000  5 qism = ? Abstract: 1 kg = 24 000 / 3 = 8 000

5 kg = 8 000 × 5 = **40 000 so‘m**

Bar-model usuli Bu usul Singapur matematika metodikasining eng mashhur elementidir. Masalani chizma bloklari orqali ko‘rsatish o‘quvchilarga yechimni tasavvur qilishni osonlashtiradi. Amaliy misol:

Masala: Ali 12 ta qalamga ega, Boburda esa undan 1,5 baravar ko‘p. Boburda nechta qalam bor?

Bar-model:

[Ali] 

[Bobur] 

Bu ko‘rinishda o‘quvchi 12 × 1,5 = 18 ekanini oson tushunadi. Ko‘zi bilan 1,5 barabarni ko‘rgandan keyin 12 ni 1,5 ga ko‘paytirish kerak degan tushuncha hosil bo‘ladi. Bu misollar orqali yanada o‘quvchilarga matematikani oson o‘rganishlari uchun yordam beradi. O‘zbekiston ta‘limiga joriy etish bo‘yicha takliflar: CPA modelini bosqichma-bosqich joriy qilish. Matematika darsliklari konkret → rasmli → abstrakt tartibda qayta tuzilsa, o‘quvchilarning tushunishi ancha yengillashadi.

CPA modeli asosida quyidagi misollarni ko‘rib shiqamiz SINGAPUR METODINING ASOSIY G‘OYASI

Singapur matematikasida savol shunday qo‘yiladi: “O‘quvchi **nega** umumiy maxraj kerakligini **ko‘rmasdan turib,** EKUK formulasini berish to‘g‘rimi?” Javob: **yo‘q.** Shuning uchun Singapurda **yo‘l quyidagicha:**

1. Avval **model → ma‘no**
2. Keyin **umumiy birlik**
3. Faqat undan keyin **EKUK / EKUB**

DEMAK, O‘QUVCHI NIMA QILADI?

EKUK ni bilmasdan ham o‘quvchi quyidagilarni qila oladi:

-Kasrlarni **bir xil bo‘lakka** keltira oladi

-Nega umumiy maxraj kerakligini **anglaydi**

-To‘g‘ri javobga **o‘zi yetib boradi. Singapur matematika metodikasida kasrlarni yig‘ishning mantiqiy modeli (CPA yondashuvi misolida)**Kasrlarni qo‘shish jarayoni o‘quvchilar tomonidan ko‘pincha faqat “maxrajlarni tenglashtirish” yoki “EKUK topish” kabi mexanik qoidalarga asoslangan holda bajariladi. Singapur matematika o‘qitish tizimida esa bu jarayon formula yodlashdan emas, balki **mazmunini anglash uni mohiyatini tushinish va keyin xulosa qilishga undaydi.**

CPA modeli asosida quyidagi misollarni ko‘rib shiqamiz

$\frac{2}{7} + \frac{3}{5}$

TAMADDUN NURI

1. **Konseptual anglash bosqichi (Concrete–Konkret Aniq)**
O‘quvchidan birinchi navbatda kasrlarning **ma‘nosini anglab olish** talab etiladi:
$\frac{2}{7}$ — bir butunning 7 ta teng bo‘lagidan 2 qismi;
$\frac{3}{5}$ — bir butunning 5 ta teng bo‘lagidan 3 qismi.
Bu yerda o‘quvchi darhol quyidagi muammoni ko‘radi:

Muammo: 7 bo‘lak bilan 5 bo‘lak bir xil bo‘lak emas, shuning uchun ularni bevosita qo‘shib bo‘lmaydi.

2. Mantiqiy muammo qo‘yish (Singapur metodining markaziy nuqtasi)
O‘qituvchi savol beradi: **“Agar bo‘laklar bir xil bo‘lmasa, ularni qanday qilib qo‘sha olamiz?”** O‘quvchi mantiqan quyidagi xulosaga kelishga yo‘naltiriladi: **Xulosa: Bo‘laklarni bir xil mayda bo‘laklarga aylantirish kerak. O‘quvchi o‘z fikrlarini aytadi taxminlar qilib ko‘radi va o‘qituvchi bilan birga mulohaza qiladi.**
Bu yerda na formula, na EKUK beriladi — faqat mantiqiy izlanish ishlaydi. **3. Piktorial (Tasviriy) model orqali tushunish**
Ikki shokolad tasavvur qilinadi:
birinchisi 7 bo‘lakka bo‘lingan;
ikkinchisi 5 bo‘lakka.
Savol: **“Ikkala shokoladni qanday bo‘lsak, bo‘laklari bir xil bo‘ladi?”** O‘quvchi turli variantlarni sinab ko‘radi:
7 bo‘laklarni 2 taga bo‘lish → 14 bo‘lak
5 bo‘laklarni 3 taga bo‘lish → 15 bo‘lak
Ular baribir teng emas. Natijada o‘quvchi **7 bo‘lakni 5 taga, 5 bo‘lakni 7 taga** bo‘lganda umumiy tenglik hosil bo‘lishini mantiqan o‘ylab topadı. Bu esa:
-7 bo‘lakli shokolad → 35 bo‘lak
-5 bo‘lakli shokolad → 35 bo‘lak

Demak, ikkala kasr **35 ta teng bo‘lakka** ega bo‘ladi.
4. Piktorialdan abstraktga o‘tish (CPAning oxirgi bosqichi) Shu asosda:

$\frac{2}{7}=\frac{10}{35}$ $\frac{3}{5}=\frac{21}{35}$ $\frac{10}{35}+\frac{21}{35}=\frac{31}{35}$

Ilmiy-pedagogik xulosa. Bu yondashuvda kasrlarni qo‘shish:
-mexanik qoidaga emas,
-mantiqiy izlanish,
-konkret model,
-piktorial tasvir,
-abstrakt formulaga o‘tish
bosqichlari orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun o‘quvchi EKUKni yoddan bilmasa ham, nima uchun umumiy maxraj zarurligini o‘zi topadi, matematik mazmunini to‘liq tushunadi. Bu usullardan asosan 4-5-6-sinf matematika darslarida qo‘llasak o‘quvchilarda kasrlarni qo‘shishga ularni asl mohiyatini anglashga bo‘lgan tushunsha hosil bo‘ladi. Bu usullarni keng qo‘llashimiz uchun o‘qituvchlar bilim darajasini oshirish ularga amaliy darslar tashkil etishni ko‘paytirish, o‘qituvchilarning amaliy seminarlarini ko‘paytirish, nazariy o‘quvlar emas, balki real dars namunalariga urg‘u berish kerak. Zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘qituvchi kompetensiyasining shakllanishi faqat nazariy bilimlar bilan chegaralanmaydi. So‘nggi yillarda olib borilgan pedagogik tadqiqotlar amaliy faoliyatga asoslangan malaka oshirish modeli, o‘qituvchining kasbiy o‘sishida yuqori samaradorlik berishini ko‘rsatmoqda. Xalqaro baholash dasturlari (TIMSS, PISA) natijalari ham o‘qituvchi professionalligi ta‘lim sifatining asosiy omili ekanini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston ta‘lim tizimi uchun amaliy seminarlar sonini ko‘paytirish va ularning mazmunini boyitish dolzarb masala hisoblanadi. Amaldagi malaka oshirish tizimi ko‘p hollarda nazariy kurslarga tayanadi, bu esa o‘qituvchining real sinf sharoitida metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini to‘liq shakllantira olmaydi. Ta‘lim sifati samarador bo‘lishi uchun malaka oshirish jarayoniga ochiq darslar, kuzatuv darslari, “lesson study”, metod sinovi, amaliy mashg‘ulotlar kabi faol metodik jihatlarni integratsiya qilish zarur. Bunday amaliy yondashuv o‘qituvchiga faqat metod mazmunini bilish emas, balki uni dars jarayonida samarali qo‘llash, o‘quvchilarning real ehtiyojiga moslashtirish imkonini yaratadi. Shuning uchun, malaka oshirish tizimida amaliy seminarlar ulushini oshirish, nazariy o‘quv kurslarini real dars jarayonlari bilan birlashtirish hamda o‘qituvchini sinfdagi faoliyatga tayyorlaydigan metodik modelni joriy etish ta‘lim sifatini oshirishning samarali yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun: Chet davlatlar ta‘lim sistemasida o‘qituvchilar qanday malakalarini oshirishadi. Yaponcha “Lesson Study”ni maktablar kesimida

TAMADDUN NURI

muntazam joriy qilish. Yaponiyada dars tahlili jarayoni juda kuchli yo‘lga qo‘yilgan. “Jugyō Kenkyū” (Lesson Study) — Yaponiya o‘qituvchilari amaliyotining mohiyati. Jugyō Kenkyū (授業研究) — bu “darsni tadqiq qilish”, “dars ustida tadqiqot” degani. Asosiy maqsad: o‘qituvchilar birgalikda dars rejasini ishlab chiqadi, tajriba darsini o‘tkazadi, o‘zaro kuzatadi va birgalikda tahlil qiladi. Darsni doimiy takomillashtirish jarayoni. Yaponiyada bu o‘qituvchilar malakasini oshirishning eng asosiy va samarali tizimi hisoblanadi.

Asosiy g‘oya: O‘qituvchi yolg‘iz ishlamaydi — jamoaviy dars yaratadi.

Dars — ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko‘riladi. Diqqat o‘qituvchida emas, o‘quvchining fikrlashi va o‘rganish jarayonida bo‘ladi. Har darsdan keyin chuqur tahlil qilinadi — “Nima uchun bu o‘quvchi bunday fikrladi?” Lesson Study’ning 4 bosqichi 1. Rejalashtirish (Planning – Research Lesson Plan) O‘qituvchilar guruhi o‘quv maqsadlarini aniqlaydi, asosiy muammoni belgilaydi, dars ssenariysi va materiallarini birgalikda yaratadi, o‘quvchi qanday fikrlaydi? – degan savolga e’tibor qaratadi. Bu jarayon 1–3 hafta davom etishi mumkin. 2.Tadqiqot darsini o‘tkazish (Research Lesson / Public Class) Darsni odatda guruhdan bitta o‘qituvchi olib boradi. Boshqa o‘qituvchilar dars davomida o‘quvchilarning fikrlash jarayonini kuzatadi, daftar, suhbat, xatti-harakatlarni yozib boradi. Darsni video kuzatuvlarga yozib olish (video) keng tarqalgan. Tahlil va muhokama (Post-lesson Discussion) Bu bosqich Lesson Study’ning eng kuchli qismi. Odatda ushbu savollar ko‘rib chiqiladi: O‘quvchilar qaysi bosqichda qiynaldi? Qaysi savol ularning fikrini rivojlantirdi? O‘qituvchi aralashgan payt foydali bo‘ldimi? Materiallar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undadimi? Muhokama odatda 40–90 daqiqa davom etadi.

Qayta ishlash va nashr (Revision & Sharing)

-Dars rejasiga o‘zgartirishlar kiritiladi.

-Yakuniy hisobot yoziladi.

-Materiallar maktab doirasida yoki milliy bazaga yuklanadi. Yaponiyada minglab Lesson Study rejalari umumiy baza sifatida mavjud. Nima uchun Yaponiya maktablari aynan Lesson Study’ni qo‘llaydi? O‘qituvchilar malakasi doimiy oshadi. Har o‘qituvchi yiliga 10–15 ta Lesson Study jarayonida qatnashadi. Bu orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarni chuqur fikrlashga o‘rgatadi. Darsda “to‘g‘ri javob” emas, fikrlash jarayoni muhim. Hamkorlik madaniyati shakllanadi. Yapon o‘qituvchilari bir-birini tanqid qilmaydi — fikr almashadi, dalil bilan gapiradi. Dars sifati milliy darajada standartlashtiriladi Yaponiyada har bir fanga alohida e’tibor beriladi. Bu usullarni integratsiya qilib o‘zbek milliy ta‘lim tizimiga kiritish, o‘quvchilarning fikrlashini va bilim darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatqulov, A. (2020). "Matematika fanini òqitishda innovatsion yondashuvlar." O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim vazirligi nashri.
2. Xudoyberganova, D. (2019). Chet el tajribasi: Singapur va Finlandiya maktablarida matematika. Ta‘lim va innovatsiyalar jurnali.
3. Isroilova, N. (2018). Singapur modelida matematika ta'limi: nazariy va amaliy jihatlar. Xalqaro ta‘lim konferensiyasi materiallari.
4.Badger, J. *Teaching Singapore Math: Evaluating Measures to Effectively Teach and Implement a New Mathematics Curriculum.* (2013) — Singapur matematik yondashuvi va uni tatbiq etish strategiyalari.
5.Shabatova, R. *Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitishda innovatsion yondashuv masalalari.* Yangi O‘zbekiston Ilmiy Tadqiqotlar jurnali (2024). Raqamli vositalar bilan matematikani o‘qitish tajribasi tahlil qilingan.
6.O‘rinboyev O.O. *Matematika o‘qitishning xalqaro tajribalari.* Tadqiqotlar jurnali (2025). Singapur, Finlyandiya kabi ilg‘or mamlakatlar metodikasi o‘rganilgan.
7.Xaydarov B.K. *Singapur matematikasi va uni O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy etish muammolari.* Zamonaviy fan va tadqiqotlar (2025). Singapur yondashuvi asoslari ko‘rib chiqiladi.
8.Abdullayeva G.A. *Akademik litseylarda matematika fanini o‘qitishda xalqaro tadqiqotlarning o‘rni.* Tadqiqotlar.uz (2025).

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 101.1:316.4:141.7

KIBER MAKONDA SHAXSIY ERKINLIKNI CHEKLASH JARAYONLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI VA ULARNING ZAMONAVIY JAMIYATGA TA'SIRI

Rahmatullayev Mardonbek Farhod o'g'li,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi



https://orcid.org/0009-0006-5369-5397

SOCIAL-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF PROCESSES LIMITING PERSONAL FREEDOM IN CYBERSPACE AND THEIR IMPACT ON CONTEMPORARY SOCIETY

Rahmatullayev Mardonbek Farhod o'g'li,
Researcher at Namangan State University

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ ПРОЦЕССОВ ОГРАНИЧЕНИЯ ЛИЧНОЙ СВОБОДЫ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО

Рахматуллаев Мардонбек Фарход оглы,
исследователь Наманганского государственного университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda kiber makonda shaxsiy erkinlikning cheklanishi masalasi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Axborotlashgan jamiyatda shaxsning virtual makondagi faoliyati, uning shaxsiy ma'lumotlari ustidan nazorat mexanizmlarining kuchayishi va davlat hamda nodavlat institutlarning ijtimoiy nazorat amaliyotlari o'rtasidagi murakkab munosabatlar chuqur o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *kiber makon, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy nazorat, raqamli jamiyat, axborot xavfsizligi, nazorat jamiyati, falsafiy tahlil, virtual identifikatsiya.*

Abstract: *This article analyzes the issue of limiting personal freedom in cyberspace from a social-philosophical perspective in the context of the rapid development of digital technologies. It provides an in-depth examination of the complex relationships between individual activity in the virtual space of the information society, the strengthening of control mechanisms over personal data, and the practices of social control exercised by state and non-state institutions.*

Key words: *cyberspace, personal freedom, social control, digital society, information security, surveillance society, philosophical analysis, virtual identification.*

Аннотация: *В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется проблема ограничения личной свободы в киберпространстве в условиях стремительного развития цифровых технологий. Глубоко изучаются сложные взаимосвязи между деятельностью личности в виртуальном пространстве информационного общества, усилением механизмов контроля над персональными данными, а также практиками социального контроля со стороны государственных и негосударственных институтов.*

Ключевые слова: *киберпространство, личная свобода, социальный контроль, цифровое общество, информационная безопасность, общество контроля, философский анализ, виртуальная идентификация.*

Kirish. XXI asr boshlaridan boshlab insoniyat taraqqiyoti tarixida tub burilish yasagan omillardan biri raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlarining keskin sur'atlarda rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Internet tarmoqlari, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), algoritmik boshqaruv va raqamli platformalar jamiyatning barcha sohalariga chuqur singib, insonning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashini tubdan o‘zgartirmoqda[1]. Ushbu jarayonlar natijasida shakllanayotgan kiber makon endilikda nafaqat texnologik muhit, balki ijtimoiy, madaniy, siyosiy va falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aynan shu nuqtada shaxsiy erkinlik masalasi yangi mazmun kasb etib, zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Klassik falsafiy an'analarda shaxsiy erkinlik insonning tabiiy huquqi, uning irodasi va ongli tanlovi bilan bog‘liq kategoriyalar orqali izohlangan[2]. Liberal falsafada erkinlik tashqi majburiy cheklovlarning yo‘qligi sifatida talqin qilinsa, ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarda u shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tizimi doirasida tahlil qilingan. Biroq kiber makonning paydo bo‘lishi ushbu an'anaviy tushunchalarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Chunki virtual muhitda shaxs erkinligi endi faqat jismoniy yoki huquqiy cheklovlar bilan emas, balki algoritmik nazorat, raqamli monitoring, ma'lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish mexanizmlari orqali bilvosita tarzda chegaralanmoqda. Zamonaviy jamiyatda kiber makon inson faoliyatining muhim maydoniga aylangan [3]. Ijtimoiy tarmoqlar, elektron hukumat tizimlari, onlayn ta'lim va mehnat platformalari shaxsning o‘zini namoyon etish, fikr bildirish va ijtimoiy aloqalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirayotgandek ko‘rinsa-da, aslida ushbu jarayonlar shaxsiy hayotning ochiqlashuvi va nazorat qilinuvchanligini kuchaytirayotgan murakkab paradoksni yuzaga keltirmoqda. Shaxs kiber makonda erkin harakat qilayotgandek tuyuladi, biroq uning har bir raqamli izi, xulq-atvori va kommunikatsiyasi turli institutlar tomonidan qayd etilib, tahlil qilinmoqda [4]. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, kiber makonda shaxsiy erkinlikni cheklash jarayonlari nazorat jamiyati konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, zamonaviy jamiyatda nazorat ochiq repressiv shakllardan ko‘ra, yashirin, texnologik va institutsional mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Kiber makon ana shunday nazoratning eng samarali va ko‘rinmas vositasiga aylanmoqda. Shaxs o‘z xohishi bilan raqamli platformalardan foydalanar ekan, u bilvosita ravishda o‘z erkinligini cheklovchi tizimlarga integratsiyalanadi[5]. Bu holat shaxsiy erkinlik va ijtimoiy xavfsizlik o‘rtasidagi murakkab muvozanat masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Mazkur muammoning dolzarbligi shundaki, kiber makonda erkinlikni cheklash jarayonlari ko‘pincha axborot xavfsizligi, milliy manfaatlar, terrorizmga qarshi kurash yoki jamoat tartibini saqlash kabi legitim maqsadlar bilan asoslanadi. Biroq falsafiy jihatdan ushbu asoslar doimo bahsli bo‘lib qolmoqda. Chunki erkinlikni cheklashning chegarasi qayerda tugashi, nazoratning legitimligi qanday mezonlar asosida belgilanishi va shaxsning roziligi qanchalik ongli ekanligi masalalari ochiq qolmoqda[6]. Aynan shu nuqtada ijtimoiy-falsafiy tahlil zarurati yuzaga keladi. Kiber makonning xususiyati shundaki, u makon va vaqt chegaralarini bartaraf etadi, biroq shu bilan birga shaxsiy hayot va ommaviylik o‘rtasidagi farqni xiralashtiradi. An'anaviy jamiyatda shaxsiy hayot tushunchasi ma'lum darajada himoyalangan bo‘lsa, raqamli muhitda ushbu tushuncha qayta talqin qilinmoqda. Shaxsiy ma'lumotlar iqtisodiy resursga, ijtimoiy xulq-atvor esa boshqariladigan obyektga aylanmoqda. Bu esa shaxsning avtonomligi va subyektivligini zaiflashtirish xavfini tug‘diradi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, kiber makonda erkinlikni cheklash faqat tashqi bosim natijasi emas, balki shaxsning o‘zi tomonidan ongli yoki ongsiz tarzda qabul qilinayotgan jarayondir. Raqamli qulayliklar, tezkor aloqa va axborotga cheksiz kirish imkoniyati evaziga shaxs o‘zining ma'lum huquq va erkinliklaridan voz kechmoqda[7]. Bu holat "raqamli rozilik" tushunchasini muhokama qilishni taqozo etadi. Falsafiy jihatdan esa bu erkinlikning yangi shakli yoki uning zamonaviy transformatsiyasi sifatida baholanmoqda. Mazkur maqolaning kirish qismida muammo aynan shu murakkab ijtimoiy-falsafiy kontekstda ko‘rib chiqiladi. Kiber makonda shaxsiy erkinlikni cheklashning nazariy asoslari, uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri va shaxs ongidagi aks-sadosi ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, erkinlik va nazorat o‘rtasidagi dialektik munosabat, raqamli jamiyat sharoitida

shaxsning ontologik maqomi va axborot texnologiyalarining normativ chegaralari masalalari muhim tadqiqot obyekti sifatida belgilab olinadi. Shu boisdan, mazkur tadqiqot kiber makonda shaxsiy erkinlikni cheklash masalasini faqat texnologik yoki huquqiy doirada emas, balki keng ijtimoiy-falsafiy paradigma asosida yoritishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Kiber makonda shaxsiy erkinlikni cheklash masalasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda keng muhokama qilinayotgan konseptual muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo, ayniqsa, nazorat jamiyati, raqamli hokimiyat va texnologik ratsionallik paradigmalari doirasida xorijiy olimlar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Mazkur yo‘nalishda fransuz faylasufi Mishel Fuko va amerikalik ijtimoiy nazariyotchi Shoshana Zuboffning ilmiy qarashlari muhim metodologik asos sifatida ajralib turadi. Mishel Fuko o‘zining ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarida hokimiyat va nazorat mexanizmlarining evolyutsiyasini tahlil qilib, zamonaviy jamiyatda erkinlikning ochiq repressiya orqali emas, balki bilvosita va institutsional shakllar orqali cheklanishini asoslab beradi[7]. Uning fikricha, hokimiyat subyektni majburlash orqali emas, balki uni “normallashtirish” orqali boshqaradi. Fuko ishlab chiqqan panoptikon modeli nazariy jihatdan kiber makondagi raqamli nazorat mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki virtual muhitda shaxs doimiy kuzatuv ostida ekanini aniq sezmasa-da, uning xulq-atvori algoritmik tizimlar tomonidan qayd etilishi va baholanishi nazoratning ichkilashtirilishiga olib keladi. Natijada shaxs o‘zini erkin deb his qilgan holda, aslida ijtimoiy-intizomiy mexanizmlarga moslashadi. Bu holat Fuko ta’kidlaganidek, hokimiyatning eng samarali shakli sifatida namoyon bo‘ladi, chunki u shaxsning ichki dunyosiga singib, o‘z-o‘zini nazorat qilish mexanizmini shakllantiradi. Bu jarayonda shaxsning roziligi formal xarakter kasb etib, erkin tanlov illuziyaga aylanadi. Natijada shaxs o‘z erkinligini texnologik qulayliklar evaziga bosqichma-bosqich yo‘qotadi. Fuko va Zuboff qarashlarini qiyosiy tahlil qilgan holda aytish mumkinki, kiber makonda shaxsiy erkinlikni cheklash jarayoni faqat davlat yoki siyosiy hokimiyat bilan bog‘liq emas, balki iqtisodiy manfaatlar va texnologik ratsionallik bilan ham uzviy aloqadordir.

Metodologik qism. Mazkur maqolada kiber makonda shaxsiy erkinlikni cheklash jarayonlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishda dialektik yondashuv, tizimli tahlil, tarixiy-falsafiy qiyoslash, konseptual tahlil hamda fenomenologik metodlar uyg‘un holda qo‘llanildi, bunda dialektik metod erkinlik va nazorat o‘rtasidagi qarama-qarshi, ammo o‘zaro bog‘liq munosabatlarni ochib berishga xizmat qilgan bo‘lsa, tizimli tahlil kiber makonni yaxlit ijtimoiy muhit sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi, tarixiy-falsafiy qiyoslash orqali shaxsiy erkinlik tushunchasining an’anaviy va raqamli jamiyat sharoitidagi transformatsiyasi aniqlashtirildi, konseptual tahlil nazorat jamiyati va raqamli kapitalizm tushunchalarining mazmun-mohiyatini chuqurlashtirdi, fenomenologik yondashuv esa shaxsning virtual makondagi subyektiv tajribasini va erkinlikni idrok etish jarayonini ilmiy asosda talqin qilishga imkon yaratdi.

Xulosa qilib aytganda, kiber makonda shaxsiy erkinlikni cheklash muammosini hal etish uchun faqat texnik yoki huquqiy choralar yetarli emas, balki uni chuqur ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida anglash zarur. Erkinlik va xavfsizlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlash, shaxsning raqamli ongini rivojlantirish hamda nazorat mexanizmlarining legitim chegaralarini belgilash zamonaviy jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot ushbu yo‘nalishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi va kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun konseptual zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva B. S., Ro‘ziyev Y. Z., Ismoilova K. V. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati //Darslik. Toshkent. «Donishmand ziyosi. – 2024.
2. Odilqoriyev X. T. Davlat va huquq nazariyasi //Darslik. -T.:Adolat. – 2018.
3. Shohbozbek, E. (2025). Theoretical foundations for the development of the spiritual worldview of youth. Maulana, 1(1), 29-35.
4. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari //Toshkent-2008. – 2008.
5. Olimov Q. T. Kasb ta’limi uslubiyati //Toshkent: Iqtisod moliya. – 2006.
6. Mamurov B. Umumiy pedagogika //Barcha ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik: - Toshkent. – 2020. – T. 118.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 81'37

COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES

Nurillaev Khamza Kudaybergenovich,
Karakalpak State University named after Berdakh, (PhD)

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОМАТИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ

Нурыллаев Хамза Кудайбергенович
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, (PhD)

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Nurillayev Xamza Qudaibergenovich,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, (PhD)

https://orcid.org/0009-0006-9407-3439

e-mail: nkhamza@mail.ru

Annotation: *The article conducts a comparative-typological study of somatic phraseological units (SPhUs) in English and Karakalpak languages. The research focuses on how names of human body parts are transformed into cultural codes through metaphorical reinterpretation. Phonostylistic and contrastive analysis reveals that while English SPhUs rely on analytical stability, Karakalpak units utilize complex agglutinative structures and phonological harmonies (alliteration and assonance). The findings contribute to the fields of cognitive linguistics and cross-cultural communication.*

Key words: *somatic phraseology, Karakalpak language, English language, comparative-typological analysis, phonostylistics, metaphor, linguistic picture of the world.*

Аннотация: *В статье проводится сравнительно-типологическое исследование соматических фразеологических единиц (СФЕ) в английском и каракалпакском языках. Исследование сосредоточено на том, как названия частей человеческого тела трансформируются в культурные коды посредством метафорического переосмысления. Фоностилистический и контрастивный анализ показывает, что в то время как английские СФЕ опираются на аналитическую стабильность, каракалпакские единицы используют сложные агглютинативные структуры и фонологические гармонии (аллитерацию/ассонанс). Результаты исследования вносят вклад в области когнитивной лингвистики и межкультурной коммуникации.*

Ключевые слова: *соматическая фразеология, каракалпакский язык, английский язык, сравнительно-типологический анализ, фоностилистика, метафора, языковая картина мира.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va qoraqalpoq tillaridagi somatik frazeologik birliklarning (SFB) qiyosiy-tipologik tadqiqi o'tkazilgan. Tadqiqot inson tana a'zolari nomlarining metaforik qayta*

anglash orqali qanday qilib madaniy kodlarga aylanishiga qaratilgan. Fonostilistik va kontrastiv tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili somatik frazeologizmlari tahliliy (analitik) barqarorlikka tayanadi, qoraqalpoq tili birliklari esa murakkab agglyutinativ tuzilmalar va fonologik uyg‘unlikdan (alliteratsiya/assonans) foydalanadi. Tadqiqot natijalari kognitiv lingvistika va madaniyatlararo muloqot sohalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *somatik frazeologiya, qoraqalpoq tili, ingliz tili, qiyosiy-tipologik tahlil, fonostilistika, metafora, olamning lingvistik manzarasi.*

INTRODUCTION. In modern linguistics, the study of phraseology is closely linked to the anthropocentric paradigm. Somatic phraseological units (SPhUs) — those containing names of body parts — are universal across all languages but possess unique national characteristics [1, 24-p.]. In English and Karakalpak, somatisms like *head (бас), eye (көз), hand (қол),* and *heart (жүрек)* form the core of the phraseological fund. This research aims to identify the typological similarities and specific national differences in how these two genetically unrelated languages (Germanic and Turkic) conceptualize the human body [3, 115-p.].

METHODS. The study is based on the theoretical frameworks of the anthropocentric paradigm and cognitive linguistics, primarily drawing on the methodologies established by prominent Western and Soviet linguists. Comparative-Typological Method: To contrast the English and Karakalpak phraseological systems, the research applies the principles of contrastive linguistics as discussed by Charles Bally and Robert Lado. This method allows for the identification of isomorphic (common) and allomorphic (specific) features between a Germanic and a Turkic language [4, 42-p.]. Phonostylistic Analysis: Following the tradition of British linguists like Geoffrey Leech (regarding phonological patterns in literature), this study examines the role of alliteration and assonance in the Karakalpak material, as previously investigated by B.T. Yusupova [2, 18-p.]. This ensures an analysis of how sound repetition contributes to the rhythmic stability of idioms.

Structural-Semantic and Metaphorical Analysis: The study utilizes the Conceptual Metaphor Theory (CMT) developed by George Lakoff and Mark Johnson. This framework is essential for categorizing the types of metaphorical motivation, treating somatisms not just as words, but as cognitive "mappings" from the physical body to abstract social concepts.

RESULTS. The research identified three primary areas of contrast between the two languages:

Phonostylistic and Structural Features: In Karakalpak SPhUs, we observed a high frequency of alliteration and assonance. For example, in *"Тис-тырнағы менен"* (With teeth and nails), the repetition of the "т" sound creates a rhythmic pattern emphasizing intensity [2, 54-p.]. Another example, *"Қас қағымда"* (In the blink of an eye). The phonological compactness of this phrase allows it to function as a high-frequency adverbial unit.

In contrast, English SPhUs often rely on rhythm and monosyllabic structures to maintain their stability, such as *"Hand in hand"* or *"Eye for an eye"*.

Body Parts as Cultural Codes: The analysis shows that different organs carry different symbolic weights.

-Heart vs. Liver/Bone: In English, the "heart" is the primary center of emotions (*"A heart of gold"*). In Karakalpak, while "heart" (жүрек) is used, the "liver" (*бауыр*) and "bone" (*сүйек*) often carry more weight in expressing deep kinship and ancestral pain (*"Сағ-сүйегин қақсатыў"*) [5, 82-p.].

-Shoulder: English uses it for social distance (*"cold shoulder"*), while Karakalpak uses it for support (*"қолтығынан көтермелеў"*).

Extended comparative analysis: body parts as cultural codes

The following table has been expanded with new examples from Karakalpak literature and English idiomatic expressions:

Component	English Phraseology	Karakalpak Phraseology	Contextual Meaning
Head / Бас	*To lose one's head*	*Басы айланыў*	To lose control or get confused.
Ear / Қулақ	*To be all ears*	*Қулақ түриў*	To listen very carefully.
Eye / Көз	*To keep an eye on*	*Көз қырын салыў*	To watch or control.
Hand / Қол	*To lend a hand*	*Қол ушын бериў*	To help or assist.
Mouth (Аўыз)	*To make one's mouth water*	*Аўзының суўы келиў*	Strong desire or appetite for something.
Tongue / Тил	*A sharp tongue*	*Тили ашшы*	To be sarcastic or biting.

DISCUSSION. The results indicate that syntactic transformation follows the grammatical nature of each language. English somatisms are analytical, maintaining stability through fixed word order and specific prepositions (e.g., *"under one's thumb"*) [1, 48-p.]. Karakalpak somatisms are agglutinative, where the somatic component remains the semantic core even when modified by multiple suffixes (*"Қолы ашық"* vs. *"Қолыңыз ашық бўлсын"*) [2, 61-p.]. Furthermore, the stylistic functions in literary contexts reveal that Karakalpak SPhUs are more deeply rooted in "physiological resonance"—the idea that emotional pain is physically felt in the bones or liver [5, 85-p.].

CONCLUSION. The comparative-typological analysis demonstrates that somatic phraseology is a synthesis of spiritual values and historical experience. While the biological human body is universal, the linguistic representation of its parts is uniquely determined by the cultural code of the nation. Understanding these nuances is essential for high-quality translation and effective cross-cultural communication between English and Karakalpak speakers.

References:

1. Кириллова, Н.Н. Компонент фразеологической единицы и слово. Д., 1975.
2. Юсупова, Б.Т. Қарақалпақ тилиндеги фразеологизмлердиң фоностилистикалық анализи. Нөкис, 2021.
3. Мордкович, Э.М. Семантико-тематические группы соматических фразеологизмов. Новосибирск, 1971.
4. Кожахметова, К.Х. Казахско-русский фразеологический словарь. Алматы, 1988.
5. Пирниязова, А.К. Этнолингвистикалық фразеологизмлер. Нөкис, 2018.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 81'37

ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA'' ROMANIDA URUSH TAFSILOTLARINING TALQINI

Bozorova Lobar Bazarbayevna,
Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

THE REPRESENTATION OF WAR DETAILS IN ULUG'BEK HAMDAM'S NOVEL "FATHER"

Bozorova Lobar Bazarbayevna,
Independent Researcher Gulistan State Pedagogical Institute

ОТОБРАЖЕНИЕ ВОЕННЫХ ПОДРОБНОСТЕЙ В РОМАНЕ УЛУГБЕКА ХАМДАМА «ОТЕЦ»

Бозорова Лобар Базарбаевна,
независимый исследователь Гулистанского государственного педагогического института



e-mail:
lobar9430@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-9193-1334

Annotatsiya*: O'zbek adabiyotida urush mavzusi bir davr yoki bitta tarixiy voqea bilan cheklanib qolmagan. Ayniqsa, bir necha avlod urushlarini ko'rgan yoki ularning oqibatlarini chuqur his etgan adiblar ijodida Ikkinchi jahon urushi ham, keyinchalik Afg'on urushi ham turli shakllarda aks etadi.Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida urush insonning ruhiy iztirobi va hayotiy tanazuli orqali ochib berilishi haqida fikr yuritiladi.*
Kalit so'zlar*: Badiy asar, urush, tafakkur, avlod, roman, qon, oddiy inson, jang, askar.*
Annotation: *The theme of war in Uzbek literature is not confined to a single period or one historical event. In particular, in the works of writers who have witnessed wars across several generations or have deeply felt their consequences, both the Second World War and the later Afghan War are reflected in various forms. This article examines how war is revealed in Ulug'bek Hamdam's novel "Father" through the spiritual suffering and existential decline of the human being.*
Key words: *fiction, war, reflection, generation, novel, blood, ordinary human being, battle, soldier.*
Аннотация: *Тема войны в узбекской литературе не ограничивается одним периодом или одним историческим событием. Особенно в творчестве писателей, переживших войны нескольких поколений или глубоко ощутивших их последствия, Вторая мировая война, а также последующая Афганская война находят отражение в различных формах. В данной статье рассматривается раскрытие темы войны в романе Улугбека Хамдама «Отец» через духовные страдания и жизненный упадок человека.*
Ключевые слова: *художественное произведение, война, размышление, поколение, роман, кровь, обычный человек, бой, солдат.*

KIRISH. O'zbek romanchiligida urush mavzusi keng va murakkab badiiy makonni egallaydi. Turli davrlarda yaratilgan asarlarda urush har xil talqinlarda namoyon bo'lib, dastlab qahramonlik va fidoyilik ruhida tasvirlangan bo'lsa, keyingi yillarda u inson taqdirini chilparchin qiluvchi, ruhiy va ma'naviy yemirilishga olib keluvchi ulkan fojia sifatida yoritila boshladi. Ana shunday asarlar qatorida Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani urush mavzusini talqin etishda o'zining kuchli ta'siri va chuqur falsafiy yondashuvi bilan alohida o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI. "Ota" romanida urush insonning

ichki olami, ruhiy iztirobi va hayotiy tanazzuli orqali ochib beriladi. Yozuvchi urushni tarixiy hodisa sifatidangina emas, balki inson hayotiga bostirib kirib, uning taqdirini butkul o‘zgartirib yuboradigan qora kuch sifatida tasvirlaydi. “Oti o‘chgur urush Po‘latning etagidan tutdi”[1]. Asarda urushning bor dahshati qonga botgan maydonlar emas, balki inson qalbida qoldirgan bitmas jarohatlar orqali namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan roman o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.

Asarning markazida Po‘lat obrazi turadi va roman boshidan oxirigacha uning hayot yo‘li izchil yoritiladi. Voqealar Po‘lat bilan boshlanib, Po‘lat bilan yakunlanishi badiiy jihatdan hayot aylanasining yopilishini anglatadi. Biroq bu aylana baxtli yakun emas, balki iztirobli, ma’naviy yo‘qotishlar bilan to‘la hayot manzarasini ko‘rsatadi. Yozuvchi bitta inson taqdiri orqali urush ta’siriga uchragan butun bir avlodning fojiasini umumlashtiradi.

NATIJALAR. Roman farzandsizlik dog‘ini ko‘rgan oila tasviri bilan boshlanadi. Bu holat asarning boshidanoq fojiaviy ruhini belgilab beradi. Farzand hayot davomchiligi, umid va kelajak ramzi bo‘lsa, farzandsizlik oiladagi ichki bo‘shliq, ruhiy iztirob va parokandalikning timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Urush esa allaqachon ichdan yemirila boshlagan bu oilaning parchalanishini yanada tezlashtiruvchi omilga aylanadi.

Po‘lat endigina oila qurib, hayotga umid bilan qaray boshlagan pallada urush girdobiga tortiladi. “Nima qilsin, bechora yigit: bir ko‘ngli tezroq boray-da, qo‘limga qurol olib, yurtga bostirib kirgan gazandalarni adabini berib, quvib solay, desa, boshqa ko‘ngli yurtidan, onasidan, sevgilisi yog‘dudan bir lahza bo‘lsin, ayrilmasam, derdi”[2]. Bu holat urushning inson taqdiriga nisbatan qanchalik shafqatsiz ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Urush Po‘lat uchun nafaqat jismoniy, balki og‘ir ruhiy sinovga aylanadi. U qo‘rquv, sog‘inch, ma’naviy iztirob bilan yuzma-yuz keladi va bu jarayon uning ichki dunyosini butkul o‘zgartirib yuboradi.

MUHOKAMA. Asarning muhim jihati shundaki, Po‘lat urushdan omon qaytadi, biroq bu omonlik g‘alaba sifatida talqin etilmaydi. Yozuvchi aynan shu nuqtada urushning eng achchiq haqiqatini ochadi: urushdan tirik qaytgan odam ham aslida urush qurbonidir. Po‘lat jismonan tirik bo‘lsa-da, uning ruhida urush qoldirgan jarohatlar butun umrga muhrlanadi. U endi avvalgi Po‘lat emas, uning hayotga, oilaga va atrofdagilarga munosabati o‘zgargan.

“Ota” romanida oddiy askar obrazi alohida e’tibor bilan yoritilgan. Po‘lat obrazi minglab oddiy askarlarning umumlashma timsoliga aylanib, urushning insoniyat uchun eng katta ma’naviy fojia ekanini badiiy jihatdan asoslab beradi. Asardagi quyidagi parcha ham fikrimiz dalili bo‘la oladi: “Urush degani inson hayoti bilan o‘ynashish degani ekanmi?” deb o‘ylay boshladi Po‘lat ilk harbiy ishlarning qanday olib borilayotganini kuzatarkan. Yo‘qsa, hech jahonda to‘rt kishiga bitta eski miltiq beriladimi? Nimayimish, miltiq ko‘targanga o‘q tegib o‘lsa, ortidan borayotgan uchovlondan bittasi qurolni olib dushmanga otishi kerakmish. Chindan shunday bo‘ldi-ey: miltiq ko‘targan chala askarga o‘q tegib, o‘yi ostiga snaryad tushib o‘lsa, uning izidan kelayotgan ikkinchi chala askar miltiqni olib, dushmanga o‘qtalar bo‘ldi. Ikkinchi nobud bo‘lsa, uchinchi, uchinchidan keyin esa to‘rtinchi shunday ish tutardi. Hammasi xuddi komandir aytib, chizib bergandek. Goho askar degani qo‘liga qurol ushlamay, dushmanni o‘ldirish u yoqda tursin, u tomonga eltib ham qaramay, bu yorug‘ dunyo bilan xayr-xushlashib qolardi. Shundaylar hatto ko‘p bo‘lardi. Chunki tepadan, pastingdan, choting orasidan uchayotgan o‘qlar qo‘lida qurol bormi-yo‘qmi, taning yoshi-qarimi, uyda eshigina kelinchak kutayaptimi-kutmayaptimi deb tanlab o‘tirmas ekan, axir! «Tirs» etib tergarkan-yo‘qarkan. Keyin shirin jonini Jabboriga qo‘shqolab beraverar… O‘q-dori ham shunga yarasha edi: qay bir guruhning o‘qi jangg tugamay so‘b bo‘lardi. Qo‘lida miltiq bilan nima qilishni bilmay, o‘qning o‘qlariga tirik nishon bo‘lib juvonmarg ketayotganlarning son-sanog‘i yo‘q edi. Bularni ko‘rib turgan ko‘zlariga Po‘lat ishonmas, ammo ko‘rayotganlari takror-u takror sodir bo‘lar ediki, ishonmay ham qo‘ya olmasdi.

«Urushda nima arzon ekan? Urushda jon arzon ekan!» — deb o‘ylay boshladi jang maydonida u yoqdan bu yoqqa faqat jonini saqlash uchun chopib yurgan Po‘lat. Chunki uning «to‘rtligi»dan bir o‘zi qoldi. Uchovlon esa bir odim nariga kelib tushgan snaryaddan tilka-porasi chiqib o‘ldi. Borib miltiqni

[1] Ҳамдам Улуғбек. Ота. Янги аср авлоди, 2020. Б. 24.

[2] Ҳамдам Улуғбек. Ота. Янги аср авлоди, 2020. Б. 24.

olay desa, uning stvoli bir o‘nu kundori bir o‘n bo‘lib yotar edi. Shunda Po‘lat o‘zini chuli-chulidek his qildi. Urush qilayotgan boshqalar-u boshqa. Lekin boshidan, quloqlari ostidan, o‘n beridan vizillab uchayotgan o‘qlar haqiqiy edi”[3]. Berilgan parchada urush inson hayotini mutlaqo qadrsizlantiruvchi, shaxsni buyum darajasiga tushiruvchi fojia sifatida tasvirlanadi. Muallif Po‘lat obrazi orqali urushning tashkiliy tartiblaridagi g‘ayriinsoniylikni ochib beradi: to‘rt kishiga bitta eski miltiq berilishi, askar o‘lsa qurolning keyingisiga “o‘tishi” – bu yerda inson emas, qurol markazga chiqadi. Natijada askar tirik jon emas, almashtiriladigan vosita sifatida ko‘rinadi.

Parchadagi “miltiq ko‘targan chala askar” iborasi urushga majburan, tayyorgarliksiz tashlangan oddiy odamlar taqdirini ifodalaydi. Ularning biri nobud bo‘lsa, keyingisi hech ikkilanmay o‘sha o‘rinni egallashi urush mexanizmining sovuqqonligini ko‘rsatadi. “Xuddi komandir aytib, chizib bergandek” degan jumla esa insoniy his-tuyg‘ular butunlay yo‘qolgan, buyruq va rejaga bo‘ysungan tizimni anglatadi.

Eng ta’sirlisi shundaki, ayrim askarlar qo‘liga qurol ham olmasdan, dushmanni ko‘rmasdan turib halok bo‘ladi. Bu urushning mohiyati kimning aybi yo‘qligini, kimning dushman yoki begunoh ekanini farqlamasligi, o‘limning ko‘r-ko‘rona hukmronligini ochib beradi. Shuning uchun Po‘latning “Urush degani inson hayoti bilan o‘ynashish degani ekanmi?”[4] degan ichki savoli butun parchaning falsafiy xulosasiga aylanadi.

Shu tariqa Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani o‘zbek romanchiligida urush mavzusini an’anaviy qahramonlik yoki mafkuraviy ruhda emas, balki inson ruhiyati, taqdiri va ma’naviy iztiroblari orqali yoritgani bilan alohida ajralib turadi. Asarda urush nafaqat tarixiy voqea, balki inson hayotini izdan chiqaruvchi, avlodlar xotirasida bitmas jarohat qoldiruvchi ijtimoiy va ma’naviy fojia sifatida talqin etiladi. Yozuvchi jang maydonidagi voqealardan ko‘ra, urushning oddiy inson qalbida qoldirgan izlarini chuqur tahlil qiladi, otalik, vijdon, mas’uliyat va yo‘qotish tushunchalarini falsafiy darajada ochib beradi. Shu jihatdan “Ota” romani urush mavzusini insonparvarlik g‘oyasi bilan boyitgan, o‘quvchini mushohadaga chorlaydigan, hayot va taqdir haqida teran o‘ylashga undaydigan yetuk badiiy asar sifatida o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallaydi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Abdurashid Nurmurodovning “Qon hidi”, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, Nabi Jaloliddinning “O‘limning rangi” hamda Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanlari o‘zbek adabiyotida urush mavzusining muammoviy va falsafiy talqinini yuzaga chiqargan muhim badiiy asarlardir. Bu romanlarda urush g‘alaba, qahramonlik yoki shon-shuhrat manbai sifatida emas, balki inson hayotini chilparchin qiluvchi, ruhiy iztiroblar, yo‘qotishlar va ma’naviy tanazzulni keltirib chiqaruvchi ulkan fojia sifatida yoritiladi.

Mazkur asarlarda markazga qo‘yilgan asosiy muammo – inson taqdiridir. “Qon hidi” va “O‘limning rangi” romanlarida afg‘on urushi oddiy askar nigohi orqali tasvirlanib, urushning siyosiy mohiyatidan ko‘ra uning insoniy oqibatlari ochib beriladi. “Tushda kechgan umrlar”da urush inson xotirasi va ongida bitmas jarohat bo‘lib yashashi, tinch hayotda ham davom etuvchi ruhiy azoblar orqali ko‘rsatiladi. “Ota” romanida esa urush avlodlar taqdiriga ta’sir qiluvchi, otalik mas’uliyati va insoniy burch tushunchalarini sinovdan o‘tkazuvchi ma’naviy muammo sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan, mazkur romanlar o‘zbek adabiyotida urush mavzusiga ideallashtirishdan voz kechgan, insonparvarlikka asoslangan muammoviy yondashuv shakllanganini ko‘rsatadi. Urush endi faqat tarixiy voqea emas, balki jamiyat va shaxs ongida chuqur iz qoldiruvchi murakkab ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida baholanadi. Bu esa o‘zbek romanchiligida urush mavzusining badiiy-falsafiy jihatdan yetuk bosqichga ko‘tarilganidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Ҳамдам Улуғбек. Ота. Янги аср авлоди, 2020. Б. 24.
2. Oripova G, Abdurasulova N. O‘zbek nasrida urush mavzusi va “Yo‘qotilgan avlod” muammosi // International scientific journal of Biruni. –2022. B.214
3. Hoshimov O‘. Uzun kechalar. – Toshkent: O‘ZBEKISTON, 2018 – B. 38.

[3] Ҳамдам Улуғбек. Ота. Янги аср авлоди, 2020. Б. 29.
[4] Ҳамдам Улуғбек. Ота. Янги аср авлоди, 2020. Б. 29.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 811.82.41

MILLIY URF-ODATLAR ASOSIDA BADIIY-AXLOQIY TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI (ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI MISOLIDA)

Toshpulatov Akmal Xolmirzayevich,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF MORAL-ARTISTIC EDUCATION BASED ON NATIONAL TRADITIONS (BASED ON ABDULLA QODIRIY’S NOVEL “O‘TKAN KUNLAR” – “BYGONE DAYS”)

Toshpulatov Akmal Kholmirzayevich,
Lecturer, Termez University of Economics and Service

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ХУДОЖЕСТВЕННО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА АБДУЛЛЫ КАДЫРИ “МИНУВШИЕ ДНИ”)

Тошпулатов Акмал Холмирзаевич,
преподаватель Термезского университета экономики и сервиса



https://orcid.org/0009-0009-9485-6267
e-mail: akmaljon767626@gmail.com

Annotatsiya: *Tadqiqotda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida milliy urf-odatlar va xalq an’analarining o‘quvchilarda badiiy-axloqiy tarbiyani shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Maqolada milliy qadriyatlar, urf-odatlar va badiiy asarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi pedagogik nazariya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. “O‘tkan kunlar” romanidagi obrazlar, g‘oyalar va milliy an’analar asosida shaxs ma’naviyatini rivojlantirish, o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, urf-odatlar, axloqiy tarbiya, badiiy asar, kompetensiyaviy yondashuv, shaxs kamoloti.*

Аннотация: *В исследовании на основе романа Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» раскрывается роль национальных обычаев и народных традиций в формировании художественно-нравственного воспитания учащихся. В статье с позиций педагогической теории анализируется органическая взаимосвязь национальных ценностей, обычаев и художественного произведения. На основе образов, идей и национальных традиций, представленных в романе «O‘tkan kunlar», раскрываются механизмы развития духовности личности и формирования нравственных качеств у обучающихся.*

Ключевые слова: *национальные ценности, традиции, нравственное воспитание, художественное произведение, компетентностный подход.*

Abstract: *The study examines the role of national customs and folk traditions in shaping students’ artistic and moral education based on Abdulla Qodiriy’s novel “O‘tkan kunlar” (“Bygone Days”). The article analyzes the organic interrelation between national values, customs, and literary works from the perspective of pedagogical theory. Drawing on the characters, ideas, and national traditions depicted in the novel “O‘tkan kunlar”, the mechanisms for developing personal spirituality and fostering moral qualities in students are revealed.*

Key words: *national values, traditions, moral education, literary work, competence-based approach, identity.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Globallashuv va axborotlashuv sharoitida milliy o‘zlikni asrash, qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Milliy tarbiya, xalq urf-odatlari va an’analar asosida shakllangan axloqiy fazilatlar shaxs kamolotining poydevoridir. Milliy urf-odatlar va an’analar har bir jamiyatning ma’naviy, madaniy va axloqiy merosini tashkil etadi. Ular yoshlarni tarbiyalash, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, adabiyot va san’at milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishning samarali pedagogik platformasi sifatida e’tiborga loyiqdir. Badiiy asarlar nafaqat madaniy kontekstni aks ettiradi, balki o‘quvchilarda axloqiy mulohaza yuritish, tanqidiy fikrlash va hissiy identifikatsiya jarayonlarini ham rag‘batlantiradi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani yosh avlodni axloqiy tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi, o‘zbek milliy urf-odatlari, oilaviy va jamoat hayoti hamda insoniy fazilatlarni badiiy tarzda tasvirlaydi. Roman qahramonlarining hayoti, ularning munosabatlari va ijtimoiy kontekstda duch keladigan muammolar yosh o‘quvchilarni o‘rganish va kuzatish orqali axloqiy, estetik qadriyatlarni egallashga undaydi. Bu o‘qitish jarayonida milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyalashga yordam beradi.

“O‘tkan kunlar” romani milliy xotira, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy-axloqiy me’yorlar tizimini badiiy obrazlar orqali yuksak darajada ifodalaydi va ta’lim-tarbiya jarayonida beqiyos metodik resurs bo‘lib xizmat qiladi [6]. Zero, mamlakatimizda ma’naviy barkamollikni ustuvor vazifa sifatida belgilash, ta’limni tarbiya bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasi davlat darajasida konseptual jihatdan asoslab berilgan [1; 2].

Adabiyot darslarida badiiy matnni milliy urf-odatlar kontekstida o‘qitish shaxsni ma’naviy-axloqiy kamolotga yetaklaydi, o‘quvchining shaxsiy tajribasi bilan ijtimoiy-madaniy xotira o‘rtasida muloqotni yuzaga keltiradi. Didaktik jihatdan bu jarayon tajriba asosida o‘rganish, sotsiokultural vositachilik, axloqiy dilemmalar muhokamasi va kognitiv maqsadlarning bosqichma-bosqich murakkablashuvi kabi elementlarni talab qiladi [4]. Shu bilan birga, ijtimoiy o‘rganish mexanizmlari – kuzatish, identifikatsiya va mustahkamlash – tarbiyaviy natijalarni barqarorlashtiradi [3]. Qonunchilik hamda Davlat ta’lim standartlari ushbu jarayonning normativ va metodik asosini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Milliy urf-odatlar asosida badiiy-axloqiy tarbiya berishning pedagogik asoslari masalasi nazariy va amaliy jihatdan turli darajada yoritilgan. Siyosiy-ma’rifiy nuqtai nazardan birinchi prezidentimiz I.A.Karimov milliy uyg‘onish yo‘lini ma’naviy barkamollikdan izlaydi: jamiyat taraqqiyoti – xalq qadriyatlariga sodiqlik, tarixiy xotiraga hurmat hamda yoshlar tarbiyasiga mas’uliyat bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi [5]. Bu qarashlar ma’naviyatni ijtimoiy birlashuv va milliy identifikatsiya vositasi sifatida ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev asarlarida ta’limni yangilash strategiyasiga urg‘u berilib, «ma’naviyat – ta’limning yuragi» tamoyili asosida vatanparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlar ustuvor tarbiyaviy natijalar sifatida belgilangan [2]. Ushbu qarashlar ma’naviy tarbiya va ta’lim amaliyoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Pedagogik nazariyalar esa ma’naviyat va ta’lim masalasini amaliy o‘qitish mexanizmlari nuqtai nazaridan boyitadi. J.Deweyning tajriba orqali o‘rganish konsepsiyasi o‘quvchining faolligi va muammo yechishga yo‘naltirilgan faoliyatni markazga qo‘yadi, bu esa ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni faol pedagogik muhitda shakllantirish zaruratini bildiradi [7]. L.S.Vygotskiy bilim va ko‘nikmalarning ijtimoiy vositachilik orqali o‘zlashtirilishini ta’kidlab, «yaqin rivojlanish zonasi»da hamkorlik va muloqotning tarbiyaviy rolini asoslaydi [8]. B.S.Bloom taksonomiyasi esa maqsadlarni kognitiv, emotsional va faoliyat tomonlama tizimlashtirishga yordam beradi [4].

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan xalq adabiyoti va klassik asarlar ma’naviy qadriyatlarni uzatish manbai sifatida o‘rganilgan. Xususan, Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» asari milliy qadriyatlar diskursining markazida turadi: asar orqali tarixiy xotira, ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikning me’yorlari tasvirlanadi. Shu nuqtai nazardan, adabiy merosni ta’lim jarayoniga kiritish

– ma’naviyatni amaliy kontekstga joylashda samarali vosita ekanligi ko‘rsatilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani milliy urf-odatlar va axloqiy qadriyatlarni badiiy tasvirlashda boy manba hisoblanadi. Asarda nikoh marosimlari, to‘y udumlari, qo‘ni-qo‘shnichilik, mehmonnavozlik, savdo-sotiq odobi va mahalla hayoti kabi an’analar real hayotiy kontekst bilan yoritilgan bo‘lib, ular ijtimoiy nazorat, birdamlik va mas’uliyat mexanizmlarini ko‘rsatadi. Otabek, Kumush, Yusufbek hoji kabi qahramonlarda halollik, sadoqat, mas’uliyat va vatanparvarlik kabi fazilatlar gavdalanadi [6]. Romandagi axloqiy dilemmalar – muhabbat va burch, eskilik va yangilik, shaxsiy baxt va ijtimoiy mas’uliyat qarama-qarshiligi – o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash va muhokama maydoni bilan ta’minlaydi. Darslarda “debat”, rolli o‘yinlar va dialektik savol-javoblar metodlari orqali prinsipial fikrlash va vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati rivojlantiriladi.

Sotsiokultural identifikatsiya jarayoni Bandura nazariyasidagi kuzatish va identifikatsiya mexanizmlari orqali mustahkamlanadi: o‘quvchilar qahramonlarning xatti-harakatlarini kuzatib, ulardagi ijobiy fazilatlarni shaxsiy maqsadlariga moslashtiradi va qadriyatlarni izchillashadi. Didaktik model motivatsiya – qabul – aks ettirish – transfer bosqichlarini o‘z ichiga oladi va Dewey hamda Bloom konsepsiyalari bilan uyg‘unlashadi, shu orqali tajriba vositasida o‘rganish va kognitiv bosqichlarning murakkablashuvi ta’minlanadi. Baholash jarayonida portfel, refleksiya jurnallari, konsept-xaritalar va loyiha ishlari nafaqat bilim, balki o‘quvchining shaxsiy axloqiy pozitsiyasini qayd etishga imkon beradi. Tarbiyaviy jarayon tarix, huquq, ma’naviyat va madaniyatshunoslik bilan integratsiyalashib, real hayotga axloqiy va estetik qadriyatlarni transfer qilish imkonini yaratadi [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Estetik tahlilning axloqiy tahlil bilan uyg‘unligi o‘quvchida “go‘zallik – yaxshilik – adolat” uchligini his qilish imkonini beradi. Masalan, Kumushning or-nomus, sabr va sadoqatga sodiq qolishi o‘quvchi qalbida nafaqat hamdardlik, balki qadriyatga sodiqlik hissini uyg‘otadi. Shu tariqa, estetik zavq axloqiy ongni faollashtiradi, axloqiy ong esa estetik qabulni chuqurlashtiradi, bu esa dars dizaynida alohida e’tibor bilan nazarda tutiladi. Kelgusidagi tadqiqot istiqbollari kvazi-eksperimental dizaynda ikki sinf guruhi bilan didaktik model samaradorligini empirik tekshirish, axloqiy mulohaza testlari, identifikatsiya shkalalari va portfel ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik tahlil, oilaviy va mahalla institutlari bilan hamkorlik formatlarining ta’sirini o‘lchash hamda inklyuziv guruhlarda differensial topshiriqlarning pedagogik samaradorligini qiyosiy o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Shu tarzda, romandagi milliy urf-odatlar va badiiy-axloqiy qadriyatlarni o‘rganish ta’lim siyosati va o‘quv dasturlarini takomillashtirishga, shuningdek, yosh avlodda milliy qadriyatlar asosida badiiy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishga xizmat qiladi [5].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). “O‘tkan kunlar” romani milliy urf-odatlar kontekstida o‘qitilganda axloqiy tarbiya uchun mustahkam ilmiy-metodik asos yaratadi: badiiy obrazlar asosida axloqiy dilemmalar muhokamasi, sotsiokultural identifikatsiya, kompetensiyaviy didaktik model va portfel baholash vositalari bir tizimda ishlaganida o‘quvchi shaxsiyatining ma’naviy o‘sishi izchil ta’minlanadi. Normativ hujjatlar bilan uyg‘un yondashuv ta’lim natijalarini barqaror qiladi va real hayotga transferni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 23.09.2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
3. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
4. Bloom B.S. (ed.). Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain. – New York: David McKay, 1956. – 207 p.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
6. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2019. – 416 b.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK:1:111:378 (575.2)

INSON VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Alimova Ruxshona Abduxalim qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Ma'naviyat asoslari)" yo'nalishi magistranti



https://orcid.org/0009-0005-0314-6923
e-mail: ruxshona009@gmail.com

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING ECOLOGICAL CULTURE IN HUMAN AND ENVIRONMENTAL PROTECTION

Alimova Ruxshona Abduxalim qizi,
Master's Student in the Program of "Teaching Methodology of Social and Humanitarian Sciences (Foundations of Spirituality)", Shahrisabz State Pedagogical Institute

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОХРАНЕ ЧЕЛОВЕКА И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Алимова Рухшона Абдухалимовна,
магистрант направления «Методика преподавания общественно-гуманитарных наук (основы духовности)», Шахрисабзский государственный педагогический институт

Annotatsiya: *Maqolada jadal rivojlanayotgan zamonda insonlar ongiga ekologik madaniyatni singdirishning ahamiyatlari haqida fikr yuritilgan. Jamiyat ongida ekologik madaniyatni singdirishning mazmun mohiyati, asosiy vazifalari haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ekologik muammo, ekologik madaniyat, Ekologik ong, ekologik vaziyat, ekologik xavfsizlik, ekologik munosabat.*

Annotation: *This article examines the problem of forming environmental culture in public consciousness in the context of rapid global development. The essence, content, and significance of environmental culture are analyzed, and the main directions and objectives of its integration into public awareness as an important factor of sustainable development are identified.*

Key words*: Environmental problem, environmental culture, environmental awareness, environmental situation, environmental security, environmental relations.*

Аннотация*: В статье рассматривается значение формирования экологической культуры в сознании людей в условиях стремительного развития современного общества. Раскрываются сущность и содержание внедрения экологической культуры в общественное сознание, а также освещаются её основные задачи.*

Ключевые слова*: Экологическая проблема, экологическая культура, экологическое сознание, экологическая ситуация, экологическая безопасность, экологические отношения.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XXI asr – jadal rivojlanayotgan zamon bilan bir qatorda, insonning ehtiyojiy resurslarga bo'lgan talabi ham ortib bormoqda. Insoniyatnig hayot faoliyatidagi ehtiyojlarining ortishi, shubhasiz tabiat muvozanatining izdan chiqishiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Shu sababli, insoniyat tuproq, suv, havo kabi tabiiy resurslar bilan bog'liq,turli xil ekologik muammolarga duch kelmoqda. Sodir bo'layotgan ekologik muammolarni bartaraf etish va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa tabiat bilan bog'liq bo'lgan muammolarni oldini olish uchun jamiyatning onggi va ekologik madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Davlat barqaror

rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mavzuning turli taraflari shu jumladan, insonlar ongida ekologik madaniyatni rivojlantirish, insoniyatning ekologiyaga bo‘lgan ehtiyojlarining ortishi, ekologik muammolarning ortgani sari ekologik vaziyatning keskinlashuvi, ekologik muammolar, ekologik muammolarning dunyo miqyosida bo‘lganligi mutaxasislarning shu borada turli xil ilmiy izlanishlar olib borishiga sabab bo‘ldi va shu tufayli ko‘plab ekologiyaga aloqador ilmiy asarlar va ilmiy maqolalar yaratildi. Masalan: ekologik madaniyatni rivojlantirishga oid B.Omonov, G.A.Ochilova, Kh.SH.Nomozov, B.A.Ochilov, F.Qilichev, O‘.G‘.Tilovov, Y.KH.Manzarov, ekologik globallashuvga doir manbalarni B.Omonov, S.Mamashakirov tahlil qilib borishgan.

Yoshlar ongida ekologik qadriyatlarni shakllantirish, rivojlantirishda ekologiyaga bo‘lgan bilim, malaka, zamon sinovidan o‘tgan qadriyatlar omillari, inson qalbida ekologiyaga bo‘lgan mehr va o‘ziga xos emotsiya uyg‘ota oladigan: axborot, turli xil vositalar, zamon bilan hamnafas holda yaratilgan va zamon sinovidan o‘tgan texnika vositalari, badiiy adabiy vositalar, shu bilan birgalikda tabiatga sog‘lom munosabatni shakllantiradigan diniy va dunyoviy bilimlar, zamonaviy an’analar, tarbiyaviy usullar katta ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ekologik madaniyat inson hayoti boshlangan kundan uning ongida doimiy harakatda bo‘ladi, ma’lum vaziyatlarga ko‘ra rivojlanadi va inson ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy omil bolib xizmat qiladi. Inson ongida ekologik madaniyatni oshirish nafaqat mintaqaviy balki umumsayyoraviy vazifaga aylanib bormoqda. Shuning uchun 0'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “2025-yilni O‘zbekistonda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e’lon qilishni taklif qilaman” [2]. Fan va texnika sohalaridagi globallashuv, liberallashuv va o‘zgarishlar, savdo, yuksalish va taraqqiyot davlatlar uchun nafaqat yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda, balki ayrim hollarda bu mamlakatlar o‘rtasidagi va ichki hayotidagi iqtisodiy tengsizlikning kuchayishiga ham olib kelmoqda. Globallashuv natijalari hukumatlar va xalqaro institutlar tomonidan qabul qilingan siyosiy qarorlarga, shuningdek, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining munosabatiga bog‘liqdir. Ekologik muammolar ham xavotirni kuchaytirmoqda. Ayni vaqtda demografik jarayonlar va aholi katta qismi sog‘lig‘ining yomonlashuvi xavfsizlikni ta’minlashning muhim muammolaridan biriga aylanmoqda.[3] Jahonda kechayotgan turli xil vaziyatlar nafaqat jamiyat hayotiga balki ekologiyaga ham katta ta’sir o‘tkazmoqda. Ba’zi joylardagi ekologik vaziyatlar yomonlashgani jamiyat hayotiga ham katta ta’sir qilishga ulgurdi. Shuning uchun butun insoniyat ekologik madaniyatni oshirish jarayonlarini asosiy jarayon sifatida ilgari surishmoqda. Ekologik inqirozlar inson hayotini asrash uchun tabiatni muhofaza qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “2025-yilni O‘zbekistonda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deb e’lon qilishni taklif qilaman” [3]. Qadim va o‘rta asrlarda ham insonlarning tabiatga bo‘lgan ehtiyojlari yuksak bo‘lgan. Tabiat gullab yashnashi va inson ehtiyojlarini to‘liq qondirishi uchun ekologiyaga mehr berishi zarur edi. O‘sha davrlarda yuzaga keladigan ekologik muammolar ham soddaroq bo‘lgan. Masalan yonib ketkan o‘rmon yoki yashash manzillarini qaytadan tiklash, sel va suv toshqini yuzaga kelgan hududlarda bu muammolarni hal qilish va shu kabi muammolarga sodda yechim topilgani sababli ham ular global muammo sifatida o‘rganilmagan. Ammo yillar o‘tib inson hayotiy faoliyati rivojlangani sari ekologiya ham o‘ziga bo‘lgan e’tiborni ko‘proq talab qila boshlaydi. Shu sabab ham yuzaga kelayotgan ekologik muammolar ham avvalgiga qaraganda ancha yirik va ularning yechimini topish ham murakkablashib bormoqda. Masalan, Arktika muzining erishi butun jahonga global muammo sifatida qaraladi. Bu muammo nafaqat ekologiyaga balki butun insoniyat salomatligiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi aloqalar muammosi o‘chmas va butun umrlik munosabat sifatida qaraladi. Tabiatning ayrim ekologik omillari yer yuzidagi barcha tirik jon yashashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ekologik madaniyatni rivojlantirishning asosiy ahamiyati obyektiv shartlar

va subyektiv amallar asosida yuritiladi. Ushbu ekologik madaniyatning rivojlanishidagin obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv olimlar ekologik madaniyatning yuqori xususiyatlarini va keng ma'noda imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Yana bir xususiyati bu ekologik madaniyatni aniq shaklda ilmiy nazariy o'rganilishining dolzarbligini ochib beradi. Ekologik madaniyatni rivojlantirishning obyektiv omillari qaysi bir jihatidan: iqtisodiy, tabiiy, ijtimoy va madaniy shart sharoitlar asosida yuzaga keladi. Ekologik omillarning yuzaga kelishi bir jihatdan tiriklikka foyda keltirsa qaysidir tarafdan ziyon keltirmasdan qolmaydi. Ayniqsa, Jamiyat taraqqiyoti rivojlangani sari insoniyatning yashash sharoiti o'zgarib takomillashib boradi buning natijasida ekologiyaga bo'lgan ehtiyoj ham ortadi. Inson ehtiyojlari ortgani sari tabiatning foydasi va kerakliligi haqida tushuncha ham shakllanib boradi va ekologik muammolarni bartaraf etish g'oyasi qaysidir ma'noda asosiy g'oya sifatida qarala boshlanadi. Jamiayning turli xil tarafdan o'zgarishi tabiatni qaysidir jihatdan kambag'allashishiga olib keladi, tabiatning kambag'allashuvi insonning farovonlashuviga sabab bo'ladi.

Inson tarbiya jarayonida shaxs bo'lib kamolga yetadi. Insonning intelekti obyektiv rivojlanishiga qaraganda subyektiv takomillashtirilgani ko'proq natija beradi. Subvekrivlik asosiga ko'ra inson professionallashadi. Shu sababli ham tarbiyaning inson ekologik madaniyatini shakllantirishda o'rni nihoyatda katta. Ekologik madaniyat tarbiya jarayonida takomillashib boradi. Ekologik madaniyatning shakllanishi faqatgina ekologik bilimlarni egallashi bilan to'liq rivojlana olmaydi. Uni rivojlantirish kompleks qamrab olishni talab etadi. Ekologik bilimlar asosida insonda tabiat va atlof muhit haqida tushunchalar, ularning yuzaga kelishining ilmiy-amaliy ko'nikmalari, bartaraf .etishning ekologik yo'nalishlariga doir tafakkur tarzi rivojlandi [5]. Ekologik madaniyatni faqat ilmiy bilimlar asosida emas balki tabiatga nisbatan ma'suliyatli, ehtiyotkor va samimiy tarzda amaliy munosabarda bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Ekologik madaniyatni rivojlanishida subyektivlikning axloqiy tarbiyaviy asosi tabiat bilan munosabatda axloqiy meyoriy qoidalarga amal qilish inson yurish turishi bilan belgilanadi. Axloqiy tarbiya insonning ichida bo'lib yurush turushi, yaxshilik va yomonlikka bo'lgan qarashlari, ma'suliyat va befarqlik burch va vijdon tushunchalariga tayangan holda harakat qilishidir. Inson axloqiy tarbiyasi bilan tabiatda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar va tabiat bizga berayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishga bolgan ozining qarashlarini to'g'ri yo'naltiradi va shunga asoslanib ish yuritadi. Qaysidir manoda ekologik tarbiyani rivojlantirishda axloqiy tarbiya markaziy o'rinni egallaydi. Ekologik madaniyatni rivojlantirishda huquqiy tarbiyaning ham o'rni muhim hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda ekologik madaniayatni rivojlantirishda insonlar qonunlarga bo'lgan hurmat va ma'suliyat ruhida bo'lishini aytishimiz mumkin. Shuningdek, ekologik madaniyat rivojida ekologik huquq normalariga bolgan munosabat ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ekologik huquqda huquq normalari orqali jamiyatda ekologiyani rivojlantirish, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni bartaraf qilishga oid harakatlar amalga oshiriladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, ekologik muammolar insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Ekologik muammolarni oldini olish jamiyat hayotini yaxshilabgina qolmasdan rivojlantiradi. Ekologik muammolarni ilmiy asosida o'rganish insoniyatning. Tabiatni muhofaza qilish va uni asrab avaylash, jamiyat ongiga ekologik madaniyatni chuqur singdirish, ekologik muammolarni oldini olish uchun muhim vositadir. Ekologik madaniyat va ongga ega inson tabiatni asrab avaylash muhimligini ongli ravishda tushuna oladi va bunga mas'uliyat bilan qaraydi. Shuning uchun ham ekologik madaniyatni jamiyat ongiga singdirish muhimdr.

Adabiyotlar ro'yxati (Использованная литература / References)

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yildagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisidagi nutqi.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.
4. Azamova S. Ekologik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari. – Toshkent: O'zMU jurnali. 2-son. 2023. – B. 132-136.
5. Nazarov A.A. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Darslik. – Toshkent: "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi", 2020.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 347.78:004.4:791.43

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ПРАВА В КИБЕРСПОРТЕ: АВТОРСКИЕ ПРАВА НА ИГРЫ, СТРИМЫ И ТРАНСЛЯЦИИ

Мухаматкулова Паризодабегим Маматжоновна, ассистент кафедры “Гражданско-правовая деятельность” Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова



https://orcid.org/0000-0002-0693-6630
e-mail: parizodabegim.mukhamatkulova@mail.ru

KIBERSPORTDAGI INTELLEKTUAL HUQUQLAR: O‘YINLAR, STRIMLAR VA ESHITTIRISHLAR UCHUN MUALLIF HUQUQLARI

Muhamatqulova Parizodabegim Mamatjonovna, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Fuqarolik huquqi kafedrasi dotsenti

INTELLECTUAL RIGHTS IN ESPORTS: COPYRIGHTS FOR GAMES, STREAMS, AND BROADCASTS

Mukhamatkulova Parizodabegim Mamatjonovna, Assistant Professor, Department of Civil Law, Sharof Rashidov Samarkand State University

Аннотация: *Статья посвящена вопросам интеллектуальной собственности в киберспорте, с особым акцентом на авторские права на видеоигры, стримы и трансляции. Рассматриваются правовые аспекты защиты контента, включая права разработчиков игр, стримеров и платформ для трансляций. Анализируются современные проблемы нарушения авторских прав в киберспорте, а также механизмы их правовой защиты и регулирования. Особое внимание уделяется правовым последствиям использования чужого контента без согласия правообладателей, вопросам лицензирования и коммерческого использования игр и трансляций. Статья подчеркивает значимость защиты интеллектуальных прав для развития индустрии киберспорта и обеспечения справедливой монетизации контента.*

Ключевые слова: *интеллектуальная собственность, киберспорт, авторское право, видеоигры, стриминг, трансляции, защита контента.*

Annotatsiya: *Maqola kibersportda intellektual mulk masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, videoo‘yinlar, strimlar va translyatsiyalarga bo‘lgan mualliflik huquqlariga alohida e’tibor qaratilgan. Unda kontentni himoya qilishning huquqiy jihatlari, jumladan o‘yin ishlab chiquvchilari, strimerlar va translyatsiya platformalarining huquqlari ko‘rib chiqiladi. Kibersportda mualliflik huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq zamonaviy muammolar hamda ularni huquqiy himoya qilish va tartibga solish mexanizmlari tahlil qilinadi. Boshqalarning kontentidan huquq egalarining roziligisiz foydalanish, litsenziyalash masalalari va o‘yinlar hamda translyatsiyalarning tijoriy foydalanilishi natijalariga alohida e’tibor qaratiladi*

Kalit so‘zlar: *intellektual mulk, kibersport, mualliflik huquqi, videoo‘yinlar, striming, translyatsiyalar, kontentni himoya qilish.*

Abstract: *The article is devoted to issues of intellectual property in esports, with a particular focus on copyright related to video games, streams, and broadcasts. It examines the legal aspects of content protection, including the rights of game developers, streamers, and broadcasting platforms. The paper analyzes contemporary problems of copyright infringement in esports, as well as mechanisms for their legal protection and regulation. Special attention is given to the legal consequences of using third-party content without the rights holder’s consent, as well as to licensing matters and the commercial use of games and broadcasts.*

Keywords: *intellectual property, esports, copyright, video games, streaming, broadcasts, content protection.*

ВВЕДЕНИЕ. Интеллектуальная собственность играет ключевую роль в развитии киберспорта и цифровой индустрии в целом. Современные технологии позволяют миллионам пользователей одновременно создавать, распространять и просматривать контент, что

делает вопросы защиты авторских прав особенно актуальными. Видеоигры, стримы и онлайн-трансляции являются объектами авторского права, а их создание и распространение требует соблюдения прав разработчиков, стримеров и платформ. Нарушения авторских прав могут приводить к юридическим последствиям, финансовым потерям и снижению мотивации авторов. Одновременно индустрия киберспорта сталкивается с необходимостью балансировать между свободой творчества и защитой интеллектуальной собственности. Актуальность исследования обусловлена быстрым ростом киберспорта как глобального феномена, увеличением количества стриминговых платформ и популяризацией онлайн-турниров. Целью работы является анализ правового регулирования авторских прав на игры, стримы и трансляции, выявление проблем нарушения интеллектуальных прав и изучение механизмов их защиты в киберспорте.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ. В первом источнике рассматриваются основные принципы защиты интеллектуальной собственности в киберспорте, включая авторские права на видеоигры, стримы и онлайн-трансляции, а также нормативно-правовые документы, регулирующие использование контента[1]. Во втором источнике анализируются правила лицензирования и использования контента на стриминговых платформах, включая права разработчиков игр и обязательства стримеров при трансляции[2]. В третьем источнике исследуются причины нарушений авторских прав в киберспорте, юридические последствия таких нарушений и практика применения законодательства[3]. В четвёртом источнике рассматриваются международные аспекты защиты авторских прав, трансграничное лицензирование и особенности регулирования прав в глобальной индустрии киберспорта[4]. В пятом источнике обсуждаются коммерческие аспекты использования стримов и трансляций, включая монетизацию контента, лицензирование и правовые обязательства участников платформ[5]. В шестом источнике приводятся практические кейсы нарушений авторских прав, анализируются меры юридической ответственности и механизмы защиты интеллектуальной собственности[6]. В седьмом источнике рассматриваются инновационные методы защиты интеллектуальных прав, стратегическое значение авторских прав для развития киберспорта и устойчивого функционирования стриминговых платформ[7].Анализ показывает, что успешная стратегия защиты интеллектуальной собственности в киберспорте основывается на взаимодействии объектов, прав, потенциальных нарушений и механизмов их предотвращения, что повышает не только правовую, но и бизнес- и коммуникационную эффективность. **1-Таблица. Основные объекты интеллектуальной собственности в киберспорте и механизмы их защиты**

Объект защиты	Тип права	Нарушения	Последствия	Механизмы защиты
Видеоигры	Авторское право разработчика	Незаконное копирование, пиратство	Финансовые потери, судебные иски	Лицензирование, цифровая защита, DRM-системы
Стримы	Авторские права стримера	Неавторизованное распространение, запись и повторный показ	Потеря аудитории и дохода, правовые санкции	Договоры с платформой, блокировка контента, автоматический мониторинг
Онлайн-трансляции	Авторские права платформы и организаторов турниров	Незаконное встраивание трансляций на сторонние сайты	Нарушение условий платформы, юридическая ответственность	Контроль доступа, водяные знаки, лицензирование трансляций

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. Материалы и методы исследования включают комплексный анализ правовой базы, нормативных актов и судебной практики в области авторского права и интеллектуальной собственности, применяемой к киберспорту. Основными объектами исследования выступают видеоигры, стримы и онлайн-трансляции, создаваемые и распространяемые различными платформами. Методы исследования включали сравнительный анализ национального и международного законодательства, систематизацию нормативных

TAMADDUN NURI

положений, контент-анализ стримов и трансляций, а также кейс-стади нарушений авторских прав. Кроме того, применялся аналитический метод для изучения практики защиты прав разработчиков и стримеров, выявления проблем и особенностей правоприменения. Использование этих методов позволило комплексно оценить правовой статус игр, стримов и трансляций, выявить типичные нарушения интеллектуальных прав и определить эффективные механизмы их защиты в киберспорте.

Данная таблица демонстрирует ключевые объекты интеллектуальной собственности в киберспорте, включая видеоигры, стримы и онлайн-трансляции. В таблице представлены типы прав, наиболее распространенные нарушения, последствия таких нарушений и эффективные механизмы защиты. Таблица позволяет наглядно оценить, какие меры применяются для обеспечения соблюдения авторских прав и предотвращения незаконного использования контента.

ОБСУЖДЕНИЕ. Что защита интеллектуальных прав в киберспорте является ключевым фактором развития индустрии и поддержания справедливой монетизации контента. Анализ результатов исследований и практики демонстрирует, что видеоигры, стримы и онлайн-трансляции требуют комплексной правовой защиты, включающей соблюдение авторских прав разработчиков, стримеров и платформ. Нарушения авторских прав приводят к юридическим последствиям, финансовым потерям и подрыву доверия между участниками индустрии. При этом эффективные механизмы лицензирования, договорные соглашения и правоприменительная практика позволяют минимизировать риски и обеспечивают легальное использование контента. Дискуссия также подчеркивает необходимость гармонизации национальных и международных норм авторского права для трансграничного киберспорта, что способствует развитию глобальных турниров и стриминговых платформ. Кроме того, коммерческая сторона вопроса требует учета интересов всех участников: разработчиков игр, стримеров, платформ и аудитории, что делает соблюдение интеллектуальных прав стратегически важным для устойчивого развития индустрии. Результаты анализа показывают, что внедрение инновационных методов защиты авторских прав, включая цифровые технологии мониторинга и блокировки несанкционированного контента, повышает эффективность правовой защиты и способствует повышению качества контента для пользователей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Заключение показывает, что интеллектуальные права в киберспорте играют ключевую роль в развитии индустрии и обеспечении справедливой монетизации контента. Анализ авторских прав на видеоигры, стримы и онлайн-трансляции продемонстрировал, что эффективная защита интеллектуальной собственности повышает качество контента, стимулирует инновации и обеспечивает законное использование цифровых продуктов всеми участниками индустрии. Нарушения авторских прав приводят к финансовым потерям, юридическим последствиям и снижению доверия между разработчиками, стримерами и платформами, поэтому внедрение комплексных механизмов лицензирования, договорных соглашений и современных цифровых технологий мониторинга является необходимым условием устойчивого развития киберспорта.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Закон Российской Федерации. Об авторском праве и смежных правах. 1993 год, ст. 1–45.
2. Берг М. Юридические аспекты защиты интеллектуальной собственности в цифровой среде. Москва, 2020, с. 12–78.
3. Иванов А. Киберспорт и авторские права: теория и практика. Санкт-Петербург, 2019, с. 34–102.
4. Международная конвенция об авторском праве и смежных правах. Вена, 1971, с. 5–22.
5. Сидоров В. Лицензирование видеоигр и онлайн-трансляций. Москва, 2021, с. 45–90.
6. Кузнецова Е. Нарушение авторских прав в киберспорте: кейсы и решения. Санкт-Петербург, 2020, с. 23–67.
7. Петров А., Смирнова И. Инновационные методы защиты интеллектуальной собственности в киберспорте. Москва, 2022, с. 15–60.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 821.161.1

ЖЕНСКИЙ ОБРАЗ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ КУЛЬТУРНОЙ ТРАДИЦИИ (ПОЭЗИЯ А.ФАЙНБЕРГА)

Юлдашева Лола Кулдашевна, преподаватель Каршинского государственного университета

SHARQIY MADANIY AN'ANA KONTEKSTIDA AYOL OBRAZI (A.FAYNBERG SHE'RIYATI)

Yuldasheva Lola Kuldashevna, Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

THE FEMALE IMAGE IN THE CONTEXT OF EASTERN CULTURAL TRADITION (POETRY OF A.FAINBERG)

Yuldasheva Lola Kuldashevna, Lecturer, Karshi State University



https://orcid.org/0009-0008-5949-8225
el-pochta: aliwer7@gmail.com

Аннотация: *В статье проводится анализ женского образа в поэзии Александра Файнберга. Рассматриваются восточные культурные мотивы, влияющие на изображение женщины, а также гуманистический потенциал его творчества.*

Ключевые слова: *женский образ, восточная традиция, поэзия, гуманизм, любовь, красота, фольклор, сравнение.*

Annotatsiya: *Maqolada Aleksandr Faynberg she'riyati ayol obrazi tahlil qilinadi. Sharqiy madaniy motivlar, ayol tasviriga ta'siri, shuningdek, uning ijodining gumanistik ahamiyati ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *ayol obrazi, sharqiy an'ana, she'riyat, gumanizm, muhabbat, go'zallik, folklor, taqqoslash.*

Abstract: *The article analyzes the female image in Alexander Fainberg's poetry, focusing on Eastern cultural motifs, humanism, and the role of women in his works.*

Keywords: *female image, Eastern tradition, poetry, humanism, love, beauty, folklore, comparison.*

Введение. Поэзия всегда была и остаётся зеркалом культурных ценностей и идеалов общества, через которое автор раскрывает вечные темы красоты, гармонии и человеческой души. Как тонко отмечал Александр Файнберг, «Поэзия – это мост между душами, где Восток встречается с сердцем» [5,с.23]. Творчество Александра Аркадьевича Файнберга [1939–2009], народного поэта Узбекистана, представляет собой уникальный синтез русской лирической традиции и богатейших восточных культурных мотивов. Родившийся и всю жизнь проживший в Ташкенте, поэт глубоко впитал атмосферу многонационального Узбекистана, где переплетаются русские, узбекские, персидско-тюркские и другие культурные коды.

Женский образ в его поэзии занимает особое, центральное место, становясь символом не только внешней красоты, но и духовной глубины, материнской мудрости, мистической привлекательности и внутренней силы. Несмотря на то, что Файнберг писал преимущественно на русском языке, его лирика насыщена восточными мотивами: от образов узбекских пейзажей и фольклорных архетипов до философских представлений о гармонии человека и мира, характерных для восточной поэтической традиции [Навои, Бабур, узбекский фольклор]. Его стихи формируют у читателя эмоциональное восприятие женщины как носительницы вечных ценностей – любви, верности, сострадания и красоты, – приучая к глубокому уважению, эмпатии и пониманию культурного диалога.

В эпоху глобализации и межкультурных взаимодействий творчество Файнберга

приобретает особую актуальность, демонстрируя, как национальные традиции могут обогащать универсальный гуманизм, а женский образ – становиться точкой соприкосновения разных мировоззрений.

Литература и методология. Исследование построено на культурно-типологическом и сравнительно-историческом подходе, который позволяет выявить как общие, так и специфические черты женского образа в поэзии А.Файнберга в контексте восточной культурной традиции. Сопоставление фольклорных, мифопоэтических и лирических элементов помогает определить механизмы, посредством которых традиционные восточные мотивы [материнство, красота как духовная категория, гармония с природой] соединяются с индивидуальной лирической интонацией поэта, создавая оригинальный синтез.

Материалом исследования послужили ключевые произведения автора, наиболее ярко отражающие его мировоззренческие установки и художественное видение женщины: «Велотреки», «Не упаду перед женской красотою», «Не плачь, милый», а также другие лирические тексты из прижизненных и посмертных сборников [5,6]. Эти произведения выбраны за их выразительность в передаче восточных культурных кодов через призму личного переживания.

В работе применены три основных метода анализа, каждый из которых раскрывает отдельные грани творчества Александра Файнберга. Культурологический анализ позволил выявить восточные мотивы, символику и архетипы женщины в контексте узбекско-восточной традиции[3,с.58]. Литературоведческий анализ был направлен на исследование поэтического стиля, композиции, ритмики, тропов и художественных приёмов, наиболее характерных для лирики Файнберга. Педагогический подход, в свою очередь, дал возможность определить воспитательный и гуманистический потенциал женских образов, их значимую роль в формировании нравственных и эстетических ценностей у читателя [8,с.39]. Комплексное использование этих методов обеспечило всестороннее рассмотрение поэзии Александра Файнберга как яркого явления русско-восточной литературы, в которой в органической гармонии сосуществуют культурная самобытность Узбекистана и общечеловеческие ценности, а женский образ становится мощным средством культурного диалога и духовного обогащения.

Обсуждение. Мир Файнберга – это пространство лирической гармонии, где женщина предстаёт как воплощение восточной мудрости и красоты. В стихотворении «Велотреки» девушка изображена как символ юности и мечты: «Здесь девочка одна училась плакать, / мечтая стать известной чемпионкой...»[5,с.45]. Этот образ, помещённый в урбанистический ландшафт Ташкента с туманными ночами и велосипедными треками, отражает восточную тему преодоления, где женщина – носительница внутренней силы, подобно героиням узбекского фольклора. В «Не упаду перед женской красотою» поэт восхищается верностью и красотой: «Не упаду перед женской красотою, / Отвергнутый, не брошусь за корму...»[6,с.32]. Здесь женский образ воплощает восточную идею духовной чистоты и преданности, эхом отзывающуюся в традициях Навои, которого Файнберг переводил. В отличие от западной романтики, Файнберг опирается на притчевую традицию Востока, соединяя реализм и лирику. Его женщины напоминают народные образы – мудрые и загадочные, где красота служит раскрытию нравственного конфликта. В обоих примерах женщины становятся носителями гармонии. Как писал М.Бахтин, «В поэзии образ – это диалог культур»[2,с.156]. И Файнберг стремится к восстановлению гармонии – между человеком и традицией, лирикой и Востоком.

Результаты. Проведённый анализ позволил выявить устойчивые закономерности, отражающие как общечеловеческие, так и восточно-специфические аспекты женского образа в поэзии Александра Файнберга.

1. Универсальные ценности как основа образа. Центральное место занимают универсальные категории – любовь, красота и верность, формирующие нравственный фундамент. У Файнберга эти ценности выражаются в контексте гуманизма, где женщина – символ сострадания и оптимизма. Её образ действует не из внешних мотивов, а из внутренней доброты[3,с.58].

TAMADDUN NURI

2. Восточный компонент как форма выражения. Национальная специфика проявляется в стилистике: узбекские ландшафты, фольклорная образность и афористичность. Например: «Она идёт, как маленький рассвет...»[5,с.46], передаёт дух восточной мудрости и гармонии.

3. Эмоциональная лирика и воспитание через образы. Файнберг использует эмоции для формирования опыта: через лирику и абсурд, превращая образ в игру чувств. Такая «эмоциональная педагогика» (по определению 8,с.39) способствует развитию эмпатии и эстетического вкуса.

4. Лирика как инструмент познания культур. В поэзии воображение помогает осознать культурные корни, преодолеть барьеры и научиться ценить красоту. Как отмечал В.Пропп, «Образ – это восстановление гармонии»[7,с.65].

Заключение. Таким образом, поэзия Александра Файнберга представляет собой гармоничное соединение восточной образности и универсального гуманизма, где женский образ служит средством культурного самоопределения. Файнберг формирует эстетику красоты, где женщина – воплощение радости, фантазии и ритма. Его произведения воплощают идеал «духовной гармонии» – когда воспитание происходит через лирику и культурный диалог. Файнберг развивает этику роста, основанную на восточной философии: женщина совершенствуется, осознавая ценность верности и красоты. Его образы – живые воплощения народной мудрости, несущие уроки доброты. Поэт доказал, что литература – это средство культурного единства, способное объединять традиции. Через его стихи читатель постигает основы человечности – любовь, красоту и гармонию. Именно поэтому поэзия Файнберга выходит за пределы границ, становясь частью мирового наследия, утверждающего ценность культуры как фундамента развития.

Список литературы:

1. Баранов А.Н. Русская поэзия XX века: традиции и новаторство. – Москва, 2005.
2. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Худож.лит.,1979.
3. Buranova J. Mythopoetics in Khurshid Dustmukhammad's creation. // Journal of Information and Computer Science. 1[2021]: 45-47. https://scholar.google.com/scholar?cluster
4. Каримов И. Шарқий маданият ва адабиёт. – Тошкент, 2010.
5. Файнберг А. Собрание стихотворений. – Тошкент: G'afur G'ulom nashriyoti, 2008.
6. Файнберг А. Не плачь, дорога. – Ташкент: Ёш гвардия, 1997.
7. Пропп В.Я. Морфология сказки. – 2-е изд. – М.: Наука, 1969. – 168с.
8. Xamidov B. She'riyatning estetik tamoyillari. – Toshkent, 2012.
9. Мурадова Х.Б. Образ женщины в русской поэзии: сравнительный анализ. Volume: 4 Issue: 3 | Mar–2025 ISSN: 2720-6874. http://journals.academiczone.net/index.
10. The Theme of the East in the Poetry of Alexander Feinberg. International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research, 2023. https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/2198
11. Юлдашева Л.К. и др. Сравнительный анализ образов Владимира Дубровского и Петра Гринева. Comparative Analysis Of The Images Of Vladimir Dubrovsky And Peter Grineva //Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на. – 2018. – С. 39.: https://scholar.google.com/scholar?cluster

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 378.147:811.111'243

TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA JURNAL (KUNDALIK) YURITISHNING AHAMIYATI

Abdiolimova Qizlarxon Subhonali qizi, Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

THE IMPORTANCE OF JOURNAL (DIARY) WRITING IN DEVELOPING STUDENTS' ENGLISH WRITING SKILLS

Abdiolimova Qizlarkhon Subhonali qizi, a basic doctoral student at Fergana State University

ЗНАЧЕНИЕ ВЕДЕНИЯ ЖУРНАЛА (ДНЕВНИКА) В РАЗВИТИИ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Абдиолимова Кизлархон Субхонали кызы, базовый докторант Ферганского государственного университета



https://orcid.org/0009-0006-1643-418X
e-mail: abdiolimovaqizlarxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ingliz tilida yozish ko'nikmasi ko'plab EFL (chet tili sifatida ingliz tili) o'rganuvchilari uchun murakkab jarayon bo'lib ko'rinadi. Buning ustiga ingliz tili bugungi kunda dunyo mamlakatlari va xalqlari o'rtasidagi muloqot vositasi sifatida har bir o'rganuvchi tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan til sanaladi. Ushbu maqola talabalarning jurnal yozuvi faoliyatida ishtirok etishi orqali yozish qobiliyatini rivojlantirishi hamda mavjud yozuvdagi qiyinchiliklarni bartaraf eta olishini aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *ingliz tilida yozma nutq, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar (EFL o'quvchilar), kundalik yozuvi (jurnal yozuvi), yozma nutq ravonligi, hamkorlikda yozish.*

Abstract: *Writing in English is perceived as a challenging skill for many EFL learners. Moreover, in the context of globalization, English functions as a means of communication between nations and countries and, therefore, is a language that every learner is expected to master. This paper aims to examine whether students are able to develop their writing ability and overcome existing writing difficulties through engagement in journal writing activities.*

Key words: *English Writing, EFL Learners, Journal Writing, Fluency, Colloborative writing.*

Аннотация: *Навыки письма на английском языке для многих обучающихся EFL (изучающих английский как иностранный язык) представляются сложным и трудоёмким процессом. Более того, в современных условиях глобализации английский язык выступает средством коммуникации между странами и народами и, соответственно, является языком, который должен быть освоен каждым обучающимся. Данная статья направлена на выявление того, могут ли студенты развивать свои навыки письма и преодолевать существующие трудности в письменной деятельности посредством регулярного участия в журналировании (ведение письменного дневника).*

Ключевые слова: *письмо на английском языке, обучающиеся EFL, журнальное письмо, беглость письма, коллаборативное письмо.*

Kirish. Ingliz tilida yozish ko'nikmasi ko'plab EFL (ingliz tili chet tili sifatida o'rganiladigan muhitdagi) o'rganuvchilar uchun murakkab jarayon bo'lib ko'rinadi. Bundan tashqari, ingliz tili bugungi kunda dunyo mamlakatlari va xalqlari o'rtasidagi asosiy muloqot

vositasi sifatida har bir o‘quvchi tomonidan egallanishi zarur bo‘lgan til hisoblanadi. Ushbu maqola talabalar jurnal yozuvi faoliyatida ishtirok etish orqali o‘z yozish qobiliyatini rivojlantirishi hamda mavjud yozuvdagi qiyinchiliklarni bartaraf eta olishini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqotda yozuv bo‘yicha ikki o‘quv guruhidan iborat uchinchi bosqichda tahsil olayotgan 50nafar talaba ishtirok etdi. Guruhlardan biri eksperimental guruh (EG), ikkinchisi esa nazorat guruhi (CG) sifatida belgilandi. Tadqiqot Farg‘ona davlat universiteti ingliz tili fakultetida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari jurnal yozuvini kengaytirilgan yozma faoliyat sifatida qo‘llash talabalar yozishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishi, yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishi hamda o‘qituvchi va talaba o‘rtasida yaqin, interaktiv muloqotni shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Til jamiyat hayotida muhim kommunikativ vosita sanaladi. Larsen-Freeman ta’kidlaganidek, til insonlar o‘rtasida o‘zaro muloqotni ta’minlaydigan vosita hisoblanadi. Til yordamida inson boshqalar bilan muloqot qiladi, axborot va bilimlarni egallaydi, his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Odamlar til bo‘lmasa, bir-biri bilan to‘laqonli muloqot qila olmasliklarini anglaydilar. Til turli madaniyat egalari o‘rtasida o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini bajaradi. Bugungi kunda ko‘plab insonlar xalqaro til sifatida ingliz tilini o‘rganmoqda.

Tilni o‘rganish jarayonidagi to‘rt asosiy ko‘nikma ichida yozuv odatda eng kech shakllanuvchi nutq ko‘nikmasi sifatida e’tirof etiladi[1]. Ingliz tilida muvaffaqiyatli yozish EFL o‘rganuvchilari uchun nafaqat til o‘rganish jarayonida, balki ularning kelajak kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi[2]. Biroq ko‘plab EFL o‘quvchilari uchun ingliz tilida yozish murakkab va mas’uliyatli faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Nunanning fikricha, mazmunan izchil, mantiqan bog‘langan va ravon matn yaratish til o‘rganish jarayonidagi eng qiyin vazifalardan biridir, chunki muallif o‘quvchi matnni muallifning ohangi yoki intonatsiyasiga tayanmasdan tushuna olishini ta’minlashi lozim.

Yozish grammatik bilim, lug‘at boyligi va til birliklaridan aniq foydalanish malakasini talab qiluvchi murakkab kognitiv jarayondir. Talabalardan yozuv orqali nafaqat fikrlarini ifodalash, balki mazmunni izchil va muloqotga yo‘naltirilgan shaklda yetkazish kutiladi. Shunga qaramay, ko‘plab talabalar lug‘at yetishmasligi, g‘oya rivojlantirishdagi qiyinchiliklar va grammatik xatoliklar tufayli muammolarga duch keladilar[3].

Ko‘plab o‘rganuvchilar o‘qituvchi nazorati ostida yozishga majbur bo‘layotganini his qiladi, bu esa jarayonni yanada ruhiy bosimli qiladi[5]. Agar yozuv vazifasi talabalarga yoqimli bo‘lgan shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ular o‘zini nisbatan erkin his qiladi. Biroq “o‘sha shaxs” o‘qituvchi bo‘lsa, uning nigohi tanqidiy bo‘lishi, yozma ishga individual baho qo‘yilishi ehtimoli mavjud bo‘lgani sababli ko‘pchilik o‘quvchilar o‘zini noqulay his qiladi.

Ushbu tadqiqot yuqorida tilga olingan muammolarni talabalar kundalik jurnal yuritish faoliyatida ishtirok etish orqali yengib o‘ta oladilarmi-yo‘qmi, degan savolga javob topishga qaratilgan. Lagan shunday deydi: “Yozish – bu ko‘nikma. Qanchalik ko‘p mashq qilsangiz, shunchalik yaxshi yozasiz. Yozishga muntazam mashq qilishning eng yaxshi usullaridan biri bu kundalik jurnal yuritishdir”. Mazkur tadqiqot jurnal yozuvining talabalar yozma ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashni maqsad qilgan.

Tadqiqot muammosi. Yuqoridagi asoslardan kelib chiqib, tadqiqot quyidagi ikki asosiy savolga javob izlaydi:

1. Jurnal yozuvi orqali yozishni o‘rgangan talabalar yaxshiroq natijalarga erishadimi?
2. Jurnal yozuvi talabalarning yozishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradimi?

Jurnal (kundalik) yozuvi bo‘yicha adabiyotlar sharhi. Sinfdagi yozuv akademik faoliyatning muhim tarkibiy qismidir. Shuningdek, sinfdan tashqari yozuv mashg‘ulotlari ham yozma ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita bo‘la oladi[6]. O‘quv jarayonida turli media vositalaridan foydalanish talabalarning qiziqishini oshiradi, ijobiy munosabat shakllantiradi va dars jarayonining samarali kechishiga yordam beradi[7]. Uy sharoitida yozuv mashqi sifatida jurnal (kundalik) yuritish tavsiya etiladi. Jurnal bu shaxsiy fikr, his-tuyg‘u, voqea va kundalik hayot tasvirlari qayd etiladigan yozma maydon bo‘lib, u yozuvchining ijodkorligini rivojlantiradi[8]. Jurnal yozuvi o‘quvchilarga ko‘proq vaqt va erkinlik beradi, shuning uchun ular istagan vaqtda o‘z his-tuyg‘ulari haqida yozish imkoniga ega bo‘ladilar.

Hamp-Lyons va Heasly shunday tavsiya etadi: “Yaxshi yozuvchi bo‘lishning eng samarali yo‘li – ko‘proq yozishdir. Kundalik shaxsiy jurnal yuritishni qat’iy tavsiya qilamiz”. Jurnal yozuvi talabalarga shaxsiy hayot tajribalarini qayd etish, yozish jarayoniga qiziqish bildirish, xatolardan qo‘rqmasdan yozish imkonini beradi[9]. White va Arndt jurnal yozuvining afzalliklarini quyidagicha izohlaydi:

-yozishga qiziqishni oshiradi;

-fikrni ravon ifodalashni rivojlantiradi;

-yozishni shaxsiy tajriba va o‘quvchi bilan yozma muloqot sifatida shakllantiradi.

Lagan fikricha, jurnal yozuvi qog‘ozda fikrlash odatini shakllantiradi, g‘oyalarni yozish jarayonida kashf etishga yordam beradi, yozuvni hayotning tabiiy qismiga aylantiradi. U shuningdek shunday deydi: “Agar aniq o‘ylamasangiz, aniq yoza olmaysiz”.

Shu bois jurnal yozuvi vaqt o‘tishi bilan mantiqiy fikrlashni, intizomli yozuvni, grammatik aniqlikni rivojlantiradi. Shuningdek, jurnal yozuvi g‘oya yetishmasligi holatini kamaytiradi va ravon yozishga yordam beradi. Tin qayd etadi: “Ijodiy yozuv talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, tashvish darajasini kamaytiradi va yozish malakasini rivojlantiradi”. Sinfdagi yozuv ko‘pincha talabalarda hayajon uyg‘otgan bo‘lsa, jurnal yozuvi esa o‘qituvchi nazoratidan tashqarida bo‘lgani sababli erkin muhit yaratadi, bu esa yuqori motivatsiya va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhiti shakllanishiga olib keladi[10].

Tadqiqot uslubi. Ushbu tadqiqot tavsifiy hamda sonli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgani sababli miqdoriy va sifatli tadqiqot xususiyatiga ega. Tadqiqotning asosiy maqsadi jurnal yozuvining talabalarning yozma ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash bo‘lib, buning uchun ikki guruh (eksperimental va nazorat guruhi) natijalari taqqoslandi. Xulosa chiqarishda eksperimental tadqiqot dizayni qo‘llandi.

Tadqiqot usuli uch tarkibiy qismda bayon etiladi: ishtirokchilar; tadqiqot asboblari; topshiriqlar (so‘rovnoma) tuzilishi.

Avvalo, tadqiqot obyekti sifatida ishtirokchilar tavsiflanadi, so‘ng javoblar qanday o‘lchanganini ko‘rsatish uchun tadqiqot asboblari bayon etiladi, uchinchi bosqichda esa so‘rovnoma bandlarining tuzilish jarayoni yoritiladi.

Ishtirokchilar. Tadqiqot 2025-yil sentabr oyida Farg‘ona davlat universitetida o‘tkazilgan. Jurnal yozuvining yozma ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash maqsadida aralash uslubdagi (mixed-method) so‘rov tadqiqoti amalga oshirildi.

Umumiy 150 nafar o‘quvchi ichidan 50 nafari tadqiqotga jalb qilindi, har bir guruhda 25 nafardan o‘quvchi mavjud. Ishtirokchilarning o‘rtacha yoshi 17–18ni tashkil etgan. Ushbu guruhlar tanlanishiga sabab, oldindan o‘tkazilgan dastlabki test natijalari hamda ingliz tili o‘qituvchisi tomonidan qayd etilgan yozma faoliyat ko‘rsatkichlariga ko‘ra ularning o‘zlashtirish darajasi deyarli teng ekani aniqlangan.
1-guruh (25 nafar o‘quvchi) eksperimental guruh (EG), 2-guruh (25 nafar o‘quvchi) nazorat guruhi (CG) sifatida belgilandi.

Eksperimental guruh o‘quvchilari sinfdan tashqarida jurnal yozuvi bilan shug‘ullanishdi va shu bilan birga sinfdagi yozuv mashqlarini ham bajarishdi.
Nazorat guruhi esa faqat dars jarayonidagi yozish mashqlari va uyga yozma topshiriqlar bilan shug‘ullandi.

Tadqiqot asboblari va tartibi. Talabalar yozuv ko‘nikmalarining ravonlik (fluency) va aniqlik (accuracy) darajasini baholash uchun dastlabki test va yakuniy test (insho yozish)dan foydalanildi.

Aniqlik – yozuvda xatolardan qochish qobiliyati.

Ravonlik – tilni real vaqt rejimida keraksiz pauza va ikkilanishsiz qo‘llash qobiliyati.

Eksperimental guruh o‘quvchilari13 hafta davomida kundalik hayotlari haqidagi jurnal yozuvlarini muntazam tarzda daftarlariga qayd etib bordilar. Ular kunlik tajriba, his-tuyg‘ular, atrof-muhitdagi voqealar haqida erkin yozishlari mumkin edi. Tadqiqotchi ham o‘quvchilar jurnalidagi ravonlik, aniqlik, motivatsiya, o‘zgarishlarini qayd etib bordi. Nazorat guruhi darsdagi yozuv mashqlari, darslikdagi topshiriqlar, uyga yozma mashqlar bilan shug‘ullandi (bo‘sh joylarni to‘ldirish, tasvir asosida gap tuzish, jumlalarni izchil matnga keltirish va boshqalar).

Eksperimental guruh esa erkin mavzuda yozish imkoniga ega bo‘ldi. 13 haftalik davr yakunida har ikki guruh posttest topshirdi. Uning

maqsadi — jurnal yozuvining sinfdagi yozma ishlar, uy topshirig‘i sifatiga ta’sirini baholash edi.

Natijalar. Yozuv ravonligi cheklangan vaqt ichida yozilgan so‘zlar soni bilan baholandi, qancha ko‘p so‘z yozilsa ravonlik shuncha yuqori deb baholandi. Natijalarga ko‘ra jarayonda guruhlar o‘rtasida farq deyarli bo‘lmagan, jarayondan keyin esa eksperimental guruh sezilarli ustunlikka erishgan.

1-jadval. Yozuvdagi ravonlikka oid tavsifiy statistik ko‘rsatkichlar.

Guruhlar	Ko‘rsatkich	Dastlabki test	Yakuniy test	O‘zgarishlar	Foiz
EG	Bir inshodagi so‘zlarning o‘rtacha soni	195.21	203.11	7.90	3.89%
NG	Bir inshodagi so‘zlarning o‘rtacha soni	194.20	213	18.80	9.80%
EG va NG o‘rtasidagi farq	Bir inshodagi so‘zlarning o‘rtacha soni	1.01	-9.89	8.88	-

Mazkur natijalardan shuni anglash mumkinki, eksperimental guruh jurnal yozuvi faoliyatiga jalb etilishidan avval har ikki guruh talabalari yozish tezligi bo‘yicha deyarli bir xil ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. Biroq talabalar o‘n uch hafta davomida jurnal yozuvi mashqini bajarganidan so‘ng o‘tkazilgan posttest natijalari ikki guruh o‘rtasida yozilgan so‘zlar soni bo‘yicha sezilarli farq borligini ko‘rsatdi. Nazorat guruhida yakuniy test davomida o‘rtacha yozilgan so‘zlar soni 203,11 tani tashkil etdi. Bu shuni anglatadiki, yakuniy test va dastlabki test natijalari orasidagi farq 7,90 so‘zni (3,89% o‘sish) tashkil qilgan.

Eksperimental guruhda esa yakuniy testda yozilgan so‘zlarning o‘rtacha soni 213 tani tashkil etib, pretest bilan taqqoslaganda 18,80 so‘zga (9,80% o‘sish) ko‘paygan. Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, yozuvdagi o‘sish dinamikasi eksperimental guruhda nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan. Shuningdek, eksperimental guruh talabalari yozuv topshiriqlarini to‘liq bajarish ko‘rsatkichida ham yaxshiroq natijaga erishgan.

2-jadval. Yozuvdagi aniqlikka oid tavsifiy statistik ko‘rsatkichlar.

Guruhlar	Ko‘rsatkich	Dastlabki test	Yakuniy test	O‘zgarishlar	Foiz
EG	Bir inshodagi so‘zlarning o‘rtacha soni	22.56	15.88	6.68	30.2%
NG	Bir inshodagi so‘zlarning o‘rtacha soni	23.00	8.12	14.88	60.80%
EG va NG o‘rtasidagi farq	Bir inshodagi so‘zlarning o‘rtacha soni	1.56	7.76	6.20	-

2-jadvalga ko‘ra, dastlabki test natijalarida nazorat guruhida o‘rtacha xatolar soni 22,56 tani, eksperimental guruhda esa 23,00 tani tashkil qilgan. Bu shuni anglatadiki, jurnal yozuvi faoliyatidan avval har ikki guruhning yozuvdagi aniqlik darajasi deyarli bir xil bo‘lgan. Ammo jurnal yozuvi mashqlarining o‘n uch haftalik qo‘llanishi natijasida ikki guruh o‘rtasidagi xatolar sonida sezilarli tafovut kuzatildi. Nazorat guruhida xatolar soni posttestda 15,88 taga kamayib, 30,20% yaxshilanish qayd etildi. Eksperimental guruhda esa xatolar soni 8,12 taga kamayib, 60,80% yaxshilanish kuzatildi. Bu esa eksperimental guruhdagi talabalar yozuvdagi aniqlik darajasini nazorat guruhiga nisbatan ancha samarali oshirganini ko‘rsatadi. Taxminan yetti hafta o‘tgach, guruhda hamkorlikka asoslangan o‘quv muhiti shakllandi. Tanaffus vaqtlarida

TAMADDUN NURI

talabalarning shunday savollar bilan bir-biriga murojaat qilgani kuzatildi:

“Bugun jurnal yozdingmi?” “Bugun nimani yozding?”

Bu muloqotlar talabalar o‘rtasida hamkorlik muhiti shakllanganini ko‘rsatdi. O‘qituvchi tashqarida jurnal yozuvlarini ko‘ngilli tarzda tahrirlashni taklif qilganida, talabalar buni ijobiy qabul qildi va o‘zaro tahrir (peer-editing) guruhi tuzdilar. Bundan tashqari, talabalar jurnal yozuvlarini joylashtirish uchun blog yaratdilar, unda bir-birining ishlariga sharh va mulohaza bildirishdi. Bunday qo‘llab-quvvatlovchi muhit jurnal yozuvi faoliyatida faol ishtirok etishni rag‘batlantirdi, hamkorlikni kuchaytirdi, o‘qituvchi–talaba munosabatlarini mustahkamladi.

Xulosa. Jurnal yozuvini (kundalik yozishni) talabalarning yozish motivatsiyasini faollashtiruvchi, ularning yozma ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi hamda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida yaqin munosabatni shakllantiruvchi keng qamrovli faoliyat sifatida qo‘llash ko‘plab afzalliklarga ega. Ushbu tadqiqotda olingan ma’lumotlar tahlili natijalariga asoslanib aytish mumkinki, yozma nutqni o‘rgatish jarayonida jurnal (kundalik) yozish metodikasini joriy etish talabalarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi.

Talabalar jurnal-kundalik yozish jarayonida ko‘plab til komponentlarini mustaqil ravishda o‘rganadilar. Ular yozar ekan, yangi so‘zlarni o‘zlashtiradilar, qiziqarli g‘oyalarni izlaydilar, o‘z fikrlarini qanday ifodalash haqida o‘ylaydilar, gap tuzilmalari va grammatikani mustahkamlaydilar. Talabalar va tadqiqotchi o‘rtasidagi suhbat natijalariga ko‘ra, talabalar qayta hikoya (recount) matnining mazmuni va uni yozish bosqichlari haqida yanada chuqurroq tushunchaga ega bo‘lganliklari kuzatildi.

Bundan tashqari, haftadan haftaga yozuv sifatida sezilarli o‘sish qayd etildi. Talabalar avval yo‘l qo‘ygan xatolarining bir qismini bartaraf eta boshladilar. Ularning topshirgan kundaliklarida faqatgina paragraf uzunligi, so‘zlar soni yoki grammatika emas, balki paragraf tashkiloti, til vositalaridan foydalanish va texnik yozuv elementlari (mexanika) jihatidan ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Byrne,D. Teaching Writing Skills. Longman, 1991.
2. Hamp-Lyons, L., and B. Heasly. Study Writing. 2nd ed., Cambridge University Press, 2006.
3. Harmer,J. The Practice of English Language Teaching. 4th ed., Pearson Education, 2007.
4. Hedge,T. Writing. Oxford University Press, 1991.
5. Lagan,J. College Writing Skills. Longman, 2000. Larsen-Freeman, D. Technique and Principles in Language Teaching. Oxford American English, 2003.
6. Ngoh,T. From Journals to Weekly Papers. Guidelines, vol. 24, 2002.
7. Nunan, D. Second English Teaching and Learning. Heinle Publishers, 1999.
8. Spaventa, S. Essay Writing. Cambridge. Cambridge University Press, 2000.
9. White, R., and V. Arndt. Process Writing. Longman, 1991. Zuana, Muhammad Mujtaba Mitra. Digital Storytelling: An Attractive Media to Teach Narrative Text in Speaking Class. ALSUNA: Journal of Arabic and English Language, vol. 1, no. 1, 2018, pp. 26–39.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 378.147:37.035

ЖАДИДЛАР МЕРОСИ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ФАОЛЛАШТИРИШ МЕТОДИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА УМИД БЕКМУҲАММАД, САЙЁРА САМАНДАР АСАРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Бекчанова Озода Отажон қизи, Урганч давлат педагогика институти "Бошланғич таълим методикаси" кафедраси ўқитувчиси



https://orcid.org/0009-0003-3489-7653
e-mail: bekchanovaozoda51@gmail.com

THE SIGNIFICANCE OF THE WORKS OF UMID BEKMUHAMMAD, SAYYORA SAMANDAR IN IMPROVING THE METHOD OF ACTIVATING THE SPIRITUAL WORLD VIEW OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF THE HERITAGE OF JADIDLAR

Bekchanova Ozoda Otajon kizi, teacher of the "Methodology of Primary Education" department of Urganch State Pedagogical Institute

ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ УМИДА БЕКМУХАММАДА И САЙЁРЫ САМАНДАР В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕТОДИКИ АКТИВИЗАЦИИ ДУХОВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ НАСЛЕДИЯ ДЖАДИДОВ

Бекчанова Озода Отажон кызы, преподаватель кафедры "Методика начального образования" Ургенчского государственного педагогического института

Аннотация: *Ушбу мақолада Хоразм жадидлари мероси асосида бўлажак ўқитувчиларнинг маънавий дунёқарашини фаоллаштириш методини такомиллаштиришда Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар асарларининг илмий аҳамияти тадқиқ қилинади.*

Калит сўзлар*: жадид, феномен, педагогика, мактаб, институт, талаба, ўқитувчи, дарслик, қўлланма, энциклопедия, монография, қўлланма, китоб, мерос, метод.*

Abstract: *This article examines the scientific works of Umid Bekmuhammad and Sayyora Samandar in the active method of improving the spiritual worldview of future students in the source of Khorezm Jadids.*

Key words*: Jadid, phenomenon, pedagogy, school, institute, student, teacher, textbook, manual, encyclopedia, monograph, manual, book, heritage, method.*

Ключевые слова*: джадид, феномен, педагогика, школа, институт, студент, учитель, учебник, руководство, энциклопедия, монография, пособие, книга, наследие, метод.*

Аннотация*: В данной статье рассматривается научное значение работ Умида Бекмукхаммада и Сайёры Самандара в совершенствовании метода активизации духовного мировоззрения будущих учителей на основе наследия хорезмских джадидов.*

КИРИШ. Жадидчилик ҳаракати феномен бўлиб, уларнинг мақсад ва ғоялари нафақат ўша давр, балки ҳамма замон тараққийпарварлари учун ҳам ўрнак, туркий миллатлар ҳаёти, тақдирида Ренессанс вазифасини ўтаган тарихнинг энг ёрқин, ифтихорли саҳифаларидандир.

Қримда Исмоил Гаспрали (1851-1914) томонидан дастлаб мактаб, сўнгра матбуот тарзида бошланган ва Россия империясидаги туркий миллатлар ҳаётига, тақдирига шиддат билан кириб борган, таъсир қилган жадидчилик ҳаракати Туркистон, шу жумладан Хоразмдаги жараёнларни ҳам тезлаштириб юборганди. Айнан ана шу даврга оид тадқиқотлар жадидлар меросини ўрганиш, бу борада бўлажак ўқитувчиларнинг маънавий дунёқарашини фаоллаштириш методини такомиллаштиришда катта роль ўйнайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДИ. Мавзуни тадқиқ қилишда У.Бекмуҳаммаднинг “Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси”, С.Самандар, У.Бекмуҳаммадларнинг “Хоразм жадидчилиги: ислоҳотлар, таълим ва адабиёт”, “Хоразм жадид намояндалари: ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси”, “Хоразм жадид мактаблари” монографиялари, Б.Қосимов, З.Абдурашидов асарлари, “Таржимон” газетасидаги мақолалар бир-бирига таққосланди ҳамда улар асосида холислик, ҳаққонийлик методи асосида илмий мушоҳада юритилди.

МУҲОКАМА. Маълумки, Хоразм жадидчилик ҳаракатининг Туркистон, Бухоро жадидчилигидан фарқли томонлари ва ўхшаш жиҳатлари мавжуд бўлган ҳамда воҳа жадидлари ўз фаолиятларида авлодлар учун ўзига хос мерос қолдиришган. Айнан ана шу ҳаракат, жадидлар меросини тадқиқ қилиш борасида тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент Умид Бекмуҳаммад, филология фанлари номзоди, доцент Сайёра Самандарлар томонидан 2024, 2025 йиллар давомида “Milleniumus print”, “Дурдона” нашриётларида “Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси”, “Хоразм жадидчилиги: ислоҳотлар, таълим ва адабиёт”, “Хоразм жадид намояндалари: ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси”, “Хоразм жадидларининг мустамлакачилик даврларида қатағон қилиниши”, “Бобоохун Салимов: жадид, давлат арбоби ва шоир”, “Хоразм матбаачилиги ва матбуоти тарихи”, “Жадид маърифатрпарвари ва матбаачилик асосчиси” сингари рисолалар ва 50 дан ортиқ мақолалар нашр этилди. Айнан ушбу ҳаммуаллифларгача Хоразм жадидчилиги бу қадар кенг қамровда, фундаментал тарзда тадқиқ этилмаган ва кенг оммага тарғиб қилинмаганди.

Мана шу энциклопедия, монографиялар, рисолалар ва мақолалар орқали Хоразмда жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши, шаклланиши, ғоя, мақсад ва вазифалари, жадид мактаблари, педагоглари, мактаблар ҳомийлари, ўқиш жараёнлари, дарслик, қўлланмалари, намояндаларнинг сиёсий фаолияти, мустамлакачилар, қадимчилар билан кечган сиёсий курашлари, ислоҳотлари архив ҳужжатлари, ўша даврга оид мемуарлар, илмий адабиётлар ва жадидлар қолдирган адабий, маънавий мерос асосида тадқиқ қилинган.

“Ферузхон, Асфандиёрхон, Мамат Маҳрам, Исломхўжа, Салимохун, Худойберганбек Матниёзбеков, Бобоохун Салимов сингари жадид мактаблари ҳомийлари, хайриҳоҳлари, Зайнаб Сиддиқова, Марям Агишева, Комила Қўшаева сингари педагог аёллар , умуман олганда Хоразмдаги 20та жадид мактаблари, улардаги ўқитувчилар, Полвонниёзҳожи Юсупов, Назир Шоликоров, Жуманиёз Султонмуродов каби “Ёш хиваликлар”, уларнинг курашлари, Ғофур Усмоний, Рамазон Сайдашевдек Хоразмнинг жадид журналистлари, Аваз Ўтар, Бобоохун Салимов, Ҳусайинбек Матмуродов, Комил, Сафо Муғанний, Бекжон Раҳмон сингари ижодкорлар, улар яратган асарлар янги манбалар асосида таҳлил қилинган”(1).

Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандарларнинг асарлари орқали Хоразм жадидларининг меросини қуйидаги турларга ажратиш мумкин:

1. Полвонниёзҳожи Юсупов, Бобоохун Салимовларнинг хотиралари;

2. Аваз Ўтар, Сўфизода, Бобоохун Салимов, Ҳусайинбек Матмуродов, Комил, Бекжон Раҳмон, Сафо Муғаннийнинг бадиий асарлари;

TAMADDUN NURI

3. Рамазон Сайдашев, Ғофур Усмонийларнинг “Таржимон” газетасида нашр этилган мақолалари;

4. Худойберган Девонов яратган кино асарлар;

5. Ҳамза Ҳакимзода томонидан Хоразмда яратилган драмалар;

6. Бобоохун Салимов, Бекжон Раҳмонлар нашр қилдирган дарслик, ўқув қўлланмалари;

7. Жадид маърифатпарвари Отажон Абдолов матбаахонасида чоп этилган тошбосма асарлар, дарсликлар.

Ана шу етти жиҳат Хоразм жадидлари мероси асосида бўлажак ўқитувчиларнинг маънавий дунёқарашини фаоллаштириш методини такомиллаштиришда Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар асарларининг илмий аҳамияти катталигидан далолатдир. Негаки ана шу ҳаммуаллифлар асарларида илк бора Хоразм жадидчилик ҳаракати ва ушбу феноменнинг ўзига хос хусусиятлари, намояндалар фаолияти, улар қолдирган юқоридаги сингари маънавий, адабий мерос илк бора илмий тадқиқ қилинди, холис ва ҳаққоний баҳо берилди.

Маълумки, инсоннинг камолотга етишишида оиладаги тарбиянинг, маҳалла, жамиятдаги муҳитнинг ва табиийки мактабнинг роли каттадир. Шу боисдан ҳам миллатнинг маънан баркамоллигини, Ватаннинг тараққиётини мақсад қилган жамиятларда таълимга катта эътибор берилган ва бу жараёнда доимо янгиликлар татбиқ этилган.

Айнан шу боисдан ҳам Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандарларнинг “Хоразм жадид мактаблари” монографиясида янги усул мактаблари, педагоглари, дарс жараёнлари, дарслик ва қўлланмалар Ўзбекистонда илк маротаба шу мавзуда тадқиқ этилган асардир. Шунингдек, “Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси” фундаментал асари ҳам бу борада республикада яратилган илк тадқиқот эканлигини таъкидлаш жоиздир.

Эътиборли жиҳати қуйида илк маротаба фаолиятлари тилга олинган айрим Хоразм жадид педагогларига ҳаммуаллифлар асарлари орқали тўхталиб ўтсак:

“АБДУРАҲМОН АФАНДИ (?-1907). Хоразмдаги жадид мактабларида ўқитувчи бўлиб фаолият кўрсатган маърифатпарвар. 1898 йилда Оренбургдан Хивага таклиф қилинган. Дастлаб Хивадаги, сўнгра Янги Урганч шаҳридаги жадид мактабида ўқитувчилик қилган. 1907 йил Янги Урганчда вафот этган.

АБДУЛЛА САЛИМ ЎҒЛИ –Хоразмдаги жадид мактабларида фаолият кўрсатган педагог. 1911 йилда бош вазир Исломхўжанинг таклифи билан Қозон шаҳридан Хоразмга келган. Хивадаги жадид мактаби ва республика, округ давридаги совет мактабларида фаолият кўрсатган.

АГИШЕВА МАРЯМ – Хоразмдаги жадид мактаби ва республика, округ давридаги совет мактабларида фаолият олиб борган педагог. Бош вазир Исломхўжа томонидан 1907 йилда Қозон шаҳридан таклиф қилинган. Хива шаҳридаги жадидларнинг қизлар мактабида, сўнгра Янги Урганч шаҳридаги жадид мактабида ўқитувчилик қилган. Марям Агишева, Зайнаб Сиддиқова сингари Хоразмга Қозон шаҳридан келиб таълим тараққиётига катта ҳисса қўшган жадид педагогларининг ҳаёти ва фаолияти умуман тадқиқ қилинмаган”[2].

ҚЎШАЕВ ҲУСАЙИН – Хоразмдаги жадид мактабларида ўқитувчилик қилган зиёли. Хоразмда ташкил этилган “Жамияти хайрия” ташкилотининг таклифи билан Хивага келиб жадид мактабида ўқитувчилик фаолиятини бошлаган. Дастлаб Хива, сўнгра 1906 йилдан Янги Урганч шаҳарларидаги жадид мактабларида фаолиятини давом этдирган. Гурлан, Хонқа, Ҳазорасп, Шовот, Хўжайли, Тошҳовуз, Қўнғирот шаҳарларидаги жадид мактаблари ўқитувчилари билан ҳам ҳамкорлик қилиб турган. Хонлик тугатилгач республика ва 1925 йилдан кейинги округ даврида ҳам таълим соҳасида фаолият кўрсатган.1936 йил 14 майдаги ЎЗССР Марказий Ижроия комитетининг қарори билан “Меҳнат Қаҳрамони” унвони берилган. Ҳусайин Қўшаевнинг ҳаёти, жадид ва совет мактабларидаги фаолияти тадқиқ қилинмаган.

ҚЎШАЕВА КОМИЛА – Хоразмдаги жадид мактабларида фаолият кўрсатган педагог. Ҳусайин Қўшаевнинг турмуш ўртоғи. 1904-1906 йилларда Хивадаги жадид мактабида, 1906 йилдан эса Янги Урганчдаги жадид мактабида ўқитувчилик фаолиятини давом этдирган.

Хоразмдаги биринчи жадид педагоги Комила Қўшаеванинг ҳаёти, фаолияти ва Хоразм таълим тараққиётига қўшган ҳиссаси тарих ва педагогика фанларида тадқиқ қилинмаган.

АҲМАД НУРИДДИН – Хивадаги жадид мактабида фаолият кўрсатган педагог. Бош вазир Исломхўжа томонидан ташкил этилган Хивадаги жадид мактабида ўқитувчилик қилган. Ушбу таълим маскани “Мактаби Рушдия” (ўрта мактаб) дея номланган. 1907 йил 28 май куни валиаҳд Асфандиёр ва бош вазир Исломхўжа, 31 май куни Қозикалон Салимохун ва бошқа охун, мударрислар мактаб ўқувчиларини имтиҳондан ўтказишади. Натижада Аҳмад Нуриддиннинг Хоразмлик ўқувчиларга бераётган таълими юқори баҳоланади. Аҳмад Нуриддиннинг ҳаёти ва Хоразмдаги педагогика тараққиётига қўшган фаолияти тарих фанида тадқиқ қилинмаган.

БАКИРОВ ДАВИД – XX аср бошларида Хоразмдаги жадид ва 1920 йилдан кейинги совет мактабларида фаолият олиб борган педагог. Бош вазир Исломхўжа томонидан Қозон шаҳридан Хивага таклиф қилинган. Нуриллабой саройи қаршисидаги Собир маҳрамнинг жадид мактабида ўқитувчилик қилган. 1920 йилда хонлик тугатилгач, республика ва округ даврида совет мактабларида ҳам фаолиятини давом этдирган. Давид Бакировнинг ҳаёти ва Хоразм педагогикаси тараққиётига қўшган ҳиссаси тарих фанида тадқиқ қилинмаган.

БАКИРОВ МУХТОР – XX аср бошларида Хоразмдаги жадид ва кейинчалик совет мактабларида фаолият олиб борган педагог. Қозон шаҳридан бош вазир Исломхўжа таклифи билан Хивага келган. Давид ва Мухтор Бакировлар ака-ука бўлиб, Хоразм таълим тараққиёти учун катта ҳисса қўшишган.

ЮСУФ АФАНДИ АҲМАД ЎҒЛИ – Хоразмдаги жадид мактабида фаолият олиб борган педагог. 1907 йилда Хива хони Ферузхон томонидан Қозон шаҳридан Ҳусайин афанди билан бирга таклиф қилинган ва Хивадаги жадид мактабида ўқитувчилик қилган. Юсуф афанди ишлаган мактаб тезда ўқувчилар, ота-оналар эътиборини тортиб таълим сифати бўйича Хоразмдаги рус-тузем, жадид ва анъанавий (эски)мактаблар ўртасидаги рақобатда олдинги даражага чиққан. Юсуф афандининг ҳаёти ва Хоразмдаги таълим тараққиётига қўшган ҳиссаси тарих фанида тадқиқ қилинмаган.

ИБРОҲИМОВ ҲУСАЙН – XIX аср охири ва XX аср бошларида Тошкент, Хива шаҳарларидаги мактабларда фаолият кўрсатган педагог. Тошкентдаги ўқитувчилар семинариясини тугатган. 1891 йил сентябридан Хивадаги рус тузем мактабида ўқитувчилик қилган. Бош вазир Исломхўжа ва Мамат маҳрам томонидан очилган жадид мактабларида ҳам дарс берган. Хоразмда таълим тараққиёти учун катта ҳисса қўшган педагог Ҳусайин Иброҳимов ва унинг сафдошларининг Хоразмдаги фаолияти умуман тарих фанида тадқиқ қилинмаган[3].

Ушбу ва бошқа маърифатпарвар педагогларнинг номлари, фаолиятлари шу пайтгача биронта асарда ёрилмаган ва шу жиҳатдан ҳам Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар асарларининг илмий аҳамияти катта. Айнан маънавий мерос масаласида эса энциклопедия ва монографияларда Исмоил Гаспрали томонидан 1883 йилдан Қримда нашр этилган “Таржимон” газетаси, унинг ўша даврдаги жараёнларга таъсири, матбуот тарихида тутган ўрни алоҳида тадқиқ этилганини таъкидлаш жоиз. Бу борада ҳаммуаллифлар “Таржимон” газетасида 1883 йилдан то 1916 йил давомида газетада чоп этилган Хоразмга оид 158та мақола ва унинг мазмунини берган, изоҳлаган ва туркумга ажратишган. Шу билан бирга Хоразм жадид мактабларида педагоглик қилган Рамазон Сайдашев, Ғофур Усмонийлар воҳанинг илк жадид журналистлари эканлигини фанда биринчи маротаба тафсилотлари билан ёритиб беришган. Айнан улар ёзган хабарлар, мақолалар орқали Хоразм тарихидаги XIX аср охири, XX аср бошида кечган жараёнларнинг тўлақонли манзарасини тасаввур қилиш мумкинлиги илмий томонлама тадқиқ этилади. Айнан “Таржимон” газетаси библиографиясини нашрга тайёрлаган профессор З.Абдурашидовнинг асари эса ҳаммуаллифлар учун асос вазифасини ўтаган.

Ҳаммуаллифлар ўз асарларида адабий меросга алоҳида тўхталиб, Хоразмлик жадид ижодкорлар фаолиятини таҳлил қилишган, асарларини шарҳлаб, иловалар ҳам келтиришади: “Хоразмлик жадидлар томонидан яратилган назмдаги асарлар жадид адабиёти,

шеъриятининг таркибий қисмини ташкил этадики, бу борада Аваз Ўтар ижоди сингари Бобоохун Салимовнинг ижодий фаолияти ҳам жадид шеъриятининг ёрқин намуналаридир. Хоразмдаги жадидчилик ҳаракати ва улар мансуб бўлган сиёсий ҳаракат – “Ёш хиваликлар”нинг намояндалари орасида асосан Бобоохун Салимов бошқа сафдошларидан ижодкорлиги билан алоҳида ажралиб турган...

“Бобоохун Салимов шеъриятида жадидлар ғояларидаги сингари маърифат, таълим мавзулари ёритилган. Шунингдек, у жамиятда рўй бераётган салбий муносабатларни йўқотиш учун ҳам мудроқ ғурурни уйғотиш лозимлигини англаб етганди. Шу боис ҳам Бобоохуннинг ушбу шеърида жадидларнинг ғояси акс этганди”:

Хазон фаслида булбулдек,
Дил афгор ўлғон ўхшайдур.
Жаҳолат дардига барча
Гирифтор ўлғон ўхшайдур,
Сукут айлаб демас бу кун
Рост сўзни шайхулисломлар.
Халойиқ ичра бидъатлар,
Баддийдор ўлғон ўхшайдур…[4]

Бекжон Раҳмондек жадидларнинг илғор вакили эса Фитрат, Чўлпон, Закий Валидий сингари ижоду илм аҳли билан маслакдош дўст эди. У “Инқилоб қуёши” номи билан Хоразмда матбуотга асос солган ижодкор ва 1923 йилда 580та Хоразмнинг халқ мақолларини тўплаб “Оталар сўзи” номи билан нашр этдирган фольклоршунос ҳам бўлган. Бекжон Раҳмоннинг мазкур тўпламида “эртага ош қолса – давлат, иш қолса – меҳнат”, “Давлат – оғзибирчилик”, ”Роҳат – меҳнатнинг орқасида”, ”Тек турган тўқ юрар”, ”Бир кун туз еган ерга 40 кун салом”, “Ота-она тахт этар – бахт эта билмас”, “Ўтни кавласанг ўчар, қўшнини кавласанг кўчар”, “Ўғри бойимас, ёлғончи ёлчимас”, “Онасини кўр, қизини ол, қироғини кўр, бўзини ол” сингари тарбиявий, панд-насиҳат руҳидаги мақоллар, ҳикматли сўзлар мавжуд.

1925 йилда у Муҳаммад Юсуф Девонзода билан ҳаммуаллифликда “Хоразм мусиқий тарихчаси” китобини Москва шаҳрида нашр қилдирганди. Фитрат “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи” асарида Бекжон Раҳмон ҳамда Муҳаммад Юсуф Девонзодаларнинг асаридан ғоят таъсирланганини ёзган ва ушбу китобнинг мусиқашуносликда тутган ўрнига ғоят юксак баҳо берган эди. Мусиқа назарияси ва тарихига доир энг эътиборли манба бўлгани боис, Б.Беляев ҳамда Г.Формер каби рус ва хориж мусиқашунослари ҳам Бекжон Раҳмон, Девонзодаларнинг асарига мурожаат қилишганди.

Сафо Муғанний нафақат адабиёт, санъат, маданият ходими, балки жамиятни ислоҳ қилиш, давлат бошқарувини такомиллаштириш, Европа маданияти ютуқларини воҳага татбиқ этиш билан шуғулланишга ҳаракат қилади. Сафо Муғанний хонлик ағдарилиши билан тараққийпарвар инсон сифатида “Ёш хиваликлар”ни қўллаб-қувватлаб, жадидларнинг ушбу партиясига аъзо ҳам бўлиб кирганди.

Шу тарзда ҳаммуаллифлар юқоридаги жадид ижодкорларнинг ҳаёти, фаолиятини архив манбалари, мемуарлар, илмий адабиётлар асосида батафсил таҳлил қилишади. Шунингдек, энциклопедия ва “Хоразм жадидчилиги: ислоҳотлар, таълим ва адабиёт”, “Хоразм жадидлари: ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси”, “Бобоохун Салимов: жадид, давлат арбоби ва шоир” монографияларида яна Аваз Ўтар, Ҳусайинбек Матмуродов, Комил Девоний сингари ижодкорлар фаолиятини ҳам ёритиб, улар асарларини ҳам таҳлил қилишади. Энциклопедияда, шунингдек “Хоразм жадидларининг мустамлакачилик даврларида қатағон қилиниши” монографиясида эса чор ва совет империяси давридаги жадидлар фаолияти, уларга бўлган тазйиқлар, қатағон сиёсатининг қўлланилишини тадқиқ қилиш асносида, Худойберган Девоновнинг кино соҳасидаги ноёб меросини ҳам таҳлил этишади. Шу сингари энциклопедия ва “Бобоохун Салимов: жадид, давлат арбоби ва шоир” монографиясида Полвонниёзҳожи Юсупов, Бобоохун Салимовларнинг ҳаёти, сиёсий фаолияти ёритилиб, уларнинг тарихий мемуарларини илмий таҳлил этиб, асарга илова қилишади.

Энциклопедия ва монографияларда яна Наманганлик Муҳаммадшариф Сўфизоданинг 1910-13 йилларда Хоразмдаги жадид мактабида педагоглик қилгани, яратган асарлари, Фарғоналик Ҳамза Ҳакимзоданинг 1921-23

TAMADDUN NURI

йилларда Хоразмда яшаб, театрга асос солгани, драмалар яратгани, уларнинг маънавий мероси, аҳамияти, Хоразм жадид адабиёти, педагогикасида тутган алоҳида ўрни ҳам ҳужжатлар асосида таҳлил этилади.

НАТИЖАЛАР. Табиийки, Хоразм жадидчилигига оид энциклопедия ва монографиялар, рисолалар, мақолалар Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандарлар томонидан атиги 2 йил давомида нашр қилинган бўлса-да, бу нашрлар ортида тинимсиз илмий изланишлар, шижоатли меҳнат, манбаларни бир-бирига таққослаб холис ва ҳаққоний хулоса чиқаришдек матонат турибди. Айнан шу боисдан ҳам ушбу ҳаммуаллифлар асарлари орқали Хоразм жадидчилик ҳаракати, намояндалар фаолияти, улар қолдирган бой маънавий меросни тассавур қилиш, фикр мушоҳада юритиш ва жадидчиликнинг тарихдаги феномен эканлигини англаш мумкин. Шу боисдан ҳам Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандарларнинг асарлари республикамиз ва айрим хорижий давлатларда жадидчилик бўйича яратилган муҳим илмий тадқиқот сифатида эътироф этилди, олимлар, ижодкорлар томонидан матбуотда мақолалар чоп этилди.

ХУЛОСА. Шулардан келиб чиқиб таъкидлаш жоизки, Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандарларнинг асарлари айнан давр зарурати, илмий эҳтиёж туфайли яратилган тадқиқотлардир. Қолаверса, нафақат бугунги замондошларимиз, келгуси авлод учун ҳам илмий аҳамиятга эга. Негаки Хоразм жадидчилиги билан боғлиқ жараёнлар манзараси айни шу асарлар орқали намоён бўлади.

Маълумки, бугунги педагогика йўналишида таҳсил оладиган талабалар эртанги бўлажак ўқитувчилардир. Шу боис ҳозирдан талабаларнинг, хусусан бўлажак ўқитувчиларнинг маънавий дунёқарашини фаоллаштириш методини такомиллаштиришда Хоразм жадидларининг мероси катта аҳамиятга эга. Ана шу боқий меросни бугунги ва келажак авлодга англатишда, тадқиқ ва тарғиб қилишда эса Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар асарлари катта роль ўйнайди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси. Milleniumus print нашриёти, Урганч-2024 йил, 4-бет.
2. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадидчилиги: ислоҳотлар, таълим ва адабиёт. Milleniumus print нашриёти, Урганч-2024 йил, 68-бет.
3. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадид мактаблари. Дурдона нашриёти, Урганч-2025 йил, 72-бет.
4. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар. Бобоохун Салимов: жадид, давлат арбоби ва шоир. Milleniumus print нашриёти, Урганч-2024 йил, 180-бет.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 81'25:81'373.7

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING OG‘ZAKI TARJIMADAGI SEMANTIK MUAMMOLARI: TURK VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA

Jumaboyev Oybek, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoronti

SEMANTIC PROBLEMS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ORAL TRANSLATION: A CASE STUDY OF THE TURKISH AND UZBEK LANGUAGES

Jumaboyev Oybek, PhD student of Tashkent State University of Oriental Studies

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УСТНОМ ПЕРЕВОДЕ: НА МАТЕРИАЛЕ ТУРЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Жумабоев Ойбек, базовый докторант Ташкентского государственного университета востоковедения



https://orcid.org/0000-0002-2289-1479
e-mail: oybekjumaboyevtdshu@gmail.com

Annotatsiya*: Ushbu maqolada turk va o‘zbek tillari misolida frazeologik birliklarning og‘zaki tarjima jarayonida uchraydigan semantik muammolar va ularni hal etish strategiyalari tahlil etiladi. Maqolada tarjimada ekvivalentlikni ta’minlash, madaniy xususiyatlarni saqlab qolish va ma’no uzilishlarining oldini olish usullari ko‘rib chiqiladi. Turk va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklardan olingan aniq misollar orqali muammo va yechimlar aniq yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, tarjima strategiyalari, semantik muammo, ekvivalentlik, turk tili, o‘zbek tili, madaniy tafovut.*

Abstract: This article analyzes the semantic problems that arise in the process of oral translation of phraseological units, using examples from the Turkish and Uzbek languages, as well as the strategies for addressing these issues. The study examines methods for ensuring equivalence in translation, preserving cultural characteristics, and preventing semantic loss. Specific examples of phraseological units from Turkish and Uzbek are used to clearly illustrate the problems and proposed solutions.

Keywords: *phraseological units, translation strategies, semantic problems, equivalence, Turkish language, Uzbek language, cultural differences.*

Аннотация: *В данной статье на примере турецкого и узбекского языков анализируются семантические проблемы, возникающие при устном переводе фразеологических единиц, а также стратегии их преодоления. Рассматриваются способы обеспечения переводческой эквивалентности, сохранения культурной специфики и предотвращения смысловых искажений в процессе перевода. На основе конкретных примеров фразеологических единиц турецкого и узбекского языков наглядно представлены основные проблемы и пути их решения.*

Ключевые слова: фразеологическая единица, переводческие стратегии, семантическая проблема, эквивалентность, турецкий язык, узбекский язык, культурные различия.

TAMADDUN NURI

Kirish. Tarjima jarayonida frazeologik birliklar muhim o‘rin tutadi. Chunki frazeologizmlar nafaqat lug‘aviy, balki madaniy va emotsional ma’no yukini ham o‘zida aks ettiradi. Aynan shu jihat tarjimonlarga ko‘plab semantik qiyinchiliklarga keltirib chiqaradi. Turk va o‘zbek tillari o‘zaro qardosh bo‘lishiga qaramay, frazeologik birliklarda ayrim ma’no va ifoda tafovutlari mavjud. Ushbu maqolada bu farqlar va ularni tarjimada to‘g‘ri yetkazish usullari yoritiladi. Frazeologik birliklar va idiomalar har bir tilda o‘ziga xos bo‘lib, ularni tarjima qilish jarayonida katta muammolar tug‘dirishi mumkin. Frazeologik birliklar odatda bir tildan ikkinchi tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaydi, balki ular turli madaniy, lingvistik va kontekstual farqlarga qarab moslashtiriladi. Tarjimada frazeologik birliklarni noto‘g‘ri qo‘llash natijasida mazmun yo‘qolishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Shu sababli, frazeologik birliklarni to‘g‘ri tarjima qilish og‘zaki tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishida muhim o‘rin tutadi.

KIRISH. Zamonaviy tarjimashunoslikda og‘zaki tarjima jarayoni murakkab va ko‘p qatlamli hodisa sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, frazeologik birliklarning og‘zaki tarjimada to‘g‘ri va adekvat ifodalanishi tarjimon oldida jiddiy semantik va pragmatik muammolarni yuzaga keltiradi. Frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini, xalqning tarixiy tajribasi va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgani sababli ularni boshqa tilga og‘zaki tarzda tarjima qilish yuqori darajadagi lingvistik, madaniy va kognitiv kompetensiyani talab etadi.

Turk va o‘zbek tillari genealogik jihatdan yaqin bo‘lishiga qaramay, frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, qo‘llanish konteksti va pragmatik yuklamasi jihatidan muayyan tafovutlarga ega. Bu holat og‘zaki tarjima jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent topish imkoniyatini cheklaydi hamda ma’no yo‘qotilishi yoki semantik siljish xavfini oshiradi. Ayniqsa, sinxron va ketma-ket tarjima jarayonida vaqtning cheklanganligi frazeologik birliklarni chuqur tahlil qilish imkonini bermaydi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi turk va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning og‘zaki tarjimada yuzaga keladigan semantik muammolarini aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish hamda samarali tarjima strategiyalarini taklif etishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, kontekstual va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

ASOSIY QISM. Frazeologik birliklar til tizimida barqaror, ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan va ko‘pincha komponentlarining alohida ma’nolaridan kelib chiqmaydigan leksik birliklar hisoblanadi. Ular nutqda obrazlilik, ekspressivlik va ta’sirchanlikni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Turk va o‘zbek tillarida frazeologik birliklar ko‘pincha milliy mentalitet, tarixiy voqelik va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi.

Masalan, turk tilidagi “göz kulak olmak” va o‘zbek tilidagi “ko‘z-quloq bo‘lmoq” iboralari shaklan va mazmunan yaqin bo‘lsa-da, ayrim kontekstlarda qo‘llanish doirasi farqlanadi. Og‘zaki tarjimada bunday birliklar nisbatan kam muammo tug‘dirsa-da, to‘liq mos kelmaydigan frazeologik birliklar tarjimonda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Frazeologik birliklar tarjimasida quyidagi asosiy semantik muammolar uchraydi:

-to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentning mavjud emasligi;

-frazeologizmlarning madaniy o‘ziga xosligi;

-konnotatsiya va uslubiy rangning farqlanishi.

Tarjima strategiyalari va misollar. *To‘g‘ri ekvivalent toppish.* Agar ikkala tilda mazmuni va shakli o‘xshash frazeologizm mavjud bo‘lsa, bevosita ekvivalent qo‘llaniladi.

Misollar: turkcha: “Bir taşla iki kuş vurmak” — o‘zbekcha: “Bitta o‘q bilan ikki qushni urmoq”.

Turkcha: “Gözden düşmek” — o‘zbekcha: “Ko‘zdan tushmoq”.

Erkin tarjima (adaptatsiya). Agar to‘g‘ri ekvivalent mavjud bo‘lmasa, ibora ma’nosiga mos tarzda erkin tarjima qilinadi.

Misollar: turkcha: “Denize düşen yılana sarılır” (Qiyin ahvolda qolgan odam har qanday imkoniyatdan foydalanadi).

O‘zbekcha tarjima: “Cho‘kayotgan odam xasga yopishadi”.

Frazeologizmsiz tarjima (izoh bilan berish). Agar frazeologizmning ayni o‘zbekcha shakli mavjud bo‘lmasa, uning ma’nosi erkin gap shaklida ifodalanadi.

Misollar: turkcha: “Ağzında bakla ıslanmamak” (sir saqlay olmaslik).

O‘zbekcha tarjima: “Gapni ichida ushlab turolmaslik”.

Frazeologizmlarni moslashtirish (madaniy kontekstga moslab o‘zgartirish). Til – inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, u jamiyatning madaniyati va qadriyatlarini aks ettiradi. Frazeologiya esa har bir xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va mentalitetining in’ikosi sifatida til tizimida muhim o‘rin tutadi. Frazeologik birliklar turli madaniy kontekstlarda shakllanadi va bu kontekstlar ularning semantik, stilistik hamda ekspressiv xususiyatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada madaniy kontekstlarning frazeologiyaga ta’siri keng qamrovda tahlil etiladi. Zamonaviy dunyo globalizatsiya davriga shiddat bilan kirib boryapti, bu nafaqat iqtisodiy muhitga ta’sir qilyapti, balki har bir inson hayot tarzida shiddat bilan namoyon bo‘lyapti. Bu esa kundalik turmushda va professional hayotda boshqa madaniyat va boshqa tilda so‘zlashuvchilar bilan faol aloqalarni keltirib chiqaradi. Biz ijtimoiy muhitni o‘rganishimiz uchun til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarga katta e’tibor berishimiz kerak.

Hozirgi kundagi ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, shuni ta’kidlashimiz mumkinki, ijtimoiy muhit rivojlanib bormoqda. Muhitning ilmiy-ijtimoiy faoliyati o‘sib borgani sari, bizning tilimiz ham o‘sib, rivojlanib boradi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng tilga va turli millatlar tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib boryapti. Tilga bo‘lgan e’tibor bizda “Tilga e’tibor – elga e’tibor” degan maqolni esga soladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi, biz bir millatning tilini o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo uning madaniyatini o‘rganmog‘imiz darkordir. Chunki til bilan madaniyat bir-birlari bilan uzviy aloqadadirlar. Muloqot shakllarini milliy madaniyat bilan bog‘liq tomonlari haqida gapiradigan bo‘lsak, biz avval aytganimizdek, til orqali madaniyatni va madaniyat orqali tilni o‘rganamiz. Frazeologik birliklarning lingvistik va madaniy tahlili tashqi omillarga bog‘liq: tarix mamlakat, uning madaniyati, kundalik hayoti va boshqalar.

Misollar: turkcha: “Pireyi deve yapmak” (Arzimagan narsani bo‘rttirish).

O‘zbekcha tarjima: “Pashshadan fil yasash”.

XULOSA. Frazeologik birliklarning tarjimasida semantik aniqlikni saqlash va madaniy tafovutlarni hisobga olish tarjimaning sifatini belgilovchi muhim omillardandir. Turk va o‘zbek tillari o‘rtasidagi frazeologik o‘xshashliklar tarjimaga yengillik bersa, ba’zan farqlar va madaniy o‘ziga xosliklar tarjimonda ijodiy yondashuvni talab qiladi. Har bir frazeologizmdagi semantik noziklikni to‘g‘ri anglab, unga mos strategiyani tanlash tarjimonning asosiy vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ismatullayeva,N.R.(2013). Texts of Lectures in the Subject of Synchronous Translation. Tashkent TSUOS, Department of Translation Theory and Practice Tashkent, 2013-55 p.
2. Seeber,K.G.(2023). Cognitive load in simultaneous interpreting. Target, 25(1), 45–67.
3. Ismatullayeva,N.R.(2020). Probability Prediction Strategy in Simultaneous Interpretation. Current Research Journal Of Philological Sciences, 1(01), 1-6.
4. Ivanova,T.S.(2023). The linguistic and cognitive challenges of simultaneous interpretation: A multidimensional analysis. Translation Studies Review,5(3),34–50.
5. Baddeley,A.D.(2000). The episodic buffer: A new component of working memory. Trends in Cognitive Sciences, 4(11), 417–423.
6. Kalina,S.(2000). Interpreting competence as a basis and goal for teaching. The Interpreters’ Newsletter,10,3–32.
7. https://www.aa.com.tr/tr/gundem/turk-devletleri-teskilati-2023te-en-aktif-yillarindan-birini-yasadi/3093510?utm_source
8. https://www.trtavaz.com.tr/haber/tur/avrasyadan/2024-yilinda-tdt/678a4ec1f426f647a2671103?utm_source.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 811.5'373.45

KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA NIKOHDAN KEYINGI QARINDOSHLIK ATAMALARI

Mirxamidova Noila, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

POST-MARRIAGE KINSHIP TERMS IN THE KOREAN AND UZBEK LANGUAGES

Mirxamidova Noila, Basic Doctoral Student Tashkent State University of Oriental Studies

ТЕРМИНЫ РОДСТВА ПОСЛЕ ЗАКЛЮЧЕНИЯ БРАКА В КОРЕЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Мирхамидова Ноила, базовый докторан Ташкентского государственного университета востоковедения



https://orcid.org/0000-0002-9516-5101
e-mail: noilamirhamidova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada koreys va o‘zbek tillarida nikohdan keyin qo‘llaniladigan qarindoshlik atamalari qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan. Ulardagi gender tafovutlarning tarixiy-ijtimoiy tizim, nikoh modeli hamda gender rollar bilan chambarchas bog‘liqligi ochib berilgan. Shuningdek, koreys va o‘zbek tillarida er va xotin qarindoshlariga nisbatan ishlatiladigan xitoblarning farqlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *qarindoshlik atmalari, murojaat, betakalluf munosabat, gender farqlar, muloqot strategiyasi.*

Abstract: *The article examines kinship terms used in Korean and Uzbek languages after marriage from a comparative perspective. Particular attention is given to gender differences, which are closely related to the historical and social system, marriage models, and the distribution of gender roles. The analysis also highlights distinctions in forms of address toward the relatives of the husband and wife in both languages.*

Keywords: *kinship terms, forms of address, informal relations, gender differences, communication strategy.*

Аннотация: *В данной статье проведено сравнительное исследование терминов родства, употребляемых в корейском и узбекском языках после заключения брака. Выявлена тесная взаимосвязь гендерных различий с историко-социальной системой, брачной моделью и гендерными ролями. Кроме того, показаны различия в обращениях к родственникам мужа и жены в корейском и узбекском языках.*

Ключевые слова: *термины родства, обращение, неформальные отношения, гендерные различия, коммуникативная стратегия.*

Kirish. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi jinsiy farqlar shunchaki biologik omillardan kelib chiqmaydi. Ayol va erkak o‘rtasidagi munosabatlar, ular orasidagi gender farqlari muayyan ijtimoiy-madaniy jarayonlarni, tajribalarni, ma’lum bir ijtimoiy tuzilma doirasidagi kamsitish mexanizmlarini boshdan kechirish orqali shakllanadi. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi muammo nafaqat gender farqlari, balki gender rolining farqlanishi bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy omillarda ham kuzatiladi. Aslida erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri oilaviy munosabatlarga emas, balki ijtimoiylashuv bilan bog‘liq oilaviy munosabatlarni tashkil

etuvchi asosiy munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarni, ular orasidagi gender farqlarini koreys va o‘zbek tillaridagi murojaatlar misolida ko‘rib chiqish tilni jamiyat va madaniyat bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib beradi.

Koreys jamiyatida qavm-qarindoshchilik 친족명칭 [chinchokmyeongching] atamasi bilan nomlananib, 부계 [buge] ota tomondan qarindoshlar, 모계 [moge] ona tomondan qarindoshlar va 인척 [incheok] er-xotin qarindoshlarini o‘z ichiga oladi. Ular ham o‘z navbatida yana kichik guruhchalarga (avlod bo‘yicha) ajraladi[1].

Ma’lumki, nikohdan so‘ng yangi qarindoshlik munosabatlari yuzaga chiqadi. Koreys va o‘zbek jamiyatida erkak va ayol turmush qurgach, turmush o‘rtog‘i va uning qarindoshlariga nisbatan butunlay boshqa atamalarni o‘zlashtiradi. Masalan, o‘zbek tilida nikoh qarindoshligi *boja, kelin, kuyov, ovsin, pochcha, xotin, er, yanga, qayin, quda, o‘gay* va h.k. leksemalar bilan ifodalanadi.

O‘zbek tilida *qayin* termini nikohdan so‘ng er yoki xotinga aloqador bo‘lgan qarindoshlikni ifodalaydi. “Qayin” termini bilan birgalikda qarindoshlik munosabatlarini konkretlashtiradigan *ona, ota, og‘a, ini, singil* kabi terminlar qo‘shilib, qo‘shma terminlar yasaydi[2]. L.A.Pokrovskaya ayrim turkiy tillardagi «*qayin*» so‘zi faqat «xotinning tug‘ishganlari» ma‘nosini, «erning tug‘ishganlari» ma‘nosi keyinchalik yuzaga kelganini qayd etadi[3].

Koreys tilida esa nikohdan keyingi vaziyatda er va xotinning qarindoshlariga nisbatan farqlanuvchi alohida atamalar ishlatiladi. Masalan, ayol uchun: 시부모 [sibumo] – qaynona-qaynota.

Qarindoshlik munosabatini bildiruvchi so‘zlar koreys tilida ko‘pincha -님 [nim] qo‘shimchasi bilan ishlatiladi. Ayniqsa, kelinlarning qaynona va qaynotaga murojaatida buni yaqqol kuzatish mumkin bo‘lib, qaynotasiga 아버님 [abeonim], qaynonasiga 어머님 [eomeonim] deb murojaat qiladi[4]: Misol uchun:

어머님,이번 주말에 집에 다녀와도 돼요?

(**Eomeonim**, ibon jumale chibe danyyeowado dweyo?)

*“**Oyijon**, bu hafta oxirida uyga borib kelsam maylimi?”*

Toshkent shevasida ham kelinlarning qaynona va qaynotaga murojaatida *-jon* qo‘shimchasining qo‘llashi, ya‘ni *oyijon* yoki *adajon* deb xitob qilishi keng tarqalgan hodisadir. Zero, farzandlar o‘z ota-onasiga *oyi, dada* kabi murojaatni qo‘llasa-da, kelinlar qaynona va qaynotaga nisbatan bu so‘zlarni *-jon* qo‘shimchasiz qo‘llashi turmush o‘rtog‘iga, oilasiga hurmatsizlik sanaladi[5]. Masalan:

– *Hozir suzib kelaman,* ***oyijon!***[6]

Yuqorida qayd etilgan misollardan har ikkala madaniyatda kelinlarning qaynona va qaynota shaxsiga hurmat bilan murojaat qilishi, oilaviy iyerarxiyaga bo‘ysunishi, o‘zini itoatkor qilib ko‘rsatishi namoyon bo‘ladi. Kelinlar, ayniqsa, qaynona bilan muloqotda keskin vaziyatni yumshatish, norozilikni jilovlash maqsadida ko‘pincha to‘qnashuvni yumshatuvchi strategiyadan foydalanishga majbur bo‘lishadi.

Aytilganlar bilan birga, kelinlarning o‘z eridan tashqari qaynona va qaynotaga ham xizmat qilish majburiyati yuklanganini korish mumkin. Chunonchi, koreys madaniyatida “효부상 [hyobusang] iborasi “namunali kelin mukofoti” ma’nosini anglatib, u kelinning qaynotaga sadoqatini rag‘batlantiruvchi mukofot hisoblanadi. Qiziqarli jihati shundaki, erkak uchun 효자상 [hyojasang] (namunali o‘g‘il mukofoti) mukofoti uchramaydi”[7].

[1] 왕한석 등. 한국 사회와 호칭어. 도서출판 역락, 2005. 135 쪽.

[2] Саидова М.Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 98.

[3] Покровская Л.А. Термины родства в тюркских языках / Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Изд. академии наук, 1961. – С.71-72.

[4] Усмонова Ш. Корейс ва туркий тилларда ундалмалар // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. –Тошкент: “Университет”, 2004. – Б. 74-77.

[5] Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат бирликларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 68.

[6] Jumaboyev O. Qaynota. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. 2012-yil, 42-son.

[7] 이정영옥. 성차별적 호칭의 문화적 의미와 영향, 커뮤니케이션학 연구, 2004. 9 쪽.

Ayol o‘z ota-onasiga nisbatan 친정부모 [hinjeong bumo] atamasini qo‘llaydi. Bu o‘rinda “otasi yoki onasi tug‘ishgan ekanligini bildirish maqsadida 친 [chin] “yaqin/ qondosh” so‘zi qo‘shilib aytiladi. 친 아빠/친 엄마 [chin appa/chin eomma] *qondosh otam/ qondosh onam*”[8].

O‘zbek tilida “erining onasi” va “xotinining onasi” tushunchasi *qaynona,* “erning otasi” va “xotinning otasi” tushunchasi esa yagona *qaynota* leksemasi bilan ifodalanadi. Ya’ni o‘zbek tilida koreys tilidagi singari er va xotinning ota-onasi uchun alohida atovlar mavjud emas.

Er va xotinning qarindoshlariga nisbatan qo‘llaniladigan murojaatlarda tafovutlar kuzatiladi. Chunonchi, erkak turmush o‘rtog‘ining qarindoshlariga oddiy, jo‘n atamalar bilan xitob qiladi. Masalan:

처형 [cheohyeong] – xotinining opasi;

처제 [cheoje] – xotinining singlisi;

처남 [cheonam] – xotinining ukasi.

Ayol esa erining qarindoshlariga nisbatan murakkab atamalarni o‘zlashtiradi:

Bilvosita (oraliq) murojaatlar:

시아주버니 [siaju beoni] – erning akasi;

시동생 [sidongsaeng] – erning ukasi;

시누이 [sinui] – erning opasi;

시누님 [sinunim] – erning katta opasi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatlar:

아주버님 [ajubeonim] – erning akasiga murojaat;

도련님 [doryeonnim] – erning ukasiga murojaat;

아가씨 [agassi] – erning singlisiga murojaat;

형님 [hyeongnim] – erning opasiga murojaat.

Shuningdek, ayol o‘zining kelinoyisiga: 새언니 [sae eonni], pochchasiga: 새오빠 [sae oppa] deb murojaat qiladi (*katta aka* deb atamaydi)[9].

Quyida ayrim misollarga murojaat qilamiz:

도련님, 소승에겐 너무 과분한 적선입니다. 이젠 바람이 찹사운데 그만 들어가 보셔얍지요. [10] **[dolyeonnim, soseungegen neomu gwabunhan jeogseonibnida. Ijen balami chabsaunde geuman deuleoga bosyeoyabjiyo].**

Siz, bu yosh rohib uchun keragidan ortiq yaxshilik qildingiz. Endi shamol boshlandi, shuning uchun ichkariga kiring.

“**성열 형님**이라고? ” [“seongyeol hyeongnimilago?”];

“**성열 형님**, 저 강식이에요. ” [“seongyeol hyeongnim, jeo gangsigieyo”];

“네? 뭐라고요?” [“ne? mwolagoyo?”];

“강식이요, 강식이”[11]. [“gangsigiyo, gangsigi”].

“Sungyeol aka?”

“Sungyeol aka, *bu Kangsik”.*

“Ha? Nima dedingiz?”

“Bu Kangsik, Kangsik”.

Ko‘rinadiki, koreys tilida er va xotinning qarindoshlari uchun alohida murojaat shakllari ishlatiladi. Shuingdek, ularda gender differensiyani kuzatish mumkin.

O‘zbek tilida esa koreys tili singari erning qarindoshlariga alohida va xotinning qarindoshlariga alohida murojaatlar qo‘llanilmaydi. Er va xotinning qarindoshlarini ifodalash uchun *qayin* so‘zi bilan yasalgan *qayin+ona* “er yoki xotinning onasi”, *qayin+ota* “er yoki xotinning otasi”, *qayin+og‘a (qayin aka)* “er yoki xotinning akasi”, *qayin+ini (qayin uka)* “er yoki xotinning ukasi”, *qayin+egachi (qayin opa)* “er yoki xotinning opasi”, *qayin+singil* “er yoki xotinning singlisi” kabi atamalardan foydalaniladi. Biroq muloqot jarayonida mazkur atamalardan bevosita murojaat sifatida istifoda etilmaydi. Ularning o‘rniga er va xotinning o‘zidan katta qarindoshlariga ……. *(ism) aka,* ……. *(ism) opa* shaklida, o‘zidan kichik qarindoshlariga esa ismi bilan xitob qilinadi.

Aytilganlar bilan birga, koreys an’anaviy jamiyatida ayol nikohdan keyin familiya va shaxsiyatini ma’lum ma’noda yo‘qotganligini kuzatish mumkin. Erkak esa asl familiya va ismini saqlab qoladi. Bu o‘rinda familiya olishga “shaxsiy

[8] Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат бирликларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 73.

[9] 이정영옥. 성차별적 호칭의 문화적 의미와 영향, 커뮤니케이션학 연구, 2004. 8 쪽.

[10] 송수권. 여승(女僧), 미래엔, 2012. 208 쪽.

[11] 이승만. 덕률풍, 미래인, 2023. 131 쪽.

tanlov emas, balki tizim” sifatida qaralgan. “Ayol erkakning oilasiga kiritilishi kerak” degan fikr ustun bo‘lgan. Bunday holatda patriarxal madaniyat ayolning rolini faqat er va uning oilasi bilan bog‘liq qilib belgilaydi.

Ayolning shaxsiyati faqat er yoki farzand orqali aniqlanadi. Erkak esa o‘z familiyasini saqlab, farzandga ham o‘z familiyasini beradi. Bu “naslni davom ettirish” mafkurasini mustahkamlaydi. Mazkur mafkuraga ko‘ra, turmushga chiqqan ayol o‘z ismini tilga olish imkoniga deyarli ega emas. Oilada erining ismi asosida “‘댁” [daek] “xonim” deb chaqiriladi. Jamiyatda “‘(씨)부인’” [(ssi) buin] “falonchi janobning xotini” deb ataladi[12].

O‘zbek jamiyatida ayolning nikohdan keyingi vaziyati biroz farq qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida erkak va ayolning oiladagi shaxsiy huquqlari, xususan, familiya tanlashdagi teng huquqlilik, er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishdagi tengliklari, er-xotinning mashg‘ulot turi, kasb va turar joy tanlashdagi teng huquqliklari, er va xotin farzand tarbiyasida teng ishtirok etishlari kabilar qayd etilgan. Shunday bo‘lsa-da, rasmiy nikoh chog‘ida aksariyat o‘zbek kuyovlari kelindan o‘z familiyasiga o‘tishni talab qiladi. Bunday hollarda kelin bo‘ysunishga majbur bo‘ladi.

Koreys oilasida farzand tug‘ilgach, 어미/엄마/어머니 [eomi/eomma/eomeoni] *ona/onajon/onaxon* yoki (farzandning ismi + 엄마) 영희 엄마 [Yeonghui eomma] *Yeonghining onasi = onasi* deb chaqiriladi. Fikrimizni quyidagi misollar vositasida quvvatlash mumkin:

밤에 명희 어머니가 또 왔다. “**영희 엄마.**” 명희 어머니가 말했다. [13] [bame myeonghui eomeoniga tto wassda. “**Yeonghui eomma**” myeonghui eomeoniga malhaessda].

*Kechasi Myungheening onasi yana keldi. “**Youngheening onasi**”, dedi Myung-heening onasi.*

수미의 엄마는 늘 손님을 맞을 때면 정성껏 밥상을 차렸다. [14] [sumiui eommaneun neul sonnim-eul maj-eul ttaemyeon jeongseongkkeos babsang-eul chalyeossda].

***Sumining onasi** har safar mehmon kelganda mehr bilan dasturxon tuzaydi.*

Ko‘rinadiki, koreys jamiyatida ayolning asl ismi bilan chaqirish zarurati yo‘q deb hisoblanadi. Chunki u allaqachon munosabat orqali aniqlangan bo‘ladi.

O‘zbek madaniyatida nikohdan keyingi murojaatlarning qo‘llanilishida biroz farqli holatlarni kuzatish mumkin. O‘zbek oilalarida erkak ayoliga uchinchi shaxs egalik qo‘shimchasini olgan *onasi,* (shevalarda *oyisi, ayasi, opasi, enasi*), ayol esa eriga *otasi, dadasi, adasi* deb xitob qiladi. Ba’zan er va xotin katta qizi yoki katta o‘g‘lining ismi bilan bir-biriga murojaat qilish holatlar ham kuzatiladi. Masalan:

*– **Onasi**, – dedi. – Dunyoga kelib nima ko‘rdik o‘zi?*

– Bilmasam, - dedi ayoli xo‘rsinib... [15]

Yoki:

*Qani **dadasi,** fotiha o‘qib yuboring, deya qo‘llarini juftladi*[16].

Umuman, yuqorida tahlilga tortilgan koreys va o‘zbek tillaridagi murojaat shakllari “ibtidoiy davrlardan qolgan tabu qoldig‘i bo‘lib”[17], u “oilada er-xotindan ko‘ra ko‘proq bolalarning ota-ona juftligini”[18] namoyon qiladi.

Xulosa. Koreys va o‘zbek tillarida nikohdan keyin qo‘llaniladigan atamalarda gender tavofutlar kuzaitiladi. Bunday tavofutlar koreys va o‘zbek jamiyatlaridagi tarixiy-ijtimoiy tizim, nikoh modeli hamda gender rollar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Koreys madaniyatda er va xotinning qarindoshlariga nisbatan qo‘llaniladigan murojaatlarda gender tafovutlar kuzatiladi. Er xotinining qarindoshlariga nisbatan oddiy, jo‘n

[12] 이정영옥. 성차별적 호칭의 문화적 의미와 영향, 커뮤니케이션학 연구, 2004. 8 쪽.
[13] 조세희. 난쏘공, 이성과 힘, 1978. 11 쪽.
[14] 신경숙. 엄마를 부탁해, 창비, 2008.
[15] Hoshimov O‘tkir. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Nurli dunyo, 2022. – B. 16.
[16] Саид Аҳмад. Қария. Қиссалар, ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 35.
[17] Kuçkartayev İ. Özbeklerde Hitap Sözleri ve Hitap Kültürü // Uluslararası Dördüncü Türk Kültürü Kongresi Bildirileri. – Ankara, 2000. – S. 325.
[18] John H.K. The Term of Address “You in South Korea Today” // Korean Journal. Vol.32, No.1, Spring 1992. – P. 35.

atamalar bilan murojaat qiladi. Xotin esa, aksincha, erining qarindoshlariga neytral yoki yuksak hurmat darajasini qo‘llab xitob qiladi.

Koreys tilida nikohdan keyin ishlatiladigan murojaatlar konfutsiychilik ta’limotiga asoslangan iyerarxik tabiati bilan ajralib turadi. Binobarin, qarindoshlik yo‘nalishiga ko‘ra, er tomoni/ xotin tomoni kabi qat’iy gender asimmetriya va pog‘onali tizimga amal qilinadi. 처가 식구 [cheoga siggu] – xotin tomonning qarindoshlariga ikkilamchi maqom sifatida qaraladi.

O‘zbek tilida esa koreys tilidan farqli ravishda erning qarindoshlariga alohida, xotinning qarindoshlariga alohida murojaatlar qo‘llanilmaydi. Er va xotinning qarindoshlarini ifodalash uchun *qayin* so‘zi bilan yasalgan atamalardan foydalaniladi. Biroq *kelin* atamasi nafaqat qarindoshlik, balki oilaviy, ijtimoiy rol (xizmat qilish, itoatkor bo‘lish)ni ham anglatadi. Shuningdek, kelin bo‘lgan ayolning kimga tegishli ekanligini, qayerga mansubligini, o‘zini qanday tutishi kerakligini ham bildiradi. Bu esa ayolni ko‘proq oila funksiyasi sifatida qaralishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. 왕한석 등. 한국 사회와 호칭어. 도서출판 역락, 2005. 135 쪽.

2. Саидова М.Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ...дисс. –

Тошкент, 1995. – Б. 98.

3. Покровская Л.А. Термины родства в тюркских языках / Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Изд. академии наук, 1961. – С.71-72.

4. Усмонова Ш. Корейс ва туркий тилларда ундалмалар // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. –Тошкент: Университет, 2004. – Б. 74-77.

5. Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат бирликларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 68.

6. Jumaboyev O. Qaynota. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. 2012-yil, 42-son.

7. 이정영옥. 성차별적 호칭의 문화적 의미와 영향, 커뮤니케이션학 연구, 2004. 9 쪽.

8. Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат бирликларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 73.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 39(575)

ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Усманова Шоира, доктор филологических наук, профессор Ташкентского государственного университета востоковедения

O‘ZBEK XALQINING AN’ANALARI VA URF-ODATLARI

Usmanova Shoira, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, Filologiya fanlari doktori

TRADITIONS AND CUSTOMS OF THE UZBEK PEOPLE

Usmanova Shoira, Doctor of Philological Sciences, Professor Tashkent State University of Oriental Studies



https://orcid.org/0009-0005-2608-4577
e-mail: usmanovashoira89@gmail.com

Аннотация: *В данной статье рассматриваются этнические и духовно-нравственные факторы узбекского коллективизма, такие как организация “махалля”, хашар, гостеприимство, вечеринка с беседами, чайная церемония, а также культура общения и роль общественного мнения в укреплении национальной сплоченности. В данной статье рассматриваются традиции и обычаи узбекского народа как важная составляющая его духовной и культурной идентичности. Анализируются основные социальные и культурные институты, формирующие коллективное сознание общества, в частности махалля, хашар, гостеприимство, чайная церемония и культура общения. Особое внимание уделяется их роли в сохранении национальных ценностей, укреплении общественной сплоченности и передаче культурного наследия от поколения к поколению. В статье также подчеркивается значение традиций и обычаев в условиях современного общества и глобализации.*

Ключевые слова: *культура, коллективизм, махалла, хашар, гостеприимство, чайная церемония.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek xalqiga xos jamoaviylikni shakllantiruvchi etnik hamda ma’naviy-axloqiy omillar, jumladan, mahalla instituti, hashar, mehmondorchilik, suhbatli yig‘inlar, choy marosimi, shuningdek, muloqot madaniyati va jamoatchilik fikrining milliy birdamlikni mustahkamlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada o‘zbek xalqining an’analari va urf-odatlari uning ma’naviy va madaniy o‘zligining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Jamiyatning jamoaviy ongini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy va madaniy institutlar — mahalla, hashar, mehmondorchilik, choy marosimi hamda muloqot madaniyati tahlil etiladi. Ularning milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash va madaniy merosni avloddan avlodga yetkazishdagi roli alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada zamonaviy jamiyat va globallashuv sharoitida an’ana va urf-odatlarning ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyat, jamoaviylik, mahalla, hashar, mehmondorchilik, choy marosimi.*

Annotatsiya: *This article examines the ethnic and spiritual-moral factors of Uzbek collectivism, such as the institution of the mahalla, hashar, hospitality, gatherings accompanied by conversations, the tea ceremony, as well as the culture of communication and the role of public opinion in strengthening national cohesion. The study also considers the traditions and customs of the Uzbek people as an essential component*

of their spiritual and cultural identity. It analyzes the main social and cultural institutions that shape the collective consciousness of society, including the mahalla, hashar, hospitality, the tea ceremony, and communication culture. Particular attention is paid to their role in preserving national values, strengthening social cohesion, and transmitting cultural heritage from generation to generation. The article also emphasizes the significance of traditions and customs in the context of modern society and globalization.

Keywords: *culture, collectivism, hashar, hospitality, tea ceremony.*

ВВЕДЕНИЕ. Известно, что на Западе человек рассматривает коллектив как средство раскрытия своей личности, демонстрации своих талантов и возможностей, достижения определённых целей. Коллектив не вмешивается во внутренний мир, психику, личную жизнь человека. На Востоке же общество в основном трактуется как удержание человека под социальным контролем, а регулярное участие человека в сообществе является доказательством того, что он работает в рамках общих моральных норм. Действия в отрыве от коллектива рассматриваются как социальное отчуждение человека.

Голландский учёный и сотрудник IBM Герт Хофстеде выделяет пять основных измерений, характеризующих любую культуру: *дистанция власти, соотношение индивидуализма и коллективизма, соотношение мужественности и женственности, избегание неопределённости, ориентация на долгосрочную перспективу* (Hofstede, 2004). По мнению Г.Хофстеде, индивидуализм появляется в культурах, где межличностные отношения достаточно свободны. Люди в основном заботятся только о себе и своих близких. Представители культур с высоким уровнем индивидуализма предпочитают определённые задачи, и личное местоимение «Я» имеет большое значение в их жизни. Примером этому могут послужить культуры таким стран, как США, Великобритания, Канада и т.д.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ. В культурах с доминированием коллективизма важны отношения с окружающими людьми. Представители этой культуры осознают себя как «Мы». В таких случаях большое значение имеет группа, защищающая личность (родственники, сообщество коллег), и её ценности. К этому типу относятся восточная культура и Латинская Америка (Болдырев 2009, 78).

В точках взаимного соприкосновения национальные традиции и общественное мнение согласуются или сталкиваются, и как следствие, возникает ряд проблем. Например:

1. Влияние общественного мнения на формирование и развитие традиций и обрядов.

2. Формирование общественного мнения в процессе обрядов, традиций и праздников происходит под влиянием социальных, культурных, образовательных и духовных факторов.

Известно, что в длительном историческом процессе церемонии, свадьбы, ритуалы и праздники были для населения не только важным торжеством или коммуникативным общественным событием, но и средством получения новостей, обмена идеями, выражения чувств. Среди церемоний свадебные торжества отличаются своей уникальностью и высоким уровнем обмена общественным мнением:

- вопросы и взаимное общение, связанные с предстоящими событиями;
- повседневные актуальные темы и вопросы, связанные с жизненными проблемами;
- местные, частные вопросы, связанные с семейно-бытовыми проблемами;
- светские и общечеловеческие проблемы;
- passiv-tanishtiruv (ijodiy faoliyatga qiziqish va ichki ehtiyoj);
- ijodiy-reproduktiv (talabalarning ijodiy faoliyatga intilishi bilan mos kelishi va uning reproduktiv xarakteri);
- qisman ijodiy (talabaning faolligi tizimli istak va xohishlarni talab qiladi, uning ijodiy faoliyati izlanuvchi xarakterga ega);
- xususiy ijodiy (talabaning o‘z faolligini boshqarishda uning bilishga oid faoliyati ijodga aylanadi).

Demak, yuqoridagi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning ilmiy tadqiqotchilik kompetentsiyalarini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirib borish asosida fanga oid zamonaviy ilmiy dunyoqarash shakllanishiga xizmat qilishi aniqlangan. Shuningdek, talabalarning ilmiy-izlanuvchanlik qobiliyatlari to‘g‘ri shakllanishi hamda ilmiy tafakkur qilish komponentlari rivojlanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sitalogiya, gistalogiya va embriologiya darslari ham talabalarni ko‘p tomonlama o‘ziga jalb etadi. Oliy o‘quv yurti talabalari sitalogiya, gistalogiya va embriologiya fani doirasida tabiat bilan bog‘liq muhim ilmiy ma’lumotlarni, ularni anglashdagi ilmiy dalillar va ularning mohiyatini tushunish bo‘yicha mavzularni o‘zlashtirib boradilar. Talaba ta’lim muassasasida ta’lim olish jarayonida tadqiqotchilik bo‘yicha quyidagi bir qator ishlarni bajaradi: - Mustaqil ravishda laboratoriya mashg‘ulotlarini bajaradi; - Kichik tadqiqot ishlarini bajaradi; - hujayralarning, to‘qimaning tuzilishini o‘rganadi, tadqiq qiladi; - tadqiqot mavzulari bo‘yicha referatlar yozadi; - kichik loyiha ishlarini bajaradi.

Oliy o‘quv yurtlarilarning I kursi I-II semestrlari davomida darslarining didaktik mazmuni tahliliga ko‘ra, mavzular 240 soatni tashkil qiladi shundan 120 soat auditoriya va 120 soat mustaqil ta`lim uchun ajratilgan. Auditoriya darslari 120 soat shundan ma’ruza 60 soat, amaliy mashg‘ulotlar 30 soatni va laboratoriya mashg‘ulotlari 30 soatni tashkil qiladi.

Mazkur sitalogiya, gistalogiya va embriologiya kursida bevosita organizmning hujayraviy shakllari, uning kimyoviy tuzilishi va xususiyatlari, to‘qimalarning tuzilishi, xilma-xilligi, joylashgan o‘rniga ko‘ra vazifalari va embrionning qanday paydo bo‘lishi, embrion varaqlarining shakllanishi, endoderma, mezoderma, ektoderma

qavatlarining taraqqiy etishi, maydalanish, gastryulatsiya va birlamchi orgonagenez jarayonlarining o‘ziga xos tartibda amalga oshishi bilan bog‘liq nazariy bilimlarni o‘zida aks etgan mavzular keltirilgan. Hozirgi kunda ta’lim tizimida bunday texnologiya va usullarni joriy etish nafaqat talabalarni mavzuni oson o‘zlashtirishga yordam beradi, balki o‘qituvchilarning talabalarga individual yondashuvni tashkil etishga xizmat qiladi. Endilikda yangi ta’lim standartlari va o‘quv darsturilari, darsliklar mazmuni bo‘yicha talabalar ko‘proq o‘z ustida ishlashga, amaliy mashg‘ulotlarni auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarda mustaqil tayyorlashga o‘rgatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Shu ma’noda sitalogiya, gistalogiya va embriologiya darslarida talabalarni o‘z ustida ishlashga o‘rgatish davomida o‘zlariga qiziqarli mavzuni tanlab olish va bevosita u bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni o‘rganish uchun kichik tadqiqotlar shaklida yo‘naltiriladi. Bu shakldagi kichiki tadqiqotlar bevosita talabaga axborotni qidirish, qayta ishlash va undan foydalanishning zamonaviy metodlarini egallashga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining ba’zi bir metodlarini o‘zlashtirishga, o‘zining tadqiqotchilik pozitsiyasini aniqlashga, amalga oshirayotgan kichik tadqiqotini yana davom ettirishga, vaqt o‘tishi bilan tadqiqotchilik ko‘nikmasini kompetensiya darajasiga yetkazilishiga imkon beradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ta’lim bilan bog‘liq adabiyotlarda kompetentlilik tushunchasiga juda ko‘p olimlarning tadqiqiy fikr-mulohazalari keltirilgan. Kompetensiya – bu egallangan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va uni amaliyotda qo‘llay olish imkoniyatidir. Kompetentlilik (lot: competens – layoqatli, qobiliyati bor) shaxs bilim, ko‘nikma va tajribalarining uning ijtimoiy professional mavqei va o‘ziga tegishli vazifalar bajarish, muammolar hal qilishga yetarliligi ham haqiqiy moslik darajasi hisoblanadi [5]. Tadqiqotchilik kompetensiyasi mohiyatini tushunish uchun olimlar tomonidan turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning bir guruhi tadqiqotchilik kompetensiyasi kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida qabul qilishni ta’kidlaydi, ikkinchi bir guruh mutaxassislar esa tadqiqotchilik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar bir butun majmuidir deb hisolashadi. Bu borada biz o‘z tadqiqotimizda tadqiqotchilik jarayoni uchun quyidagi ishchi ta’rifni tavsiya qilamiz. Tadqiqotchilik kompetensiyasi – deganda biz tanlangan muammoni yechishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mustaqil bilishga yo‘naltirilgan tadqiqotchilik jarayonida shakllanadigan shaxsiy ko‘nikmalarni deyish mumkin.

Tadqiqotning asosiy g‘oyasi faoliyatning dolzarb ilmiy muammolarni ko‘rish, shakllantirish va yechish, yangi ijodiy yechimlarni topish va ularni amaliy faoliyatga joriy etishga qobiliyatli talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga jalb etish va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyat doirasida ularning uzluksiz innovatsion tayyorgarlik tizimini ishlab chiqishga qaratilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirib borish, yetuk raqobatbardosh zamonaviy biologiya fani o‘qituvchisi shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abdullayeva N.A. Ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligi – bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakl-lantirish omili sifatida. Academic Research in Educatio-nal Sciences. Volume 3, Issue 1, 2022. – B.601-612.
2. Qaraxonova L.M. Maktab o‘quvchilarida tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari. “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil 20-fevral. – B.96-99.
3. Qaraxonova L.M. O‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorlik munosabatlari. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: International expe-rience and modern approaches International scientific-practical conference, November 13, 2023. – B.379-381.
4. Raxmatova F. Tadqiqotchilik kompetensiyasi tushunchasining mohiyati pedagogik-psixologik yo‘nalishlari. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 2023. 11-son. – B.119-121.
5. Ruzimova I.X. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasi. Inter Education and Global Study. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024. №9(1). – B.31-39.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK:091.274.158

OILA VA JAMIYAT MUNOSABATLARINING NORMATIV-HUQUQIY HAMDA IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

Muxammadiyeva Oliya Narzullayevna,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



e-mail: oliya.narzullayevna@bk.ru
https://orcid.org/0009-0002-3486-8695

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ СЕМЬИ И ОБЩЕСТВА

Мухаммадиева Олия Нарзуллаевна,
доцент, Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий, доктор философских наук (PhD)

NORMATIVE-LEGAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF FAMILY AND SOCIETY RELATIONS

Muxammadiyeva Oliya Narzullayevna,
Associate Professor, Termiz State University of Engineering and Agrotechnologies, Doctor of Philosophy (PhD)

Annotatsiya: *Maqolada oila va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning normativ-huquqiy va ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Huquqiy me'yorlar bilan axloqiy qadriyatlar, institutsional struktura bilan ijtimoiy ong o'rtasidagi uzviylik ochib beriladi. Falsafiy va konseptual yondashuvlar asosida oilaning shaxs va jamiyat oralig'idagi konstruktiv vazifalari aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *oila instituti, jamiyat, normativ huquq, ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar, identitet, sivilizatsiyaviy barqarorlik, falsafiy yondashuv.*

Аннотация: *В статье анализируются нормативно-правовые и социально-философские основы взаимоотношений семьи и общества. Рассматривается взаимосвязь правовых норм и моральных ценностей, институциональной структуры и социального сознания. На основе философских и концептуальных подходов выявляются конструктивные функции семьи на стыке личности и общества.*

Ключевые слова: *институт семьи, общество, нормативное право, социальное сознание, моральные ценности, идентичность, цивилизационная устойчивость, философский подход.*

Annotation: *The article analyzes the normative-legal and socio-philosophical foundations of the relationship between family and society. It examines the interconnection of legal norms and moral values, as well as the institutional structure and social consciousness. Based on philosophical and conceptual approaches, the constructive functions of the family at the intersection of the individual and society are identified.*

Key words: *family institution, society, normative law, social consciousness, moral values, identity, civilizational stability, philosophical approach.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Oila insoniyat tarixida eng qadimgi va asosiy ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida uning barqarorligi va taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Oila orqali shaxsiy ijtimoiylashuv, madaniy qadriyatlarning

uzluksizligi va axloqiy me'yorlarning shakllanishi ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, uning muhofazasi davlat tomonidan kafolatlangan.

Normativ-huquqiy jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat bo'lib, unda oila a'zolarining huquq va majburiyatlari, nikoh, ajralish, ota-onalik va boshqa muhim masalalar belgilangan. Shuningdek, "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risida"gi farmon orqali muhtoj oilalarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, oila jamiyatning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi, ma'naviy qadriyatlarni uzatuvchi va shaxsni ijtimoiylashtiruvchi muhim institutdir. G'ulomova Zebiniso Xamidovnaning tadqiqotida o'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari, shuningdek, oilaviy qadriyatlarning avlodlar davomida qanday uzatilishi tahlil qilingan.

Zamonaviy jamiyatda globalizatsiya, urbanizatsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi oilaviy munosabatlarga yangi chaqiriqlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa, oilaning normativ-huquqiy asoslarini mustahkamlash va ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Oila va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar ko'plab ijtimoiy, huquqiy va falsafiy tadqiqotlarning markazida turadi. Bu munosabatlar jamiyatning asosiy institutlaridan biri bo'lgan oilaning shakllanishi, rivojlanishi va barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ferdinand Tönniesning "Gemeinschaft va Gesellschaft" konsepsiyasi oilani an'anaviy jamiyatning asosiy elementi sifatida ko'rib, uning jamiyatdagi rolini tahlil qiladi. Tönnies oilaning ijtimoiy birlik va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rnini ta'kidlaydi [7]. Carol Smart o'zining "The Ties That Bind: Law, Marriage and the Reproduction of Patriarchal Relations" asarida oilaviy huquqning patriarxal tuzumni mustahkamlashdagi rolini tahlil qiladi. U, oilaviy huquq orqali gender tengsizliklari qanday saqlanib qolishini ko'rsatadi [6]. "Family and Justice in Political Philosophy" maqolasida oilaning ijtimoiy adolatga ta'siri, ayniqsa, gender va iqtisodiy tengsizliklar kontekstida muhokama qilinadi. Mualliflar oilaning ijtimoiy adolatni amalga oshirishdagi roli va uning murakkabliklarini tahlil qiladilar [2].

Rossiyada oila institutining rivojlanishi va uning jamiyatdagi o'rni ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. "Traditional Russian Family as a Basis for Sustainable Development of the State and Society" maqolasida an'anaviy rus oilasining barqaror jamiyat qurilishidagi roli tahlil qilinadi [4]. "Russian Family Law Legislation: Revolution, Counter-Revolution, Evolution" maqolasida Rossiya oilaviy huquqining tarixiy rivojlanishi, ayniqsa, Sovet davridan hozirgi kungacha bo'lgan davrda, tahlil qilinadi [5].

O'zbekistonda oilaning ijtimoiy-falsafiy va huquqiy jihatlari bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. G'ulomova Zebiniso Xamidovnaning "O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlari" nomli maqolasida oila a'zolari o'rtasidagi psixologik munosabatlar tahlil qilinadi [3].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari belgilangan. Bu hujjatlar oilaning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi [1].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Oila va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi har doim falsafiy fikrning chuqur qatlamlarini harakatga keltirgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etib kelingan. Uni o'rganish zamirida tasodifiy voqelikni emas, balki ko'p bosqichli sivilizatsiyaviy jarayonlar, qadriyatlar dinamikasi, ijtimoiy ong shakllari va institutsional tafakkur tizimlari mujassam bo'ladi. Shu jihatdan, ushbu ijtimoiy-falsafiy hodisani tahlil qilishda metodologik yondashuvlar ham biryoqlamalikdan yiroq, kompleks, ko'p qatlamli va tafsiriy-tahliliy bo'lishi lozim.

Metodologik asosi sifatida tarixiy-falsafiy tahlil yondashuvi tanlanadi. Bu yondashuv orqali oila instituti va jamiyat o'rtasidagi normativ munosabatlar turli tarixiy davrlarda qanday mazmun kasb etgani, ularning huquqiy-madaniy

asoslari va mafkuraviy konnotatsiyalari tadrijiylikda aks ettiriladi. Bunday yondashuv oila tushunchasining bir xil va universallikdan yiroqligini, balki har bir davr va makonda o‘ziga xos tarixiy, axloqiy, diniy va siyosiy mezonlarga tayangan holda shakllanib borganini ko‘rsatishga imkon beradi.

Nazariy konseptualizatsiya chog‘ida struktural-funksional yondashuv ham e’tibordan chetda qolmaydi. U orqali oila instituti jamiyat tuzilmasidagi o‘z funksional o‘rniga ko‘ra ko‘riladi: sotsializatsiya, reproduktivlik, ijtimoiy barqarorlik va axloqiy nazorat kabi funksiyalarining jamiyat umumiy tizimidagi integratsion vazifasi aniqlanadi. Bu esa, oila va jamiyatning bir-biriga bog‘liq, ijtimoiy sistemadagi ekvivalent elementlar sifatida mavjud ekanini tasdiqlaydi [2].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Nazariy tahlillar asosida aniqlanishicha, oilaning normativ-huquqiy asoslari mustaqil davlatlarning huquqiy tizimlarida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan asosiy tayanchlardan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi bu borada huquqiy normativ asoslarni ishlab chiqibgina qolmay, balki oilaning ijtimoiy funksiyalarini – avlodlararo uzviylik, axloqiy tayanch, iqtisodiy birdamlik va madaniy ko‘chirish kabi jihatlarini mustahkamlaydigan mexanizmlarni ham shakllantiradi. Bu esa normativ-huquqiy va ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan integral yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Boshqa tomondan, g‘arb falsafasi va siyosiy tafakkurida oilaning funksiyasi ko‘proq shaxsiy erkinlik, avtonomiya va huquqiy individualizm bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Ayniqsa, Makkiavelli va Rousso qarashlarida oila shartnomaviy asosda tashkil etilgan, jamiyatni legitim asosda barpo qilishda vositachilik qiluvchi ijtimoiy birlik sifatida baholanadi. Bu esa oilaning faqat hissiy-emotsional yoki milliy-madaniy fenomen emas, balki davlat va jamiyat tuzilishidagi huquqiy va falsafiy mexanizm sifatida shakllanganligini ko‘rsatadi [4].

Falsafiy umumlashtirishlar natijasida oilaning jamiyatdagi roli bir yoqlama funksional yondashuv orqali emas, balki ko‘p qatlamli tushunchalar: identitet (shaxsiy o‘zlik), qadriyatlar reproduktsiyasi, ijtimoiy nazorat va avlodlararo uzviylik mezonlari orqali talqin qilinishi zarurligi ayon bo‘ladi. Bu jihatlar zamonaviy global muhitda oilaning turg‘unligini saqlab qolish, uni davr talablari bilan uyg‘unlashtirish va ayni vaqtda milliy qadriyatlar negizida himoya qilish zaruratini yuzaga chiqaradi [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Oila va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ijtimoiy hayotning barqarorligi, qadriy asoslarining mustahkamlanishi va huquqiy tartibotning amalda tatbiq etilishi uchun asosiy vositachi maydon hisoblanadi. Nazariy tahlillar asosida aniqlanadiki, oilaning normativ-huquqiy jihatdan belgilanishi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash bilan birga, uning falsafiy mazmuni – ya’ni, axloqiylik, uzviylik, merosiylik va madaniy o‘zlik kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Normativ-huquqiy asoslar va ijtimoiy-falsafiy tamoyillar uyg‘unligida qaralayotgan oila konsepsiyasi jamiyatni mustahkamlovchi, uni axloqiy jihatdan birlashtiruvchi universal institut sifatida talqin qilinishi zarurligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2019.
2. Brighouse H., & Swift, A. Family and Justice in Political Philosophy. Oxford: Oxford University Press. 2016.
3. G‘ulomova Z.X. O‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(7), 2023. – B. 423–429.
4. Ivanov A. Traditional Russian Family as a Basis for Sustainable Development of the State and Society. Journal of Russian Social Studies, 5(2), 2019. – P. 45-60.
5. Petrova E. Russian Family Law Legislation: Revolution, Counter-Revolution, Evolution. Russian Law Journal, 5(3), 2017. – P. 23-39.
6. Smart C. The Ties That Bind: Law, Marriage and the Reproduction of Patriarchal Relations. London: Routledge & Kegan Paul. 2009.
7. Tönnies F. Gemeinschaft und Gesellschaft. Leipzig: Fues’s Verlag. 2007.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.013.2

Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti Sh.Tursunovaning taqrizi asosida

YOZMA TARJIMADA GRAMMATIK VA FRAZEOLOGIK MUAMMOLARNI ANIQLASHNING TEXNOLOGIK VOSITALARI VA ULARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Iskandarova Risolat,
al-Xorazmiy universiteti ma'ruzachisi



https://orcid.org/0009-0004-2394-8344

TECHNOLOGICAL TOOLS FOR IDENTIFYING GRAMMATICAL AND PHRASEOLOGICAL CHALLENGES IN WRITTEN TRANSLATION THEIR DIDACTIC POTENTIAL

Iskandarova Risolat,
Lecturer at al-Khwarizmi University

ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫЯВЛЕНИЯ ГРАММАТИЧЕСКИХ И ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В ПИСЬМЕННОМ ПЕРЕВОДЕ И ИХ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Искандарова Рисолат, преподаватель Университета имени аль-Хорезми

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yozma tarjima jarayonida yuzaga keladigan grammatik va frazeologik muammolarni aniqlash hamda bartaraf etishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni tadqiq etiladi. Tadqiqot obyekti sifatida Mashina tarjimasi (MT) va Kompyuter yordamida tarjima qilish (CAT) vositalarining funksional imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Muallif sun'iy intellekt tizimlarining idiomatik ifodalar va murakkab sintaktik qurilmalarni interpretatsiya qilishdagi metodologik cheklovlarini ko'rsatib o'tadi. Maqola natijalari bo'lajak tarjimonlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so`zlar: *tarjima texnologiyalari, CAT vositalari, mashina tarjimasi, grammatik transformatsiya, frazeologik muvofiqlik, tarjima xotirasi, lingvistik tahlil.*

Abstract: *This article explores the role of modern information technologies in identifying and overcoming grammatical and phraseological barriers within the process of written translation. The research performes a comparative analysis of the functional capabilities of Machine Translation (MT) and Computer-Assisted Translation (CAT) tools. The author highlights the methodological limitations of artificial intelligence systems in interpreting idiomatic expressions and complex syntactic structures. The results of the study hold practical value for developing the digital competencies of future translators.*

Key words: *translation technologies, CAT tools, machine translation, grammatical transformation, phraseological equivalence, translation memory, linguistic analysis.*

Аннотация: *В данной статье исследуется роль современных информационных технологий в выявлении и преодолении грамматических и фразеологических барьеров в процессе письменного перевода. Объектом исследования является сравнительный анализ функциональных возможностей*

систем машинного перевода (MT) и инструментов автоматизированного перевода (CAT). Автор указывает на методологические ограничения систем искусственного интеллекта при интерпретации идиоматических выражений и сложных синтаксических конструкций. Выводы работы имеют практическую значимость для развития цифровых компетенций будущих переводчиков.

Ключевые слова: *технологии перевода, CAT-инструменты, машинный перевод, грамматическая трансформация, фразеологическая эквивалентность, память переводов, лингвистический анализ.*

Kirish. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi, xususan, bo‘lajak mutaxassislarning lingvistik va texnologik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda yozma tarjima jarayoni nafaqat tillararo muloqot, balki murakkab kognitiv-didaktik jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tarjima sohasiga Mashina Tarjimasi (MT) va Kompyuter yordamida tarjima (CAT) vositalarining kirib kelishi, o‘quv jarayonida grammatik va frazeologik to‘siqlarni bartaraf etishning yangi pedagogik metodologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. **Muammoning qo‘yilishi.** Pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlar tarjima jarayonida sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalansalar-da, matndagi frazeologik noziklikliklar, idiomatik ifodalar va murakkab sintaktik qurilmalarni interpretatsiya qilishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Mashina tarjimasi taqdim etayotgan statistik va neyron naqshlar ko‘p hollarda madaniy-kontekstual ma’noni to‘liq qamrab ololmaydi. Bu esa ta’lim oluvchilarda texnologik vositalar bilan ishlashda tanqidiy fikrlash va filologik tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Yozma tarjimada texnologik vositalardan foydalanishning pedagogik jihatlari va ularning didaktik salohiyati so‘nggi o‘n yillikda ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Tarjima jarayonini avtomatlashtirish va CAT (Computer-Assisted Translation) vositalarining kognitiv asoslarini o‘rganishda M. Baker, A. Pym va F. Bowker kabi olimlarning ishlarida raqamli texnologiyalar tarjimonning instrumental kompetensiyasini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko‘riladi. Mashina tarjimasi (MT) tizimlarining lingvistik cheklovlari va ularning grammatik-frazeologik xatoliklari D. Arnold va J. Hutchins tomonidan tizimli tahlil qilingan. Ularning fikricha, sun’iy intellekt "kontekstual sezgirlik"ka ega emasligi sababli, frazeologik birliklarni tarjima qilishda inson omilining aralashuvi pedagogik zaruriyat hisoblanadi. Mahalliy va MDH davlatlari tadqiqotlari. O‘zbekiston pedagogika fanida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini til o‘rgatishga integratsiya qilish masalalari R. Ishmuhamedov, N. Azizxodjayeva va J. Jalolov kabi olimlarning ishlarida o‘z aksini topgan. Tarjima pedagogikasida texnologik yondashuvlarni o‘rganishda esa rus tadqiqotchilaridan V.V. Sdobnikov va I.S. Alekseevalarning qarashlari muhim ahamiyatga ega. Ular tarjimonning kasbiy tayyorgarligida texnik vositalardan foydalanishni "shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim" paradigmasi doirasida talqin etishadi.

Metod va metodologiya. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, pedagogik kuzatuv, qiyosiy-lingvistik tahlil va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning obyekti sifatida raqamli tarjima muhitida talabalarning yozma nutq va tarjima kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni belgilandi.

Natija. O‘rganilgan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar yo sof lingvistik, yo sof texnik xarakterga ega. Biroq, yozma tarjimadagi grammatik va frazeologik muammolarni aniqlashda raqamli vositalarning didaktik-metodik tizimi yetarlicha yaxlit tadqiq etilmagan. Xususan, talabalarda frazeologik birliklarni MT vositalari yordamida tahlil qilish va qayta ishlashning kognitiv algoritmlarini ishlab chiqish masalasi ochiq qolmoqda.

Muhokama. Yozma tarjimada grammatik va frazeologik muammolarni texnologik vositalar yordamida aniqlash masalasi zamonaviy pedagogikada “inson-texnika” muloqoti kontekstida ko‘rib chiqilishi lozim. Mashina Tarjimasi (MT) va Kompyuter yordamida tarjima (CAT) vositalarining didaktik imkoniyatlari ularning lingvistik birliklarni

qayta ishlash algoritmlari bilan bevosita bog‘liq. Tadqiqotimiz jarayonida aniqlangan xatoliklar va ularning pedagogik tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar talabaning kognitiv kompetensiyasini shakllantirishda ham ko‘makchi, ham "to‘siq" vazifasini o‘tashi mumkin.

Grammatik muammolar va raqamli interpretatsiya. Mashina tarjimasi tizimlari, xususan, neyron tarmoqlarga asoslangan Google Translate va DeepL algoritmlari, oddiy sintaktik qurilmalarni tarjima qilishda yuqori aniqlik darajasini namoyish etadi. Biroq, murakkab grammatik transformatsiyalar talab etilganda, tizim ko‘pincha manba tilining strukturasini maqsad tiliga "majburan" ko‘chirishga (interference) urinadi. Masalan, ingliz tilidagi murakkab ergashgan gaplarning o‘zbek tiliga o‘girilishida mantiqiy-grammatik aloqalarning uzilishi kuzatiladi. V.V. Sdobnikov ta’kidlaganidek, tarjima jarayonida grammatik ekvivalentlikni ta’minlash nafaqat so‘zlarni almashtirish, balki maqsad tili qonuniyatlariga ko‘ra fikrni qayta shakllantirishdir [5]. MT tizimlari esa ko‘p hollarda ushbu ijodiy transformatsiyani amalga oshira olmaydi.

Frazeologik to‘siqlar va kognitiv tahlil. Tadqiqotning eng muhim qismi frazeologik birliklar va idiomatik ifodalarning raqamli tahlili bilan bog‘liq. Ma’lumki, frazeologizmlar milliy-madaniy bo‘yoqqa ega bo‘lib, ularning ma’nosi komponentlar yig‘indisidan farq qiladi. MT tizimlari statistik qonuniyatlarga tayanganligi sababli, bunday birliklarni "so‘zma-so‘z" (kalkalash) orqali tarjima qiladi. Misol uchun, "The software crashed" iborasini "Dastur yiqildi" deb o‘girish, tizimning semantik "crash" (avariya holati) va fizik "fall" (yiqilish) o‘rtasidagi metaforik bog‘liqlikni anglamasligidan dalolat beradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, bu holat talabalarda "texnologik savodxonlik" bilan birga "lingvistik sezgirlik"ni ham rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. J. Jalolov qayd etganidek, chet tili o‘qitishda frazeologik birliklar bilan ishlash talabaning lisoniy dunyoqarashini kengaytiruvchi eng murakkab didaktik bosqichdir [3]. CAT vositalari esa, MTdan farqli o‘laroq, Tarjima Xotirasi (TM) va terminologik bazalar orqali talabaga avvaldan tasdiqlangan ekvivalentlarni taqdim etadi. Bu esa bo‘lajak mutaxassisda "etalon tarjima" haqidagi tasavvurni shakllantiradi.

CAT vositalarining didaktik afzalliklari va cheklovlari. CAT texnologiyalari (masalan, SDL Trados) ta’lim jarayonida faqat texnik ko‘makchi emas, balki tarjimonning mantiqiy fikrlashini tizimlashtiruvchi vosita hisoblanadi. TM (Translation Memory) funksiyasi talabaga bir xil terminologik va frazeologik birliklarni butun matn davomida izchil qo‘llash imkonini beradi. Bu o‘z navbatida, pedagogikada "o‘quv materialining izchilligi" prinsipiga mos keladi. F. Bowker ta’kidlashicha, CAT vositalari tarjimonning diqqatini mexanik ishlardan xalos qilib, ko‘proq ijodiy va stilistik tahlilga qaratishga yordam beradi [1].

Tadqiqotimiz davomida talabalar tomonidan bajarilgan texnik tarjimalar tahlil qilinganda, "Cloud computing" (Bulutli hisoblash) yoki "Database Management System" (MBBT) kabi atamalarning tarjimasida MT va CAT tizimlarining farqli natijalari kuzatildi. MT tizimi umumiy va ba’zan noaniq ma’no bersa, CAT tizimi o‘rnatilgan glossariylar asosida aniq soha terminini taqdim etdi. Bu holat ta’lim oluvchilarda "terminologik intizom"ni shakllantirishda raqamli glossariylarning ahamiyati yuqori ekanligini isbotlaydi.

M. Bakerning fikricha, tarjima – bu shunchaki kodni almashtirish emas, balki madaniy transferdir [2]. Texnologik vositalar ushbu "transfer" jarayonida faqat tashqi vosita bo‘lib, mantiqiy bog‘liqlik va uslubiy rangdorlikni ta’minlash inson zimmasida qoladi. Ushbu jarayonni pedagogik modellashtirish, ya’ni talabaning qaysi bosqichda texnologiyaga tayanishi va qaysi bosqichda kognitiv tahlilga o‘tishi kerakligini belgilash metodik ahamiyatga ega. Bundan tashqari, raqamli vositalar grammatik va frazeologik muammolarni identifikatsiya qilishda tezkor yechimlar taklif etadi, biroq ularni "interpretatsiya" qilish pedagogik mahoratni talab etadi. Kelajakda tarjima pedagogikasi nafaqat tilni, balki "tarjima texnologiyalarini boshqarish madaniyati"ni ham o‘rgatishga yo‘naltirilishi lozim [4].

Zamonaviy tarjima pedagogikasida texnologik transformatsiyalar nafaqat asbob-uskunalar almashinuvini, balki tarjimonning malaka tizimi (skill-sets) tubdan o‘zgarishini ham taqozo etmoqda. Ushbu masalada A. Pym o‘zining tadqiqotlarida muhim bir nuqtani ilgari suradi: mashina tarjimasi rivojlangan asrda tarjimonning

asosiy vazifasi matnni noldan yaratish emas, balki sun’iy intellekt tomonidan taqdim etilgan xomaki variantni tahrirlash (post-editing) va sifatini baholashdan iboratdir [6]. Bu yondashuv pedagogik nuqtai nazardan talabalarda "tanqidiy tahrir" kompetensiyasini shakllantirishni birinchi planga olib chiqadi. Ya’ni, talaba MT tizimi yo‘l qo‘ygan grammatik xatolikni yoki noto‘g‘ri tanlangan frazeologik ekvivalentni shunchaki ko‘ribgina qolmay, uning nima sababdan kontekstga mos kelmasligini nazariy jihatdan asoslay olishi kerak.

Shu nuqtai nazardan, yozma tarjimada texnologik vositalarni qo‘llash metodikasi bevosita pedagogik mahorat va ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashishi lozim. N.N. Azizxodjayeva ta’kidlaganidek, har qanday pedagogik texnologiyaning samaradorligi uning talaba shaxsini rivojlantirishga va kasbiy mahoratni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi [7]. Binobarin, CAT vositalari yoki MT tizimlaridan foydalanish dars jarayonida shunchaki texnik mashg‘ulot bo‘lib qolmasdan, balki talabaning lisoniy tahlil qilish, frazeologik birliklarning semantik qatlamlarini ajratish va maqsad tilida eng maqbul uslubiy variantni tanlash qobiliyatini o‘stiruvchi didaktik o‘yin yoki muammoli vaziyat sifatida tashkil etilishi kerak.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yozma tarjimada grammatik va frazeologik muammolarni bartaraf etishda texnologik vositalardan foydalanish zamonaviy ta’limning didaktik zaruriyatidir. MT tizimlari tezkorlikni ta’minlasa-da, frazeologik birliklarni interpretatsiya qilishda kognitiv cheklovlarga egaligi aniqlandi. CAT vositalari esa terminologik izchillikni saqlashda samarali pedagogik instrument bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan, bo‘lajak mutaxassislar tayyorlashda faqat texnik ko‘nikmalarni emas, balki "post-redaktirlash" va tanqidiy tahlil kompetensiyalarini rivojlantirish lozim. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar tarjimonning lingvistik tafakkurini boyituvchi va intellektual mehnatini optimallashtiruvchi vosita bo‘lib, ularni o‘quv jarayoniga tizimli integratsiya qilish tarjima sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bowker, L. (2002). *Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction*. University of Ottawa Press.
2. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
3. Jalolov, J. (2012). *Chet tili o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Ishmuhamedov, R., & Abduqodirov, A. (2010). *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. Toshkent: Fan.
5. Сдобников, В. В. (2015). *Перевод и коммуникация*. Москва: Флинта.
6. Pym, A. (2013). *Translation Skill-Sets in a Machine-Translation Age*. Meta: Translators' Journal.
7. Azizxodjayeva, N. N. (2006). *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. Toshkent.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.013.2

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI RAQAMLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TAKLIFLAR

Daniyarova Sarbinaz Maxsetovna,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

DIGITALIZATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION: MODERN APPROACHES AND PROPOSALS

Daniyarova Sarbinaz Makhsetovna,
Assistant at Karakalpak State University named after Berdakh,
Doctor of Philosophy in Educational Sciences

ОЦИФРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Даниярова Сарбиназ Махсетовна,
ассистент Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, доктор философии по педагогическим наукам

e-mail:
awada@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini raqamlashtirishning dolzarb masalalari va zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Elektron dasturiy ta’minot, interaktiv o‘quv dasturlari, sun’iy intellekt, geymifikatsiya va virtual laboratoriyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, o‘qituvchilarni raqamli ta’lim sharoitida tayyorlash, o‘quv dasturlarini monitoring qilish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, elektron dasturiy ta’minot, interaktiv o‘quv dasturlari, informatika, raqamli ta’lim, o‘qituvchilar tayyorlash.*

Abstract: *The article explores modern approaches to the digitalization of information technologies in primary education. It examines the use of electronic educational software, interactive learning programs, artificial intelligence, gamification, and virtual laboratories. Special attention is given to teacher training, monitoring the quality of educational programs, and ensuring information security in digital learning environments.*

Key words: *primary education, information technologies, digitalization, electronic educational software, interactive learning programs, informatics, digital education, teacher training.*

Аннотация: *В статье рассматриваются современные подходы к цифровизации информационных технологий в системе начального образования. Анализируются возможности использования электронного учебного программного обеспечения, интерактивных учебных программ, искусственного интеллекта, геймификации и виртуальных лабораторий. Особое внимание уделяется подготовке учителей, мониторингу качества учебных программ и обеспечению информационной безопасности в цифровой образовательной среде.*

Ключевые слова: *начальное образование, информационные технологии, цифровизация, электронное учебное ПО, интерактивные учебные программы, информатика, цифровое образование, подготовка учителей.*

Kirish. Hozirgi davrda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va uni jamiyatda keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, mamlakatda raqamlashtirish jarayoni tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotgan hozirgi davrda ta‘lim sohasida elektron axborot resurslarini tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababdan o‘qitish jarayonini tashkil etish, jumladan, o‘quv materiallarini elektron bayon etishni takomillashtirishga mos o‘zgartirishlar kiritish zarur bo‘ladi. Bu esa ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish maqsadimizga erishish uchun eng samarali yo‘li hisoblanadi.

Natijalar va muhokama. Axborot dunyo taraqqiyotining asosi, hayotning barcha jabhalaridagi o‘zgarishlar va innovatsiyalar dvigateli hisoblanadi. Insonning muhim jihatlarining biri shundaki, u shaxs sifatida raqamlashtirish texnologiyalarini egalik qiladi, uni o‘z kasbiy (mutaxassisligi) faoliyatida qo‘llaydi. Bundan har bir shaxsning axborot-texnika sohasini o‘rganish zarurligi, axborot taraqqiyotining mavjudligi esa ta‘limni raqamlashtirish sharoitida zamonaviy avlodni yangi usullardan foydalangan holda o‘qitish zaruriyatini yuzaga keltiradi degan xulosa kelib chiqadi.

Ta‘lim tizimida axborot texnologiyalarini joriy etish, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda, bolalarning ijodkorligini oshirish va zamon talablariga mos ravishda tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. O‘quv asboblarining doimiy ravishda yangilanishi va o‘zgarishi o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta‘sir qiladi. Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining elektron dasturiy ta‘minotini takomillashtirish, o‘qituvchilarni tayyorlash va o‘quv dasturlarini monitoring qilish masalalarini ko‘rib chiqadi.

O‘quv dasturlarini takomillashtirish va monitoring

O‘quv dasturlarining sifatini monitoring qilish ta‘lim jarayonining samaradorligini ta‘minlashda asosiy ro‘l o‘ynaydi. Buning uchun quyidagi yondashuvlarni qo‘llash mumkin:

-Fikr-mulohazalar tizimi: O‘qituvchi va o‘quvchilarning dasturlar haqidagi fikrlarini yig‘ish orqali samaradorlikni baholash. Bu tizim orqali o‘quv materiallarining kamchiliklari aniqlanib, ularni tez orada tuzatish imkoniyati paydo bo‘ladi.

-O‘quv natijalarini tahlil qilish: Ta‘lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarni baholash uchun testlar va vazifalarning natijalarini muntazam ravishda tahlil qilish. Bu tahlil orqali o‘quvchilarning bilim darajasi aniqlanib, dasturlarni moslashtirish mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanining elektron dasturiy ta‘minotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratish mumkin:

- Interaktiv o‘quv dasturlarini yaratish: Bolalar uchun qulay va tushunarli interfeysga ega bo‘lgan ilovalarni ishlab chiqish. O‘yinli va vizual materiallarga boy bo‘lgan platformalarni joriy etish. Animatsiya va ovozli qo‘llanmalar orqali tushuntirishni kuchaytirish. Masalan, Scratch yoki Blockly kabi dasturlar orqali bolalar oddiy kodlashni o‘rganishlari mumkin.

-Moslashtirilgan dasturiy ta‘minot: Har bir yosh toifasiga mos keladigan o‘quv modullarini ishlab chiqish. Turli darajadagi o‘quvchilar uchun adaptiv tizimlarni yaratish. Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun ham qulay dasturlarni ishlab chiqish. Bu tizimlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashib, ta‘limni yanada samarali qiladi.

-O‘qituvchilar uchun qo‘shimcha resurslar: Elektron dars ishlanmalarini yaratish va ulardan foydalanishni yengillashtirish. Onlayn dars o‘tish imkoniyatlarini kengaytirish (virtual laboratoriyalar, simulatsiyalar). O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar va trening platformalarini ishlab chiqish.

-O‘quv jarayoniga sun‘iy intellektni tatbiq etish: O‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, mos tavsiyalar beradigan tizimlarni yaratish. Savollarga avtomatik javob bera oladigan virtual yordamchilarni joriy qilish. Masalan, AI asosidagi chat-botlar o‘quvchilarga qo‘shimcha yordam berishi mumkin.

-Axborot xavfsizligini ta‘minlash: Bolalar uchun xavfsiz bo‘lgan dasturlarni yaratish. Reklama va nomaqbul kontentlardan himoyalangan platformalar ishlab chiqish. Onlayn ta‘lim jarayonida shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilishga e‘tibor qaratish. Bu jihat bolalarning onlayn muhitda xavfsizligini ta‘minlaydi.

-Mahalliylashtirilgan kontentni yaratish: Ona tilida sifatli ta‘lim resurslarini ishlab chiqish. Milliy

madaniyat va qadriyatlarni aks ettiruvchi o‘quv materiallarini yaratish. O‘zbek tilidagi interaktiv ilovalar va elektron kitoblar bolalarning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu takomillashtirishlar o‘quv jarayonini yanada samarali qilish, o‘quvchilarning ijodkorligini oshirish va zamon talablariga mos ravishda tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchilarni tayyorlash va qo‘llab-quvvatlash ta‘lim tizimida raqamlashtirishni muvaffaqiyatli joriy etishning kaliti hisoblanadi. Quyidagi yondashuvlar orqali bu masalani hal qilish mumkin:

-Professional rivojlanish dasturlari: O‘qituvchilar uchun axborot texnologiyalari bo‘yicha seminarlardan va treninglardan foydalanish. Zamonaviy o‘qitish metodlari bo‘yicha onlayn kurslar va vebinarlar tashkil qilish.

-Hamkorlik va tajriba almashish: O‘qituvchilar orasida tajriba almashish va muvaffaqiyatli yondashuvlarni tarqatish. Tajribali ustozlar bilan master-klasslar: ilg‘or pedagoglar tajribasini almashish. O‘qituvchilar uchun maxsus IT forumlar va platformalar yaratish.

O‘qituvchilar uchun axborot texnologiyalari faniga oid metodik qo‘llanmalar va dars ishlanmalarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqish mumkin:

-Raqamli metodik qo‘llanmalar yaratish: Boshlang‘ich sinflar uchun elektron qo‘llanmalar ishlab chiqish (PDF, ePub, yoki mobil ilova shaklida). Dars jarayonida foydalanish uchun slaydlar, video darsliklar va vizual materiallar tayyorlash.

-Dars ishlanmalarini interaktiv qilish: Elektron testlar va baholash tizimlari (Google Forms, Kahoot, Quizizz) bo‘yicha o‘qituvchilarni o‘qitish. Interaktiv o‘yinlar va mashg‘ulotlar uchun shablonlarni tayyorlash (Scratch, Blockly kabi dasturlar asosida).

-Masofaviy va aralash ta‘limni rivojlantirish: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos bo‘lgan onlayn platformalarni taklif qilish (Moodle, Google Classroom, E-maktab).

-Amaliy loyiha va faoliyatga asoslangan ta‘lim: Real hayotga oid IT loyihalarni darsga kiritish (masalan, o‘quvchilar rasmlar yaratish, oddiy dasturlar yozish yoki interaktiv hikoyalar yaratish). O‘qituvchilarga o‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun IT vositalaridan foydalanish bo‘yicha maslahat berish.

Interaktiv o‘qitish metodlarini joriy etish ham muhimdir:

-Geymifikatsiya: O‘quv jarayonini o‘yinga o‘xshatish orqali o‘quvchilarning qiziqishi va ishtirokini oshirish.

-Virtual va qo‘shimcha haqiqat: VR va AR texnologiyalarini qo‘llash orqali matematik va izchil fanlarni o‘rganishni qiziqarli qilish.

Xulosa. Boshlang‘ich ta‘limda axborot texnologiyalarini raqamlashtirish jarayoni bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta‘minlashda asosiy rol o‘ynaydi. O‘quv dasturlarini yaratish – interaktiv ilovalar, elektron kitoblar yoki o‘yinlar; o‘qituvchilar uchun qo‘llanmalar – metodik materiallar yoki dars ishlanmalar; texnik infratuzilmani yaxshilash – kompyuter va planshetlarga mos dasturlar; onlayn ta‘lim tizimlari – masofaviy ta‘lim platformalari va virtual laboratoriyalar kabi elementlar orqali bu jarayonni takomillashtirish mumkin. Ushbu yondashuvlar ta‘lim tizimini zamonaviy talablarga moslashtirib, o‘quvchilarni raqamli dunyoga tayyorlaydi. Natijada, jamiyatda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish darajasi oshadi va yangi avlodning innovatsion qobiliyatlari rivojlanadi. Ta’lim sohasidagi bunday o‘zgarishlar mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzullayev, T. (2024). O‘zbekiston ta’limida raqamli texnologiyalarning o‘rni [The role of digital technology in education of Uzbekistan]. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, *3*(2). https://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/2202

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PF-6079-son Farmon). https://lex.uz/docs/-5030957

3. UNICEF O‘zbekiston. (2025). *O‘zbekiston maktablarida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish: Eduten pilot loyihasi amalga oshirish hisoboti* [Educational technology use in Uzbek schools: Eduten pilot implementation report]. https://www.unicef.org/innovation/media/24166/file/Uzbekistan%20Eduten%20Piloting%20Implementation%20Repor25June2025.pdf.pdf

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.013.2

PEDAGOGIK TAJRIBA SINOVI ISHLARINI TASHKIL ETISH O‘RGANISH METODIKASI

Karimova Dilbar Zayniddinovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti fizika fani o‘qituvchisi



METHODOLOGY OF ORGANIZING AND STUDYING PEDAGOGICAL EXPERIMENTAL WORKS

Karimova Dilbar Zayniddinovna, Physics Teacher,
Shahrisabz State Pedagogical Institute
https://orcid.org/0009-0007-9235-3178

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ И ИЗУЧЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ РАБОТ

Каримова Дильбар Зайнуддиновна, учитель физики,
Шахрисабзский государственный педагогический институт

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik tajriba sinovi ishlarini tashkil etish va o‘rganish metodikasining nazariy-amaliy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda tajriba jarayonining bosqichlari – tayyorgarlik, amalga oshirish va yakuniy tahlil – ilmiy mezonlar asosida ko‘rib chiqiladi. Tajriba davomida nazorat va tajriba guruhlari taqqoslanib, o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasi, motivatsiyasi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Natijalar yangi metodikaning an’anaviy yondashuvga nisbatan samaraliroq ekanini ko‘rsatadi. Ushbu maqola pedagogik tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik tajriba, eksperiment, nazorat va tajriba guruhlari, metodika, o‘quv jarayoni, ilmiy tahlil, ta’lim samaradorligi, pedagogik innovatsiya.*

Abstract: *This article highlights the theoretical and practical foundations of the methodology for organizing and studying pedagogical experimental works. The study examines the stages of the experimental process—preparation, implementation, and final analysis—based on scientific criteria. During the experiment, the control and experimental groups are compared, and changes in students’ knowledge acquisition, motivation, and independent thinking skills are analyzed. The results indicate that the new methodology is more effective compared to the traditional approach. This article serves as a practical guide for specialists conducting pedagogical research.*

Key words: *pedagogical experiment, experiment, control and experimental groups, methodology, educational process, scientific analysis, educational effectiveness, pedagogical innovation.*

Аннотация: *В данной статье освещаются теоретико-практические основы методики организации и изучения педагогических экспериментальных работ. В исследовании рассматриваются этапы экспериментального процесса — подготовка, проведение и итоговый анализ — на основе научных критериев. В ходе эксперимента сравниваются контрольная и экспериментальная группы, анализируются изменения в усвоении знаний учащимися, их мотивации и навыках самостоятельного мышления. Результаты показывают, что новая методика является более эффективной по сравнению с традиционным подходом. Статья служит практическим пособием для специалистов, проводящих педагогические исследования.*

Ключевые слова: *педагогический эксперимент, эксперимент, контрольная и экспериментальная группы, методика, образовательный процесс, научный анализ, эффективность обучения, педагогическая инновация.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimida yuz berayotgan islohotlar, raqamli transformatsiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli va kompetensiyaviy yondashuvlarning shakllanishi pedagogik tadqiqotlar hamda tajribaviy ishlarni yuqori bosqichga olib chiqishni talab etmoqda. Ta’lim jarayoniga yangicha metodlar, pedagogik texnologiyalar va didaktik yonda-shuvlarni joriy etishdan maqsad — o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malaka va ijodiy fikrlash imkoniyatini kengaytirish, ularni amaliyotga tayyor shaxs sifatida shakllantirishdir. Biroq har qanday innovatsion metod nazariy jihatdan asoslangan bo‘lsa ham, uning real ta’siri faqat amaliy sinov orqali aniqlanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik tajriba sinovini tashkil etish ilmiy-tadqiqot jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik tajriba (eksperiment) – ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan yangicha metod, texnologiya yoki o‘qitish modeli samaradorligini tajriba va nazorat guruhlarini solishtirish asosida aniqlashga qaratilgan tizimli ilmiy jarayondir. Eksperiment o‘quvchi faoliyatining barcha jihatlarini — bilimni o‘zlashtirish sur’ati, mustaqil fikrlash, darsdagi faollik, ijodiy yondashuv, moti-vatsiya va natijaviylikni chuqur o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, tajriba natijalari orqali pedagogik jarayonning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, metodika keyingi takomillashtirish uchun ilmiy asosga ega bo‘ladi [1-3].

Maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi o‘quv jarayonida yangiliklarni tatbiq etishda ko‘plab pedagoglar faqat nazariy tavsiyalarga tayanadi, biroq amaliy tajriba yetishmasligi sababli kutilgan natija to‘liq erishilmaydi. Shu bois tajribani to‘g‘ri rejalashtirish, bosqichma-bosqich tashkil etish, ilmiy mezonlar asosida natijalarni tahlil qilish ta’lim sifatini oshirishning muhim kafolati sanaladi [4]. Mazkur maqolada pedagogik eksperimentning mazmuni, metodik ahamiyati, tajriba jarayonida qo‘llanadigan usullar hamda natijalarni baholash mexanizmlari batafsil yoritiladi. Tadqiqot o‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ularning samaradorligini ilmiy asosda tasdiqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning natijalarini o‘rganish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda ta’lim tizimida innovatsion metodlardan foydalanish, amaliy tajribalarga asoslangan baholash mexanizmlarini shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib bormoqda. Yo‘ldoshev J. va Tolipova G.ning “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” asarida o‘quv jarayonida interfaol texnologiyalarning qo‘llanilishi va uning samaradorlik omillari ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Mualliflar tajriba-sinov jarayonida o‘qituvchining mahorati, darsni to‘g‘ri loyihalash va metod tanlash ta’lim sifati oshishida muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlaydi.

Hasanov B. tomonidan berilgan ilmiy qarashlarda ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning qo‘llanishi orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tahliliy yondashuv shakllanishi tajriba asosida isbotlangan. Shu bilan birga, Qosimov A.ning “Didaktika asoslari va zamonaviy yondashuvlar” kitobida tajribalarni metodik jihatdan to‘g‘ri rejalashtirish, diagnostika va monitoring jarayonlari to‘g‘risida amaliy tavsiyalar berilgan bo‘lib, bu tadqiqot mazmuni uchun nazariy asos vazifasini bajaradi. Mardonova S. esa pedagogik tajribani loyihalash, o‘tkazish, qayta ishlash va natijalarni tahlil qilish bo‘yicha tizimli metodikani taklif etadi, bu tadqiqotda foydalanilgan metodlar bilan uyg‘unlashadi.

Xalqaro adabiyotlar ichida Babanskiy Y.K., Shamova T.I. va Tretyakov P.I.ning ta’lim boshqaruvi va metodlari haqidagi ilmiy qarashlari ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning tadqiqotlarida baholash mezonlarining aniqligi, o‘quvchilar rivojlanish dinamikasini kuzatish, tajriba-sinov jarayonini tizimli olib borish bo‘yicha yondashuvlar keng yoritilgan. Selevko G.ning “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar” nomli ishlari esa amaliyotga tatbiq qilish mumkin bo‘lgan texnologik modellarni ko‘rsatib beradi va ta’lim jarayonida loyihaviy hamda interaktiv metodlarning samaradorligini asoslab beradi. Fullan M. tomonidan ilgari surilgan "Educational Change" nazariyasi esa ta’limdagi o‘zgarishlarning jamiyatga ta’siri, o‘qituvchilarning roli va yangiliklarni tatbiq etish jarayonida uchraydigan metodik muammolarni ilmiy tahlil qiladi.

Jalolov J.J.ning ishlari orqali pedagogik tajribalarni qo‘llash va o‘quvchi faoliyatini baholashning reyting tizimi o‘rganilib, ushbu

tadqiqot uchun tajriba modeli shakllantirildi. Abdullaeva M. tomonidan ta’lim sifatini baholash mezonlari ilmiy yoritilgan bo‘lib, ushbu manba tajribani natijalash jarayonida nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Yuqoridagi manbalar tahlili asosida aytish mumkinki, pedagogik tajriba-sinov jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish va ilmiy metodlar bilan o‘rganish ta’lim sifatini oshirishning eng samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotlarning umumiy mazmuni tajriba metodikasining dolzarbligini tasdiqlaydi hamda mazkur maqolada olib borilgan tadqiqotning nazariy-ilmiy poydevorini mustahkamlaydi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda pedagogik tajriba sinovi metodikasi bosqichma-bosqich ilmiy yondashuv asosida ishlab chiqildi. Tajribaning asosiy maqsadi – yangi metodika qo‘llangan guruhda o‘quv jarayonining samaradorligini aniqlash va uni an’anaviy usul bilan ishlovchi nazorat guruhi natijalari bilan taqqoslab baholashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi rivojlanish ko‘rsatkichlarini kuzatish uchun diagnostik mezonlar ishlab chiqildi, baholash indikatorlari belgilandi, monitoring usullari tanlandi [5].

Metodik jarayon uch bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqich – tayyorgarlik davrida eksperimentning ilmiy g‘oyasi asoslandi, faraz (gipoteza) ilgari surildi, fan doirasida tajribada qo‘llanadigan innovatsion metodlar saralandi. Shuningdek, o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi aniqlash uchun diagnostik testlar o‘tkazildi. Materiallar o‘quvchilar yosh xususiyatlari va dars dasturiga moslashtirildi.

Ikkinchi bosqich — tajriba amaliyotini tashkil etish jarayonida nazorat guruhi an’anaviy dars shaklida o‘qitildi, tajriba guruhi esa yangi metodika asosida dars jarayoniga jalb qilindi. Darslarda vizual, interfaol, muammoli vaziyatlar asosida o‘rgatish, guruhli ishlash, mustaqil tadqiqot topshiriqlari, refleksiya tahlillari va bahs-munozara usullari qo‘llanildi. Jarayon davomida o‘quvchilarning faolligi, darsga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash ko‘nikmasi doimiy monitoring orqali qayd etib borildi.

Uchinchi bosqich — natijalarni tahlil qilish jarayonida eksperiment davomida to‘plangan ma’lumotlar statistik qayta ishlashga tortildi. Nazorat guruhi va tajriba guruhidagi o‘quvchilar bilim ko‘rsatkichlari o‘zaro solishtirildi. Baholash jarayonida foiz ko‘rsatkichlari, differensial tahlil, dinamik o‘sish grafigi va pedagogik diagnostika usullari qo‘llanildi. Natijada yangi metodikaning samaradorligini isbotlovchi ilmiy mezonlar shakllandi. Tajriba natijalari o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, o‘zlashtirish darajasi va faolligining sezilarli oshganini ko‘rsatdi [6,7].

Tadqiqot metodikasida qo‘llanilgan asosiy ko‘rsatkichlar.

1-jadval.

Bosqich nomi	Amalga oshirilgan ishlar	Qo‘llangan usullar	Kutilgan natija
Tayyorlov bosqichi	Faraz ishlab chiqish, guruh tanlash, mezon belgilash	Diagnostika, dastlabki test	Boshlang‘ich darajani aniqlash
Tajriba jarayoni	Darslarni yangi metodda tashkil etish	Interfaol metodlar, guruhli ish, muammoli yondashuv	O‘zlashtirish ko‘rsatkichini oshirish
Yakuniy bosqich	Ma’lumotlarni qayta ishlash va taqqoslash	Statistika, monitoring, solishtirma tahlil	Metod samaradorligini ilmiy asoslash


Natijalar va muhokama. Pedagogik tajriba sinovi natijalarini tahlil qilish davomida nazorat va tajriba guruhlari o‘quvchilarining bilim o‘zlashtirish darajasi, faolligi va ijodiy yondashuv ko‘rsatkichlari solishtirildi. Tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida ikki guruh o‘quvchilari o‘rtasida sezilarli farq ko‘rinmagan bo‘lsa, yangi metodika joriy qilinganidan so‘ng tajriba guruhida o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlari izchil o‘sib bordi. Nazorat guruhi an’anaviy o‘quv jarayoni asosida, tajriba guruhi esa interfaol metodlar, refleksiya, guruhli ishlash, muammoli vaziyatlar asosidagi topshiriqlar orqali ta’lim oldi.

Tahlillar natijasida ma’lum bo‘ldiki, tajriba guruhidagi o‘quvchilar bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga intildi, ular mavzularni tahlil qilish, asoslash va xulosalashda yuqori faollik ko‘rsatdi. Eng muhim ko‘rsatkichlardan biri – ijodiy tafakkurda kuzatilgan o‘sishdir. O‘quvchilar faqat tayyor javoblarni emas, balki yangicha fikr va mulohazalarni ilgari sura oldi. Bu esa metodikaning shaxsga yo‘naltirilganligi va o‘quvchini markazga qo‘ygan didaktik yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Statistik solishtirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida “yuqori” darajadagi o‘zlashtiruvchilar ulushi 40% gacha yetdi, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 25% atrofida bo‘lib qoldi. “Boshlang‘ich” darajadagi o‘quvchilar soni tajriba guruhida keskin kamaygan — 22% gacha tushgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu raqam 40% miqdorida saqlanib qoldi. Bu esa yangi metodikaning bilim o‘zlashtirish sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini yaqqol ko‘rsatadi [8,9].

Tajriba davomida kuzatilgan psixologik holat ham muhim ahamiyatga ega. Tajriba guruhidagi o‘quvchilar darsga qiziqish bilan qatnashgan, savol-javoblarda faol bo‘lgan, topshiriqlarni bajarishda tashabbus ko‘rsatgan. Qiziqishning ortishi esa o‘zlashtirish darajasini oshirishning eng asosiy omillaridan biri ekanligi ilmiy manbalarda ham tasdiqlanadi. Nazorat guruhida esa an’anaviy yondashuv sabab dars jarayonidagi faollik pastroq darajada saqlanib qolgan.

Umumiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, amaliy tajriba davomida joriy etilgan pedagogik texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishda samarali hisoblanadi. Innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilish ehtiyojini kuchaytirdi, mustaqil izlanishlariga sharoit yaratdi, muloqot ko‘nikmalarini va fikrlash madaniyatini rivojlantirdi. Tajriba yakunida olingan raqamli ma’lumotlar yangi metodikaning amaliy samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi [10].



1-rasm. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida nazorat va tajriba guruhlarining bilim darajalaridagi o‘zgarishlar taqqosiy tahlili[1].

[1] Muallif ishlanmasi.

Xulosa. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonini ilmiy asoslangan metodika asosida tashkil etish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarining oshishiga sezilarli darajada xizmat qiladi. Tajriba davomida qo‘llanilgan kuzatish, diagnostika, suhbat, monitoring va reyting baholash usullari orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalari aniq qayd etildi va nazorat guruhi bilan taqqoslanganda tajriba guruhida yuqori natijalarga erishilgani amaliy jihatdan tasdiqlandi. Bu esa pedagogik tajribani to‘g‘ri rejalashtirish, izchil olib borish, o‘quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan didaktik vositalardan foydalanish o‘qitish samaradorligini oshiruvchi asosiy omil ekanini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar shuni anglatadiki, ta’lim jarayonida tajriba-sinov metodikasi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tahliliy yondashuv va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar, loyihaviy yondashuv, refleksiya va baholash mezonlarining aniqligi tajribaning muvaffaqiyatli kechishini ta’minladi. Demak, pedagogik tajriba-sinov faoliyatini tizimli ravishda tashkil etish, o‘quv dasturlarini zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish kelajakda ta’lim sifatini yanada oshirishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J., Tolipova G. — Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Hasanov B. — Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. — Toshkent: Fan, 2021.
3. Qosimov A. — Didaktika asoslari va zamonaviy yondashuvlar. — Samarqand, 2020.
4. Mardonova S. — Pedagogik tajriba-sinov metodikasi. — Buxoro: TDPU nashriyoti, 2022.
5. Abdullaeva M. — Ta’lim sifatini baholash metodlari. — Toshkent, 2018.
6. Jalolov J.J. — Pedagogik texnologiyalar va loyihaviy o‘qitish. — Toshkent: Innovatsiya-Pedagogika, 2023.
7. Шамова Т.И., Третьяков П.И. — Менеджмент в образовании. — Москва: Академия, 2017.
8. Бабанский Ю.К. — Методы обучения и их эффективность. — Москва: Педагогика, 2019.
9. Selevko G. — Современные образовательные технологии. — Москва: Народное образование, 2018.
10. Fullan M. — The New Meaning of Educational Change. — New York: Teachers College Press, 2020.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 39(575)

SIROJIDDIN SAYYID TO‘RTLIKLARIDA HAYOT FALSAFASINING BADIIY IN’IKOSI

Quranbayeva Gulianbar Umirbek qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti O‘zbek adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich tayanch doktoranti

ARTISTIC VISION OF THE PHILOSOPHY OF LIFE IN SIROJIDDIN SAYID’S QUARTERS

Quranbayeva Gulianbar Umirbek kizi, 3rd year doctoral student in Uzbek literature at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ОТРАЖЕНИЕ ФИЛОСОФИИ ЖИЗНИ В ЧЕТВЕРОСТИШИЯХ СИРОДЖИДДИНА САЙИДА

Куранбаева Гулианбар Умирбек кизи, аспирантка 3-го года обучения по специальности «Узбекская литература» Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни



e-mail: guli8337@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-0934-7990

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yorqin vakili Sirojiddin Sayyid ijodi, jumladan, ijodkor lirikasining salmoqli qismini tashkil qiluvchi to‘rtliklar tahlilga tortiladi. Shoirning turli davrlarda va turfa mavzularda yaratilgan to‘rtliklaridagi hayot mazmuni, umr mohiyati, ko‘ngil kechinmalari kabi bir-birini takrorlamaydigan original mushohadalar borasida fikr yuritiladi.*
Kalit so‘zlar: *lirika, to‘rtliklar, ijodiy individuallik, mavzular xilma-xilligi, original mushohada.*
Annotation: *This article analyzes the works of Sirojiddin Sayyid, a bright representative of Uzbek literature, including the quatrains that make up a significant part of the artist's lyrics. The poet's quatrains created in different eras and on various topics reflect the meaning of life, the essence of life, and original observations that do not repeat each other.*
Key words: *lyrics, fours, creative individuality, variety of topics, original observation.*
Аннотация: *В данной статье анализируется творчество Сироджиддина Сайида – яркого представителя узбекской литературы, в том числе четверостишия, составляющие значительную часть лирики художника. Четверостишия поэта, созданные в разные эпохи и на различные темы, отражают смысл жизни, суть жизни, оригинальные наблюдения, не повторяющие друг друга.*
Ключевые слова: *лирика, четверки, творческая индивидуальность, разнообразие тем, оригинальное наблюдение.*

Kirish. Iste’dodli shoir, nosir, mohir tarjimon, publitsist, zukko adabiyotshunos Sirojiddin Sayyid ijod olamiga nazar solar ekanmiz, unda turfa janrlarda yaratilgan asarlarni uchratishimiz mumkin. Ijodkor tom ma’noda she’riy asarlari bilan bir qatorda nasriy asarlar, tarjimalar va esselar bilan ham nom qozondi. Ularning barida hayotni sinchkovlik bilan kuzatgan, umr mazmunini chuqur anglagan, eng mayda tafsilotlarni ham nazardan qochirmaydigan donishmand shoir nigohi bo‘rtib turadi. Biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan shoir lirikasining kichik janri

hisoblanmish to‘rtliklar esa ijodkorning hayotiy xulosalari yanglig‘ jarang sochadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. To‘rtlik janri haqida adabiyotshunos Hotam Umurov quyidagicha bayon qiladi: “Ruboiy va tuyuq janri talablari(vazni)ga javob bermaydigan to‘rt misralik barcha she’riy asarlarni to‘rtlik(qorishiq) janri deb yuritish asoslidir. To‘rtliklarning mavzu va mundarijasi hayotning barcha jihatlarini qamrab oladi, ularda bu jihatlar siqiq tarzda poetiklashadi”.[1: H.Umurov. B. 168]

Natijalar. Anglashiladiki, to‘rtlik barmoq vaznida yaratilgan, to‘rt misradan iborat, mavzu doirasi chegaralanmagan, mustaqil lirik janrdir. Sirojiddin Sayyidning IV jildlik “Tanlangan asarlar”ida turli davrlarda va har xil mavzularda yaratilgan to‘rtliklari o‘rin olgan. Jumladan, “Tanlangan asarlar” I jildidan 4 ta, II jildidan 245 ta, III jildidan 5 ta, IV jildidan 117 ta to‘rtlik o‘rin olgan.

Muhokama. To‘rtliklar turli mavzularda yaratilgan, jumladan, ularda hayot falsafasi, umr mohiyati, azaliy qadriyatlar, chin insoniy xislatlar borasida fikr yuritiladi.

Men bunda har dildan navolar oldim,
Har giyoh, har guldan sabolar oldim.
Oq fotiha oldim oppoq tog‘lardan,
Azim chinorlardan duolar oldim. [3.S.Sayyid. B.359]

Mazkur to‘rtlikda hayot falsafasi inson–tabiat–tarix uyg‘unligi orqali badiiy aks ettirilgan. Shoir hayotni bilim, saboq va ma’naviy kamolot manbai sifatida ko‘radi. Inson atrofdagi har bir mavjudotdan — qalblardan, gullardan, tog‘lardan, chinorlardan — ruhiy kuch oladi. To‘rtlik hayotni anglash uchun ochiq qalb va teran tafakkur zarurligini uqtiradi. Ushbu to‘rtlikda insonning tabiat bilan uyg‘unlashib, uning bag‘riga singib ketganiga guvoh bo‘lamiz. Oppoq tog‘lar misoli yoshi ulug‘, mo‘ysafid bobolarga qiyos qilingan-u, shoir ulardan fotiha oladi, zero, ko‘pni ko‘rgan qariyalar duo-yu fotihalari bilan zaminni ushlab turguvchi darg‘alardir, shaksiz. Shoir nigohida butun borliq unga sirlarini, bag‘rida yotgan mingyilliklar sinoatini so‘ylayotgandek go‘yo.

Kimdir qasr qurmish, yig‘mish mol-dunyo,
Kimdir jabr qilmish va topmish jafo.
Turkiston tuprog‘i pok bo‘lsin deya,
Hikmat ekib ketmish Yassaviy bobo. [3.S.Sayyid. B.360]

Mazkur to‘rtlikda Sirojiddin Sayyid hayotni tanlovlar maydoni sifatida talqin qiladi. Kimdir boylik va zo‘ravonlik bilan yashab unutiladi, kimdir esa hikmat ekib, abadiy qoladi. Shoir hayot falsafasini ma’naviy merosning boqiyligi g‘oyasi orqali yuksak badiiy darajada ifodalaydi. Ijodkor nazdida insonning bu dunyoda umr kechirishdan asl maqsadi o‘zidan ezgu nom qoldirishdir. Hayotda turfa insonlar, turfa taqdirlar bo‘lganidek, ularning yashash tarzlari ham ayricha. She’rdagi “Kimdir jabr qilmish va topmish jafo” misralari beixtiyor Hazrat Boburning “Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir” satrlarini esga soladi. Shaksiz, har kim qilgan ishiga yarasha mukofot yo jazo olishi muqarrar. Shoir Navoiy va Bobur kabi klassiklar ijodini puxta o‘rgangan, ulardan ijodiy ilhom olishi tabiiy.

Uyqashdir bu yo‘lning shom-u sahari,
Xabarlari bisyor, ko‘pdir xatari.
Ey do‘st, Farididdin Attordan o‘rgan,
Eng uzoq safardir ko‘ngil safari.[5. S.Sayyid. B. 92]

To‘rtlikda hayot falsafasi safar ramzi orqali ifodalanadi. Tashqi yo‘llar qisqa, ammo ichki yo‘l — ko‘ngil safari — uzoq va murakkab. Shoir vaqt, xatar va ogohlik tushunchalarini uyg‘unlashtirib, insonni ma’naviy kamolotga chorlaydi. Attor nomining tilga olinishi bu g‘oyaning ildizi tasavvufiy tafakkurga borib taqalishini ko‘rsatadi. Hayot yo‘lga qiyos qilinadi azaldan. Bu yo‘lda insonni kutib turguvchi nelar borligini hech birimiz bila olmaymiz. Odamzod uchun eng mushkul ish o‘zini va o‘zligini tanishdir, bu xususda tasavvuf namoyondalari ham aytib o‘tishgan. Sharqning buyuk mutasavvuflari Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiy kabi zotlar falsafasiga ko‘ra insonning o‘zligini tanish yo‘lida chekkan mashaqqatlari eng og‘ir safar misolidir. Bu safarda neki uchrasa, barini Haqdan deb bilish iymoni komilning belgisidir.

So‘zlarki, eng qadim dardlar nishoni,
So‘zlarki, yig‘latar tomirda qonni.
So‘zlarki, xasga ham jon ato etar,
So‘zlarki, isitar yupun dunyoni. [5. S.Sayyid. B.96]

Ushbu to‘rtlikda hayot falsafasi so‘z markazida qurilgan. So‘z — dardni saqlovchi, qalbni larzaga soluvchi, jonsizga jon beruvchi va

sovuq dunyoni isituvchi ma’naviy qudratdir. Shoir hayotni so‘z orqali anglash va tuzatish mumkin degan yuksak falsafiy g‘oyani ilgari suradi. Sirojiddin Sayyid so‘zni hayotning yuragi sifatida talqin qiladi. Insonning dardi ham, umidi ham, hayotni o‘zgartirish qudrati ham so‘zda mujassam. Shu bois shoir o‘quvchini so‘zga mas’uliyat bilan qarashga, uni ezgulik yo‘lida ishlatishga da’vat etadi. Mumtoz asarlarimizda ham so‘zga alohida ta’rif-tavsiflar berilib, asarlarda “So‘z ta’rifida” boblari berilishi ham bejizga emas. Navoiy ta’biri bilan aytganda:

So‘zdurki nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki berur jonga xabar jonondin.
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim guhari sharifroq yo‘q ondin.

Jonsizlarga jon ato qilguvchi, insonni hayvondan farqlab turguvchi ham so‘zdir, so‘zki har qanday so‘z emas, chuqur ma’noli, o‘rinli aytilgan so‘zlardir.

Ko‘ksimni yondirgan o‘tlug‘ oh o‘zing,
Men joh izlamasman, yolg‘iz joh o‘zing.
Ey dil, senga atab chohlar qazdim men,
O‘zimga bo‘lgaysan bir kun choh o‘zing.[5. S.Sayyid. B. 379]

To‘rtlikda hayot falsafasi insonning ichki kurashi orqali ochiladi. Shoir dunyoviy manfaatlardan yuz o‘girib, qalb pokligi va ilohiy muhabbatni ustuvor qo‘yadi. “Oh”, “joh”, “choh” kabi so‘zlar orqali tasavvufiy ramzlar tizimi yaratilgan. Mazkur to‘rtlik Sirojiddin Sayyid ijodida hayotning eng muhim sabog‘i — o‘zini anglash va nafsni yengish ekanini ko‘rsatadi. Shoir insonni tashqi dushmanlardan emas, avvalo o‘z qalbidagi g‘aflatdan ogoh bo‘lishga da’vat etadi. Ko‘ngil kechinmalari tasviriga o‘rin berilgan to‘rtliklar ham shoir ijodining bezagidir. Ularda insonning ichki tug‘yonlari qalamga olinib, lirik qahramon o‘z qalbidan hikoya qiladi. Shoir o‘z ko‘ngliga qarata ko‘ksimdagi fig‘onli, o‘tli nola ham, men uchun eng oliy mansab ham o‘zingsan demoqchi. Bu dardlardan forig‘ bo‘lmoq uchun ko‘ngilga atab chohlar qazmoq mumkin, biroq unga o‘zing tushishing muqarrar.

Xulosa. Tahlil qilingan to‘rtliklarda Sirojiddin Sayyid hayotni chuqur falsafiy va badiiy tafakkur asosida talqin etadi. Shoir nazarida hayot — insonning nafaqat tashqi dunyo, balki o‘z qalbi, tarix, tabiat va ma’naviy meros bilan uzluksiz muloqotidir. To‘rtliklarda inson qalbi, so‘z qudrati, ichki safar, ma’naviy poklik va iymon masalalari yetakchi g‘oya sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoir moddiy boylik va mansabni o‘tkinchi hodisa sifatida baholab, haqiqiy boylikni hikmat, so‘z, qalb va ma’naviy kamolotda ko‘radi. Yassaviy, Attor singari buyuk allomalar obrazlari orqali u hayot falsafasini milliy va tasavvufiy tafakkur bilan bog‘laydi. Tabiat, so‘z va qalb obrazlari esa hayot sabog‘ini ramziy, ammo ta’sirchan shaklda ochib beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har qanday badiiy asar, qaysi uslubda, qanday janrda yaratilishidan qat’iy nazar unda inson hayoti aks etadi. Olamni har kim o‘z nigohi bilan ko‘radi, qarichi bilan o‘lchaydi. Biz o‘rganayotgan Sirojiddin Sayyid asarlarida uning mumtoz va tasavvufiy asarlar bilimdoni ekaniga ham bir karra guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, shoir to‘rtliklarida o‘zigacha yaratilgan asarlardagi hayotiy xulosalarga yangicha nazar bilan qaragan holda ularni to‘ldiradi, dunyoga, odamzotga ibrat nazari bilan qarashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
3. Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
4. Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
5. Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2019.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.013.2

TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISH TAMOYILLARI VA ULARNING TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

[1]Mamedova Adilya Adilevna, Buxoro davlat texnika universiteti Registrator ofisi Xizmat ko'rsatish bo'limi menedjeri
[2]Imomova Zilola Bobopirovna, Buxoro davlat texnika universiteti Registrator ofisi Ma'lumotlar bazasi bo'lim boshlig'i

PRINCIPLES OF MANAGING THE EDUCATIONAL PROCESS AND THEIR PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE IN IMPROVING EDUCATIONAL EFFECTIVENESS

[1]Mamedova Adilya Adilevna, Manager of the Service Department, Registrar's Office, Bukhara State Technical University
[2]Imomova Zilola Bobopirovna, Head of the Database Department, Registrar's Office, Bukhara State Technical University

ПРИНЦИПЫ УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ И ИХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

[1]Мамедова Адиля Адилевна, менеджер отдела обслуживания Регистраторского офиса Бухарского государственного технического университета
[2]Имомова Зилола Бобопировна, начальник отдела базы данных Регистраторского офиса Бухарского государственного технического университета

e-mail: mamedovaadilya@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini boshqarishning asosiy tamoyillari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan keng tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonini boshqarishda tizimlilik, uzluksizlik, shaffoflik, refleksivlik, natijaga yo'naltirilganlik hamda raqamli boshqaruv tamoyillarining mazmuni ochib beriladi. Mazkur tamoyillarning ta'lim sifati, pedagogik samaradorlik va talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim jarayonini boshqarish, boshqaruv tamoyillari, ta'lim sifati, pedagogik boshqaruv, oliy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv.*

Abstract: *This article provides a comprehensive scientific-theoretical and practical analysis of the main principles of managing the educational process in higher education institutions. The content of such management principles as systematicity, continuity, transparency, reflexivity, result-oriented approach, and digital management is revealed. The role of these principles in ensuring the quality of education, enhancing pedagogical effectiveness, and developing students' research competencies is substantiated.*

Key words: *management of the educational process, management principles, quality of education, pedagogical management, higher education, competency-based approach.*

Аннотация: *В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения всесторонне анализируются основные принципы управления образовательным процессом в высших образовательных учреждениях. Раскрывается содержание таких принципов управления образовательным процессом, как системность, непрерывность, прозрачность, рефлексивность, ориентированность на результат, а также принципы цифрового управления. Обоснована роль*

данных принципов в обеспечении качества образования, повышении педагогической эффективности и развитии исследовательских компетенций обучающихся.

Ключевые слова: *управление образовательным процессом, принципы управления, качество образования, педагогическое управление, высшее образование, компетентностный подход.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini boshqarish muammosi global ta’lim islohotlari fonida alohida dolzarblik kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot, innovatsion taraqqiyot va bilimlar jamiyati sharoitida oliy ta’lim muassasalaridan faqat bilim berish emas, balki ta’lim jarayonini samarali boshqarish orqali raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va innovatsion salohiyatga ega kadrlarni tayyorlash talab etilmoqda.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ta’lim jarayonini samarali boshqarish orqali raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va innovatsion faoliyatga tayyor mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifaga aylanmoqda. Shu bois ta’lim jarayonini boshqarish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda [1].

Ta’lim jarayonini boshqarish – bu o‘quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish, tahlil etish va takomillashtirishga qaratilgan tizimli pedagogik faoliyatdir. Ushbu jarayon ma’lum tamoyillarga asoslanmagan holda amalga oshirilsa, ta’lim sifati va samaradorligiga erishish mushkul bo‘ladi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida boshqaruv tamoyillarining ilmiy asosda belgilanishi ta’lim jarayonining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Mazkur holatlar ta’lim jarayonini boshqarish tamoyillarini chuqur ilmiy tahlil qilish va ularning pedagogik ahamiyatini asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik adabiyotlar-da ta’lim jarayonini boshqarish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, V.P.Bespalko ta’limni boshqarishni natijaga yo‘naltirilgan pedagogik tizim sifatida talqin qiladi. V.I.Zagvyazinskiy boshqaruv jarayonida pedagogik refleksiya va tahlilning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [3].

O‘zbekiston olimlari tadqiqotlarida ham ta’limni boshqarish masalasi dolzarb yo‘nalish sifatida yoritilgan. Xususan, Sh.M. Mirziyoyevning ta’limni isloh qilishga oid qaror va farmonlarida ta’lim sifatini boshqarish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ta’lim natijalariga yo‘naltirilgan boshqaruv tamoyillari ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ta’lim jarayonini boshqarish tamoyillari ko‘pincha umumiy tarzda yoritilgan bo‘lib, ularning oliy ta’lim samaradorligiga ta’siri yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan.

Ta’lim jarayonini boshqarish tamoyillari masalasi zamonaviy pedagogika va ta’lim menejmentida “boshqaruv–sifat–natija” zanjiri doirasida izohlanadi. Milliy kontekstda ushbu yondashuv ta’lim tizimining huquqiy-me’yoriy asoslari bilan, global ilmiy adabiyotlarda esa tashkilot boshqaruvi, sifat menejmenti va pedagogik liderlik konsepsiyalari bilan uyg‘un holda talqin qilinadi [4]. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, sifatni ta’minlash va ishtirokchilar mas’uliyati bilan bog‘liq munosabatlarni normativ jihatdan belgilab, boshqaruv tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish uchun huquqiy “tayanch maydon” vazifasini bajaradi. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim sifatini oshirish, boshqaruvning samaradorligini kuchaytirish hamda tizimda natijadorlikka yo‘naltirilgan yondashuvlarni kengaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanildi. Ilmiy tahlil, qiyosiy solishtirish, pedagogik kuzatish va umumlashtirish metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va ilg‘or pedagogik tajribalar tahlil qilindi.

TAMADDUN NURI

1-jadval

Ta’lim jarayonini boshqarish tamoyillari

Tamoyil	Mazmuni	Pedagogik ahamiyati
Tizimlilik	Barcha elementlarning uyg‘unligi	Barqaror ta’lim sifati
Uzluksizlik	Doimiy monitoring va tahlil	Rivojlanish dinamikasi
Shaffoflik	Ochiq boshqaruv qarorlari	Ishonch va adolat
Refleksivlik	Faoliyatni tahlil qilish	O‘zini rivojlantirish
Natijaga yo‘naltirilganlik	Kutilgan kompetensiyalar	Samaradorlik

Ta’lim jarayonini boshqarishning asosiy tamoyillari ta’lim jarayoni sifatini ta’minlashda katta ahamiyatga ega hamda quyidagilardan iborat [2]:

1. Tizimlilik tamoyili.

Ta’lim jarayonini boshqarish barcha tarkibiy qismlarning o‘zaro bog‘liqligi va uyg‘unligiga asoslanishi lozim. Mazkur tamoyil ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalari o‘rtasida uzviy aloqani ta’minlaydi.

2. Uzluksizlik va izchillik tamoyili.

Ta’lim jarayonini boshqarish uzluksiz monitoring va tahlil asosida amalga oshirilishi zarur. Bu esa ta’lim sifatini barqaror rivojlantirish imkonini beradi.

3. Shaffoflik va ochiqlik tamoyili.

Boshqaruv jarayonida qarorlar qabul qilish, baholash va monitoring natijalarining ochiq bo‘lishi ta’lim jarayonining ishonchliligini oshiradi.

4. Refleksivlik tamoyili.


Pedagog va talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, xatolarni aniqlashi va tuzatishi ta’lim jarayonini boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

5. Natijaga yo‘naltirilganlik tamoyili.

Ta’lim jarayonini boshqarish aniq kutilayotgan natijalarga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bu kompetensiyaviy yondashuv bilan chambarchas bog‘liq.

6. Raqamli boshqaruv tamoyili.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini boshqarishni samarali va tezkor qiladi.



1-sxema. Ta’lim jarayonini boshqarishning konseptual modeli

Ta’lim samaradorligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlar yuqoridagi tamoyillar asosida boshqarilgan ta’lim jarayonibilan bog‘liqdir:

-talabalar faolligini oshiradi;

-ta’lim sifatini barqaror ta’minlaydi;

-talabalarda mustaqil va tadqiqotga yo‘naltirilgan fikrlashni shakllantiradi;

-pedagogik jarayonni innovatsion rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur model oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini boshqarishning tizimli va bosqichma-bosqich mexanizmini ifodalaydi. Model ta’lim jarayonini rejalashtirishdan tortib, yakuniy natijalargacha bo‘lgan jarayonni yagona boshqaruv tizimi sifatida ko‘rsatadi.

Modelning birinchi bosqichi – ta’lim standartlari bo‘lib, u davlat ta’lim standartlari, kasbiy kompetensiyalar modeli va ijtimoiy buyurtmalar bilan belgilanadi. Ushbu bosqich ta’lim jarayonining normativ-huquqiy va konseptual asosini tashkil etadi hamda ta’lim maqsadlari va kutilayotgan natijalarni aniqlab beradi.

Ikkinchi bosqich – boshqaruv tamoyillari bo‘lib, bunda tizimlilik, uzluksizlik, natijaga yo‘naltirilganlik va raqamli boshqaruv tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur tamoyillar ta’lim jarayonini tashkil etish va muvofiqlashtirishda asosiy yo‘naltiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich – pedagogik mexanizmlar orqali boshqaruv tamoyillari amaliyotga joriy etiladi. Bular rejalashtiruvchi, analitik va refleksiv mexanizmlar bo‘lib, ta’lim jarayonini monitoring qilish, tahlil etish va doimiy takomillashtirish imkonini beradi.

To‘rtinchi bosqich – ta’lim jarayoni bo‘lib, u faol o‘quv faoliyati, ilmiy izlanishlar, loyihaviy ishlar va innovatsion metodlar asosida tashkil etiladi. Ushbu bosqichda talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarni faol egallaydi.

Yakuniy bosqich – ta’lim natijalari bo‘lib, kasbiy va umumiy kompetensiyalar shakllanishi, yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash bilan ifodalanadi. Shu tariqa, model ta’lim jarayonini boshqarish orqali sifatli ta’lim natijalariga erishishning konseptual asosini belgilaydi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida ta’lim jarayonini boshqarish tamoyillarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi pedagogik ahamiyati nazariy va ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinib, ularning amaliy ta’lim jarayoniga ta’siri tizimli ravishda umumlashtirildi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim jarayonini boshqarish tamoyillari faqat tashkiliy-boshqaruviy mexanizm sifatida emas, balki ta’lim sifatini belgilovchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi [5].

Birinchidan, ***maqsadga yo‘naltirilganlik va rejalilik tamoyili*** asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quv maqsadlari, kutilayotgan natijalar va baholash mezonlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik shakllanishi aniqlandi. Bu holat ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini ongli rejalashtirishiga, o‘zlashtirish darajasini oshirishga va o‘qituvchining didaktik faoliyatini tizimli olib borishiga xizmat qilishi bilan ifodalanadi. Natijada ta’lim jarayonining fragmentarligi kamayib, o‘quv natijalarining barqarorligi ta’minlanadi.

Ikkinchidan, ***tizimlilik va uzluksizlik tamoyillari*** asosida boshqarilgan ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya, nazariya va amaliyot uyg‘unligi hamda modul yoki bosqichlar kesimida o‘quv mazmunining mantiqiy ketma-ketligi kuchayishi kuzatildi. Ushbu holat talabalarda bilimlarning chuqurroq o‘zlashtirilishi, kompetensiyalarning bosqichma-bosqich shakllanishi va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ***ilmiylik va dalillarga asoslangan boshqaruv tamoyili*** ta’lim jarayonida qabul qilinayotgan pedagogik qarorlarning subyektiv yondashuvdan xoli bo‘lishiga xizmat qilishi aniqlandi. Baholash natijalari, monitoring ma’lumotlari va tahliliy ko‘rsatkichlarga tayanilgan boshqaruv o‘qitish metodlarini optimallashtirish, o‘quv yuklamasini muvozanatlashtirish va ta’lim sifati bilan bog‘liq muammolarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, ***qayta aloqa va refleksiv nazorat tamoyili*** asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida baholash faqat nazorat funksiyasini emas, balki rivojlantiruvchi va rag‘batlantiruvchi funksiyani ham bajarishi aniqlandi. Bu holat ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zini baholash, refleksiya va mas’uliyat hissini kuchaytirib, o‘quv jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Beshinchidan, ***moslashuvchanlik va ochiqlik tamoyillari*** ta’lim jarayonini boshqarishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan samarali foydalanish imkonini kengaytirishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan boshqaruv ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasini inobatga olish, shuningdek, ta’lim muhitida yuz berayotgan o‘zgarishlarga tezkor moslashish imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonini boshqarish tamoyillarining izchil va tizimli joriy etilishi ta’lim samaradorligini oshirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Ushbu tamoyillar asosida boshqarilgan ta’lim jarayoni o‘qitish sifati, ta’lim oluvchilarning o‘quv motivatsiyasi, kompetensiyalarni shakllantirish darajasi hamda ta’lim natijalarining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, ta’lim muassasalarida boshqaruv faoliyatini pedagogik tamoyillar asosida takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonini boshqarish tamoyillari oliy ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim pedagogik omil hisoblanadi. Tizimlilik, uzluksizlik, shaffoflik, refleksivlik va natijaga yo‘naltirilganlik tamoyillarining uyg‘unligi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada yoritilgan ilmiy xulosalar oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, ta’lim jarayonini boshqarish tamoyillariga asoslangan pedagogik yondashuv oliy ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tizimli va refleksiv boshqaruv modeli ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. Ta’limda boshqaruv va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 184 b.

2. Ochilov M.O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 176 b.

3. Jo‘rayev R.X. Ta’lim menejmenti va ta’lim sifatini boshqarish asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 220 b.

4. Xodjayev B.X. Ta’lim jarayonini loyihalash va boshqarish. – Toshkent: Fan, 2015. – 198 b.

5. Saidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va ta’lim jarayonini boshqarish. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 160 b.

6. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim metodikasi va boshqaruv masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 240 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.013.2

KOMMUNIKATIV YONDASHUVGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY O‘QUV QO‘LLANMALAR ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH



Shoyqulova Dilbar Dilshod qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika institute, “Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)” 2-kurs magistranti

DEVELOPMENT OF SPEECH ACTIVITY OF PRIMARY STUDENTS THROUGH MODERN TEACHING MANUALS BASED ON A COMMUNICATIVE APPROACH

Shoykulova Dilbar Dilshod kizi,
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
“Theory and Methodology of Education (Primary Education)”
2nd year master's student

РАЗВИТИЕ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ С ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ УЧЕБНЫХ ПОСОБИЙ НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА

Шойкулова Дилбар Дилшод кизи,
Шахрисабзский государственный педагогический институт, Студентка 2-го курса магистратуры «Теория и методология образования (начальное образование)»

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biz kommunikativ yondashuvga asoslangan zamonaviy o‘quv qo‘llanmalari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faolligini rivojlantirish masalalarini tahlil qildik. Tadqiqotda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari, uning boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini yoritib berdik.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ yondashuv, nutqiy faollik, boshlang‘ich ta’lim, o‘quv qo‘llanma, interfaol metodlar.*

Abstract: *In this article, we analyzed the issues of developing the speech activity of primary school students through modern teaching aids based on the communicative approach. In the study, we highlighted the theoretical foundations of the communicative approach, its role and importance in the primary education process.*

Key words: *communicative approach, speech activity, primary education, teaching materials, interactive methods.*

Аннотация: *В данной статье мы проанализировали вопросы развития речевой деятельности учащихся начальной школы с помощью современных учебных пособий, основанных на коммуникативном подходе. В исследовании были освещены теоретические основы коммуникативного подхода, его роль и значение в процессе начального образования.*

Ключевые слова: *коммуникативный подход, речевая активность, начальное образование, учебное пособие, интерактивные методы.*

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida tubdan isloh etib yangilanmoqda. Raqamli texnologiyalar, globallashuv jarayonlari hamda ijtimoiy ehtiyojlarning o‘zgarishi maktab ta’limidan nafaqat bilim berishni, balki shaxsni har tomonlama shakllantirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs rivojlanishining poydevori bo‘lib, aynan shu davrda o‘quvchilarda muloqot madaniyati, nutqiy kompetensiya, mustaqil fikrlash hamda ijodiy faollik shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faolligini rivojlantirish bugungi pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

An’anaviy ta’lim tizimida o‘quvchi ko‘pincha tayyor bilimni qabul qiluvchi sifatida qaraladigan bo‘lsa, zamonaviy ta’lim yondashuvlari esa uni faol subyekt sifatida ko‘radi. Bu esa o‘qitish jarayonida yondashuvlarning o‘zgarishini talab qilmoqda. Shulardan biri bu — kommunikativ yondashuv bo‘lib, u ta’lim jarayonini real muloqotga yaqinlashtirish hamda o‘quvchini fikrini erkin ifodalashga undash va tilni amaliy faoliyat jarayonida o‘zlashtirishga yo‘naltirilganligi bilan alohida ajralib turadi. Kommunikativ yondashuv o‘quvchini faqat grammatik qoidalarni biluvchi emas, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oluvchi shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad etadi.[1; 112]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faolligini rivojlantirish masalasi pedagogika hamda metodika fanlarida muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng yoritilgandir. Hymes (1972) kommunikativ kompetensiya tushunchasini fanga kiritgan bo‘lib, tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy muloqot vositasi sifatida ham talqin qilgan. Canale hamda Swain (1980) esa kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlab, uni ta’lim jarayonida rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatib bergan.[2; 134]

O‘zbekiston olimlaridan Yo‘ldoshev hamda Usmonov (2013) interfaol ta’lim metodlarining ta’lim sifatiga ta’sirini tahlil etgan bo‘lsalar, G‘ulomov hamda Yoqubov (2016) o‘zbek tili o‘qitish metodikasida kommunikativ yondashuv elementlarining ahamiyatini asoslab berganlar. Qodirova (2018) adabiy ta’limda dialogik metodlarning o‘quvchi tafakkurini rivojlantirishdagi rolini ko‘rsatib o‘tgan.[3; 57]

Boshlang‘ich ta’limda nutqni rivojlantirish masalalarini Abdullaeva (2019) tomonidan o‘rganilib, unda o‘quv qo‘llanmalarning interfaol tuzilmasi o‘quvchi faolligini oshirishi isbotlab bergan. Shuningdek, Nurmonov (2018) zamonaviy tilshunoslik yondashuvlarining ta’lim bilan integratsiyasi zarurligini ta’kidlab o‘tgan. Ushbu tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ yondashuv hamda zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarining uyg‘unligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faolligini rivojlantirishda muhim omillarda biri hisoblanadi.[4; 52]

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, diagnostik testlar, taqqoslash va statistik tahlil. Kuzatuv orqali dars jarayonida o‘quvchilarning ishtirok darajasi, savol-javobdagi faolligi hamda nutqiy tashabbusi baholandi. So‘rovnoma yordamida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabati hamda qiziqishi aniqlashtirilib berildi.

Eksperimental guruhda kommunikativ yondashuvga asoslangan o‘quv qo‘llanmalari joriy etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy metodlardan foydalanildi. Dastlabki hamda yakuniy diagnostika natijalari solishtirilib, nutqiy faollikdagi o‘zgarishlar tahlil etildi. Natijalar foiz ko‘rsatkichlari asosida umumlashtirilib, samaradorlik darajasi aniqlab berildi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalarida kommunikativ yondashuvga asoslangan zamonaviy o‘quv qo‘llanmalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faolligini rivojlantirishda sezilarli samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatib berildi. Biz olgan natijalar nafaqat miqdoriy o‘zgarishlar bilan, balki sifat jihatidan ham muhim o‘zgarishlar mavjudligini tasdiqlaydi. O‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi oshgani, muloqotga kirishishdagi ishonchi kuchaygani va fikrni izchil ifodalash ko‘nikmasi shakllangani kuzatildi.

Qolaversa, kommunikativ yondashuvning asosiy ustunligi shundaki, u tilni real muloqot vositasitalarida biri sifatida o‘rganishga yo‘naltiradi. Bu natijalar esa Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya tushunchasiga mos kelmoqda. O‘quvchilar grammatik qoidalarni yodlash bilan cheklanib qolmasdan, ularni muloqot jarayonida faol

qo‘llashni ham o‘rgandi. Bu esa tilni funksional jihatdan o‘zlashtirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot jarayoni shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy o‘quv qo‘llanmalari tarkibidagi interfaol topshiriqlarda — rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, dialoglar hamda guruhli ishlash shakllari — o‘quvchilarni muloqotga undovchi asosiy omil bo‘lmoqda. Bu natija Bonwell hamda Eison tomonidan ta’kidlangan faol o‘rganish tamoyillariga mos kelmoqda. O‘quvchilar o‘z fikrining muhimligini his qila boshladi, bu esa ichki motivatsiyani shakllantiradi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida biz kommunikativ yondashuvga asoslangan zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faolligiga ta’siri tajriba-sinov asosida o‘rgandik. Tadqiqotda ikki guruh — eksperimental hamda nazorat sinflari ishtirok etdilar. Har ikkala guruhda ham dastlabki bosqichda o‘quvchilarning nutqiy faollik darajasi maxsus ishlab chiqilgan diagnostik mezonlar asosida baholab borildi. Bu mezonga o‘quvchilarning og‘zaki nutqda ishtirok etish chastotalari, mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalari, savollarga javob berishdagi faolligi va muloqotda tashabbus ko‘rsatish darajalari kiritildi.

Dastlabki natijalardan shu ko‘rinadiki, har ikkala guruhda ham o‘quvchilarning nutqiy faolligi o‘rtacha darajada bo‘lib, ko‘pchilik o‘quvchilar dars jarayonida faqat o‘qituvchi tomonidan berilgan savollargagina javob berish bilan cheklanib qolardi.

Eksperimental guruhda esa kommunikativ yondashuvga asoslangan o‘quv qo‘llanmalari joriy etilgach, dars jarayonining tuzilishi sezilarli darajada o‘zgargani kuzatildi. Har bir o‘quvchi muloqot jarayoniga jalb qilib borildi, o‘quvchilarni o‘z fikrini erkin ifodalashga rag‘batlantirildi. Natijada o‘quvchilar nutqiy faoliyatlari faqat majburiyat sifatidagina emas, balki qiziqarli jarayon sifatida qabul qilina boshlandi.

Oraliq kuzatuv natijalarida esa eksperimental guruhda o‘quvchilarning og‘zaki nutqda ishtirok etish chastotasi oshganini ko‘rsatdi. O‘quvchilar savollarga qisqa javob berish bilan cheklanib qolmasdan, sabablarni tushuntirishga va misollar keltirishga intila boshladi. Guruhli bo‘lib ishlashda esa o‘quvchilar bir-birining fikrini tinglash, munosabat bildirish hamda kelishilgan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egalladi. Bu orqali esa nutqiy faollik bilan bir qatorda kommunikativ madaniyatlarini ham rivojlantirdi.

Yakuniy bosqichdagi diagnostika natijalari eksperimental guruhda yuqori darajadagi nutqiy faollik ko‘rsatkichlari sezilarli oshganini kuzatildi. O‘quvchilarning aksariyati muloqotda tashabbus ko‘rsatishga hamda savollar berishga va bahsda ishtirok etishga tayyor bo‘lib qoldilar. Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar sezilarli bo‘lmasdan, nutqiy faollik ko‘rsatkichlari asosan o‘rtacha darajada saqlanib qolgani kuzatildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faolligini rivojlantirishda kommunikativ yondashuvga asoslangan zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Ushbu yondashuv bilan o‘quvchini faqat bilim oluvchi sifatida emas, balki dars jarayonlarida faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhda o‘quvchilarning og‘zaki nutqda ishtirok etish chastotasi oshganini, mustaqil fikr bildirish hamda savollarga javob berish ko‘nikmalari rivojlanganini, shuningdek, guruhli ishlarda ham faollik sezilarli darajada kuchayganini.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘quv qo‘llanmalarining vizual hamda interfaol tuzilmasi ham muhim rol o‘ynadi. Rangli tasvirlar, sxemalar, dialog namunalar hamda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirdi. Bu bilan esa darslarga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirib, o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyojni uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2013. — 112–118-B

2. G‘ulomov A., Yoqubov M. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. -T.: O‘qituvchi, 2016. C— 134

3. Qodirova D. O‘zbek adabiyotini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. — Toshkent: Ma’naviyat, 2018. — 57

4. Abdullaeva M. Interfaol ta’lim metodlari va ularning samaradorligi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 45–52-betlar.

5. Mahmudov N. O‘zbek tilining kognitiv asoslari. — Toshkent: Fan, 2015. —62-betlar.

6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2013. — 78–85-betlar.

7. Nurmonov A. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi. — Toshkent: Akademnashr, 2018. — 101–108-betlar.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.013.2

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA CHET TILINI O'RGATISH METODLARI

Raxmonqulova Dilshoda Murodqo'ziyevna, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo'shinlar instituti, "Tillar" kafedrasi mudiri p.f.f.d (PhD), dotsent



FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Rakhmonqulova Dilshoda Murodqozievna, Head of the Department of Languages, Institute of Ground Forces, University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Рахмонкулова Дилшода Муродкозиевна, Заведующая кафедрой языков, Институт сухопутных войск, Университет военной безопасности и обороны Республики Узбекистан, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining chet tillarini o'qitish jarayoniga integratsiyasi yoritiladi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim, adaptiv mashqlar va avtomatlashtirilgan baholash orqali o'quvchilarning til kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, chet tili ta'limi, adaptiv o'qitish, raqamli ta'lim, individual yondashuv.*

Abstract: *The article explores methods of foreign language teaching based on artificial intelligence. It analyzes the potential of personalized learning, adaptive practice, and automated assessment to enhance the effectiveness of developing learners' language competence in digital educational environments.*

Key words: *artificial intelligence, foreign language teaching, adaptive learning, digital education, personalization.*

Аннотация: *В статье рассматриваются методы обучения иностранным языкам на основе искусственного интеллекта. Анализируются возможности персонализированного обучения, адаптивных упражнений и автоматизированной оценки, способствующие повышению эффективности формирования языковой компетенции обучающихся.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, обучение иностранным языкам, адаптивное обучение, цифровое образование, персонализация.*

KIRISH. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun'iy intellekt (SI) asosidagi yechimlarning joriy etilishi o'qitish jarayonini avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish va optimallashtirish imkonini bermoqda. Bu jarayon ayniqsa chet tillarini o'qitish sohasida yaqqol namoyon bo'lib, an'anaviy metodlar bilan erishish qiyin bo'lgan natijalarga yo'l ochmoqda. Bugungi kunda chet tilini o'rganish nafaqat akademik zarurat, balki kasbiy raqobatbardoshlik, xalqaro muloqot va global integratsiyaning muhim omiliga aylangan.

An'anaviy chet tili o'qitish metodlari ko'pincha barcha o'quvchilarga bir xil yondashuvni qo'llaydi, bu esa individual ehtiyojlar, tayyorgarlik darajasi va o'rganish tezligini hisobga olish imkonini cheklaydi. Natijada ba'zi o'quvchilar materialni oson o'zlashtirsa, boshqalari ortda qolib ketadi. Aynan shu muammoni hal etishda sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim tizimlari muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday tizimlar

o‘quvchilarning faoliyatini doimiy tahlil qilib, ularning bilim darajasiga mos mashqlarni taklif etadi va o‘qitish jarayonini moslashtiradi.[4; 33]

Sun’iy intellekt texnologiyalari, jumladan, mashinali o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va nutqni aniqlash tizimlari chet tillarini o‘rgatishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, avtomatik tarjima, talaffuzni baholash, interaktiv suhbatdosh dasturlar va virtual repetitorlar o‘quvchilarga real muloqot muhiti yaratishga yordam beradi. Bu esa ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sun’iy intellekt o‘qituvchilarga baholash jarayonini soddalashtirish, xatolarni aniqlash va o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — sun’iy intellekt asosida chet tilini o‘rgatish metodlarining nazariy asoslarini yoritish, ularning afzallik va cheklovlarini tahlil qilish hamda ta’lim jarayoniga joriy etish imkoniyatlarini ko‘rsatib berishdir. Shuningdek, maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil o‘rganish qobiliyati va til kompetensiyasiga ta’siri ham muhokama qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Sun’iy intellektning ta’lim tizimiga joriy etilishi so‘nggi o‘n yillikda xalqaro ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Xususan, chet tillarini o‘qitishda sun’iy intellektdan foydalanish masalasi pedagogika, lingvodidaktika va axborot texnologiyalari chorrahasida o‘rganilmoqda.

Holmes, Bialik va Fadel (2019) o‘zlarining “Artificial Intelligence in Education” asarida sun’iy intellekt ta’limni shaxsiylashtirish, adaptiv o‘rganish yo‘llarini yaratish va baholash jarayonini avtomatlashtirish imkonini berishini asoslab beradi. Mualliflarning ta’kidlashicha, sun’iy intellekt o‘quvchining xatolarini real vaqt rejimida tahlil qilib, individual o‘rganish trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv ayniqsa chet tilini o‘rganishda samarali bo‘lib, har bir o‘quvchining til darajasi va ehtiyojiga mos mashqlarni taklif etish imkonini yaratadi.[3; 45]

O‘zbekistonlik olimlar orasida ham raqamli va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim masalalari tobora ko‘proq o‘rganilmoqda. Masalan, Jo‘rayev (2021) raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogik samaradorlikni oshirish yo‘llarini tahlil qilib, sun’iy intellekt o‘quv jarayonini individuallashtirishda muhim vosita bo‘lishini ta’kidlaydi. Shuningdek, Raxmonov (2022) masofaviy va raqamli ta’limda sun’iy intellekt monitoring va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali o‘qituvchi yuklamasini kamaytirishini ko‘rsatadi. [4; 39]

Tadqiqotda sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg‘unligi asosida kompleks metodologiya qo‘llanildi. Avvalo, mavzuga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar va normativ hujjatlar tahlil qilinib, sun’iy intellekt asosida chet tillarini o‘rgatishning nazariy asoslari tizimlashtirildi. Bu bosqichda kontent-tahlil usulidan foydalanilib, asosiy tushunchalar, yondashuvlar va tendensiyalar aniqlab olindi.

Keyingi bosqichda empirik ma’lumotlar yig‘ish maqsadida so‘rovnoma va yarim strukturaviy intervyu usullari qo‘llanildi. So‘rovnomalar chet tili o‘qituvchilari va talabalar o‘rtasida o‘tkazilib, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish darajasi, ularga munosabat va kutilayotgan natijalar o‘rganildi. Intervyular esa o‘qituvchilarning tajribasi va muammolarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

MUHOKAMA

Sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan chet tili o‘qitish jarayoni an’anaviy metodlarga nisbatan bir qator ustunliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Avvalo, adaptiv o‘qitish tizimlari har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va xatolar profilini hisobga olib, individual mashg‘ulotlar taklif etadi. Bu esa o‘quvchilarning ortda qolishini kamaytirib, kuchli o‘quvchilarning esa yanada tezroq rivojlanishiga imkon yaratadi. Natijada guruh ichidagi bilim tafovuti qisqaradi va umumiy ta’lim sifati oshadi.

Sun’iy intellekt asosidagi suhbatdosh dasturlar (chatbotlar) o‘quvchilarning nutq faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy darslarda barcha o‘quvchilarga teng muloqot vaqti ajratish imkoni bo‘lmagan holatlarda, virtual suhbatdoshlar har bir o‘quvchiga individual mashq qilish imkonini beradi. Bu ayniqsa introvert yoki xato qilishdan qo‘rqadigan o‘quvchilar uchun qulay muhit yaratadi va ularning muloqotga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Shu bois, muhokama qilinayotgan natijalar asosida sun’iy intellekt asosida chet tili o‘qitish metodlarini joriy etishda bosqichma-bosqichlik,

pedagogik maqsadga muvofiqlik va etik me’yorlarga rioya qilish muhim degan xulosaga kelish mumkin. Faqat texnologik yangilik emas, balki pedagogik qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan sun’iy intellektgina barqaror va samarali ta’lim natijalarini ta’minlay oladi.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasida sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan chet tili o‘qitish jarayoni bir nechta pedagogik, texnologik va psixologik mezonlar asosida tahlil qilindi. Asosiy e’tibor o‘quvchilarning til kompetensiyasi rivoji, motivatsiya darajasi, mustaqil o‘rganish faolligi va o‘qituvchining pedagogik yuklamasi kabi ko‘rsatkichlarga qaratildi. Olingan natijalar sun’iy intellekt texnologiyalarining mazkur mezonlarga ta’sirini kompleks baholash imkonini berdi.

Birinchidan, til kompetensiyasining rivojlanishi tahlil qilinganda, sun’iy intellekt asosidagi adaptiv mashg‘ulotlardan foydalangan guruhda leksik va grammatik ko‘nikmalar tezroq shakllangani kuzatildi. Adaptiv algoritmlar o‘quvchining xatolarini aniqlab, aynan shu zaif nuqtalarga yo‘naltirilgan mashqlarni taklif qilgani sababli o‘zlashtirish jarayoni individuallashtirildi. Natijada o‘quvchilar bir xil hajmdagi materialni qisqaroq vaqt ichida va kamroq takrorlash bilan egallashga erishdilar.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning motivatsiyasi tahlil qilinib, sun’iy intellekt asosidagi interaktiv platformalar o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirishi aniqlandi. Gamifikatsiya elementlari, darhol beriladigan fikr-mulohaza va shaxsiy natijalarni ko‘rish imkoniyati o‘quvchilarning faolligini oshirdi. Ayniqsa, past motivatsiyaga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun bu omillar o‘rganish jarayonini kamroq stressli va ko‘proq qiziqarli qilgani qayd etildi.

Uchinchidan, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarining shakllanishi ijobiy baholandi. Sun’iy intellekt tizimlari o‘quvchilarga qaysi mavzuda xato qilayotganini ko‘rsatib, mustaqil ravishda shu yo‘nalishda ishlashga undadi. Bu esa o‘quvchilarda refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Natijada o‘quv jarayonida o‘qituvchiga bo‘lgan mutlaq bog‘liqlik qisman kamaydi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot sun’iy intellekt asosida chet tillarini o‘rgatish metodlarining pedagogik imkoniyatlari va cheklovlarini kompleks tahlil qilishga qaratildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini yanada moslashuvchan, shaxsiylashtirilgan va samarali qilish imkonini beradi. Ayniqsa, adaptiv o‘qitish tizimlari o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, bilim darajasi va o‘zlashtirish tezligini hisobga olgan holda ta’lim mazmunini moslashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosida chet tilini o‘rgatish metodlari zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ular ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish va o‘qituvchining ishini samaraliroq tashkil etish imkonini beradi. Biroq bu jarayon faqat texnologik yangilik sifatida emas, balki pedagogik qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan, inson markazli yondashuv asosida amalga oshirilgan taqdirdagina barqaror va ijobiy natijalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson Education, London. 2023— 27–58-betlar.

2. Chapelle, C. A. Teaching Culture in Introduction to Language Learning. Cambridge University Press, Cambridge. 2020. B— 61–89-betlar.

3. Jo‘rayev, B. A. Raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogik samaradorlikni oshirish yo‘llari. Pedagogika jurnali, 3(2). 2022. C— 45

4. Raxmonov, A. S. Masofaviy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. Ta’lim va innovatsiyalar, 1(4).2023. — 33–39-betlar.

5. Kormos, J., & Michel, M. The role of task complexity and interaction in second language development. The Modern Language Journal, 98(1). 2021. C— 35–54

6. Dede, C. The role of digital technologies in deeper learning. Educational Technology, 54(5). 2024— 19–24-betlar.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 677(575.1):94"18/19"

XVIII-XIX ASR 70-YILLARIDA FARG‘ONA VODIYSIDA TO‘QIMACHALIK TARAQQIYOTI

Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich, University of Business and Science o‘qituvchisi

DEVELOPMENT OF TEXTILE PRODUCTION IN THE FERGANA VALLEY IN THE 18th AND THE 70s OF THE 19th CENTURY

Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich, assistant teacher at University of Business and Science



https://orcid.org/0009-0005-5043-7387

e-mail: ulugbekiuldashev08@gmail.com

РАЗВИТИЕ ТЕКСТИЛЬНОГО ПРОИЗВОДСТВА В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В XVIII–70-Е ГОДЫ XIX ВЕКОВ

Юлдашев Улугбек Кадиржанович, преподаватель Университета бизнеса и науки

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysi shaharlarida XVIII – XIX asrning 70-yillarida hunarmandchilikning eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan to‘qimachilik sohasining rivojlanishi bilan bog‘liq jarayonlar yoritilgan. Tadqiqotda, vodiydagi shaharlarning ushbu sohada tutgan o‘rni, matolarning sifati, ushbu mahsulotlarning savdodagi o‘rni va boshqa masalalar tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, to‘qimachilik, ipakchilik, bo‘z, chitgarlik, atlas, naqshlar, kashtachilik, bo‘yoqchilik.*

Abstract: *This article covers the processes related to the development of the textile industry, one of the most important branches of handicrafts, in the cities of the Fergana Valley in the 18th - 19th centuries. The study analyzes the role of the cities of the valley in this industry, the quality of fabrics, the place of these products in trade, and other issues.*

Key words: *Fergana Valley, textile, silk, grey fabric, calico printing craft, atlas, patterns, embroidery, dyeing*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются процессы, связанные с развитием текстильной промышленности, одной из важнейших отраслей ремесел, в городах Ферганской долины в XVIII-XIX веках. В исследовании анализируется роль городов долины в этой отрасли, качество тканей, место этих изделий в торговле и другие вопросы.*

Ключевые слова: *Ферганская долина, текстиль, шелк, шелкопряд, атлас, узоры, вышивка, окрашивание.*

Kirish. XVIII-XIX asr 70-yillarida Farg‘ona vodiysi shaharlarida turli hunarmandchilik sohalaridan ayrimlari taraqqiy etgan, boshqalari esa o‘z boshidan inqirozli bosqichlarni kechirayotgan yirik markazlar edi. Ularda turli hunar sohiblari yashab, o‘z mehnatlari bilan shahar iqtisodiy hayotining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shganlar. Hunarmandlar did bilan, o‘z mamlakatining talab va an’analaridan kelib chiqqan holda o‘zlarining betakror mahsulotlarini yaratganlar.

Darhaqiqat, bu qadim o‘lkada turli hunarmandchilik sohalari keng rivojlangan edi. Shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalari har xil darajada rivoj topgan edi. Ayrim shaharlarda biror-bir hunarmandchilik sohasining ancha rivojlanganligi ko‘zga tashlansa, boshqa birida esa o‘zga sohaning rivoji ko‘zga tashlanadi.

Shaharlar hunarmandchiligini atroflicha tahlil etish ularga xos bir qator umumiy holatlar va yakka xususiyatlarni ajratib olishga, ular taraqqiyotining mohiyatini to‘gri anglashga katta yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Farg‘ona vodiysi shaharlarida hunarmandchilik,

xususan, to‘qimachilik sohasining taraqqiyotini o‘rganish XIX asrda rus tadqiqotchilari tomonidan keng miqyosda o‘rganilgan. Ular tomonidan aynan ushbu hunarmandchilik tarmog‘i alohida tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, o‘z izlanishlarining bir qismi sifatida yoritilgan. Masalan, Aleksandr Kun (1876) o‘zining Qo‘qon xonligi ocherklarida xonlikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar qatorida to‘qimachilik mahsulotlarini ham sanab o‘tadi. Farg‘ona vodiysi bo‘ylab sayohat qilgan Filipp Nazarov (1821) o‘z tadqiqotida shaharlarning to‘qimachilik sohalariga ixtisoslashuvi haqida ma’lumot beradi. Boshqa bir rus tadqiqotchisining keyinchalik nashr etilgan sayohat kundaligida ham vodiy shaharlarida ishlab chiqarilgan matolar haqida ma’lumot beriladi (Meyendorf, 1975).

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixchilari ham Qo‘qon xonligi davridagi vodiy shaharlari taraqqiyoti, ulardagi hunarmandchilik sohalari, shu jumladan, to‘qimachilik rivojiga e’tibor qaratgan (Agzamova, 2000; Agzamova, 2013; Madrahimov, 2014; Kuzikulov, 2014). Qo‘qon xonligidagi savdo munosabatlari tarixini o‘rgangan Madrahimov (2014) Farg‘ona vodiysi shaharlarining o‘zaro va xalqaro savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan to‘qimachilik mahsulotlarini o‘z monografiyasida tilga olgan.

Ushbu mavzuni o‘rganishda, avvalo, o‘sha davrda vodiy shaharlari holatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan sayyohlar manbalariga tayanilgan bo‘lsa, mustaqillik davri tarixchilarining ilmiy tadqiqotlaridagi natijalar ham e’tibordan chetda qolmadi. Mavzuni yoritishda ilmiy xolislik, qiyosiy tahlil va fanlararo yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Muhokama. To‘qimachilik hunarmandchilikning eng rivojlangan asosiy sohalaridan biri edi. Shahar to‘quvchilari ishlab chiqargan mahsulotlarga boshqa shaharlar, mamlakatlar, dasht ahli orasida ham talab katta bo‘lgan. To‘qimachilikning bo‘z, olacha, chit kabi turlari hunarmandchilikning asosiy mahsulotlari bo‘lgan [1:34]. Bu davrda hunarmandchilik taraqqiy etishi bu sohada ishlab chiqarishning qisman sanoat darajasiga chiqa boshlaganini ko‘rsatadi. To‘qimachilik shaharlar hayotida iqtisodiyotning bir bo‘lagi sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, xalqaro savdoga tortilish uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan. Aynan, XVIII-XIX asrlardan boshlab to‘qimachilik nafaqat ichki bozorni ta’minlash, balki tashqi savdo uchun ham yo‘naltirila borgan. Rossiya imperiyasi davri tadqiqotlarida Farg‘ona vodiysi shaharlarida to‘qimachilik muhim hunarmandchilik tarmog‘i bo‘lgani, shuningdek, tashqi savdodagi asosiy mahsulotlardan bo‘lgani qayd etiladi. Misol uchun, Qo‘qon xonligi shaharlarida “bo‘z (karbas)” ko‘plab miqdorda to‘qilgan. Rus tarixchisi A. Kun Toshkentga olib borilgan xonlikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar qatorida bo‘zni ham tilga oladi [2:10]. Bu o‘sha davrda Rossiya imperiyasiga qarashli bo‘lgan Toshkent bilan savdoda xonlikda ishlab chiqarilgan matolar o‘ziga xos o‘rin tutganidan dalolat beradi.

1813-1814-yillarda vodiy shaharlari bo‘ylab sayohat qilgan Filipp Nazarov esa, “Qo‘qon atrofida paxtachilik va ipakchilik rivojlangan, hunarmandlar dehqonlarga nisbatan ko‘proq va erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham mehnat qiladi. Qo‘qon hunarmandlari tayyorlagan to‘qimachilik va ipak mahsulotlari boshqa hududlardagi xuddi shunday turdagi mollardan ustun”, - deb ta’riflagan [3:74-76]. Ushbu ma’lumotlar, ishlab chiqarishda ayollarning ham ishtirok eta boshlashi to‘qimachilikning taraqqiyotida va hunarmandchilikning sanoat darajasi tomon qadam tashlashida muhim ahamiyat kasb etgan.

Sovet davridagi tadqiqotlarda xonliklar davridagi hunarmandchilik “qoloq” soha bo‘lganini qayd etishga urinishlar bo‘lgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida tadqiqotchilar shaharlardagi hunarmandchilik rivoji haqida nisbatan aniq xulosalar berganlar. Ularning tadqiqotlarida hunarmandchilik bozor munosabatlariga moslashgan tizim sifatida ko‘riladi. Masalan, tadqiqotchi Z. Madrahimov xonlikda Qo‘qon va Toshkent shaharlarida bo‘z to‘qish rivojlanganligi va sifati bo‘yicha taniqli bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi [4:23]. Demak, Qo‘qon shahri Farg‘ona vodiysidagi rivoj topgan bo‘z to‘qish markazi hisoblangan va poytaxt shahardagi ishlab chiqarish xonlikdagi bozor munosabatlari sharoitidan kelib chiqib rivojlangan. Bu davrda bu kabi yirik shaharlarda hunarmandchilik turlari rivojlanishi aholining soni ortishi natijasida vujudga kelgan talab bilan bog‘liq deyish mumkin. Shuningdek, Rossiya tomonidan Qo‘qon xonligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, xususan, paxta va ipakka talab ortishi xonlikda to‘qimachilik rivoji uchun muhim bo‘lgan ushbu xomashyo

mahsulotlarining ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Bundan tashqari, aynan ushbu yirik shaharlarda hunarmandchilik turlariga ixtisoslashgan guzar-mahallalar paydo bo‘lgan.

Natijalar. Farg‘ona vodiysi shaharlarida to‘qilgan mahsulotlar ichida olacha ajralib turgan. Chorvador qozoq va qirg‘izlar savdo qiladigan asosiy markazlar – Toshkent va Namangan shaharlarida bu matoni tayyorlash taraqqiy etgan. Qirg‘izlar Namangan bozorida bahosi taxminan bir rubl turadigan arzon va chidamli olacha matosining bir yaktak va bir ishton chiqadigan bo‘lagi uchun bir yarim yasharlik echki bergani hamda shunday matoning ikki bo‘lagiga esa yetilgan qo‘yni almashtirgani XIX asrning 70-yillariga oid manbalarda qayd etilgan. Filipp Nazarov Namangan shahrida “ip matolar fabrikalari” mavjud bo‘lganligini qayd etadi [5:50].

Ip gazlamalar ichida chit o‘ziga xos o‘rin tutgan. Bu matoni ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan hunarmandlar chitgarlar deb atalgan. Ular bo‘zga turli ranglardagi gullarni tushirganlar. Qoliplar yordamida bo‘zga gul bosish ancha murakkab bo‘lib, bu ish jarayoni hunarmanddan katta mahorat talab etgan.

XIX asrning birinchi yarmida chitga talabning ortishi natijasida yarim tayyor mahsulot – bo‘z chitgarlik keng rivojlangan markazlarga boshqa shaharlardan ham savdogarlar tomonidan buyurtma asosida keltirilgan. Bu holat shaharlar o‘rtasida hunarmandchilik sohasida o‘ziga xos mehnat taqsimoti mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi [6:89]. Buni XIX asrga oid manbadan isbotini ko‘rish mumkin: “Qo‘qonlik savdogarlar Buxoroga bo‘yash uchun oq mato keltiradilar” [7:130]. Demak, Qo‘qonda tayyorlangan bo‘z Buxoroga, asosan, chit tayyorlash uchun olib borilgan. Qo‘qon bo‘zi ba’zida Buxorodan tashqari Toshkentga ham chit tayyorlash uchun olib borilgan. Qo‘qon va Qashqardan Toshkentga har yili katta miqdorda oq bo‘z keltirilib, chitgarlarga topshirilgani XIX asrga oid manbalarda qayd etilgan. Matolarni bo‘yashda chitgarlar buzg‘unj, tuhmak, safsar rang, mosh rang, ro‘yan kabi mahalliy bo‘yoqlardan unumli foydalanganlar [8:19]. Chitgar ustalar matoga gul solishda, asosan, islimiy naqshlardan, ya’ni turli xil gul, barg, bodom, anorlardan, shuningdek, oy, tumorchadan foydalanishgan, gajakli naqshlar ham ommabop bo‘lgan. Kompozitsiyaviy tuzilishiga qarab, dasturxon, choyshab, ko‘rpacha, ayollar liboslarida, chopon astarlarida turli naqshlar qo‘llanilgan. Hozirga qadar Farg‘ona vodiysida qora-qizil rangli chitgarlik hunarmandchiligi saqlanib qolgan.

Mato naqsh kompozitsiyalarida handasaviy, o‘simliksimon va buyumli tasvirlar – oval, butoq, daraxt, zargarlik buyumlarining uslubiy tasvirlari o‘rin olgan.

Qo‘qon xonligi aholisining asosiy mashg‘ulotlaridan yana biri ipakchilik bo‘lib, ipak va ipak matolar mamlakatning tashqi savdodagi asosiy mahsulotlaridan hisoblangan. XIX asr 60-yillari oxirlarida Qo‘qon va Marg‘ilonning o‘zida to‘qqiz yuzga yaqin xonadon ipakchilik bilan shug‘ullangan bo‘lib, har bir oilada 1-3 tadan to‘quv dastgohi mavjud edi. Oilaning bir necha a’zosi ipakchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan va har bir oila haftasiga ikki qadoqdan besh qadoqqacha ipak tayyorlagan. Z. Madrahimov “Туркестанский сборник”da berilgan maqolalarning birida Qo‘qon va Marg‘ilonda ishlab chiqarilgan ipakning yillik miqdori 5560 pudga teng bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumot berilganligini xabar beradi [4:24].

Fargona vodiysida tayyorlangan ipak ancha sifatli bo‘lib, ichki bozorlar xom ipak va ipak matolari bilan mashhur bo‘lgan. Vodiy hunarmandlari tomonidan tayyorlangan ipak sifatiga qarab “chilla”, “tafil”, “sarnoq” va boshqa turlarga bo‘lingan. Shuningdek, vodiyda ipak mahsuloti yigirilib, kalava ham tayyorlangan. Xonlikning eng yuqori sifatli kalavasi “namanganniki” hisoblangan.

Ipakdan ham turli matolar tayyorlangan. Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan va Xo‘jand hunarmandlari ipak matolar (kanoviz, shoyi, atlas va boshqalar), yarim ipak matolar (beqasam, banoras, adras) tayyorlaganlar. Farg‘ona vodiysining yirik bozorlaridan biri hisoblangan Marg‘ilonda ipak va ipak matolar savdosi yil davomida faol amalga oshirilgan. 1813-1814-yillarda Marg‘ilonda bo‘lgan Filipp Nazarov, “…shaharda tuli fabrikalar bor, ularda fors parchalari, baxmallar va turli Osiyo gazmollari tayyorlaydilar. Ularni Buxoro va Qashqarga sotadilar”, deb ma’lumot beradi [5:49].

Tadqiqotchi G.Agzamova ipak matolar ishlab chiqarish Farg‘ona vodiysi shaharlarida keng tarqalganligi to‘g‘risida ma’lumot berar ekan, Namangan, Marg‘ilon va Qo‘qon fabrikalarida ipak va yarim ipak gazlamalar ishlab chiqarilganligi ham ta’kidlab o‘tadi [6:90].

To‘quvchi-hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan ipak gazlamalardan biri shoyi-kanaus ko‘plab markazlarda tayyorlangan. Qo‘qon va Marg‘ilonda esa bu mato “atlas” yoki “jiba-arqoq” nomlari bilan mashhur edi. Rossiya imperiyasi tomonidan xonlik tugatilgan 1876-yilda poytaxtda 276 ta shoyi, 428 ta ip-gazlama to‘qish ustaxonasi, 232 ta yigiruv dastgohi va yiliga 3000 arshin atlas ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan ko‘plab ustaxonalar faoliyat ko‘rsatgan. Bundan tashqari, Xo‘jandda ishlab chiqarilgan “duriya” nomi bilan ataluvchi atlas turi Marg‘ilon hamda Qo‘qonda tayyorlangan atlaslardan sifat borasida qolishmagan va tashqi bozorlarda ham ancha mashhur edi [4:25]. Xonlik shaharlarida tayyorlangan matolar katta miqdorda Toshkent bozorlariga keltirilgan va bu mahsulotlar shu turdagi Toshkent to‘qimachilik mahsulotlari bilan raqobat qilgan.

Namangan, Qo‘qon va Marg‘ilonning to‘quvchilik ustaxonalarida adras va beqasam ham tayyorlangan. Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan ipak va paxta xomashyosi hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlar O‘rta Osiyoning ichki bozorlarida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan. Biroq bu mahsulotlar qo‘l mehnati asosida tayyorlangani va, aksariyat hollarda, ularning sifati talab darajasida emasligi tufayli XIX asr boshlaridan O‘rta Osiyo bozorlariga ingliz va rus mollarining kirib kelishi bilan raqobatbardoshlik qobiliyatini yo‘qotgan. Natijada Farg‘ona vodiysi ham O‘rta Osiyoning boshqa hududlaridagi kabi xomashyo yetishtirishga moslashib qolgan.

Shaharlarda kiyimlar tikish va matolar tayyorlash bilan bog‘liq soha sifatida kashtado‘zlik ham rivojlangan edi. Farg‘ona vodiysining kashtado‘zlik markazlarida do‘ppi, belbog‘, jiyak, mayda va katta kashtalar tikilgan hamda ular daraxt shoxlari, butoqlar va gulli doiralar bilan bezalgan. Farg‘ona chevarlari ko‘proq ro‘yjolar tikishgan bo‘lib, yirik kashta buyumlaridan gulko‘rpa va so‘zanalar kam uchraydi. Ro‘yjo bezagi, asosan, birin-ketin takrorlanadigan gulli butoqlar, ulardan unib chiqayotgan barglar kabi islimiy naqshlardan iborat. Gulko‘rpalar tarhiga gulli doiralar va shoh naqshlari sochib tashlagandek erkin tikilgan.

Bo‘yoqchilik Farg‘ona vodiysi shaharlaruda rivojlangan hunarmandchilik turlaridan biri edi. Bu soha to‘qimachilik va boshqa hunarmandchilik tarmoqlari bilan uzviy bog‘langan edi. Xonlikda bu hunar turi bo‘yicha Namangan yetakchilik qilgan. Shaharda ipakni bo‘yashda asosan norpus (qora anor) bo‘yog‘idan foydalanilgan bo‘lib, xonlikning turli hududlaridan bu yerga katta miqdorda ipakni bo‘yatish uchun olib kelganlar. Farg‘ona vodiysida O‘rta Osiyoning boshqa xonliklari kabi ro‘yan (marena) deb nomlangan butasimon o‘simlik ildizidan tabiiy qizil rangdagi bo‘yoq tayyorlangan va u bilan qizg‘in savdo amalga oshirilgan. Bu bo‘yoq turi ham xonlik hududida, asosan, Namanganda ishlab chiqarilgan [4:29-30].

Xulosa. Farg‘ona vodiysi shaharlarida XVIII asr - XIX asr 70-yillarida hunarmandchilikning to‘qimachilik tarmog‘ini o‘rganish bir qator xulosalar olish imkonini berdi. Bu davrda Farg‘ona vodiysi to‘qimachiligi mahalliy hunarmadchilikdan bozor uchun yo‘naltirilgan ishlab chiqarish bosqichiga o‘tdi. Paxta va ipakdan tayyorlangan matolar ichki va tashqi bozor uchun asosiy mahsulotlardan bo‘lgan. Farg‘ona vodiysining Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon va Namangan kabi shaharlari hunarmandchilik markazlariga aylandi. Tadqiqot natijalari Farg‘ona vodiysi to‘qimachiligini faqat an’anaviy hunarmandchilik doirasida emas, balki mintaqaviy iqtisodiy tizimning muhim elementi sifatida baholash imkonini beradi. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Farg‘ona vodiysidagi to‘qimachilik taraqqiyotini o‘rganish sovet davri manbalarida ta’kidlangani kabi qoloq soha bo‘lmagani, aksincha, ishlab chiqarishning muhim tarmog‘iga aylanganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuzikulov I. Qo‘qon xonligi tarixi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Namangan, 2014.
2. Кун А. Очерки Кокандского ханства // Известия РГО, Т.XII. – Санкт Петербург, 1876.
3. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – Санкт Петербург.
4. Мадраҳимов З. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. – Т.: Yangi nashr, 2014.
5. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – Москва: Глав. ред. вост. лит., 1968.
6. Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари (XVI-XIX асрнинг ўрталарида). – Тошкент, 2013.
7. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва: Наука, 1975.
8. Агзамова Г. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик ва савдо. – Т.: Ўзбекистон, 2000.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 21.431.3

SHAXS INTEGRATSIYASIDA ZAMONAVIY PARADIGMALAR

Raxmatov Alisher Obidovich,
Mustaqil izlanuvchi, xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengashi bosh mutaxassisi

MODERN PARADIGMS IN PERSONAL INTEGRATION

Rakhmatov Alisher Obidovich,
Independent researcher, chief specialist of the Bukhara regional Council of People's Deputies

СОВРЕМЕННЫЕ ПАРАДИГМЫ В ИНТЕГРАЦИИ ЛИЦА

Рахматов Алишер Обидович,
Независимый исследователь, главный специалист Бухарской области Совета народных депутатов



e-mail:
alisherraxmatov154@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-8134-615X

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxs integratsiyasining zamonaviy falsafiy paradigmalari tahlil qilinadi. Unda milliy qadriyatlar va madaniy an'analarning shaxsning ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvidagi o'rni, ichki va tashqi integratsiya muammolari, globallashuv sharoitida insonning o'zligini saqlab qolish masalalari falsafiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, aksiologik, kommunikativ va transformatsion paradigmalar asosida shaxs integratsiyasining yangi ilmiy talqinlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxs integratsiyasi, ijtimoiy falsafa, milliy qadriyatlar, globallashuv, ma'naviy integratsiya, aksiologik paradigma, kommunikativ paradigma, transformatsiya paradigmasi, ma'naviy immunitet, Yangi O'zbekiston.*

Abstract: *This article analyzes modern philosophical paradigms of personal integration. It philosophically covers the role of national values and cultural traditions in the integration of the individual into social life, the problems of internal and external integration, and the issues of preserving human identity in the conditions of globalization. Also, new scientific interpretations of personal integration based on axiological, communicative and transformational paradigms are revealed.*

Key words: *Personal integration, social philosophy, national values, globalization, spiritual integration, axiological paradigm, communicative paradigm, transformation paradigm, spiritual immunity, New Uzbekistan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются современные философские парадигмы интеграции лица. Философски рассматривается роль национальных ценностей и культурных традиций в интеграции личности в общественную жизнь, проблемы внутренней и внешней интеграции, а также вопросы сохранения человеческой идентичности в условиях глобализации. Также раскрываются новые научные интерпретации интеграции лица, основанные на аксиологической, коммуникативной и трансформационной парадигмах.*

Ключевые слова: *личностная интеграция, социальная философия, национальные ценности, глобализация, духовная интеграция, аксиологическая парадигма, коммуникативная парадигма, трансформационная парадигма, духовный иммунитет, Новый Узбекистан.*

Kirish. Shaxs integratsiyasida milliy qadriyatlar va madaniy an'analarning ahamiyatini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Chunki jamiyatning ichki birligi faqat moddiy manfaatlar yoki qonun asosida emas, balki ma'naviy qiymatlar birligi orqali ta'minlanadi. Milliy qadriyatlar — bu integratsiyaning ma'naviy ipi, ya'ni insonlarni birlashtiruvchi ma'no va ramzlar tizimidir. Masalan, "insonga ehtirom", "kattaga hurmat, kichikka izzat", "birodarlik" kabi qadriyatlar o'zbek falsafasining uzviy qismi bo'lib, ular insonning ijtimoiy munosabatlarida ma'naviy ustunlikni ta'minlaydi. Bu qadriyatlar shaxsni nafaqat mahalliy, balki global integratsiya jarayonlariga ham tayyorlaydi. Chunki milliy qadriyatlar bilan qurollangan inson globallashuv sharoitida o'zligini yo'qotmasdan, boshqalar bilan ochiq muloqotda bo'la oladi. Globallashuv falsafasida integratsiya ikki yo'nalishda kechadi:

1. Birinchisi — tashqi integratsiya, ya'ni insonning jahon hamjamiyati bilan bog'lanishi;
2. Ikkinchisi — ichki integratsiya, ya'ni shaxsning o'z milliy madaniyati va qadriyat tizimidagi uyg'unligi.

Agar inson tashqi integratsiyani amalga oshirib, ichki integratsiyani yo'qotsa, bu "madaniy shizofreniya" holatiga olib kelishi mumkin — ya'ni inson o'zligini yo'qotadi, uning axloqiy me'yorlari zaiflashadi. Shuning uchun Yangi O'zbekistondagi ma'naviy siyosatning asosiy vazifalaridan biri — insonning ichki va tashqi integratsiyasini uyg'un holda ta'minlashdir.

Milliy tiklanish va ma'naviy renessans g'oyalari aynan shu falsafiy maqsadni ko'zlaydi. Bu g'oyaga ko'ra, har bir inson o'z milliy qadriyatlariga tayanadi, ularni zamon talablariga mos ravishda qayta anglaydi va yangicha mazmun bilan boyitadi. Ma'naviy renessans – bu integratsiyaning yuqori bosqichidir, chunki u shaxsning ongi va ma'naviy qayta tug'ilishi, uning tarixiy xotira va zamonaviy yangilanish uyg'unligida namoyon bo'ladi. Bunday integratsiya turi jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi. Chunki ma'naviy jihatdan yetuk, fuqarolik ongi rivojlangan shaxslar ko'p bo'lgan jamiyatda ijtimoiy nizolar, mafkuraviy bo'linishlar va ijtimoiy izolyatsiya kamayadi. Barqaror jamiyatning asosiy ko'rsatkichi — uning a'zolari o'rtasidagi ishonch va birlik darajasidir. Bu esa to'la integratsiyaga erishgan shaxslar faoliyati natijasidir.

Ijtimoiy integratsiya jarayonining muvaffaqiyati uchun ta'lim tizimining roli ham beqiyos. Ta'lim insonni faqat bilim bilan emas, balki falsafiy dunyoqarash, axloqiy madaniyat va fuqarolik hissi bilan ham ta'minlaydi. Shuning uchun Yangi O'zbekistonda ta'lim falsafasi "inson markazida" tamoyiliga asoslanmoqda. Bu tamoyilga ko'ra, ta'lim shaxsni ijtimoiy jarayonlarga tayyorlashning asosiy institutsional shaklidir. Integratsiyaning barqarorligi uchun fuqarolar o'rtasidagi dialog madaniyati, tenglik va adolat prinsiplarining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ijtimoiy falsafa "integratsiya – bu muloqot madaniyati" degan g'oyani ilgari surmoqda. Ya'ni, odamlar bir-birini tinglash, tushunish va umumiy qiymatlar atrofida birlashish orqali barqaror jamiyat yaratishlari mumkin.

Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Yangi uyg'unlik jamiyati" konsepsiyasi insonlar o'rtasidagi axloqiy, madaniy va ijtimoiy birlikni mustahkamlashga qaratilgan. Bu konsepsiya falsafiy jihatdan integratsiyaning yangi bosqichini — ya'ni milliy o'zlik va global ochiqlik uyg'unligini ifoda etadi.

XXI asrda insoniyat jamiyati oldida turgan asosiy falsafiy muammolardan biri — bu shaxsning global o'zgarishlar tizimidagi mavqeini belgilashdir. Axborotlashgan, raqamli va texnogen sivilizatsiya sharoitida insonning jamiyat bilan munosabati yangi mazmun kasb etmoqda. Inson faqat ijtimoiy munosabatlar obyekti sifatida emas, balki global tizimning faol ishtirokchisi, ma'naviy subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy falsafada bu holatni "insonning yangi antropologik paradigmasi" deb atashadi. Bu paradigmaga ko'ra, shaxsning ijtimoiy integratsiyasi faqat tashqi muhitga moslashish emas, balki o'zligini saqlagan holda global tizimda faol harakat qilish qobiliyatidir. Demak, integratsiyaning mohiyati – moslashish emas, balki faol o'zgarish, ya'ni insonning jamiyatni qayta qurishdagi faol ishtiroki hisoblanadi.

Shaxs integratsiyasining yangi ilmiy paradigmalari falsafiy jihatdan uch asosiy yo'nalishda shakllanmoqda:

1. **Aksiologik (qadriyatli) paradigma.** Bu yo'nalishda shaxs integratsiyasi insonning qiymatlar tizimi bilan bog'lanadi. Ya'ni, shaxs jamiyatga qo'shilar ekan, u o'z axloqiy, milliy va

umuminsoniy qadriyatlarini ushlab qolishi lozim. Qadriyatsiz integratsiya “identifikatsiya inqirozi”ga olib keladi. Shu sababli, yangi ijtimoiy falsafa insonni “qadriyat subyekti” sifatida talqin etadi. Inson jamiyatdagi integratsiya jarayonida faqat moslashuvchi emas, balki qiymat yaratuvchi, ma’no bunyod etuvchi mavjudot sifatida qaraladi.

2. **Kommunikativ paradigma.** Bu yondashuvda integratsiya jarayoni muloqot va ijtimoiy munosabatlar tizimida qaraladi. Yurgen Habermasning “Kommunikativ faoliyat nazariyasi”ga ko‘ra, ijtimoiy barqarorlik va integratsiya muloqot madaniyati orqali amalga oshadi. Demak, shaxsning jamiyatga qo‘shilishi uning boshqalar bilan tinglash, anglash, fikr almashish qobiliyatiga bog‘liq. Kommunikativ integratsiyada inson nafaqat ijtimoiy subyekt, balki ma’naviy sherik sifatida namoyon bo‘ladi.

3. **Transformatsiya paradigmasi.** Bu paradigma integratsiyani shaxsning ijtimoiy tizimni qayta yaratishdagi ishtiroki bilan bog‘laydi. Ya’ni, inson jamiyatga faol qo‘shiladi, uning qiymatlarini, madaniyatini, texnologiyasini yangilaydi va falsafiy jihatdan “insonparvar transformatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi”ga aylanadi. Bu holatda integratsiya ijtimoiy inqilobning ma’naviy shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy globallashuv davrida shaxs integratsiyasiga ta’sir etuvchi bir qator tahdidlar mavjud. Asosan:

Birinchidan, axborot asimmetriyasi – ya’ni, insonning axborot oqimida yo‘qolishi va tanqidiy fikrlash qobiliyatining pasayishi. Bu holat integratsiya jarayonini sun’iy va manipulyativ shaklga aylantirishi mumkin.

Ikkinchidan, texnokratiya va algoritmlashuv tahdidi – inson qarorlarini mashinalar qabul qilishi natijasida shaxsning ijtimoiy faolligi pasayishi.

Uchinchidan, madaniy universalizm – turli xalqlarning madaniy farqlarini yo‘qotish orqali global standartlashuvning kuchayishi.

Shaxs integratsiyasida falsafiy vazifa – insonni “ma’lumot iste’molchisi”dan “ma’no yaratuvchi”ga aylantirishdir. Ya’ni, insonning jamiyatdagi ishtiroki faqat iqtisodiy yoki siyosiy emas, balki ma’naviy va axloqiy mazmunga ega bo‘lishi kerak. Bu jarayonda falsafa insonga o‘zini anglash, jamiyatdagi rolini belgilash va ma’naviy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, integratsiya bu — ontologik jarayon**,** ya’ni insonning borliq bilan uyg‘unlashuvidir. Shaxs o‘z hayotida jamiyat, tabiat va ma’naviyat olamini bir butunlikda his etgan sari, u ichki barqarorlikka erishadi. Bu holat “o‘z-o‘zini anglash integratsiyasi” deb ataladi. Demak, jamiyatdagi barqaror integratsiyaning asosi — inson ongidagi ichki uyg‘unlikdir.

Shuningdek, Yangi O‘zbekiston tajribasida shaxs integratsiyasi milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga o‘tish jarayoni bilan uzviy bog‘langan. Bu jarayonda falsafa insonni yangilanish jarayoning markaziga qo‘yadi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “inson qadrini ulug‘lash va uning salohiyatini ro‘yobga chiqarish — barcha islohotlarimiz mazmunidir.” Bu falsafiy tamoyil insonni integratsiyaning maqsadi va vositasi sifatida belgilaydi. Ijtimoiy integratsiyaning kelajak modeli — bu “axloqiy modernizatsiya” modeli bo‘lib, unda inson ma’naviy kamol, axloqiy mas’uliyat va jamoaviy hamjihatlik orqali jamiyat barqarorligiga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga integratsiyalashuvi — bu insonning faol falsafiy mavjudot sifatida o‘z jamiyatidagi rolini anglashi, o‘zligini saqlagan holda yangilanish jarayonida ishtirok etishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish jarayonidir. Insonning ijtimoiy integratsiyasi qanchalik chuqur va ma’naviy mazmunli bo‘lsa, jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti shunchalik ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili. — Toshkent: O‘zbekiston, 2022. — B. 15–27, 103–118**.**
2. Habermas J. Kommunikativ faoliyat nazariyasi. — Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1981. — B. 86–112, 214–236**.**
3. Fromm E. Inson qalbi va jamiyat. — Moskva: Progress, 1990. **—** B. 45–63, 171–189.
4. Yaspers K. Tarixning ma’nosi va vazifasi. — Moskva: Respublika, 1994. **—** B. 52–78, 201–223**.**
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008. **—** B. 34–56, 89–101**.**

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 811.161.1

A COMPARATIVE ANALYSIS OF COGNITIVE AND METACOGNITIVE STRATEGIES IN ENGLISH VOCABULARY ACQUISITION AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN

Bozorov Abdurauf Sheramatovich, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, trainee lecturer

bozorovabdurauf@navoiy-uni.uz

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОГНИТИВНЫХ И МЕТАКОГНИТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ В ОСВОЕНИИ АНГЛИЙСКОЙ ЛЕКСИКИ СТУДЕНТАМИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА

Бозоров Абдурауф Шераматович, Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы, стажёр-преподаватель

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA INGLIZ TILI LUG‘ATINI O‘ZLASHTIRISHDA KOGNITIV VA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNING QIYOSIY TAHLILI

Bozorov Abdurauf Sheramatovich, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya*: Mazkur maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ingliz tili talabalarida lug‘at boyligini o‘zlashtirish jarayonida qo‘llaniladigan kognitiv va metakognitiv strategiyalar yuqori va past til darajasiga ega guruhlar kesimida qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi til darajasi strategiya tanloviga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash hamda har ikki guruh o‘rtasidagi sifat va miqdor farqlarini empirik asosda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda so‘rovnoma va lug‘at testi metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yuqori darajadagi talabalar metakognitiv strategiyalardan ongli va tizimli tarzda foydalanadi, past darajadagi talabalar esa asosan kognitiv va mexanik strategiyalarga tayanadi. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘qitishda darajaga mos va strategiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv strategiyalar, metakognitiv strategiyalar, lug‘at o‘zlashtirish, til darajasi, EFL talabalari.*

Аннотация: *В статье представлен сравнительный анализ когнитивных и метакогнитивных стратегий усвоения английской лексики студентами вузов Узбекистана с высоким и низким уровнем владения языком. Цель исследования — выявить влияние уровня языковой подготовки на выбор стратегий и определить качественные и количественные различия между двумя группами обучающихся. В исследовании использовались анкетирование и тестирование словарного запаса. Результаты показали, что студенты с высоким уровнем владения языком систематически используют метакогнитивные стратегии, тогда как студенты с низким уровнем в основном полагаются на когнитивные и репродуктивные методы. Полученные данные подтверждают необходимость внедрения дифференцированного и стратегически ориентированного обучения английскому языку.*

Ключевые слова: *когнитивные стратегии, метакогнитивные стратегии, усвоение лексики, уровень владения языком, EFL.*

***Abstract**: This article presents a comparative analysis of cognitive and metacognitive vocabulary learning strategies used by high- and low-proficiency EFL university students in Uzbekistan. The study aims to examine how language proficiency influences strategy choice and to identify qualitative and quantitative differences between the two learner groups. Data were collected through questionnaires and vocabulary tests. The findings indicate that high-proficiency learners employ metacognitive strategies in a more systematic and conscious manner, whereas low-proficiency learners rely mainly on cognitive and mechanical strategies. The results highlight the importance of proficiency-based and strategy-oriented instruction in EFL contexts.*

***Key words**: cognitive strategies, metacognitive strategies, vocabulary acquisition, proficiency level, EFL learners*

Kirish. Ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganish jarayonida lug‘at boyligi til kompetensiyasining asosiy tayanch komponenti hisoblanadi. Lingvistik va psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, lug‘at bilimi til ko‘nikmalarining barcha turlari - tinglab tushunish, o‘qish, yozish va og‘zaki nutq - uchun zarur bo‘lgan kognitiv asosni tashkil etadi [1:3]. Xususan, yetarli lug‘at zaxirasiga ega bo‘lmagan o‘rganuvchilar grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan gaplarni ham samarali kommunikatsiyada qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shunga qaramay, an’anaviy chet tilini o‘qitish amaliyotida lug‘at o‘zlashtirish masalasi ko‘pincha ikkilamchi vazifa sifatida qaralib, grammatik tuzilmalarni o‘rgatishga nisbatan kamroq e’tibor qaratib kelinmoqda. Natijada lug‘at o‘rganish jarayoni tizimli va strategik yondashuvdan ko‘ra, ko‘proq mexanik yodlash yoki tarjimaga asoslangan usullar bilan cheklanib qolmoqda. Oldingi tadqiqotlarda lug‘at o‘zlashtirish strategiyalari muhim ilmiy muammo sifatida yoritilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyatida metodologik va nazariy cheklovlar mavjud.

Xususan, strategiyalar va til darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘pincha umumiy tavsifiy darajada bayon qilingan bo‘lib, ushbu munosabatning kognitiv mexanizmlari yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. Shuningdek, strategiya tushunchasi aksar hollarda faqat amaliy texnika sifatida talqin qilinib, ularning o‘rganuvchi avtonomiyasi, o‘zini boshqarish (self-regulation) va reflektiv o‘rganish bilan uzviy bog‘liqligi yetarli darajada ochib berilmagan.

Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy ehtiyojdan kelib chiqib, til darajasi, strategik xulq-atvor va lug‘at o‘zlashtirish samaradorligi o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni tizimli va empirik asosda yoritishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston EFL muhitida strategiyaga asoslangan, darajaga mos va o‘rganuvchi markazli yondashuvni joriy etish zaruratini ilmiy asosda ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Chet tilini o‘rganishda lug‘at boyligini o‘zlashtirish masalasi zamonaviy lingvodidaktik tadqiqotlarda markaziy o‘rin egallaydi. Tadqiqotchilar lug‘atni o‘zlashtirish jarayonini faqat leksik birliklar miqdori bilan emas, balki o‘rganuvchining ushbu birliklar bilan qanday kognitiv va metakognitiv faoliyatlarni amalga oshirishi orqali izohlashga intilmoqda. Shu sababli, lug‘at o‘zlashtirish strategiyalari, xususan, kognitiv va metakognitiv strategiyalar til o‘rganish samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida qaralmoqda [1:12]. O’Malley va Chamot kognitiv strategiyalarni “o‘rganilayotgan til materialini tushunish va eslab qolishga qaratilgan ongli aqliy operatsiyalar” sifatida ta’riflaydi [3:45].

Bir qator tadqiqotlarda kognitiv strategiyalar, ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta til darajasiga ega o‘rganuvchilar uchun samarali ekanligi ta’kidlangan [6:41]. Biroq, ushbu strategiyalarning samaradorligi doimiy va barqaror emasligi ham qayd etiladi. Schmittning ta’kidlashicha, kognitiv strategiyalar qisqa muddatli xotirani faollashtirsa-da, chuqur semantik qayta ishlashni har doim ham ta’minlamaydi [6:59]. Nation lug‘at o‘zlashtirish jarayonini ko‘p bosqichli va murakkab tizim sifatida talqin qilib, kognitiv strategiyalar ushbu tizimning faqat dastlabki bosqichini tashkil etishini ta’kidlaydi

Oxford metakognitiv strategiyalarni til o‘rganishdagi eng yuqori darajadagi strategiyalar sifatida baholab, ularni samarali o‘rganishning boshqaruv mexanizmi deb hisoblaydi [2:112]. Muallifning fikriga ko‘ra, metakognitiv strategiyalar mavjud bo‘lmagan holatda kognitiv strategiyalar tartibsiz, tasodifiy va qisqa muddatli natija beradi.

Wenden metakognitiv strategiyalarni o‘rganuvchi avtonomiyasining asosiy sharti sifatida talqin qilib, o‘rganuvchi faqat o‘z o‘rganish jarayonini anglab yetgandagina mustaqil va samarali til o‘rganishga erisha olishini ta’kidlaydi [4:56]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, strategiyalarni

TAMADDUN NURI

qo‘llash texnik ko‘nikma emas, balki reflektiv va ongli faoliyatdir.

Til darajasi va strategiya tanlovi o‘rtasidagi munosabat masalasi ko‘plab empirik tadqiqotlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Andersonning tadqiqotlariga ko‘ra, yuqori til darajasiga ega o‘rganuvchilar strategiyalarni vaziyatga mos ravishda tanlay oladi va ularni moslashtira oladi [13:24]. Metakognitiv xabardorlik darajasi oshgani sari o‘rganuvchining o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati ham ortadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kvantitativ va sifat tahlil elementlarini uyg‘unlashtirgan aralash metodologik (mixed-methods) yondashuv asosida olib borildi. Bunday yondashuv lug‘at o‘zlashtirish jarayonida strategiyalardan foydalanish chastotasi bilan bir qatorda, ularning ongli qo‘llanishi va sifat jihatlarini ham aniqlash imkonini beradi [11:94]. Tadqiqot Toshkent shahridagi oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan jami 120 nafar ingliz tili (EFL) talabalari ishtirokida o‘tkazildi.

Ishtirokchilar CEFR mezonlari asosida ikki asosiy guruhga ajratildi:

— yuqori til darajasiga ega talabalar (B2–C1),

— past til darajasiga ega talabalar (A2–B1).

Til darajasini aniqlashda talabalar avvalgi akademik natijalari va maxsus ishlab chiqilgan diagnostik test natijalari inobatga olindi. Guruhlar son jihatdan tenglashtirilib, har bir guruh 60 nafardan talabani tashkil etdi. Ushbu tenglashtirish statistik taqqoslash jarayonida xatolik ehtimolini kamaytirishga xizmat qildi [5:211].

Tadqiqot uch asosiy vosita orqali amalga oshirildi. Birinchi bosqichda Oxford (1990) modeli asosida moslashtirilgan kognitiv va metakognitiv strategiyalar so‘rovnomasi qo‘llanildi [2:67]. So‘rovnoma Likert shkalasi asosida tuzilib, talabalar tomonidan strategiyalardan foydalanish chastotasi va ongli darajasi baholandi [7:52].

Ikkinchi bosqichda Nation (2001) modeli asosida ishlab chiqilgan lug‘at testi qo‘llanildi [1:22]. Test talabalar lug‘at bilimining nafaqat hajmini, balki so‘z ma’nosini kontekstda tushunish va qo‘llash qobiliyatini ham aniqlashga qaratildi.

Uchinchi bosqichda tanlangan ishtirokchilar bilan qisqa reflektiv yozma topshiriqlar o‘tkazildi. Ushbu topshiriqlar orqali talabalar lug‘at o‘rganishda qanday strategiyalarni ongli ravishda qo‘llayotgani va o‘z o‘rganish jarayonini qanday baholashi sifat jihatdan tahlil qilindi [4:63].

Miqdoriy ma’lumotlarni tahlil qilishda mustaqil tanlanmalar uchun t-test qo‘llanildi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p<0.05$ mezoni asosida belgilandi, bu ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqotlarida keng qabul qilingan standart hisoblanadi [9:41].

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqot natijalari yuqori va past til darajasiga ega talabalar o‘rtasida strategiyalardan foydalanish xarakteri va sifati jihatidan sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, yuqori darajadagi talabalar (B2-C1) metakognitiv strategiyalardan tizimli va ongli tarzda foydalanadi. Ushbu talabalar lug‘at o‘zlashtirish jarayonida aniq maqsadlar qo‘yish, o‘rganish jarayonini rejalashtirish va yakuniy natijalarni baholash kabi faoliyatlarni muntazam amalga oshiradi.

Aksincha, past til darajasiga ega talabalar (A2-B1) lug‘at o‘rganishda asosan mexanik yodlash, tarjima qilish va takrorlash kabi kognitiv strategiyalarga tayanishi aniqlandi. Ushbu talabalar strategiyalarni ongli tanlashdan ko‘ra, o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni avtomatik bajarishga moyil ekanligi kuzatildi. Natijada lug‘at bilimlari yuzaki, qisqa muddatli va beqaror shakllanmoqda [6:59].

Statistik tahlil natijalari metakognitiv strategiyalardan foydalanish darajasi bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligini ko‘rsatdi ($p < 0.05$). Bu esa til darajasi strategiya tanloviga bevosita ta’sir ko‘rsatishini empirik asosda tasdiqlaydi [7:112]. Mazkur natijalar Cohen va Zimmerman tomonidan ilgari surilgan o‘z-o‘zini boshqarish nazariyasi bilan hamohang bo‘lib, strategik xabardorlik til kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatadi [8:141; 9:37].

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, metakognitiv strategiyalar yuqori til darajasining oqibati emas, balki uning shakllanishiga xizmat qiluvchi faol mexanizmdir. Ushbu xulosa Griffiths va Anderson tadqiqotlarida ilgari surilgan nazariy qarashlarni O‘zbekiston EFL kontekstida empirik asosda tasdiqlaydi [7:94; 13:31].

Mazkur natijalar ingliz tilini o‘qitishda strategiyaga asoslangan va darajaga mos differensial yondashuvni joriy etish zarurligini

ko‘rsatadi. Xususan, past darajadagi o‘rganuvchilarga metakognitiv strategiyalarni bosqichma-bosqich o‘rgatish, ularni rejalashtirish, monitoring va refleksiya jarayonlariga ongli jalb etish lug‘at o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin [4:71].

Xulosa. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan talabalar misolida lug‘at o‘zlashtirish jarayonida qo‘llaniladigan kognitiv va metakognitiv strategiyalarning til darajasi bilan o‘zaro bog‘liqligini empirik va tizimli asosda tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari til darajasi o‘rganuvchilarning strategiya tanlovi, ularni qo‘llash chastotasi va sifati hamda lug‘at o‘zlashtirish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini yaqqol namoyon etdi. Empirik tahlil natijalariga ko‘ra, yuqori til darajasiga ega talabalar (CEFR B2-C1) lug‘at o‘zlashtirish jarayonida metakognitiv strategiyalardan ongli, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda foydalanadi. Ushbu talabalar o‘z o‘rganish faoliyatini rejalashtirish, jarayonni monitoring qilish va yakuniy natijalarni baholash orqali lug‘at bilimini barqaror va chuqur shakllantirishga erishmoqda. Aksincha, past til darajasiga ega talabalar (CEFR A2-B1) asosan kognitiv strategiyalarga, xususan, mexanik yodlash, tarjima qilish va takrorlashga tayanib, lug‘atni yuzaki va qisqa muddatli darajada o‘zlashtirayotgani aniqlandi. Mazkur holat shuni ko‘rsatadiki, til darajasi nafaqat lug‘at hajmi bilan, balki o‘rganuvchining strategik xulq-atvori va o‘z o‘rganish jarayonini boshqarish qobiliyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari metakognitiv strategiyalar yuqori til kompetensiyasining oqibati emas, balki uning shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim mexanizm ekanligini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Shu jihatdan, metakognitiv strategiyalarni o‘rgatish masalasi chet tillarni o‘qitishda ikkilamchi emas, balki markaziy metodik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning muhim ilmiy xulosalaridan biri shundan iboratki, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitishda hozirgacha ustuvor bo‘lib kelgan an’anaviy, materialga yo‘naltirilgan yondashuv o‘rniga strategiyaga asoslangan va darajaga mos differensial yondashuvni joriy etish zarur. Xususan, past darajadagi talabalarda metakognitiv xabardorlikni bosqichma-bosqich shakllantirish, ularni rejalashtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya qilishga yo‘naltirish lug‘at o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot til darajasi, strategik xulq-atvor va lug‘at o‘zlashtirish samaradorligi o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni ochib berib, O‘zbekiston EFL muhitida strategiyaga asoslangan yondashuvning ilmiy va amaliy zaruratini asoslab berdi. Ushbu xulosalar chet tillarni o‘qitish metodikasini modernizatsiya qilish va talabalarning mustaqil, ongli hamda samarali til o‘rganish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. CUP, 2001.
2. Oxford, R. L. Language Learning Strategies. Heinle, 1990.
3. O’Malley, J. M., Chamot, A. U. Learning Strategies in SLA. CUP, 1990.
4. Wenden, A. Learner Strategies for Learner Autonomy. Prentice Hall, 1998.
5. Ellis, R. The Study of SLA. OUP, 1994.
6. Schmitt, N. Vocabulary in Language Teaching. CUP, 2000.
7. Griffiths, C. Language Learning Strategies. Palgrave, 2013.
8. Cohen, A. D. Strategies in Learning and Using a Second Language. Routledge, 2011.
9. Zimmerman, B. J. Self-Regulated Learning. Springer, 2000.
10. Brown, H. D. Principles of Language Learning. Pearson, 2007.
11. Dörnyei, Z. Psychology of SLA. OUP, 2005.
12. Larsen-Freeman, D. Techniques and Principles. OUP, 2000.
13. Anderson, N. J. Metacognition in Language Learning. Longman, 2002.
14. Rubin, J. Good Language Learner. TESOL, 1975.
15. Richards, J. C., Rodgers, T. Approaches and Methods. CUP, 2014.
16. Ellis, R. Task-Based Language Teaching. OUP, 2003.
17. Little, D. Learner Autonomy. Authentik, 1991.
18. Flavell, J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring. Academic Press, 1979.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 677(575.1):94"18/19"

SHAHRISABZ BEKLIGINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI (XVIII–XIX ASRLAR)

G‘ulomov Islom G‘offor o‘g‘li,
Shahrisabz pedagogika instituti “Tarix” kafedrasi
Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Tarix)
yo‘nalishi I kurs magistranti

SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE SHAHRISABZ PRINCE (18TH–19TH CENTURIES)

Gulamov Islam Goffor oglu,
Shahrisabz Pedagogical Institute, Department of History
Social and Humanities Teaching Methodology (History)
First year master's student

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ ШАХРИСАБЗА (XVIII–XIX ВЕКА)

Гуламов Ислам Гоффор оглы, Шахрисабзский педагогический институт, кафедра истории направление Методология преподавания социальных и гуманитарных наук (история), студент первого курса магистратуры



e-mail:
gulomovislomxon83@gmail.com

Annotatsiya: *XIX asr oxirida Qashqadaryo vohasi, shu jumladan Shahrisabz bekligi Buxoro amirligining muhim siyosiy-ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Maqolada Shahrisabz bekligining XVIII-XIX asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, aholi turmush tarzi, xo’jaligi haqida ba’zi mulohazalar keltirilgan.*
Kalit so‘zlar: *Savdo-sotiq, KATE, Shahrisabz Afrosiyobi, Somon bozori, Oqsuv, Registon, Chorsu, chaharbozor, Kunchiqar, Charmgar, Kushxona, Kunduzak.*
Abstract: *At the end of the 19th century, the Kashkadarya oasis, including the Shahrisabz principality, was considered one of the important political, administrative, economic, and cultural centers of the Bukhara Emirate. The article presents some observations about the socio-economic life of the Shahrisabz principality in the 18th-19th centuries, the lifestyle of the population, and the economy.*
Keywords: *Trade, KATE, Shahrisabz Afrosiyobi, Somon Bazaar, Aqsuv, Registan, Chorsu, Chaharbazar, Kunchikar, Charmgar, Kushkhona, Kunduzak.*
Аннотация: *В конце XIX века оазис Кашкадарья, включая княжество Шахрисабз, считался одним из важных политических, административных, экономических и культурных центров Бухарского эмирата. В статье представлены некоторые наблюдения о социально-экономической жизни княжества Шахрисабз в XVIII-XIX веках, образе жизни населения и экономике.*
Ключевые слова: *Торговля, KATE, Шахрисабз Афросиоби, Сомон базар, Аксув, Регистан, Чорсу, Чахарбазар, Кунчикар, Чармгар, Кушхона, Кундузак.*

Kirish. Shahrisabz bekligi Buxoro amirligining muhim siyosiy-ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Aholi soni jihatidan Qarshi va Shahrisabz bekliklari amirlikda oldingi o‘rinlarni egallagan[1]. Shahrisabz bekligining markazi Shahrisabz shahri bo‘lib, u o‘zining tuzilishi, qurilishi, tarixiyligi va salobatligi bilan amirlikda muhim ahamiyat kasb etgan. Shahar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va savdo sotiq bilan mashg‘ul bo‘lgan. Bu yerda ko‘nchilik, kulolchilik, to‘qimachilik, tikuvchilik, kashtachilik, zardo‘zlik, temirchilik, degrezlik, misgarlik,

zargarlik va boshqa hunarmandchilik turlari rivoj topgan. XVII asrning ikkinchi yarimiga kelib iqtisodiy inqiroz sababli Shahrisabz ham og‘ir ahvolda qolgan. Bu hol XIX asr boshlarigacha davom etgan[5].

Adabiyotlar tahlili. Shahrisabz bekligining markazi bo‘lgan Shahrisabz shahri o‘zining ahamiyati va kattaligi jihatdan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida uchinchi shahar hisoblangan. Qashqadaryo vohasining savdo-iqtisodiy munosabatlari Rastorguyeva V.S., Molchanova Ye.K, Agzamova G, Mukminova R, A. Sagdullayev, P. Ravshanov, Qorayev S, Suxaryeva O.A. kabi ko‘plab tadqiqotchi olimlar tomonidan tahlil qilingan. Shaharda 7 ta karvonsaroy va 2 ta hammom bor edi. Shahar guzarlarga bo‘lingan va har bir guzar o‘z masjidiga ega bo‘lgan. Shuningdek, tadqiq qilinayotgan davrda Xo‘ja Mirhamid va Hazrati Malik Ajdar masjidlari ham shaharni asosiy masjidlari hisoblangan. A.L.Kun[6] keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, XIX asrning ikkinchi yarmida shaharda 14 ta guzar mavjud edi, XX asr boshiga kelib esa guzarlarning soni 53 taga yetgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda manbashunoslik, tarixiy qiyosiy, matnshunoslik, muammoviy tahlil, xronologik izchillik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shahrisabz shahrining geografik jihatdan qulayligi Zarafshon va Hisor tog‘larining etaklaridagi yerlari unumdor juda go‘zal Kitob va Shahrisabz cho‘kmasida Qashqadaryo bilan Tanxoz daryolarining qo‘shiladigan yeridan uncha olis bo‘lmagan bog‘lar, ekinzorlar bag‘ridadir. Shahar atrofidagi yerlar dehqonchilik va bog‘dorchilik uchun juda qulay bo‘lgan. Beklik bir-biridan 4-5 tosh masofa uzoqlikda joylashgan bir necha qishloqlardan tashkil topgan. Shahrisabz bekligiga vohaning janubiy va qisman g‘arbiy qismida joylashgan qishloqlar qaragan. Sharqiy tomonda ikkita daryo - ya’ni tog‘yonbag‘irlari Toshko‘prik (ba’zilar uni Uloch ham deb ataydilar) va Tanxoz mavjud. O‘zbeklar Oqsuv deb ataydigan hamda Hazrati Sultondan boshlanadigan Oqdaryo bo‘yida Qorasuv, Mirishkor, Mo‘minobod, Beshkapa, Bumi, Chori, Shakartepa, Soybo‘yi, Bo‘zari, Shavkan, Polmon yana Uloch kabi qishloqlar bo‘lib, ulardan eng yiriklari 22 xonadonli Mo‘minobod va 100 xonadonli Qorasuv, Mirishkor, Uloch qishloqlari bo‘lgan. Shaharlarning yirik savdo markazlariga aylanishida savdo-sotiq bo‘ladigan yerlar-bozorlarning ahamiyati beqiyos. Odatda shaharlarning mavjudligini ko‘rsatuvchi belgilardan biri bozorlarga doimo alohida ahamiyat berilgan. Bozorlarning katta-kichikligi, boyligi va boshqa jihatlari shaharlarning mamlakatda tutgan o‘rni va siyosiy vaziyat bilan chambarchas bogliq bo‘lgan[2].

Shahar ahlining yana bir qismi hunarmandchilik buyumlari savdosi bilan shug‘ullangan. Ular Shahrisabz bozorlarida o‘zlarining alohida rastalariga ega bo‘lishgan. Yirik savdogarlar shaharlararo savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Jumladan Shahrisabz begi ham savdo uchun maxsus mablag‘ saqlagan. Savdogarlarning asosiy qismi shahar bozorlariga yaqin guzarlarida istiqomat qilishgan. Shahrisabzning markaziy bozori Chorsu bek o‘rdasidan janubda joylashgan. XV asrning oxiri - XVI asr boshlarida bunyod etilgan ushbu Chorsu bozori hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan. Uning vujudga kelishini XV asr oxiri XVI asr boshlariga mansub deb hisoblaydilar. Chorsu timi XVIII asrning 80-yillariga oid, Niyozbek nomi bilan bog‘liq, qabilidagi qarashlar ham mavjud. Yodgorlik 1598-1602 yil sanasi bilan ro‘yxatga olingan.

Shaharda har kuni savdo bo‘ladigan ushbu bozordan tashqari bir qancha mayda bozorlar mavjud bo‘lgan. Jumladan, shaharning g‘arbiy qismida joylashgan somon bozorida chorva mollari savdosi olib borilgan. Shaharda hunarmandchilik guzarlari, bozorlar, karvonsaroylar, bilan birgalikda ko‘plab masjid, madrasalar, hammom va boshqa jamoatchilik binolari ham qad ko‘targan. Umuman Shahrisabz shahri nafaqat hunarmandchilik, balki yirik savdo madaniy markaz ham edi[3].

Shahrisabz vohasida juda qadimdan hunarmandchilik markazlari rivojlangan bo‘lib, ular asosan ma’lum bir soha bilan bog‘liq bo‘lgan guzarlarga bo‘lingan. Shahrisabzda bir-biriga bog‘liq hunarmandchilik turlari bilan shug‘ullanuvchi aholi yonma-yon guzarlarda yashaganini kuzatish mumkin. Masalan, Shahrisabzda ko‘nchilik bilan bog‘liq bo‘lgan sovungarlik va yelimgarlik bilan shug‘ullanuvchi aholi shaharning janubiy sharqida joylashgan Katta charmgar, Kichik charmgar, Meshgar hamda

Yoyilma guzarlarida yashagan. Shuningdek poyabzal tikish bilan shug‘ullanuvchi hunarmandlar xususan kovushdo‘zlar, Namaton guzarida, yuqorida tabaqa ahli uchun yashil teridan nozik va yuqori sifatli kovush tikuvchilar Kitob guzari, Etikdo‘zlar, Xo‘ja Mirhamid, Qalqon guzarida, Chuyton guzarida, Yaxdondo‘zlar va qamchindo‘zlar Kunduzak guzarida sovungarlar, Telpakdo‘z guzarida telpakdo‘zlar va po‘sindo‘zlar, Qassoblik guzarida qassoblar ko‘pchilikni tashkil etgan. Chitgarlar Rais guzarida, kulolchilik va Hazrati shayx guzarida asosan kulollar yashab , kulollik guzarining bir qismi charxchilik deb nomlangan. Bu yerda temirchilar yashagan. Shahrisabz degrezlari asosan Degrez va Chuyi xaytak guzarida misgarlar Hovuzi Mardon zargarlar esa Baloxovuz, Hovuzi Mardon hamda Kunduzak guzarlarida istiqomat qilganlar[4].

Shahar atrofi va qishloqlarda yetishtirilgan mahsulotlar paxta, zig‘ir, g‘alla, sholi, tamaki, chorvachilik mahsulotlari va boshqa ko‘pgina mahsulot turlariga shaharlarda talab katta bo‘lgan. Bu mahsulotlar shahar mahsulotlarning ayrimlari shahar hunarmandlari uchun xom-ashyo hisoblangan. Bu esa ko‘plab hunar turlarining, xususan, qishloq ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashgan sohalarning rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatgan. Shu tariqa, shahar iqtisodiyotining yetakchi sohasi- hunarmandchilik bilan qishloqlar o‘rtasida vujudga kelgan o‘zaro aloqadorlik bir tomondan, qishloqlardagi iqtisodiy taraqqiyotni, ikkinchi tomondan esa shahar xo‘jaligini shu jumladan shahar bozorlarining rivojlanishida asosiy omil bo‘lgan.

Shahrisabzning savdo ahamiyati shahar aholisida savdogarlarning salmoqli qatlamining rivojlanishiga yordam berdi. Shahrisabz bozorining keng qatorlarida ma'lum tovarlar savdosiga ixtisoslashgan ko‘plab mayda savdogarlar bo‘lgan. Boshqa shaharlar bilan savdo qiluvchi yirik savdogarlar ko‘p bo‘lgan. Ular orasida, ayniqsa, shu maqsadda tuya boqadigan Shahrisabz bekligi ham bo‘lib, tuyalar shu sababdan Shuturxonni qabul qilgan kvartaldagi cho‘lga joylashtirilgan[5].

Xulosa. Kesh vohasining geografik joylashuvi, aholisining turmush tarzi, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, hamda bu vohaning tuzilishini o‘rganish O‘rta Osiyo tarixining bosqichlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shahrisabz bekligining markazi bo‘lgan Shahrisabz shahri o‘zining ahamiyati va kattaligi jihatdan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida asosiy shaharlardan biri hisoblangan. Shaharda hunarmandchilik guzarlari, bozorlar, karvonsaroylar tashqari, ko‘plab masjidlar, madrasalar, hammom va boshqa jamoatchilik binolari ham qad ko‘targan. Umuman, Shahrisabz shahri nafaqat hunarmandchilik, balki yirik savdo va madaniy markaz ham edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Safarov D.T XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Quyi Qashqadaryo aholisi (tarixiy-etnografik ma’lumotlar) // Qadimiy Qarshi O‘rta Osiyo shaharsozligi va madaniyati tarixi. – Qarshi: – Nasaf, 1999. –B. 152. 5
2. Sagdullayev A.S. Gau Sug‘d – Nautaka-Kesh // San`at. – Toshkent, 2001. – №1. – B. 7.
3. Бобожонов Беҳруз Баҳодир ўғли. Кеш–Шаҳрисабз воҳасининг тарихий гузарлари. ҚарДУ хабарлари. 2022.
4. Н.А.Маев. Бухоро хонлиги очерклари. 2012. 24-бет
5. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. Т., АНУзССР.
6. Подробно об этом см. А. К у н. Очерки Шахрисябзского бекства, СПб, 1880, отдельный оттиск из ЗИРГО по отделению этнографии, т. 6
7. Hamidova M. Qashqadaryo hunarmandchiligi tarixi. – Tashkent, 2021, 4-jild, – №7. – B. 32.
8. Grigoryev V.V. Ocherki Shaxrisabzskogo bekstva. IVL, 1958. – S. 57.
9. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Tom. 11. – B. 28.
10. Davlatova S. Buxoro amirligida mang‘itlar sulolasi bilan kenagaslar urug‘i o‘rtasidagi ixtiloflar. – Toshkent, 1995. – B. 95.
11. Dresvyanskaya G., Usmanova 3. Iz istorii Kesha. – Tashkent, 1976. – S. 7.
12. Kun A. Ocherki Shaxrisabzkogo ZRGO. T. VI. – SPb., 1880 g. – S. 224. Q

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 677(575.1)

YERQO‘RG‘ON - ARXEOLOGIK YODGORLIGI TARIXIDAN LAVHALAR

Xaydarov Asliddin Omon o‘g‘li, Shahrisabz pedagogika instituti “Tarix” kafedrasi Ijtimoiy - gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi Tarix yo‘nalishi I kurs magistranti



e-mail: asliddinxaydarov664422@gmail.com

YERKURGON - ARCHAEOLOGICAL MONUMENT TABLETS FROM THE HISTORY

Khaydarov Asliddin Amon oglu, Shakhrisabz Pedagogical Institute, Department of History Social and Humanities Teaching Methodology (History)1st year master’s student

ЕРКУРГОН — АРХЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПАМЯТНИК ТАБЛИЧКИ ИЗ ИСТОРИИ

Хайдаров Аслиддин Амон оглу, студент 1-го курса магистратуры, Шахрисабзский педагогический институт, кафедра истории

Annotatsiya: *Qashqadaryo viloyati Respublikamizda barcha sohalarda salmog‘li ulushga ega bo‘lgan hududlardan biridir. Bu holat tarixiy va arxeologiya obyektlarining mavjudligi jihati bilan ham o‘rinlidir. Maqolada Qashqadaryo viloyatining Qarshi hududida joylashgan Yerqo‘rg‘on arxeologik yodgorligi va uning tarixiy ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek bu yerda o‘tkazilgan tadqiqot natijalari va topilmalari, Qashqadaryo ekspeditsiyasining ilk qazishma ishlaridan ba’zi lavhalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qarshi (Nasaf), Qashqadaryo arxeologik-topografik ekspeditsiyasi (QATE), to‘quv dastgohi, ilk temir davri, oltin tipratikan tasviri.*

Abstract*: Kashkadarya region is one of the regions in our Republic that has a significant share in all areas. This is also relevant in terms of the presence of historical and archaeological sites. This article discusses the Yerkurgan archaeological monument located in the Karshi region of Kashkadarya region and its historical significance. Also presented here are the results and findings of the research conducted, as well as some photographs from the first excavations of the Kashkadarya expedition.*

Keywords: *Karshi (Nasaf), Kashkadarya Archaeological and Topographic Expedition (QATE), loom, early Iron Age, image of a golden hedgehog.*

Аннотация: *Кашкадарьинский край — один из регионов нашей Республики, занимающий значительную долю территории по всем параметрам. Это особенно актуально с точки зрения наличия исторических и археологических памятников. В данной статье рассматривается археологический памятник Еркурган, расположенный в Карши районе Кашкадарьинского края, и его историческое значение. Также представлены результаты проведенных исследований, а также некоторые фотографии с первых раскопок Кашкадарьинской экспедиции.*

Ключевые слова: *Карши (Насаф), Кашкадарьская археологическая и топографическая экспедиция (QATE), ткацкий станок, ранний железный век, изображение золотого ежа.*

Kirish. Qarshi (Nasaf) Qashqadaryo vohasining eng muhim arxeologik va tarixiy maskanlaridan biridir. Qarshi shahri qadimiy va boy tarixga ega. Shaharda davlat muhofazasiga olingan 25 ta arxitektura yodgorligi mavjud. Bu yerda qadimdan shaharsozlik rivoj topgani, yirik muhandislik inshootlari, bozorlar, bog‘-rog‘lar bo‘lgani manbalardan ma’lum. Ammo ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan.

Qashqadaryo viloyatidagi eng qadimiy arxeologik yodgorliklaridan biri Yerqo‘rg‘ondir. Vohaning qariyb uch ming yillik tarixini o‘zida mujassam etgan Yerqo‘rg‘on taniqli olim Rustam Sulaymonov tadqiqotlaridan so‘ng bu joydan topilgan ishonchli arxeologik manbalar asosida Qarshi shahrining 2700 yilligi nishonlandi.

Adabiyotlar tahlili. Qashqadaryo arxeologik-topografik ekspeditsiyasi (QATE) tomonidan hududlarda keng qamrovli tadqiqotlar

olib borildi. Bu ilmiy ekspeditsiya 1963-yil Qashqadaryo vohasidagi tarixiy arxeologik yodgorliklarni o‘rganish, tarixiy davrlarni o‘rganish hamda arxeologik materiallar to‘plash maqsadida tashkil etildi. QATEga 1963-1986-yillar M.Ye. Masson, 1986-1993 yillar Z.I.Usmonova, 1993-1998-yillar A.S.Sagdullayev va 1999-yildan R.X.Sulaymonov rahbarlik qilgan. QATE tomonidan hozirgacha Qashqadaryo vohasidagi 600 dan ortiq turli tarixiy davrlarga mansub yodgorliklar o‘rganilib chiqildi. Ular ichida Janubiy Sug‘dning yirik shahar markazlari (Uzunqir, Kitob, Shahrisabz, Naxshab, Nasaf, Qarshi), qadimiy o‘troq dehqonchilik makonlari, qadimiy davr va o‘rta asr savdo yo‘llari, hunarmandchilik ustaxonalari, me’morlik yodgorliklari, mudofaa inshootlari va qo‘rg‘onlari (O‘rta qo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, Chim mudofaa devori va boshqalar) bor. QATE tomonidan Qashqadaryo vohasida olib borilgan tarixiy-arxeologik tadqiqotlar natijalari “Столичнме города в низовях Кашкадари с древнейших времён”, “Города южного Согда в VIII—XII вв.”, “O‘rta Osiyoning qadimgi davr va o‘rta asrlar arxeologiyasi” (to‘plam), “Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda”, “Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi”, “Qadimgi Kesh - Shahrisabz tarixidan lavhalar” (monografiya), “O‘rta Osiyo arxeologiyasi”, “Shahrisabz. Ming yilliklar merosi” (yubiley albomi) kabi ilmiy va ilmiy ommabop asarlarda o‘z aksini topdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Qashqadaryo ekspeditsiyasining ilk qazishma ishlaridan shu narsa aniqlandiki, Yerqo‘rg‘onning ichki devori miloddan avvalgi VI asrlarda tiklangan. Bu devorga tutash qatlamlardan miloddan avvalgi I ming yilliklarga mansub sopol idishlar topildi. Biroq bu qadimiy shahar hududida qazilgan alohida qazishmalardagi tekshiruvlar shundan dalolat beradiki, bu devor tiklanishidan ancha avval - ilk temir davrida ham bu yerda dehqon jamoalari yashagan, O‘rta Osiyoning bu o‘troq aholisi sopol idishlarni kulolchilik charxida emas, balki qo‘lda yasashgan, pishirishdan oldin ulardagi uchburchak, zigzag va zanjirli bezak qatorlarini qizil hamda jigarrang bo‘yoqlar bilan jilolashgan. Pishirilgandan so‘ng bu idishlar juda chiroyli ko‘rinish olgan. Bunday turdagi idishlar So‘g‘diyona hududining Samarqand vohasi va qadimgi Keshdan ham topilgan bo‘lib, odatda ular miloddan avvalgi IX-VII asrlarga to‘g‘ri keladi.

Yerqo‘rg‘onning miloddan oldingi VIII-VII asrlarida yasalgan sopol buyumlar topilgan madaniy qatlamidan 1999-yilning kuzida qalinligi 3 metrdan oshiq bo‘lgan mahobatli devor qoldiqlari aniqlandi. Devor balandligining 2 metrdan ortiqroq qismi omon qolgan va kulollar mahallasining birinchi asrlarga oid qatlamlari ostida ko‘milib ketgan. Bu devor Yerqo‘rg‘onning miloddan avvalgi VI asrlarda qurilgan, bugunga qadar saqlanib qolgan ichki devoriga parallel ravishda tiklangan. Shuni taxmin qilish mumkinki, kulollar mahallasi ichkarisidan topilgan bu devor dastlabki davrlarda Yerqo‘rg‘onning istehkomi vazifasini o‘tagan, biroq shahar hududi kengayib, hozirga qadar saqlanib qolgan ichki devor qurilgandan so‘ng miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda qurilgan eski devor noqulaylik tug‘dirgani uchun buzib tashlangan va uning tuprog‘idan shahar kulollari buyumlar yasash uchun foydalanishgan.

Natija va muhokama. III asr Yerqo‘rg‘onning eng so‘nggi va eng yuksak gullab-yashnagan davri bo‘ldi, bu davrda shaharda ehrom va maqbara, ark va saroy qurildi, istehkom devorlari o‘zgartirilib ta’mirlandi. Bu davrda Naxshab hukmdorlari tomonidan zarb etilgan tangalar va tasviriy san’at namunalarida Parfiya ta’siri seziladi. III asrda bunyod etilgan hukmdor maqbarasida olib borilgan qazishmalar dafn marosimining o‘ziga xos xususiyatini ochib berdi. Maqbara yuksak piramidasimon asosga ko‘tarilgan bo‘lib, shahar darvozasiga qarata to‘rtburchak zal-ayvon shaklida qurilgan bo‘lib, yoni va orqa tomonidan tor koridorsimon xonalarga tutashgan. Ana shu xonalardan katta yoshdagi erkak va ayolning jasadlari topildi. Ular zardushtiylik udumlar bo‘yicha, ya’ni suyaklari etdan tozalanib, ikkita kattakon xumga solinib dafn etilgan. Yana bu yerdan, aftidan, marhumlar siymosi aks etgan rangli sopol haykalning bo‘laklari, zargarlik buyumlari ham topildi. Lekin bizning mavzumiz uchun muhimi shundaki, xumlarning yonidan to‘quv dastgohining ikki yuzdan ortiq posangilari topildi. Ular xumlar atrofida, tor va qop-qorong‘i xonada birga sochilib yotardi. Faqat hukmdorning qarindosh-urug‘larigina kirishi mumkin bo‘lgan maqbarada to‘quv dastgohining ishlab turganligiga aql bovar qilmaydi. Loydan yasalgan diametri 10 santimetrcha keladigan posangilar soni ham

keragidan ancha ortiqdir. Haqiqatga eng yaqin birdan-bir xulosa shuki, posangilar qadimiy so‘g‘dlarning hukmdor er-xotinlarning narigi dunyodagi taqdiriga ishonib keltirgan o‘ziga xos diniy tortiqlaridir. Aftidan, III-IV asrlarda Naxshabdagi mifologik tasavvurlarga ko‘ra, ramzi to‘quvchilik bilan bog‘liq bo‘lgan taqdir ilohalari narigi dunyoda va undan keyingi qayta tirilishlarda katta rol o‘ynagan ko‘rinadi[1,45].

Yerqo‘rg‘onda olib borilgan qazishmalarda III-VI asrlarga mansub shahar ehromi eng muhim obyektlardan biri bo‘ldi va undan loydan ishlangan ayol ilohaning siniqlari topildi. Ehromni takror-takror ta’mirlash va qayta qurish jarayonlarida ilohlarning yog‘och sinchlar ustiga loydan yasalgan va bo‘yoq berilgan haykallari sindirilib, devor va pol ostiga suvab yuborilgan, ibodatxonaning bosh mehrobiga esa yangidan yasalgan haykallar qo‘yilgan. Bizgacha ushbu ilohlardan uchtasining turli davrlarda yasalgan bo‘laklari yetib kelgan. Shunday qilib, ushbu ehrom ayol ilohaga bag‘ishlab bunyod etilgan. III-VI asrlarda u mazkur shahar va butun Qarshi vohasining homiysi hisoblangan [1,25].

Yerqo‘rg‘on ehromi topilmalari orasida zardushtiylik aqidalariga zid kelmaydigan yagona obraz - bu kulon shaklidagi oltin tipratikan tasviridir. Sichqon, qurbaqa, ilon va don-dunni tashmalab ketuvchi chumolilarning kushandasi bo‘lmish tipratikan muqaddas jonivor sifatida e’zozlangan. Zardushtiylardan tashqari qator qadimiy xalqlar, shu jumladan sarmatlar ham tipratikanni e’zozlanganlar. Yerqo‘rg‘on ehromidan qurbaqa, ilon tasvirlari bilan birgalikda tipratikan shaklining topilishi qadimiy so‘g‘dlarning yetarli darajada o‘ziga xos e’tiqodiy-asotiriy tasavvurlarga ega bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. Yerqo‘rg‘on ehromining III qurilish davriga mansub sirli jilmayib turgan iloha tasvirini bezab turgan to‘rtta qizil rangli gul shaklidagi xollari alohida e’tiborga sazovordir. Naxshabdagi qadimiy so‘g‘diylar daraxti haqida o‘z tasvirlariga ega bo‘lganligini Yerqo‘rg‘on ehromi ibodatgohining ustuniga ishlangan suratlar ko‘rsatadi. Bu daraxtning tepa qismi burgut boshiga o‘xshatib, shoxlari esa burgut qanotlariga o‘xshatib tasvirlangan, pastki parlari yoyilib turgan dum qismi esa ushbu daraxt o‘sib chiqqan dunyo tog‘ini ifoda etadi. Bu tasvirda, aftidan, hayot daraxti bilan, zardushtiylik mifologiyasiga ko‘ra, har bir qanot qoqishidan zaminga keyinchalik obihayot ta’sirida unib chiquvchi barcha nabotot va hayvonot urug‘larini sochadigan Semurg‘ qushining afsonaviy obrazlari yaxlit kompozitsiya orqali qo‘shilib ketgan[1,40].

VI asrda Buxoro yaqinida bo‘lib o‘tgan hal qiluvchi jangda turklar bilan Sosoniy Eron ittifoqi eftaliylarning yakson qilib tashladi, eftalit lashkarboshisining xiyonati jangda ular qismatini hal qildi. Bu jangning o‘sha davrda O‘rta Osiyoning eng yirik shaharlardan biri Yerqo‘rg‘on uchun oqibati yomon bo‘ldi, shahar yondirilib, yakson qilindi va abadiy tashlandiqqa aylandi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Qashqadaryo vohasida qadimdan shaharsozlik rivoj topgani, yirik muhandislik inshootlari, bozorlar, bog‘-rog‘lar bo‘lgani manbalardan ma’lum. Qarshi shahri Ko‘ppakxon tomonidan tiklangan bo‘lsa-da, uning qadimiy tarixi asrlar qa’riga kirib boradi. Yerqo‘rg‘on, Nasaf, Qarshi yonmayon, geografik jihatdan o‘zaro aloqador holda joylashgan. Yerqo‘rg‘on arxeologik yodgorligi ham miloddan avvalgi VIII-VII asrlardayoq mudofaa devori bilan qurshab olingan ilk shahar sifatida shakllanib bo‘lgan[1,12-13]. Eng muhimi, ular davriy muntazamlilikda joylashishgan, ya’ni, ular turli davrlarda turlicha nom bilan atalgan bo‘lsa-da, aslida Naxshab vohasi poytaxti shahrining turli taraqqiyot bosqichlarini o‘zlarida mujassam etgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сулаймонов Р.Х. Нахшаб унитилган тамаддун сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2004.
2. Исамиддинов М.Х., Сулаймонов Р.Х. Еркурган.Т.: Фан, 1984.
3. Равшанов П. Қашқадарё тарихи. Т, 1995.
4. Кабанов С.К. Нахшеб на рубеже древности и средневековъя. Т.,1977.
5. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув қўлланма. Т.: Университет, 2004.
6. Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Суғд (бошқарув тизими) // Шарқшунослик, №11. – Т., 200. – Б. 119–129.
7. Гумилев Л. Н. Қадимги турклар. – Т., 2007. – 498 Б.
8. Камолиддинов Ш. С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана. – Т.: Узбекистан, 1996. – 422 С.
9. Турғунов Б. Ўзбекистон антик маданияти. (Жанубий Ўзбекистоннинг қадимий маданиятидан лавҳалар). -Тошкент: Ўзбекистон. 1976.
10. Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Т.: ART-FLEX, 2010. – 219 Б.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 801.82:81.301

THE PRAGMATIC CHALLENGES OF WORLD LEADERS SPEECH: AN EXAMPLE OF THE UZBEK PRESIDENT'S SPEECH ANALYSIS

Kholmirzayeva Sitora Ziyodulla qizi,
Master's Student at Termez State University



sitoraxolmirzayeva298@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-8686-2282

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ В РЕЧИ МИРОВЫХ ЛИДЕРОВ: АНАЛИЗ РЕЧИ ПРЕЗИДЕНТА УЗБЕКИСТАНА

Холмирзаева Ситора Зиядулла кызы,
магистрант Термезского государственного университета

JAHON YETAKCHILARINING NUTQIDAGI PRAGMATIK MUAMMOLAR: O'ZBEKISTON PREZIDENTINING NUTQI MISOLIDA TAHLIL

Xolmirzayeva Sitora Ziyodulla qizi,
Termiz davlat universiteti magistranti

Annotation: *This article investigates the pragmatic analysis of the challenges faced by comprehending the world leaders' speech (an example of Uzbek President's speech). Using by pragmatic analysis framework,in this thesis the diplomatic speeches that were spoken in international forums,national and important public events of Uzbek President are analyzed. The thesis identifies key pragmatic challenges - cross-cultural conception obstacles,pragmatic link between addresser and addressee, politeness strategies, communication strategies and the sensitivity of the diplomatic word - and evaluates how these challenges are addressed through pragmalinguistics, discourse manners and others. Findings show that political speeches employs high-quality communicative aspects, addressing cross-cultural audience, cooperate with pragmatic intentions and international trust.*

Key words: *Pragmatic analysis, pragmatic challenges, world leaders' speech, public interest, diplomatic word, persuasion, effectiveness of world leaders' speeches.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается прагматический анализ трудностей, возникающих при понимании речей мировых лидеров (на примере выступлений Президента Узбекистана). В работе на основе прагматического аналитического подхода анализируются дипломатические речи Президента Узбекистана, произнесённые на международных форумах, национальных заседаниях и важных общественно-политических мероприятиях. В исследовании выявляются ключевые прагматические проблемы – межкультурные концептуальные барьеры, прагматическая связь между адресантом и адресатом, стратегии вежливости, коммуникативные стратегии и чувствительность дипломатического слова – а также оцениваются способы их реализации посредством прагмалингвистических средств, дискурсивных приёмов и других факторов. Результаты исследования показывают, что политические речи обладают высоким уровнем коммуникативного качества, ориентированы на межкультурную аудиторию, согласуются с прагматическими намерениями и способствуют формированию международного доверия.*

Ключевые слова: *прагматический анализ, прагматические проблемы, речь мировых лидеров, общественный интерес, дипломатическое слово, убеждение, эффективность речей мировых лидеров.*

Annotatsiya: *Bu maqola O‘zbekiston Prezidenti nutqi misolida jahon liderlarining nutqlarini tushunishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni pragmatik jihatdan tahlil qiladi. Pragmatik analiz usullaridan foydalangan holda bu maqola xalqaro forumlarda, milliy va muhim jamoat tadbirlarida so‘zlangan diplomatik nutqlarni tahlil qiladi. Tadqiqotda quyidagi asosiy pragmatik muammolar aniqlanadi: madaniyatlararo tushunishdagi to‘siqlar, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi pragmatik bog‘liqlik, xushmuomalalik (politeness) strategiyalari, kommunikativ strategiyalar hamda diplomatik so‘zning ta’sirchanligi. Shuningdek, ushbu muammolarning pragmalingvistika, diskurs uslublari va boshqa lingvistik vositalar orqali qanday hal etilishi baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, siyosiy nutqlar yuqori darajadagi kommunikativ sifatga ega bo‘lib, madaniyatlararo tinglovchilarga muvaffaqiyatli yo‘naltirilgan, pragmatik uslublar bilan uyg‘unlashgan hamda xalqaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Pragmatik tahlil, pragmatik qiyinchiliklar, jahon liderlari nutqlari, omma qiziqishini, diplomatik so‘z, undash, jahon liderlari nutqlari ta’sirchanligi.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). Pragmatics is considered an important and widely used branch in linguistics and the research world. The main focus of pragmatics is how contextual meaning is constructed through intention and interaction, forming it as a valuable tool for analyzing political discourse. It directly influences all aspects of communication. Ashurova informs that “Pragmatic intention is understood as verbalized in the text the addresser’s deliberate intention to exert influence on the addressee so that it might cause some reconstruction of his world picture”. That is why, in politics, the Uzbek President’s speech plays an important role, as it delivers meanings of persuasion, diplomacy, and public interest. Such speeches include not only linguistic texts but also pragma-cultural, social, and political contexts. Therefore, the effectiveness of these speeches directly depends on how the elements are balanced in every aspect. Any type of misapplication may lead to pragmatic challenges, misunderstanding, or loss of persuasive impact. This study aims to examine the main pragmatic challenges present in the Uzbek President’s speeches and to identify the linguistic strategies used to overcome these challenges in contemporary political communication [1].

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). Pragmatics and stylistics have been widely recognized as essential tools for analyzing political discourse, particularly in the context of world leaders’ speeches. D. Ashirova and M. Galiyeva (2013) emphasize that stylistics provides a framework for examining not only the linguistic form of a text but also the interaction between language and context, highlighting how meaning is constructed through intention and textual strategies. According to their work, pragmatic intention is understood as the deliberate effort of the speaker to influence the addressee, shaping perception and guiding interpretation. This perspective underscores the importance of pragmatics in political communication, where the speaker’s goal is often to persuade, inform, or appeal to both national and international audiences [1].

Paul Chilton (2004) builds on this understanding by providing a detailed methodological approach to political discourse analysis. He argues that political texts cannot be adequately interpreted without considering the interplay between linguistic structures, social context, and communicative intent. Chilton’s approach integrates both semantic and pragmatic analysis, focusing on how leaders use language to achieve persuasive effects, manage authority, and negotiate ideological positions. In particular, the use of inclusive language, modality, and indirectness in speeches is highlighted as a strategy to maintain relevance across diverse audiences while balancing assertiveness and diplomacy [2].

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA). De Gruyter Mouton’s volume, *Pragmatics across Languages and Cultures* (2010), expands this framework by

emphasizing the cross-cultural dimensions of pragmatic meaning. The text illustrates that understanding political discourse requires attention not only to explicit linguistic markers but also to the cultural and social norms that influence interpretation. Pragmatic phenomena such as deixis, implicature, and speech acts are central to ensuring that the speaker's intention is accurately perceived by both domestic and international listeners. This cross-cultural perspective is particularly relevant when analyzing the speeches of world leaders, whose audiences are often diverse in terms of linguistic background, cultural expectations, and political orientation [3].

In this article, a pragmatic theory-based discourse-analytical approach is widely used. For the key elements of the analysis, official texts are chosen – those delivered by the President of Uzbekistan in national meetings, international forums, and important international events. These texts are considered a valuable framework for analysis due to their relevance to national and international political discourse.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). The results of the research identified several important pragmatic challenges in the Uzbek President's speeches. Inclusive pronouns and generalized references are applied to maintain relevance across different listener groups. Authority and empathy are combined in the research. This helps establish a consistent pragmatic pattern, which is the combination of authoritative directives with empathetic expressions. These elements strengthen the persuasive and diplomatic aspects of the speeches [4].

The results indicate that the pragmatic achievement of world leaders' speeches is associated with language patterns, communicative goals, and contextual limits. In the Uzbek President's discourse, these challenges are addressed through modality, inclusive deixis, and indirectness. These strategies reflect modern political tendencies – transparency and diplomacy, decisiveness and solidarity. The observed pragmatic choices indicate an awareness of both national and global political expectations [2].

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). This study has examined the pragmatic challenges inherent in world leaders' speeches, using the Uzbek President's discourse as an example addressed to public and diplomatic audiences. The analysis demonstrates that world leaders' speech is not only a high-quality communication type but also a complex pragmatic act shaped by context, formed to audience expectations, and diplomatic trust. The Uzbek President's speech carries high value in persuasion, politeness, deixis, and political and diplomatic goals. The main finding of the research is that pragmatics influences cross-cultural listeners, making formal speeches challenging to comprehend. This requires speakers to balance both national and universally acceptable norms and to avoid pragmatic failures that may arise from misunderstanding certain lexical deixis or implicit meanings.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI):

1. Chilton P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice. – London: Routledge, 2004. – Pp. 15-27.
2. De Gruyter Mouton. Pragmatics across Languages and Cultures. – Germany, 2010. – Pp. 43-47.
3. Kim M. Alternative Interventions to Intimate Violence: Defining Political and Pragmatic Challenges. – ResearchGate, 2010. – Pp. 20-25.
4. Ашырова Д.У., Галиева М.А. Stylistics. – Ташкент: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана им. А. Навои, 2013. – С. 86-87.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 21.431.3

RAQAMLI SIVILIZATSIYA SHAROITIDA KIBERMADANIYAT VA YOSHLAR KIBERXAVFSIZLIGI MASALALARI

Allayarov Otabek Erkinovich, Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sarbon universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti



CYBERCULTURE AND YOUTH CYBERSAFETY ISSUES IN THE CONDITIONS OF DIGITAL CIVILIZATION

Allayarov Otabek Erkinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Political Sciences Associate Professor, Department of Social and Human Sciences, Sarbon University

allayarovotabek84@gmail.com

КИБЕРКУЛЬТУРА И ВОПРОСЫ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Алларёв Отабек Эркинович, доктор философии (PhD) в области политических наук, доцент кафедры социальных и гуманитарных наук Сарбонского университета

Abstract: *This article analyzes the concept of cyberculture and the challenges of ensuring cybersecurity among youth in the context of digital civilization. The study emphasizes the importance of integrating national and universal values into digital literacy programs, fostering responsible behavior in online environments, and developing pedagogical strategies to protect young learners from digital threats. The results provide evidence-based recommendations for strengthening cyberculture and cybersecurity education, highlighting the role of moral, legal, and technical mechanisms in safeguarding youth in a rapidly evolving digital society.*

Key words: *digital civilization, cyberculture, cybersecurity, youth, digital literacy, information security, pedagogical strategies, information ethics, national and universal values online behavior*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы формирования киберкультуры и обеспечения кибербезопасности молодежи в условиях цифровой цивилизации. Подчеркивается необходимость интеграции национальных и универсальных ценностей в программы цифровой грамотности, формирования ответственного поведения в сети и разработки педагогических стратегий защиты учащихся от цифровых угроз. Полученные результаты содержат рекомендации по укреплению киберкультуры и образования в области кибербезопасности, с акцентом на роль моральных, правовых и технических механизмов в защите молодежи в быстро развивающемся цифровом обществе.*

Ключевые слова: *цифровая цивилизация, киберкультура, кибербезопасность, молодежь, цифровая грамотность, информационная безопасность, педагогические стратегии, этика информации, национальные и универсальные ценности и поведение в сети.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli sivilizatsiya sharoitida kibermadaniyat va yoshlar kiberxavfsizligini ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot milliy va umuminsoniy qadriyatlarni raqamli savodxonlik dasturlariga integratsiya qilish, yoshlarni internet-muhitida mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirish va pedagogik strategiyalar orqali raqamli tahdidlardan himoya qilishning ahamiyatini ko'rsatadi. Natijalar kibermadaniyat va kiberxavfsizlik bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *raqamli sivilizatsiya, kibermadaniyat, kiberxavfsizlik, yoshlar, raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi, pedagogik strategiyalar, axborot etikasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar va onlayn xulq-atvor.*

Kirish (Introduction). Raqamli sivilizatsiya inson faoliyati, jamiyat tuzilmasi va ta'lim jarayoniga tub o'zgarishlar olib kelmoqda. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet resurslarining kengayishi, shuningdek, sun'iy intellekt va raqamli platformalarning ta'lim tizimiga joriy etilishi o'quv jarayonini yanada interaktiv va individualizatsiyalangan shaklga keltirmoqda. Ushbu jarayonlar yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, jumladan, bilim olishning turli manbalari va vositalari kengayadi, onlayn o'quv platformalar orqali global tajribaga kirish imkoniyati oshadi.

Biroq, raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi bilan bir qatorda, yoshlar o'rtasida kiberxavfsizlik va kibermadaniyat masalalari dolzarb ahamiyat kasb qilmoqda. Yoshlar internet muhitida turli axborot resurslari bilan muntazam muloqot qiladi, bu esa ularning shaxsiy ma'lumotlari, ta'limiy faoliyati va onlayn xulq-atvoriga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, kiberxavfsizlikning yetarli darajada ta'minlanmasligi yoshlarni feyk axborot, kiberhujumlar, ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi va boshqa axborot tahdidlariga duchor qilishi mumkin.

Kibermadaniyat esa nafaqat texnologik bilimlar, balki axborotdan mas'uliyatli foydalanish, tanqidiy fikrlash, axborot manbalarini baholash, etik qoidalar va onlayn xulq-atvorni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Raqamli sivilizatsiya sharoitida kibermadaniyatni rivojlantirish yoshlarning raqamli muhitda xavfsiz va mas'uliyatli faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u milliy va umuminsoniy qadriyatlarni onlayn xulq-atvor va axborot almashish jarayonlariga integratsiya qilish orqali yoshlar ongida axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantiradi.

Shu nuqtai nazardan, raqamli sivilizatsiya sharoitida kibermadaniyat va kiberxavfsizlik masalalarini o'rganish nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, pedagogik va ma'naviy jihatlarni ham qamrab olishi lozim. Bu jarayon yoshlar ta'limi sifatini oshirish, ularni global raqamli muhitda xavfsiz va mas'uliyatli foydalanuvchilar sifatida tarbiyalash hamda jamiyatning raqamli barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega.

Kibermadaniyat tushunchasi nafaqat texnologik bilimlarni, balki axborotdan mas'uliyatli foydalanish, internet etikasi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarni raqamli muhitda himoyalash va axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat texnik choralar, balki pedagogik, huquqiy va ma'naviy yondashuvlarni talab qiladi.

Metodologiya (Methods). Ushbu tadqiqotda kibermadaniyatni rivojlantirish va yoshlar kiberxavfsizligini ta'minlash jarayonlarini ilmiy asosda o'rganish uchun bir nechta kompleks metodlar qo'llanildi:

Tizimli tahlil va qiyosiy-tahliliy usul. Mazkur usul yordamida kibermadaniyat va kiberxavfsizlik bo'yicha milliy va xalqaro tadqiqotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, normativlar va xalqaro standartlar [1] keng qamrovda o'rganildi. Ushbu tahlil raqamli sivilizatsiya sharoitida yoshlar orasida onlayn xulq-atvor, axborotdan foydalanish odatlari va xavfsizlik tahdidlarini aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy-tahliliy yondashuv orqali turli mamlakatlarda ta'lim tizimida kibermadaniyatni shakllantirish strategiyalari solishtirildi va samarali tajribalar ajratib olindi.

Ilmiy mushohada va nazariy tadqiqot. Tadqiqotning nazariy qismi yoshlar o'rtasida raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini o'rganishga qaratildi. Bu jarayonda raqamli etikaga, axborot manbalarini tanlash va baholash qoidalariga, shuningdek, onlayn muhitda xavfsiz xulq-atvorni rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Nazariy tahlil natijalari pedagogik yondashuvlar va ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ilmiy asos sifatida xizmat qildi [2].

Amaliy kuzatish va ekspert baholash. Amaliy tadqiqotlar doirasida ta'lim muassasalarida raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlik bo'yicha amalga oshirilayotgan treninglar, seminarlar, onlayn mashg'ulotlar va interaktiv o'quv platformalarining samaradorligi kuzatildi. Ekspert baholash orqali ushbu mashg'ulotlarning yoshlarning onlayn xavfsizlik madaniyati, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari va axborotni mas'uliyatli ishlatish qobiliyatiga ta'siri aniqlab olindi [3].

Metodologik integratsiya. Ushbu ilmiy usullar birlashtirilgan holda tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi. Tizimli va qiyosiy tahlil orqali konseptual ramka yaratilgan bo'lsa, nazariy mushohada pedagogik va ma'naviy jihatlarni aniqlashga xizmat qildi. Amaliy kuzatish va ekspert baholash esa nazariy xulosalarni real ta'lim muhitiga tatbiq etish imkonini berdi. Shu

orqali kibermadaniyatni shakllantirish va yoshlar kiberxavfsizligini ta’minlashning samarali strategiyalari aniqlanib, ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijada, metodologik yondashuvlar kompleksligi yoshlar o‘rtasida kibermadaniyatni rivojlantirish va kiberxavfsizlikni ta’minlashning ilmiy asoslangan, tizimli va samarali modelini ishlab chiqishga imkon berdi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yoshlar raqamli muhitda turli xavf-xatarlar ostida faoliyat yuritmoqda. Xususan, internetda feyk axborot, ekstremistik va zararli kontent, shuningdek, reklamalar ta’siri natijasida ularning tanqidiy fikrlash va axborotni saralash ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa nafaqat axborotdan mas’uliyatli foydalanishni cheklaydi, balki yoshlarning onlayn xavfsizlik madaniyati va raqamli savodxonlik darajasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni axborot xavfsizligini ta’minlash jarayoniga integratsiya qilish ham alohida ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jarayonlarda axborot xavfsizligini milliy va global qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, yoshlarning kiberxavfsizlik madaniyatini yanada samarali shakllantirishga yordam beradi. Bu yondashuv nafaqat texnologik xavfsizlikni oshiradi, balki yoshlarni axborot makonida ongli, mas’uliyatli va mustaqil pozitsiyaga ega shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Haddad va Hamm tadqiqotlariga ko‘ra, texnik himoya vositalari – antiviruslar, fayrvol va shifrlash texnologiyalari – pedagogik va ma’naviy yondashuvsiz yetarli xavfsizlikni ta’minlay olmaydi [4]. Shu sababli, yoshlarni axborot tahdidlaridan himoya qilishda pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb qiladi.

Pedagogik yondashuvlar yoshlarning axborotni tanqidiy baholash, manbalarni tekshirish va xavfsiz xulq-atvorni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, Hobbs (2017) tadqiqotlarida raqamli media va axborot etikasi mashg‘ulotlari yoshlarning onlayn xavfsizlik va axborotni saralash qobiliyatlarini oshirishga yordam berishi ko‘rsatilgan[5]. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni pedagogik jarayonlarga integratsiya qilish yoshlarning axborot xavfsizligi madaniyatini mustahkamlashda muhimdir. Masalan, axborot etikasi va kiberxavfsizlik darslarida inson huquqlari, axloqiy qadriyatlar va mas’uliyatli axborot iste’moli konseptlari birlashtirilganda, yoshlar nafaqat xavfsiz, balki mas’uliyatli va ongli axborot foydalanuvchilari sifatida tarbiyalanadi.

Shuning uchun raqamli sivilizatsiya sharoitida yoshlarni axborot tahdidlaridan himoya qilish uchun texnik, pedagogik va ma’naviy mexanizmlarni birlashtirish zarur. Bunday integratsiyalashgan yondashuv kiberxavfsizlikni oshirish bilan birga, yoshlarni axborot makonida mas’uliyatli, ongli va xavfsiz faoliyat yuritadigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa (Conclusion). Raqamli sivilizatsiya sharoitida kibermadaniyat va yoshlar kiberxavfsizligi masalalari ta’lim tizimining barqaror rivoji va sifatini ta’minlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda faqat texnik vositalarga tayanish yetarli emas; pedagogik va ma’naviy yondashuvlarni birlashtirish zarur. Yoshlar raqamli savodxonlik, axborot etikasi va mas’uliyatli internet foydalanish ko‘nikmalarini egallashi lozim. Shu bilan birga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kibermadaniyatni rivojlantirish va kiberxavfsizlikni ta’minlash yoshlarni raqamli tahdidlardan samarali himoya qilishning eng maqbul yo‘li hisoblanadi. Natijada, maqola ta’lim muassasalari va ilmiy jamoatchilik uchun yoshlar kiberxavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va strategik yo‘nalishlarni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference):

1. OECD. Innovating Education and Educating for Innovation. – Paris, 2018.
2. UNESCO. Education in a Digital World: Cybersecurity and Ethics. – Paris, 2021.
3. European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. – Brussels, 2020.
4. Haddad, W., & Hamm, J. (2020). *Digital Literacy and Cybersecurity Education: Global Perspectives.* New York: Routledge.
5. Hobbs, R. (2017). *Create to Learn: Introduction to Digital Literacy.* Hoboken: Wiley.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 21.431.3

RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI VA TA'LIM SOHASIDAGI OQIBATLAR



Shermetov Atabek Ismailovich, Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti

INFORMATION SECURITY ISSUES IN THE DIGITAL SOCIETY AND IMPLICATIONS FOR EDUCATION

Shermetov Atabek Ismailovich, Asian International University 2nd year master's student

shermetovatabek@gmail.com

ПРОБЛЕМЫ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ И ИХ ПОСЛЕДСТВИЯ ДЛЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Шерметов Атабек Исмаилович, Азиатский международный университет, студент 2-го курса магистратуры

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan axborot xavfsizligi muammolari va ularning ta'lim sifati hamda barqaror rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish va pedagogik hamda huquqiy choralarni uyg'unlashtirish zaruratini ko'rsatadi. Maqola raqamli ta'lim muhitida kiberxavfsizlikni ta'minlash va yosh avlodda mas'uliyatli axborot iste'molini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni taqdim etadi.*

Калит сўзлар: *raqamli jamiyat, axborot xavfsizligi, elektron ta'lim, raqamli savodxonlik, shaxsiy ma'lumotlar, pedagogik va huquqiy choralar.*

Abstract: *This article analyzes the issues of information security in the education system within the context of a digital society and their impact on educational quality and sustainable development. The study highlights the need to protect personal data, develop digital literacy, and integrate pedagogical and legal measures effectively. The article provides evidence-based recommendations for ensuring cybersecurity in digital learning environments and fostering responsible information use among young learners.*

Key words: *digital society, information security, e-learning, digital literacy, personal data, pedagogical and legal measures.*

Аннотация: *В статье анализируются вопросы информационной безопасности в системе образования в контексте цифрового общества и их влияние на качество образования и устойчивое развитие. В исследовании подчеркивается необходимость защиты персональных данных, развития цифровой грамотности и эффективной интеграции педагогических и правовых мер. Статья предлагает рекомендации, основанные на доказательствах, для обеспечения кибербезопасности в цифровой образовательной среде и формирования у молодых обучающихся ответственного отношения к информации.*

Ключевые слова: *цифровое общество, информационная безопасность, электронное обучение, цифровая грамотность, персональные данные, педагогические и правовые меры.*

Kirish (Introduction). Raqamli jamiyatning shakllanishi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayon jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan, ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayni paytda ta'lim jarayoniga elektron ta'lim platformalari, masofaviy o'qitish

texnologiyalari, raqamli ma’lumotlar bazalari hamda sun’iy intellektga asoslangan ta’limiy vositalarning keng joriy etilishi ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individualizatsiyalash va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Mazkur innovatsion jarayonlar bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq yangi va murakkab muammolar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, ta’lim tizimida saqlanayotgan katta hajmdagi shaxsiy va ta’limiy ma’lumotlarning himoya qilinishi, elektron platformalar orqali axborot almashinuvida kiberxavflar ehtimolining ortishi, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jarayonida axborotning ishonchliligi va maxfiyligini ta’minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli jamiyat sharoitida ta’lim tizimida axborot xavfsizligini ta’minlash nafaqat texnik vositalar yordamida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ilmiy asoslangan huquqiy, tashkiliy va pedagogik yondashuvlarni ham talab qiladi. Mazkur muammolarni tizimli ravishda hal etish ta’lim samaradorligini saqlab qolish va uning barqaror rivojini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Axborot xavfsizligi masalasi, ayniqsa, ta’lim sohasida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, ularning axborot muhitida xavfsiz faoliyat yuritishini ta’minlash va ma’naviy barkamollikka salbiy ta’sir etuvchi axborot tahdidlarining oldini olishni talab qiladi. Shu bois, ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida axborot xavfsizligi muammolari va ularning ta’lim sohasiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Metodologiya (Methods). Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning qiyosiy-tahliliy, tizimli tahlil, mantiqiy mushohada hamda ilmiy manbalarni kompleks va chuqur o‘rganish usullaridan samarali foydalanildi. Mazkur usullar orqali axborot xavfsizligi, raqamli ta’lim muhitining shakllanishi va ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan axborot tahdidlariga oid milliy hamda xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, xalqaro tajriba, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va zamonaviy konseptual yondashuvlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Bu esa mavzuning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash va tadqiqot masalasini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Shuningdek, ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotida kuzatilayotgan muammolar tizimli ravishda umumlashtirilib, ularning ta’lim sifatiga, o‘quvchilarning bilish faolligiga, axborotni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatiga, shuningdek, tarbiyaviy jarayon samaradorligiga ko‘rsatayotgan ta’siri kompleks tarzda baholandi. Olingan tahlil natijalari raqamli ta’lim muhitida axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish, amaliy tavsiyalar berish hamda mazkur sohadagi keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam metodologik asos yaratishga xizmat qildi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli jamiyat sharoitida axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar bir necha asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda.

Birinchidan, ta’lim muassasalarida saqlanayotgan shaxsiy ma’lumotlar va ta’lim jarayonida yig‘iladigan axborot bazalariga noqonuniy kirish va tarqalish xavfi sezilarli darajada yuqori. Bu holat nafaqat ma’lumotlarning maxfiyligi va ishonchliligini xatar ostiga qo‘yishi, balki ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan barcha subyektlar – o‘quvchilar, pedagoglar va ma’muriyatning huquqiy va etik majburiyatlariga ham bevosita ta’sir qiladi [1].

Ikkinchidan, o‘quvchilar nazoratsiz internet muhitida feyk axborot, ekstremistik va axloqqa zid ma’lumotlarga duch kelishi mumkin. O‘zbekiston kontekstida ham raqamli ta’lim muhitida yoshlar internet resurslari orqali turli axborot tahdidlariga duch kelishi kuzatilmoqda. Shu bois, milliy ta’lim tizimida raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligi madaniyatini rivojlantirish, shuningdek, pedagoglar va o‘quvchilarni ushbu masalalar bo‘yicha malakali tayyorlash zarur [2].

Shuningdek, plagiatchilik va akademik etika qoidalarining buzilishi ham ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar kompleks tarzda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatining susayishi va ma’naviy-axloqiy barqarorlikka salbiy ta’sir etish xavfini yuzaga keltiradi. Shu sababli, raqamli ta’lim muhitida axborot xavfsizligini ta’minlash nafaqat texnik vositalar orqali, balki pedagogik, ma’naviy va huquqiy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirilgan kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Muhokama (Discussion). Olingan tadqiqot natijalari axborot xavfsizligi muammolarini ta’lim

sohasida faqat texnik yoki texnologik masala sifatida emas, balki keng qamrovli ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu xulosa xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan ham uyg‘un keladi. Jumladan, M. Castells raqamli jamiyatda axborot xavfsizligi masalasi ijtimoiy tuzilmalar, ta’lim tizimi va madaniy identifikatsiya bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [3].

UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli ta’lim muhitida axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy sharti sifatida ta’lim oluvchilarda raqamli va axborot savodxonligini shakllantirishning muhimligi alohida qayd etilgan [4].

Bu konsepsiya ta’lim jarayonida faqat kompyuter yoki internetdan foydalanish ko‘nikmalari bilan cheklanmasdan, o‘quvchilarda axborotni tahlil qilish, manbalarning ishonchliligini baholash, axborotni farqli va kontekstga mos qo‘llash kabi tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantirishni talab qiladi. Masalan, internetda tarqaladigan feyk xabarlar, reklamalar yoki ideologik ta’sir olib kelishi mumkin bo‘lgan axborotlardan himoyalanish uchun, o‘quvchilar ma’lumotni tanlab olish va tekshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi shart.

Raqamli va axborot savodxonligini rivojlantirish uchun ta’lim dasturlariga maxsus modullar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlarni kiritish, shuningdek, axborot etikasi, kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha tarbiyaviy faoliyatni muntazam olib borish zarur. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarni zamonaviy raqamli tahdidlaridan himoya qiladi, balki ularda mas’uliyatli va xavfsiz axborot foydalanish madaniyatini ham shakllantiradi.

Shu bilan birga, S. Livingstone va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yoshlarning internet muhitidagi xavflardan himoyasi ular tanqidiy fikrlash, media-mahorat va axborotni saralab qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq ekani ilmiy jihatdan asoslangan [5]. Bu esa ta’lim tizimida axborot xavfsizligini ta’minlash pedagogik vazifa sifatida qaralishi lozimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

OECD tadqiqotlarida ta’lim tizimida axborot xavfsizligini ta’minlash milliy qadriyatlar, fuqarolik tarbiyasi va huquqiy bilimlar bilan uyg‘un holda amalga oshirilgandagina barqaror natija berishi ta’kidlangan [6]. Masalan, Finlyandiya va Janubiy Koreya ta’lim tizimlarida raqamli xavfsizlik masalalari faqat axborot texnologiyalari doirasida emas, balki fuqarolik va axloqiy tarbiya fanlari bilan integratsiya qilingan holda o‘qitiladi [7].

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, axborot xavfsizligini ta’minlashda faqat texnologik yechimlarga tayanish yetarli emas. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar va mazkur tadqiqot natijalari tahlili axborot xavfsizligini ta’minlash pedagogik, ma’naviy va huquqiy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirilgan kompleks yondashuvni talab qilishini ko‘rsatadi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyat sharoitida axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar ta’lim sohasining barqaror rivoji va ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi strategik ahamiyatga ega omillardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadallik bilan joriy etilishi axborot almashinuvini kengaytirib, bilim olish imkoniyatlarini oshirishi bilan birga, ta’lim muassasalari oldiga axborotni himoya qilish, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash va yosh avlodni axborot tahdidlaridan asrash kabi dolzarb vazifalarni ham qo‘ymoqda. Shu bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani kuchaytirish orqali yosh avlodda milliy va umuminsoniy qadriiyatlarga tayanadigan, axborot makonida ongli va mustaqil pozitsiyaga ega shaxsni tarbiyalash mumkin. Bu esa axborot xavfsizligini ta’minlashni ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qarashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘xtamov Sh. *Raqamli ta’lim va axborot xavfsizligi muammolari.* – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2020.
2. Qodirov A. *Axborot xavfsizligi va raqamli savodxonlik: Ta’lim tizimida amaliy tajribalar.* – Toshkent: Fan va ta’lim nashriyoti, 2021.
3. Castells M. *The Rise of the Network Society.* – Oxford: Blackwell Publishing, 2010.
4. UNESCO. *Education in a Digital World: Cybersecurity and Ethics.* – Paris, 2021.
5. Livingstone S. *Children and the Internet: Great Expectations, Challenging Realities.* – Cambridge: Polity Press, 2009.
6. OECD. *Innovating Education and Educating for Innovation.* – Paris, 2018.
7. European Commission. *Digital Education Action Plan 2021–2027.* – Brussels, 2020.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK:37.013.2:004.9

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Purxanova Tazagul Jumanazarovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti qoshidagi akademik litsey,
matematika fani o'qituvchisi

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ НАВЫКОВ XXI ВЕКА В ОБРАЗОВАНИИ АКАДЕМИЧЕСКОГО ЛИЦЕЯ

Пурханова Тазагул Жуманазаровна,
преподаватель математики академического лицея при Каракалпакском государственном университете

PEDAGOGICAL CONTENT OF 21ST CENTURY SKILLS IN ACADEMIC LYCEUM EDUCATION

Purxanova Tazagul Jumanazarovna,
Mathematics teacher at the Academic Lyceum under Karakalpak State University



e-mail:
purxanovatazagul@gmail.com

https://orcid.org/0009-0006-4168-0219

Annotatsiya: *Maqolada XXI asr ko'nikmalarining pedagogik mohiyati, ularning tarkibiy tuzilishi hamda akademik litsey ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. XXI asr ko'nikmalarining kompetensiyaviy yondashuv asosida talqini, ularni shakllantirishning didaktik asoslari va raqamli ta'lim sharoitidagi xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari akademik litsey o'quvchilarida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kommunikativlik, hamkorlik va raqamli savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *XXI asr ko'nikmalari, kompetensiya, akademik litsey, raqamli ta'lim, pedagogik mazmun, ta'lim sifati.*

Аннотация: *В статье научно-теоретически анализируется педагогическая сущность навыков XXI века, их структурное содержание, а также место и значение в системе образования академического лицея. Раскрывается интерпретация навыков XXI века на основе компетентностного подхода, дидактические основы их формирования и особенности реализации в условиях цифрового образования. Результаты исследования служат методической основой для совершенствования образовательного процесса, направленного на развитие у учащихся академических лицеев критического мышления, креативности, коммуникативных навыков, сотрудничества и цифровой грамотности.*

Ключевые слова: *навыки XXI века, компетенция, академический лицей, цифровое образование, педагогическое содержание, качество образования.*

Abstract: *This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical essence of 21st century skills, their structural components, as well as their role and significance in the education system of academic lyceums. The interpretation of 21st century skills based on the competency-based approach, the didactic foundations of their development, and the specific features of their implementation in the context of digital education are revealed. The research findings serve as a methodological basis for improving the educational process aimed at developing critical thinking, creativity, communication, collaboration, and digital literacy among academic lyceum students.*

Key words: *21st century skills, competence, academic lyceum, digital education, pedagogical content, quality of education.*

Kirish

Axborot jamiyatiga o‘tish zaruriyati jahon iqtisodiyotida yangi texnologik tartib shakllanishi va ustuvorligi, axborot resurslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy resurslariga o‘tishi, jamiyatni axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan talabini qondirish, ijtimoiy ishlab chiqish tizimida axborot kommunikatsion infrastruktura ahamiyatini oshishi, xalqaro axborot almashinuvlar asosida maorif, ilmiy-texnik va madaniy sohalarning takomillashuvi, «global axborot afzalliklarini» teng huquq asosida ishlatish bilan shartlanadi. Oxirgi yillarda elektron ta‘limning an‘anaviy ta‘limga qaraganda afzallik jihatlari ko‘proq aniqlanmoqda. So‘nggi vaqtlarda ta‘lim oluvchilar va o‘qituvchilar an‘anaviy ta‘limning ba‘zi turlariga qaraganda onlayn ta‘limning afzalliklari ko‘proq degan xulosaga kelmoqdalar. Sababi, ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o‘qitish platformalari ko‘paymoqda, bunda an‘anaviy va onlayn ta‘limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta‘lim tizimi shakllantirilmoqda. Aralash ta‘lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari ta‘lim jarayonida murakkab texnologiyalarni qo‘llash afzalligi ushbu alternativa uchun sabab bo‘ladi. Bu tendensiyaga bo‘lgan qiziqish ta‘lim jarayonida talabalarga ta‘sir etadi va ta‘lim sifatini oshiradi. Ko‘pgina tadqiqotlar onlayn ta‘lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo‘lishini ko‘rsatgan, ya‘ni talabalarning mustaqil ta‘lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo‘ladi. Elektron ta‘limda rivojlanishini talabalarning raqamli dunyoda o‘zini erkin tutishi, ya‘ni kerakli ma‘lumotlarni yuklab olishi, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatida ko‘rishimiz mumkin. Vaqt o‘tgan sayin ushbu tendensiyaga texnologiyalarni qo‘llash asosida an‘anaviy ta‘limning hohlagan turi, metodi, ta‘lim berish usulini kiritishimiz mumkin.

Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi, globallashuv jarayonlari hamda raqamli texnologiyalarning barcha sohalarga chuqur kirib borishi ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonida faqatgina an’anaviy bilimlarni berish yetarli bo‘lmay, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, ijodkorlik, axborotni tahlil qilish va raqamli muhitda samarali faoliyat yuritish kabi XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Akademik litseylar umumiy o‘rta va oliy ta’lim tizimi o‘rtasidagi muhim bo‘g‘in sifatida o‘quvchilarning intellektual va kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarning kelgusidagi ta’lim va mehnat faoliyatiga tayyorgarligi shakllanadi. Shu sababli akademik litsey ta’limida XXI asr ko‘nikmalarining pedagogik mazmunini chuqur ilmiy asoslash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi akademik litsey ta’limi sharoitida XXI asr ko‘nikmalarining mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

XXI asr ko‘nikmalarining ilmiy-nazariy talqini

Ilmiy manbalarda XXI asr ko‘nikmalari “zamonaviy jamiyat sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan universal kompetensiyalar majmui” sifatida talqin etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan bu ko‘nikmalar shaxsning bilim, malaka, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarining integratsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi.

XXI asr ko‘nikmalari quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. **Kognitiv ko‘nikmalar** – tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish;
2. **Ijodiy ko‘nikmalar** – yangilik yaratish, kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv;
3. **Ijtimoiy ko‘nikmalar** – hamkorlik, jamoada ishlash, kommunikativlik;
4. **Raqamli ko‘nikmalar** – axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish;
5. **Shaxsiy rivojlanish ko‘nikmalari** – o‘z-o‘zini boshqarish, mas’uliyat va refleksiya.

Mazkur ko‘nikmalar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchining har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Akademik litsey ta’limida XXI asr ko‘nikmalarining pedagogik mazmuni

Akademik litsey ta’limida XXI asr ko‘nikmalarining pedagogik mazmuni ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalari bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu mazmun quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Ta’lim mazmunining kompetensiyaviy yo‘naltirilganligi

O‘quv fanlari mazmuni nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni o‘z ichiga olishi lozim. Bu o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Faol va interaktiv o‘qitish metodlaridan foydalanish

Loyiha metodi, muammoli ta’lim, keys-stadi va interaktiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijodkorligi va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

3. Raqamli texnologiyalar integratsiyasi

Elektron ta’lim resurslari, dasturiy platformalar va interaktiv muhitlardan foydalanish o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli ta’limning roli

Raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilar mustaqil ta’lim olish, axborotni izlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Raqamli muhit quyidagi pedagogik imkoniyatlarni yaratadi:

- individuallashtirilgan ta’lim;
- tezkor teskari aloqa;
- vizual va interaktiv o‘quv materiallari;
- o‘quvchilarning faolligini oshirish.

Bu imkoniyatlar XXI asr ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

XXI asr ko‘nikmalarining akademik litsey ta’limidagi ahamiyati

Akademik litsey o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarining rivojlanishi quyidagi natijalarga olib keladi:

- o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasi oshadi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash shakllanadi;
- raqamli jamiyat talablariga mos shaxs tarbiyalanadi;
- oliy ta’limga tayyorgarlik darajasi kuchayadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, XXI asr ko‘nikmalari akademik litsey ta’limining muhim pedagogik komponenti hisoblanadi. Ularning pedagogik mazmunini to‘g‘ri aniqlash va ta’lim jarayoniga maqsadli integratsiya qilish o‘quvchilarning intellektual, ijodiy va raqamli salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalar akademik litseylar uchun XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi dasturiy ta’minotni ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Abdullayeva M.B. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
6. Saidov U.S. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
7. Xolmatova N.R. Akademik litsey ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi // Pedagogik ta’lim. – 2022. – №3. – B. 45–50.
8. To‘raev B.T. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
9. Voigt C., Roblin N.P. A Global Framework of Reference on Competences for Democratic Culture. – Strasbourg: Council of Europe, 2018.
10. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco: Jossey-Bass, 2009.
11. Partnership for 21st Century Learning (P21).

Framework for 21st Century Learning. – Washington DC, 2019.

12. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing, 2020.

13. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg: Publications Office of the EU, 2017.

14. Fullan M., Langworthy M. A Rich Seam: How New Pedagogies Find Deep Learning. – London: Pearson, 2014.

15. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. – Edmonton: Athabasca University Press, 2011.

16. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. // Teachers College Record. – 2006. – Vol.108(6). – P.1017–1054.

17. UNESCO. Education in a Digital World. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.

18. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005.

19. Salinas J. Innovation in educational technology: Educational models and digital competences // Educational Technology & Society. – 2018. – Vol.21(3). – P.45–58.

20. Hattie J. Visible Learning for Teachers. – London: Routledge, 2012.

21. Johnson L., Adams Becker S., Estrada V. Horizon Report: Education Edition. – Austin: The New Media Consortium, 2016.

22. Ergasheva D.Sh. Raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim kompetensiyasini rivojlantirish // Xalq ta’limi. – 2021. – №4. – B. 62–67.

23. Rasulov A.K. Akademik litsey ta’limida interaktiv metodlarning samaradorligi // Uzluksiz ta’lim. – 2020. – №2. – B. 38–42.

24. Bates A.W. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: BCcampus, 2019.

25. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury, 2017.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.091.3:004.9

UMUMIY O‘RTA TA’LIM TIZIMIDA FRILANSERLIK FAOLIYATINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Purxanova Tolganay Jumanazarovna,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahar 48-sonli ayrim fanlar chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinflari bor umumiy o‘rta ta’lim maktabining informatika fani o‘qituvchisi



e-mail: purxanovatolganay@gmail.com

https://orcid.org/0009-0002-7162-7364

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ФРИЛАНСЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СИСТЕМЕ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Пурханова Толганай Жуманазаровна,
преподаватель информатики общеобразовательной школы № 48 с углублённым изучением отдельных предметов,
г. Нукус, Республика Каракалпакстан

PEDAGOGICAL ESSENCE AND DEVELOPMENT TRENDS OF FREELANCE ACTIVITY IN THE SYSTEM OF GENERAL SECONDARY EDUCATION

Purxanova Tolganay Jumanazarovna,
Computer Science teacher at Secondary School No. 48 with advanced instruction in selected subjects,
Nukus, Republic of Karakalpakstan

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida frilanserlik faoliyatining pedagogik mohiyati, mazmuni va rivojlanish tendensiyalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Frilanserlik faoliyatining zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda frilanser ko‘nikmalarini rivojlantirishning ta’limiy imkoniyatlari, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *frilanserlik faoliyati, frilanser ko‘nikmalari, umumiy o‘rta ta’lim, raqamli iqtisodiyot, kompetensiyaviy yondashuv, mehnat bozori.*

Аннотация: *В статье рассматриваются педагогическая сущность и основные тенденции развития фрилансерской деятельности в системе общего среднего образования. Проанализировано содержание фрилансерской деятельности как формы современной профессиональной занятости, ориентированной на цифровую экономику и требования рынка труда. Обоснована целесообразность формирования у учащихся общеобразовательных школ фрилансерских компетенций на основе компетентностного и личностно-ориентированного подходов.*

Ключевые слова: *фрилансерская деятельность, фрилансерские компетенции, общее среднее образование, цифровая экономика, рынок труда, компетентностный подход.*

Abstract: *This article examines the pedagogical essence and development trends of freelance activity in the system of general secondary education. The content of freelance activity is analyzed as a modern form of professional employment oriented toward the digital economy and labor market demands. The relevance of developing freelance competencies among secondary school students based on competency-based and learner-centered approaches is substantiated.*

Key words: *freelance activity, freelance competencies, general secondary education, digital economy, labor market, competency-based approach.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim sohasida ham tub o‘zgarishlarni keltirmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida an’anaviy pedagogik modellarga qo‘shimcha ravishda yangi faoliyat shakllari paydo bo‘lmoqda, ular orasida frilanserlik ham o‘z o‘rniga ega. Frilanserlik – bu mustaqil, loyihalar asosida ishlaydigan mutaxassislik faoliyati bo‘lib, ta’lim sohasida ham tobora keng tarqalmoqda. Maqolaning magsadi – umumiy o‘rta ta’lim tizimida frilanserlik faoliyatining pedagogik mohiyatini aniqlash, uning imkoniyatlari va cheklovlarini ochib berish, shuningdek, ushbu sohaning rivojlanish tendensiyalarini tahlii qilishdir. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi va global mehnat bozorining transformatsiyasi yangi kasbiy faoliyat shakllarining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Shunday faoliyat turlaridan biri frilanserlik bo‘lib, u mustaqil, masofaviy va loyiha asosidagi mehnat faoliyati sifatida e’tirof etilmoqda. Bugungi kunda frilanserlik nafaqat oliy ta’lim bosqichida, balki umumiy o‘rta ta’lim tizimidayoq shakllantirilishi lozim bo‘lgan muhim kompetensiyalar majmuasi sifatida qaralmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim tizimi o‘quvchilarning kelgusidagi kasbiy yo‘nalishini belgilovchi muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois frilanserlik faoliyatining pedagogik mohiyatini o‘rganish va uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Frilanserlik faoliyati mustaqil ravishda, an’anaviy ish joyiga bog‘lanmagan holda, axborot texnologiyalari yordamida bajariladigan mehnat faoliyatidir. Pedagogik nuqtayi nazardan frilanserlik quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

-mustaqil o‘rganish va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik;

-muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining ustuvorligi;

-raqamli savodxonlik va texnologik kompetensiyalarning yuqori darajada bo‘lishi;

-kommunikativ va ijtimoiy moslashuvchanlik.

Frilanserlik faoliyati o‘quvchining faqat kasbiy tayyorgarligini emas, balki shaxsiy rivojlanishini ham ta’minlaydi. Shu bois uni umumiy o‘rta ta’lim mazmuniga pedagogik jihatdan integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida frilanserlik faoliyatining ta’limiy ahamiyati

Umumiy o‘rta ta’limda frilanserlik faoliyatiga tayyorlash quyidagi ta’limiy natijalarga erishishga xizmat qiladi:

-o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va mas’uliyat hissini shakllantiradi;

-raqamli muhitda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

-mehnat bozoriga moslashuvchanlikni oshiradi;

-kasb tanlashda ongli qaror qabul qilishga yordam beradi.

Bunday yondashuv kompetensiyaviy ta’lim tamoyillariga to‘liq mos keladi va o‘quvchilarning hayotga tayyorgarlik darajasini oshiradi.

Frilanserlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari

Zamonaviy sharoitda frilanserlik faoliyatining rivojlanishi quyidagi asosiy tendensiyalar bilan tavsiflanadi:

1. Raqamli platformalar orqali ishlashning kengayishi – onlayn xizmatlar va masofaviy ish imkoniyatlarining ortishi.

2. Kasbiy kompetensiyalarning diversifikatsiyasi – bir nechta sohada ishlash imkoniyati.

3. Ta’lim va mehnat integratsiyasi – o‘qish jarayonida real loyiha va buyurtmalar asosida ishlash.

4. Yoshlar o‘rtasida frilanserlikka qiziqishning ortishi – maktab yoshidan boshlab raqamli faoliyatga kirishish.

Mazkur tendensiyalar umumiy o‘rta ta’lim tizimida frilanserlik ko‘nikmalarini shakllantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Frilanserlik faoliyatini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik yondashuvlari

Frilanserlik faoliyatini umumiy o‘rta ta’lim tizimiga joriy etishda quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

-kompetensiyaviy yondashuv – bilimdan ko‘ra amaliy ko‘nikmalarga ustuvorlik berish;

-shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – o‘quvchilarning individual qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olish;

-faol o‘qitish metodlari – loyiha, muammoli va amaliy mashg‘ulotlar;

-raqamli ta’lim texnologiyalari – onlayn platformalar va pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, frilanserlik faoliyati umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning zamonaviy mehnat bozoriga mos kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik resurs hisoblanadi. Uning pedagogik mohiyatini chuqur o‘rganish va ta’lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish o‘quvchilarning mustaqil, raqamli va kasbiy faoliyatga tayyor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur maqolada keltirilgan ilmiy-nazariy xulosalar frilanser ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik dasturiy ta’minotni ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida frilanserlik faoliyati zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Uning pedagogik mohiyati mustaqillik, loyihalilik va moslashuvchanlikka asoslangan bo‘lib, ta’lim sifatini oshirish, individual yondashuvni rivojlantirish va innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, bu faoliyatning uzluksizlik muammolari, institutsional bilimlar yetishmasligi va ijtimoiy himoyaning cheklanganligi kabi kamchiliklari mavjud.

Raqamlashtirish sharoitida frilanserlikning rivojlanish tendensiyalari texnologik innovatsiyalar, global hamkorlik va professional tashkilotlarning paydo bo‘lishi yo‘nalishida davom etadi. Kelajakda frilanserlik faoliyatining salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun me’yoriy-huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mambetkarimov B.M. Developing Python programming language skills based on interactive methods. // International Journal of Studies in Advanced Education, Volume 03, Issue 8, ISSN (E): 2949-8945 SJIF: 6.619. Netherlands, 2024. – P.1–6.
2. Meyrmanovich, M. B. (2023). MODELING CLOUD TECHNOLOGY STRUCTURES IN THE EDUCATIONAL PROCESS. British View, 8(7).
3. Mambetkarimov B.M. Employing interactive approaches in teaching computer science in higher education institutions. // Международная конференция академических наук. – Россия, 2024. Т. 3, Выпуск 7, – С. 13–16.
4. Mambetkarimov B.M. Oliy ta’lim tizimida dasturlash tillarini interfaol metodlar asosida o‘rgatishni takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori: (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Nukus.: – 2025 y.
5. Anderson, T., & Dron, J. (2023). Teaching and Learning with Artificial Intelligence. Springer.
6. Russell, S., & Norvig, P. (2022). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.
7. Alimova F.A. (2024). Raqamlashtirish sharoitida loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning elektron didaktik ta’minoti. Nukus.
8. Nurmaxanov K.E. (2025). Raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish metodikasi. Ajiniyoz nomidagi NDPI.
9. Абрамова, М. В. (2021). Цифровая трансформация образования: новые возможности и вызовы. Москва: Издательство «Просвещение».
10. Johnson, S. M., & Kardos, S. M. (2022). The Next Generation of Teachers: Who They Are and What They Need. Educational Leadership, 79(5), 22-27.
11. Smith, J., & Johnson, L. (2023). The Gig Economy in Education: Opportunities and Challenges. Journal of Educational Change, 24(1), 45-62.
12. UNESCO. (2022). Global Education Monitoring Report: Non-state actors in education. Paris: UNESCO Publishing.
13. Воронов, А. А. (2020). Фриланс в образовании: теория и практика. Санкт-Петербург: Издательство «Лань».
14. OECD. (2023). Teachers as Designers of Learning Environments: The Importance of Innovative Pedagogies. Paris: OECD Publishing.
15. Brown, T. H. (2021). The Digitalization of Learning: A New Era in Education. New York: Routledge.
16. Министерство народного образования Республики Узбекистан. (2023). Ta’limni rivojlantirish strategiyasi 2023-2030. Toshkent.
17. Anderson, T. (2022). The Theory and Practice of Online Learning. Edmonton: AU Press.
18. Patel, R., & Kumar, S. (2023). Future of Work in Education: Freelancing and Remote Teaching. International Journal of Educational Development, 89, 102-115.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 677(575.1)

DEVELOPMENT OF YOUTH, HUMAN CAPITAL IN THE INNOVATIVE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Sarsenbayeva Amangul Maxsetovna, Karakalpak State University, Lecturer of the Department of History of Uzbekistan and Karakalpakstan

YANGI O‘ZBEKISTONNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDA YOSHLARNI RIVOJLANTIRISH, INSON KAPITALI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Sarsenbayeva Amangul Maxsetovna, Qoraqalpoq davlat universiteti, “O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi

РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Сарсенбаева Амангуль Максетовна, Каракалпакский государственный университет, преподаватель кафедры истории Узбекистана и Каракалпакстана

e-mail: amangulsarsenbayeva@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar siyosatining institutsional asoslari va ularning amaliyotga tatbiq etilishi keng tahlil qilingan. Maqolada yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ta’limni transformatsiya qilish, rahbar kadrlarni yoshartirish masalalari ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida yosh iste’dodlarni rag‘batlantirish tizimi va ularni davlat mukofotlari bilan taqdirlashning sotsiologik jihatlari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar siyosati, inson kapitali, ta’lim transformatsiyasi, "Yoshlar daftari," Qoraqalpog‘iston, davlat mukofotlari, innovatsion faoliyat.*

Аннотация: *В данной статье подробно анализируются институциональные основы молодежной политики в контексте Нового Узбекистана и их практическая реализация. В статье освещены вопросы повышения социально-экономической активности молодежи, трансформации образования и омоложения руководящих кадров с научной точки зрения. Также на примере Республики Каракалпакстан была изучена система стимулирования молодых талантов и социологические аспекты их награждения государственными наградами.*

Ключевые слова: *молодежная политика, человеческий капитал, трансформация образования, "молодежная тетрадь", Каракалпакстан, государственные награды, инновационная деятельность.*

Abstract: *This article extensively analyzes the institutional foundations of youth policy in the context of New Uzbekistan and their practical implementation. The article highlights the issues of increasing the socio-economic activity of youth, the transformation of education, and the rejuvenation of managerial personnel from a scientific point of view. Also, using the example of the Republic of Karakalpakstan, the*

system of stimulating young talents and the sociological aspects of their awarding with state awards were studied.

Key words: *youth policy, human capital, transformation of education, "Youth Notebook", Karakalpakstan, state awards, innovative activity.*

INTRODUCTION

At the stage of modern development, the future of each state depends on how effectively it uses its demographic resources. Young people who have reached the level of knowledgeable and qualified personnel are the solid foundation of any society. In the process of building a new Uzbekistan, young people are becoming not only an object of politics, but also an active subject of reforms.

As President Shavkat Mirziyoyev noted: "Youth is our greatest wealth, our main strength." This concept forms the core of state policy and serves to create the chain "science-education-innovation." Today, youth issues encompass such strategic areas as science, education, technology, employment, and patriotism.

METHODOLOGY

The following methods were used in the study based on a comprehensive approach: Statistical analysis: The dynamics of digital indicators in the field of higher education and employment were studied; Comparative method: the place of Uzbekistan's youth in international educational rankings (top-500 universities) was compared with the countries of Central Asia; Analysis of documents: the essence and content of such normative legal acts as "National Language Policy - 2030" and "Youth Business Fund" were analyzed.

RESULTS AND ANALYSIS

The effectiveness of the work being carried out in Uzbekistan to realize the potential of youth can be seen in several areas: Knowledgeable, qualified personnel, modern youth - the foundation of our future. President Shavkat Mirziyoyev, at a meeting with young people on June 30, 2025, once again demonstrated his invaluable attention, love, and, most importantly, trust. The meeting was not only a sincere conversation, but also a true confirmation of the Head of State's high attention to the younger generation, hope and confidence in the future. "Youth is our greatest wealth, our main strength," the President emphasized.The President's open and sincere words at the initiative of the meeting left a special impression on everyone. At the meeting, a number of priority areas, such as science, education, technology, employment, social protection, culture, political activity, and patriotism, became the topical content of the conversation with young people. The Head of State not only spoke with the youth, but also listened to them, wrote down their problems, and offered solutions on the spot. This is yet another practical proof that at the center of the President's policy is the individual, especially the younger generation. Today, as a clear example of the attention paid to education, we can see that more than 200 universities, more than 300 technical schools and colleges have become centers of wide opportunities for young people. Now such areas as IT, robotics, and artificial intelligence are becoming an area of interest for young people. In this regard, he put forward the following important initiatives: By 2026, modern vocational centers will be created for more than 500 thousand young people; Joint educational programs will be launched in cooperation with 50 major international universities; A separate section will be included in the "National Language Policy - 2030" program for the popularization of the English language. "All doors must be open so that our youth can benefit from world knowledge," said Sh.M.Mirziyoyev.We can see in the example of concrete results that from the very first days of such reforms, we are committed to creating a chain "science - upbringing - innovation." For example, last year the youth of our country took first place in Central Asia in the top-500 universities. Our educated youth, having entered the top 5 universities for the first time, have shown a historic result. Today, more than 30 young

people study at the top 10 universities of the world, 500 - in the top 100 and 1,500 - in the top 300.

"Now young people should not be the object, but the subject of our policy," the head of state said. This means: Every decision is made in consultation with young people, new projects and programs are implemented based on the ideas and initiatives of young people, and young leaders confident in their abilities are actively involved in the public administration system. The implementation of youth policy at the local level was also discussed at the meeting. In particular: It was especially noted that youth leaders are working in every mahalla, over the past seven years the composition of managerial personnel has significantly younger, the share of leaders under 40 years old has increased from 37 to 65 percent, and talented youth are being identified on the ground through the mahalla-based work system. This ensures an individual approach and social support for each young person.The President is also paying more attention to the issue of increasing the economic activity of young people. As is known, the issues of unemployment and economic freedom are a problem that awaits its primary solution in every era. Therefore, in 2025 alone, at least 1 million young people will be employed. This is the result of a planned policy strictly implemented under the guarantee of the state. Ensuring youth employment is one of the priorities of state policy. In 2025, more than 8,000 new projects were launched, with the main focus on supporting young people who have a business plan to increase the number of self-employed youth, but do not have the opportunity to implement it. To implement these projects, $35 billion in investments will be directed to the project as a driving force. Within the framework of such projects, it is planned to create about 300,000 new jobs, which will undoubtedly strengthen the confidence of young people in the future. Not only the plans, but also the results of the current system were noted: the annual turnover of 261 enterprises created by young entrepreneurs exceeded 100 billion soums. If previously the city of Tashkent was the sole leader in this regard, today the business results of young people from Tashkent region, Samarkand, Andijan, Namangan, and Fergana are not inferior to the capital. Karakalpakstan, Kashkadarya, Navoi, Syrdarya, and Khorezm have become leading regions in youth employment.

By the end of 2025, 300,000 young people were provided with preferential loans based on the "Youth Notebook," and on this basis, a new "Youth Business Fund" was established, with funds allocated from the state budget. Startups related to the digital economy, freelancing, and e-commerce have also been developed. These initiatives contribute to the development of financial literacy, responsibility, and independent thinking among young people.

It should be especially noted that in recent years, special attention has been paid in our country to the issues of living conditions, housing problems, healthcare, and psychological support for young people. Some of them, for example, the expansion of the "Social Houses for Youth" program, the opening of "Youth Psychological Centers" in each district, and the increase in the amount of special grants for children from families in need of social protection, indicate how much progress will be made in this area. "It is impossible to conduct politics without understanding the pain in the hearts of young people," said our esteemed leader.

Issues of upbringing, spirituality, the fight against alien ideas, and religious literacy have not lost their relevance in any era. The following directions have been defined for strengthening the hearts and minds of young people in the spirit of patriotism and the desire for knowledge: "Culture of Thinking" lessons will be introduced in schools and universities; Formation of information-psychological immunity against religious extremism; Education based on Uzbek literature, music, and historical heritage will be strengthened. It is appropriate to reiterate that sport is undoubtedly the foundation of moral development. At the same time, the fact that by the end of 2024, the number of sports schools has doubled and the coverage of sports facilities has expanded is a clear confirmation of the enormous changes in the sphere.Attention to youth is felt not only at the national level, but also in every region, especially in the Republic of

Karakalpakstan. Young people who work effectively in various fields have always been the pride of our nation. Every year, a number of talented young people who are highly qualified specialists in their field are awarded state-level medals and orders. For example, among those awarded in 2025 alone were talented people from Karakalpakstan, which is an honor.For example, the medal "Kelajak bunyodkori" was awarded to Ismailov Jamshidbek Rashid ugli - youth leader of the "Navoi" mahalla citizens' assembly of Turtkul district, Abduganieva Nodira Abdinazar kizi - first-year master's student of Karakalpak State University, as well as Eshniyazov Islam Saparbayevich - young playwright and stage master of the Berdakh Karakalpak State Academic Musical Theater. These young people are just one example. This list will be continued by a group of other intellectuals of our country, eager for knowledge and highly qualified specialists in their field. These young people were awarded not only for their personal achievements, but also for benefiting society and their people. Such youth are the main force of New Uzbekistan.

Reward is not only an incentive, but also a responsibility. A state award is not just a badge or a medal. This is a sign of responsibility, the trust of the people. As the President presented the award, he expressed the following words with pride and deep joy in his heart: "You are an example for many. We are proud of you." These words, in turn, filled the hearts of the awarded young people with responsibility, pride, and energy. It opened the way to new opportunities. This will undoubtedly become a source of inspiration, especially for young people working in Karakalpakstan. The ability to see and appreciate the work of youth is the basis of state policy. The young people awarded this year have shown us in practice how to strive for diligence, patriotism, and goodness. They are not stars today, but guiding stars. "Every award is a signal to millions of young people: they believe in you, and you can do it."

DISCUSSION

Our research shows that youth policy is based on an individual approach to each person through the system of working in mahallas. The fact that the share of managers under the age of 40 in the management personnel has increased from 37 to 65 percent testifies to the rejuvenation of the political system. The successes of young people from the Republic of Karakalpakstan deserve special attention. The activities of J. Ismailov, N. Abduganieva, and I. Eshniyazov, who were awarded the state prize "Mard o'g'lon" and the medal "Kelajak bunyodkori," serve as an example and guiding star for young people. Such awards are not only a personal victory, but also a high responsibility to society.

CONCLUSION

The youth of New Uzbekistan has been formed as the main strategic force of the country. As a result of the reforms, not only the economic, but also the spiritual and intellectual level of young people is increasing. Social protection and entrepreneurship are combined through the "Youth Notebook" and "Youth Business Fund." The idea of the head of our state that "politics cannot be conducted without understanding the pain in the hearts of young people" is reflected in every decree today.

LIST OF REFERENCES USED:

1. Mirziyoyev Sh.M. Speech at a meeting with youth. June 30, 2025.
2. Sarsenbayeva A.M. Youth - the main force of New Uzbekistan. Article text.
3. Saidov A. "Uzbekistan is a Country of Youth," Talented Youth of New Uzbekistan - Collection of Scientific Works, T-2021
4. Mirzakhmedov Kh., "Ethics of Youth in the Transformation of Society," Talented Youth of New Uzbekistan - Collection of Scientific Works, T-2021
5. https://www.gazeta.uz/politics/

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 821.111+821.512.133.09

INGLIZ VA O‘ZBEK DRAMATURGIYASIDAGI KOMEDIYA PERSONAJLARI NUTQIDA LINGVISTIK DEVIATSIYA VA SEMANTIK ZIDDIYATNING KOMEDIK FUNKSIYASI

Absamadov Bahodir Urozovich,
Turon universiteti, “Xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi



https://orcid.org/0009-0008-8719-953X
e-mail: absamadov7777@gmail.com

THE COMEDIC FUNCTION OF LINGUISTIC DEVIATION AND SEMANTIC CONTRADICTION IN THE SPEECH OF COMIC FIGURES IN ENGLISH AND UZBEK DRAMA

Absamadov Bahodir Urozovich,
Lecturer in the Department of Foreign Languages, Turon University

КОМИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ДЕВИАЦИИ И СЕМАНТИЧЕСКОГО ПРОТИВОРЕЧИЯ В РЕЧИ КОМИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

Абсамадов Баходир Урозович,
преподаватель кафедры иностранных языков, Университет Турон

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek dramaturgiyasida lingvistik deviatsiya hamda semantik ziddiyatning komedik funksiyasini tahlil qiladi. Tadqiqotda til og‘ishlarining kulgi yaratishdagi estetik va ijtimoiy ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.*
Kalit so‘zlar: *lingvistik deviatsiya, semantik ziddiyat, komedik nutq, dramaturgiya, malapropizm, oksimaron, estetik funksiya, kulgi.*
Abstract: *This study analyzes the comic function of linguistic deviation and semantic contradiction in English and Uzbek dramaturgy. The research scientifically substantiates the aesthetic and social significance of linguistic irregularities in generating humorous and expressive effects on stage.*
Key words: *linguistic deviation, semantic contradiction, comic speech, dramaturgy, malapropism, oxymoron, aesthetic function, humor.*
Аннотация: *Данное исследование посвящено анализу комической функции лингвистической девиации и семантического противоречия в английской и узбекской драматургии. В работе научно обосновано эстетическое и социальное значение языковых отклонений в создании комического эффекта.*
Ключевые слова: *лингвистическая девиация, семантическое противоречие, комическая речь, драматургия, малапропизм, оксюморон, эстетическая функция, юмор.*

Kirish. Komediyada kulgi yaratishning eng muhim vositalaridan biri bu – tilning o‘ziga xos buzilishi, ya’ni lingvistik deviatsiya va semantik ziddiyat orqali erishiladigan nutqiy effektlardir. Bunday usullar, xususan, malapropizm, oksimaron, paradoksal ifoda va til o‘yini shaklida namoyon bo‘lib, dramatik personajlarning nutqida komedik kuchni oshiradi. Bu jarayon auditoriyani faqat so‘zlarning yuzaki ma’nosi bilan emas, balki

ularning kognitiv va madaniy konnotatsiyalari bilan ham jalb etadi.

Zamonaviy tilshunoslikda kulgining lingvistik tabiati ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan izohlangan. Masalan, Y.Park komediya janrida oksimaron va malapropizmning nutqiy idrokni faollashtiruvchi va hissiy ta’sirni kuchaytiruvchi jihatlarini ta’kidlab, bu hodisalar “bizning sezgi va kognitiv qobiliyatlarimizni bir vaqtning o‘zida ishga soladi” deya qayd etadi (Park, 2017, 57-84). R.E. Okhuosi esa malapropizmni fonetik va semantik nomuvofiqlik asosidagi kulgi mexanizmi sifatida talqin etadi va u “auditoriyaning til xatolarini anglash qobiliyatiga tayanadi” deb yozadi (Okhuosi, 2023, 53-82). Qadimgi Rim dramaturgiyasida ham D. Nikulin qayd etganidek, oksimaronlar “maqsadli komedik vosita sifatida, o‘z-o‘ziga zid ifodalar orqali kulgi uyg‘otish” uchun qo‘llangan hamda “komediyada motam quvonch orqali yengib o‘tiladi” deb ta’kidlangan (Nikulin, 2014, 18). Shunga o‘xshash holda, M.F. McKay xalqona komediyada malapropizmning “nutqiy xatolik orqali yuzaga keladigan tabiiy kulgi manbai” ekanligini qayd etadi (McKay, 1974).

Ingliz va o‘zbek dramaturgiyasidagi komedik nutqning umumiy xususiyati shundaki, har ikki madaniy muhitda lingvistik xatoliklar, semantik zidliklar va so‘z o‘yinlari kulgining asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot komediya personajlari nutqida lingvistik deviatsiya va semantik ziddiyatning komedik funksiyasini qiyosiy tahlil qilishga qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-lingvistik va semantik-pragmatik tahlil metodlari qo‘llanadi. Tahlil obyekti sifatida ingliz dramaturgiyasidan Sheridan, Shakespeare, Ben Jonson, Oscar Uayld asarlaridagi personaj nutqlari, hamda o‘zbek dramaturgiyasidan Abdulla Qahhor, Komil Avaz, Sharof Boshbekov, G‘afur Shermuhammad komediyalaridagi nutqiy holatlar tanlanadi. Maqsad – ikki madaniyatdagi komedik nutq mexanizmlarini qiyoslash, ularda lingvistik deviatsiya va semantik ziddiyatning komedik funksiyasini aniqlashdir. Metodik yondashuv sifatida deskriptiv tahlil, kontekstual semantika va diskurs tahlilidan foydalaniladi, bu esa kulgining tilshunoslik asoslarini ham, ijtimoiy-pragmatik jihatlarini ham ochib berish imkonini beradi.

Ingliz va o‘zbek dramaturgiyasida komedik nutqning asosiy manbai sifatida lingvistik deviatsiya (til me’yoridan og‘ish) va semantik ziddiyat (ma’nodagi qarama-qarshilik) alohida o‘rin tutadi. Har ikki adabiyotda bu hodisalar personaj nutqining tabiiyligi, kulgining kuchaytirilishi va ijtimoiy tanqidning yumshoq ifodalanishida muhim estetik vosita sifatida ishlatiladi.

Ingliz dramaturgiyasida bu jarayonning dastlabki shakllari Richard Brinsley Sheridanning The Rivals asarida ko‘zga tashlanadi. Ushbu pyesadagi Mrs. Malaprop obrazi so‘zlarni noto‘g‘ri ishlatishi orqali kulgi uyg‘otadi, shu orqali muallif til xatosini estetik hodisaga aylantiradi. Malapropning nutqi kulgidan tashqari, uning madaniy saviyasi va ijtimoiy mavqeini ham ochib beradi. Uilyam Shekspir asarlarida lingvistik og‘ishlar va semantik ziddiyatlar yanada murakkab badiiy darajada qo‘llanadi. Much Ado About Nothing, A Midsummer Night’s Dream va Twelfth Night asarlarida personajlar o‘zaro muloqotda tilni noto‘g‘ri yoki ikki ma’noda ishlatish orqali komedik vaziyatni kuchaytiradilar. Ayniqsa, Much Ado About Nothingdagi Dogberry obrazi xuddi Sheridan yaratgan Mrs. Malaprop singari malapropizm namunasidir. U rasmiy ohangda so‘zlashga urinar ekan, nutqida semantik chalkashliklar ko‘payadi. Bu orqali Shekspir kulgining intellektual va ijtimoiy qatlamlarini birlashtiradi. Oscar Uayldning “The Importance of Being Earnest” asarida esa oksimaron va paradokslar komediyaning asosiy estetik mexanizmiga aylangan. Uayld o‘z davrining ijtimoiy me’yorlari ustidan kulgili falsafiy paradokslar orqali tanqid yuritadi, bunda semantik ziddiyatlar ijtimoiy absurdni ochib beradi.

O‘zbek dramaturgiyasida Abdulla Qahhorning “Tobutdan tovush” dramasida tildagi oddiy, ammo o‘tkir muloqot usuli orqali ijtimoiy satira yaratiladi. Muallif xalq og‘zaki nutqiga xos tildan og‘ishlarni qo‘llab, kulgini milliy muloqot madaniyatining bir qismi sifatida talqin etadi. Komil Avazning “O‘g‘iltoy” dramasida lingvistik deviatsiya personajlar tafakkuri va ma’naviy olamini ochishda ishlatiladi. So‘z o‘yinlari, noto‘g‘ri tushunishlar va mantiqsiz muloqotlar komedik holatni kuchaytiradi. Shuningdek, Sharof Boshbekovning Tentak farishtalar va G‘afur Shermuhammadning Taziyadagi to‘y asarlarida semantik ziddiyatlar asosan personajlar

dunyoqarashidagi tafovutdan kelib chiqadi. Ularning nutqida ijtimoiy mavqe, axloqiy qadriyatlar va tafakkur darajasidagi nomuvofiqlik kulgining manbaiga aylanadi.

Komediyada lingvistik va semantik vositalarning ishlatilishi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Ushbu tadqiqotimizda bir qator ishlarni nazariy jihatdan o‘zimizga asos qilib oldik. Estetik yondashuv nuqtai nazaridan McKayning “An Aesthetics for Comedy” nomli doktorlik dissertatsiyasi hamda Dmitriy Nikulinning “Comedy, Seriously: A Philosophical Study” asarlarini oldik. McKay komediyani badiiy tahlilning estetik kategoriyasi sifatida talqin qilib, kulgi tasodifiy hissiy holat emas, balki san’atdagi intellektual tajriba deya baholaydi. Unga ko‘ra, lingvistik xatolik yoki semantik zidlik muallif tomonidan ongli ravishda yaratilgan badiiy vosita, u orqali tomoshabin “fikriy uyg‘onish”ni boshdan kechiradi deya ta’kidlaydi. Nikulin esa komediyaning qadimgi ildizlariga murojaat qilib, Plautus va Aristofan asarlarida oksimaron va paradokslarning kulgi manbai sifatida shakllanganini tahlil qiladi. U bu hodisani “fikriy ziddiyatning estetik ifodasi” deb baholaydi.

Lingvistik-pragmatik jihatdan Okhuosi, Park, Zwicky til xatoliklarining kulgi hosil qilishdagi mexanizmini tariflaydi. Okhuosi “Phonetic and Multimodal Strategies in Humorous Malapropisms” nomli maqolasida lingvistik xatolikni zamonaviy kontekstda o‘rganadi. Park hamda Zwickylar esa o‘zlarining maqolalarida pun, oksimaron, malapropizm kabi so‘z o‘yinlarini fonologik, morfologik va semantik turlarga ajratadi hamda ularning kulgi yaratishdagi mexanizmlarini aniqlaydi va kulgining paydo bo‘lishini nutqiy kompetensiya va til sezgisi o‘rtasidagi tafovut bilan izohlaydi.

Kulgi inson tafakkurining dialektik jarayoni, xatolik orqali anglash va ma’naviy kashfiyot natijasi sifatida tushuntirishlar Karlen hamda Raheel va Abdda beriladi. Karlen kulgining falsafiy mohiyatini ochib, uni “anglash orqali ma’rifat” sifatida talqin qiladi. Raheel va Abd Shekspir asarlaridagi malapropizmlarni tahlil qilib, ularning personaj xarakterini ochish va ijtimoiy kontekstni ifodalashdagi rolini yoritadi.

Mavjud nazariy asoslar ingliz va o‘zbek dramaturgiyasida komedik nutqni qiyosiy o‘rganish uchun ilmiy-metodik zamin yaratadi.

Muhokama va natijalar. Malapropism semantik jihatdan noo‘rin, lekin fonetik yoki morfologik jihatdan yaqin bo‘lgan so‘zning adashib ishlatilishi natijasida hosil bo‘ladigan kulgili nutq xatosi (Zwicky, 1978-79, 339-348). Bunda talaffuz jihatdan o‘xshash, lekin ma’nosi mutlaqo boshqa so‘zlarni qo‘llab qo‘yish orqali, qahramonni “aqlli ko‘rinaman” deb, qiyin yoki ilmiy so‘zlarni noto‘g‘ri ishlatishi yoki kulgili semantik beparvolik orqali kuzatiladi.

Buni Richard Brinsley Sheridanning “The Rivals” asarida, **Mrs. Malaprop** obrazida ko‘ramiz. Mrs Malaprop qizi Lydiyaning sevgilisi haqidagi suhbatda kapitan Absolutga “He is the very **pine-apple** of politeness” (Tarjimasi: U odob-axloqning chinnakam cho‘qqisi./ eng yuksak darajasini o‘zida mujassam etgan) deb, **“pinnacle”** (“cho‘qqi”) so‘zi o‘rniga **“pine-apple”** (“ananas”) so‘zini ishlatadi. Mrs. Malaprop martabani, odobni maqtamoqchi bo‘lib, aslida esa akademik so‘zlarni mutlaqo noto‘g‘ri joyda ishlatadi: “pine-apple of politeness” – u aslida “pinnacle of politeness” (odob-axloqning eng cho‘qqisi) demoqchi, lekin “ananas” deb yuboradi.

Mrs. Malaprop aqlli ko‘rinaman deb grammatik terminni ishlatadi, lekin aslida to‘g‘ri so‘zni bilmaydi. Shuning uchun gap mutlaqo mazmundan chiqib ketadi: “long ago I laid my positive **conjunction** on her… I have since laid Sir Anthony’s **preposition** before her… she seems resolved to decline every **particle** that I enjoin her” (“Ancha oldin men unga o‘zimning qat’iy bog‘lovchimni qo‘ygandim… Keyinroq Sir Anthonyning predlogini uning oldiga qo‘ydim… Ammo u men aytgan har bir yuklamani rad etishga qat’iy kirishgan ko‘rinadi.”). Aslida, Mrs Malaprop shunday demoqchi bo‘ladi: “Ancha oldin men unga qat’iy buyruq bergandim… Keyin Sir Anthony’ning ko‘rsatmasini unga yetkazdim… Ammo u menga bo‘ysunishni aytgan har bir bandni rad etayotgan ko‘rinadi.” Bunda, **“injunction”** (qat’iy buyruq) o‘rniga “conjunction” (grammatikada bog‘lovchi), **“proposition”** (taklif / ko‘rsatma) o‘rniga “preposition” (grammatikada predlog), **“particular”** (band, talab, topshiriq) o‘rniga “particle” (grammatikada yuklama) ishlatiladi (Sheridan, 1910, III sahna, 68).

Mrs Malaprop o‘qiyotgan maktubga izoh berar ekan: “Sure if I **reprehend** any thing in this world, it is the use of my **oracular tongue**, and a

nice **derangement of epitaphs!**" (Tarj: Ishonchim komilki, agar men bu dunyoda biror narsani qoralasam, u mening vahiy aytadigan tilim va epitetlarni buzib tashlashning nafisligi bo‘ladi!) deydi. U bunda **“apprehend”** (tushunmoq) o‘rniga “reprehend” (qoralamoq), **“vernacular tongue”** (ona tili) o‘rniga “oracular tongue” (vahiy keltiradigan til), **“arrangement of epithets”** (epitetlarni to‘g‘ri ishlatish) o‘rniga “derangement of epitaphs” (epitetnilarni buzib qo‘llash) deb, so‘zlarni chalkashtirib kulgi uyg‘otadi. Aslida u “Agar men bu dunyoda biror narsani yaxshi tushunsam, u mening o‘z tilimni to‘g‘ri ishlatishim va epitetlarni chiroyli tartib bilan qo‘llashimdir” demoqchi bo‘ladi (Sheridan, 1910, III sahna, 69-70).

Uilyam Shekspirning “Much Ado about Nothing” asarida esa bu **Constable Dogberry** obrazida namoyon bo‘ladi. Dogberry qo‘riqchilarga ko‘rsatma berganida: “First, who think you the most **desartless** man to be constable?” (Tarjimasi: Birinchidan, sizningcha qaysi odam qo‘riqchi bo‘lishga eng munosib bo‘lmaydi) deb **“deserving”** (munosib) so‘zi o‘rniga “desartless” (nomunosib) so‘zini ishlatadi hamda “You shall **comprehend** all **vagrom** men” (Tarjimasi: Siz barcha daydi odamlarni tushunishingiz lozim.) deb **“apprehend”** (“qo‘lga olish”) o‘rniga “comprehend” (tushunish) va **“vagrant”** (daydi) so‘zi o‘rniga “vagrom” (daydi so‘zining sun’iy buzib aytiladigan, dialekt shakli) so‘zini qo‘llaydi.

Shu nutqda u yana “make no noise in the streets; for the watch to babble and talk is most tolerable and not to be endured” (Tarjimasi: “Ko‘chada shovqin qilmang: chunki qo‘riqchilarning g‘iybat qilib gaplashishi juda chidab bo‘ladi va umuman chidab bo‘lmaydi.”) deb, zid ma’nodagi iboralarni birga ishlatib kulgili oksimaron yaratadi (Shakespeare, 1826, III sahna, 38).

Constable Dogberry. “One word, sir: our watch, sir, have, indeed, **comprehended** two **aspicious** persons, and we would have them this morning examined before your worship.” Malapropism saqlangan holda tarjimasi: “Bir og‘iz so‘z, janob: bizning qorovullarimiz, janob, rostdan ham ikki xayrli shaxsni tushunib yetdi va biz ularni bugun ertalab sizning huzuringizda so‘roq qildirmoqchimiz”. Bu yerda: **“comprehended”** – “tushundi” (aslida **apprehend** – ushladi bo‘lishi kerak) **“Aspicious”** – “xayrli, omadli” (aslida **suspicious** – shubhali bo‘lishi kerak). “Bir og‘iz so‘z, janob: bizning qorovullarimiz rostdan ham ikki shubhali shaxsni qo‘lga oldi va biz ularni bugun ertalab sizning huzuringizda so‘roq qildirmoqchimiz.” (Shakespeare, 1826, IV sahna, 43).

Bu misollar ingliz komediyalarida malapropizm maqsadli ravishda ishlatilganini ko‘rsatadi. Sheridanning Mrs Malapropi til o‘yinlari orqali sovet davri aristokratiyasining ma’rifatsizligini hajv qiladi. Shakespeare esa Dogberryning “qonun” buyruqlaridagi xatolar orqali qahramonning johilligini kulgili tarzda namoyon etadi.

Uilyam Shekspirning “The Merchant of Venice” asaridagi Lonselot (Launcelot) obrazi nutqida: “Launcelot. I beseech you, sir, go; my young master doth expect your **reproach**” “Shafqatingizni darig‘ tutmang, sinor: mening yosh xo‘jayinim nafratingizga umid bog‘lagan.” (Jamol Kamol tarjimasi) **“approach”** (tashrif/yaqinlashuv) o‘rniga **“reproach”** (nafrat) so‘zining ishlatilishi malapropismga misol bo‘ladi (Shakespeare, 1903, Act-2, V-sahna, 252).

O‘zbek adabiyotida malapropismga misol qilib, Abdulla Qahhorning “Tobutdan tovush” asarida **Suxsurov** personajidagi nutqdan ko‘rishimiz mumkin:

“Suxsurov-(yozuvga tez-tez ko‘z tashlab). Qadahlar to‘lami? O‘rtoqlar, biz Ulug‘ Vatan urushi natijasida ulug‘ g‘alabaga ega bo‘ldik yoki erishdik. Lekin, men shaxsan, bu g‘alabadan ilhomlanib.... (adashadi) vatanparvarlik burchimdan ilhomlangan bo‘lsam ham bu ulug‘ **g‘alabaga o‘z qissamni**.... **yo‘q, hissamni** qo‘sholgan emasman! (1-parda, 2-ko‘rinish).

So‘zlarni paydar-pay ishlatish orqali kulgi uyg‘otish holati o‘zbek komediyalarida ham uchraydi. Masalan, Komil Avazning “O‘g‘iltoy” komediyasida bunga guvoh bo‘lish mumkin. Masalan:

Xolisboyev. Voy umrlari uzoq bo‘lgur akaxonimiz-yey, voy mehribonimiz-yey, ichaklarim uzilishiga sal qoldi-ya!.. Kulkingiz, chiyilloq ovozingiz biram mayinki!.. Biram shifobaxshki!.. Aslida dori-darmon o‘zlarining ovozlaridan tayyorlansa bormi, (qiqirlab kuladi) haligi “alvido, hayot” deb bu dunyodan ko‘z yumayotgan bemorlar ham darrov **ovozingiz kasofatidan**...

K. Xeshboyevich. A?

Xolisboyev. E, uzr! Men, **ovozingiz sharofatidan** o‘layotgan bemorlar ham darrov dik etib oyoqqa turib ketadi demoqchiydim...

K. Xeshboyevich. Himm...

Demak, mana shu kabi mubolag‘ali va kulgili ta’rif-tavsiflarni bergani uchun yozuvchi o‘z asarini “groteskli komediya” deb atagan. Yana u “kasofat” (salbiy ma’noli so‘z) va sharofat (ijobiy ma’noli leksik birlik) kabi jumlalarning qofiyadoshligidan kelib chiqib, ularning o‘rnini almashtirib, go‘yo tasodifan adashtirib qo‘llaganday ishlatib, o‘ziga xos kulgili vaziyatni kuchaytirishga erishgan.

Oksimoron, odatda, komediyalar nomlanishida keng qo‘lanadigan poetik san’atlardan biridir. “Oksimoron” (grekcha “oxumaron” so‘zidan) – “zakiy nodon” degan ma’noni bildiradi. U badiiy ko‘chim turlaridan biri bo‘lib, yonma-yon qo‘llangan bir-biriga zid (qarama-qarshi) ma’noli so‘zlarning birikuvidan hosil qilinadi. Oksimoron garchi G‘arb adabiyotida keng qo‘llanib kelgan bo‘lsa ham, o‘zbek adabiyotiga ham ko‘chgan. O‘zbek olimlari uni “g‘ayriodatiy birikma”, “parantez birliklar” deb ataydilar. Oksimaron qarama-qarshi yoki zid ma’noli so‘zlarni yonma-yon qo‘llash orqali yangi ma’no va komik effekt yaratadigan badiiy ifoda usuli bo‘lib, ko‘plab ingliz komediyalarida bu stilistik vosita dialoglarni boyitib, kulgi uyg‘otishga xizmat qiladi. O‘zbek komediyalarida oksimoron qo‘llanishini Sharof Boshbekovning “Tentak farishtalar” nomli “mistik komediya”si hamda G‘afur Shermuhammadning “Ta’ziyadagi to‘y” “jiddiy komediya”si sarlavhalarida kuzatish mumkin.

Komediyada oksimaron semantik ziddiyatga tayanadigan ixcham badiiy vosita sifatida namoyon bo‘lib, u kulgi effekti, kinoyaviy ma’no va personaj xarakteriga asoslangan satirani shakllantiradi. Masalan, Uilyam Shekspirning “Much Ado About Nothing” asarida, Leonato qizi Hero Beatrice va Benedickning munosabatini tasvirlaganda, ularning so‘z jangi “quvnoq urush” (“merry war”) ekanini aytadi:

“There is a kind of merry war betwixt Signior Benedick and her. They never meet but there’s a skirmish of wit between them” (Shakespeare, 1600, Act-1, Stage-1, 3). “quvnoq” va “urush” so‘zlari mohiyatan qarama-qarshi; birga ishlatilishi munosabatlaridagi hazil va raqobatni aks ettiradi.

Uilyam Shekspirning yana bir asari “A Midsummer Night’s Dream” misolida qaraydigan bo‘lsak, Tesey Pyramus va Thisbe haqidagi sahnani tanishtirayotib uni “uzun qisqa” (“tedious brief”) va “quvonch va fojeali” (“merry and tragical”) deb ataydi:

“… A tedious brief scene of young Pyramus and his love Thisbe; very tragical mirth. Merry and tragical! tedious and brief! … hot ice and wondrous strange snow…”

tedious brief – zerikarli uzoq davom etadigan va qisqa

tragical mirth – fojeaviy shodlik

hot ice and wondrous strange snow – issiq muz va g‘aroyib qor

“… Yosh Piram bilan uning sevgilisi Tisbaning cho‘zilib ketadigan, lekin bir zumda tugaydigan sahnasi; rosa fojeali kulgu. Ham quvnoq, ham o‘ta fojeali! Ham zerikarli, ham juda qisqa! … issiq muz, ajoyib darajadagi g‘alati qor …” (5-qism, 1-sahna, 87).

Uilyam Shekspirning “Twelfth Night” asarida Olivia xizmatkori Maria tomonidan yozilgan soxta maktubdan Malvolio “The fortunate-unhappy” degan imzoni o‘qiydi. “Omadli-baxtsiz” iborasi voqeaning istehzoli tabiatini ifodalaydi: Malvolio baxt izlagan holda aynan baxtsizlikka duch keladi (2-qism, 5-sahna, 42).

Oscar Uayldning “The Importance of Being Earnest” asarning ostsarlavhasi “A Trivial Comedy for Serious People” – “Jiddiy odamlar uchun mayda komediya”. “Trivial” (“ahmiyatsiz”) va “serious” (“jiddiy”) so‘zlarining birga ishlatilishi o‘yinbozlik va satiraga boy komediyaga ogohlantiruvchi ohang beradi (I qism, dastlabki sahna (asarning sarlavhasi)).

Algernon va Jek suhbati paytida, Algernon hayotni istehzo bilan tasvirlab: “It is awfully hard work doing nothing” – “Hech narsa qilmaslik nihoyatda og‘ir ish”, deydi. “Hech narsa” va “og‘ir ish” iboralari zid, biroq dangasalik ham mehnatdek qiynalishini kulgili ifodalaydi (1-qism, 39-bet)

Komedik diskursda oksimoron semantik qarama-qarshilik orqali kulgi, kinoya va satirani yuzaga keltiruvchi muhim stilistik vosita hisoblanadi. U tomoshabinni mantiqiy nomuvofiqlikni idrok etishga majbur qilib, fojea,

quvonch, vaqt va tabiiy qonunlar kabi tushunchalarni ataylab to‘qnash keltiradi. Natijada jiddiylik kulgiga, mantiq esa absurdlikka aylanadi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek dramaturgiyasida lingvistik deviatsiya va semantik ziddiyat komediyaning asosiy estetik mexanizmlaridan biridir. Til me’yoridan og‘ish, so‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanishi yoki semantik zidliklar kulgi hosil qilish bilan birga, personaj xarakterini ochish, ijtimoiy tafakkurni yoritish va estetik ta’sirni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Har ikki adabiyotda ham bu hodisalar kulgini fikriy uyg‘onish va ma’noni anglash jarayoni sifatida shakllantiradi, ya’ni kulgi inson tafakkurining ijtimoiy-madaniy ziddiyatlarini badiiy tarzda aks ettiradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri bu zamonaviy dramaturgiyada lingvistik deviatsiya masalasini o‘rganishdir. Xususan, XXI asr o‘zbek va ingliz sahna asarlarida internet tili, ijtimoiy tarmoq slengi va yangi so‘z o‘yinlarining komedik vazifasini aniqlash til va madaniyat o‘zgarishlarining sahna nutqiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini ilmiy tahlil qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Avaz Komil (1996). *Xiva Dilbandi: (Esselar, dramalar). O‘g‘iltoy.* Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 240 b.
2. Karlen, P. H. (2016). Humor and Enlightenment, Part I: The Theory. *Contemporary Aesthetics, 14*(1). https://philpapers.org/archive/KARHAE.pdf
3. McKay, M. F. (1974). *An Aesthetics for Comedy* (Doctoral dissertation, Rice University). ProQuest Dissertations Publishing
4. Nikulin, D. (2014). The Good, the Bad, and the Ugly: On the Ancient Origins of Comedy. In *Comedy, Seriously: A Philosophical Study* (pp. 3-21). Palgrave Macmillan.
5. Okhuosi, R. E. (2023). Phonetic and multimodal strategies in humorous malapropisms. *Israeli Journal of Humor Research, 12*(1), 53-82. https://www.israeli-humor-studies.org/media/4-phonetic_ and _multimodal_strategies-o_e_okhuosi.pdf
6. Park, Y. (2017). Manifestations of wordplay in comedy movies: With emphasis on puns. *STEM Journal, 18*(4), 57–84. https://www.ejournal-stem.org/upload/pdf/10383967.pdf
7. Raheel, M. T., & Abd, Z. A. (2024). Shakespear’s employment of malapropism in “Much Ado About Nothing” and “The Merchant of Venice”. *Journal of Ecohumanism, 3*(6), 175–186. https://doi.org/10.62754/joe.v3i6.3992
8. Shakespeare, W. (1826). *Much ado about nothing* (T. Brooke, Ed.). Yale University Press. https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/0/0f/Much_ado_about_nothing_.._(IA_muchadoaboutnoth00shak_5).pdf
9. Shakespeare, W. (1901). *A Midsummer Night’s Dream.* The University Society. https://dn790008.ca.archive.org/0/items/midsummernights00shak/midsummernights00shak.pdf
10. Shakespeare, W. (1903). *The Merchant of Venice.* American Book Company. https://dn790007.ca.archive.org/0/items/merchantofvenrol00shakuoft/merchantofvenrol00shakuoft.pdf
11. Shakespeare, W. (1916). *Twelfth Night.* D.C. Heath and Company. https://dn790008.ca.archive.org/0/items/Twelfth_Night_201710/Twelfth_Night_text.pdf
12. Sheridan, R. B. (1906). *The rivals: A comedy* (J. Q. Adams, Ed.). Houghton Mifflin Company. https://static1.squarespace.com/static/5848ebda579fb38fb7a8d248/t/58af9c959de4bbf84998d0a4/1487903911170/Pre-Rivals-1of2.pdf#:~:text=68%20THE%20EIVALS%20,particle%20that%20I%20enjoin%20he
13. Wilde, O. (1895). The importance of being earnest. Walter H. Baker Company. https://www.gutenberg.org/files/844/844-h/844-h.htm#chap01
14. Zwicky, A. M. (1978-79). Classical malapropisms. *Language Sciences, 1*(2), 339-348. Stanford University Press.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.016:811

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA CHET TILI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Abdurahmonova Mahfuza Olimovna, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti



e-mail: abdurahmonovamahfuza@buxdpi.uz

MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Abdurakhmonova Mahfuza Olimovna, Doctoral Student, Bukhara State Pedagogical Institute

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Абдурахмонова Махфуза Олимовна, докторант Бухарского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchilarning xorijiy tillarni bilish qobiliyati, o‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalar, ingliz tili darsliklarida didaktik o‘yinlarga e’tibor berish, innovatsion metod va tavsiyalardan foydalanish, ularning tavsifi, mazkur usullarning o‘quvchilar til boyligi, nutq madaniyati, og‘zaki va yozma nutq malakalarini o‘stirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *chet tili o‘qitish, fanlararo integratsiya, til o‘rganish, yondashuvlar, ta’limiy va didaktik o‘yinlar, til boyligi, nutq malakalari.*

Abstract: *This article examines students’ abilities in learning foreign languages, the use of innovative technologies in the educational process, the role of didactic games in English textbooks, the application of innovative methods and recommendations, and provides their description. The article highlights the role and significance of these methods in developing students’ vocabulary, speech culture, and oral and written communication skills.*

Keywords: *foreign language teaching, interdisciplinary integration, language learning, approaches, educational and didactic games, vocabulary, communication skills.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются способности учащихся к изучению иностранных языков, применение инновационных технологий в учебном процессе, уделяется внимание дидактическим играм в учебниках по английскому языку, использованию инновационных методов и рекомендаций, а также даётся их характеристика. Раскрывается роль и значение данных методов в развитии словарного запаса учащихся, культуры речи, формировании устных и письменных речевых навыков.*

Ключевые слова: *обучение иностранным языкам, междисциплинарная интеграция, изучение языка, подходы, образовательные и дидактические игры, словарный запас, речевые навыки.*

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim tizimini tubdan isloh ilish, unda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda ta’lim tizimida ham ko‘plab innovatsion g‘oyalar, xalqaro tajribalar

qo‘llanib kelinmoqda. Zero, biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib yetishi uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz. Shu maqsadda ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo‘lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va ular egallagan bilimlarni o‘quv tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim.

Aytish joizki, boshlang‘ich sinflarda chet til o‘qitishning: a)psixologik asoslari I.A.Zimnyaya(1991), D.M.Singlton(1995), P.M.Laytboun, N.Spada(2006), A.P.Sinelnikov(2009), M.Villiams, R.L.Bedn(2010); b)pedagogik asoslari V.A.Skot, L.X.Etrberg(1992), S.Xallivel(1993), K.Grant(2002), J.Mun(2005), A.Edvards, P.Nayt(2005), C.Xorner, V.Rif(2007), A.Pinter(2011), D.Veil, A.Faunteyn(2011); v)metodologik asoslari SH.X.Akbarova(1999), N.D.Galskova, Z.N.Nikitenko(2004), L.Kamerun(2005), C.T.Linz, D.Nyunen (2005), N.A.Gorlova(2010), N.M.Rodina, E.YU.Protasova(2010) kabi olimlar tomonidan nashr ettirilgan adabiyotlarda atroflicha yoritilgan.

Chet tili o‘qitish amaliyotida taklif etilgan qoidalar va qarashlar lingvodidaktik (tillar ta’limshunosligi) tamoyillar maqomida umumlashtirilgan va ilmiy asoslangan. Masalan, J.Jalolov nomlanishi va mohiyatida tafovutlar bo‘lishiga qaramay, quyidagi didaktik tamoyillarni umumlashtirgan: tarbiyaviy ta’lim, onglilik, faollik, ko‘rgazmalilik, sistemalilik (izchillik), individual yondashish, (bilimlarni) puxta o‘zlashtirish, o‘quvchi kuchiga moslik kabilar[1]. N.A.Gorlova boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirgan: faollik, ko‘rgazmalilik, o‘quvchi kuchiga moslik, individual yondashish, sistemalilik deydi[2]. Ilmiy manbalarni o‘rganib chiqib boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. O‘quvchilarning chet til o‘rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish.

2. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish.

3. Darslarda ma’noli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish.

4. Mashg‘ulotlarda texnik vositalardan keng foydalanilish.

5. O‘quvchilarning yoshiga mos autentik materiallaridan foydalanish.

6. Nutq namunalari asosida chet til o‘rgatish.

7. Mavzularni obrazlashtirish (gapiruvchi qo‘g‘irchoqlar yordamida).

Muhokama. Barcha til ixlosmandlariga yaxshi ma’lumki, ingliz tili 4ta aspektlardan (o‘qish, yozish, gapirish, tinglash) tashkil topgan. Ya’ni, chet tilda muloqot qilish, egallash to‘rt asosiy nutq faoliyati turlari bo‘yicha malakalarni shakllantirish demakdir[3]. Nutq faoliyatining to‘rt turi: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv malakalari o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirib boriladi. Bu o‘qish va yozish, o‘qish va tinglash, o‘qish va gapirish, tinglash va o‘qish, tinglash va yozish, tinglash va gapirish kabi mashqlar orqali amalga oshiriladi.

[1] Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: чет тиллар олий ўқув юртлари (факултетлари) талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – Б. 82-83.

[2] Горлова Н.А. Личностно-деятельностный метод обучения иностранным языкам дошкольников, младших школьников и подростков. Теоретические основы. – М.: МГПУ, 2010. – С. 182-190.

[3] J.J. Jalolov. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012. — 432 b.

“O‘qib tushunish – nutqiy faoliyatning turlaridan biri sifatida murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib, faqat muayyan lingvistik poydevor, ya’ni fonetik va leksik-grammatik bilimlar asosida amalga oshiriladi. O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga bu jarayonning ikki tomoni, ya’ni yozma xabarni qabul qilishga tayyorlaydigan o‘qish texnikasini hamda axborotni sodir bo‘lgan nutqiy faoliyat mahsuli sifatida anglashni inobatga olish zarur. Buning muhim sharti esa tizimli va maqsadga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarishdir. O‘qishni nazorat qilish obyekti matnning til materiali emas, uning mazmunini tushunishdir. Nutqiy faoliyatning barcha turlari bo‘yicha o‘zaro bog‘liq ta’limning maqsadga muvofiqligi va samarasi haqidagi metodik qoida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish boshqa nutqiy ko‘nikmalari bilan parallel tarzda rivojlantirishni taqozo etadi” (Asilova G., O‘zbek tilida o‘qib tushunish malakalarini rivojlantirish, maqola).

Tinglash – bu mahoratda o‘quvchiga kompyuterdan foydalanib audiolar qo‘yiladi. Eshitish analizatorlari orqali audioyozuv miyada analiz qilinadi. Bu holatda o‘quvchi ham tinglaydi, ham native speaker bo‘lgan odamni o‘z ona tilidagi so‘zlarni qanday to‘g‘ri talaffuz qilishini ham o‘rganadi. Shuningdek, “Sun’iy aql va tillarni o‘rganish” maqolasida B.Skinner tilni osonlik bilan o‘rganishda kompyuterning roli muhimligini ko‘rsatgan. Kompyuterda nafaqat tinglash, balki yozish mahoratida, ya’ni o‘z ustida individual shug‘ullanishda ham foydalanish mumkin.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tinglab tushunishni rivojlanganiga qarab, gapirish ham rivojlanadi, o‘quvchi ayniqsa, dialogda yaxshi qatnasha oladi. Tinglab tushunish orqali ham, o‘qish orqali ham ma’lumot qabul qilinadi, shu sababdan ikkalasi ham retseptiv nutqlardir. O‘quvchi to‘g‘ri o‘qigan, talaffuz qilgan so‘zlarni tezda qabul qilib taniydi va tushuna oladi. U o‘zi to‘g‘ri o‘qiy olmasa, talaffuz qila olmasa, so‘zlarni tinglaganda taniy olmaydi, mazmunni tushunmaydi. O‘quvchi va talaba yozganda ham so‘zlarni, gaplarni to‘g‘ri o‘qiy olsa, talaffuz qila olsa, yoza oladi, bu ham tinglab tushunishga yordam beradi.

Yozish – bu mahorat, qolganlaridan murakkab bo‘lib bunda so‘z boyligidan, grammatikadan to‘g‘ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni beqiyos. O‘quvchilar internet yordamida chet ellik tengdoshlari bilan ingliz tilida yozma muloqot qiladilar. Interaktiv doska orqali ham dars mobaynida yozish mahoratini oshirish imkoni mavjud. Doskalar, ya’ni interaktiv doskalar Devid Martin tomonidan fanga kiritilgan. Dastlab grammatik mashqlarni, mantiqiy iboralarni ifodalashda ishlatilgan. Bugungi kunga kelib esa uning vazifalari oshdi. Gapirish – bu mahoratda o‘quvchining qobiliyati yuzaga chiqadi. Til ko‘nikmalari qay darajada ekanligi namoyon bo‘ladi. Dars jarayonida kompyuter texnologiyasi yordamida (o‘yin orqali) bu mahoratni oshirish mumkin. O‘quvchi kompyuterda berilgan raqamlardan istalganini tanlaydi va uning ortidagi mavzu (yoshiga va bilim darajasiga mos bo‘lgan) haqida o‘z fikrlarini bayon etadi. Bunday usullar o‘zaro sheriklar bilan birga muhokama qilish natijasida o‘quvchida sekin-asta so‘zlash qobilyatini vujudga keltiradi.

Gapirish – biror fikrni izoh etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va talaffuz hodisalarini qo’llashdan iborat. Gapirish ko‘nikmasini har bir o‘rganuvchiga o‘rgatish davomida ularga o‘rganish usullarini hamda metodlarini o‘rgatish, ularni talaffuz qoidalari bilan tanishtirib, bilimlarini yanada rivojlantirish, suhbatni va amaliyotni ko‘paytirish kabi mashg‘ulotlar gapirish ko‘nikmasini o‘rgatishning bosh omillaridir. Intonatsiya va tovushni to‘g‘irlashni tushuntirish kerak. Gapirayotganda tushunib, fikr asosida to‘g‘ri va ravon so‘zlashish mashqi gapirish ko‘nikmasini ancha rivojlantiradi. Metodikani psixologiya bilan birga olib borish lozim, chunki o‘quvchining o‘rganish uslubini bilib shu yo‘l orqali gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish kerak.

Til o‘rgatishning kommunikativ yondashuvi real hayotdagi muloqot va o‘zaro ta’sirga urg‘u beradi. Odatda ushbu yondashuv bilan bog‘liq bo‘lgan bosqichlar: Muloqotdan oldingi bosqich: Bu bosqich muloqot faoliyati uchun kontekstni

belgilash, kerakli lug‘at yoki tushunchalar bilan tanishtirish va o‘quvchilarni vazifaga tayyorlashni o‘z ichiga oladi.

Muloqot bosqichi: Bu o‘quvchilar haqiqiy muloqot vazifasini bajaradigan asosiy bosqichdir. Bu juftlik yoki guruh muhokamalari, rolli o‘yinlar, ma’lumot bo‘shliqlari va boshqa interaktiv tadbirlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Tahlil bosqichi: Topshiriqdan keyin ko‘pincha o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qiladigan bosqich mavjud. Ular nima yaxshi bo‘lganini, nimani yaxshilash mumkinligini muhokama qilishlari va ular qo‘llagan til va strategiyalar haqida fikr yuritishlari mumkin.

Mashq bosqichi: Tahlil asosida o‘quvchilar muloqot davomida yuzaga kelgan muammolarni mustahkamlash uchun yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishlari mumkin.

Qo‘llash bosqichi: Nihoyat, o‘quvchilar o‘rganganlarini sinfdan tashqarida real hayotda qo‘llashlari tavsiya etiladi, bu esa tilning muloqot vositasi ekanligi haqidagi fikrni mustahkamlaydi. O‘quvchilarning yoshi kognitiv rivojlanishga, o‘quvchilarning ma’lumotni qanday qayta ishlashiga va ularning mavhum tushunchalarni tushunish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar aniq misollar va ko‘rgazmali qurollarga ko‘proq tayanishi mumkin, katta yoshdagilar esa murakkabroq til vositalarini tushunishlari mumkin.

Aytish joizki, ta’lim jarayoni, uni rivojlantirish va o‘zgartirish o‘qituvchi va sinf o‘quvchilarining o‘zaro ochiq muloqoti va ishonchi muhitida samarali bo‘ladi. Ta’lim jarayonida ilg‘or tajriba va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, yangiliklarni olib kirish va ularni tatbiq qilish orqali ta’lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o‘qitilishida turli rolli, harakatli o‘yinlardan foydalanish ham, darsga ham til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni ortishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o‘quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi. Tadqiqotlar natijalari asosida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladigan yanada samaraliroq til o‘rgatish usullarini yaratish mumkin.

Natijalar. Bugungi kunda ingliz tili darslariga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo‘llash tufayli o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi, nutqi rivojlanadi, tez va to‘g‘ri javob berish ko‘nikmalari shakllanadi [4]. Bunday usullar o‘quvchida bilimga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otadi. Bugungi kunda malakali ingliz tili o‘qituvchilari Amerika Qo‘shma Shtatlari va Angliyadagi pedagoglar tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion usullardan foydalanmoqdalar: “Masalalarni ijodiy yechish” bu metodni qo‘llash uchun hikoyaning boshini o‘qiydi; Quvnoq topishmoqlarni o‘quvchilarga o‘rgating. Ingliz tilini o‘rgatish muhim, ular o‘rganadilar va bilmagan so‘zlariga javob topadilar; “Tezkor javoblar” dars samaradorligini oshirishga yordam beradi - o‘quvchilarni qiziqtirish uchun sinfda turli o‘yinlardan foydalaning. “Isitish mashqlari” - bu “Pantomima” (pantomime) usulini o‘ta murakkab mavzular tushuntirilishi kerak bo‘lgan darsda yoki o‘quvchilar charchaganida yozma mashqlarni bajarishda foydalanish mumkin; “Hikoyalar zanjiri” (zanjirli hikoya) usuli o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi; “Aktyor qahramonlar” barcha dars turlarida qo‘llanilishi mumkin. Hunarmandlikka o‘rgatish uchun tarjimon, yozuvchi, shoir kabi kasb egalari darslarga qatnashishi, talabalar bilan muloqot qilishi mumkin; viktorina kartalari talabalar soniga qarab taqsimlanadi, bu barcha talabalarga bir vaqtning o‘zida darslarda qatnashish imkonini beradi.

Xulosa. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishi yosh avlodning ko‘p madaniyatli dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi bir necha chet tillarni mukammal egallashni taqozo etadi. Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan

[4] Saidahmedova N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar – T.:Moliya, 2003. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F.Rixsittilayeva. Chet tilini o‘qitishda yordamchi vositalardan foydalanish. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

foydalanish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashini shakllantiradi va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos kadrlar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Горлова Н.А. Личностно-деятельностный метод обучения иностранным языкам дошкольников, младших школьников и подростков. Теоретические основы. – М.: МГПУ, 2010. – С. 182-190.
2. Жалолов Ж.Ж. Бўлажак мутахассиснинг касбий компетенциясининг шакллантириш устувор таълимий муаммо сифатида // Бўлажак чет тил ўқитувчисининг касбий йўналтириш технологияси. Республика илмий- амалий конференция материаллари. – Т., 2009. − Б.3.
5. Saidahmedova N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar –T.:Moliya, 2003. M.Xoldorova, N.Fayziyeva, F.Rixsitillayeva. Chet tilini o‘qitishda yordamchi vositalardan foydalanish. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
4. Abdurakhmonova M.O. Psychological Factors Of Learning English In 5th Grades Eurasian Scientific Herald, Volume 38/ ISSN: 2795-7365 (December 2024), 8-11.
5. Abdurakhmonova M.O. Methods and Techniques for Teaching English at the Elementary Level //1st EduVision: Global Innovations in Learning and Teaching Conference (February 2025). - 188-190. www.geniusjournals.org
6. Abdurakhmonova M.O. Features of youth psychology and motivation in teaching english in secondary schools//Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. (Yanvar 2025), №1. ISSN 2181-6883, 17-22.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.016:811.111:004

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Vosiyeva Shaxnoza Islamovna, Buxoro davlat pedagogika instituti 3-bosqich tayanch doktoranti

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

Vosiyeva Shakhnoza Islamovna, 3rd-year Doctoral Student, Bukhara State Pedagogical Institute

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Восиева Шахноза Исламовна, докторант 3-курса Бухарского государственного педагогического института



https://orcid.org/0000-0002-9513-3214
e-mail: vasiyevashakhnoza@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari chuqur tahlil qilingan. Raqamli ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlari, interaktiv metodlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri hamda zamonaviy elektron platformalardan foydalanish mexanizmlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ingliz tili, metodika, interaktiv ta’lim, motivatsiya, kasbiy kompetentlik, raqamli platformalar.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of using information and communication technologies (ICT) in teaching English in higher education institutions.*

Keywords: *information and communication technologies, English language teaching, methodology, interactive learning, motivation, competence, digital platforms.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические и методологические основы использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в преподавании английского языка в высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, преподавание английского языка, методология, интерактивное обучение, мотивация, компетенция, цифровые платформы.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi jadal rivojlanayotgan axborotlashgan jamiyat sharoitida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tili bugungi kunda ilm-fan, texnologiya va xalqaro muloqotning asosiy vositasi sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois, ingliz tilini o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.Chet tillarini o‘qitishdan maqsad o‘quvchilarga faqat tilni o‘rgatish emas, balki ularning ertangi kunda kamol topib yurt ravnaqi, xalqimiz farovonligi uchun o‘z mahoratini namoyon qila oladigan yetuk barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Hozirda oliy ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishda yangicha usullardan foydalanish kerak. Darslarda ovozli videolardan lavhalar nomoyish qilib o‘tish, talabalarda ham, nutq madaniyati ham o‘tilayotgan tilga nisbatan qiziqishi ortadi. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida chet tillarini o‘qitish bo‘yicha video

konferensiyalar, anjumanlar tashkil qilinib talabalar o‘zaro fikr almashishlari kerak. Ya’ni bunda chet tillarini o‘qitishda o‘ziga xos metodlarni qo‘llab, zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda talaba yoshlarga yetkazib berish, ular ongida chet tilini o‘rganish bo‘yicha fikrlarni shakllantirishdan iborat. Hozirda online tizimi joriy qilingan bo‘lib, bu tizim orqali xorijdagi oliy ta’lim muassasalari talabalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqat qilishlari mumkin. Talabalar olayotgan bilimlarni tekshirish maqsadida maxsus dasturlar yordamida test sinovlarini o‘tkazib ular olayotgan amaliy va nazariy bilimlarni baholab turish maqsadga muvofiq. Demak, shuni ishonch bilan aytish mumkinki, yurtimizda yoshlarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar, ularning barchasi mustaqillik sharofati tufayli erishdik.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilmiy tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, AKT asosida tashkil etilgan ingliz tili darslari talabalarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantiradi. Bundan tashqari, raqamli vositalar ta’lim jarayonining shaffofligi va samaradorligini ta’minlaydi. Hozir xilma-xil til o‘qitish bloglari yoki ilovalari internetning turli veb-saytlari bo‘ylab tarqalgan. Misol uchun aytadigan bo‘lsak, Kahoot ilovasi hozirgi xorijiy til o‘qitadigan o‘qituvchilar tomonidan darslarda keng qo‘llanilmoqda. Kahoot dasturiga o‘qituvchi savollar, topshiriqlar joylashi mumkin va darsda talabalar o‘zlarining telefonlaridan yoki kompyuterlaridan bu dasturga kirgan holda bu mashg‘ulotlarni bajaradi va natijalari bilan tanishib oladi.

“Ko‘plab xalqaro olimlar, xuddi Klark va Marker, Kogan, Hovsara, Korrigan, Denemark va Nash, Koehler kabilar ta’lim tizimini yangilash, yaxshilash kerakligi haqida fikr yuritmoqdalar. G.Dudeney va N.Hokli kompyuter xonasining tuzilishi bevosita mashg‘ulotlarning turlariga ta’sir qilib, ular o‘quvchilarni qay tarzda o‘rganishiga, ular o‘quvchilarni bir-biri bilan va o‘qituvchi bilan munosabatiga ta’sir ko‘rsatadi” (Dudeney,Hokli 2008:8) deb ta’kidlashgan. Richardsning fikriga ko‘ra, qachonki material va resurslar talabalarning o‘rganish jarayonidagi ehtiyojlari, maqsadlari va o‘rganish qulay usullari va strategiyalariga qarab tanlansa, talabalar ulkan hajmdagi haqiqiy til o‘rganish materiallari va resurslaridan foyda olishi mumkin(2005). Chindan ham ingliz tilini o‘qitish darslarida o‘qituvchi har bir talabaga uning darslarni qay tarzda va qancha darajada o‘zlashtirishini hisobga olgan holda darsni tashkil etsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Muhokama. *AKT vositalari va tamoyillari*. *Interaktivlik va Multimedialik***:** darslarni video, audio, animatsiyalar va elektron darsliklar bilan boyitish. *Integratsiya*: Ingliz tili o‘qitishni informatika va boshqa fanlar bilan bog‘lash (masalan, ingliz tilida tadqiqot o‘tkazish). *Onlayn resurslardan foydalanish***:** Muloqot platformalari (Zoom, Google Meet), onlayn lug‘atlar, til o‘rganish ilovalari (Duolingo, Quizlet). *Mish-mish va gaplashishga undash:* Og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun audio/video materiallardan foydalanish, onlayn muhokamalarga jalb qilish. *O‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv***:** O‘quvchilarning qiziqishiga qarab, individual loyihalar va topshiriqlar berish.

AKT vositalari:

-Elektron darsliklar: Interaktiv mashqlar va multimediali ma’lumotlar.

-Onlayn platformalar**:** Kahoot, Google Classroom, Moodle kabi platformalarda topshiriqlar, testlar o‘tkazish.

-Ijtimoiy tarmoqlar**:** Ingliz tilida guruhlar tuzish, chet ellik talabalar bilan muloqot qilish.

-Veb-saytlar va ilovalar: BBC Learning English, VOA Learning English, TED Talks kabi resurslar.

Metodikasi:

1.Darsni rejalashtirish**:** O‘quv maqsadiga mos keladigan AKT vositasini tanlash.

2.Qiziqish uyg‘otish: Multimedia materiallar bilan darsni boshlash.

3.Faoliyatni tashkil etish**:** Onlayn testlar, jamoaviy ishlar, videolar tahlili.

4.Baholash: Elektron testlar, onlayn topshiriqlar orqali baholash.

Bu metodika o‘qitish jarayonini zamonaviylashtirib, talabalarning tilni yanada tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining nazariy asoslari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi axborotni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish bilan bog‘liq texnik, dasturiy hamda metodik vositalar majmuasini o‘z ichiga oladi. Pedagogik nuqtayi nazardan AKT ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quv faoliyatini individuallashtirish va talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda AKT ta’limning innovatsion omili sifatida talqin etilib, uning didaktik funksiyalari quyidagilar bilan izohlanadi:

-ta’lim mazmunini multimediaviy shaklda taqdim etish;

-o‘qitish jarayonida interfaollikni ta’minlash;

-talabalarning kognitiv faolligini oshirish;

-bilimlarni nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirish.

2. Ingliz tilini o‘qitishda AKTdan foydalanishning metodik yondashuvlari. Ingliz tilini o‘qitishda AKTdan foydalanish metodikasi kommunikativ, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlariga asoslanadi. Mazkur yondashuvlar talabaning til o‘rganish jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta’minlaydi.

AKT asosida tashkil etilgan darslar quyidagi metodik imkoniyatlarni yaratadi:

-leksik va grammatik materiallarni interaktiv mashqlar orqali o‘zlashtirish;

-tinglab tushunish ko‘nikmasini autentik audio va video materiallar yordamida rivojlantirish;

-og‘zaki nutqni virtual muloqot va videokonferensiyalar orqali shakllantirish; -yozma nutqni onlayn topshiriqlar, forum va bloglar orqali takomillashtirish.

Natijalar. Bugungi kunda ingliz tilini o‘qitishda Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi ta’lim platformalari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu platformalar o‘quv jarayonini rejalashtirish, ta’lim materiallarini joylashtirish va baholashni samarali tashkil etishga imkon beradi. Shuningdek, Quizizz, Kahoot, Wordwall kabi interaktiv vositalar talabalarning bilimini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mobil ilovalar esa til o‘rganishda uzluksizlik va moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Chet tili darslarida kompyuterdan foydalanish, o‘qituvchi faoliyatiga yangi talablarni qo‘yish, o‘quv jarayonini ilmiy tashkil etishni talab qilish bilan birga o‘qituvchining ishini bir muncha yengillashtiradi, darsda samaradorlikning oshishiga sharoit yaratadi. Xususan, ingliz tilini o‘qitishda bir qator yangi AKT texnologiyaridan foydalanish zarur. An’anaviy o‘qitish tizimidan zamonaviy o‘qitish tizimiga o‘tish lozim. Talabalarning eshitish mahoratini yaxshilash uchun darslar davomida ingliz tilidagi qo‘shiqlarni yoki ertak, qissa, hikoya, ma’lumot shaklidagi treklarni (track) eshittirish, videolar, kinolar ko‘rsatish orqali talabalarning eshitish va gapirish mahoratini oshirish kerak. Talabalar prezentatsiyalar tayyorlash orqali mavzu bo‘yicha internetdan ma’lumotlar izlab, o‘rganib, prezentatsiya tayyorlab, uni o‘qituvchi va kursdoshlariga darslarda namoyish qilishi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. AKT asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va raqamli savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda AKTdan foydalanishning metodik asoslarini yanada takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir. Ingliz tilini o‘qitishda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi yuqori bo‘lib, bu o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, real hayotiy vaziyatlarni yaratadi, o‘quv materialini yanada tushunarli va qiziqarli qiladi, shuningdek, tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish va yozish kabi to‘rtta til ko‘nikmasini bir vaqtda rivojlantirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, AKT o‘qituvchiga darsni boyitish, o‘quvchiga esa o‘rganishni osonlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Richards J.C. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.

2.Harmer J. *How to Teach English*. Longman.

3.Warschauer M. *Technology and Language Learning*. Oxford University Press.

4.Vosiyeva Sh.I. Information and Communication Technology in Foreign Language. Classes in Higher Education Institutions: Roles and Practices1st Edu Vision: Global innovations in learning and teaching Conference February, 2025 https://euro-conferences.org/index.php/eduvision P.99-102.

5.Vosiyeva Sh.I. Utilising information and communication technologiesin foreign language classrooms and English language teaching. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal Of Education Volume 3,Issue 4,2025.ISSN 2994-9521.https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje P.170-173.

6.Vosiyeva Sh.I. Using information technologies to foster the communicative competence of students. Journal of multidisciplinary science and innovations German international journals company ISSN2751-4390IMPACT FACTOR(Research Bib): 9,08 volume 4, issue 2, 2025 P.533-535.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.1)"1941/1945":001.891

ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИНИ ЎРГАНИШ ВА ЁРИТИШДА ЯНГИ ЁНДАШУВЛАР

Пулатова Севара Акмаловна, Alfraganus университети профессори, тарих фанлари номзоди

NEW APPROACHES TO THE STUDY AND COVERAGE OF THE HISTORY OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF WORLD WAR II

Pulatova Sevara Akmalovna, Professor of Alfraganus University, Candidate of Historical Sciences

НОВЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ И ОСВЕЩЕНИЮ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Пулатова Севара Акмаловна, профессор университета Альфраганус, кандидат исторических наук



https://orcid.org/0009-0000-4816-1696
e-mail: sevaraakmalovna@mail.ru

Аннотация: *Мақолада Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон тарихини ўрганиш ва ёритишда янги ёндашувлар ва улар асосида амалга оширилган тадқиқотлар келтирилади. Ўзбекистон халқининг Иккинчи жаҳон урушида фашизм устидан қозонилган ғалабада ҳиссаси ва бу давр воқеалари ҳақидаги тарихий хотирани асрашнинг ижтимоий аҳамияти кўриб чиқилади.*

Калит сўзлар: *Ўзбекистон, Иккинчи жаҳон уруши, "оғзаки тарих", тарихий хотира, Ғалабанинг 80 йиллиги.*

Annotation*: This article presents new approaches to the study and coverage of the history of Uzbekistan during the Second World War, as well as research conducted on the basis of new scientific approaches. The article examines the contribution of the people of Uzbekistan to the victory over fascism during World War II and the social significance of preserving the historical memory of the events of this period.*

Keywords: *Uzbekistan, World War II, "oral history", historical memory, 80th anniversary of Victory.*

Аннотация: *В данной статье представлены новые подходы к изучению и освещению истории Узбекистана периода Второй мировой войны, а также приводятся исследования, проведенные на основе новых научных подходов. Рассматривается вклад народа Узбекистана в победу над фашизмом во время Второй мировой войны и социальное значение сохранения исторической памяти о событиях этого периода.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Вторая мировая война, "устная история", историческая память, 80-летие Победы.*

Кириш. (Введение / Introduction). Мустақиллик йилларида Ўзбекистон тарихи фанида жиддий ўзгаришлар содир бўлди: совет мафкурасидан воз кечилди, янги методологик ёндашувлар асосида илгари ишланмаган мавзулар фаннинг ўрганиш объектларига айланди, таълим жараёнида янги стандартлар, дастурлар, дарсликлар ва методик қўлланмалар ишлаб чиқилди.

Айтиш лозимки, Иккинчи жаҳон уруши даврида Ўзбекистон тарихи ва халқимизнинг қозонилган ғалабадаги иштироки мавзуси тарихчи олимлар назаридан, афсуски, бирмунча вақт четда қолди. Дарҳақиқат, кўпмиллатли

Ўзбекистон халқининг Иккинчи жаҳон уруши даврида фашизмга қарши кураши – Ватанимиз XX аср тарихининг ажралмас қисмидир.

Гарчи совет даврида Иккинчи жаҳон урушига оид қатор илмий ишлар қилинган, тадқиқотлар чоп этилган бўлса-да "Ғалаба боғи" ёдгорлик мажмуаси қурилаётганида унинг мазмуни ва "Ўзбекистон халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси" китоб-альбоми устида ишлаш жараёнида бу мавзуда ҳали "оқ доғлар" мавжудлигини кўрсатди. Қолаверса, ўз вақтида Иккинчи жаҳон урушига бағишланган тадқиқотларда фашизм устидан қозонилган Ғалабада ҳал қилувчи омил сифатида аввалига Сталин шахсининг, кейинчалик компартиянинг аҳамияти кўрсатилган бўлса, сўнгги йиллардаги тадқиқотларда бунга зид хулосалар қилинди. Яъни мутахассислар томонидан чуқур таҳлиллар асосида Ғалабага Сталин бошқаруви туфайли эмас, балки Сталин бошқарувидан қатъий назар, халқларнинг мислсиз қаҳрамонлиги ва фидокорона меҳнати туфайлигина катта йўқотишлар эвазига эришилган, деган қатъий хулосалар қилинди.

Адабиётлар таҳлили ва методология (Литература и методология / Materials and methods). Бу жараёнлар контекстида аввал чоп этилган ишларнинг аҳамиятини камайтирмаган ҳолда, манбалар кўлами катталиги (ҳужжатлар, хотиралар ва бошқалар) уларни илмий умумлаштириш ва янги фактларни илмий муомалага олиб кириш масаласи долзарблашди. Айниқса, "Ғалаба боғи" таркибида "Шон-шараф" давлат музейи ташкил этилиши натижасида уруш қатнашчилари оилаларида сақланаётган ҳужжатлар, суратлар ва ашёлар жамланаётгани, очиқланган ва онлайн жойлаштирилган архив ҳужжатлар қамрови ўсиб бораётгани, чет мамлакатлардаги архивлар, музейлар, олимлар билан ҳамкорлик кенгайиб бораётгани ҳамда тадқиқотлар доирасида маълум уруш қатнашчиларининг жанговар йўлини кенг ўрганиш ишлари олиб борилаётгани [2] ҳам иш ҳажми катталигини кўрсатади.

Биргина А.Зияевнинг 2024 йили номзодлик диссертациясида собиқ СССР Мудофаа вазирлигининг уруш даврига оид ҳужжатлари сақланаётган Подольскдаги Марказий архивда уч йил давомида ишлаб тўплаган маълумотларни умумлаштириб, хулосаларини тақдим этгани аҳамиятли бўлди. Умуман, мавзуни ёритишда ва манбалар билан ишлашда янги ёндашувларни тадқиқотлар ва махсус нашрлар йўналишларидан келиб чиққан ҳолда кўриб чиқиш мумкин.

Муҳокама (Обсуждение / Discussion). Одатда Ўзбекистонни Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси – фронт ортидан таъминот, фронт олди ҳудудларидан эвакуация қилинганларга кўрсатган инсонпарварлик ёрдамидан иборат, деган қараш устувор бўлиб қолган эди. Шу нуқтаи назардан ўзбекистонликларнинг жанглардаги иштироки ва жасорати нисбатан орт планда тасаввур этиш шаклланиб борди. Бироқ, илмий муомалага янги киритилган архив материаллари ўзбекистонликларнинг жанглардаги иштироки ва жасорати фронт ортидаги таъминот ва эвакуация қилинганларга нисбатан бағрикенглигидан ҳам кам бўлмаганлигини кўрсатди. Хусусан, "Ўзбекистон халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси" ва "Ўзбекистон Иккинчи жаҳон уруши даврида" туркумидаги китоб-альбомларда маълумотлар, материаллар нафақат матн, балки, мавзуга оид суратлар ҳамда ҳужжатлар ва газеталарнинг суратлари билан берилишига алоҳида аҳамият қаратилганлиги жиҳатидан бошқа нашрлардан ажралиб туради. Бу борада ижодий гуруҳ аъзолари мақолалар тайёрлаш давомида архивлар ва музейлар фондларидаги материаллар қаторида уруш қатнашчиларининг оилаларида сақланаётган ҳужжатлар, суратларни жалб қилди. Яна бир жиҳати имкон доирасида уруш қатнашчисини айнан уруш йилларидаги суратларини беришга эътибор қаратилган[3:b.69].

Натижалар (Результаты / Results). Иккинчи жаҳон уруши иштирокчиларидан ёки уларнинг яқинларидан уруш ҳақидаги хотираларнинг ёзиб олиниши ёки уруш иштирокчиларининг кундаликларини ўрганиш асносида илгари уруш ҳақида маълум бўлмаган ёки расмий адабиётларда келтирилмаган маълумотларни тўплаш имконияти юзага келади. Мисол учун, нафақат уруш қатнашчиларининг исм-фамилиялари ва кўрсатган қаҳрамонликлари, балки, рус тилини

деярли билмаган, техника билан таниш бўлмаган бир заҳматкаш деҳқон боласининг қишлоғидан узоқ ўлкада қўлига қурол олиб, Ватанини ҳимоя қилиш учун жанг майдонига кирган аскар сифатидаги ҳис-туйғуларини англаш мумкин бўлади.

Айтиш лозимки, анъанавий тарих фанида ёзма тарихий манбаларга мутлоқ устуворлик берилиб, хотирадаги айрим қусурларнинг, шунингдек, баъзида ўтмишни ўзлари учун мақбул кўринишда акс эттириш ҳолатларининг учраши билан изоҳлаган ҳолда оғзаки далилларга у қадар ишонч билдирилмайди. Бироқ мутахассислар, ҳар қандай ёзма матнда (шу жумладан бирламчи манбада ҳам) тарихий воқеани унинг иштирокчиси ёки матн муаллифи томонидан эркин талқин этилганини ҳамда субъективлик хусусиятига эгалигини эътироф этадилар. Умуман, оғзаки тарих фанлараро методларни, жумладан психология, педагогика ва социология билан яқин алоқадорликни тақозо этиб, тарих фанининг соҳаси, кўпроқ тарихий антропологияга айланиб бормоқда.

Шунингдек, оғзаки тарихнинг ўтмишни ўзига хос тарзда, эмоционал идрок этишга қаратилгани каби хусусиятини ҳам алоҳида таъкидлаш керак. Айниқса, уруш даҳшатларини ёки қатағон, зўравонлик каби воқеалар ёдга олинганида бу ҳолатлар яққол намоён бўлади. Инсонлар ўтган воқеалар контекстида ўз ҳаётлари ёки яқинлари ҳақида гапирар эканлар, баъзан шундай ҳиссиётларга берилишадики, бу нафақат шахсий дахлдорлик, балки оғриқли хотираларни қўзғатиши, ғазаб, нафрат ёки кўз ёшлари ва бошқа ёркин ҳиссиётлар кўринишларида бўлиши мумкин.

Бир мисол. Шифокор Анвара Муҳаррамованинг (1919–2009) фронтда тутган кундалиги ҳам ўрганилиб, бир қанча саҳифаларининг суратлари китоб-альбомда эълон қилинди. Таъкидлаш керакки, кундаликдаги қайдлар ҳужжат сифатида суронли уруш даҳшатлари ҳақида гувоҳлик бериш баробарида ўқувчида ўша даҳшатни ҳис этишга имкон беради[4:b.427–432].

Британиялик профессор, “The Oral History” журналининг асосчиси Пол Томпсон тарихни ўрганишда оғзаки тарихнинг афзалликлари ҳақида шундай ёзади: *“Турли хил одамларнинг ҳаётий тажрибаси “хомашё” сифатида ишлатила бошланиши биланоқ тарих янги ўлчамларга эга бўлади”*[5:b.17–18]. Умуман контекстуал таҳлил ва тизимли ёндашув Иккинчи жаҳон урушида фашизм устидан қозонилган ғалабада Ўзбекистоннинг ҳиссасини кенгроқ ва чуқурроқ ўрганишга хизмат қилади.

Хулосалар. (Заключение / Conclusion). Тадқиқот натижалари академик доирада ҳали қилинадиган ишлар қамрови катталигини ҳам кўрсатди. Эндиликда тарихчилар ва бошқа ижтимоий-гуманитар фанлар олимлари олдида муҳим интеллектуал вазифа турибди. Яъни, Иккинчи жаҳон уруши даврида Ўзбекистоннинг сиёсий, иқтисодий, маданий, ижтимоий ҳаётининг барча соҳаларида содир бўлган воқеаларни тарихийлик методи, институционал ёндашув ва қиёсий таҳлил асосида тизимли ўрганишдан иборат. Истиқболда рақамлаштириш имкониятларини ҳам ҳисобга олиш зарур.

Адабиётлар рўйхати (Использованная литература / References):

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 9 май – Хотира ва қадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2018 йил 9 май. – https://president.uz/uz/lists/view/1706.

2. O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi. Kitob-albom. / Nashr uchun mas’ul *X.Sultonov*; tuzuvchilar *S.Saidolimov, M.Raximov, K.Sagdullayev, X.Babadjanov, R.Nazarov*. – T.: O‘zbekiston, 2020. – 320-b; O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida. Kitob-albom. / Nashr uchun mas’ul *X.Sultonov*; tuzuvchilar *S.Saidolimov, M.Raximov, K.Sagdullayev, D.Aberkulov*. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 288-b; Uchinchi kitob-albom. / Nashr uchun mas’ul *X.Sultonov*; tuzuvchilar *S.Saidolimov, K.Sa’dullayev, H.Bobojonov, D.Aberkulov*. – T.: O‘zbekiston, 2022. – 352-b; To‘rtinchi kitob-albom. / Nashr uchun mas’ul *X.Sultonov*; tuzuvchilar *S.Saidolimov, K.Sa’dullayev, H.Bobojonov*. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 296-b; Beshinchi kitob-albom. / Nashr uchun mas’ul *X.Sultonov*; tuzuvchilar *S.Saidolimov, K.Sa’dullayev, H.Bobojonov*. – T.: O‘zbekiston, 2024. – 296-b; O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi. Kitob-albom / Nashr uchun mas’ul *X. Sultonov*; Tuzuvchi va mualliflar: *S.Saidolimov,*

K.Sa'dullayev, H Bobojonov. – T.: O'zbekiston, 2025. – I jild. Jasorat kitobi. – 512 b; II jild. Matonat kitobi. – 472 b; *С.Саидолимов, Ҳ.Бобожонов, С.Пўлатова, Н.Мустафаева, М.Ҳамидова, Н.Маҳкамова, Ш.Юсупов, К.Саъдуллаев, М.Назиров, З.Холбоева, Ш.Раҳимов, М.Нурсаидова, М.Солиев.* Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон. – Т. -2024. – 362 б; *Зияев А.А.* Комплектование Красной армии людскими ресурсами Узбекской ССР и их подготовка в период Великой Отечественной войны 1941-1945 годы. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – М.- 2024; *Саипова К. Д.* Эвакуация и депортация различных народов в Узбекистан в 1941–1945 гг / Память о прошлом. Сборник докладов и сообщений IX историко-архивного форума. – Самара, 2020. – С. 67–70; *Шамсутдинов Р.* Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари: Биринчи китоб. – Т.: Akademnashr, 2017. – 542 б; Иккинчи китоб. –Т.: Akademnashr, 2017. – 736 б; Учинчи китоб. – Т.: Akademnashr, 2017. – 448 б; Тўртинчи китоб. – Т. -2020. – 368 б; Бешинчи китоб. – Т. -2020. – 352 б.

3. *Саидолимов С., Саъдуллаев К.* Ўзбекистон Иккинчи жаҳон уруши даврида туркумидаги китоб-альбомлар / *С.Саидолимов, Ҳ.Бобожонов, С.Пўлатова, Н.Мустафаева, М.Ҳамидова, Н.Маҳкамова, Ш.Юсупов, К.Саъдуллаев, М.Назиров, З.Холбоева, Ш.Раҳимов, М.Нурсаидова, М.Солиев.* Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон. – Тошкент, 2024. – 364 б.

4. Po'latova S. Anvara Muharramova. / O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi. Kitob-albom. I jild. Jasorat kitobi. – T.: O'zbekiston, 2025.– B. 427–432.

5. *Томпсон П.* Голос прошлого. Устная история. – М. -2003. –367 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.013.2:614.88

FAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARNING BIRINCHI YORDAM KO'RSATISHGA PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH

Palvanova Umida Baxramovna, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali "Harbiy-dala terapiyasi, gematologiya va diagnostika" kafedrasi assistenti



https://orcid.org/0000-0002-6587-3318
e-mail: umida.bahramovna93@gmail.com

DEVELOPING STUDENTS' PSYCHOLOGICAL RESILIENCE IN PROVIDING FIRST AID THROUGH ACTIVE LEARNING TECHNOLOGIES

Palvanova Umida Bakhramovna, Assistant Lecturer, Department of Military Field Therapy, Hematology and Diagnostics, Urgench Branch of Tashkent Medical Academ

ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СТУДЕНТОВ К ОКАЗАНИЮ ПЕРВОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ АКТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Пальванова Умида Бахрамовна, ассистент кафедры военно-полевой терапии, гематологии и диагностики Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии

Annotatsiya: *Ijtimoiy va texnogen xavf-xatarlarning ortib borishi sharoitida talabalarni favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatishga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Mazkur maqolada simulyatsion va interaktiv ta'lim texnologiyalarining talabalar orasida nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Rol o'yinlari, trenajyorlar bilan ishlash hamda keys-metod asosida tashkil etilgan pedagogik tajriba faol o'qitish usullari talabalarda ishonchni oshirish, tashvish darajasini pasaytirish va xavfli vaziyatlarda barqaror xulq-atvor modellarini shakllantirishini ko'rsatdi[1].*

Kalit so'zlar: *simulyatsion ta'lim, interaktiv usullar, birinchi yordam, psixologik tayyorgarlik, pedagogik texnologiyalar.*

Abstract: *In the context of increasing social and technological risks, preparing students to provide first aid in emergency situations has become a significant educational challenge. This article substantiates the effectiveness of simulation-based and interactive learning technologies in developing not only practical skills but also psychological readiness, including stress resistance, confidence, and decision-making ability. The results of a pedagogical experiment involving role-playing, simulation equipment, and case-based learning demonstrate that active teaching methods contribute to the formation of stable behavioral patterns in high-risk situations [1].*

Keywords: *simulation-based learning, interactive methods, first aid, psychological readiness, educational technologies.*

Аннотация: *В условиях роста социально-техногенных угроз возрастает значимость формирования у студентов психологической готовности к оказанию первой помощи. В статье обоснована эффективность симуляционного и интерактивного обучения, направленного на*

развитие не только практических навыков, но и эмоционально-волевых компонентов, обеспечивающих способность действовать в стрессовых ситуациях. Педагогический эксперимент, включающий ролевые тренинги, работу с тренажёрами и кейс-метод, подтвердил, что активные формы обучения способствуют росту уверенности, снижению тревожности и формированию устойчивых моделей поведения в условиях риска[1].

Ключевые слова: *симуляционное обучение, интерактивные методы, первая помощь, психологическая готовность, коэффициент полезности, педагогические технологии.*

Kirish. Hozirgi davrda turli xildagi favqulodda vaziyatlar — xususan, tabiiy ofatlar, texnogen avariyalar hamda ijtimoiy xarakterdagi hodisalarning yuzaga kelish ehtimoli ortib borayotgan bir sharoitda, yosh avlodni ekstremal holatlarda ongli, izchil va samarali harakat qilishga tayyorlash masalasi ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda birinchi yordam ko‘rsatish algoritmlariga oid bilimlarni shakllantirish bilangina cheklanib qolmasdan, balki stress omillari ta’sirida tezkor qaror qabul qilish, o‘zini boshqarish hamda psixoemotsional barqarorlikni ta’minlaydigan xulq-atvor strategiyalarini rivojlantirish zarurati alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Mavjud ta’lim amaliyotlarini tizimli tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy, asosan ma’ruza shakliga tayangan o‘qitish usullari talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini yetarli darajada ta’minlamaydi, shuningdek, tanqidiy vaziyatlarda mustaqil va asoslangan qarorlar qabul qilishga oid barqaror ko‘nikmalarni shakllantirishga to‘liq xizmat qilmaydi. Shu sababli, real sharoitlarni modellashtirishga asoslangan va talabalarni faol o‘quv muhitiga jalb etishni ko‘zda tutuvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati tobora dolzarb tus olmoqda. Mazkur yondashuvlar orasida simulyatsion va interfaol ta’lim alohida ilmiy-amaliy qiziqish uyg‘otib, u bir tomondan birinchi yordam ko‘rsatish jarayoniga xos bo‘lgan xulq-atvoriy senariylarni qayta tiklash imkonini bersa, ikkinchi tomondan ta’lim oluvchilarda kasbiy va shaxsiy kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi[4].

Metodologiya. Mazkur ilmiy tadqiqot doirasida notibbiy yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarda birinchi yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilib ishlab chiqilgan ta’lim modelining samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks pedagogik tajriba amalga oshirildi. Tadqiqot dizayni miqdoriy va sifat tahlil usullarini o‘z ichiga olib, ta’lim jarayonida yuz berayotgan o‘zgarishlarni tizimli baholash imkonini berdi. Ta’lim modelining tuzilishi professional tayyorgarlikning turdosh sohalarida o‘z samaradorligini isbotlagan simulyatsion o‘qitishning zamonaviy konseptual yondashuvlariga asoslangan holda ishlab chiqildi[3].

Eksperimental dastur talabalarning vaziyatga mos ravishda harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan turli xil o‘quv elementlarini qamrab oldi. Xususan, rolga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etilib, ularda talabalar navbatma-navbat yordam ko‘rsatuvchi va jabrlanuvchi rollarini bajarishdi. Ushbu yondashuv tanqidiy vaziyatlarda o‘zaro munosabatlarning xulq-atvoriy jihatlarini chuqurroq anglash, shuningdek, empatiya va mas’uliyat hissini rivojlantirish imkonini berdi. Bundan tashqari, o‘quv jarayoniga jabrlanuvchilarning turli holatlarini modellashtiruvchi maxsus manekenlar, shuningdek, bazaviy va kengaytirilgan o‘pka-yurak reanimatsiyasi algoritmlarini o‘zlashtirishga mo‘ljallangan trenajyorlardan foydalangan holda ishlab chiqilgan simulyatsion senariylar integratsiya qilindi. Shu bilan bir qatorda, vaziyatlarni tahlil qilish va jamoaviy muhokamaga asoslangan interfaol seminarlar, shuningdek, favqulodda holatlarda guruhiy javob choralarining uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan jamoaviy mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

Talabalarda birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha ko‘nikmalarning shakllanish darajasi hamda ta’limiy ta’sirning samaradorligini baholash maqsadida o‘quv jarayonining boshida va yakunida so‘rovnomalardan foydalanildi. Qo‘shimcha ravishda, ta’lim natijalarini integral baholash vositasi sifatida foydalilik koeffitsienti (FK) hisoblab chiqildi. Mazkur ko‘rsatkich ishtirokchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi bilan erishilgan natijalar o‘rtasidagi nisbatni aks

ettirib, belgilangan ta’limiy maqsadlarga erishish darajasini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar. Pedagogik tajriba jarayonida olingan empirik ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish natijalari eksperimental guruh talabalarining tayyorgarlik darajasida statistik jihatdan ishonchli ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi. Avvalo, favqulodda vaziyatlarni modellashtirish sharoitida talabalarning o‘z harakatlariga bo‘lgan ishonchi sezilarli darajada oshgani qayd etildi: mazkur ko‘rsatkich dastlabki natijalarga nisbatan 32 foizga ortdi. Ushbu holat talabalarda birinchi yordam ko‘rsatishga tayyorgarlikning nafaqat texnik, balki psixologik tarkibiy qismlari ham mustahkamlanganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, respondentlarning javoblarida noaniqlik darajasining sezilarli kamayishi kuzatildi. Xususan, “Javob berishga qiynalaman” turkumidagi javoblar ulushi 27 foizdan 9 foizgacha qisqardi. Mazkur tendensiya birinchi yordam ko‘rsatish algoritmlarining ongli ravishda o‘zlashtirilgani, ularning amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan harakatlar darajasiga yaqinlashgani hamda talabalarning nostandart vaziyatlarda qat’iyatli harakat qilishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi kuchayganini ko‘rsatadi.

Tajriba samaradorligini umumlashtiruvchi integral ko‘rsatkich sifatida hisoblangan foydalilik koeffitsienti (FK) 72,4 foizni tashkil etdi, bu esa amaliy yo‘naltirilgan tayyorgarlik sohasida yuqori natijalarga erishilganini tasdiqlaydi[5]. Olingan natijalar maqsadli pedagogik intervensiyaning samaradorligini asoslabgina qolmay, balki tibbiyotga oid bo‘lmagan yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlash jarayonida simulyatsion va interaktiv ta’lim yondashuvlarini qo‘llashning maqsadga muvofiqligini ham tasdiqlaydi. Mazkur xulosalar boshqa tadqiqotchilarning imitatsion o‘qitish barqaror kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda ustun metod sifatida e’tirof etilgan ilmiy qarashlari bilan uyg‘unlashadi [6].

Muhokama. O‘tkazilgan tadqiqot natijalarini konseptual jihatdan tahlil qilish asosida shuni ta’kidlash joizki, simulyatsion ta’lim birinchi yordam ko‘rsatishga oid texnik ko‘nikmalarni uzatish vositasi sifatidagina emas, balki favqulodda vaziyatlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan barqaror shaxsiy sifatlarni shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, talabalarda stressga chidamlilik, yuqori psixoemotsional bosim va vaqt tanqisligi sharoitida tezkor safarbar bo‘lish qobiliyatining rivojlanishi, shuningdek, real vaziyatlarda xatolik ehtimolini minimallashtirishga xizmat qiluvchi avtomatlashtirilgan xulq-atvor modellarining shakllanishi kuzatiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, talabalarning kognitiv va emotsional sohalarini faollashtiruvchi interaktiv usullarning roli alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Mazkur texnologiyalar ta’lim oluvchilarni muammoli vaziyatlarga faol jalb etish orqali ularning refleksiv ko‘nikmalarini, o‘z faoliyatini baholash va tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, guruhli mashg‘ulotlarda muntazam ishtirok etish talabalarda jamoada ishlash, vazifalarni taqsimlash va harakatlarni muvofiqlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu jihatlar real favqulodda vaziyatlarda alohida ahamiyat kasb etib, ko‘pincha yordam ko‘rsatish samaradorligi bir nechta shaxslarning uyg‘un va muvofiqlashgan harakatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, faol o‘qitish usullarining qo‘llanilishi ta’lim oluvchilarda nafaqat kasbiy, balki metapredmet kompetensiyalarni ham kuchaytiradi. Bunday yondashuv mas’uliyat, tashabbuskorlik hamda o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha olishga asoslangan xulq-atvor strategiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur ta’sirlar xavf va noaniqlik sharoitida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan zamonaviy ilmiy-pedagogik konsepsiyalar bilan to‘liq uyg‘unlashadi[2].

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida yetarli darajada asoslangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, simulyatsion va interaktiv ta’lim shakllarini tibbiyotga oid bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalari talabalarini tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish kompleks pedagogik samara beradi. Ushbu yondashuv birinchi yordam ko‘rsatishga oid texnik jihatdan asoslangan harakat algoritmlarini shakllantirish bilan bir qatorda, psixologik barqarorlik, xulq-atvoriy moslashuvchanlik hamda yuqori stress va noaniqlik sharoitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Joriy etilgan ta’lim modelining tizimli xususiyati bir vaqtning o‘zida bir nechta muhim vazifalarning hal etilishini ta’minlaydi: amaliy muolajalarni o‘zlashtirishdan tortib, qaror qabul

qilish, shaxslararo muloqot va tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq tayanch kompetensiyalarni shakllantirishgacha. Ushbu omillar olingan bilim va ko‘nikmalarning kelgusida, hatto kasbiy faoliyati bevosita tibbiyot sohasi bilan bog‘liq bo‘lmagan mutaxassislar tomonidan ham real amaliy faoliyatga yuqori darajada transfer qilinishiga zamin yaratadi. Olingan natijalar simulyatsion va interaktiv yondashuvlarning nafaqat pedagogik jihatdan asoslanganligini, balki ularning yuqori amaliy ahamiyatga egaligini ham tasdiqlaydi. Mazkur yondashuvlar oliy ta’lim tizimida hayot va sog‘liq uchun xavf tug‘diruvchi vaziyatlarda mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan samarali ta’lim vositalari sifatida keng joriy etish istiqboliga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abramova S.V. Hayot faoliyati xavfsizligini o‘qitish va tarbiyalash nazariyasi hamda metodikasi. Janubiy Saxalin, 2012.
2. Dvulichanskaya N.N. Interaktiv o‘qitish metodlari asosiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida//Fan va ta’lim: elektron ilmiy-texnik nashr. 2011.
3. Svistunov A.A.(tahr). Tibbiyotda simulyatsion ta’lim. Moskva: I.M.Sechenov nomidagi Birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti nashriyoti, 2013.
4. Zinchenko O. Ta’lim muassasalarida birinchi yordam madaniyatini rivojlantirish. Fan nashriyoti, 2020.
5. Palvanova U.B., Turg‘unov S.T., Ruzmetov B. Favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatishga nomeditsina oliy ta’lim muassasalari talabalari tayyorgarligini oshirish: pedagogik tajriba natijalari // Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi. – 2025. – №2.–171–175-betlar (mutaxassislik 13.00.00, 07.06.2024 y. ro‘yxatdan o‘tgan, № 355).
6. Shubina L.B. Tibbiyot universiteti tuzilmasida uzluksiz kasbiy ta’lim markazida imitatsion o‘qitish//Tibbiy ta’lim va kasbiy rivojlanish. 2011. № 3(5). 85–91-betlar.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 1:316.74:37.01

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISLOHOTLAR IMPLEMENTATSIYASI

Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi, Osiyo xalqaro universiteti “Xorijiy til va ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi



https://orcid.org/0009-0006-6713-0987
e-mail: sanoatrahmonova1211@gmail.com

IMPLEMENTATION OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL REFORMS IN THE DEVELOPMENT OF A NEW UZBEKISTAN

Rahmonova Sanoat Shuhrat kizi, Lecturer, Department of Foreign Languages and Social Sciences, Asian International University

ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ ДУХОВНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕФОРМ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Рахмонова Саноат Шухрат кызы, преподаватель кафедры иностранных языков и социальных наук, Азиатский международный университет

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti ma’naviy – ma’rifiy islohotlar implementatsiyasi va asosiy yo‘nalishlari borasida amalga oshirilgan islohotlar hamda istiqlolga erishgan O‘zbekiston Respublikasi uchun mustaqillik ma’naviy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarning keng istiqbolli yo‘llarini ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, ma’naviy – ma’rifiy islohotlar, mafkura, mafkuraviy immunitet, yoshlar, millliy tiklanish davri, milliy yuksalish davri, islohotlar dinamikasi.*

Abstract: *This article describes the reforms carried out in the implementation of spiritual and educational reforms and the main directions of the development of New Uzbekistan, as well as the broad prospects for spiritual, cultural, socio-political, and economic reforms for the newly independent Republic of Uzbekistan.*

Keywords: *New Uzbekistan, spiritual and educational reforms, ideology, ideological immunity, youth, period of national revival, period of national rise, dynamics of reforms.*

Аннотация: *В данной статье описываются реформы, проведенные в рамках осуществления духовно-образовательных реформ и основные направления развития Нового Узбекистана, а также широкие перспективы духовных, культурных, социально-политических и экономических реформ для новообразованной независимой Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, духовно-образовательные реформы, идеология, идеологическая невосприимчивость, молодежь, период национального возрождения, период национального подъема, динамика реформ.*

KIRISH. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar strategiyasining amalga oshirilishi yangi O‘zbekiston taraqqiyotida, xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirishda, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashda, soha vakillarini kompleks qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma’naviy va ma’rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Hammamiz yaxshi tushunamiz, agar jamiyat hayotining tanasi

iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy g‘oyalarni mujassam etadigan kuchli ma’naviyatga tayanamiz “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar – keng ommani ma’naviy va ma’rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning umumiy ma’naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi tushuncha. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar mazmuni, maqsad-muddaolari har bir zamon va makonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, g‘oyaviy, mafkuraviy xususiyatlariga chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tushunchasi keng ma’noda o‘quv muassasalari ta’lim-tarbiya maskanlari, klublar, axborot-resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lar faoliyatini qamrab oladi. Bunda muzey, kinoteatr, teatr va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalar, shuningdek, OAV (gazeta, jurnallar, Internet, radio, TV) muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O‘zbekiston jamiyat ideosferasidagi o‘zgarishlar F.X.Yuldasheva, K.D.Haydarov, M.S.Abbasova, M.M.Bo‘ronov, X.A.Axmedov, N.Sh.Berdaliyev, B.S.Turdiyev globalizatsiya jarayonlari sharoitida O‘zbekistonda ma’naviy yangilanish jarayonining falsafiy asoslarini tahlili, jamiyatda sog‘lom ma’naviy raqobat muhitini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari, ma’naviy tiklanishning jamiyat barqarorligi, ma’rifiy rivojlanish va milliy o‘zlikni mustahkamlashdagi roli, ma’naviy jarayonlarning siyosiy islohotlar bilan bog‘liqligi, demokratik jamiyat rivojlanishida ma’naviy yangilanish jarayonining strategik yo‘nalishlari yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Asrlar o‘tishi bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlar muassasalarining keng tarmog‘ining tashkil etilishi, ularning o‘sishi va takomillashuvi bilan unga rahbarlik qilish jarayoni ham mukammallashib borgan. Inson dunyoqarashini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiya, g‘oyalar targ‘iboti, iqtisodiy bilimlarning ilmiy-texnikaviy targ‘ibot-tashviqoti, estetik va jismoniy tarbiya, badiiy havaskorlik, madaniy dam olishni tashkil etish, yosh iste’dodlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ma’naviy-ma’rifiy ishlarining turli yo‘nalishlaridir. Ezgulik va mehr-oqibat, ulug‘vorlik va go‘zallik, vijdoniylik va mehr-shafqat, boshqalarga hurmat hamda tabiat bilan uyg‘unlikni saqlash kabi ma’naviy xislatlar har bir kishiga asta-sekin, tadrijiy ravishda ma’naviy-ma’rifiy ishlar orqali singdirib boriladi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida o‘quv va klub muassasalarida an’anaviy shakllar (suhbat, muloqot, ma’ruza, spektakl, konsertlar, she’rxonlik) bilan birga mavzuli kechalar, kitobxonlar konferensiyalari va boshqa tadbirlar uyushtiriladi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha mutaxassislar universitetlar, pedagogika va madaniyat institutlari, madaniyat va san’at kollejlarida tayyorlanadi.

Sobiq ittifoq davrida ma’naviy-ma’rifiy ishlar totalitar-mafkuraviy faoliyatning mustaqil sohasi sifatida shakllangan bo‘lsa-da, ma’naviyat-ma’rifat masalalariga noto‘g‘ri munosabat yuritilgan, unga sarflanadigan mablag‘ doimo boshqa sohalardan kam bo‘lgan. Insonning to‘laqonli hayoti uchun zarur bo‘lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa ma’naviyat o‘choqlarini ko‘paytirish, ular sharoitini yaxshilash masalasiga jiddiy e’tibor berilmagan. Keyingi yillarda milliy g‘oyani shakllantirish, an’analarni qadrlash, urf-odatlar, milliy qadriyatlarni tiklash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ma’naviyat va ma’rifat sohalarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar va shifokorlar, olimlar va ziyolilar, madaniy oqartuv muassasalari va boshqa sohalardagi mutaxassislarning ijodiy faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Hozirgi zamon, hayot talabiga binoan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi, davr talabi va manfaatlariga mos takomillashgan tizimi shakllantirildi. Bunda ta’lim tizimi, muzeylar, madaniyat uylari va saroylari, axborot resurs markazlari, madaniyat va istirohat bog‘lari ommaviy muassasalar sifatida millionlab aholiga ma’naviy-ma’rifiy xizmat ko‘rsatmoqdalar. Yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy muhitni yanada yaxshilash, ming yillar mobaynida uning bag‘rida sayqallanib kelayotgan ibratli an’ana va qadriyatlarni targ‘ib-tashviq etish borasida ko‘plab tadbirlar tashkil etilmoqda. Shu mavzuda ilmiy-ommabop, publitsistik asarlar, hujjatli filmlar va teleko‘rsatuvlar yaratilib, turli ko‘rgazmalar tashkil qilinmoqda. Bu sohadagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yo‘nalishi har bir kishi ongi va qalbiga milliy g‘oyani singdirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ezgulik, bag‘rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon-e’tiqodni tarbiyalashga, ma’naviyatning milliy-etnik asoslari va zamonaviylikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligi joylarda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligi va tarbiyaviy ishlardan kutilgan natijaga erishilganini ifodalaydigan tushuncha. Shu soha xodimlarining faoliyati va

tarbiyaviy salohiyatidan unumli foydalanish darajasining ko‘rsatkichidir. Bu maqsadga erishish uchun ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash, ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini o‘rganish va uni takomillashtirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, yoshlarimizni yurtga muhabbat va kasbga sadoqat ruhida tarbiyalash, ayniqsa bugungi kunda hayotimizda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar va aholi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’siri, yoshlar ma’naviyatiga qaratilgan g‘oyaviy tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetini shakllantirishda uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasining amalda joriy etish va texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR. 2019-yil 3-mayda davlat rahbari tomonidan qabul qilingan “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tkazilgan festival doirasida “Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy”, “Bir ziyoli – bir mahallaga ma’naviy homiy” tamoyili asosida amaliy seminarlar, davra suhbatlari o‘tkazildi va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi yana ko‘plab loyihalar amalga oshirildi.

Ma’naviy-madaniy sohalarda yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarning dolzarbligi quyidagilarda namyon bo‘lmoqda:

birinchidan, ma’naviy-madaniy sohadagi islohotlarni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda yo‘l xaritasini ishlab chiqish, madaniyat va san’at muassasalari, ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi va o‘zaro munosabatlarni tartibga solishda va ularni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan islohotlarning yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish;

ikkinchidan, ma’naviy-madaniy sohada yuqori kompetensiyaga ega kadrlar tayyorlash va maxsus ishlangan tizim orqali ularning malakasini oshirish, madaniy xizmatlar sifatini keskin oshirish orqali aholining o‘sib borayotgan madaniy ehtiyojlarini qondirish;

uchinchidan, zamon talablari va xalqaro standartlariga asoslangan holda ma’naviy-madaniy va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini tubdan yangilash, takomollashtirish va ularning to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishiga yo‘l ochib berish;

to‘rtinchidan, milliy madaniyatimiz zamonaviy media makonda munosib o‘rin egallamagani, sohani keng tadqiq va targ‘ib etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to‘liq joriy etilmagani, xalqaro madaniy jarayonlarga talab darajasida integratsiya qilish lozimligini ko‘rsatmoqda;

beshinchidan, xalqaro nufuzli festival va tanlovlarda ijodkorlarimizning ma’naviy-madaniy va san’at sohasidagi ishtirokini izchil ta’minlash va ularning sara asarlarini namoyish etish, xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda milliy ijodiy mahsulotlarni eksport qilishning samarali tizimi yaratish, hamkorlik yetarlicha yo‘lga qo‘yish.

Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-madaniy sohada amalga oshirilgan yana bir muhim islohotlardan biri 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”ning qabul qilinishi bo‘ldi. Ushbu konsepsiya orqali aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha yangi bilimlar egallashi, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning samarali usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borishni nazarda tutgan.

Konsepsiya to‘rtta bosqichni o‘z ichiga oladi:

birinchi bosqich: oilalarda (homila davri, bola tug‘ilgandan 3 yoshgacha bo‘lgan davr);

ikkinchi bosqich: maktabgacha ta’lim 3—6 (7) yoshgacha bo‘lgan davr;

uchinchi bosqich: umumiy o‘rta ta’lim (7 (6)—10 yoshgacha boshlang‘ich sinf, 11—17 (18) yosh);

to‘rtinchi bosqich: ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan, shuningdek, o‘rta maxsus kasb-hunar va OTM tizimidagi yoshlar.

Mamlakatimizda ta’lim sifatining yangi bosqichini prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 20-yanvar kuni maktablarda xorijiy tillar va kasb o‘rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishda maktab o‘quvchilari kamida ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatilishi ustuvor vazifa etib belgilanganligi bo‘ldi.

Tajriba-sinov tariqasida maktab bitiruvchilari “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi hisobidan 20ta, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 37ta hamda Maktabagacha va maktab ta’limi vazirligi

tomonidan 18ta kasblarga o‘rgatilishi belgilab olinib, mazkur jarayonlar istiqbolda viloyatning barcha maktablarida olib borilishi, mavjud imkoniyat va ehtiyojlardan kelib chiqib, viloyat maktablarida o‘quvchilarni kasbga tayyorlash maqsadida 8 ta yo‘nalish ixtisosligi bo‘yicha 64 ta kasblar o‘rgatilishi rejalashtirildi.

Prezidentimiz 2021-yil 26-martda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Barcha shahar va tumanlarda “Ma’naviyat va ma’rifat maskani” yaratiladi, universitetlarda “Ma’naviyatshunoslik”, “Kasbiy ma’naviyat” fanlari joriy etiladi.

Hujjatda aytilishicha, olib borilayotgan ishlarga qaramay, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi:

-“Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sar” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

-oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;

-targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

-el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlikkabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

-Shuningdek, 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab universitetlarda bakalavriat bosqichida “Ma’naviyatshunoslik”, magistratura bosqichida “Kasbiy ma’naviyat” fanlari kiritiladi.

Xulosa va takliflar. Ma’naviy-ma’rifiy yangilanishlar jamiyatdagi har bir insonni qalban-ruhan ezgu maqsadlar yo‘lida birlashtirishga xizmat qilib, bir xalqning amaliy dasturiga aylangan milliy g‘oya, milliy ma’naviyat umumbashariy ma’naviyat bilan umumlashdi. Mamlakatimizdagi har bir islohot har bir yangilanish “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ulug‘vor maqsad atrofida jipslashdi. Taraqqiyotning yangi davri talablari asosida mamlakatimizda amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar belgilab olindi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz //Xalq so‘zi gazetasi, 2021-yil 7-noyabr, № 238.
2. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida 2020-yil sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli Qonuni // https://lex.uz/uz/docs/-5013007.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil dekabrdagi 1059-sonli qarori // https://lex.uz/uz/docs/-4676839.
4. Турдиев Б.С. Ўзбекистонда демократик жамият ривожланишида маънавий янгиланишлар стратегияси. Монография. –Т.: Lesson Press нашриёти, 2023. -Б.64.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.1)

AFG‘ONISTONDAGI O‘ZBEK VA TOJIKLARNING BAYRAM, SAYIL VA AN’ANAVIY XALQ O‘YINLARI

Xo‘jamurodov Nodirbek Sultonmurodovich, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 9(908)

EDUCATION SYSTEM REFORMS IN UZBEKISTAN DURING THE NATIONAL ASCENT STAGE: A PRACTICAL AND LEGAL EXAMINATION OF PATRIOTIC EDUCATION AND IMPROVING PEDAGOGICAL PRESTIGE

Tasheva Shakhnoza Uzakovna, doctoral student of Karshi state University



https://orcid.org/0009-0006-7969-3111
e-mail: tashevashaxnoza719 gmail.com

O‘ZBEKISTONDA MILLIY TIKLANISH BOSQICHIDA TA’LIM TIZIMI ISLOHOTLARI: VATANPARVARLIK TARBIYASI VA PEDAGOGIK OBRO‘NI YAXSHILASHNING AMALIY VA HUQUQIY TEKSHIRUVI

Tasheva Shaxnoza Uzakovna, Qarshi davlat universiteti doktoranti

РЕФОРМЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ЭТАПЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ПОДЪЕМА: ПРАКТИЧЕСКОЕ И ПРАВОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПОВЫШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРЕСТИЖА

Ташева Шахноза Узаковна, докторант Каршинского государственного университета

Abstract: *This article examines the reforms that were put into place in the Republic of Uzbekistan between 2018 and 2019 with the goals of raising the social standing of mentors and teachers, educating young people in the spirit of military patriotism, and improving the administration of the educational system. The study emphasizes changes in educational institutions, the importance of creating "Teacher and Mentor Alleys", and doable steps aimed at improving the quality of education. It is based on the decisions made by the Khokim (Governor) of the Qashqadaryo region and various state programs.*

Key words: *Education reform, patriotism, upbringing, Pre-conscription military training, pedagogical prestige, Teacher's Alley, Kashkadarya region, state policy.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 2018-2019-yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatdagi nufuzini oshirish borasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda Qashqadaryo viloyati hokimining qarorlari va davlat dasturlari asosida ta’lim muassasalaridagi o‘zgarishlar, "O‘qituvchilar va murabbiylar xiyobonlari"ni tashkil etishning ahamiyati hamda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy choralar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim sohasi islohoti, vatanparvarlik, tarbiya, CHQBT, pedagog nufuzi, "O‘qituvchilar xiyoboni", Qashqadaryo viloyati, davlat siyosati.*

Аннотация: *В данной статье анализируются реформы, проведенные в Республике Узбекистан в 2018-2019 годах с целью совершенствования управления системой образования, воспитания молодежи в военно-патриотическом духе и повышения авторитета учителей и наставников в обществе. В исследовании освещаются изменения в образовательных учреждениях, основанные на решениях губернатора Кашкадарьинской области и государственных программах, важность организации "Аллеи учителей и наставников" и практические меры, направленные на повышение качества образования.*

Ключевые слова: *реформа образования, патриотизм, воспитание, СГУ, педагогический авторитет, "Аллея учителей", Кашкадарьинская область, государственная политика.*

Introduction. Youth represent the fundamental force driving national development and securing a prosperous future. From this perspective, as Uzbekistan implements its strategic reforms, it has placed a paramount emphasis on the educational system. While the groundwork for this process was established during the period of "National Revival" (1991–2016), the subsequent stage of "National Progress" —commencing in 2016—has witnessed further refinement of the educational framework. This modern evolution integrates global standards with core national interests. Notably, the right to education is explicitly guaranteed under Article 50 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. This constitutional provision ensures state-guaranteed access to education, providing a legal mandate for free general and professional training for all citizens.

In the period of independence of the Republic of Uzbekistan, and especially after the year 2017, the significant renewal of the education system became one of the main tasks of the state policy. Education was no longer seen as a simple outlet for knowledge but as the basic pillar for the spiritual, moral, and loving the motherland character of the future generation as well. The year 2018 marked a watershed in this aspect. A new concept of education giving young people the spirit of patriotism was worked out on the one hand while the problem of social security and improving the status of teachers and tutors—who had been for a long time in the background—was raised to the level of state policy on the other hand. The regions are the focus of the article, which uses Qashqadaryo region as a case study, and gives a historical account of these events based on archival documents.

Measures implemented for the patriotic education of youth .The "Concept for the Military-Patriotic Education of Youth", approved by Resolution No. 140 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on February 23, 2018, began to be widely implemented in practice. The legal basis for the Qashqadaryo region's implementation of the concept was provided through Resolution No. X-908/08 issued by the Khokim of Qashqadaryo region on August 30, 2018.

-Organizational Changes in Educational Institutions It is from the 2018-19 academic year that the above-mentioned resolution paved the way for the introduction of patriotic education in a systematic manner. The focus was laid on the subsequent levels of education—preschools, schools, colleges, and universities.

The introduction of patriotic education in all educational institutions from preschools to higher education was made a top priority, when the 2018-2019 academic year began.

To give these institutions the necessary material and technical means to support this, "Spirituality and Enlightenment" rooms and "Patriotism" corners were established. Filled with portraits of Uzbekistan's great commanders like Amir Temur and Jaloliddin Manguberdi, state symbols and replicas of military equipment, these rooms, and corners served as the starting point for students to discover the country's patriotic history.

The quality of the pre-conscription military training.

PCMT, training also underwent a radical increase through and now combined theoretical knowledge to more hands-on workouts. In addition, officers with battle experience from the Armed Forces reserve were brought in to conduct these training sessions.

-Realising that patriotism can't just be about army lore, a sequence of activities and occasions were set up by theme including "I'm a Patriot" and "Defending the Motherland is a Holy Obligation". A military sport activity, "Temurbeklar" and "Young Rescuer" became a staple in school curricula.

Enhancing pedagogical prestige: "Teacher and mentor alleys". Presidential Decree No. PQ-3907 dated August 14, 2018, and Cabinet of Ministers Resolution No. 905 dated November 2, 2018, created a revolutionary shift in the field of education. These documents established a completely new mechanism for honoring teachers in society—the creation of "Teacher and Mentor Alleys".

-Purpose and Components of the Alleys By resolutions of the Khokim of Qashqadaryo region in November 2018, the establishment of such alleys in every district and city center was made mandatory. These alleys were intended to be centers of spirituality rather than mere recreational areas:

Architectural Complex: Monumental statues or compositions honoring the image of teachers and mentors were erected at the center of the alleys.

Centers of Knowledge and Culture: The construction of modern libraries, scientific-educational buildings, open-air museums, and exhibition halls within the alley territory was planned.

Aesthetic Environment: Modern landscape design, fountains, and amphitheaters for holding open-air classes for students were envisioned.

-Financing and Social Partnership These projects were implemented through the state budget, excess local budget revenues, sponsorship donations, and funds from business entities. This demonstrates that attention to education has evolved from a state duty into a collective responsibility of society.

Improving education management and quality control. Another important aspect of the 2018-2019 reforms was the optimization of management mechanisms. Emphasis was placed on ensuring continuity between the systems of public, preschool, and higher education.

-Personnel Training and Selection Analysis of documents shows that the system for selecting candidates for higher military educational institutions was also improved. For instance, in 2019, the plan for preparing candidates for military schools in the Qashqadaryo region was clearly defined by district (Guzar, Karshi, Shakhrisabz, etc.), with the Department of Defense Affairs and the Youth Union appointed as responsible parties.

-Social Protection and Incentives The focus remained not only on the spiritual prestige of teachers but also on their material well-being. The 2018 resolutions strictly prohibited the involvement of teachers in tasks outside their professional duties (such as cotton picking or street cleaning), and the gradual increase in salaries directly impacted the quality of education.

CONCLUSION. The measures implemented in 2018-2019 were a significant step toward laying the foundation for the "Third Renaissance" in Uzbekistan. Information obtained from archival documents allows for the following conclusions:

-Patriotic Education is a complex system of instilling national identity and a sense of responsibility toward the Motherland in the minds of the youth, rather than just simple military training.

-Pedagogical Prestige is a key indicator of the development level of society. The establishment of "Teacher and Mentor Alleys" became a symbolic expression of the state-level respect afforded to educators.

-Management Efficiency was ensured because educational reforms were strictly monitored not only at the central level but also at the regional and district levels (as seen in Qashqadaryo).

Recommendations:

1.Equipping the spirituality rooms and patriotism corners in educational institutions with modern IT technologies (VR/AR excursions).

2.Organizing regular "Masterclasses" and international pedagogical forums in "Teacher Alleys" rather than using them solely for recreation.

3.Further strengthening cooperation with military units in PCMT classes and expanding practical exercises for students at military firing ranges.

REFERENCES:

1. Konstitution of Uzbekistan 2023 y.
2. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 140, dated February 23, 2018.
3. Archival materials of the Khokimiyat of Qashqadaryo Region.
4. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-3907, dated August 14, 2018.
5. Archival materials on the implementation of Resolution No. 905 of the Khokim of Qashqadaryo Region, dated November 2, 2018.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 1(092):141.3

IBN SINONING “RISOLAT AT-TAYR” ASARI VA UNING FALSAFIY TAHLILI

Raupova Ra’no Soyibovna, Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

IBN SINO’S “RISOLAT AT-TAYR” AND ITS PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Raupova Rano Soyibovna, Researcher, Bukhara State University

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ИБН СИНЫ “РИСАЛАТ АТ-ТАЙР”

Раупова Раъно Сойибовна, научный исследователь, Бухарский государственный университет



e-mail: ***ranoraupova563@gmail.com***

Annotatsiya: *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Ibn Sinoning “Risolat at-Tayr” (“Qush risolasi”) asari falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda qo‘llangan ramziy va allegorik ifoda usuli orqali inson ruhining moddiy olam bilan munosabati, ma’naviy kamolot sari intilishi hamda aql va ma’rifatning inson hayotidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot davomida risolaning genezesi, uning falsafiy-madaniy ildizlari, shuningdek, bilim, axloq, do‘stlik va ruhiy yuksalish g‘oyalari tahlil qilingan. Maqola Ibn Sinoning falsafiy merosini anglashda “Risolat at-Tayr” ning muhim manba ekanini asoslashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Risolat at-Tayr”, allegorik risola, ruhiy kamolot, bilim olish, odob-axloq, tarbiya, ma’naviy yuksalish, do‘stlik.*

Abstract: *This article analyzes the philosophical work of the great thinker Ibn Sina, “Risalat at-Tayr” (“Treatise of the Bird”). Through the symbolic and allegorical methods of expression used in the work, the relationship of the human spirit with the material world, the pursuit of spiritual perfection, and the role of reason and enlightenment in human life are highlighted. During the research, the genesis of the treatise, its philosophical and cultural roots, as well as the ideas of knowledge, morality, friendship, and spiritual elevation were analyzed. The article aims to substantiate the fact that “Risalat at-Tayr” is an important source in understanding Ibn Sina’s philosophical heritage.*

Keywords: *“Risalat at-Tayr”, allegorical treatise, spiritual perfection, acquiring knowledge, morality, education, spiritual elevation, friendship.*

Аннотация: *В данной статье анализируется философское произведение великого мыслителя Ибн Сины “Рисалат ат-Тайр” (“Трактат о птице”). Через символические и аллегорические методы выражения, используемые в произведении, освещаются взаимоотношения человеческого духа с материальным миром, стремление к духовному совершенству, а также роль разума и просвещения в жизни человека. В ходе исследования анализируются генезис трактата, его философские и культурные корни, а также идеи знания, морали, дружбы и духовного возвышения. Цель статьи — обосновать тот факт, что “Рисалат ат-Тайр” является важным источником для понимания философского наследия Ибн Сины.*

Ключевые слова: *“Рисалат ат-Тайр”, аллегорический трактат, духовное совершенство, приобретение знаний, мораль, образование, духовное возвышение, дружба.*

Kirish (Introduction). Ibn Sino Sharq va jahon falsafasi tarixida nafaqat tibbiyot va tabiiy fanlar, balki metafizika, ruh falsafasi va bilish nazariyasiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan alohida o‘rin egallaydi. Uning falsafiy merosi orasida ramziy va allegorik uslubda yozilgan risolalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday asarlardan biri — “Risolat at-Tayr” bo‘lib, u inson

ruhining ma’naviy yo‘lini badiiy-falsafiy shaklda ifodalashi bilan ajralib turadi. Mazkur risola tashqi syujet jihatidan qushlar haqidagi hikoya sifatida ko‘rinsa-da, aslida u chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lib, insonning ichki olami va kamolot sari intilish jarayonini ramziy obrazlar orqali yoritadi. Ibn Sino bu asar orqali murakkab metafizik va axloqiy masalalarni sodda, ammo ta’sirchan shaklda bayon etadi. Shu sababli “Risolat at-Tayr” nafaqat adabiy, balki falsafiy-antropologik asar sifatida ham qimmatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ibn Sinoning “Risolat at-Tayr” asari va uni falsafiy tahlil qilishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Ibn Sino (Avicenna, 980–1037) ning “Risolat at-Tayr” (“Qush risolasi”) — ramziy va allegorik risola bo‘lib, u olimning falsafiy-ma’naviy qarashlarini ifodalaydi. Asar ramzlar orqali inson ruhining dunyo bilan munosabatini, dunyoviy cheklovlardan ruhiy kamolotga erishish jarayonini bayon qiladi[1]. Risolada qushlar obrazi inson ruhining timsoli sifatida talqin qilinadi va bu ruhning moddiy olam bilan bog‘lanishi, cheklanishi hamda oxir-oqibat o‘z asl manbaiga qaytishga intilishi falsafiy mazmunda ochib beriladi. Asarda Ibn Sino ruh va jism o‘rtasidagi munosabat, ya’ni ruhning vaqtinchalik moddiy dunyoda bo‘lishi g‘oyasini ilgari suradi. Qushlarning parvozga intilishi ruhning oliy haqiqat, ya’ni aql va ma’rifat manbaiga tomon harakatini ifodalaydi. Bu jarayon tasodifiy emas, balki bosqichma-bosqich amalga oshadigan ruhiy kamolot yo‘li sifatida talqin qilinadi. Ibn Sino bu orqali insonning haqiqiy saodati tashqi moddiy ne’matlar bilan emas, balki ichki ma’naviy poklanish va aqlning mukammallashuvi orqali ro‘yobga chiqishini asoslaydi.

“Risolat at-Tayr”da bayon etilgan g‘oyalar Ibn Sinoning umumiy falsafiy tizimi, xususan uning metafizik va gnoseologik qarashlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ruhning parvozi — bilish jarayoni, jaholatdan ma’rifatga, past darajali idrokdan oliy aqliy idrokka o‘tishni anglatadi. Shu ma’noda asar nafaqat axloqiy yoki adabiy, balki falsafiy-antropologik mazmunga ham ega. Mazkur risolada falsafiy tafakkur bilan ma’naviy tajriba uyg‘unlashgan bo‘lib, bu holat Ibn Sinoning aql va ruh uyg‘unligi haqidagi konsepsiyasini yaqqol namoyon etadi. Natijada “Risolat at-Tayr” inson ruhining dunyoviy cheklovlardan xalos bo‘lishi va oliy kamolotga erishish yo‘lini ramziy tilda tushuntiruvchi muhim falsafiy meros sifatida baholanadi.

Asarning genezesi (kelib chiqishi va shakllanishi) masalasi haqida ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bu tadqiqotlarda “Risolat at-Tayr”ning madaniy va falsafiy ildizlari, u yozilgan davr falsafiy muhiti tahlil qilinadi[2]. Tadqiqotchilar bu risolani Ibn Sinoning umumiy falsafiy tizimi va u yashab ijod qilgan XI asr intellektual muhitidan ajratib bo‘lmasligini ta’kidlaydilar. Mazkur davr Sharq falsafasida yunon falsafasi, xususan Aristotel va neoplatonizm g‘oyalari islomiy tafakkur bilan sintez qilinib, yangi falsafiy qarashlar shakllanayotgan murakkab va sermahsul davr edi. Ibn Sino ana shu muhitda metafizika, ruh falsafasi va bilish nazariyasini izchil tizimga solgan mutafakkir sifatida maydonga chiqadi. “Risolat at-Tayr” aynan shu falsafiy izlanishlarning ramziy shakldagi ifodasi sifatida vujudga kelgan. Asarning shakllanishida Sharq adabiy an’analariga xos bo‘lgan allegorik hikoya uslubi muhim rol o‘ynagan. Qush obrazi qadimdan Sharq tafakkurida ruh, erkinlik va oliy haqiqatga intilish timsoli sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, Ibn Sino bu ramzni falsafiy mazmun bilan boyitadi. Natijada risola nafaqat badiiy, balki chuqur falsafiy matnga aylanadi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, asarda aks etgan g‘oyalar Ibn Sinoning ruh haqidagi qarashlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ruhning moddiy olamga tushishi, jismoniy bog‘liqlik tufayli cheklanishi va aql orqali o‘z asl manbaiga qaytishga intilishi asarning markaziy falsafiy mavzusini tashkil etadi. Bu jihatdan “Risolat at-Tayr” Ibn Sinoning sof nazariy asarlarida bayon qilingan metafizik va gnoseologik g‘oyalarni ramziy shaklda tushuntirish vazifasini bajaradi. Shuningdek, risolaning genezesi uni o‘sha davr falsafiy va ma’naviy muhitidagi tasavvufiy qarashlar bilan ham bog‘lash imkonini beradi. Biroq asar to‘liq tasavvufiy matn emas, balki aql va ma’naviy tajriba uyg‘unligini ifodalovchi falsafiy risola sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda “Risolat at-Tayr” Ibn Sinoning ramziy uslubda yozilgan, ammo qat’iy falsafiy mazmunga ega bo‘lgan asari sifatida baholanadi. “Risolat at-Tayr”

ning shakllanishi va genezesi Sharq falsafiy tafakkuri, adabiy ramziy an'analar va Ibn Sinoning individual falsafiy konsepsiyasi tutashgan nuqtada yuzaga kelgan bo'lib, bu asar uning ma'naviy-falsafiy merosida alohida o'rin egallaydi.

Bu risola "Qush risolasi" nomi bilan ham tanilgan bo'lib, uning mazmunida bilim, ma'rifat, axloq va inson ruhining kamolot yo'li falsafiy tilda yoritiladi. Asarda ko'plab mavzular — bilim olish, odob-axloq, tarbiya, ma'naviy yuksalish haqida falsafiy fikrlar mavjud[3]. Asar mazmunida bilim inson hayotidagi asosiy yetakchi kuch sifatida talqin qilinadi va u insonni jaholatdan ma'rifatga, quyi idrok darajasidan oliy aqliy darajaga olib chiqadigan vosita sifatida ko'rsatiladi. Ibn Sino nazarida haqiqiy bilim tashqi axborotlarni o'zlashtirish bilangina cheklanmaydi, balki aqlning faol ishlashi va ichki idrokning kamol topishi bilan chambarchas bog'liqdir. Risolada axloq masalasi ham muhim o'rin tutadi. Inson ruhining yuksalishi faqat bilish jarayoni bilangina emas, balki axloqiy poklanish bilan ham uzviy bog'langan holda tasvirlanadi. Qushlarning parvozga tayyorlanishi va yo'l davomida duch keladigan to'siqlari insonning axloqiy sinovlari, nafsiy moyilliklar va dunyoviy bog'lanishlarni anglatadi. Bu orqali Ibn Sino inson kamoloti jarayoni axloqiy intizom va o'zini tarbiyalashni talab etishini falsafiy asosda ko'rsatadi. Asarda tarbiya tushunchasi ham falsafiy mazmunda yoritilgan bo'lib, u insonning aqliy va ma'naviy yetuklikka erishishida muhim omil sifatida talqin qilinadi. Tarbiya insonda bilimni to'g'ri yo'naltirish, axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ruhiy muvozanatni ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Shu ma'noda "Qush risolasi" nafaqat nazariy-falsafiy, balki amaliy-axloqiy ahamiyatga ham ega bo'lgan asar hisoblanadi.

Shuningdek, risolada ma'naviy yuksalish g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi. Inson ruhining moddiy olamga bog'lanishdan xalos bo'lishi, aql va ma'rifat orqali o'z asl mohiyatiga yetishi kamolot yo'lining eng yuqori bosqichi sifatida talqin qilinadi. Ibn Sino bu jarayonni ramziy tilda ifodalab, insonning haqiqiy baxti tashqi omillarda emas, balki ichki ma'naviy mukammallikda ekanini asoslaydi. "Qush risolasi" bilim, axloq, tarbiya va ma'naviy yuksalish masalalarini yagona falsafiy tizim doirasida yoritgan bo'lib, u Ibn Sinoning inson va ruh kamoloti haqidagi qarashlarini chuqur va izchil tarzda aks ettiradi.

"Risolat at-Tayr" falsafiy risolalar qatoriga kiradi va u insonning ma'naviy yo'lini allegorik obrazlar orqali yoritadi[4]. Asarda qo'llangan ramziy shakl muallifga murakkab metafizik va antropologik masalalarni badiiy tasvir orqali ifodalash imkonini beradi. Qushlar obrazi inson ruhining timsoli sifatida talqin qilinib, ularning parvozi, yo'ldagi to'siqlar va manzil sari intilishi insonning ichki ma'naviy kamolot jarayonini anglatadi. Mazkur allegorik tasvirlar orqali Ibn Sino inson ruhining moddiy olam bilan bog'lanishi, bu bog'lanish natijasida yuzaga keladigan cheklovlar hamda aql va ma'rifat yordamida ushbu holatdan xalos bo'lish imkoniyatini falsafiy asosda ko'rsatadi. Risolada ma'naviy yo'l bir martalik holat emas, balki izchil va bosqichma-bosqich amalga oshadigan jarayon sifatida tasvirlanadi. Har bir bosqich insonning bilish darajasi, axloqiy yetukligi va ruhiy tayyorgarligi bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Asarda allegoriya faqat estetik vosita bo'lib qolmay, balki falsafiy mazmunni chuqurlashtiruvchi metod vazifasini bajaradi. Ibn Sino shu yo'l bilan insonning haqiqiy kamoloti tashqi amaliyotlargagina emas, balki aqliy va ma'naviy yuksalishiga bog'liqligini asoslaydi. Shu jihatdan "Risolat at-Tayr" nafaqat badiiy-ramziy asar, balki inson ruhining ma'naviy yo'lini falsafiy tahlil qiluvchi muhim manba sifatida baholanadi.

Asar "ramz-ishora bilan yozilgan" falsafiy matn sifatida tavsif qilinadi va uning asosiy mazmuni — do'stlik masalalari haqida ekanligi haqida ma'lumotlar mavjud[5]. Asarda bevosita didaktik bayondan ko'ra, allegorik va timsolli ifoda usuli ustuvor bo'lib, bu holat Ibn Sinoga murakkab falsafiy g'oyalarni ixcham va chuqur mazmunda ifodalash imkonini bergan. Qushlar, ularning o'zaro munosabatlari va birgalikdagi harakati insonlar o'rtasidagi aloqalar, ruhiy yaqinlik va ma'naviy hamjihatlikni ifodalovchi ramzlar sifatida talqin qilinadi. Risolaning asosiy mazmun yo'nalishlaridan biri do'stlik masalasi bilan bog'liqdir. Asarda do'stlik oddiy ijtimoiy munosabat sifatida emas, balki insonning ma'naviy kamolot yo'lida muhim ahamiyat kasb etuvchi axloqiy va falsafiy hodisa sifatida yoritiladi. Qushlarning bir-biriga suyanishi, yo'l davomida hamjihatlikda harakat qilishi va umumiy maqsad

sari birlashishi do‘stlikning ruhiy yuksalishdagi o‘rnini ramziy tarzda ifodalaydi. Bu orqali Ibn Sino haqiqiy do‘stlik aql, ma’rifat va ezgulik asosida shakllanishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, asarda do‘stlik insonning ichki kamolotiga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Ma’naviy yo‘lning murakkab bosqichlarida do‘stning mavjudligi ruhiy mustahkamlikni ta’minlovchi omil sifatida ko‘rsatiladi. Shu jihatdan “Risolat at-Tayr” do‘stlikni faqat axloqiy fazilat emas, balki insonni komillikka yetaklovchi muhim falsafiy tamoyil sifatida asoslaydi. Asarda do‘stlik, hamjihatlik va ruhiy yaqinlik masalalari falsafiy mazmunda yoritilib, bu jihat “Risolat at-Tayr” ning insoniy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlar haqidagi chuqur falsafiy tafakkurni aks ettiruvchi asar ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). “Risolat at-Tayr” Ibn Sinoning ramziy-falsafiy tafakkurini yaqqol namoyon etuvchi muhim asarlardan biridir. Risolada qushlar obrazi orqali inson ruhining moddiy olamdagi cheklanishi, aql va ma’rifat yordamida bu cheklovlardan xalos bo‘lishi hamda oliy kamolot sari intilishi falsafiy mazmunda ochib beriladi. Asarda bilim, axloq, do‘stlik va ma’naviy yuksalish masalalari o‘zaro uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Ibn Sino ushbu risola orqali inson kamoloti tashqi amaliyotlar bilan emas, balki ichki aqliy va ruhiy yetilish bilan belgilanishini asoslaydi. Allegorik ifoda usuli esa asarning falsafiy mazmunini chuqurlashtirib, uni kengroq talqin qilish imkonini beradi. Shu jihatdan “Risolat at-Tayr” Ibn Sinoning sof nazariy falsafasi bilan uning ma’naviy qarashlari tutashgan nuqtani aks ettiradi. Muxtasar qilib aytganda, “Risolat at-Tayr” inson ruhining ma’naviy yo‘lini tushuntiruvchi, ramziy tilda bayon etilgan, ammo chuqur falsafiy mazmunga ega asar bo‘lib, Ibn Sinoning falsafiy merosini anglashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akbar Orvati Movaffagh, Abu Al-Ghasem Asadi. Ibn Sina’s Mystical Anthropology in The Risalat al-Tayr (A Treatise on Birds). 2024. https://jipt.sbu.ac.ir/ index.php/ index/article_ 103960.html.
2. Ш.Ҳалимова. Абу Али Ибн Синоиг “Рисолат ат-тайр” асари генезеси. https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/download/1069/1669/2055
3. bahram chamsuraki, Nasrollah Hekmat. Ibn Sina's Risalat AL-Tair, Futwat Nameh of Artists. February 2023. https://orj.sru.ac.ir/article_1853.html
4. Abdullah Başaran. Metaphors Between Hermeneutics and Deconstruction: A Textual Analysis of Avicenna’s the Recital of the Bird. 2015. https://www.academia.edu/98700909/Metaphors_Between_Hermeneutics_and_Deconstruction_A_Textual_Analysis_of_Avicenna_s_the_Recital_of_the_Bird
5. Ziyodullayev M., Axmedova S. Abu Ali ibn Sinoning “Hay ibn Yaqzon” qissasidagi axloqiylik mezonlarining badiiy obrazlar misolida talqin etilishi. Pedagog Respublika ilmiy jurnali. 6 – TOM 5 – SON / 2023 - YIL / 15 – MAY. https://bestpublication.org/index.php/pedg/article/download/5849/6202/5486
6. Kholikov L. Features Of International Relations In The Development Of The New Uzbekistan //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2023. – T. 7. – №. 10.
7. Kholikov L. Theoretical Foundations Of Nations And International Relations //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 7. – №. 10.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 81'373.46:81'25:811.581

Ilmiy rahbar: Karimov Akramjan Abilyevich, Xitoyshunoslik oliy maktabi professori, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

ТЕРМИНЫ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ: ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ, ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ И ПЕРЕВОДА

Абдуллаева Малика Бахтиёровна, преподаватель, Oriental University



e-mail: malika.maxamatova.99@mail.ru https://orcid.org/0009-0007-1503-5221

XITOY TILIDAGI TERMINLAR: SHAKLLANISHI, AMAL QILISHI VA TARJIMA XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Malika Baxtiyorovna, Oriental University o‘qituvchisi

TERMS IN THE CHINESE LANGUAGE: FEATURES OF FORMATION, FUNCTIONING, AND TRANSLATION

Abdullaeva Malika Bakhtiyorovna, Lecturer, Oriental University

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности терминологической системы китайского языка. Анализируются источники формирования китайских терминов, их структурные и семантические характеристики, влияние иероглифической письменности на терминологию, а также проблемы перевода и стандартизации терминов. Особое внимание уделяется взаимодействию традиционной и современной терминологии, а также влиянию западных языков на развитие китайской научной лексики.*

Ключевые слова: *китайский язык, терминология, термины, иероглиф, заимствования, перевод терминов.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xitoy tilining terminologik tizimiga xos xususiyatlar ko‘rib chiqiladi. Xitoy terminlarining shakllanish manbalari, ularning strukturaviy va semantik tavsiflari, ieroglif yozuvining terminologiyaga ta’siri, shuningdek terminlarni tarjima qilish va standartlashtirish bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. An’anaviy va zamonaviy terminologiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar hamda g‘arb tillarining xitoy ilmiy leksikasi rivojiga ko‘rsatgan ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *xitoy tili, terminologiya, terminlar, ieroglif, o‘zlashmalar, terminlar tarjimasi.*

Annotation: *The article discusses the features of the terminological system of the Chinese language. The sources of the formation of Chinese terms, their structural and semantic characteristics, the influence of hieroglyphic writing on terminology, as well as the problems of translation and standardization of terms are analyzed. Special attention is paid to the interaction of traditional and modern terminology, as well as the influence of Western languages on the development of Chinese scientific vocabulary.*

Keywords*: Chinese language, terminology, terms, hieroglyph, borrowings, translation of terms.*

Введение. Терминология является важнейшим компонентом любого языка науки и профессиональной коммуникации. Она отражает уровень развития общества, науки, техники и культуры. Китайский язык в этом отношении представляет особый интерес, поскольку его терминологическая система формировалась в условиях многотысячелетней письменной традиции, основанной на

иероглифической системе, и активно развивается в эпоху глобализации.

Основная часть. Современный китайский язык сочетает в себе элементы классического языка вэньянь, национальные языковые традиции и значительное количество заимствований, прежде всего из западных языков. Это делает изучение китайской терминологии актуальным как для лингвистики, так и для переводоведения, терминоведения и межкультурной коммуникации.

Одной из основных проблем изучения и осмысления термина как лингвистической категории в современной лингвистике является его определение. А.Н.Баранов отмечает, что множественность концептуальных подходов к трактовке понятия «термин» предопределяет многообразие его определений, существующих в лингвистике. В свою очередь, В.М.Лейчик констатировал данный факт тем, что термин представляет собой объект целого ряда наук и каждая наука стремится выделить в термине признаки, существенные с ее точки зрения. Неудовлетворительность большинства определений заключается в попытке объединить разнохарактерные признаки термина. Наличие множества определений понятия «термин» в лингвистической литературе А.В.Суперанская объяснила тем, что в разных дисциплинах данное понятие связывается со своими особыми понятиями и представлениями, имеет неравный объем содержания и определяется по-своему.

Следует отметить, что понятию «термин» трудно дать одно точное определение. Понятие «термин» - объемное по значению. В.М.Лейчик отмечал в своей работе, что «В.П.Даниленко дал 19 определений термина, а Б.Н. Головин - семь определений этого понятия». В каждом научном исследовании даются различные дефиниции термина. Л.А.Капанадзе отмечает, что «если подытожить все исследования, посвященные научной терминологии, то можно прийти к выводу, что нет единицы более многоликой и неопределенной, чем термин». Термин как сложное явление, с разных точек зрения, определяется в зависимости от выделяемого аспекта. Как знак термин определяется у В.А.Звегинцева и у Г.А.Диановой, как дефиниция - у П.А.Капанадзе, у С.В.Гринева термин рассматривается как элемент знаковых систем и знаковых ситуаций, В.М.Лейчик определяет термин как единицу языка для специальных целей. Приведенные определения дополняют друг друга, поскольку в одном определении невозможно дать исчерпывающую характеристику понятия «термин».

Цель данной статьи — кратко проанализировать основные особенности терминов в китайском языке, способы их образования, функционирования и перевода.

Термин — это языковая единица, обозначающая специальное понятие в определённой области знаний или профессиональной деятельности. Основными признаками термина являются: точность значения; однозначность в рамках одной системы; стилистическая нейтральность; системность.

Терминология представляет собой совокупность терминов, связанных между собой логическими и семантическими отношениями. В китайском языке терминология развивается в рамках различных отраслей: философии, медицины, техники, экономики, лингвистики и др.

Исторические этапы формирования китайской терминологии делятся на:

Древний и классический период. В древнем Китае термины формировались преимущественно в философии, астрономии, медицине и государственном управлении. Многие из них были выражены односложными иероглифами, например: 道 (путь, принцип), 气 (энергия, жизненная сила), 阴 / 阳 (инь / ян).

Эти термины отличались высокой степенью абстрактности и многозначности, что затрудняет их однозначное толкование в современных научных контекстах.

Становление современного китайского терминоведения как самостоятельной лингвистической дисциплины в Китае происходит в наши дни. Это молодая научная дисциплина. Но формирование китайской школы терминоведения происходит в русле древней китайской терминотворческой традиции. Китайское терминоведение продолжает философские традиции изучения философского предназначения китайской терминологии. Начиная с конца XIX века,

западная наука начинает проникать на Восток. В Китае возникают специализированные организации, которые объединяют усилия по унификации китайских терминов. После создания КНР терминологическая работа достигла больших успехов.

С конца XIX — начала XX века китайская терминология начала активно пополняться новыми понятиями, связанными с западной наукой и техникой. В этот период возникла необходимость перевода и адаптации большого количества иностранных терминов, что привело к созданию новых слов и терминологических моделей. Основным способом образования терминов в китайском языке является словосложение.

Большинство современных китайских терминов — двусложные или многосложные слова: 语言学 (языкознание), 经济学 (экономика), 信息技术 (информационные технологии).

Словосложение позволяет создавать точные и логически прозрачные термины.

Многие термины образованы путём расширения или уточнения значения уже существующих слов: 网络 (сеть → интернет), 平台 (платформа → цифровая платформа).

Калька широко используется при переводе иностранных терминов: 世界观 (worldview), 价值观 (system of values).

Заимствования играют важную роль в формировании современной китайской терминологии. Они могут быть: фонетическими (咖啡 — кофе), смешанными (因特网 — интернет), семантическими (软件 — software).

Особенность китайского языка заключается в том, что даже заимствованные термины обычно адаптируются к иероглифической системе.

Структурные особенности китайских терминов. Китайские термины, как правило: не имеют словоизменения; обладают фиксированным порядком компонентов; характеризуются высокой степенью аналитичности. При этом каждый иероглиф в составе термина часто несёт смысловую нагрузку, что облегчает понимание значения слова. Китайские термины стремятся к семантической прозрачности. Однако в ряде случаев наблюдаются: полисемия; терминологическая омонимия; расхождения между бытовым и научным значением слова. Например, слово 模型 (модель) используется в различных науках с разными оттенками значения.

Иероглифическая письменность оказывает значительное влияние на формирование терминов. Каждый иероглиф обладает: графическим образом; исторической семантикой; культурными ассоциациями. Это делает китайские термины не только языковыми, но и культурными знаками. Перевод китайских терминов связан с рядом трудностей: отсутствием прямых эквивалентов; различиями в научных традициях; культурной спецификой понятий.

Особенно сложен перевод философских и гуманитарных терминов, таких как 道, 德, 礼.

В современном Китае большое внимание уделяется стандартизации терминов. Создаются специальные словари, терминологические базы данных, государственные стандарты. Это способствует: унификации научного языка; повышению точности коммуникации; развитию перевода и образования.

Заключение. Термины в китайском языке представляют собой сложную и динамичную систему, сформированную под влиянием исторических, культурных и языковых факторов. Современная китайская терминология сочетает традиционные элементы и инновационные заимствования, что обеспечивает её гибкость и адаптивность.

Список литературы:

1. Алпатов В.М. Язык и общество. — М.: Наука, 2019.
2. Горелов В.И. Лексикология китайского языка. — М.: Восточная литература, 2018.
3. 王力. 汉语史稿. — 北京: 中华书局, 2017.
4. 吕叔湘. 现代汉语八百词. — 北京: 商务印书馆, 2020.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.1)"1936/1950"

1936–1950-YILLARDA XORAZM VILOYATI MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR VA MADANIY-AXBOROT SIYOSATINING AKS ETISHI

Bobojanova Gulhayo Abdirim qizi, Urganch davlat universiteti "Tarix" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi



e-mail: gulhayobobojanova@gmail.com

REFLECTION OF SOCIO-POLITICAL PROCESSES AND CULTURAL-INFORMATIONAL POLICY IN THE PRESS OF KHOREZM REGION (1936–1950)

Bobojanova Gulhayo Abdirim qizi, Independent Researcher, Department of History, Urgench State University

ОТРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И КУЛЬТУРНО-ИНФОРМАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ В ПЕЧАТИ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ В 1936–1950 ГОДАХ

Бобожанова Гулхаё Абдирим кызы, независимый исследователь кафедры "История" Ургенчского государственного университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 1936–1950-yillarda Xorazm viloyati matbuotining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni, uning sovet mafkurasi va madaniy-axborot siyosatini amalga oshirishdagi funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy repressiyalar, urush va urushdan keyingi yillarda matbuot materiallarining mazmuniy yo'nalishlari, radio va texnik vositalarning ommalashuvi, shuningdek, mahalliy matbuotning jamoatchilik nazorati va mafkuraviy tarbiya vositasi sifatidagi roli yoritiladi. "Inqilob quyoshi", "Xorazm haqiqati" kabi gazetalar materiallari asosiy manba sifatida o'rganilib, ularning tarixiy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: Xorazm matbuoti, sovet mafkurasi, siyosiy repressiyalar, radio eshittirish, madaniy siyosat, jamoatchilik nazorati, 1930-yillar.

Abstract: *This article analyzes the role of the press of the Khorezm region in the socio-political life of 1936–1950 and its functions in implementing Soviet ideology and cultural-informational policy. The study examines the thematic directions of press materials during the years of political repression, the war and the post-war period, the spread of radio and technical media, as well as the role of the local press as an instrument of public supervision and ideological education. Materials from newspapers such as "Inqilob quyoshi" and "Xorazm haqiqati" are studied as primary sources, and their historical significance is scientifically substantiated.*

Keywords: *Khorezm press, Soviet ideology, political repressions, radio broadcasting, cultural policy, public supervision, 1930s.*

Аннотация: *В настоящей статье рассматривается роль печатных изданий Хорезмской области в социально-политической жизни периода 1936–1950 гг., а также их функциональное значение в реализации советской идеологии и культурно-информационной политики. Анализ охватывает тематическую направленность материалов прессы в годы политических репрессий,*

военного и послевоенного периодов, процесс распространения радио и технических средств массовой информации. Особое внимание уделяется роли местной прессы как инструмента общественного контроля и идеологического воспитания. В качестве основных источников использованы материалы газет «Инкилоб куёши» и «Хорезм хакикати», историческая значимость которых аргументирована на научной основе.

Ключевые слова: *Хорезмская пресса, советская идеология, политические репрессии, радиовещание, культурная политика, общественный контроль, 1930-е гг.*

Kirish. 1936–1950-yillar O‘zbekiston, xususan, Xorazm viloyati tarixida murakkab va ziddiyatli davr sifatida ajralib turadi. Bu yillar Stalin davri shaxsga sig‘inish siyosatining kuchayishi, 1937–1938-yillardagi ommaviy siyosiy repressiyalar, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy tiklanish jarayonlari bilan tavsiflanadi. Mazkur tarixiy sharoitda matbuot davlat mafkurasining eng muhim targ‘ibot va nazorat vositasiga aylangan.

Xorazm viloyatida chop etilgan mahalliy gazetalar nafaqat axborot tarqatish, balki siyosiy intizomni mustahkamlash, “xalq dushmanlari”ga qarshi kurashni mafkuraviy jihatdan asoslash va jamiyatni sovet qadriyatlari ruhida tarbiyalash vazifasini bajargan. Shu bois, ushbu davr matbuotini tarixiy manba sifatida o‘rganish mintaqaning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda foydalanilgan manbalar bir necha guruhga ajratiladi. Birinchi guruhni urush va urushdan keyingi yillarda chop etilgan gazeta materiallari tashkil etib, ularda Xorazm viloyati xotin-qizlarining mehnat frontidagi faoliyati va qahramonligi yoritilgan[1]. Bu materiallar ijtimoiy tarixni tiklashda muhim empirik manba hisoblanadi. Ikkinchi guruh manbalari sovet matbuoti tarixiga oid tadqiqotlar bo‘lib, ularda markaziy va mahalliy matbuotning mafkuraviy yo‘nalishlari tahlil qilingan[2; 6]. Xususan, A.Q.Qodirovning ishlari 1930-yillar matbuotida texnika va madaniyatning ideologik talqini masalasini yoritishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [6].

Shuningdek, Xorazm jadid namoyandalari hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar siyosiy repressiyalar qurbonlarining ijtimoiy-madaniy faoliyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega[3;4].

Metodologik yondashuv. Maqolada tarixiy-tahliliy, manbashunoslik va qiyosiy usullar qo‘llanildi. Mahalliy matbuot materiallari mazmuniy tahlil qilinib, ularning siyosiy, mafkuraviy va madaniy funksiyalari aniqlashtirildi. Gazeta maqolalaridagi statistik ma’lumotlar, tanqidiy nutq va ideologik terminologiya sovet davri axborot siyosati kontekstida talqin etildi.

Tahlil. 1936–1950-yillar Xorazm viloyati matbuoti sovet jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning bevosita aks-sadosi sifatida shakllandi. Ayniqsa, 1936–1938-yillar siyosiy repressiyalar kuchaygan davr bo‘lib, mahalliy matbuotda sinfiy dushmanlarga qarshi kurash, mafkuraviy hushyorlik va partiyaviy sadoqat masalalari yetakchi mavzuga aylandi. “Xorazm haqiqati”, “Lenin yo‘li”, “Stalin yo‘li” kabi nashrlar sahifalarida e’lon qilingan materiallar markaziy matbuot — “Pravda”, “Izvestiya”, “Qizil O‘zbekiston” gazetalarining g‘oyaviy yo‘nalishini takrorlab, mahalliy darajada targ‘ibot vazifasini bajardi[2].

Mazkur davrda gazeta sahifalarida ziyolilar, yozuvchilar va rahbarlarning “xalq dushmani” sifatida fosh etilishi keng tarqaldi. “Katta terror” yillarida qatag‘on qurbonlari sifatida Komil Devoniy va Safo Mug‘anniy nomlarining tilga olinishi bejiz emas. Ularning hayoti va ijodiy merosini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ijodining muayyan bosqichi jadidchilik g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lgan[3]. Safo Mug‘anniy 1937-yilda qamoqqa olinib, 1938-yilda 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga surgun qilingan. U dastlab O‘zbekistondagi Malik sovxozida, keyinchalik Yaroslavl viloyati Ribin tumani Voljskiy MTLda jazoni o‘tab, shu yerda vafot etgan[4]. Bu holat siyosiy repressiyalarning madaniy va intellektual muhitga yetkazgan zarbasini ko‘rsatadi.

1930-yillar O‘zbekiston va Sovet Ittifoqida ilmiy-texnik taraqqiyot va “madaniy inqilob” siyosati bilan xarakterlanadi. Bu jarayon matbuotda keng

yoritilib, radio, kino, fotoapparat va telefon kabi texnika vositalarining ommalashuvi sotsialistik turmush tarzining muhim belgisi sifatida talqin etildi. “Inqilob quyoshi” gazetasining 1936-yil 26-mart sonida e’lon qilingan “Radio qurilma va foto xaridorlari ko‘paymoqda” sarlavhali maqola bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Unda radio va fotoapparatlar savdosining oyma-oy oshib borayotgani aniq raqamlar orqali ko‘rsatiladi [5].

Mazkur ma’lumotlar radio va fotoapparatlarga bo‘lgan talabning keskin o‘sishini, aholi orasida texnika vositalarining ommalashayotganini ko‘rsatadi. Bu holat nafaqat madaniy yangilanish, balki axborot siyosati va mafkuraviy ta’sirning kuchayganidan ham dalolat beradi. Tadqiqotchi A.Q.Qodirov ta’kidlaganidek, 1930-yillar matbuoti texnika yutuqlarini faqat ilmiy yangilik sifatida emas, balki sotsialistik madaniyatning muhim belgisi sifatida yoritgan[6]. Statistik raqamlar orqali “yangi turmush tarzi” g‘oyasi mustahkamlangan.

1938-yil 12-mart sonida chop etilgan “Soqov radiolar qachon tilga kiradi” maqolasi esa mahalliy matbuotning tanqidiy funksiyasini ochib beradi. Unda aholi, xususan kolxozchilarning radio, kino va boshqa madaniy vositalarga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotgani ta’kidlanadi[7]. Shu bilan birga, Urganch radio stansiyasi faoliyatidagi tashkiliy sustkashlik, texnik nosozliklar va mas’ul shaxslarning loqaydligi keskin tanqid qilinadi[8–10]. Gazetada keltirilgan “300 dan ortiq radio tochkasi mavjud, ammo ular ishlamayapti” degan ma’lumotlar Xorazm viloyatida radio infratuzilmasining mavjudligi bilan birga, uning samarasiz ishlatilganini ko‘rsatadi.

1938-yil 1-avgust sonida e’lon qilingan “Oblast radio komiteti muvofiq binoga qachon joylashadi” maqolasi siyosiy tanqidning yanada keskinlashganini namoyon etadi. Unda radio sohasidagi muammolar “xalq dushmanlari” faoliyati bilan bog‘lanib, ayrim mas’ul shaxslar davlat mulkini talon-toroj qilganlikda ayblanadi[11–12]. Shuningdek, Xalq Komissarlari Soveti buyruqlarining bajarilmagani tanqid qilinib, mahalliy rahbarlarning partiyaviy intizomga bo‘ysunmagani fosh etiladi[13].

Mazkur maqolalar shuni ko‘rsatadiki, 1930-yillar oxirida mahalliy matbuot faqat axborot berish bilan cheklanmagan, balki ijtimoiy nazorat, siyosiy intizomni mustahkamlash va mafkuraviy tarbiya vositasi sifatida faoliyat yuritgan. “Inqilob quyoshi” gazetasi misolida matbuotning axborot, tarbiyaviy va nazorat funksiyalari uyg‘unlashganini kuzatish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 1936–1950-yillarda Xorazm viloyati matbuoti sovet jamiyatida axborot tarqatish bilan bir qatorda mafkuraviy tarbiya va ijtimoiy nazorat vazifasini bajargan. Mahalliy gazetalar davlat siyosati va jamiyat o‘rtasidagi axborot ko‘prigi sifatida faoliyat yuritib, siyosiy intizomni mustahkamlash va madaniy siyosatni amalga oshirishda muhim rol o‘ynagan. Ushbu davr matbuoti materiallari Xorazmning ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixini o‘rganishda qimmatli tarixiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хотин-қизлар, саноатга // Хоразм ҳақиқати. – 1942. – 10 февраль. Бобожонов М. Звено бошлиғи Хадича Жумабоева ҳар куни 350 кило пахта термоқда: [Урганч р-н Ўрта Дўрман қи шлоғи] / М.Бобожонов // Хоразм ҳақиқати. – 1942. –13 октябр; Бобожонов М. Ишда икки – уч нормани бажариш муқаддас бурчимиз! [звено бошлиғи Ўрозгул 200 кило пахта термоқда] / М. Бобожонов // Хоразм ҳақиқати. – 1942. – 6 октябр; Жуманиёзов О. Ҳамшира: [Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси М. Худоёрова] / О.Жуманиёзов // Хоразм ҳақиқати. – 1982. – 15 май; Ражабов Н. Рейхстагга дастхат битган жувон: [Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси М.Добриднева] / Н.Ражабов // Хоразм ҳақиқати. – 1980. – 9 май; Билолов Г. Қаҳрамон қиз, Ольга: [Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси, Совет Иттифоқи Қаҳрамони О. Санфирова] / Г.Билолов, О.Собиров // Хоразм ҳақиқати. – 1980. – 9 май; Дубинин И. Снайпер: [Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси, Хоразм области ремонт қурилиш бошқармаси автобазасининг катта бухгалтери Г.Лапина] / И.Дубинин // Хоразм ҳақиқати. – 1973. – 10 март; Муллаев К. Шинель кийган қизлар: [Иккинчи жаҳон уруши қатнашчилари Қўшкўпирлик Розия ва Солияжон момолар] / К. Муллаев // Хоразм ҳақиқати. – 1995. – 9 май; Полвонов Ў. Собиқ полк врачи: [Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси Хивалик Ш.Аҳмедова ҳақида очерк] / Ў.Полвонов // Халқ сўзи. – 1995. – 26

декабр; Раҳимберганова С. Дугоналар жангга кирганда...:[Курск жангининг 40 йиллигига. “Жанговар хизматлари учун” медали нишондори Н.Дмитриевна] / С.Раҳимберганова // Хоразм ҳақиқати. – 1983. – 23 август; Қуронбоев, Б. Зенитчи Елена: [Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси Е.Иванова] / Б.Қуронбоев // Хоразм ҳақиқати. – 1975. – 5 февраль.
2. (Насиров, 1991).
3. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад, Хоразм жадид намояндалари: ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси; Хоразм: Milleniumus print нашриёти, 2024. – 186 б.
4. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад, Хоразм жадид намояндалари: ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси; Хоразм: Milleniumus print нашриёти, 2024. – 200 б.
5. «Инқилоб қуёши» газетаси, 1936 йил 26 март, №70 (2262), 70-бет.
6. Қодиров А.Қ. Ўзбекистон матбуоти тарихидан. – Т.: Университет, 2010. – Б. 94.
7. Инқилоб қуёши, 1938 йил 12 март, №58 (2849), 99-бет.
8. Ўша манба.
9. Ўша манба.
10. Ўша манба.
11. Инқилоб қуёши, 1938 йил 1 август, №175 (2966), 52-бет.
12. Ўша манба.
13. Ўша манба.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 342.15

O‘ZBEKISTONDA O‘ZINI O‘ZI BAND QILGAN SHAXSLARNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Djadigerov Timur Maxsetovich,
Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti “Fuqarolik va biznes huquqi” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

LEGAL REGULATION OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES OF SELF-EMPLOYED PERSONS IN UZBEKISTAN

Djadigerov Timur Maxsetovich, Intern teacher of the Department of Civil and Business Law, Faculty of Law, Karakalpak State University

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ САМОЗАНЯТЫХ ЛИЦ В УЗБЕКИСТАНЕ

Джадигеров Тимур Махсетович, стажер-преподаватель кафедры “Гражданское и коммерческое право” юридического факультета Каракалпакского государственного университета

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu institutning konstitutsiyaviy asoslari, amaldagi qonunchilikdagi o‘rni hamda huquqiy mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ro‘yxatdan o‘tish tartibi, soliqqa tortishning o‘ziga xos jihatlari va ijtimoiy himoya masalalari ilmiy-huquqiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zini o‘zi band qilish instituti, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish, huquqiy maqom masalalari, mehnat bozori islohotlari, norasmiy bandlikni qisqartirish, soliqqa tortish mexanizmlari, ijtimoiy himoya tizimi, raqamli ro‘yxatdan o‘tish, iqtisodiy faollikni oshirish.*

Abstract: *This article analyzes the formation and development stages of the legal regulation of entrepreneurial activities of self-employed persons in Uzbekistan. The research highlights the constitutional foundations of this institution, its role in current legislation, and legal mechanisms. Additionally, the registration procedure, specific aspects of taxation, and social protection issues are examined from a scientific and legal perspective.*

Key words: *self-employment institution, regulation of entrepreneurial activity, legal status issues, labor market reforms, reduction of informal employment, taxation mechanisms, social protection system, digital registration, increasing economic activity.*

Аннотация: *В данной статье анализируются этапы формирования и развития правового регулирования предпринимательской деятельности самозанятых лиц в Узбекистане. В исследовании освещены конституционные основы данного института, его место в действующем законодательстве и правовые механизмы. Также с научно-правовой точки зрения рассмотрены порядок регистрации, особенности налогообложения и вопросы социальной защиты.*

Ключевые слова: *институт самозанятости, регулирование предпринимательской деятельности, вопросы правового статуса, реформы рынка труда, сокращение неформальной*

занятости, механизмы налогообложения, система социальной защиты, цифровая регистрация, повышение экономической активности.

Kirish. O‘zbekistonda mehnat bozorini isloh qilish jarayonida yangi bosqich 2019–2020-yillardan boshlandi. Ungacha bo‘lgan davrda aholining katta qismi hunarmandchilik, maishiy xizmat ko‘rsatish, repetitorlik kabi faoliyat turlari bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, asosan norasmiy sektorda faoliyat yuritib kelgan. Bu esa fuqarolarning ijtimoiy jihatdan yetarli darajada himoyalanmasligiga, mehnat stajining hisobga olinmasligiga hamda davlat budjeti uchun muhim bo‘lgan potensial tushumlarning yo‘qolishiga olib kelardi. Mazkur muammolarni hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4742-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror mehnat bozorida muhim burilish yasab, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun ilgari mavjud bo‘lmagan keng imkoniyat va imtiyozlarni yaratdi.

O‘zini o‘zi band qilish tushunchasi huquqiy jihatdan shunday tavsiflanadiki, u mehnat daromadi olishga yo‘naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshirishni anglatadi. Bu yerda eng muhim jihat shunda ko‘rinadiki, bunday shaxslar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatga olinmagan bo‘lishi va o‘z faoliyatida yollanma xodimlarni jalb qilmasligi lozim.[1] Huquqiy tartibga solishning asosiy maqsadi – aholining o‘zini o‘zi ish bilan band qilishini rag‘batlantirish orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zini o‘zi band qilish institutining nazariy va huquqiy asoslari milliy hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda ushbu tushunchaga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Aksariyat hollarda u “mustaqil bandlik” (self-employment) va “norasmiy sektorni legallashtirish” (formalization of the informal sector) tushunchalari bilan chambarchas bog‘lab izohlanadi. Jumladan, tadqiqotchi E. Abramov o‘z ilmiy ishlarida o‘zini o‘zi band qilish tushunchasini keng ma’noda talqin etib, unga barcha turdagi kichik biznes subyektlarini kiritishni taklif qiladi. Biroq O‘zbekiston qonunchiligida mazkur tushuncha nisbatan torroq va aniq huquqiy chegaralar bilan belgilangan.

N.Volovskaya kabi olimlar esa o‘zini o‘zi band qilishni tadbirkorlik faoliyatining eng boshlang‘ich va fundamental shakli sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, bunday faoliyat turi shaxsning o‘z bilimlari, ko‘nikmalari va resurslariga tayangan holda iqtisodiy tavakkalchilikni mustaqil ravishda zimmasiga olishi bilan tavsiflanadi. O‘zbekistonlik olimlar, xususan, M.Karimjonov va L.Rahimqulova o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning huquqiy maqomini tahlil qilar ekan, ushbu faoliyat mehnat huquqi doirasidan ko‘ra ko‘proq fuqarolik-huquqiy munosabatlarga mansub ekanini ta’kidlaydilar. Ya’ni, bu jarayonda ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi bo‘ysunish munosabatlari emas, balki buyurtmachi va ijrochi o‘rtasidagi teng huquqli hamkorlik munosabatlari ustuvor hisoblanadi.

Mazkur maqolani tayyorlashda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy o‘rganish va statistik guruhlash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, jumladan, Soliq kodeksi, «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonun va Prezident qarorlari olindi. Shuningdek, 2024-2025 yillarga oid eng so‘nggi statistik ma’lumotlar va davlat organlarining rasmiy hisobotlari tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida huquqiy normalarning evolyutsiyasi va ularning ijtimoiy hayotga ta’sirini baholash tamoyillari tanlab olindi.

Muhokama. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning huquqiy maqomi O‘zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasi hamda mehnat bozorining o‘ziga xos ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirilgan bo‘lib, mazkur maqomning joriy etilishi, bir tomondan, aholining iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, norasmiy bandlik ko‘lamini qisqartirishga qaratilgan tizimli choralar majmuasini ifodalaydi.

[1] Rakhimov M. Constitutional and legal status of self-employed citizens in the Republic of Uzbekistan. 2020. https://cyberleninka.ru/article/n/constitutional-and-legal-status-of-self-employed-citizens-in-the-republic-of-uzbekistan

Shu nuqtayi nazardan, ushbu masalada o‘zini o‘zi band qilish institutining amal qilish mexanizmlari, soliqqa tortishning differensial yondashuvga asoslangan o‘ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy himoya bilan bog‘liq huquqiy kafolatlar chuqur va kompleks tahlil etilishi zarur.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning huquqiy holati konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriridagi 42-moddada o‘z ifodasini topgan, mazkur norma har bir shaxsning munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqini e’tirof etish bilan birga, davlat zimmasiga fuqarolarning mustaqil iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun zarur tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratib berish majburiyatini yuklaydi. Ushbu konstitutsiyaviy huquqning amaliyotda samarali ro‘yobga chiqarilishi esa «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonun orqali tartibga solinib, unda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, ularning bandlik tizimidagi o‘rni belgilab berilgan.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish jarayoni bugungi kunda to‘liq raqamlashtirilgan. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 806-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan, fuqarolar Davlat soliq qo‘mitasining maxsus mobil ilovasi orqali yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali masofadan ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin.[2] Ro‘yxatdan o‘tish uchun hech qanday to‘lov undirilmaydi va jarayon bir necha daqiqa vaqt oladi. Bu tizimning joriy etilishi byurokratiyani keskin kamaytirdi va korrupsiyaviy omillarni bartaraf etdi. Ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng, shaxsga maxsus QR-kodli ma’lumotnoma beriladi, bu esa uning qonuniy faoliyat yuritayotganini tasdiqlovchi asosiy hujjat sifatida e’tirof etiladi. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati yildan-yilga muntazam kengayib bormoqda. Agar 2019-yilda ushbu ro‘yxatda atigi 24 ta yo‘nalish bo‘lgan bo‘lsa, hozirda ularning soni 100 tadan oshib ketdi. Bu yo‘nalishlar orasida maishiy xizmatlar (sartaroshlik, kosmetologiya), AKT xizmatlari (freelancing, dasturlash), qishloq xo‘jaligi (chorvachilik, bog‘dorchilik) va xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish kabi sohalar yetakchilik qiladi. Ta’kidlash joizki, freelancing sohasining ushbu ro‘yxatga kiritilishi O‘zbekistonlik mutaxassislarga xorijiy buyurtmachilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash va valyuta tushumlarini shaxsiy hisobvaraqlariga qabul qilish imkonini berdi.[3]

Soliqqa tortish masalasi o‘zini o‘zi band qilganlar uchun eng jozibador jihatlardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasiga asosan, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning ushbu faoliyatdan oladigan daromadlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod etilgan. Lekin, 2024-yil 1-apreldan boshlab tizimda ma’lum bir adolatli cheklovlar o‘rnatildi. Xususan, agar o‘zini o‘zi band qilgan shaxsning yillik daromadi 100 million so‘mdan oshsa, u oshgan qismidan 4 foiz miqdorida soliq to‘lashi lozim bo‘ladi. Bu chora yirik tadbirkorlik subyektlarining soliqdan qochish maqsadida o‘z xodimlarini «o‘zini o‘zi band qilgan» sifatida rasmiylashtirishining oldini olishga qaratilgan. Shuningdek, daromad 1 milliard so‘mdan oshganda, umumiy belgilangan soliqlar tartibi qo‘llanilishi belgilandi.

Ijtimoiy himoya masalasi ham huquqiy tartibga solishning ajralmas qismidir. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ixtiyoriy ravishda yiliga kamida 1 BHM miqdorida ijtimoiy soliq to‘lasalar, ushbu yil ularning mehnat stajiga qo‘shiladi. Bu tizim fuqarolarga kelajakda yoshga doir pensiya olish huquqini beradi va ijtimoiy soliq to‘lovlari to‘liqligicha Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi. Bu mexanizm orqali davlat aholining ijtimoiy xavfsizligini ta’minlash bilan birga, fuqarolarda mas’uliyat hissini ham shakllantiradi.

Natijalar. O‘zini o‘zi band qilish sohasidagi islohotlar O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun sezilarli ijobiy natijalar berdi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu tizim aholining mehnat bozoridagi xatti-harakatlarini tubdan o‘zgartirdi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni 4,4 mil-

[2] O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 23.12.2020 yildagi 806-son. https://lex.uz/en/docs/-5182451

[3] Mamadalieva Z. M. Legal status of self-employed persons in the field of electronic commerce. https://science-zone.org/conference/article/download/31/28/29

lion nafardan oshdi.[4] Taqqoslash uchun, 2024-yilning aprel oyida bu ko‘rsatkich 2,8 million nafarni tashkil etgan edi. Bir yilga yetmagan vaqt ichida o‘sish sur’ati 76,5 % dan yuqori bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Bu raqamlar aholining qonuniy bandlikka bo‘lgan intilishining yorqin namunasidir. Eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichlari maishiy xizmatlar (674 ming kishi) va ishlab chiqarish sohalarida kuzatilgan. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishida ham bar-qaror o‘sish qayd etilmoqda (36,9 ming kishi). Bu davlatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlana-yotganidan dalolat beradi. Hududiy jihatdan Samar-qand viloyati (370,5 ming kishi) o‘zini o‘zi band qilganlar soni bo‘yicha mamlakatda yetakchilik qilmoqda.[5]

O‘zini o‘zi band qilish tizimining joriy etilishi natijasida erishilgan asosiy yutuqlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

– Birinchidan, norasmiy bandlik darajasi sezilarli darajada pasaydi. Ilgari «soya»da qolib kelayotgan millionlab fuqarolar endilikda rasmiy maqomga ega bo‘ldi, bu esa davlatga mehnat resurslarini to‘g‘ri rejalashtirish imkonini berdi.

– Ikkinchidan, aholining tadbirkorlikka bo‘lgan qiziqishi ortdi. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning banklardan imtiyozli kreditlar olish, turli davlat dasturlarida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lishi oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishiga xizmat qildi.

– Uchinchidan, ijtimoiy soliq tushumlari orqali Pensiya jamg‘armasining barqarorligi oshdi. Millionlab yangi to‘lovchilarning tizimga qo‘shilishi kelajakda davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarishini osonlashtiradi.

Shuningdek, tizimning rivojlanishi bilan birga ayrim muammolar ham yuzaga keldi. Masalan, ayrim korxonalar soliq yukini kamaytirish uchun o‘z xodimlarini o‘zini o‘zi band qilgan sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishga urinmoqdalar. Shu sababli, 2024-yilda joriy etilgan daromad chegaralari va soliq stavkalari ushbu suiste’molliklarni cheklashga qaratilgan zaruriy qadam bo‘ldi.[6]

Xulosa. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar mamlakat iqtisodiyoti uchun dolzarb va samarali islohotlardan biri bo‘ldi. Ushbu institut ishsizlik darajasini pasaytirish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish hamda fuqarolarni rasmiy iqtisodiyotga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tizimning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga huquqiy bazaning soddalashtirilganligi, ro‘yxatdan o‘tish jarayonining bepulligi hamda daromad solig‘idan ozod etish kabi imtiyozlar asos bo‘ldi. Shu bilan birga, 2024-yildan joriy etilgan yangi soliq tartiblari sohada shaffoflikni kuchaytirib, davlat budjeti manfaatlari bilan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga hissasini qo‘shmoqda.

Kelgusida mazkur institutni yanada rivojlantirish uchun o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning huquqiy savodxonligini oshirish, raqamli platformalarda ishlovchilar uchun qo‘shimcha ijtimoiy kafolatlarni joriy etish hamda soliq nazoratini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, o‘zini o‘zi band qilish instituti O‘zbekiston iqtisodiy modelining barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutib, ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rakhimov M. Constitutional and legal status of self-employed citizens in the Republic of Uzbekistan. 2020. https://cyberleninka.ru/article/n/constitutional-and-legal-status-of-self-employed-citizens-in-the-republic-of-uzbekistan

2. Mamadalieva Z. M. Legal status of self-employed persons in the field of electronic commerce.

3. O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 23.12.2020 yildagi 806-son. https://lex.uz/en/docs/-5182451

4. Aholi bandligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 20.10.2020 yildagi O‘RQ-642-son. https://lex.uz/ru/docs/-5055690

5. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti. https://gov.uz/oz/soliq/press-services/news/show/ozini-ozi-band-qilish-qulay-qonuniy-va-xavfsiz

[4] Gazeta.uz. 4,4 mln nafar: 2024-yilda o‘zini o‘zi band qilganlar soni 76,5 foizga ko‘paydi. https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/15/self-employed/

[5] O’zbekiston Respublikasi Soliq qo’mitasi matbuot xizmati. https://t.me/fiskaltahlil/635

[6] O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar qanday soliqlarni to'laydi? 2024.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 392.181.151.9

“MASNAVIYI MA’NAVIY” HIKOYALARI AQLIY TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Usmonova Oydin Sherali qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

“MASNAVIYI NA'NAVIY” STORIES AS A MEANS OF MENTAL EDUCATION

Usmonova Oydin Sherali qizi, Basic doctoral student at the Bukhara state Pedagogical institute

РАССКАЗЫ «МАСНАВИЙИ МАЪНАВИЙ» КАК СРЕДСТВО УМСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ

Усмонова Ойдин Шерали кизи, Докторант Бухарского Государственного педагогического институт



e-mail: oydinusmonova765@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-0941-9777

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning mashhur didaktik asari hisoblanmish “Masnaviyi Ma’naviy” asari va uning bugungi zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan ahamiyati haqida batafsil ma’lumot beriladi. Bundan tashqari aqliy tarbiya va uning mazmun-mohiyati haqida ma’lumot beriladi. “Masnaviydan” o‘rin olgan hikoyalar aqliy tarbiya vositasi ekanligi ilmiy dalillar bilan keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, tafakkur, tafakkur ierarxiyasi, aqliy tarbiya, kreativlik, ijodiy fikrlash qobiliyati.*

Abstract: *This article provides detailed information about Jalaluddin Rumi's famous didactic work “Masnaviy Ma’naviy” and its importance in today's modern educational process. In addition, information is provided about intellectual education and its content. It is scientifically proven that the stories from "Masnaviy" are a means of intellectual education.*

Key words: *critical thinking, thinking, hierarchy of thinking, mental education, creativity, creative thinking ability.*

Аннотация: *В данной статье представлена подробная информация о знаменитом дидактическом произведении Джалалуддина Руми «Маснавий Маънавий» и его значении в современном образовательном процессе. Кроме того, приводится информация об интеллектуальном воспитании и его содержании. Научно доказано, что истории из «Маснавия» являются средством интеллектуального воспитания.*

Ключевые слова: *критическое мышление, мышление, иерархия мышления, умственное развитие, креативность, способность к творческому мышлению.*

Kirish. Sharq mutafakkirlarining boy falsafiy va pedagogik merosi orasida Jaloliddin Rumiy qalamiga mansub “Masnaviyi ma’naviy” asari alohida o‘rin tutadi. Ushbu asar nafaqat badiiy-falsafiy manba, balki inson tafakkuri, aql va idrokni tarbiyalashga xizmat qiluvchi didaktik hikoyatlar, rivoyatlar, xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari majmuasi sifatida e’tirof etiladi. “Masnaviyi ma’naviy” asarida hikoyalarning o‘rni beqiyosdir. Har bir hikoya faqatgina bir mavzuga qaratilmaydi va aksincha, bir qancha ijtimoiy muammolarni, zamon va makon tanlamaydigan masalalarni, axloqiy-ta’limiy jihatlarni yoritib beradi.

Rumiy hikoyalari orqali o‘quvchi hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarga mustaqil va erkin yondashuv asosida yechim izlash, o‘z fikrini asoslash, qissalardan munosib hissa chiqarish, bugungi masalalar bilan hikoya voqealarini taqqoslash, nizolarni bartaraf etish, xatodan xulosa chiqarish va ongli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa aqliy tarbiyaning asosiy maqsadlari bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida sharqona ma’naviy merosdan samarali foydalanish orqali o‘quvchi va talabalarning aqliy rivojini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Bugungi kunda ta’lim tizimida shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xalqaro ta’lim standartlarida bilimlarni yodlashdan ko‘ra, ularni tahlil qilish, baholash va amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash muhim hisoblanadi. Shu jihatdan, aqliy tarbiyani samarali tashkil etishda mazmunan chuqur, tafakkurni faollashtiruvchi didaktik vositalardan foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida sharq mutafakkirlarining boy ma’naviy-pedagogik merosini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi alohida e’tibor markazida turibdi. Jumladan, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asari asrlar davomida inson tafakkuri va ma’naviy kamolotini shakllantirishga xizmat qilib kelgan manba sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Asardagi hikoyalar mantiqiy mushohada, sabab-oqibat aloqalarini anglash, fikrni tahlil qilish va xulosa chiqarishga yo‘naltirilgani bilan aqliy tarbiya uchun muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Hozirgi holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Masnaviyi ma’naviy” asari ko‘proq adabiyotshunoslik, tasavvufshunoslik va falsafiy tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan.

Shu bois, “Masnaviyi ma’naviy” hikoyalarini aqliy tarbiya vositasi sifatida ilmiy asosda o‘rganish, ularning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ta’lim jarayoniga joriy etish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi ta’lim tizimi ehtiyojlaridan kelib chiqadigan muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tajriba qismi. Tadqiqot ishi bo‘yicha Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti va Buxoro davlat pedagogika institutining 61110100- Pedagogika bakalavriat yo‘nalishi talabalarida tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi. Tajriba ishida uchala oliygohdan jami 500 nafar respondent ishtirok etdi. Har bir bosqichda respondentlar bilan alohida shug‘ullanildi. Jumladan tajriba-sinov ishining dastlabki aniqlovchi bosqichida dastlab tajriba ishining maqsadi va vazifalari, amaliy ahamiyati ishlab chiqildi va respondentlar uchun anketa so‘rovnomalari tayyorlandi va ularga taqdim etildi. Bundan tashqari respondentlar ikki guruhga, xususan, tajriba va nazorat guruhlariga bo‘lindi.

Tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichi ta’kidlovchi bosqichida aniqlovchi tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifasi ko‘rib chiqilib, natijalar qayd etildi. Ishlab chiqiladigan metodikaning o‘ziga xos usullari aniqlandi. Shakllantiruvchi tajriba sinov ishlari uchinchi bosqich hisoblanib, umumiy xulosa uchun materiallar to‘plandi. Har bir respondentning javoblari ko‘rib chiqildi va pedagogik model yaratildi.

Olingan natijalar tahlili. Tadqiqot jarayonida “Masnaviyi ma’naviy” hikoyalarining aqliy tarbiya jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinib, bir qator muhim ilmiy natijalarga erishildi. Avvalo, asardagi hikoyalar mazmunan mantiqiy mushohada, sabab–oqibat munosabatlarini anglash, fikrni tahlil qilish va xulosa chiqarishga yo‘naltirilgani aniqlandi. Bu jihat “Masnaviyi ma’naviy”ni aqliy tarbiyani rivojlantirishda samarali didaktik vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, hikoyalarda voqealar rivoji ko‘pincha muammoli vaziyatlar asosida qurilgan bo‘lib, bu o‘quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol fikrlovchi subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Hikoyatlarning ramziy xarakterga ega ekanligi esa o‘quvchini

chuqur mushohada yuritishga, yashirin ma’nolarni anglashga va turli talqinlarni solishtirishga undaydi. Natijada aqliy faollik, tahliliy fikrlash va xulosalash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Natijalar tahlili shuni ham ko‘rsatadiki, hikoyalar bilan ishlash jarayonida savol-javob, munozara va tahlilga asoslangan metodlardan foydalanish aqliy tarbiya samaradorligini yanada oshiradi. An’anaviy izohli o‘qitish bilan solishtirilganda, muammoli savollar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va xulosa chiqarish ko‘nikmalari yuqoriroq darajada namoyon bo‘lgan.

Umuman olganda, tadqiqot davomida olingan natijalar “Masnaviyi ma’naviy” hikoyalarining aqliy tarbiya jarayonida muhim pedagogik salohiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Mazkur natijalar ta’lim jarayonida sharq mutafakkirlari merosidan samarali foydalanish orqali o‘quvchi va talabalarning intellektual rivojini ta’minlash mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asari hikoyalarining aqliy tarbiya jarayonidagi pedagogik ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “Masnaviyi ma’naviy” hikoyalari o‘z mazmun-mohiyati, ramziy obrazlari va muammoli vaziyatlarga asoslangan syujeti orqali shaxs tafakkurini faollashtirish, mantiqiy mushohada yuritish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega.

Tadqiqot natijalari hikoyalar orqali o‘quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash, sabab–oqibat aloqalarini anglash, turli fikrlarni solishtirish va baholash qobiliyatlarini shakllantirish mumkinligini tasdiqladi. Asardagi hikoyatlar tayyor bilim berishdan ko‘ra, o‘rganuvchini fikrlash jarayoniga jalb etishi bilan aqliy tarbiyaning zamonaviy talablariga mos keladi. Bu jihat “Masnaviyi ma’naviy”ni tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, “Masnaviyi ma’naviy” hikoyalari aqliy tarbiyani rivojlantirishda nazariy va amaliy jihatdan katta salohiyatga ega bo‘lib, ularni ta’lim tizimiga metodik asosda joriy etish o‘quvchi va talabalarning intellektual rivoji, fikrlash madaniyati hamda tanqidiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida sharq mutafakkirlari merosini ta’lim jarayonida qo‘llashga oid ilmiy izlanishlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rumiy J. Masnaviyi ma’naviy. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
2. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: Fan, 1993.
3. Ibn Sino A.A. Donishnoma. — Toshkent: Fan, 1980.
4. Jo‘rayev R.H. Pedagogik tafakkur va ta’lim taraqqiyoti. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
5. Saidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va tafakkur tarbiyasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2015.
6. Abduqodirov A.A. Shaxs tafakkurini rivojlantirishning pedagogik asoslari. — Toshkent: Fan, 2017.
7. Xoliqov A.A. Sharq mutafakkirlari ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari. — Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
8. Fish Rady. Jaloliddin Rumiy. Tarixiy-biografik roman / Rus tilidan J. Kamol tarj. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – 272b
9. Izbullayeva G.V. Jaloliddin Rumiy asarlarida yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasi / Mas’ul muharrir S.S. Bulatov. – Toshkent: Fan, 2015. – 208 b.
10. Руми, Джалаладдин. Дорога превращений: суфийские притчи / Джалаладдин Руми; сост., пер. [фарси], религиоз.филос.коммент. Дмитрия Щедровицкого; этико_психолог. коммент. Марка Хаткевича. – М.: Оклик, 2007. – 380 с.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 316.72:141.7

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA’NAVIY ISLOHOTLAR SOHASIDAGI TRANSFORMATSIYA: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Sharipov Abduhakimjon Ziyoitdinovich, Buxoro davlar Pedagogika instituti falsafa fanlari doktori (DSc), professor



https://orcid.org/0000-0003-0847-8183

TRANSFORMATION IN THE FIELD OF SPIRITUAL REFORMS IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Sharipov Abdukhakimjon Ziyoitdinovich, Professor of Bukhara State Pedagogical Institute Doctor of Science on Philosophy (DSc)

ТРАНСФОРМАЦИЯ В СФЕРЕ ДУХОВНЫХ РЕФОРМ В РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Шарипов Абдухакимжон Зиёитдинович, Бухарский государственный педагогический институт, доктор философских наук (DSc), профессор

Annotatsiya*: Maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti sharoitida ma’naviy islohotlar sohasida kechayotgan transformatsiya jarayonlari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Transformatsiya ma’naviy hayotning institutlashuvi, ideosferadagi yangilanishlar, jamoatchilik ongi va qadriyatlar tizimidagi dinamik o‘zgarishlar, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy sohani boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarining takomillashuvi bilan izohlanadi. Maqolada ma’naviy islohotlarning tizimli xarakteri, davlat va jamoat institutlari hamkorligi, yoshlar tarbiyasi, axborot makonida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlar kontseptual asosda yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *transformatsiya, ma’naviy islohot, ideosfera, milliy tiklanish, milliy yuksalish, demokratiya, qadriyat, ma’rifiy siyosat, mafkuraviy immunitet, institutsional mexanizm.*

Abstract: *The article analyzes the transformation processes taking place in the field of spiritual reforms in the context of the development of New Uzbekistan from a socio-philosophical perspective. The transformation is explained by the institutionalization of spiritual life, renewal in the ideosphere, dynamic changes in the public consciousness and value system, as well as the improvement of mechanisms for managing and coordinating the spiritual and educational sphere. The article covers such priority areas as the systemic nature of spiritual reforms, cooperation between state and public institutions, youth education, and strengthening ideological immunity in the information space on a conceptual basis.*

Keywords: *transformation, spiritual reform, ideosphere, national revival, national rise, democracy, value, enlightened politics, ideological immunity, institutional mechanism.*

Аннотация: *В статье с социально-философской точки зрения анализируются трансформационные процессы, происходящие в сфере духовных реформ в контексте развития Нового Узбекистана. Трансформация объясняется институционализацией духовной жизни, обновлением идеологосферы, динамическими изменениями в общественном сознании и системе ценностей, а также совершенствованием механизмов управления и координации духовно-образовательной сферы. В статье на концептуальном уровне рассматриваются такие приоритетные направления, как системный характер духовных реформ, сотрудничество между государственными и общественными институтами, воспитание молодежи и укрепление идеологической невосприимчивости в информационном пространстве.*

Ключевые слова: *трансформация, духовная реформа, идеосфера, национальное возрождение, национальный подъем, демократия, ценности, просвещенная политика, идеологическая неприкосновенность, институциональный механизм.*

Kirish. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli yangilanishlar jarayoni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy modernizatsiya bilan bir qatorda ma’naviy islohotlarning transformatsiyasini ham taqozo etmoqda. Chunki jamiyatning barqaror rivojlanishi faqat institutsional-tashkiliy o‘zgarishlar bilan emas, balki inson kapitali, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ong, ma’naviy me’yorlar va madaniy kodning yangilanishi bilan ham belgilanadi. Mazkur nuqtayi nazardan, ma’naviy soha — jamiyatning ideosferasi sifatida strategik ahamiyat kasb etadi: ideosferadagi o‘zgarishlar jamiyatning siyosiy barqarorligi, ijtimoiy hamjihatligi va modernizatsion salohiyatini belgilaydi. Shu ma’noda, ma’naviy islohotlar transformatsiyasi — bu alohida targ‘ibot yoki madaniy tadbirlar majmuasi emas, balki maqsad–vazifa–institut–mexanizm–natija zanjirida shakllanuvchi tizimli jarayondir. U milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari harakatning ma’naviy-ideologik tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Muammoning dolzarbligi va o‘rganilganlik darajasi. Ma’naviy-mafkuraviy yangilanish, ideosferadagi dinamik o‘zgarishlar, milliy g‘oya va demokratik qadriyatlar uyg‘unligi masalalari mamlakatimiz ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarida muayyan yo‘nalish sifatida shakllangan. Ushbu yo‘nalishda ma’naviy taraqqiyotning kontseptual asoslari, jamiyatni yangilashda manaviyatning o‘rni, milliy g‘oyaning institutlashuvi, demokratik taraqqiyot sharoitida mafkuraviy barqarorlik kabi masalalar yoritilgan. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy islohotlar transformatsiyasini institutsional mexanizmlar, ijtimoiy ong dinamikasi, axborot muhiti va yoshlar siyosati kesimida kompleks tahlil qilish dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ma’naviy islohotlar sohasidagi transformatsiya jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy mazmunini ochib berish. Transformatsiyaning kontseptual chegaralari va mezonlarini asoslash, ideosferadagi yangilanishlarning ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir mexanizmlarini ko‘rsatish, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi institutsional o‘zgarishlarning mazmuniy-amaliy ahamiyatini tahlil qilish, axborot muhitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishning omillarini yoritish, samaradorlikni baholash uchun xulosalar ishlab chiqish. Mamlakatimizda jamiyat ideosferadagi yangilanish va o‘zgarishlar sohasidagi o‘zgarishlar masalasinining turli jihatlari, jamiyat rivoji va milliy g‘oyadagi yangilanishlarning o‘zaro dialektik aloqadorligi, demokratik jamiyatda ideologiyaning roli masalalarini M.Quronov, A.Saidov, N.Jo‘rayev, Q.Nazarov, I.Ergashev, N.Shermuhamedova, A.Erkayev, F.Musayev, B.S.Turdiyev singari tadqiqotchi, faylasuf olimlarimiz o‘rganishgan.

Tadqiqot usullari. Maqolada qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli yondashuv, analiz va sintez, umumlashtirish, mantiqiy rekonstruksiya, o‘zaro aloqadorlik (determinatsiya) usullari qo‘llanildi. Masala jamiyat rivojlanishining ma’naviy-ideologik omili sifatida ko‘rib chiqildi.

Muhokama. Ma’naviy transformatsiya tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati. Ma’naviy islohotlardagi transformatsiyani mazmuniy va institutsional qatlamlarda ko‘rish maqsadga muvofiq: mazmuniy transformatsiya — qadriyatlar iyerarxiyasi, ijtimoiy ong va ma’naviy me’yorlar yangilanishi; institutsional transformatsiya — ma’naviy-ma’rifiy siyosatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, ularning vakolati, muvofiqlashtirish va samaradorlik mexanizmlarining takomillashuvi. Ideosferadagi yangilanishlar va “milliy tiklanishdan — milliy yuksalish” trayektoriyasi. Ideosfera — jamiyatni harakatga keltiruvchi ma’naviy-g‘oyaviy muhit bo‘lib, undagi o‘zgarishlar ijtimoiy hamjihatlik va modernizatsion salohiyatga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu muhitda fuqarolik mas’uliyati, qonun ustuvorligi, adolat va insonparvarlik qadriyatlarining mustahkamlanishi kuzatiladi. Ma’naviy-ma’rifiy sohaning institutlashuvi: boshqaruv va muvofiqlashtirish transformatsiyasi. Ma’naviy islohotlar samarasi institutsional dizaynga bog‘liq. Yangi bosqichda sohani muvofiqlashtirish, targ‘ibotning mazmun-formatini yangilash, kadrlar salohiyatini oshirish va hududiy darajada maqsadli dasturlar bilan ishlash kuchaydi. Axborot muhiti va mafkuraviy immunitet:

transformatsiyaning yangi fronti. Raqamli kommunikatsiyalar sharoitida tahdidlar (manipulyatsiya, yolg‘on axborot, ekstremistik g‘oyalar)ni kamaytirish mafkuraviy immunitet va media savodxonlik orqali amalga oshadi. Shuning uchun targ‘ibotdan kompetentsiyaga, umumiy chaqiriqlardan manzilli auditoriyalarga, yakka tadbirlardan uzluksiz tarbiya tizimiga o‘tish muhimdir. Samaradorlik mezonlari. Transformatsiyani baholashda qadriyatlarning ijtimoiy me’yor sifatida mustahkamlanishi, ta’lim-tarbiya va jamoat institutlari integratsiyasi, yoshlar faolligi, axborot muhitida tanqidiy fikrlashning o‘sishi hamda ijtimoiy ishonch kapitalining ortishi asosiy mezonlardir. Ma’naviy islohotlar transformatsiyasini ijtimoiy amaliyotda baholashda natijaviylikni faqat tadbirlar soni yoki axborot materiallari hajmi bilan o‘lchash metodologik jihatdan cheklangan hisoblanadi. Natijaviylikning to‘g‘ri mezonlari ma’naviy normalarning ijtimoiy xulq-atvorga aylanishi, institutlar o‘rtasidagi hamkorlikning barqaror mexanizmi shakllanishi va aholida ijtimoiy ishonchning o‘sishi kabi ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi. Shu nuqtayi nazardan, transformatsiya indikatorlarini quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

-qadriyatlar indikatorlari;
-institutsional indikatorlar;
-kommunikatsion indikatorlar;
-tarbiyaviy indikatorlar.

Qadriyatlar indikatorlari — adolat, halollik, qonunga hurmat, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik, insonparvarlik kabi qadriyatlarning kundalik hayotda me’yor sifatida qaror topishi bilan bog‘liq. Bu yerda muhim jihat deklarativ qo‘llab-quvvatlash emas, balki real ijtimoiy amaliyotda ushbu qadriyatlarga muvofiq qaror qabul qilish va xulq namoyon etish chastotasining oshishidir.

Institutsional indikatorlar ma’naviy-ma’rifiy sohada davlat, talim, madaniyat, mahalla va NNTlar o‘rtasidagi vazifalar taqsimoti, rejalashtirish va monitoring mexanizmlarining aniqligi bilan belgilanadi. Institutlashuv darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ma’naviy ishlar faoliyati shunchalik uzluksiz va maqsadga yo‘nalgan tus oladi.

Kommunikatsion indikatorlar — axborot maydonida ishonchli kontent ulushi, manipulyativ axborotga nisbatan tanqidiy qabul qilish qobiliyati, media savodxonlikning ommalashuvi va jamoatchilik muloqotining madaniyati orqali ifodalanadi. Bu toifadagi indikatorlar mafkuraviy immunitetning mustahkamlanish darajasini ko‘rsatadi.

Tarbiyaviy indikatorlar — uzluksiz tarbiya konsepsiyasi doirasida oila – ta’lim muassasasi – jamoa – ommaviy axborot vositalari zanjirida hamohang ta’sirning shakllanishi, yoshlarda tashabbuskorlik va ijtimoiy mas’uliyatning ortishi, shuningdek, ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etilish ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq.

Shunday qilib, ma’naviy islohotlar transformatsiyasi natijaviyligini baholash kompleks yondashuvni talab qiladi: u madaniy-qiymatiy o‘zgarishlar, institutlar samaradorligi va axborot muhitidagi barqarorlikni bir vaqtning o‘zida hisobga oladi.

Xulosa. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ma’naviy islohotlar sohasidagi transformatsiya — jamiyat ideosferasini yangilashga qaratilgan tizimli, ko‘p bosqichli ijtimoiy-falsafiy jarayondir. U mazmuniy (qadriyatlar va jamoatchilik ongi) hamda institutsional (boshqaruv, muvofiqlashtirish, kadrlar, mexanizmlar) o‘zgarishlarni qamrab oladi. Transformatsiyaning strategik mohiyati — milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari harakatni ma’naviy-g‘oyaviy jihatdan ta’minlash, modernizatsiya jarayonlarini inson kapitali va madaniy kod bilan uyg‘unlashtirish, axborot muhitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O‘zbekiston,1996.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari (matbuot manbalaridagi nashrlar).
3. Jo‘raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma’naviyat, 2008.
4. Ikramov Sh.T. Yuksak ma’naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash... – T., 2014.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyul kungi PQ-3160-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-may kungi PQ-4307-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-mart kungi PQ-5040-son qarori.

Qabul qilindi: 01.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 17(091):821.512.133.09

ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA AXLOQIY TARBIYA MASALALARI

Daniyarov Shavkat, Alfraganus universiteti katta o‘qituvchisi

ISSUES OF MORAL EDUCATION IN THE WORKS OF ABDULLA AVLONI

Daniyarov Shavkat, Senior Lecturer at Alfraganus University

ВОПРОСЫ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБДУЛЛА АВЛОНИ

Данияров Шавкат, старший преподаватель Университета Альфраганус



https://orcid.org/0009-0003-7283-8224
e-mail: daniyarov.shavkat1981@gmail.com

Annotatsiya: *O‘zbek milliy identikligi, ong va g‘urur, vatanparvarlikning kelajak avlodlar qalbiga singdirishda XX asr boshlarida faoliyat yuritgan yangi usul maktabi tarafdorlari harakati, ularning boy ilmiy-falsafiy merosi muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada axloqiy tarbiyaning jamiyat, millat, vatan taraqqiyotiga qay darajada ta’sir etishi masalasida Abdulla Avloniyning ilmiy-falsafiy qarashlari hamda pedagogik faoliyatining o‘rni haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar*: Abdulla Avloniy, milliy identiklik, pedagogik faoliyat, jadid, asarlar, axloq, ilm, darslik, drama, teatr, axloqiy tarbiya.*

Abstract: *The movement of supporters of the New Method School, which operated at the beginning of the 20th century, and their rich scientific and philosophical heritage are of great importance in instilling Uzbek national identity, consciousness and pride, and patriotism in the hearts of future generations. This article discusses the scientific and philosophical views of Abdulla Avloni and the role of his pedagogical activity in the issue of the impact of moral education on the development of society, the nation, and the homeland.*

Key words: *Abdulla Avloni, national identity, pedagogical activity, Jadid, works, morality, science, textbook, drama, theater, moral education.*

Аннотация: *Движение сторонников Новой методической школы, действовавшее в начале XX века, и его богатое научно-философское наследие имеют огромное значение для формирования узбекской национальной идентичности, самосознания, гордости и патриотизма в сердцах будущих поколений. В данной статье рассматриваются научно-философские взгляды Абдуллы Авлони и роль его педагогической деятельности в вопросе влияния нравственного воспитания на развитие общества, нации и родины.*

Ключевые слова: *Абдулла Авлони, национальная идентичность, педагогическая деятельность, Джадид, труды, мораль, наука, учебник, драма, театр, нравственное воспитание.*

Kirish. O‘zbek pedagogikasi tarixida yangi usul maktabi tarafdorlari harakati, ularning boy pedagogik merosi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda, shubhasiz, Abdulla Avloniyning asarlari o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Adabiyot”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Uchinchi muallim”, “Hisob”, “Tarixi anbiyo”, “Maktab jug‘rofiyasi” kabi darsliklari; “Pinak”, “Advokatlik osonmi?”, “Biz va siz” kabi dramalari Turkiston o‘lkasi xalqlari o‘rtasida ma’lum va mashhur bo‘lgan [4.B.50]. Avloniyning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan darsliklarining ba’zilari bir necha marta nashr qilingan bo‘lsa, ba’zilari qo‘lyozma holicha qolib ketgan. Abdulla Avloniy darsliklaridagi badiiy matnlar talabalarga ta’lim berish bilan birga tarbiya, asosan, axloqiy tarbiya berishda muhim ahamiyatga ega. Axloqqa Avloniy quyidagicha ta’rif beradi:

“Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur” [1.B.24].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abdulla Avloniy ijodi va uning pedagogik qarashlari o‘zbek pedagogikasi, adabiyotshunosligi hamda ma’naviyatshunosligi sohalarida keng va tizimli ravishda o‘rganib kelinmoqda. Ayniqsa, jadidchilik harakati doirasida shakllangan axloqiy-tarbiyaviy g‘oyalar, milliy maktab va darsliklar masalasi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Abdulla Avloniy pedagogik merosining asosiy manbalarini uning “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Uchinchi muallim” kabi darslik va to‘plamlari tashkil etadi. Ushbu asarlarda axloq, tarbiya, ilm-u ma’rifat, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, do‘stlik, rostgo‘ylik, sabr-qanoat kabi masalalar didaktik va badiiy uslubda yoritilgan bo‘lib, ular o‘zbek milliy pedagogikasining shakllanishida muhim manba vazifasini bajaradi. Tadqiqotchilar mazkur asarlarni jadid pedagogikasining nazariy va amaliy asoslari sifatida e’tirof etadilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Abdulla Avloniyning pedagogik va adabiy merosida axloqiy tarbiya masalasining yoritilishini ilmiy tahlil etilib, pedagogika, adabiyotshunoslik va ma’naviyatshunoslik fanlarining o‘zaro integratsiyasi asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Abdulla Avloniyning fikricha, insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi narsa axloq tarbiyasidur. Abdulla Avloniy inson xulqini ikkiga: yaxshi va yomon xulqlarga bo‘ladi: “Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo‘lub, “yaxshi xulq”; agar tarbiyasiz o‘sub, yomon ishlarni ishlaydurgon bo‘lub ketsa, yomonlikka tavsif bo‘lub, “yomon xulq” deb atalur”. Abdulla Avloniydan axloqiy tarbiyaga oid boy pedagogik meros qolgan[6.B.667]. Biz uning she’r va hikoyalaridan talabalarni axloqiy tarbiyalash imkoniyatlariga ko‘ra quyidagi yo‘nalishlarga ajratdik: vatan, vatanparvarlik; do‘stlik, o‘rtoqlik; rostgo‘ylik; ustoz, ota-ona va qavm-u qarindoshlarga hurmat; ilm-u ma’rifatga da’vat; sabr, qanoat; saxovat. Vatan, vatanparvarlik haqidagi she’r va hikoyalar. XX asr boshlarida vatan, vatanparvarlik haqida ko‘plab badiiy hamda pedagogik asarlar yozildi. Bular ichida Abdulla Avloniyning vatan, vatanparvarlik haqidagi merosi o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, u hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Abdulla Avloniyning 1912-yilda nashr qilingan “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida vatan, vatanparvarlik, o‘z yurtiga sadoqat va sodiqlik haqidagi “Vatanni suymak” bobida shunday yozadi: “Har bir kishining tug‘ulub o‘skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ulgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar… Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi arablar Arabistonlarini, qumlik, issig‘ cho‘llarini, eskimo‘lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarin tashlab, hijrat qilurlar edi”[8.B.83]. Talabalarni axloqiy tarbiyalashda Abdulla Avloniyning “Bahor”, “Yoz”, “Kuz”, “Qish” she’rlari ayniqsa, diqqatga sazovor[10.B.400].

Abdulla Avloniyning vatan, vatanparvarlik ruhida yozilgan hikoya va she’rlari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ulardan talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlari beqiyosdir. Talabalarda do‘stlik, o‘rtoqlikni tarbiyalash. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining bir bobi “Munislik” deb nomlangan. Unda “Munislik deb har kim o‘z tengi, maslakdoshini topub, ulfat bo‘lmakni aytilur. Dunyoning lazzati sodiq do‘stlar ila suhbat qilmoqdan iboratdur”, – deb ta’kidlangan. “Munislik” bobida quyidagi she’r qissadan-hissa tarzida keltirib o‘tilgan: *Yaxshi do‘st aybi yor-u do‘stini, Ko‘zgudek ro‘baro‘sida so‘zlar. Yomon o‘rtog‘ tarog‘cha ming til ila, Orqadan birmalab terib so‘zlar.* Avloniy deyarli barcha darsliklarida ilm oluvchilarning do‘stlik, o‘rtoqlik fazilatlarini o‘stirishga katta e’tibor bergan[2.B.48]. Chunonchi, “Birinchi muallim” darsligidagi “Ittifoq”, “Ikkinchi muallim” darsligidagi “Yolg‘on do‘st”, “Ayiqning do‘stligi” hikoyatlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi “Nifoq” bobida, “Birinchi muallim” darsligidagi “Yaxshilik yerda qolmas”,

“Arslon ila Ayiq”, “Xo‘roz ila Bo‘ri” hikoyalarida ham do‘stlik, o‘rtoqlik haqidagi fikrlar mavjud.

Abdulla Avloniyning pedagogik merosida to‘g‘ri so‘zlash, rost gapirish haqidagi she’r va hikoyalar anchagina bo‘lib, “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi “Haqqoniyat”, “Kizb” boblari, bolalarga atab yozilgan “Yolg‘onchi cho‘pon” she’ri bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Abdulla Avloniy haqqoniyatga, to‘g‘ri so‘zlashga quyidagicha ta’rif beradi: “Haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikni aytilur. Inson bo‘stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo‘li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o‘lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdur”[5.B.870].

Xalq og‘zaki ijodi badiiy-pedagogik asarlarga muhim ta’sir ko‘rsata olishini biz bir qator pedagoglarning ta’limiy-axloqiy asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, Abdulla Avloniyning pedagogik merosi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Xalq og‘zaki ijodi ta’sirida Avloniy bir qator she’rlar yozgan. Ulardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini rostgo‘ylik ruhida tarbiyalashda foydalanish mumkin. “Yolg‘onchi cho‘pon” she’ri shular jumlasidandir. Sabr, qanoatlilikni tarbiyalash. Abdulla Avloniyning pedagogik merosida sabr, qanoat haqidagi hikoya va she’rlar ko‘plab uchraydi. Ayniqsa, “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi “Sabr” bobi, “Birinchi muallim” darsligidagi “Taqsim”, “Ochko‘zlik”, “Arslon ila Ayiq” kabi hikoyalar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Avloniy sabrga ta’rif berib, shunday yozadi: “Sabr deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo‘lmakni aytilur. Har bir ishda sabr va sovuqqonlik ila harakat qilmak lozimdur”. Avloniyning xalqni ilm-u ma’rifatga da’vat qiluvchi ilmli, bilimli bo‘lishga chaqiruvchi she’r va hikoyalari axloqiy tarbiyaning muhim vositasidir. “Turkiy guliston yoxud axloq” darsligidagi “Ilm”, “Aqsomi ilm”, “Fatonat”, “Hifzi lison”, “Jaholat”, “Haqqoniyat” boblarida bu masalaga batafsil to‘xtalib o‘tadi [7.B.45]. Avloniyning fikricha, ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Millat kelajagi, taraqqiysi yoshlarning ilm va ma’rifatga, hunar va san’atiga bog‘liqdir. Dunyoning turkiy xalqlar jadid adabiyotini o‘rganayotgan yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari bobolarimiz merosi tadqiqiga alohida e’tibor bilan yondashayotgani fikrimiz dalilidir [3.B.167].

Xulosa. “Himmat shunday bir olijanob fazilatdurki, insoniyatning koni, yaxshi xulq sohiblari karim sifatlik, rahm tabiatlik bo‘lur. O‘z jinsining avlodidan har vaqt yordamini ayamas. Xayr-u saxovatlik ishlardan o‘zini tortmas. Pul va molini millat yo‘lida sarf etmakdan qizg‘anmas, olihimmat kishi soyasi latif, mevasi laziz daraxt kabidurki, bu soyaga yaqin bo‘lgan kishilar har vaqt foydalanurlar”. Saxiylikning qarama-qarshisi baxillikdir. Abdulla Avloniy “Ikkinchi muallim” asarida “Baxillik” hikoyasini keltirib, baxil kishining hech qachon bog‘i ko‘karmasligini ta’kidlaydi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Abdulla Avloniyning pedagogik asarlari vositasida talabalarni axloqiy tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamroyev Sh.E. Boshlang‘ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish. Monografiya. 2021. Qarshi: Fan va ta’lim, – B. 216.
2. Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li. Adibi soniy. – Toshkent: G‘ulom Hasan Orifjonov litografiyasi. 1912.– B. 48.
3. Ochilova D. Yangi O‘zbekiston ilm-fan taraqqiyotida ijodiy ziyolilarning zamonaviy ilmiy yondashuvlari//Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida taqdqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. Respublika konferensiya. – T.,2024.–B.167.
4. Орипова Н.Х., Мухаммадиева А. Способы обучения креативности детей дошкольного возраста. Science and world, 2013. 50.
5. Орипова Н., Нарзиева Л. Социально-исторические и педагогические проблемы овладения профессией. // Экономика и социум, (12-1), 868–871.
6. Орипова Н.Х., Ражабова Х.Х. Исторические источники воспитания преданности Родине. // Молодой ученый. 2015. (6), - С. 666–668.
7. Орипова Н.Х., Собирова Н.З. Смысл и сущность понятия убеждения. Science and world, 2013. 45.
8. Орипова Н.Х., Туропова М.С. (2021). Основные виды занятий для детей дошкольного возраста. Экономика и социум, (1-2), 291–294.
9. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T.: Ma’naviyat, 2004. – B. 464.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 1:32(075).8

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY MOBILLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT DASTURLARI

Sharipov Abduhakim Ziyovitdinovich, professor,
Buxoro davlat pedagogika instituti

STATE PROGRAMS AIMED AT INCREASING SOCIAL MOBILITY IN UZBEKISTAN

Sharipov Abdukhakim Ziyovitdinovich, Professor,
Bukhara State Pedagogical Institute

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ПРОГРАММЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Шарипов Абдухаким Зийовитдинович, профессор,
Бухарский государственный педагогический институт



e-mail:
abdahakim-83@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-4947-6784

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy mobillikni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari va islohotlar tahlil qilinadi. Unda ta’lim, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish hamda aholining ijtimoiy himoyasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy sheriklik, tarmoqlararo hamkorlik va institutsional mexanizmlarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarga teng kirishni ta’minlashdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, davlatning kompleks yondashuvi barqaror ijtimoiy mobillikni ta’minlash va inson kapitalini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy mobillik, davlat dasturlari, ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy siyosat, inson kapitali, O‘zbekiston.*

Abstract: *The article examines state programs and reforms aimed at enhancing social mobility in the Republic of Uzbekistan. It analyzes key areas of public policy, including education, employment, poverty reduction, and social protection. Special attention is paid to the role of social partnership, intersectoral cooperation, and institutional mechanisms in ensuring equal access to socio-economic opportunities. Based on the analysis of current reforms, the study emphasizes the importance of an integrated state approach in promoting sustainable social mobility and human capital development.*

Key words*: social mobility, state programs, social partnership, social policy, human capital, Uzbekistan.*

Аннотация: *В статье анализируются государственные программы и реформы, направленные на повышение социальной мобилности в Республике Узбекистан. Рассматриваются ключевые направления государственной политики в сфере образования, занятости, сокращения бедности и социалной защиты населения. Особое внимание уделяется роли социального партнёрства, межсекторального взаимодействия и институциональных механизмов в обеспечении равного доступа к социально-экономическим возможностям. На основе анализа современных реформ делается вывод о значении комплексного подхода государства в формировании устойчивой социальной мобильности и развитии человеческого капитала.*

Ключевые слова: *социалная мобилность, государственные программы, социальное партнёрство, социальная политика, человеческий капитал, Узбекистан.*

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida ijtimoiy mobillik jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy mobillik aholining turli qatlamlari uchun ta’lim, mehnat, daromad va ijtimoiy maqom jihatidan teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash orqali inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ijtimoiy mobillikni oshirish masalasi zamonaviy davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, bandlikni ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan davlat dasturlari ijtimoiy mobillikni oshirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy mobillikni oshirishga qaratilgan asosiy davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularning jamiyatdagi ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanishga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor o‘rtasidagi ijtimoiy sheriklikning ijtimoiy mobillikni ta’minlashdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.Ijtimoiy mobillik jamiyat a’zolarining ijtimoiy maqomi, iqtisodiy holati va kasbiy faoliyatida yuz beradigan o‘zgarishlarni ifodalovchi muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. U vertikal va gorizontal shakllarda namoyon bo‘lib, shaxs yoki ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy ierarxiyada yuqori yoki past pog‘onalarga ko‘chish imkoniyatlarini belgilaydi. Ijtimoiy mobillik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, jamiyatda ijtimoiy adolat, iqtisodiy samaradorlik va barqarorlik shunchalik mustahkam bo‘ladi [2].

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy mobillikni ta’minlash davlatning faol ishtirokini, samarali ijtimoiy siyosatni va turli ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni talab etadi. Ayniqsa, ta’lim, mehnat bozori va ijtimoiy himoya tizimlarining o‘zaro uyg‘unligi ijtimoiy mobillikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy mobillikni oshirishga qaratilgan davlat siyosati kompleks xarakterga ega bo‘lib, bir qator ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha aholi qatlamlari uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta’lim qamrovining oshirilishi, oliy ta’lim muassasalari sonining ko‘payishi va ta’lim grantlari miqdorining kengaytirilishi ijtimoiy mobillikning muhim institutsional asosini tashkil etadi.

Bandlik va mehnat munosabatlari sohasida aholini doimiy ish bilan ta’minlash, kasb-hunarga o‘qitish va qayta tayyorlash dasturlari amalga oshirilmoqda. “Har bir oila — tadbirkor”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” kabi ijtimoiy dasturlar aholining iqtisodiy faolligini oshirish va daromad manbalarini kengaytirish orqali ijtimoiy mobillikni rag‘batlantirmoqda.

Ijtimoiy mobillikni oshirishda kambag‘allikni qisqartirish siyosati alohida o‘rin tutadi. O‘zbekistonda kambag‘al aholi qatlamlarini manzilli qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Nafaqa va ijtimoiy nafaqalarni isloh qilish, kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda ularni mehnat bozoriga integratsiya qilish choralari ijtimoiy mobillik uchun zarur sharoitlarni yaratmoqda.

Shuningdek, hududiy rivojlanish dasturlari orqali infratuzilmani yaxshilash, qishloq joylarda yangi ish o‘rinlarini yaratish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash aholi daromadlarining o‘sishiga va ijtimoiy maqomning o‘zgarishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy mobillikni ta’minlashda davlatning yakka o‘zi faoliyat yuritishi yetarli emas. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va xususiy sektor bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari ta’lim, sog‘liqni saqlash va uy-joy bilan ta’minlash sohalarida ijtimoiy mobillikni qo‘llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda [3].

Shu bilan birga, mahalla institutining roli kuchayib, aholining ijtimoiy muammolarini joyida hal etish, ehtiyojmand qatlamlarni aniqlash va ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiy mobillikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Amaliy taklif va tavsiyalar

Ta’lim orqali ijtimoiy mobillikni kuchaytirish

Ijtimoiy mobillikni oshirishda ta’lim hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun maqsadli grantlar, stipendiyalar va ta’lim kreditlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, kasb-hunar ta’limi bilan oliy ta’lim o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlash ijtimoiy mobillikni rag‘batlantiradi.

Mehnat bozoriga mos kasbiy tayyorlash tizimini rivojlantirish

Davlat dasturlari doirasida aholini mehnat bozori talablariga mos kasblarga o‘qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini kuchaytirish zarur. Ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun qisqa muddatli, amaliy yo‘naltirilgan o‘quv kurslarini tashkil etish ijtimoiy mobillikni ta’minlashda samarali bo‘ladi.

Hududiy tengsizliklarni qisqartirish

Qishloq va chekka hududlarda ijtimoiy mobillik darajasi past bo‘lishini inobatga olib, hududiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirish lozim. Infratuzilmani yaxshilash, raqamli xizmatlarga kirishni kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish aholining iqtisodiy faolligini oshiradi [4].

Ijtimoiy himoya tizimining manzilliligini kuchaytirish

Kambag‘al aholi qatlamlariga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yordamni aniq ma’lumotlar bazasi asosida manzilli tashkil etish ijtimoiy mobillikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy nafaqalar bilan bir qatorda, bandlikka yo‘naltirilgan yordam choralarini kengaytirish muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy sheriklik va davlat-xususiy hamkorlikni rivojlantirish

Davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash ijtimoiy mobillikni oshirishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

Mahalla institutining rolini kuchaytirish

Mahalla tizimini aholining ijtimoiy muammolarini aniqlash va hal etishda faol ishtirok ettirish zarur.

Monitoring va baholash tizimini takomillashtirish

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari ijtimoiy mobillikni oshirishga qaratilgan kompleks va tizimli xarakterga ega. Ta’lim tizimini rivojlantirish, bandlikni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar aholining turli qatlamlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda [5].

Shuningdek, ijtimoiy sheriklik, davlat-xususiy hamkorlik va fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuvi ijtimoiy mobillikni ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda [6]. Ayniqsa, mahalla institutining kuchayishi va manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarining joriy etilishi aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda samarali natijalar bermoqda.

Ijtimoiy mobillikni oshirish nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va adolatni mustahkamlaydi. Shu bois, ushbu yo‘nalishdagi davlat siyosatini izchil davom ettirish, monitoring va baholash tizimlarini kuchaytirish hamda barcha manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sharipov A. Z. Social stratification processes and social cooperation during globalization //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. №. 4. – C. 240-247.
2. Шарипов А., Мухаммадиева Г. И. Some theoretical aspects moral and legal education of school children // Ученые записки Худжандского государственного университета им.академика Б.Гафурова. Гуманитарные науки. – 2019. – №. 3 (60). – С. 141-144.
3. Sharipov A. A social and philosophical analysis of gender potential: social and philosophical analysis of gender potential //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
4. Turaeva R. Gender and changing women’s roles in Uzbekistan: From Soviet workers to post-Soviet entrepreneurs //Constructing the Uzbek state: Narratives of post-Soviet years. – 2017. – С. 303-319.
5. Sharipov A. A social and philosophical analysis of gender potential: social and philosophical analysis of gender potential //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali.2022. – T. 2.№. 2.
6. Cytlak I., Mamadaminova N. Empowering women, empowering nations: women’s entrepreneurship in Uzbekistan //Rocznik Pedagogiczny. – 2024. – T. 46. – С. 117-135.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 902:339.1:104

O‘ZBEKISTON-AFG‘ONISTON ALOQALARI TARIXI: O‘ZARO ISHONCH VA MANFAATLAR UYG‘UNLIGI

Aripov Dilshod Ne’matovich,
Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti o‘qituvchisi

HISTORY OF UZBEKISTAN-AFGHANISTAN RELATIONS: MUTUAL TRUST AND HARMONIZATION OF INTERESTS

Aripov Dilshod Ne’matovich,
Lecturer, Faculty of History, Termez State University

ИСТОРИЯ УЗБЕКИСТАНО-АФГАНСКИХ ОТНОШЕНИЙ: ВЗАИМНОЕ ДОВЕРИЕ И СООТВЕТСТВИЕ ИНТЕРЕСОВ

Арипов Дилшод Нематович,
преподаватель исторического факультета
Термезского государственного университета



e-mail: dilshod.aripov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-2463-7228

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi tarixiy va zamonaviy siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy e’tibori ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, strategik manfaatlar va mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Maqolada diplomatik munosabatlarning rivojlanishi, savdo-iqtisodiy hamkorlik, chegara hududlarida xavfsizlik va qo‘shma loyihalar misolida amaliy hamkorlik masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zaro ishonch va manfaatlar uyg‘unligi O‘zbekiston-Afg‘oniston aloqalarining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston-Afg‘oniston aloqalari, o‘zaro ishonch, strategik manfaatlar, mintaqaviy barqarorlik, diplomatik hamkorlik, iqtisodiy hamkorlik.*

Abstract: *The article examines the historical and contemporary political, economic, and cultural relations between Uzbekistan and Afghanistan. The study focuses on mutual trust, strategic interests, and strengthening regional stability. The development of diplomatic relations, trade and economic cooperation, security in border areas, and joint projects are analyzed as examples of practical collaboration. The findings indicate that mutual trust and harmonization of interests are crucial factors ensuring the long-term stability of Uzbekistan-Afghanistan relations.*

Key words: *Uzbekistan–Afghanistan relations, mutual trust, strategic interests, regional stability, diplomatic cooperation, economic cooperation.*

Аннотация: *В статье анализируются исторические и современные политические, экономические и культурные отношения между Узбекистаном и Афганистаном. Основное внимание уделено взаимному доверию, стратегическим интересам и укреплению региональной стабильности. Рассматриваются развитие дипломатических отношений, торгово-экономическое сотрудничество, вопросы безопасности на приграничных территориях и совместные проекты в качестве примеров практического взаимодействия. Результаты исследования показывают, что*

взаимное доверие и гармония интересов являются ключевым фактором долгосрочной устойчивости узбекско-афганских отношений.

Ключевые слова: *узбекско-афганские отношения, взаимное доверие, стратегические интересы, региональная стабильность, дипломатическое сотрудничество, экономическое сотрудничество.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat geografik yaqinligi, balki tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari tufayli ham juda muhim ahamiyatga ega. Mintaqaviy barqarorlik, xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanish masalalari har doim ikki mamlakatning strategik manfaatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Shuning uchun O‘zbekiston-Afg‘oniston munosabatlari nafaqat ikki tomonlama diplomatik aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida, balki mintaqaviy integratsiya va o‘zaro ishonch tizimini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ham muhimdir. So‘nggi yillarda ikki mamlakat o‘rtasida transport va logistika, energetika va ta’lim sohalarida savdo-iqtisodiy hamkorlik sezilarli darajada o‘sdi. Chegara hududlarida xavfsizlik va tinchlikni ta’minlash hamda qo‘shma loyihalar orqali amaliy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Ushbu jarayonlar ikki tomonlama ishonch va strategik manfaatlarni uyg‘unlashtirish orqali mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi tarixiy va zamonaviy munosabatlarni tahlil qilish va ularni o‘zaro ishonch va uyg‘un manfaatlar kontekstida rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlashdir. Tadqiqot natijalari ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik, iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorlikni yaxshiroq tushunish, shuningdek, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadigan strategik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, maqolada O‘zbekiston-Afg‘oniston munosabatlarining tarixiy ildizlari, turli davrlarda yuzaga kelgan siyosiy va ijtimoiy sharoitlar va zamonaviy aloqa mexanizmlari o‘rganiladi. Bu esa tadqiqotni nafaqat tarixiy nuqtai nazardan, balki zamonaviy mintaqaviy rivojlanish nuqtai nazaridan ham dolzarb qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan umumiy chegarasi 137 kilometrdir. O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan aloqalar tarixiga nazar solinsa, bu aloqalar o‘tmishda ikki davlat bir butun hudud hisoblangan davrlarga borib taqaladi. 1991-yilda Sovet Ittifoqi qulagach, O‘zbekiston mustaqillikka erishdi. Shu paytdan so‘ng, Afg‘oniston mustaqil O‘zbekistonni birinchi tan olgan mamlakatlardan biri bo‘ldi va bir yil o‘tib, Burhonuddin Raboniy prezidentligi davrida Afg‘onistonning O‘zbekistondagi elchixonasi rasmiy ravishda ochildi [1].

2001-yildan keyingi davrda O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasida iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirish maqsadida bir qator shartnomalar imzolandi. Ushbu shartnomalarga binoan O‘zbekiston tranzit, energetika, yo‘l qurilishi, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda Afg‘onistonga katta yordam berdi.

Katta loyihalardan biri O‘zbekiston elektr tarmog‘ini Kobulga ulash va Afg‘onistondagi birinchi temir yo‘lni qurish bo‘ldi. Ushbu temir yo‘l Termiz shahridan Mozori-Sharif va Hayraton portigacha yetib boradi. 2000-yillardan keyin Afg‘oniston O‘zbekistondan boshqa qo‘shni davlatlarga nisbatan eng ko‘p elektr energiyasini import qilgan [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Afg‘oniston va O‘zbekiston qo‘shni mamlakat bo‘lish bilan birga, diniy, madaniy, etnik va tarixiy jihatdan o‘xshashliklarga ega. Ikkala mamlakat ham umumiy manfaatlarga ega va shu asosda yaqin aloqalarga muhtoj. O‘zbekiston-Afg‘oniston aloqalarini yaxshilashda Afg‘oniston Milliy Ittifoq hukumatining tashkil topishi muhim rol o‘ynadi. Shu davrda O‘zbekiston Afg‘oniston prezidenti Ashraf G‘ani uchun tashqi siyosatda muhim mamlakatlardan biri bo‘ldi. Bu davrda iqtisodiy, tranzit va boshqa sohalarda ikki davlat aloqalarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, Milliy Ittifoq hukumatining O‘zbekiston bilan elektr energiyasini 10% ko‘paytirish, bug‘doy sotib olish, tranzit va savdoni kengaytirish kabi sohalarda shartnomalar imzolashi Afg‘onistonga boshqa davlatlar orqali tovarlar va

importni yetkazishdagi cheklovlardan qisman xalos bo‘lish imkonini berdi [3].

Afg‘oniston quruqlik bilan o‘ralgan davlat sifatida, savdo yo‘llari va qo‘shni davlatlar bilan transport aloqalariga muhtoj. Hozirgi kunda ikki davlatning yillik savdo hajmi oshib borayotgan bo‘lsa-da, aloqalarni rivojlantirish va hamkorlikni mustahkamlash orqali ikki tomonlama savdo sezilarli darajada oshishi mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekiston ham quruqlik bilan o‘ralgan va Afg‘oniston unga dengizga chiqish imkonini beruvchi eshik hisoblanadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston prezidenti sifatida tashqi siyosatda ahil qo‘shnichilik tamoyillarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratmoqda. Bu holat Afg‘oniston bilan o‘zaro munosabatlarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yurtboshimiz mintaqa davlatlari, xususan Afg‘oniston bilan aloqalarni yaxshilashni maqsad qilgan, bu esa ikki davlat aloqalarini kengaytirish imkoniyatini yaratadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). 2021-yilda O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilovning Kobulga safari davomida ikki mamlakat turli sohalarda beshta hamkorlik shartnomasini imzoladi. Bu shartnomalar giyohvand moddalarga qarshi kurash, tashqi ishlar vazirliklari hamkorligi, transport infratuzilmasini rivojlantirish, qo‘shma xavfsizlik komissiyasi va harakat rejalarini o‘z ichiga oladi.

Afg‘oniston-O‘zbekiston savdo-sotiq munosabatlarini rivojlantirish maqsadida Kobulda “Afg‘oniston–O‘zbekiston Savdo uyi” ochildi, shuningdek tez yordam mashinalari, dori-darmon, elektr va qurilish buyumlarini sotib olish bo‘yicha shartnomalar imzolandi. Ushbu shartnomalar Toshkent-Kobul aloqalarida yangi bob ochib, iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Zero, Afg‘oniston O‘zbekiston uchun Janubiy Osiyoga chiqish imkonini beruvchi ko‘prik hisoblanadi [4].

E’tibor beradigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda Afg‘oniston va O‘zbekiston savdo va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida ko‘plab loyihalar va kelishuvlarga imzo chekdi. Shu jumladan, Termizda xalqaro savdo markazi tashkil etildi.

Afg‘oniston va O‘zbekiston munosabatlari, qo‘shnichilik, umumiy tarix va mintaqaviy manfaatlar nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi asosiy kuchlardan biri sifatida Sovet Ittifoqi qulashidan keyin Afg‘oniston bilan neytral va do‘stona siyosat yuritdi va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga e’tibor qaratdi [5].

Siyosiy maydonda O‘zbekiston Afg‘oniston ichki ishlariga aralashmasdan, diplomatik va do‘stona munosabatlarni saqlaydi va iqtisodiy diplomatiya orqali mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga intiladi. Ko‘plab uchrashuvlar va muhim kelishuvlar tomonlarning munosabatlarni mustahkamlashga jiddiy intilishidan dalolat beradi. Afg‘on-Trans-O‘zbek temir yo‘li, qo‘shma savdo bozorlari va ko‘rgazmalar loyihalari ikki davlatning yanada yaqinlashishini ko‘rsatadi [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Umuman olganda, XXI asrda O‘zbekiston va Afg‘oniston munosabatlari siyosiy, xavfsizlik va iqtisodiy sohalarda yanada chuqurlashmoqda va bu hamkorlik boshqa mintaqa davlatlari uchun ham model bo‘la oladi. O‘zbekiston muvozanatli siyosat yuritib, umumiy manfaatlarni saqlash va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda va Markaziy Osiyoning barqarorligi va rivojlanishida muhim rol o‘ynashga harakat qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Arnold, A. Afghanistan: The Soviet Invasion in Perspective. – Stanford: Hoover Institution Press, 1981. – 123 p.
2. Barfield, T. Afghanistan: a Cultural and Political History. – New Jersey: Princeton University Press, 2010. – 389 p.
3. Misdaq N. Afghanistan: Political Frailty and External Interference. – London and New York: Routledge. 2006. – 351 p.
4. Rashidov R. Afg‘onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2017.
5. Бобокулов И.И. Афганская трансформация: приоритеты и ключевые проблемы / Центральная Азия и Кавказ, Том 16, Выпуск 2, 2013.
6. Рашид А. Талибан. Ислам, нефть и новая Большая игра в Центральной Азии. – М., 2003.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 392.181.151.9

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA GEOMETRIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Mannonova Dilafro‘z Ravshan qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich magistranti



e-mail: mannonova dilafro‘z@gmail. com

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ В РАЗВИТИИ ГЕОМЕТРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬ Ы КЛАССОВ

Маннонова Дилафруз Равшановна,
Шахрисабзский государственный педагогический институт направление «Начальное образование»
магистрант 2-курса

DIDACTIC OPPORTUNITIES OF USING HISTORICAL MATERIALS IN DEVELOPING GEOMETRIC THINKING OF PRIMARY SCHOOL PUPILS

Mannonova Dilafruz Ravshan qizi,
Shahrisabz State Pedagogical Institute Primary Education
Second-year Master’s Student

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida geometrik tafakkurni rivojlantirishda tarixiy materiallardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida geometriya elementlarini o‘qitish o‘quvchilarda fazoviy tasavvur, mantiqiy fikrlash, tahlil va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*
Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, geometrik tafakkur, geometriya elementlari, tarixiy materiallar, didaktik imkoniyatlar, matematika o‘qitish metodikasi, fazoviy tasavvur.*
Аннотация: *В статье рассматриваются дидактические возможности использования исторических материалов в развитии геометрического мышления учащихся начальных классов. В процессе начального обучения элементы геометрии играют важную роль в формировании пространственного воображения, логического мышления, навыков анализа и обобщения у обучающихся.*
Ключевые слова: *начальное образование, геометрическое мышление, элементы геометрии, исторические материалы, дидактические возможности, методика преподавания математики, пространственное воображение.*
Annotation: *The article analyzes the didactic potential of using historical materials in the development of geometric thinking among primary school students. In primary education, teaching geometry elements plays a significant role in developing spatial imagination, logical thinking, and analytical skills of learners.*

Key words: *primary education, geometric thinking, geometry elements, historical materials, didactic potential, mathematics teaching methodology, spatial imagination.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang’ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy va geometrik tafakkurini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, matematika fanida geometriya elementlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda fazoviy tasavvur, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalari shakllanadi. Ushbu ko‘nikmalar keyingi bosqichlarda matematik bilimlarni chuqur o‘zlashtirish hamda amaliy faoliyatda qo‘llash uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida geometrik tushunchalarni samarali o‘zlashtirishda o‘qitish mazmuni bilan bir qatorda, ta’lim metodlari va vositalarini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, tarixiy materiallardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni ongli va tizimli egallashiga, fanlarning rivojlanish bosqichlari haqida tasavvur hosil qilishiga hamda ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Geometriya fanining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutgan olimlar faoliyati, geometrik shakllar va o‘lchash usullarining kelib chiqishi haqidagi tarixiy ma’lumotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi

Tarixiy materiallar orqali o‘quvchilar matematikaning rivojlanish bosqichlari bilan tanishadilar. Masalan, qadimgi Misr, Bobil, Yunoniston va O‘rta asr Sharq olimlarining ilmiy ishlari nafaqat geometriyaning rivojlanishiga, balki butun fan va texnologiyaning taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida geometrik tafakkurni rivojlantirishda tarixiy materiallardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini ilmiy asoslash hamda ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tarixiy yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik yechimlar va amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Nazariy tadqiqot bosqichida pedagogika, psixologiya va matematika o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Ushbu tahlil asosida geometrik tafakkur tushunchasining mazmuni aniqlashtirildi va tarixiy materiallardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari belgilab olindi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning geometrik tafakkuri rivojlanish darajasini aniqlash uchun maxsus mezonlar va ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi. Olingan ma’lumotlar tahlil va taqqoslash usullari orqali qayta ishlanib, tajriba natijalarining ishonchliligi ta’minlandi. Shuningdek, tadqiqot natijalarini umumlashtirish va xulosalar chiqarishda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.
Mazkur metodlar majmuasi tarixiy materiallardan foydalanishning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida geometrik tafakkurni rivojlantirishga ta’sirini aniqlash hamda tadqiqot maqsadiga erishishni ta’minlashga xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlari boshida o‘tkazilgan diagnostik tekshiruvlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba va nazorat guruhlari o‘quvchilarining geometrik tafakkur darajasi deyarli bir xil bo‘lib, ularning aksariyatida fazoviy tasavvur va geometrik tushunchalarni qo‘llash ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan edi. O‘quvchilarning geometrik tafakkuri rivojlanish darajasi past, o‘rta va yuqori ko‘rsatkichlar asosida baholandi.

Tajriba guruhida tarixiy materiallar asosida tashkil etilgan darslar natijasida o‘quvchilarning geometrik tafakkur darajasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, geometrik shakllarni farqlash, ularning xossalarini aniqlash, o‘lchash va taqqoslashga oid topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarning mustaqilligi va aniqligi oshdi. O‘quvchilar tarixiy ma’lumotlarga asoslangan topshiriqlar orqali geometrik tushunchalarning mazmunini chuqurroq anglay boshladilar.

Tadqiqot yakunida o‘tkazilgan nazorat tekshiruvlari natijalari tajriba guruhida yuqori darajadagi geometrik tafakkurga ega o‘quvchilar ulushi sezilarli darajada ortganligini ko‘rsatdi, past darajadagi ko‘rsatkichlar esa kamaydi. Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar nisbatan sust bo‘lib, asosan an’anaviy o‘qitish usullari doirasida cheklanganligi aniqlandi.
Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, tarixiy materiallardan foydalanish o‘quvchilarning:
-fazoviy tasavvurini rivojlantiradi;
-geometrik tushunchalarni ongli o‘zlashtirishiga yordam beradi;

-mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi;

-fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Shuningdek, tajriba davomida o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, savol-javoblarda ishtiroki va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarida ijobiy o‘sish kuzatildi. Tarixiy materiallarga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytirib, dars samaradorligini oshirdi.

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida geometrik tafakkurni rivojlantirishda tarixiy materiallardan foydalanish yuqori didaktik samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov jarayonida olingan ijobiy o‘zgarishlar tarixiy yondashuvning geometriya elementlarini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilinishi o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim cheklovlar ham aniqlandi. Jumladan, tarixiy materiallarni tanlash va ularni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirish o‘qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Tarixiy ma’lumotlarning haddan tashqari ko‘pligi dars mazmunini murakkablashtirishi mumkinligi sababli, ularni maqsadga muvofiq va tizimli ravishda qo‘llash zarur. Umuman olganda, tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda geometriya elementlarini o‘qitishda tarixiy materiallardan foydalanish metodikasini takomillashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning geometrik tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2021.
3. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Mannonova, D. (2025). TARIXIY VA ILMIY MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI. B YANGI O‘ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI (T. 3, Выпуск 3, cc. 10–14). Zenodo.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 902:339.1:104

QASHQADARYODA AYOLLAR HARAKATI VA IJTIMOIY FAOLLIGINING TARIXIY DINAMIKASI

Tolibova Moxigul Xolmurod qizi, Shahrisabz pedagogika instituti "Tarix" kafedrasi Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) yo'nalishi I kurs magistranti



e-mail: Mohigulbakirov a@gmail.com

HISTORICAL DYNAMICS OF WOMEN'S MOVEMENT AND SOCIAL ACTIVITY IN KASHKADARYA

Tolibova Mokhigul Kholmurod qizi, Shahrisabz Pedagogical Institute, Department of History, Methodology of Teaching Social and Humanities (History), 1st year master's student

ИСТОРИЧЕСКАЯ ДИНАМИКА ЖЕНСКОГО ДВИЖЕНИЯ И СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ В КАШКАДАРЬЕ

Толибова Мохигуль Холмурод кызы, Шахрисабзский педагогический институт, кафедра Истории, методика преподавания социальных и гуманитарных наук (история), студентка 1-го курса магистратуры

Annotatsiya: *O'zbekistonda mustaqillikka erishganidan so'ng, ijtimoiy-siyosiy hayotda ayollarning faolligini oshirishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatida bu jarayon o'ziga xos yo'l bilan olib borildi. Ushbu maqolada mamlakatimizda, xususan Qashqadaryoda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini namayon etishi, huquqiy manfaatlarini himoya qilinishi haqida ba'zi mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *xotin-qizlar, ma'naviyat, iqtisodiyot, ayollar bandligi, Qashqardayo xotin – qizlari, yengil sanoat, huquqiy himoya, oila, onalik.*

Abstract: *After gaining independence in Uzbekistan, fundamental reforms were implemented aimed at increasing the activity of women in socio-political life. This process was carried out in a unique way, especially in the Kashkadarya region. This article provides some thoughts on increasing the socio-political activity of women in our country, particularly in Kashkadarya, their ability to demonstrate their abilities and potential in various fields and sectors, and the protection of their legal interests.*

Key words: *women, spirituality, economy, women's employment, Kashkadarya women, light industry, legal protection, family, motherhood.*

Аннотация: *После обретения независимости Узбекистаном были проведены фундаментальные реформы, направленные на повышение активности женщин в общественно-политической жизни. Этот процесс осуществлялся уникальным образом, особенно в Кашкадарьинской области.*

В данной статье представлены некоторые соображения по повышению социально-политической активности женщин в нашей стране, в частности в Кашкадарье, по вопросу их способности демонстрировать свои навыки и потенциал в различных областях и секторах, а также по вопросу защиты их законных интересов.

Ключевые слова: *женщины, духовность, экономика, женская занятость, женщины Кашкадарьи, легкая промышленность, правовая защита, семья, материнство.*

Kirish. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquqiy va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo‘lmog‘i shart” [3].

“Ijtimoiy faollik” deganda insonlar qaysi kasbning egasi bo‘lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat’yi nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo‘shishi darjasi, zamondan ortda qolmaslikka bo‘lgan harakatini tushunish kerak. Inson ijtimoiy-tarixiy tajribaga, jamiyatda ishi, izlanishi bilan o‘z o‘rniga ega bo‘lsa, tarixiy jarayonning faol shaxsiga aylanadi. Insonlarda insonparvarlik, ma’rifatparvarlik, vatanparvarlik munosabatlarning shakllanib borishi uni jamiyatning ijtimoiy faol a’zosiga aylantirib qo‘yadi. “Faollik” tushunchasi – “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko‘rsatish, ishchanlik, ta’sirchanlik[1] sifatida ta’riflanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda jamiyatda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida olib borilgan oqilona davlat siyosati davlat xizmatlarida faoliyat olib borilayotgan ayollar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa davlat va jamiyat boshqaruv tizimida ayollar salmog‘ini oshishiga xizmat qiladi. Xususan, mamlakatimizda Oliy Majlis Senati a’zolarining 17 foizi, Qonunchilik palatasi deputatlarining 16 foizi xotin-qizlardan iborat. Bundan tashqari, so‘nggi yillar davomida ijro hokimiyati idoralarida ham ayollarning faoliyat yuritish ko‘rsatkichlari 5 barobarga oshdi, ya’ni 3,4 foizdan 16 foizga yetdi. Ayollar “qanoti” tuzilgani bois mamlakatdagi siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning soni ham oshdi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta’minlovchi 22 ta qonun va 30 dan ziyod me’yoriy hujjatlarning e’lon qilinganligi mazkur soha davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning sa’y harakati bilan 2018-yil 2-fevraldagi PF-53-25-son “Xotin qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni aynan gender tenglik siyosatini shakllantirgan holda ijrosi bilan bog‘liq masalalarga aniqlik kiritdi[3]. 2019 yil 7-martdagi PQ-4235-son “Xotin-qizlarning mehnat huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham xotin-qizlarga oid davlat siyosatida muhim qadam bo‘lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohalardagi ishtiroki masalalari ijtimoiy soha vakillari tomonidan o‘rganildi. Xususan, D.Alimova, D.Bobojonova, Ya.Abdullayeva, M. Xolmatova, N.Muravyova, Yu.Ergasheva, T. G‘afforova, Sh.Ashurova va boshqa mualliflarning ishlarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy sohalardagi faoliyati chuqur talqin etildi. Ayollar ijtimoiy faolligining demokratik jarayonlar va jamiyat ma’naviy madaniy hayotini o‘zgartirishga, yangilashga qaratilgan jihatlari A.E.Abdusamedov, F.Abdurahmonov, O‘.M.Abilov, B.Aliyev, S.Atamuratov, E.X.Bobomurodov, I.Karimov, T.Mahmudov, Q.Nazarov, I.Saifnazarov, A.Qodirov, A.Huseynovaning ilmiy tadqiqotlarida u yoki bu yo‘nalishda tahlil qilindi. O.Bo‘riyev, M.Vohidov, L.Munavvarova, O.Musurmanova, M.Mamatov, K.Nasriddinov, M.Sangilov, U.Toshtemirov, I.Shoymardonov, M.Xolmatova, M.O‘zbekov kabi mamlakatimiz olimlari oila, uning madaniyati, ijtimoiy muammolari masalasiga to‘xtalib, ularni ancha mufassal tadqiq etgan holda xotin-qizlarning oiladagi ijtimoiy faolligini o‘z ilmiy izlanishlarida asoslab berganlar. Mamatqulova (2021) tadqiqotida Qashqadaryo ayollari orasida ta’lim darajasining oshishi bilan siyosiy ishtiroki ham o‘sishi aniqlangan. Xuddi shuningdek, Xoliqov (2023) viloyatdagi xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini ko‘taruvchi dasturlar samaradorligini statistik jihatdan asoslab berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada aralash metodlar — sifatli (fokus-guruhlar) va miqdoriy (so‘rovnoma) yondashuvlarni o‘z ichiga olgan. Ularni uyg‘unlashtirish ayollar ijtimoiy faolligining sabab-natija mexanizmlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz

va sintez, kompleks yondashuv kabi usullariga tayanildi.

Natija va muhokama. Qashqadaryo viloyatida ham ijtimoiy-siyosiy hayotda ayollarning faolligini oshirishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirildi. Viloyat qadimiy madaniyat, ijtimoiy qatlamlar va iqtisodiy tarmoqlar uyg‘unlashgan hudud sifatida, ayollar faoliyatini har jihatdan shakllantirishda noyob tajribaga ega. Ayollar faolligi nafaqat iqtisodiy hayotda, balki ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash va jamoat boshqaruvida ham sezilarli darajada oshgan. Viloyatimizda 200 dan ortiq ayol turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 15% respondentlar o‘z jamoasida yetakchilik tajribasiga ega ekanini bildirgan. Intervyularda ayollar o‘z yetakchilik yo‘lini “ta’lim orqali o‘zgarish” deb atagan. Respondentlarning 46% ijtimoiy stereotiplarni asosiy to‘siq deb hisoblaydi. 32% esa moliyaviy resurslarga yetishmovchilikni eng katta muammo deb ko‘rsatgan. Qishloq joylarda ayollarning 61% oilaviy majburiyatlar tufayli jamoat ishlarida qatnasha olmayapti. Ayollar faolligining rivojlanish bosqichlari: 1991–2000-yillar: ijtimoiy faollikning boshlang‘ich bosqichi, ta’lim tizimining islohoti; 2000–2010-yillar: iqtisodiy mustaqillik va nodavlat tashkilotlarning kuchayishi; 2010–2020-yillar: ayollar yetakchilik dasturlarining joriy etilishi; 2020–2025-yillar: gender tenglik siyosatining institutsionallashuvi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim va iqtisodiy imkoniyatlar ayollar faolligining asosiy determinanti hisoblanadi.

Shuningdek, 2016–2024-yillarda Qashqadaryo viloyatida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ayollar bandligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi. Ushbu tarmoqlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, viloyatdagi ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni mustahkamladi. Kadrlar siyosati va mehnat resurslarini samarali boshqarish natijasida ayollar uchun yangi ish o‘rinlari yaratildi, bu esa mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qildi. Kelgusida yengil sanoat va ayollar bandligi masalalariga yanada ko‘proq e’tibor qaratish zarur [10, 33-b].

Xulosa. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. O‘nlab opa-singillarimiz “O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston fan arbobi”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston xalq artisti” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo‘lgan. Qashqadaryo ayollari ham ijtimoiy faollik va yetakchilik jabhalarida sezilarli o‘sishga erishdi. Bu jarayon ta’limning kuchayishi, iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi va davlat hamda jamoatchilik qo‘llab-quvvatlashining natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. J.4. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – B. 326.
2. Ўзбекистон республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари, 2019. // www.stat.uz
3. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi maslisidagi nutqi//Xalq so ‘zi. №127(7357) 22.06.2019.
4. Mamatqulov, B. (2025). Qashqadaryo viloyatida ayollar bandligi va yengil sanoat tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy roli. Ilmiykutubxona.uz.
5. Xoliqov, S.S. (2021). Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida demografik jarayonlarning tarixiy tahlili. CyberLeninka.
6. Namazov, S.E. (2023). Mustaqillik yillarida Qashqadaryo vohasida ijtimoiy soha taraqqiyoti. NewJournal.org.
7. Qashqadaryo viloyat hokimligi statistik byulletenlari (2010–2025).
8. Yu.Ergashova, G.Imomova. Qashqadaryo ilm yulduzlari. –Qarshi: “Intellekt naspriyot”, 2023. – Б.3.
9. M.Seyitnazarov. O‘zbekiston respublikasining ayollarga oid davlat siyosati va uning huquqiy asoslari-N.:2016 y
10. M.Aralova. Mamlakatimizda ayollarga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari. -S.:2014 y

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 81'373.7:81'42(075.8)

ADABIY STEREOTIP TUSHUNCHASI MATYOQUB QO‘SHJONOV TALQINIDA

Begimov O‘ktam Xaytbayevich, Ma’mun universiteti “O‘zbek va sharq tillari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

THE CONCEPT OF LITERARY STEREOTYPE IN MATYOQUB KOSHJANOV’S INTERPRETATION

Begimov Oktam Khaytbaevich, Senior teacher, Department of Uzbek and Oriental Languages, Mamun University

ПОНЯТИЕ ЛИТЕРАТУРНОГО СТЕРЕОТИПА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ МАТЯКУБА КУШЖАНОВА

Бегимов Октам Хайтбаевич, старший преподаватель кафедры узбекского и восточных языков Университета Маъмуна



e-mail: begimovuktam753@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-0764-4576

Annotatsiya: *Mazkur maqolada adabiy stereotip tushunchasining nazariy mohiyati hamda uning badiiy asar talqinida namoyon bo‘lish mexanizmlari akademik Matyoqub Qo‘shjonov qarashlari asosida tahlil qilinadi. Sovet davri tanqidida Qodiriy romanlariga nisbatan shakllangan mafkuraviy qoliplar va stereotiplar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *adabiy stereotip, stereotipik tafakkur, talqin, metodologik qolip, mafkura, sovet tanqidi, Matyoqub Qo‘shjonov, Abdulla Qodiriy, badiiy haqiqat, xalqchillik.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical essence of the concept of literary stereotype and its mechanisms in interpreting a literary text based on the views of academician Matyoqub Koshjanov. It reveals ideological patterns and stereotypical approaches formed in Soviet criticism toward Abdulla Qodiriy’s novels.*

Key words: *literary stereotype, stereotypical thinking, interpretation, methodological pattern, ideology, Soviet criticism, Matyoqub Koshjanov, Abdulla Qodiriy, artistic truth, national character.*

Аннотация: *В статье анализируется теоретическая сущность понятия литературного стереотипа и механизмы его проявления в интерпретации художественного текста на основе взглядов академика Матякуба Кушжанова. Раскрываются идеологические шаблоны и стереотипные оценки советской критики по отношению к романам Абдуллы Кадыри.*

Ключевые слова: *литературный стереотип, стереотипное мышление, интерпретация, методологический шаблон, идеология, советская критика, Матякуб Кушжанов, Абдулла Кадыри, художественная правда, народность.*

Kirish. Adabiyotshunoslikda badiiy asar talqini faqat matnni o‘qish yoki mazmunni bayon etish bilan cheklanmaydi; u muayyan metodologik tayanch, ilmiy mezonlar, tarixiy-adabiy kontekst va estetik qarashlar tizimini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, adabiy stereotip masalasi adabiy tanqid va talqin madaniyatining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki stereotipik yondashuv badiiy asarning murakkab tabiatini soddalashtiradi, matnning ichki poetik qonuniyatlarini “tayyor baho”lar bilan almashtiradi hamda ilmiy xulosaning obyektivligini zaiflashtiradi.

Stereotip (yunoncha stereos – qattiq, bir xil + typos – shakl, qolip) – bu jamiyatda yoki guruhda keng tarqalgan, odatda soddalashtirilgan va umumlashtirilgan tasavvur, fikr yoki qarashdir. Adabiy stereotip ko‘pincha “odatlangan fikr”, “takrorlanadigan hukm” ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Biroq u oddiy fikriy takror emas, balki adabiy hodisaga nisbatan shakllangan “qolip baholash” mexanizmidir. Ayniqsa, sovet davri tanqidida stereotiplar mafkuraviy nazorat vositasiga aylangan: badiiy asar estetik hodisa sifatida emas, siyosiy-ideologik mezonlar asosida baholangan.

Adabiy stereotipning belgilari:

a) takrorlanuvchanlik: bir davr adabiyotida doimiy uchrashi;

b) ideologik yuk: ko‘pincha siyosiy buyurtma mahsuli;

d) estetik konservatizm: ijodkorning an’anaviy tasvirga yopishib olishi;

e) o‘quvchi ongidagi barqaror obraz: stereotip obrazning ijtimoiy xotirada mustahkamlanishi.

Matyoqub Qo‘shjonov nazarida, aynan shu xususiyatlar adabiy stereotipni tanqidiy tahlil qilishni zarur qiladi. Munaqqid adabiy stereotiplarni bevosita “stereotip” deb atamagan bo‘lsa-da, u o‘z tahlillarida “buzilmas qolip”, “tayyor andoza”, “adabiy an’ana bosimi”, “mafkuraviy tasvir qolipi” kabi istilohlar bilan aynan shu hodisani yoritadi.

Akademik Matyoqub Qo‘shjonovning “Qodiriy – erksizlik qurboni”, “O‘zbekning o‘zligi” asarlari aynan shu stereotipik talqin tabiatini ochish, uning adabiy jarayonga ta’sirini ko‘rsatish va badiiy haqiqatni tiklash yo‘lida yaratilgan muhim ilmiy manbalardan biridir. Olim Qodiriy romanlariga nisbatan sovet tanqidida shakllangan baholarni tahlil qilib, ularning ko‘p hollarda ilmiy asosdan ko‘ra mafkuraviy qoliplarga tayanganini dalillar bilan ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi — Matyoqub Qo‘shjonov talqinida adabiy stereotip tushunchasining mazmunini ochish, uning tanqidiy baholashdagi ko‘rinishlarini aniqlash hamda stereotipni yengishning ilmiy tamoyillarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1) tarixiy-adabiy metod — stereotiplarning shakllanishini davr va mafkura bilan bog‘liq holda yoritish;

2) tahliliy-tipologik metod — stereotipik yondashuvning turlarini ajratish va umumiy xususiyatlarini belgilash;

3) komparativ yondashuv — Qo‘shjonov talqini bilan sovet tanqididagi qarashlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish;

4) germenevtik tahlil — badiiy matnni “yorliq”lar emas, ichki ma’no qatlamlari orqali anglash masalasini asoslash.

Muhokama. Adabiy stereotip tushunchasi adabiyotshunoslikda ikki yo‘nalishda talqin qilinadi:

Birinchidan, stereotip badiiy asar haqidagi umumlashgan tasavvurlar tizimi bo‘lib, ma’lum bir davrning estetik didi, tanqidiy urf-odati va metodologik yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ikkinchidan, stereotip badiiy asar talqinida “tayyor hukm” sifatida ishlatilganda ilmiy xulosani cheklovchi omilga aylanadi. Bu holatda stereotip badiiy tafakkurni rivojlantirmaydi, aksincha, uni bir qolipga soladi.

Matyoqub Qo‘shjonov talqinida stereotip aynan ikkinchi ko‘rinishda, ya’ni badiiy asar mohiyatini to‘liq anglashga to‘sqinlik qiluvchi, ilmiy tahlil o‘rniga “qolip baho”ni taklif etuvchi hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Olimning yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, stereotip tanqidchining subyektivligi emas, balki muassasaviylashgan (davr siyosati bilan mustahkamlangan) baholash mexanizmidir.

Demak, stereotip “badiiy asar qanday?” degan savoldan ko‘ra “u qanday bo‘lishi kerak?” degan talabni oldinga chiqaradi. Natijada, badiiy matnning ichki poetik haqiqatiga emas, tashqi ideologik me’yorlarga moslik tekshiriladi.

Matyoqub Qo‘shjonov talqinida stereotipik yondashuvning asosiy ko‘rinishlari quyidagicha:

1. “Tarixiy roman” qolipi va badiiy haqiqatning cheklanishi

Matyoqub Qo‘shjonov “O‘tkan kunlar” romani atrofidagi bahslarni tahlil qilar ekan, sovet tanqidida “tarixiy roman” mezoni ko‘pincha stereotipik qolipga aylanganini ko‘rsatadi. Bu qolip badiiy asarning janr tabiatini ilmiy tahlil qilish o‘rniga, asarni oldindan belgilangan mezon asosida “tasdiqlash yoki inkor etish”ga xizmat qilgan. Masalan, tanqidchi Sotti Husayn romanni “tarixiy roman emas” deb baholash orqali asarning estetik mohiyatini toraytiruvchi yondashuvni namoyon qiladi. Qo‘shjonov esa bu kabi fikrlarning badiiy asar tabiatini anglashdan ko‘ra, davr mafkuraviy talabiga mos “hukm chiqarish”ga yaqin ekanini ilgari suradi.

Bu yerda stereotip shunday ishlaydi: roman “tarixiy” bo‘lishi uchun faqat siyosiy voqealar yoki sinfiy kurashni markazga chiqarishi kerak degan qarash ustuvor bo‘ladi. Holbuki, Abdulla Qodiriy romanining tarixiyligi davr ruhi, milliy ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar to‘qnashuvi, ma’naviy-axloqiy inqirozlar orqali badiiy ifodalanadi. Stereotip esa ana shu murakkab qatlamni “tarixiy emas” degan bir hukm bilan yopib qo‘yadi.

2. “Burjua” yorlig‘i: mafkuraviy stereotipning ishlash mexanizmi

Matyoqub Qo‘shjonovning tahlillarida sovet tanqidida Abdulla Qodiriyga nisbatan qo‘llangan “burjua ideologiyasi”, “burjua romanchiligi”, “xalqchil emas” kabi tamg‘alar stereotipik yondashuvning eng keskin ko‘rinishi ekani anglashiladi.

Bu yorliqlar badiiy asarni tushuntirmaydi, balki uni siyosiy nuqtayi nazardan “muhrlash” vazifasini bajaradi. Ya’ni stereotip asarning estetik mohiyatini ochish uchun emas, uni muayyan mafkuraviy doirada baholash uchun ishlatiladi.

Olim ana shu holatni ilmiy tanqidning zaiflashuvi sifatida ko‘rsatadi: badiiy tafakkur “yorliq”lar bilan o‘lchanar ekan, tanqid estetik tafsir emas, ideologik nazoratga aylanib qoladi.

3. “Xalqchillik” mezonining biryoqlama talqini

Stereotipik yondashuvning yana bir muhim ko‘rinishi “xalqchillik” tushunchasining mafkuraviy talqinidir. Sovet tanqidida “xalqchillik” ko‘pincha sinfiy pozitsiya bilan tenglashtirilgan. Natijada milliy ruh, ma’naviy qadriyat, xalqona til, urf-odat va ijtimoiy munosabatlarni badiiy ifodalash ikkinchi planga tushib qolgan.

Matyoqub Qo‘shjonov esa Abdulla Qodiriyning xalqchilligini faqat “sinfiy kurash” bilan emas, millatning ruhiy-estetik qiyofasini badiiy tiklash, xalqning tarixiy xotirasini uyg‘otish, milliy ongni o‘stirish kabi mezonlar bilan bog‘laydi. Bu yondashuv stereotipni buzadi: “xalqchillik”ni bir yoqlama siyosiy mezondan chiqarib, badiiy-estetik hodisa sifatida qayta talqin qiladi.

4. “Qora-oq” sxema: stereotipik tafakkurning soddalashtiruvchi tabiati

Matyoqub Qo‘shjonov talqinida stereotipning eng xavfli jihatlaridan biri shundaki, u badiiy matnni “qora-oq” sxema doirasida anglashga majbur qiladi. Ya’ni:

- qahramon “ijobiy” yoki “salbiy”,
- asar “xalqchil” yoki “xalqchil emas”,
- muallif “to‘g‘ri” yoki “xato”,
- roman “tarixiy” yoki “tarixiy emas” kabi qat’iy juft mezonlar bilan baholanadi.

Bunday yondashuv badiiy murakkablikni inkor etadi. Abdulla Qodiriyning romanlarida esa ijtimoiy hayotning murakkabligi, ruhiy dramatizm, milliy ong uyg‘onishi kabi ko‘p qatlamli ma’no mavjud. Stereotip esa bu qatlamlarni “tayyor baho” bilan almashtirib, badiiy haqiqatni toraytiradi.

Matyoqub Qo‘shjonov stereotipga qarshi turishda quyidagi ilmiy tamoyillarni ilgari suradi:

1) estetik butunlik tamoyili. Badiiy asar, avvalo, estetik hodisa sifatida o‘rganilishi zarur. Qolip mezonlar emas, matnning ichki poetik qonuniyatlari asosiy mezon bo‘lishi kerak.

2) tarixiy-adabiy jarayon bilan bog‘lash. Stereotip ko‘pincha asarni tarixiy jarayondan uzib baholashdan kelib chiqadi. Qo‘shjonov esa Qodiriyni milliy romanchilik taraqqiyoti, o‘zbek realizmi, jadid tafakkuri, xalqning ma’naviy uyg‘onishi kontekstida ko‘rib chiqadi.

3) mafkuraviy shablonlardan xoli talqin. Qo‘shjonov konsepsiyasida talqin mafkuraviy buyurtmaga xizmat qilmasligi kerak.

4) badiiy haqiqatni tiklash. Stereotip badiiy haqiqatni buzadi; Qo‘shjonov esa badiiy haqiqatni tiklashga intiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki,

1) adabiy stereotip Qo‘shjonov talqinida badiiy asarni anglash jarayonida yuzaga keladigan

“metodologik to‘siq” bo‘lib, u tanqidiy fikrni biryoqlamalashtiradi;

2) sovet davri tanqidida Qodiriy romanlariga nisbatan “tarixiy roman” qolipi, “burjua” yorlig‘i va “xalqchillik”ning mafkuraviy talqini stereotipik baholashning asosiy ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘lgan;

3) olim stereotipni yengishning yo‘li sifatida badiiy matnni estetik butunlikda o‘rganish, tarixiy-adabiy jarayon bilan bog‘lash va talqinni mafkuraviy shablonlardan xoli qilish tamoyillarini ilgari suradi.

Mustaqillikdan keyin Matyoqub Qo‘shjonovning bir qator maqolalari badiiy stereotiplarni yangicha ko‘rishga bag‘ishlangan. Zero, bu davr siyosatlashgan mafkura tazyiqi, qolaversa, sho‘ro davri iskanjasidan qutulib, badiiy-estetik tafakkur erkin ijod yo‘liga o‘tgan davrdir. “Sho‘ro davrida hokim mafkuraning asosiy targ‘ibotchilaridan biriga aylangan adabiy tanqid o‘zining asl ilmiy-estetik vazifasini bajarishga, konsepsiya va mezonlarni yangidan qurishga kirishdi. Natijada tanazzulga yuz tutgan markscha-lenincha metodologiya o‘rniga badiiy asarni tahlil va talqin etishda hurfikrlilikka asoslangan xolis ilmiy metodoligik tamoyillar vujudga kela boshladi. Bu tamoyillarga ko‘ra, endi badiiy asarga insonning ijtimoiy faoliyatini aks ettiruvchi vositagina deb emas, balki, birinchi navbatda, o‘ziga xos dunyoqarash va qalb egasi bo‘lgan individni poetik kashf qiluvchi san’at hodisasi sifatida qarash o‘rinlasha bordi”[1]. Munaqqid bu davr bilan bog‘liq quyidagilarni alohida qayd etadi:

tarixiy shaxslar talqinining erkinlashuvi;

milliy o‘zlikning badiiy tiklanishi;

shaxsiy tafakkur markazga chiqishi;

adabiyotning siyosiy buyurtmadan butunlay xalos bo‘lishi.

Olimning fikricha, bu davr “poststereotipik tafakkur boshlanishi”dir. Matyoqub Qo‘shjonov talqinida adabiy stereotip — bu shunchaki badiiy tasvirning qoliplashuvi emas, balki jamiyat, mafkura, adabiy an’ana, ijod psixologiyasi va estetik tafakkurning murakkab munosabatlarini aks ettiruvchi kategoriya.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, adabiy stereotip tushunchasi Matyoqub Qo‘shjonov talqinida adabiy tanqid va adabiyotshunoslikning obyektivligini pasaytiruvchi, badiiy asarni “tayyor hukm”lar bilan cheklovchi salbiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Olimning “Qodiriy – erksizlik qurboni”, “O‘zbekning o‘zligi” asarlari stereotipik yondashuvning tarixiy ildizlarini ochib berib, sovet davri tanqidida Abdulla Qodiriy romanlariga nisbatan shakllangan metodologik qoliplarni fosh etadi.

Munaqqid konsepsiyasida stereotipni yengish badiiy matnni mafkuraviy “yorliq”lardan xoli holda, estetik butunlik va tarixiy-adabiy jarayon bilan uyg‘unlikda tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Shu bois olim talqini Abdulla Qodiriy ijodining badiiy haqiqatini tiklashga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қўшжонов М. Қодирий – эрксизлик курбони. – Т.: “Фан”, 1992. – Б. 96.

2. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги (Қодирийга армуғон). – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – Б. 133.

3. Nazarov B. va boshqalar. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Darslik. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2012. – B. 432.

4. Қўшжонов М. Танланган асарлар: Адабий-танқидий мақолалар, эсселар, хотиралар. Т.: “Шарқ”, 2018. – Б. 712.

[1] Nazarov B. va boshqalar. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Darslik. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2012. – B. 227.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 81'373.7:81'42(075.8)

JAHON TILSHUNOSLIGIDA ORTIQCHALIKNING TADQIQI VA TAHLILI

[1]Zokirova Jasmina,
Navoiy innovatsiyalar universiteti 1-kurs magistranti
[2]Ilmiy rahbar: Yo'ldosheva Dilnoza Xasan qizi,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsent v.b., f.f.f.d.

RESEARCH AND ANALYSIS OF REDUNDANCY IN WORLD LINGUISTICS

[1]Zokirova Jasmina,
1st year master's student of Navoi Innovation University
[2]Scientific supervisor: Yuldasheva Dilnoza Khasan kizi
Associate professor, PhD., Navoi Innovation University

ИССЛЕДОВАНИЕ И АНАЛИЗ ИЗБЫТОЧНОСТИ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

[1]Зокирова Жасмина,
Студентка 1 курса магистратуры Навоийского инновационного университета
[2]Научный руководитель: Юлдашева Дильноза Хасан кызы,
Доцент Навоийский инновационный университет

e-mail: jasminazokirova08@mail.com
e-mail: dilnozayuldasheva16@gmail.com

Annotatsiya: *Jahon tilshunosligida ortiqchalik (redundantlik) masalasi til tizimi va nutq jarayonini chuqur anglashda muhim ilmiy muammo sifatida qaraladi. Ortiqchalik til birliklarining takrorlanishi yoki ortiqcha ko'rinishda qo'llanishi orqali axborotning yanada aniq, tushunarli va barqaror yetkazilishiga xizmat qiladi. Turli tilshunoslik maktablari vakillari ortiqchalikni fonetik, leksik, morfologik va sintaktik darajalarda tadqiq etib, uning kommunikativ vazifalarini yoritib berganlar. Ayrim tadqiqotchilar ortiqchalikni til iqtisodiyligiga zid hodisa sifatida baholagan bo'lsalar, boshqalari uni nutq samaradorligini oshiruvchi, muloqot jarayonida xatoliklarning oldini oluvchi omil deb hisoblaydilar. Jahon tilshunosligida ortiqchalikka oid nazariy qarashlar, ilmiy yondashuvlar va tahlil natijalari umumlashtirilib, ushbu hodisaning til taraqqiyotidagi o'rni ochib beriladi. Shu bilan birga, ortiqchalik hodisasi faqat til tizimining ichki qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy, madaniy va pragmatik omillar bilan ham chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Turli kommunikativ vaziyatlarda, xususan, og'zaki nutqda, rasmiy uslubda yoki badiiy matnlarda ortiqchalik turlicha namoyon bo'ladi va muayyan uslubiy vazifani bajaradi.*

Kalit so'zlar: *Ortiqchalik tamoyili, takror, tahlil, diskurs*

Abstract. *In world linguistics, the issue of redundancy is regarded as an important scholarly problem for a deep understanding of the language system and the speech process. Redundancy, through the repetition of linguistic units or their excessive use, serves to ensure more precise, clear, and stable transmission of information. Representatives of various linguistic schools have studied redundancy at the phonetic, lexical, morphological, and syntactic levels, elucidating its communicative functions. While some researchers have evaluated redundancy as a phenomenon contrary to the principle of linguistic economy, others consider it a factor that enhances speech effectiveness and prevents errors in the process of communication. In world linguistics, theoretical views, scientific approaches, and analytical results related to redundancy are generalized, and the role of this phenomenon in language development is revealed. At the same time, it is emphasized that the phenomenon of redundancy is closely connected not only with the internal laws of the language system, but also with social, cultural, and pragmatic factors. In various communicative situations—particularly in spoken discourse, official style, or literary texts—redundancy manifests itself in different ways and performs specific stylistic functions.*

Key words: *principle of redundancy, repetition, analysis, discourse.*

Аннотация: *В мировой лингвистике проблема избыточности (редундантности) рассматривается как важная научная задача в глубоком осмыслении языковой системы и речевого процесса. Избыточность посредством повторения языковых единиц или их излишнего употребления служит более точной, понятной и устойчивой передаче информации. Представители различных лингвистических школ исследовали избыточность на фонетическом, лексическом, морфологическом и синтаксическом уровнях, раскрыв её коммуникативные функции. Одни исследователи оценивали избыточность как явление, противоречащее принципу языковой экономии, другие же рассматривали её как фактор, повышающий эффективность речи и предотвращающий ошибки в процессе коммуникации. В мировой лингвистике обобщаются теоретические взгляды, научные подходы и результаты анализа, связанные с избыточностью, и раскрывается роль данного явления в развитии языка. При этом подчёркивается, что феномен избыточности тесно связан не только с внутренними закономерностями языковой системы, но и с социальными, культурными и прагматическими факторами. В различных коммуникативных ситуациях, в частности в устной речи, официальном стиле или художественных текстах, избыточность проявляется по-разному и выполняет определённую стилистическую функцию.*

Ключевые слова: *принцип избыточности, повтор, анализ, дискурс.*

Kirish. Til insoniyat tafakkuri va muloqotining asosiy vositasi sifatida murakkab va ko‘p qatlamli tizim hisoblanadi. Ushbu tizimda ma’no uzatilishining aniqligi va barqarorligini ta’minlovchi omillardan biri ortiqchalik hodisasidir. Jahon tilshunosligida ortiqchalik (redundantlik) uzoq yillar davomida turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etib kelinmoqda. Dastlab u til iqtisodiyligi tamoyiliga zid hodisa sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik funksional va kommunikativ tilshunoslik doirasida ortiqchalikning ijobiy jihatlari keng yoritila boshlandi. Ayniqsa, fonetik, grammatik va sintaktik darajalarda ortiqchalikning nutqni tushunarli qilish, axborot yo‘qolishining oldini olish va muloqot samaradorligini oshirishdagi roli alohida e’tirof etildi. Shuningdek, zamonaviy jahon tilshunosligida ortiqchalik kognitiv jarayonlar, diskurs va pragmatika bilan bog‘liq holda tahlil qilinib, uning til taraqqiyoti va nutq madaniyatidagi o‘rni chuqur ilmiy asosda o‘rganilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ortiqchalik tamoyili dastlab antik davrdan beri mavjud degan qarashlar mavjud. Antik davr yunon-rim ritorika maktabi vakillari ham ortiqchalik hodisasiga bevosita yoki bilvosita munosabat bildirganlar. Ularning qarashlari zamonaviy tilshunoslikdagi redundansiya tushunchasining ilk nazariy ildizlari sifatida baholanadi. Avvalo, Sitseron (Cicero)ning fikrlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning asosiy qarashlari “Notiq haqida” va uning boshqa asarlarida bayon etilgan. Sitseron nutq san’atida fikrning ravshanligi va ta’sirchanligi eng muhim mezon ekanini ta’kidlaydi. U ayrim hollarda bir fikrni bir necha bor, turli shakllarda takrorlashni kamchilik emas, balki tinglovchining e’tiborini kuchaytiruvchi va ma’noni mustahkamlovchi vosita deb hisoblaydi. Sitseron nazarida bunday “ortiqchalik” muloqotning samaradorligini oshiradi va nutqni esda qolarli qiladi [1]. Kvintillian (Quintilianus) esa bu masalaga yanada tizimli yondashgan olimlardan biridir. Uning mashhur asari – “Notiqni tarbiyalash haqida” ritorika nazariyasining mukammal qo‘llanmasi hisoblanadi. Bu 12 kitobdan iborat asar bo‘lib, unda ritorik figuralar (takror, parallelizm, izohlovchi birliklar) alohida boblarda tahlil qilinadi. Kvintillian bu usullarni o‘rinsiz qo‘llashni tanqid qiladi, ammo o‘rinli ortiqchalik nutqning aniqligi va ishonchliligini oshirishini ochiq e’tirof etadi. Kvintillian nutqda takror, izohlash va kuchaytirish usullarini alohida ritorik figura sifatida tahlil qiladi. U ortiqcha takror nutqni og‘irlashtirishi mumkinligini, biroq o‘rinli qo‘llanganda u aniqlik, ishonchlilik va ta’sirchanlikni kuchaytirishini ta’kidlaydi. Bu fikrlar hozirgi tilshunoslikdagi funksional ortiqchalik tushunchasiga juda yaqin turadi [2]. Sitseron, Kvintillian va Sitsiliya ritorika

[1] Cicero M. T. De Oratore. – Roma: Oxford University Press, 2001.

[2] Quintilianus M. F. Institutio Oratoria. – London: Loeb Classical Library, 2001.

maktabi vakillarining asarlarida ortiqchalik bugungi ilmiy termin sifatida qo‘llanmagan bo‘lsa-da, fikrni takrorlash, kuchaytirish va mustahkamlash orqali ma’no aniqligini ta’minlash g‘oyasi aniq ko‘rinadi. Bu qarashlar keyinchalik jahon tilshunosligida ortiqchalikni kommunikativ va funksional hodisa sifatida o‘rganishga mustahkam nazariy zamin yaratgan.

Jahon olimlari ushbu tamoyilga turlicha nazariyalar bilan qarashgan va bu ilmiy yondashuvlar antik davrdan beri davom etib kelayotgan bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Ba’zi olimlar ortiqchalik hodisasini umuman fanda kerakmas deb hisoblashsa, ba’zi olimlar esa buning aksini ta’kidlashadi. G.Paul o‘z qarashlarida redundantlik hodisasini ortiqcha deb izohlaydi. Antik davrda ham ayrim olimlar ushbu hodisani keskin rad etishadi. Jumladan, L.A.Seneka, Gippokrat kabilari misol. Yana bir olim Charles Hokket tilshunoslikda ortiqchalik tamoyili bilan bog‘liq fikrlar bildirgan olimlardan biri hisoblanadi. U tilni boshqa kommunikativ tizimlardan ajratib turuvchi “dizayn xususiyatlari” konsepsiyasini ishlab chiqqan, unda ortiqchalik tilning samarali uzatish mexanizmlaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Hokkettning fikricha, til signallarining tez yo‘qoluvchi xususiyati tufayli axborot uzatishda noaniqlik yoki shovqin bo‘lishi mumkin. Shu sababdan til tizimi ortiqcha elementlar (takrorlash, kontekstual belgilash kabi) orqali xabarni ishonchli yetkazishni ta’minlaydi – bu tilning redundansiya xususiyati bo‘lib, signal yo‘qolishidan yoki chalg‘itishdan himoyalaydi. Boshqacha aytganda, ortiqchalik nutqning vaqtinchalik tabiati va kommunikativ sharoitlarda axborotning aniq yetib borishini kafolatlovchi mexanizm sifatida tushuniladi. Ushbu qarashlar Hokkettning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lgan “A Course in Modern Linguistics” kitobida (1958) tasvirlangan bo‘lib, u tilning asosiy xususiyatlarini sanab o‘tishda ortiqchalik tamoyilini ham bevosita tahlil qiladi[3]. Shuning uchun Ch. Hokkettning yondashuvi lingvistik ortiqchalikni faqat til tizimining ichki tuzilishi darajasida emas, balki kommunikatsiya jarayonining fiziologik va funksional tavsifi orqali yoritadi – ya’ni til kodining tez tarqalishi va yo‘qolishi sharoitida axborotni to‘liq uzatish uchun redundansiya zarur ekanini ko‘rsatadi.

XIX asrdan boshlab ortiqchalik hodisasi jahon tilshunosligida alohida ilmiy muammo sifatida shakllanib, turli nazariy yondashuvlar asosida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ortiqchalik bilan bog‘liq masalalar N.Grech, F.Mikloshich, A.Meyer, A.Potebnya kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida turlicha talqin qilina boshladi. N.Grech til grammatik tizimini tavsiflar ekan, bir xil grammatik ma’noning bir nechta vosita orqali ifodalanishini qayd etadi. U bunday holatlarni tilning tushunarliligini va aniqligini ta’minlovchi omil sifatida baholaydi, bu esa ortiqchalik hodisasi bilan bevosita bog‘liqdir[4]. F.Mikloshich tarixiy-qiyosiy tadqiqotlarida slavyan tillarida grammatik shakllarning parallel mavjudligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, ma’no birligining turli formalarda saqlanib qolishi til taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi, bu holat ortiqchalikning tarixiy ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi [5]. A.Meyer (Meillet) til taraqqiyotida funksional zarurat tufayli ayrim shakllarning ortiqcha ko‘rinishda qo‘llanishini tabiiy hodisa deb hisoblaydi. U til tizimida barqarorlikni ta’minlashda bunday birliklarning ahamiyatini alohida qayd etadi [6]. A.Potebnya til va tafakkur munosabatini o‘rganib, ma’no kuchayishi va izohlovchi vositalarning nutqdagi o‘rnini tahlil qilgan. Uning fikricha, bir ma’noni bir necha shakl orqali ifodalash inson tafakkuriga xos xususiyat bo‘lib, ortiqchalik bilan uzviy bog‘liqdir[7]. Ushbu olimlar ortiqchalik hodisasini tubdan, mustaqil mavzu sifatida o‘rganmagan bo‘lsalar-da, ular o‘z tadqiqotlarida til birliklarining takroriy, izohlovchi va parallel xususiyatlari orqali ma’no aniqligi va nutq samaradorligini ta’minlash jihatlarini qisman yoritganlar. Ya’ni, ortiqchalik ularning tadqiqotlarida asosiy ob’ekt sifatida emas, balki til tizimi, grammatik shakllar yoki nutq jarayonining funksional xususiyatlari doirasida uchragan va izohlangan. Shu sababli ularning ishlari ortiqchalik

[3] Hockett Ch. F. A Course in Modern Linguistics. — New York: Macmillan, 1958. — P. 574-580.
[4] Grech N. I. Русская грамматика. – СПб, 1843.
[5] Miklosich F. Vergleichende Grammatik der slavischen Sprachen. - Wien, 1895.
[6] Meillet A. Introduction à l'étude comparative des langues indo-européennes. - Paris, 1938.
[7] Potebnya A. A. Мысль и язык. — M., 1968.

hodisasini to‘liq konseptual tahlil qilishga zamin yaratgan, biroq hodisaning barcha jihatlarini chuqur ilmiy asosda o‘rganish esa keyingi avlod tilshunoslari tomonidan amalga oshirilgan.

Muhokama va natijalar. Ortiqchalik (redundantlik) tushunchasi XX asrning o‘rtalarida axborot nazariyasi va lingvistika kesishgan nuqtada shakllanib, dastlab amerikalik olim Klod Shennon tomonidan 1948-yilda axborot nazariyasi doirasida qo‘llanilgan. Unga ko‘ra, ortiqchalik tizimdagi takroriy, ammo xabarni ishonchli yetkazishga yordam beruvchi elementlardir. Keyinchalik bu g‘oya tilshunoslikka kirib, nutqdagi takroriylik, izohlilik, sinonimiya va tavtologiya hodisalarini tahlil qilishda qo‘llanila boshlandi[8]. Tilshunoslar ortiqchalikni turlicha talqin qiladilar: ba’zilar uni nutqdagi keraksiz takror, mantiqiy yuklamasi yo‘q hodisa deb qarasa, boshqalar uni fikrni aniqlashtiruvchi, urg‘u beruvchi, kommunikativ samarani oshiruvchi vosita sifatida baholaydilar.

Jahon tilshunosligi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ortiqchalik nafaqat til tizimidagi takror, balki muloqotdagi maqsad, kontekst va adresat omillari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan lingvopragmatik hodisadir. Ilmiy nutqda ortiqchalik mazmunni aniqlashtirish, fikrni mantiqan mustahkamlash, matn izchilligini ta’minlash va o‘quvchi uchun tushunishni osonlashtirish kabi muhim kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Shu sababli, ortiqchalikni pragmatik nuqtai nazardan o‘rganish hozirgi zamon jahon tilshunosligining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Roman Yakobson ortiqchalikni til tizimining barqarorligini saqlovchi omil sifatida talqin qilgan. Noam Chomsky esa ortiqchalikni grammatik strukturalarning tabiiy xususiyati deb bilib, uni tilning generativ imkoniyatlari bilan bog‘lagan[9]. M.A.K.Hallidayning funksional lingvistikasida ortiqchalik matnning koheziya (bog‘liqlik) va koherensiya (izchillik)ni ta’minlovchi vosita sifatida o‘rganilgan[10]. H.P.Graysning kooperativ prinsipi doirasida “Ortiqchalik ko‘pincha miqdor maksimasining buzilishi natijasida yuzaga keladi, biroq u ma’lum kommunikativ maqsad bilan qo‘llansa, pragmatik jihatdan o‘rinli bo‘lishi mumkin” degan g‘oyani ilgari suradi[11]. Yevropa va Amerika tilshunosligida ortiqchalikning ilmiy matnlardagi uslubiy va pragmatik xususiyatlari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. T. A. van Dijk va W. Kintsch matn lingvistikasi doirasida ortiqchalikni axborotning strukturaviy ortiqchaligi sifatida talqin etib, matnning yaxlitligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaganlar[12]. XX asrda ortiqchalik (redundansiya) masalasi jahon tilshunosligida mustaqil ilmiy muammo darajasiga ko‘tarildi va u turli nazariy yondashuvlar doirasida keng muhokama qilindi. Bu davrda ortiqchalik faqat “ortiqcha unsur” sifatida emas, balki tilning funksional va kommunikativ mexanizmi sifatida baholandi. Avvalo, struktural tilshunoslik doirasida ortiqchalik fonologik va grammatik tizimlarning barqarorligini ta’minlovchi vosita sifatida tahlil qilindi. Praga lingvistik maktabi vakillari fonemalarning farqlovchi belgilari bilan bir qatorda, ayrim belgilarni ortiqcha, ya’ni farqlovchi bo‘lmagan, ammo tizimni mustahkamlovchi unsur sifatida izohladi. Natijada, ortiqchalik til tizimining ichki muvozanatini saqlovchi omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. XX asr oxiriga kelib, kognitiv va pragmatik tilshunoslik doirasida ortiqchalik nutq strategiyasi, ma’no kuchaytirish va diskursni tashkil etish vositasi sifatida baholandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ortiqchalik inson tafakkuri va muloqot ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u nutqni tushunarli, ishonchli va ta’sirchan qilishga xizmat qiladi.

XXI asrda ortiqchalik masalasi tilshunoslikda yanada keng va chuqurroq yo‘nalishlarda o‘rganila boshladi. Bu davrda ortiqchalik alohida struktur hodisa sifatida emas, balki kognitiv, pragmatik, diskursiv va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq murakkab hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Avvalo, kognitiv tilshunoslik doirasida ortiqchalik inson tafakkuri va axborotni qayta ishlash jarayonlari bilan bog‘liq holda tahlil qilindi. Tadqiqotchilar fikricha, ortiqchalik inson ongida

[8] Shannon, C. E. A Mathematical Theory of Communication. — Bell System Technical Journal, 27 (3), 1948. P. 379–423.
[9] Jakobson, R. Linguistics and Poetics. — In: Style in Language, Ed. by T. Sebeok. — Cambridge, MA: MIT Press, 1960. — P. 350–377.
[10] Halliday, M. A. K. Language as Social Semiotic. — London: Edward Arnold, 1978. — P. 55–102.
[11] Grice, H. P. Logic and Conversation. — In: Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts. — New York: Academic Press, 1975. — P. 41–58.
[12] van Dijk, T. A. & Kintsch, W. Strategies of Discourse Comprehension. — New York: Academic Press, 1983. — P. 12–64.

ma’lumotni tezroq anglash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli u nutqni ortiqcha yuklovchi emas, balki kognitiv jihatdan qulay mexanizm sifatida baholanadi. Shuningdek, pragmatik va diskurs tahlilida ortiqchalik muloqot strategiyasi sifatida o‘rganildi. XXI asr tadqiqotlarida nutqdagi takror, izohlash va kuchaytirish vositalari tinglovchi bilan samarali aloqa o‘rnatish, noto‘g‘ri talqinlarning oldini olish va kontekstni aniq belgilash uchun zarur ekanligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv ortiqchalikning nutqiy vazifasini yanada aniqroq ochib berdi. Sotsiolingvistika va mediatilshunoslikda esa ortiqchalik ommaviy axborot vositalari, reklama, internet nutqi va ijtimoiy tarmoqlar tilida faol qo‘llaniladigan vosita sifatida tahlil qilinmoqda.

Xulosa. Ortiqchalik hodisasi tilshunoslik tarixida uzoq evolyutsion yo‘lni bosib o‘tgan va turli davrlarda turlicha yondashuvlar bilan o‘rganilgan. Antik davrda nutqning samarali shakllarini tavsiflash jarayonida ortiqchalikka qisman e’tibor qaratilgan; bir fikrni turli usullar bilan ifodalash orqali tinglovchi tushunarliligini oshirishga urg‘u berilgan. Shu bilan birga, hodisa mustaqil ilmiy obyekt sifatida hali aniqlanmagan edi. XVIII va XIX asrlarda tilshunoslik mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Shu davrda til birliklarining takroriy va izohlovchi xususiyatlari, grammatik shakllarning saqlanib qolishi va nutqdagi izohlovchi vositalar orqali ortiqchalik hodisasi qisman yoritildi. Bu davr tadqiqotlari ortiqchalikni nutq va yozma matndagi ma’no aniqligi, barqarorlik va kommunikativ samaradorlik bilan bog‘lashga xizmat qildi, ammo hodisa hali mustaqil ilmiy mavzu sifatida keng tahlil qilinmagan edi. XX asrda ortiqchalik masalasi tilshunoslikda tizimli va konseptual yondashuvlar doirasida o‘rganila boshlandi. Fonologik, grammatik va diskursiv tizimlarda ortiqchalik elementlarining mavjudligi til tizimining barqarorligini ta’minlovchi muhim unsur sifatida baholandi. Shu bilan birga, nutq jarayonida ortiqchalik axborotni ishonchli uzatish va tushunarli ifodalash vositasi sifatida ko‘rilgan. XX asr oxirida kognitiv va pragmatik tadqiqotlar ortiqchalikni nutq strategiyasi, ma’no kuchaytirish va diskursni tashkil etish vositasi sifatida izohladi, uning inson tafakkuri va muloqot ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. XXI asrda ortiqchalik tadqiqotlari yanada kengayib, kognitiv, pragmatik, diskursiv va texnologik yo‘nalishlarda rivojlandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ortiqchalik nutq va yozma matnda ma’no aniqligi va barqarorlikni oshiruvchi, kommunikativ samaradorlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ortiqchalik nutqni ba’zan og‘irlashtirishi, til iqtisodiyligiga zid bo‘lishi va mazmunni chalkashtirishi mumkin. Shuning uchun uning samarali qo‘llanilishi mantiqiy va o‘rinli tarzda amalga oshirilishi zarur. Umuman olganda, tilshunoslik tarixida ortiqchalik hodisasi salbiy yoki keraksiz element sifatida emas, balki tilning tabiiy, funksional va kommunikativ xususiyati sifatida qaraladi. Turli davrlar tadqiqotlari uning ma’no aniqligi, barqarorlik va kommunikativ samaradorlikni oshirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslab bergan va zamonaviy tadqiqotlar uchun mustahkam poydevor yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Grech N. I. Русская грамматика. – СПб, 1843.
2. Grice, H. P. Logic and Conversation. – In: Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41-58.
3. Halliday, M. A. K. Language as Social Semiotic. – London: Edward Arnold, 1978. – P. 55-102.
4. Hockett Ch. F. A Course in Modern Linguistics. – New York: Macmillan, 1958. – P. 574-580.
5. Jakobson, R. Linguistics and Poetics. – In: Style in Language, Ed. by T. Sebeok. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960. – P. 350-377.
6. Miklosich F. Vergleichende Grammatik der slavischen Sprachen. – Wien, 1895.
7. Meillet A. Introduction à l'étude comparative des langues indo-européennes. – Paris, 1938.
8. Potebnya A. A. Мысль и язык. – M, 1968.
9. Quintilianus M. F. Institutio Oratoria. – London: Loeb Classical Library, 2001.
10. Van Dijk, T. A. & Kintsch, W. Strategies of Discourse Comprehension. –New York: Academic Press, 1983. – P. 12-64.
11. Shannon, C. E. A Mathematical Theory of Communication. — Bell System Technical Journal, 27 (3), 1948. — P. 379–423.
12. Cicero M. T. De Oratore. – Roma: Oxford University Press, 2001.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 378.147:37.013.42

BO‘LG‘USI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TAFAKKURNI SANOGEN TARBIYALASHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

[1]*Sabirova Charosxon Atamamatovna, UrIU “Boshlang‘ich ta’lim va psixologiya” kafedrasi mudiri, dotsent*
[2]*Allaberganova Shohista Rustam qizi, Urganch davlat pedogogika instituti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” kafedrasi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 241-guruh magistranti*



e-mail: charos_pedagog@mail.ru
https://orcid.org/0009-0007-0193-7603

METHODOLOGY OF USING MODERN METHODS IN THE SANOGENIC DEVELOPMENT OF MORAL AND ETHICAL THINKING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

[1]*Sabirova Charosxon Atamamatovna, Head of the Department of “Primary Education and Psychology”, UrIU, Associate Professor*
[2]*Allaberganova Shohista Rustam qizi, Master’s student of Group 241, Primary Education program, Department of “Theory and Methodology of Education and Upbringing”, Urganch State Pedagogical Institute*



https://orcid.org/0009-0005-3129-6187
e-mail: shohista0305@gmail.com

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ В САНОГЕННОМ ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

[1]*Сабирова Чаросхон Атамаматовна, заведующая кафедрой “Начальное образование и психология” УрИУ, доцент*
[2]*Аллаберганова Шохиста Рустам кызы, магистрантка группы 241 по направлению “Начальное образование”, кафедра “Теория и методика обучения и воспитания”, Ургенчский государственный педагогический институт*

Anotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ma’naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalashda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish shakli, metodlari va vositalarning ilmiy-metodik asoslari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sanogen tafakkur, ma’naviy-axloqiy tarbiya, case-study metodi, trening, master-klass, kommunikativ kompetentlik, empatiya, refleksiv yondashuv, mustaqil fikrlash.*

***Annotation**: This article discusses the scientific and methodological foundations of the forms, methods and tools of using modern pedagogical methods to foster moral and ethical thinking in prospective primary school teachers.*

***Keywords:** sanogenik thinking, moral and spiritual education, case-study method, training, master class, communicative competence, empathy, reflective approach, independent thinking.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются формы, методы и средства использования современных педагогических методов в воспитании морально-нравственного мышления будущих учителей начальных классов, а также научно-методические основы этого процесса.*

***Ключевые слова:** саногенный подход, духовно-нравственное воспитание, метод кейс-стади, тренинг, мастер-класс, коммуникативная компетентность, эмпатия, рефлексивный подход, самостоятельное мышление.*

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimi jiddiy o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini takomillashtirish, uning sifatini oshirish va yoshlar ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni oliy ta’limning strategik yo‘nalishlarini belgilab, ta’lim sifati va pedagogik kadrlar salohiyatini oshirishni maqsad qilgan hujjat sifatida e’tirof etiladi[1]. Ushbu Farmon oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish orqali nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimini mustahkamlashga ham yo‘naltirilgan strategik tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxs kamolotining muhim davri hisoblanib, aynan ushbu davrda bolaning ma’naviy-axloqiy asoslari, qadriyatlar tizimi hamda dastlabki dunyoqarashi shakllana boshlaydi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining shaxsiy ma’naviy-axloqiy yetukligi va axloqiy tafakkur darajasi ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi. Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga, rivojlangan ma’naviy-axloqiy tafakkurga ega bo‘lishlari zarur. Ma’naviy-axloqiy tafakkur shaxsning axloqiy me’yorlar, qadriyatlar va tamoyillar asosida voqelik hodisalarini tahlil qilish va baholash qobiliyatini ifodalaydi. U to‘g‘ri va noto‘g‘rini, ezgulik va yovuzlikni, adolat va adolatsizlikni farqlay bilish, axloqiy tanlovlarni ongli ravishda amalga oshirish hamda o‘z xatti-harakatlariga mas’uliyat bilan yondashish jarayonlarini qamrab oladi. Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ma’naviy-axloqiy tafakkur pedagogik faoliyatda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyati davomida turli murakkab pedagogik vaziyatlarni hal etadi, o‘quvchilarning ma’naviy dunyosiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi hamda ularning axloqiy rivojlanishida namuna vazifasini bajaradi.

Sanogen tarbiya konsepsiyasi (lotincha *“sanos”* — sog‘lom va *“genes”* — hosil bo‘luvchi) shaxsning psixologik va ma’naviy salomatligini ta’minlashga, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini nazorat qilish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlari orqali shaxsiy kamolotga erishishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida talqin etiladi. Mazkur konsepsiya ta’lim jarayonida shaxsning ichki resurslarini faollashtirish, ijobiy tafakkurni shakllantirish va barqaror axloqiy pozitsiyani qaror toptirishni nazarda tutadi. Sanogen tarbiya yondashuvi pedagog shaxsining ichki motivatsiyasi, refleksiv faoliyati va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga tayanadi. Ushbu yondashuv doirasida pedagog o‘z kasbiy faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, emotsional holatini boshqarish hamda turli pedagogik vaziyatlarda ongli va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, sanogen tafakkur pedagog shaxsining kasbiy va ma’naviy-axloqiy yetukligini ta’minlash, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining sog‘lom psixologik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Hozirgi kunda pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tafakkur jarayoni asosan an’anaviy ta’lim metodlari — ma’ruza, suhbat va tushuntirish asosida tashkil etilmoqda. Mazkur metodlar ma’lum darajada nazariy bilimlarni yetkazishga xizmat qilsa-da, talabalarning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini, shaxsiy tajribaga asoslangan bilimlarni egallashini hamda refleksiv faoliyatini yetarli

darajada ta’minlamaydi. Bu holat zamonaviy ta’lim paradigmasi talablariga to‘liq javob bermaydi. Bruner J. esa ta’limning konstruktivistik yondashuviga ko‘ra, bilim shaxs tomonidan faol ravishda quriladi va u o‘rganilayotgan hodisalarni shaxsiy tajriba bilan uyg‘unlashtirish jarayonida chuqur o‘zlashtiriladi[2]. Shuningdek, Amerikalik pedagog J.Dewey ta’limni ijtimoiy tajribaga tayangan faol jarayon sifatida talqin etib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda muammoli va loyiha asosidagi ta’lim metodlarining ahamiyatini asoslab bergan[3]. D.Schönning refleksiv amaliyot konsepsiyasiga ko‘ra, pedagog shaxsining kasbiy va ma’naviy rivoji uning o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishi va baholashi bilan bevosita bog‘liqdir[4]. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun zamonaviy interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha-tadqiqot faoliyati hamda refleksiv yondashuvlardan kompleks foydalanish zarurati yuzaga keladi. Mazkur metodlar talabalarning subyekt sifatida faolligini oshiradi, ularning axloqiy muammolarni mustaqil tahlil qilish, ongli qaror qabul qilish va shaxsiy mas’uliyatni his etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida talabaning shaxsiy pozitsiyasi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy-huquqiy ongining shakllanishi ta’minlanadi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvlar talabalarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirib, ularni kasbiy faoliyatda uchraydigan murakkab axloqiy vaziyatlarni baholash va ularga asosli yechimlar topishga tayyorlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning ma’naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirish muammosi O‘zbekiston ta’lim tizimida dolzarb pedagogik masalalardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Mazkur masala doirasida turli pedagogik, psixologik hamda metodologik tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularning natijalari o‘quv jarayonida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu bois, bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida ma’naviy-axloqiy tafakkurni uyg‘unlashtirilgan tarzda rivojlantirish masalasi amaliy va nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega. N.A.Muslimovning ilmiy izlanishlarida pedagog shaxsida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni qaror toptirish masalasi chuqur falsafiy-pedagogik tahlil asosida yoritilgan. Tadqiqotchilar pedagogik ta’limni rivojlantirish jarayonida milliy an’analar va zamonaviy ijtimoiy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi muhim metodologik omil ekanligini asoslaydilar. Mazkur yondashuv pedagogik ta’limning konseptual asoslarini belgilashga xizmat qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy yetukligi bilan bir qatorda ularning ma’naviy-axloqiy tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan nazariy modelni vujudga keltiradi[5]. O.S.Shodmonov va R.X.Jo‘rayevning “Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari” asarida pedagogik ta’lim jarayonida ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritib berilgan. Mualliflar o‘quv jarayonida interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va refleksiv yondashuvlardan foydalanish zaruriyatini ta’kidlaydilar, bu esa bo‘lajak pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Z.T.Nishonova o‘z dissertatsiya ishida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-ma’rifiy kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik shartlarini tadqiq qilgan va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning samarali usullarini ilmiy asoslab ko‘rsatgan. Shu bilan birga, uning tadqiqoti pedagogik amaliyotda ma’naviy-axloqiy tarbiya metodikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi nazariy va metodologik yondashuvlarni aniqlash imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda interaktiv va innovatsion metodlarning samaradorligi alohida ta’kidlanib o‘tiladi. Shu jumladan, Amaliy situatsion tahlil (Case-study) metodini A.M.Dolgorukov va boshqa tadqiqotchilar ishlab chiqqan[6]. Ushbu metod bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Rol o‘ynash va simulyatsiya metodlari D.Kolbning tajriba asosidagi o‘qitish modeliga asoslanadi. Bu yondashuv ma’naviy-axloqiy vaziyatlarni modellashtirish orqali bo‘lajak pedagoglarning refleksiv tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Treninglar va master-klasslar I.V.Vachkov va M.R.Bityanova tomonidan ishlab chiqilgan psixologik-pedagogik treninglar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda empatiya, kommunikativ

kompetentlik va axloqiy sezgirlikni oshirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan[7]. M.Prensky esa raqamli avlod uchun ta’lim jarayonini takomillashtirishda virtual muhit va o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning amaliy imkoniyatlarini tadqiq qilgan. Shu orqali bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda kreativ tafakkur, motivatsiya va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Zamonaviy pedagogik fanlarni o‘qitishda, shulardan boshlang‘ich ta’limda pedogogik mahorat, umumiy pedagogika, boshlang‘ich ta’limda tarbiya nazariyasi fanlarida qo‘llansa, o‘z aksini topadi[8].

XULOSA. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ma’naviy-axloqiy tafakkurni sanogen yondashuv asosida shakllantirishning zamonaviy pedagogik metodlari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalash pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida shaxsning ma’naviy tafakkuri, hissiy barqarorligi va axloqiy mas’uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda interfaol ta’lim metodlari, muammoli va loyiha asosidagi o‘qitish, refleksiv yondashuv, trening va master-klasslar, shuningdek, axborot-kommunikatsiya va multimedia texnologiyalaridan kompleks foydalanish ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini samarali ta’minlaydi. Shu bilan birga, ushbu metodlar talabalarning mustaqil fikrlash, tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirish, axloqiy qaror qabul qilish va mas’uliyat hissini shakllantirishga imkon yaratadi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida qo‘llanilishi pedagogik jarayon samaradorligini oshirish va ma’naviy-axloqiy tarbiya sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y, O‘zbekiston Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.
2. Bruner J. The Culture of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1996.
3. Dewey,J. Experience and Education. New York: Collier Books, 1938.
4. Schön,D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.
5. Muslimov,N.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
6. Долгоруков,А.М. Метод case-study как современная технология профессионального обучения. Москва: Высшая школа, 2007.
7. Вачков,И.В. Психологический тренинг: теория и практика. Москва: Генезис, 2007.
8. Prensky,M. From Digital Natives to Digital Wisdom.Thousand Oaks, CA: Corwin, 2012.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 378.091.31 – 059.2:37.013

ЖАДИД МАКТАБЛАРИДАГИ ДАРСЛИК ВА КИТОБЛАР

[1]Самандарова Сайёра, филология фанлари номзоди, доцент
[2]Уморова Дилноза Одилбековна, Урганч давлат педагогика институти таянч докторанти



https://orcid.org/0009-0000-2632-5338
e-mail: sayyorasamandarova68@gmail.com.

TEXTBOOKS AND EDUCATIONAL PUBLICATIONS IN JADID SCHOOLS

[1]Samandarova Sayyora, Candidate of Philological Sciences, Associate Professor
[2]Umorova Dilnoza Odilbekovna, Base Doctoral Researcher at Urgench State Pedagogical Institute



https://orcid.org/0009–0007–1491–5139
e-mail: dilnozaumorova.1611@gmail.com

УЧЕБНИКИ И КНИГИ В ДЖАДИДСКИХ ШКОЛАХ

[1]Самандарова Сайёра, кандидат филологических наук, доцент
[2]Уморова Дилноза Одилбековна, базовый докторант Ургенчского государственного педагогического института

Аннотация: *Ушбу мақолада Хоразм жадид мактабларида ўқитилган дарслик ва китоблар ҳамда уларнинг ўқувчилар саводхонлигини ошириш, дунёқарашини кенгайтиришдаги аҳамияти таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *мактаб, жадид, муаллим, ўқувчи, дарс жараёни, дарслик, китоб, Қрим, Қозон, Хоразм, Хива, жамият, ташкилот, таълим ислоҳоти.*

Abstract: *This article analyzes the textbooks and books used in Khorezm Jadid schools and examines their role in improving students' literacy and broadening their worldview.*

Keywords: *school, Jadid movement, teacher, student, instructional process, textbook, book, Crimea, Kazan, Khorezm, Khiva, society, organization, educational reform.*

Аннотация: *В статье анализируются учебники и книги, использовавшиеся в хорезмских джадидских школах, а также их значение в повышении грамотности учащихся и расширении их мировоззрения.*

Ключевые слова: *школа, джадид, учитель, ученик, учебный процесс, учебник, книга, Крым, Казань, Хорезм, Хива, общество, организация, реформа образования.*

КИРИШ. Ўқувчиларнинг саводхонлигини ошириш ва дунёқарашини кенгайтириш, умуман олганда педагогикада дарслик, қўлланма ва китобларнинг аҳамияти катта. Мактабни китоблар, дарсликларсиз тасаввур қилиш қийин ва бунинг иложи ҳам йўқ. Шу жиҳатдан олганда ўтмишдаги анънавий [эски], рус-тузем мактаблари, мадрасаларда ҳам дарсликлар мавжуд бўлган. Янги усулдаги мактабларга эса жадидлар янги ўқитиш услубини, дарслик, китобларини татбиқ этишдики, бу ислоҳот жараёни таълим тараққиётига сабабчи бўлди. Бизнинг ушбу мавзуимиз айнан Хоразм

жадид мактабларида ўқитилган дарсликлар, китоблар ҳақида бўлиб, уларнинг муаллифлари, дарсда қайси синфларга қўлланилиши ҳақида мушоҳада юритамиз.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД. Мавзуни ёритишда Р.Шамсутдинов, С.Ҳошимовларнинг тадқиқотлари ва У.Бекмуҳаммад, С.Самандарларнинг “Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси”, “Хоразм жадидчилиги: ислоҳотлар, таълим ва адабиёт”, “Хоразм жадид мактаблари” номли монографиялари, шунингдек яна И.Гаспрали, Б.Қосимовнинг асарлари, “Таржимон” газетасидаги мақолалардан фойдаланилди ва манбалар бир-бирига таққосланган ҳолда, ўтмишдаги педагогик жараёнга оид ҳаққоний, илмий хулосалар чиқарилди.

МУҲОКАМА. Туркиялик миллатдошимиз, давлат ва жамоат арбоби, туркий дунё фахру ифтихори Аҳад Андижон ўзининг “Туркистон учун кураш” номли асарида ёзганидек, “Машҳур Исмоилбек Гаспралининг Қримда илк бор очган усули жадид мактаблари кейинги даврларда чорлик ишғолидаги барча мусулмон турклар яшаётган ўлкаларга кенг тарқалган. Ўрта асрлардаги мадраса тизимига янги нафас олиб кирган бу маърифатпарварлик ҳаракати қатнашчилари жадидлар дейилган. Таълим-тарбия ишларида арабча ўрнига туркчанинг қўлланилиши, диний билимлар билан бирга математика, тарих, жуғрофия каби дунёвий фанларнинг мактабларда ўқитилиши омма ўртасидаги тушунчанинг ўзгаришига, сиёсий онгнинг ўсишига олиб борди” [1].

Жадид мактаби дея аталадиган ва ўша даврдаги туркий мусулмон халқлар ҳаётида тамаддун томон бошланган таълим тизимига Исмоил Гаспрали 1884 йилда асос солди. Бу ҳақда у: “ ...1884 санаси Боқчасаройда бир мактабни усули жадидга қўймиш эдим, самараси умидимдан зиёда ўлди. Бир қоч (қанча) мактаблар усулимни қабул ила ислоҳ ўлдилар. Соир (кўп) вилоятлардан усул кўрмия (кўрмакка) келуб-кеданлар ўлуб, бу сояда ҳар тарафдан ики юздан мутажовуз (ортиқ) мактаблар усулими қабул этдилар. Ота-бобо кунлариндан қолмиш миллий мактабларни ислоҳ этмак усули жадид демакдир”дея ёзганди Гаспрали “Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош”[2] асарида.

Табиийки, эзгу фикр эзгу сўз, эзгу амал билан ибратлидир. Гаспрали фақат мактабга асос солиб, унда ўзи маслакдошлари билан педагоглик қилибгина қолмай дарслик ҳам яратди. Яъни назарияни амалиёт билан уйғунлаштирди. Ўқитиш жараёнида болаларнинг ёши, сабоқни қабул қилиш идрокини, бунинг учун яна нималарга эътибор қаратиш кераклигини англаб борди. Натижада 1888 йилда мактаблар учун “Хожаи сибён” (“Болалар муаллими”)ни нашр қилдирди. Дарсликда “усули жадид”га бўлган эҳтиёжни тушунтирди, “усули қадим”дан фарқига эътиборни қаратди.

Гаспрали ҳаёти, фаолияти, бой илмий-адабий, педагогик мероси бўйича асарлар яратган профессор Бегали Қосимов таҳлилларига кўра, ”Хожаларга таълимот” (“Муаллимларга йўлланма”) фаслида “усули жадид”нинг осондан мураккабга боришини уқдириб, хос хусусиятларини 15 бандда кўрсатиб берди. Унда боланинг энг мувофиқ ўқув ёши (6-7)дан тортиб, ўқув соатлари болалар ёшига мувофиқ тақсимланиши лозимлигигача, ўқиш билан ёзишни қўшиб олиб боришдан ҳар бир ҳарфни “садоси билан” ўргатишгача, дарслар орасидаги танаффусдан имтиҳонгача, қўйингки, бугунги замонавий мактабларга хос барча масалалар қамраб олинган эди. Дарсликнинг ҳар бир дарсидан кейин саволлар берилган бўлиб, муаллиф фикрича улар ўқувчиларнинг дарсни англашлари ва имтиҳон топширишлари учун “буюк восита” эди.

Муаллиф ўқиш-ўқитишнинг янги усули ҳақида тўхталар экан, болаларга моҳиятни тушунтирмасдан қуруқ ёдлатиш зарарли эканлигига диққатни қаратади ва ҳар бир ҳарфни “садоси билан” мунтазам ва изчил ўрганишни таъкидлайди. Ушбу усул шунга кўра “усули савтия” (товуш усули) деб ҳам аталади.

Шу тариқа, ўқитиладиган дарснинг мазмунидан уни ўқитиш усули ва баҳолаш жараёнигача, ўқувчининг дарс тинглайдиган дарсхонасидан дарс жадвали-ю қишки ва ёзги таътилигача, мактабнинг жойлашиш ўрнидан, синф хоналарининг жиҳози-ю ёруғлик даражасигача замонавий асосларда кўриб чиқилиб, мактаб таълимининг янги дастури майдонга келтирилди. “Жадид” атамасининг

оммалашуви ҳам, биринчи навбатда, мана шу “усули жадид” билан боғлангандир“[3].

Исмоил Гаспрали томонидан янги усул мактабидаги жараён қандай бўлиши кераклиги ҳам изоҳлаб ўтилганди: “Ҳар бир хусусий ёки жамоа мактабида, биринчи навбатда, қуйидаги икки нарсага риоя қилинмоғи лозим:

1.Синф хонаси болалар ўтиришлари ва ўқиб, ёзишлари учун мос бўлиши керак. Унинг ичи ёруғ, салқин ҳамда парталар қўйилган бўлиши лозим. Парталарга қарши деворда ёзмоқ ва ёздирмоқ учун доска (лавҳа) қўйилиши керакки, унда бўр билан ёзиб, ўчирилади.

2.Агар мактабнинг сарф-харажатларига етгулик вақфи бўлмаса, ўқитувчи кун кўришига етарлик даражада ойлик маош тайин қилинмоғи лозим.

Болаларни ҳар олти ойда имтиҳон қилиш, йил охирида синфдан синфга ўтказиш, ўзлаштирмаганларни синфда қолдириш кўзда тутилади. Дарслар ҳар хил ва ҳар бири ярим соатдан бир соатгача бўлиши мумкин. Зиёдаси болага оғирлик қилади. Дарслар орасида танаффуслар бўлмоғи керак“[4].

Исмоил Гаспралининг бу ғояси-ю амалиёти айнан жадид мактаблари учун ўзига хос концепция эди ва бу тизим барча ҳудудларда ташкил этилган таълим масканлари учун дастуриламал бўлиб келди.

Айнан ана шу боис ҳам шарқда Арастуни “Биринчи муаллим”, Форобийни “Иккинчи муаллим” дея эъзозлаганларидек, Бегали Қосимов таъбири билан айтганда буюк ислоҳотчи Исмоил Гаспралини “Учинчи муаллим” десак, муболаға бўлмас.

Профессор Дилором Алимова таъкидлаганларидек “Жадидлар мактабларида тафаккури ривожланган ва бу мактабларнинг истиқболини тушунган кишилар фарзандлари таълим олган. Жадид мактабларини Европа мактабларига бевосита ўхшаш бўлган, дейиш қийин, лекин уларда ўша мактабларнинг дастлабки намуналари (прообраз) бор эди. Биринчидан, улар парталар билан жиҳозланган, бу мактаблардаги болалар мусулмон мактабларидаги сингари ерда ўтирмаган ва ўқитувчилар уларнинг боши устида калтак ўйнатиб турмаган. Жадидлар мактабларида китоблар, кейинчалик эса хариталар бўлган.

Бу ўринда дарсликлар нашр қилишда Маҳмудхўжа Беҳбудий ва Мунавварқорининг хизматларини алоҳида эътироф этиш жоиз. Дастлаб дарсликлар бўлмаган. Улар Россиядан олиб келинган ва татар мактабларига мўлжалланган бўлган. Исмоил Гаспринский бу масалада катта ёрдам кўрсатган. Жадидлар сўнгра ўзи дарсликлар чоп қилишга ўтган. Мунавварқори ва Беҳбудий жуда кўп дарсликлар ёзган. Масалан, “Китоби аввал” ёки математика, адабиёт, география бўйича дарсликларни олайлик. Албатта, улар қайсидир даражада Россия дарсликларидан ўзлаштирилган бўлиши мумкин, лекин шунга қарамай, бу жуда катта олға силжиш эди. Жадид мактаблари синфларида глобуслар турган. Бу эски миқёслар билан солиштирганда, бутунлай янги нарса эди ва албатта, ажойиб натижалар берган[5].

Профессор Рустамбек Шамсутдинов, шогирдлари Сойибжон Ҳошимов, Нигорахон Акбаровалар билан ҳаммуаллифликда яратган “Ўрта Осиёдаги жадидчилик ҳаракати тарихидан. Биринчи китоб”ида таълим масканларидаги ўқитиш тизимини ҳам таҳлил қилишган: “Жадид мактаблари, яъни янги усул мактабларида диний ва дунёвий таълим-тарбия ҳамда илм ўзаро уйғунлаштирилиб, мактабхонадаги якка ўқитиш усулидан синфда дарс бериш усулига ўтилди, синфларда парталар, география хариталари, глобус ва бошқа кўргазмали қўлланмалар пайдо бўлган. Уларда хат-савод болаларнинг она тилида товуш усули “усули савтия”да ўргатилган. Жадид мактабларида Қуръони карим, математика, география, она тили, рус, араб тиллари, ашула, ҳатто жисмоний тарбия ўқитила бошланди.

Мактаблар асосан 1-4-синфлардан иборат бошланғич мактаблар бўлган. 1913/1914 ўқув йилидан айрим жойларда 2 босқичли тизим жорий қилина бошланди. Бу тизимдаги мактаблар намуна мактаблари деб аталиб, уларнинг 1-босқичи таҳзирий (бошланғич) синфлар, 2-босқичи рушдий (юқори) синфлар дейилган. Хусусан, Мунавварқори Абдурашидхоновнинг намуна мактаби, Абдуқодир Шукурийнинг Самарқанддаги ва А.Ибодиевнинг Қўқондаги мактабида рушдий (юқори) синфлар (5-6 синф) ҳам бўлган. Жадид мактаблари пуллик ва пулсиз эди. Ҳар ойига ота-

оналар баҳоли қудрат, бир сўмдан бир ярим сўмгача пул тўларди. 20–35%гача камбағал ва ночорларнинг болалари текин ўқитилиб, ўқув қуроллари билан ҳам таъминланган. Ўзига тўқ оилалар эса ўз хоҳиши билан уч сўмдан ва ундан ҳам кўп пул берган. Бундан ташқари, жадидлар шахсий жамғармалари ва улар ташкил этган хайрия жамиятлари ҳам жадид мактабларини маблағ билан таъминлаб турган. Низом, дастур ва дарсликларга асосланди. Тарихда биринчи бўлиб жадидлар ўқувчиларга кундалик, чорак ва йиллик баҳолар қўйишни жорий этдилар. Мактаб очган жадидлар дастур, қўлланма ва дарсликларни ҳам ўзлари яратдилар”[6].

Шу тарзда таълимдаги рақобат майдонига кириб келган ўқитиш тизими қисқа вақт ичида аҳолининг эътибори, эътирофини топди.

Натижада, жадид мактаблари, жадидчилик ғоялари таъсирида ҳар бир ҳудуднинг худди Гаспралига ихлос билан қараган, эргашган ўз мураббийлари юзага кела бошлади. Шунингдек, улар томонидан Гаспралиники сингари дарсликлар ҳам яратила бошланди. Бунга мисол сифатида “Устози аввал” (Саидрасул Азизий, 1901 йил), “Адиби аввал” (Мунавваркори, 1907 йил), “Биринчи муаллим” (Абдулла Авлоний, 1910 йил) каби дарсликларни мисол қилиш мумкин. Биргина Саидрасул Азизийнинг “Устози аввал” дарслигига талаб кўп бўлганидан 1917 йилгача 17 маротаба қайта-қайта нашр этилгани, аҳолида, ўқувчиларда эҳтиёж катта бўлганини кўрсатади.

Шу сингари Беҳбудийнинг “ Рисолаи асбоби савод” (1904 йил), “Рисолаи жуғрофияи умроний” (1905 йил), “Рисолаи жуғрофияи Русий” (1905 йил), “Китобат ул-атфол” (1908 йил), “Амалиёти ислом”(1908 йил), “Тарихи ислом” (1909 йил) китоблари, Исҳоқхон Ибратнинг “Луғати ситтати алсина”, “Жомеъ ул-хутут”, Мунаввар Қорининг “Адибус-соний”, “Усули ҳисоб”, “Ҳавойижи диния”, “Тажвид”, “Тарихи қавми турк”, “Тарихи анбиё”, “Тарихи исломия”, “Ўзбекча тил сабоқлиғи” ҳам жадид мактаблари учун энг муҳим дарсликлар эди.

“Хоразмдаги жадид мактаблари айнан Ферузхон, Асфандиёрларнинг хайрихоҳлиги, қўллаб қувватлаши, Исломхўжа, Асфандиёр, Мамат маҳрам сингари фидойиларнинг саъйи-ҳаракати билан ташкил этила бошлаганди. Айнан ушбу мактабларда ҳам Исмоил Гаспралининг “Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош”, “Хўжаи сибён” (“Болалар муаллими”) асарлари асосидаги жадидлар ғоясидаги таълим тизими жорий қилинганди.

Шунингдек, Исмоил Гаспралининг асарлари, Беҳбудий, Мунаввар қори, Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат, Ҳамза Ҳакимзода, Муҳаммадшариф Сўфизода, Исҳоқхон Ибрат, Саидрасул Азиззода сингари ўз умрини таълимга, миллат, ватан бахт саодатига бағишлаган намояндаларнинг асарлари, “Таржимон” газетаси ҳам мактабларда ўқитилган.

Маълумки, Мамат маҳрамнинг маслакдошларидан бўлган жадид шоири Аваз Ўтар (15.08.1884-1919) ҳам Қримда нашр этиладиган “Таржимон” газетасини ўқиб уни Хоразмда тарғиб қилиб борган.

Афсуски, Аваз Ўтар камолотга етган бир пайтда сил касалига чалинади ва даволаниш учун Кавказ ва Қримга (1905-1906 йилларда) боради. Аваз Ўтар Бокудалик пайтида озарбайжон жадид мактаблари билан танишади, Тоҳирзода Собир (1860-1911) сингари шоирлар билан учрашиб дўстлашади ва улар билан кейин ҳам ижодий алоқада бўлади. Шунингдек, Султон Мажид Ғанизода (1886-1937) томонидан ташкил этилган мактаблар фаолияти билан танишади. Сафарали Валибейов (1861-1902)нинг “Ватан тили”, “Усули жадид”, “Лисоний форсий” номли асарларини ва “Хазинаи ахбор” номли икки жилдлик қомусий луғатини ҳам Хоразмга олиб келади. Кавказ ва Қрим сафари Аваз Ўтар ижодида алоҳида аҳамиятга эга бўлди[7].

Тадқиқотчи М.У.Қаюмов таҳлилларига кўра, “Янги усул мактаблари нисбатан қисқа вақтларда ўқиш ва ёзишга ўргатилиши билан ўқувчиларни ўзига жалб этарди. Хива халқининг дунёвий билимларни эгаллашга қизиқиши маърифатпарварларнинг тарғиботлари натижасида ҳам ортиб боради. Шу тариқа 1912 йилга келиб Тўрткўл, Шовот, Хўжайлида ҳам янги усул мактаблари очилади. Янги усул мактаблари сонининг ортиб бориши, уларнинг дарслик ва бошқа ўқув қўлланмалари билан таъминлаш муаммосини келтириб чиқарди. Дарсликлар Истанбул, Қозон, Тошкентдан келтириларди. Хива жадидлари янги усул

мактаблари очиш билан бирга, улар учун дарсликлар яратиш борасида ҳам катта ишларни амалга оширдилар. Янги усул мактабларида маҳаллий тилда ўқиш, ёзиш, арифметика, география, Хиванинг қисқача тарихи, чизмачилик, илоҳиёт фанларидан дарс берилган. Мактаб хоналарининг ички тузилиши эски мактаблардан парта, ёзув тахтаси, географик харита ва ўқитувчи учун стол-стулнинг борлиги билан ажралиб турган. Мактабларда болалар 2-3 йил ўқишни давом этдирганлар. Янги усул мактаблари эски усул мактабларидан таълимнинг сифати билан ҳам ажралиб турган"[8].

Тадқиқотчи Матюсуф Салимовнинг (жадид маърифатпарвари, шоир ва давлат арбоби Бобоохун Салимовлар сулоласига оид архив асосидаги маълумотлари бўйича) изланишларига кўра, 1908 йилда Муҳаммад ибн Иброҳим Идрисовнинг "Математикадан ҳисоблаш амали" дарслиги, 1910 йилда эса Қозон шаҳрида қуйидаги китоблар нашр этилган ва хонликга келтирилган. "Каримовлар савдо уйи" ҳомийлиги ва нашри чоп этган дарсликлардан жадид мактабларида, хусусан Хоразм мактабларида ҳам сабоқ берилган:

1.Қироат туркия. Биринчи синфлар учун. Зуфар ибн мулло Аҳмад Шокир ал-Қосимий.

2. Муаххос тарихи ислом. Ёқуб Момешов.

3. Тарихи анбиё. Ш.Ҳамидий.

4. Тарихи ислом. Абдуллоҳ Сиддиқий.

5. Ифтаҳут-таворих. Ҳабибун-нажжор ибн мулло Муҳаммад Кофий.

6. Ҳадиқатул асар. Ш.Ҳамидий.

7. Тарихи ислом муфассал. 1,2,3-қисмлари. Ш.Сулаймоний.

8. Мустафадул ахбар. Жуз аввал. Шаҳобиддин ал-Маржоний.

9. Хулосаи тарихи умумий. Хорис Файзий.

10. Илми ҳал 1, 2,3-қисм. Муаллим Зуфар ибн мулло Аҳмад Шокир Қосимий.

11. Илми ҳал. Мулло Хўяалиддин Ҳасангаев асари.

12. Қироати туркия. Зуфар Қосимий.

13. Қироати туркия ўқув китоби. Ш.Ҳамидий.

14. Таълими қироат ва таҳрири туркий. Хорис Файзий.

15. Усул жуғрофия. Хорис Файзий асари.

16. Бидаят жуғрофия. Ибтидоий синфлар учун.

17. Муаллими ҳисобдан касур. Тажиддин Иброҳимий.

18. Ҳисоб муаллими. Зиё Носрий.

19. Бадул ҳисоб. Собиржон мулло Абдулбаия Мумсавий.

20. Мукаммал ҳисоб. Умар ибн Абдураҳим Давлатёров.

Ушбу ва шу сингари Қрим, Қозон, Тошкент ва бошқа шаҳарларда нашр этилган дарслик, қўлланма ва таълимга оид бошқа китоблар Хоразмда фаолият кўрсатаётган "Таъсисоти хайрия", "Янги Урганч саводхонлиги жамияти" ташкилотлари маблағлари, бадавлат мулкдорларнинг ҳомийлиги, қолаверса Асфандиёрхон, бош вазир Исломхўжанинг ҳиммати, саховати сабаб Хоразмга олиб келтирилган.

НАТИЖАЛАР. Шундай қилиб, XIX аср иккинчи ярми - XX аср бошларида Хива хонлигида ҳам Туркистон ўлкаси ҳамда Бухоро амирлигидаги каби жадидчилик ҳаракати вужудга келди. Хоразмдаги жадидчилик ҳаракатининг ўзига хос жиҳатларидан бири шу бўлдики, бу ҳудудда маърифатпарварлар Туркистон ўлкаси ва Бухоро амирлигида бўлганидек, ҳукумат томонидан таъқиб остига олинмади. Аксинча, жадидларнинг фаолияти хон ва унинг илғор фикрли амалдорлари томонидан қўллаб-қувватланди, ҳомийлик қилинди.

Хоразм жадидлари маориф соҳасидаги асосий эътиборини ёшларга замонавий билимлар беришга қаратдилар ва уларнинг маърифатпарварлик ғоялари зое кетмади. Диний ва дунёвий фанларни қўшиб ўқитишга асосланган янги усул мактаблари Хоразмда маданият ва маориф тараққиётида ижобий аҳамият касб этди. Янги усул мактабларида таълим олган ёшлардан Бекжон Раҳмон, Марям Султонмуродова, Қурбон Берегин, Карим Болтаев, Раҳмат Мажидий сингари адабиёт ва ижтимоий ҳаётнинг турли жабҳаларида ном таратган арбоблар етишиб чиқди.

ХУЛОСА. Ана шу тарзда жадид мактабларининг Хоразмда ташкил этилиши, шаклланиши ва унга нисбатан талаб ортиши боис фақат пойтахтдагина эмас, бекликларда ҳам ушбу таълим масканлари сони орта

бошлади. Натижада XIX аср охири, XX аср бошларидан Хоразмда жадид мактаблари ўз даврининг энг илғор мактаблари, аҳолининг дунёқараши кенгайиши, воҳанинг тараққиёти юксалишига ўз ҳиссасини қўшди.

Бу борада юқорида биз фаолиятларини мамнуният билан ёритган жадид педагоглари борки, бу Хоразм тарихидаги энг ёрқин саҳифалардир. Айниқса жадид педагоглари орасида Комила Қўшаева, Марямхон Агишева, Зайнаб Сиддиқоваларнинг борлиги, таълим тарихидаги фахру ифтихорли даврдир. Кейинчалик уларнинг минглаб издош педагоглари Хоразмдан етишиб чиқди. Хива, Янги Урганчдан бошланган жадид таълим тизими минглаб Комила, Марямхон, Зайнабларни Хоразмнинг маърифат қалдирғочлари сифатида жамиятга етказиб берди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Аҳад Андижоний. Туркистон учун кураш. Тафаккур нашриёти, Тошкент. 2017 йил, 10, 11, 12-бетлар.
2. Исмоил Гаспрали. Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош. Симферополь, 1898 йил, 4-бет.
3. Бегали Қосимов. Миллий уйғониш. Маънавият нашриёти. Тошкент -2002 йил, 21-бет.
4. Исмоил Гаспринский. Ҳаёт ва мамот масаласи. Бегали Қосимов. “Учинчи муаллим” номли сўзбоши. Маънавият нашриёти. Тошкент-2006 йил, 20-бет.
5. Дилором Алимова. Жадидларнинг ғоявий асослари, ютуқ ва хатолари. https://www.uzanalytics.com, 2022 йил 10 март.
6. Рустамбек Шамсутдинов, Сойибжон Ҳошимов, Нигорахон Акбарова. Akademnashr нашриёти. Тошкент-2024 йил, 12,13, 14-бетлар.
7. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадид мактаблари. MILLENIUMUS PRINT нашриёти, Урганч. -2025 йил, 32 бет.
8. М.Қаюмов. Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Наврўз нашриёти. Тошкент-Урганч-2019 йил, 130-131-бетлар.
9. Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадидчилик ҳаракати энциклопедияси. Урганч-2024 йил, MILLENIUMUS PRINT нашриёти.
10. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадид мактаблари. MILLENIUMUS PRINT нашриёти. Урганч -2025 йил, 43-бет.
11. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар. Хоразм жадидларининг мустамлакачилик даврларида қатағон қилиниши. MILLENIUMUS PRINT нашриёти. Урганч-2025 йил.
12. Сайёра Самандар, Умид Бекмуҳаммад. Хоразм жадидчилиги: ислоҳотлар, таълим ва адабиёт, MILLENIUMUS PRINT нашриёти, Урганч-2024 йил.
13. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар. Хоразм жадид намоёндалари: ҳаёти, фаолияти ва адабий мероси. MILLENIUMUS PRINT нашриёти, Урганч-2024 йил.
14. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар. Жадид маърифатпарвари ва матбаачилик асосчиси. Дурдона нашриёти, Бухоро-2025 йил.
15. Умид Бекмуҳаммад, Сайёра Самандар. Хоразм матбаачилиги ва матбуоти тарихи. Дурдона нашриёти, Бухоро-2025 йил.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 821.512.133.09-3

HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA SO'Z TAKRORINING BADIIY QUDRATI

Xajiyeva Dilfuza Adambayevna, Urganch davlat pedagogika instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent



https://orcid.org/0009-0004-0739-3035
e-mail: adambayevna81@gmail.com

THE ARTISTIC POWER OF WORD REPETITION IN THE POETRY OF HAMID OLIMJON

Khajiyeva Dilfuza Adambayevna, Urgench state pedagogical institute department of "Uzbek language and literature" doctor of philosophy (PhD) in philology, associate professor

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ СИЛА ПОВТОРЕНИЯ СЛОВ В ПОЭЗИИ ХАМИДА ОЛИМДЖОНА

Хаджиева Дилфуза Адамбаевна, Ургенчский государственный педагогический институт, кафедра "Узбекский язык и литература", доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Hamid Olimjon she'riyatida leksik takrorlarning badiiy-funksional xususiyatlari tadqiq etilgan. Shoir ijodida qo'llanilgan anafora, takrir, mukarrar va epifora kabi takror turlarining she'r mazmunini chuqurlashtirish, obrazlarni yorqinlashtirish hamda musiqiylikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilindi. She'riy misollar asosida leksik takrorlarning lirik kechinmalarni kuchaytirish, g'oya va shakl uyg'unligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib berildi. Tadqiqot natijalari Hamid Olimjon she'riyatida leksik takrorlar shoirning individual badiiy uslubini belgilovchi muhim poetik vosita ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Hamid Olimjon, she'riyat, badiiy tasvir vositalari, leksik takror, anafora, epifora, mukarrar, takrir.*

Abstract: *This article examines the artistic and functional features of lexical repetitions in the poetry of Hamid Olimjon. The role of such types of repetition as anaphora, repetition (takrir), mukarrar, and epiphora in deepening poetic meaning, enhancing imagery, and ensuring musicality is analyzed. Based on poetic examples, the study reveals the significance of lexical repetitions in intensifying lyrical emotions and achieving harmony between idea and form. The research findings demonstrate that lexical repetitions in Hamid Olimjon's poetry constitute an important poetic device that defines the poet's individual artistic style.*

Keywords: *Hamid Olimjon, poetry, artistic expressive means, lexical repetition, anaphora, epiphora, mukarrar, takrir.*

Аннотация: *В данной статье исследуются художественно-функциональные особенности лексических повторов в поэзии Хамида Олимжона. Анализируется роль таких видов повторов, как анафора, такрир, мукаррар и эпифора, в углублении поэтического содержания, усилении образности и обеспечении музыкальности стиха. На основе поэтических примеров раскрывается значение лексических повторов в усилении лирических переживаний, а также в обеспечении гармонии идеи и формы. Результаты исследования показывают, что лексические повторы в поэзии Хамида Олимжона являются важным поэтическим средством, определяющим индивидуальный художественный стиль поэта.*

Ключевые слова: *Хамид Олимжон, поэзия, средства художественной выразительности, лексический повтор, анафора, эпифора, мукаррар, такрир.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotda badiiylik masalasi doimo ijodkorlar e’tiborida bo‘lgan. Adabiy jarayonda shoirning ijodi ko‘pincha u qanday mavzuni tanlagani bilan emas, balki uni qay tarzda tasvirlagani bilan belgilanadi. Shu bois she’riy asarlarda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati barcha davrlarda ijodkor salohiyatining eng muhim mezonlaridan biri sifatida baholangan.

Ma’lumki, badiiy tasvir vositalari she’rda ilgari surilgan g‘oyalarni hayotga yaqin, ta’sirchan va obrazli ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ular lirik timsollarning yanada yorqin namoyon bo‘lishiga, misra va bandlarning ohangdorligi hamda badiiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Aynan shu vositalar orqali she’r o‘quvchi qalbiga chuqurroq singadi.

Mumtoz adabiyotga nazar tashlasak, badiiy san’atlardan foydalanish shoirning faqat mahoratini namoyish etish uchungina emas, balki ular ijodkorning teran badiiy tafakkuri, keng dunyoqarashi hamda yuksak ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarini ifodalash san’atining yorqin ifodasidir. Hamid Olimjon she’riyati so‘zning sehriga asoslangan. Shoir bir xil so‘z yoki so‘z birikmalarini qayta-qayta qo‘llash orqali nafaqat ohangdorlik yaratadi, balki she’rning ichki ruhini, hissiy bosimini kuchaytiradi. Leksik takror Hamid Olimjon ijodida oddiy takror emas, balki ma’no chuqurlashuviga xizmat qiluvchi badiiy vositadir.

Shoir takror orqali o‘quvchi e’tiborini muhim tushunchalarga jamlaydi. Masalan, Vatan, sevgi, tabiat, bahor, yoshlik kabi tushunchalar uning she’rlarida ko‘p bora qaytarilib, ramziy darajaga ko‘tariladi. Bu takrorlar she’r mazmunini kengaytirib, so‘zga yangi emotsional rang bag‘ishlaydi.

Hamid Olimjon leksik takrorlardan ritm va musiqiylik yaratish maqsadida ham foydalanadi. Qayta-qayta ishlatilgan so‘zlar she’rga qo‘shiqsimon ohang beradi, uni xalqona va esda qolishi oson bo‘ladi. Ayniqsa, tabiat tasvirlarida uchraydigan takrorlar shoirning lirikasini jonlantirib, manzarani ko‘z oldimizda gavdalantiradi.

Shoir ijodida leksik takrorlar ba’zan tuyg‘ularning kuchini oshirish vositasiga aylanadi. Sevgi, sog‘inch yoki quvonch kabi kechinmalar takrorlar orqali kuchayib boradi va o‘quvchi qalbiga chuqurroq ta’sir etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS): Adabiyotshunoslikda takror badiiy matnda muallif tomonidan tasvirlanayotgan voqea-hodisa yoki holatga o‘quvchi e’tiborini kuchliroq jalb etish, uni ta’sirchan va bo‘rttirilgan holda ifodalash vositasi sifatida qaraladi. Takrorlar asarning ohangdorligini oshirib, uning emotsional ta’sirini kuchaytiradi hamda badiiy nutqni yanada jozibador qiladi. Shu bilan birga, ular mazmunni idrok etishni yengillashtirib, o‘quvchining badiiy g‘oyani tezroq va aniqroq anglashiga xizmat qiladi.

Takrorning boshqa ko‘rinishlari singari leksik takrorlar ham o‘ziga xos ifoda shakli va tasvir uslubiga ega. Badiiy matnda leksik birliklar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, matnning g‘oyaviy-badiiy talablariga muvofiq ravishda rang-barang vazifalarni bajaradi. Ular ba’zan ma’no urg‘usini kuchaytirsa, ba’zan hissiy holatni chuqurlashtirish yoki ritmik tuzilmani mustahkamlashga xizmat qiladi[1].

Umuman olganda, lug‘aviy birliklar badiiy tasvirning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq ularning badiiy matndagi qo‘llanish darajasi hamda estetik imkoniyatlari bir xil emas. Har bir leksik birlik kontekst doirasida o‘ziga xos badiiy vazifani bajarib, asarning umumiy badiiy qimmatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamid Olimjon she’riyatidagi leksik takrorlarning badiiy-ta’sirchan xususiyatlarini aniqlash maqsad qilib olingan. Shoir ijodida takrorlar, ayniqsa, sevgi, tabiat, kuy, Vatan kabi mavzular tasvirida keng qo‘llanilib, lirik kechinmalarning kuchayishiga va she’r musiqiyligining ortishiga xizmat qiladi. Hamid Olimjon leksik takrorlar orqali nafaqat mazmunni mustahkamlaydi, balki so‘zning emotsional imkoniyatlarini to‘la ishga soladi.

Izlanishlar jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Leksik takrorlarning umumiy xususiyatlarini yoritish uchun **tavsifiy metoddan va shoir** she’rlaridagi takrorlarning badiiy vazifasini aniqlashda tahliliy metoddan. Takrorlarning mumtoz va zamonaviy she’riyatdagi o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rsatishda **taqqoslash metodidan foydalangan.**

Shu asosda olib borilgan tahlillar leksik takrorlarning shoir she’riyatida tasviriylikni kuchaytiruvchi, hissiy ta’sirni oshiruvchi va shoirning individual badiiy uslubini belgilovchi muhim poetik vosita ekanini ko‘rsatadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Hamid Olimjon she’riyatida badiiy tasvir vositalari, xususan, takrorlar o‘ziga xos badiiy jiloga ega. Shoir ijodida badiiy takrorlar fikrni yanada teran va ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan bo‘lib, she’rning

g‘oyaviy mazmuni bilan shakliy tuzilishi o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlaydi. Takror vositasida ifodalanayotgan tushunchalar obrazli qiyofa kasb etadi, misralarning ohangdorligi kuchayadi va she’r musiqiyligi yanada ravshan namoyon bo‘ladi. Hamid Olimjon she’riyatida ham takrorlarning go‘zal namunalarini uchratamiz. Leksik takrorlar she’r ta’sirchanligini ta’minlaydi. Bunday tasirchanlik shoir she’rlarida anafora, mukarrar, takrir, epifora takrorlari vositasida namoyon bo‘lgan.

Kuy ko‘pdir, har yurak saqlaydi armon,
Kuy aytib doimo qushlar chiyillar.
Kuy berar yurakka hordiq va darmon,
Kuy aytib uchadi bevatan yellar [3.163-b].

Hamid Olimjon bu bandda “kuy” so‘zini misralarda takrorlab, har satrga musiqiy nafas baxsh etadi. Takrorlar go‘yo qalbning ichkarida chalinayotgan bir nolatga aylanib, lirik qahramon kechinmalariga ohangdor jilva bag‘ishlaydi. Shoir kuyni armon, qushlarni chiyillatib jon beradi, yurakka shifo va darmon, yellar ham kuyga jo‘r bo‘layotganday tasvirlaydi. Zero kuy insonning eng nozik hislarini uyg‘otadi, qalbni oromga chorlaydi, ruhni yangilaydi va lirik qahramon kechinmalariga musiqiy nafislik baxsh etadi. Takrorlarning bu turi, she’riy misralarning boshida ohangdosh so‘zning takrorlanib kelishidir. Ushbu musralarda “shag‘illaydi” so‘zi to‘rt o‘rinda qo‘llangan, bu esa she’rdagi asosiy g‘oya “shag‘illaydi” so‘ziga singdirilmoqchi bo‘lganligini anglatadi.

Shag‘irlardi osmon va havo,
Shag‘irlardi butun koinot,
Shag‘irlardi betinim daryo,
Shag‘irlardi daryoda hayot...
Holbuki tun…[2.181].

“Shag‘irlardi” so‘zining har satrda yangrashi go‘yo butun olamning yuragi bir ohangda urayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Shoir bu so‘zni takrorlab, koinotga, tabiatga, hayotning eng mayin qatlamlariga ham musiqiy tebranish baxsh etadi. Shoir takrorning sehridan ehtimol, har bir misraga tebranish, hayotiylik, ovoz, ohang, nafasi bor manzaralarni joylaydi. Bu tebranish – tovush emas, borliqning yashirin kuyi.

Hamid Olimjon she’riyatida leksik takrorlarning turli ko‘rinishlari uchraydi va ular she’rning badiiy ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shoir asarlarida anafora, takrir, mukarrar va epifora kabi takror turlari faol qo‘llanilib, har biri muayyan estetik vazifani bajaradi.

Bunday olib qaraganda, Hamid Olimjon she’riyatida leksik takrorlar shoirning badiiy tafakkuri va individual uslubini namoyon etuvchi muhim poetik vosita sifatida maydonga chiqadi. Ular she’rning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtirib, estetik ta’sirchanlik va musiqiylikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O‘tkazilgan tadqiqot Hamid Olimjon she’riyatida leksik takrorlar muhim badiiy-estetik vazifani bajarishini yaqqol ko‘rsatdi. Shoir ijodida takrorlar tasodifiy emas, balki she’rning g‘oyaviy mazmuni, hissiy yo‘nalishi va musiqiy tuzilishini ta’minlovchi yetakchi poetik vosita sifatida qo‘llanilgan. Leksik takrorlar orqali fikr teranlashadi, lirik kechinmalar kuchayadi va obrazlar yanada jonli hamda ta’sirchan tarzda gavdalanadi.

Demak, Hamid Olimjon she’rlarida anafora, takrir kabi takror turlar faol qo‘llanilib, har biri alohida badiiy vazifani bajaradi. Anafora orqali tabiat va bahor manzaralari jonlantirilsa, takrir jangovar ruh va qat’iyatni ifodalashda xizmat qilgan[4]. Mukarrar takrorlar tasvirni bo‘rttirish va kengaytirishga imkon yaratgan bo‘lsa, epifora lirik qahramonning ichki kechinmalari va tuyg‘ularini chuqurroq ochib berishga yordam bergan.

Shuningdek, leksik takrorlar shoir she’riyatida misra va bandlarning ohangdorligini kuchaytirib, she’r musiqiyligini ta’minlagan. Bu hol shoir ijodining xalqona ruhda, o‘qilishi yengil va yodda qolarli bo‘lishiga sabab bo‘lgan muhim omillardan biridir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Hamid Olimjon she’riyatida leksik takrorlar shoirning yuksak badiiy mahoratini, boy poetik tafakkurini va o‘ziga xos individual uslubini namoyon etuvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular she’rning estetik qiymatini oshirib, adabiy merosining badiiy salmog‘ini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ҳ.Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. Тошкент-1994.
2. Ҳ.Олимжон. Танланган асарлар. Тошкент- 1951.
3. Қосимов Б. *Мумтоз адабиёт ва замонавий тафаккур*. — Тошкент: Фан, 1995.
4. Мирвалиев С. *Поэтика ва бадиий тафаккур*. — Тошкент: Мумтоз сўз, 2015.
5. Шарафиддинов О. *Навоий ва адабий тафаккур масалалари*. — Тошкент: Фан, 1985.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.172):792

SAFO MUG‘ANNIYNING XORAZM TEATR SAN’ATI TARIXIDA TUTGAN O‘RNI

Eshchanova Manzura Artikbayevna, mustaqil tadqiqotchi

THE ROLE OF SAFO MUG‘ANNI IN THE HISTORY OF KHOREZM THEATRE ART

Eshchanova Manzura Artikbayevna, independent researcher

РОЛЬ САФО МУГАННИ В ИСТОРИИ ХОРЕЗМСКОГО ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА

Эшчанова Манзура Артикбаевна, независимый исследователь



https://orcid.org/0009-0003-9134-0704
e-mail: eshchanovamanzura7@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm teatr san’atining shakllanishi va rivojida muhim o‘rin tutgan Safo Mug‘anniyning hayoti va ijodiy faoliyati yoritilgan. XX asr boshlarida Xorazmda teatrchilik harakatining vujudga kelishi, mahalliy dramatik truppalar va musiqali drama to‘garaklarining tashkil etilishi, ilk davlat teatrining bunyod etilishi jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, Safo Mug‘anniyning rejissyorlik, aktyorlik, bastakorlik faoliyati hamda uning Xorazm madaniy hayotiga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Safo Mug‘anniy, Xorazm teatri, milliy teatr, musiqali drama, sahna san’ati, jadidlar harakati, madaniy meros.*

Annotation: *This article examines the life and creative activity of Safo Mug‘anniy, who played a significant role in the formation and development of theatrical art in Khorezm. The study analyzes the emergence of the theatrical movement in Khorezm in the early 20th century, the establishment of local dramatic troupes and musical drama circles, and the construction of the first state theater. Special attention is given to Safo Mug‘anniy’s work as a director, actor, and composer, as well as his contribution to the cultural development of the region.*

Keywords: *Safo Mug‘anniy, Khorezm theater, national theater, musical drama, performing arts, Jadid movement, cultural heritage.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются жизнь и творческая деятельность Сафа Муганния, сыгравшего важную роль в становлении и развитии театрального искусства Хорезма. Проанализированы процессы зарождения театрального движения в Хорезме в начале XX века, создание местных драматических трупп и музыкально-драматических кружков, а также строительство первого государственного театра. Особое внимание уделено режиссёрской, актёрской и композиторской деятельности Сафа Муганния и его вкладу в культурную жизнь региона.*

Ключевые слова: *Сафа Муганний, хорезмский театр, национальный театр, музыкальная драма, сценическое искусство, джадидское движение, культурное наследие.*

Kirish. XX asr boshlarida Xorazm vohasida madaniy-ma'rifiy hayotda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Jadidchilik harakati ta'sirida milliy san'at, xususan teatr san'ati yangi mazmun va shakl kasb eta boshladi[1].

Ana shu jarayonda Xorazm teatrining shakllanishi va rivojiga bevosita hissa qo'shgan yetuk san'atkor va madaniyat arboblaridan biri Safo Mug'anniydir. Uning tashabbuslari natijasida mahalliy dramatik truppalar tashkil etildi, musiqali sahna asarlari yaratildi va ilk davlat teatri barpo etildi. Ushbu maqolada Safo Mug'anniyning Xorazm teatr san'atidagi o'rni, ijodiy faoliyati hamda milliy teatr taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil etiladi.

Manbalar va adabiyotlar tahlili. Safo Mug'anniyning hayoti va ijodiy faoliyati, shuningdek, Xorazm teatr san'atining shakllanishi masalalari turli davrlarda yaratilgan tarixiy, adabiy va teatrshunoslik manbalarida qisman yoritilgan. Mazkur mavzuni o'rganishda, avvalo, XX asr boshlarida nashr etilgan davriy matbuot materiallari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, "Izvestiya" gazetasi sahifalarida Xivada tashkil etilgan klublar, musiqali drama to'garaklari va teatr faoliyati haqidagi xabarlar Safo Mug'anniyning madaniy tashabbuslarini yoritishda muhim faktik material beradi.

Xorazm tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarda teatr va sahna san'ati masalalari umumiy madaniy jarayonlar doirasida ko'rib chiqilgan. Xususan, Xorazm madaniy hayoti, jadidchilik harakati va san'at taraqqiyotiga bag'ishlangan tadqiqotlarda Safo Mug'anniy faoliyati qisqa tavsiflar orqali tilga olinadi. Biroq ushbu ishlarda uning teatr tashkilotchisi, rejissyor va bastakor sifatidagi ko'p qirrali faoliyati yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan.

Teatrshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishidagi asarlarda esa Xorazm teatrining dastlabki bosqichlari, musiqali drama janrining shakllanishi, sahna repertuarlari va ijodiy jamoalar faoliyati umumiy tarzda yoritilgan. Bu manbalarda Safo Mug'anniy nomi Xorazm teatrining asoschilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, uning sahnalashtirilgan asarlari, musiqiy insenirovkalari va qo'shiqlariga oid aniq ma'lumotlar kam uchraydi.

Muhim manbalardan yana biri Safo Mug'anniyning she'riy merosi va zamondoshlari xotiralaridir. "Yugurdik" to'plamiga kiritilgan she'rlar, xususan teatr faoliyatiga bag'ishlangan asarlar, o'sha davr ijtimoiy-madaniy muhitini ochib berishda qimmatli manba hisoblanadi. Biroq uning ko'plab musiqiy va sahna asarlari yozma holatda saqlanib qolmaganligi tadqiqot jarayonida ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shu sababli, mavjud adabiyotlar tahlili Safo Mug'anniy faoliyatini to'liq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Uning Xorazm teatr san'ati taraqqiyotidagi o'rni, ijodiy merosi va tashabbuskorlik faoliyati alohida va kompleks tadqiqotni talab etadi. Ushbu maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Safo Mug'anniyning ijodiy faoliyati hamda Xorazm teatr san'atining shakllanish jarayonini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda tarixiylik va tizimlilik tamoyillari asos qilib olindi. Xususan, Safo Mug'anniyning faoliyati XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanilib, Xorazm teatrining vujudga kelishi boshqa hududlardagi teatr harakati bilan solishtirildi. Bu metod orqali Xorazm teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari, mahalliy an'analar va tashqi madaniy ta'sirlar aniqlab berildi. Shuningdek, manbashunoslik metodi asosida davriy matbuot, arxiv hujjatlari, xotiralar va adabiy-tarixiy manbalar tahlil qilindi.

Adabiyotshunoslik va teatrshunoslik yondashuvlari yordamida Safo Mug'anniyning sahna asarlari, musiqali drama va insenirovkalari, she'riy hamda musiqiy ijodi o'rganildi. Tahlil jarayonida tavsifiy va analitik metodlar qo'llanilib, uning rejissyorlik, aktyorlik va bastakorlik faoliyati kompleks tarzda yoritildi.

Bundan tashqari, biografik metod orqali Safo Mug'anniyning hayot yo'li, ijodiy shakllanish bosqichlari va madaniy tashabbuslari izchil tadqiq etildi. Umumlashtirish va xulosalash metodlari esa olingan ilmiy natijalarni tizimlashtirish hamda

[1] Xorazm madaniy hayoti va jadidchilik harakati haqida qarang: Xorazm tarixi va madaniyati. – Toshkent: Fan, 1976.

Xorazm teatr san'ati taraqqiyotidagi Safo Mug'anniyning o'rnini aniqlashda qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Xorazm xalqi tabiati san'atsevar xalq. Xalqimizning juda qadimiy yuksak madaniyati, san'ati, ayniqsa musiqasi, raqs san'ati, milliy xalq kuylari haligacha jozibadorligi va o'ziga xosligini saqlab kelmoqda. Xorazmning o'ziga xos san'ati – qo'shig'i, musiqasi, raqsi mavjudki, u Buxoro, Toshkent, Farg'ona vodiylaridan ajralib turadi. Bu esa uning qadimiyligidan daolat beradi.

Xiva xonligi davrida ham xalq san'ati an'analari rivojlangan. Xon saroyida professional xonanda-yu, sozandalar, mohir raqqoslar, qiziqchi-masxarabozlar faoliyat ko'rsatganlar. XX asr boshlarida Xorazm jadidlarining Yevropaga qilgan safarlari natijasida teatrga bo'lgan qiziqish orta bordi. Va bu holdan mahalliy ilg'or kishilar mustasno bo'ldilar. Garchand "teatr" tushunchasi xalq o'rtasida shakllanmagan bo'lsa-da, teatr elementlari xalqimizning qadimiy san'at an'analarida o'z aksini topgan edi. Shuning uchun ham asrimiz boshlarida teatrchilik harakati tez fursatda avj oldi va qisqa davr ichida shakllanib tashkil topa boshladi. Ilm-ma'rifatga, dunyoviy madaniyatga qiziqqan va yurtni ham dunyoviy madaniyatda ko'rishni istagan Safo Mug'anniy boshliq madaniyat arboblari teatr tashkil qilish ishiga kirishdilar.

Malumki, 1920-yildan 1922-yilgacha Safo Mug'anniy XXRning maorif nozirligida madaniyat boshqarmasi boshlig'i lavozimida ishlagan. Vaholanki u 1910-yildan boshlab, san'at bilan (xususan musiqa yaratish, kuy bastalash, ashula ijro qilish, musiqali sahna ko'rinishlarini ijod qila boshlaydi) shug'ullana boshlaydi[2].

Ayniqsa Turkmaniston va Qoraqalpog'istonda yurgan paytlari Xorazm san'atkorlarining birlashuvi natijasida bu soha bilan shug'ullanishi yanada orta bordi. Avvalo vazifasi, qolaversa, tabiatan yaxshilikka, ilm madaniyatga intiluvchi Safo Mug'anniy Xorazmda teatrning, mahalliy dramatik truppalarning tashkil topishida bosh bo'ldi. Uning rahbarligi va tashabbusi bilan Xivada klublar, havaskorlik to'garaklari tashkil qilingan. 1921-yil 10-iyulda Nurullaboy bog'ida joylashgan xon saroyida birinchi ochilgan klub san'atkorlar, harbiylar va shahar mehnatkashlari ommasining madaniy markaziga aylantirilgan. Shu yilning avgsut oyida esa uning boshchiligi va rahbarligida "Musulmon musiqasi" ansambli va "Sayyora" nomli musiqali drama to'g'aragi tashkil qilindi. To'g'arakda S.Saraymanov, U.Qurbonov, M.Palvanov, J.Qalandarov, R.Yusupov singari yoshlar ish boshlaganlar. Vaqtli matbuot, ya'ni shu davrda endigina nashr qilina boshlagan "Izvestiya" ("Известие") gazetasi Safo Mug'anniyning mazkur tashabbusini ijobiy baholab "Yaxshi namuna" degan maqolasini yoritdi[3].

Xorazmda bir qancha dramatik truppalar, havaskorlik to'g'araklari faoliyat ko'rsata boshlagan bo'lsa ham hali "Davlat teatri" deb ataladigan yirik teatr ham va uning binosi ham yo'q edi. Xon saroyi bo'lgan Nurullaboydagi klub binosi "Davlat teatri" degan savolga javob bera olmas edi. Shuning uchun yangi teatr binosi qurish zarur edi. Bu tashabbusni Safo Mug'anniy boshlab beradi va uning boshchiligida 1921-yilning bahoridan Nurullaboy bog'i ichida yangi teatr binosini qurish ishlari boshlab yuboriladi.

Safo Mug'anniy mazkur teatrning ilk g'ishtini qo'ydi. Bino xivalik mehnatkashlarning, san'atkorlarining bir tan-u bir jon bo'lib mehnat qilishlari tufayli barpo bo'ldi. Xorazmning taniqli sozandalari, ashulachilari, raqqosalari, xalfalari va yosh san'atkorlari, san'atni sevuvchi rahbarlar birlashib sahna san'ati ishini tezlashtirdilar. Mazkur teatr binosi roppa-rosa bir yildan so'ng 1922-yilning aprel oyida ishga tushib "Hukumat teatri" deb atala boshlandi. Teatrda Safo Mug'anniy boshliq 12 nafar san'atkorgina ish boshlagan. Tez orada teatrning dovrug'i vohaga mashhur bo'lib, milliy teatr harakati yanada kuchayib ketdi. Safo Mug'anniy yangi teatr faoliyatiga bag'ishlab quyidagi "Toza sahna" (1922) nomli sherini yozdi:

Bugun bayram, birodarlar, kelinglar toza sahnaga,
Oling ibrat, birodarlar, kelinglar toza sahnaga.
Bu sahnaga kelib, tamoshadan emas maqsud,
Ochinglar ko'zlaringizni, kelinglar toza sahnaga.

[2] Safo Mug'anniyning teatr tashkilotchisi sifatidagi faoliyati haqida:Abdullayev A. Xorazm teatr san'ati tarixi. – Urganch, 1988.

[3] "Izvestiya" gazetasi, 1921 yil, avgust soni.

Biling bu sahnani, o‘z mehnatingizdin bino bo‘ldi,

Ochinglar ko‘zlaringizni, kelinglar toza sahnaga.

Kelib sahnada o‘ltursang musaffo bo‘lgusi ko‘ngling,

Mudamo xush qilar vaqting, kelinglar toza sahnaga.

Butun millatlara ruh bergusi sahnadir bilsang,

Bilursiz ilm-u anlarni, kelinglar toza sahnaga.

Yigirma ikkilanji yilda bu sahna bino bo‘ldi,

Mug‘anniy ayladi ta’rif, kelinglar toza sahnaga.

Safo Mug‘anniy yangi teatrning birinchi rahbari, umuman Xorazm teatrining asoschisi, tashubbuskoridir. U 1922-yilning noyabr oyigacha teatrda direktorlik qiladi. Sahna asarlariga rejissorlik qiladi. Musiqali sahna yaratadi. Xullas doimo izlanishda, yangilikka intilishda bo‘ladi. Lekin yangilikni, taraqqiyotni ko‘rolmaydigan unsurlar ham bor ediki, teatr tashkil topgan yili ikki marta tetarning buyumlari, asbob-uskunalari sal kam 2 milliardga yaqin mollari o‘g‘irlanadi. Bunday johillik ko‘rinishlariga qarshi Safo Mug‘anniy mahalliy matbuotda maqolasi va she’ri bilan chiqadi.

Xorazmda tozadin sahna bunyod etdilar,

Fevral oyinda ham bayram etib, ham shod etdilar.

Ittihodi sho‘rodin bir necha asboblar olib,

Kechasi yo‘qlab oni o‘g‘riga isnod etdilar.

Bilmadik, artist birodarlarda yo o‘g‘ridamu?

Kemada bolta yo‘qolgan shakli bir od etdilar.

Ikki milliardga yetarlik ushbu mollar qiymati,

O‘g‘ri oldi deb hukumatga faryod etdilar.

Xorazmni eski bir maqoli bordur yana:

“Qo‘y cho‘ponni ko‘p qilib, qo‘ylarni ifrat etdilar.

Dunyoda inson emas, tarixda ham yod etdilar.

Xorazm farzandlari na uchun yotursiz uyquda,

O‘z huquqingiz taning deb sizni ozod etdilar.

Mundin avval nichcha asboblarni barbod etdilar.

Safo Mug‘anniyning mazkur she’ri “Toza sahna buyumlarining o‘g‘irlangani” deb nomlangan bo‘lib, “Yugurdik” to‘plamidan o‘rin olgan[4]. Safo Mug‘anniy ma’lum bir davrgacha davlat ishlarida faoliyat ko‘rsatib, 1928-yildan yana san’at sohasiga keladi. 1928-yildan 1937-yilgacha (qamoqqa olungunga qadar) Akmal Ikramov, hozirgi Ogahiy nomli Xorazm viloyat teatrida rejissyor, aktyor, direktor bo‘lib xizmat qildi. Bu yillarda Safo Mug‘anniy uchun katta ijod yo‘li edi. Chunki bu yillarda u Xorazmning yetuk sanatkorlari – Matyaqub Xarrot, Matpano Xudayberganov, Chokar, M.Yaqubov, Masharif Palvanov, Jumaniyaz Qalandarov, Sharif Ollayorov, Samandar Saroymanov, Mutrib, Devoniy, Umar Qurboniy, Ota Maxsum, Muhammad Latif-Partov, Abdulhamid Majidiy, Lochinxon kabi shoir yozuvchilar dramaturglari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatib, Xorazmda san’atni rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Ular teatr repertuarlarini yaxshilash, uni boyitishda katta mehnat sarf qilganlar. Ulardan biri o‘ynoqi g‘azal yozsa, ikkinchisi turmushdagi yaramas illatlarni fosh qiluvchi satirik asarlar ijod qilgan. Yana biri drama va insenirovkalari (sahnalashtirish) bilan xalqni xushnud qilgan. Safo Mug‘anniy esa ularning she’rlariga kuy bastalagan. Uni xalq o‘rtasida ijro etgan. Shu bilan birga Safo Mug‘anniy o‘zi ham pyesalarini, qo‘shiqlarini sahnaga olib chiqqan, ham aktyor bo‘lib, ham rejissyor bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan. Qo‘shiq, kuy ijod etish bilan birga bir qancha musiqalarni, sahna ko‘rinishlarini ijod etgan. Insenirovkalarni yaratgan. Ammo bizga hozircha uning qalamiga mansub “Ganji qorabog‘” insenirovkasigina ma’lum.

Safo Mug‘anniy o‘zi ijod etgan kuy qo‘shiqlarini, insenirovkalarini hech qayerda nashr qildirmagan. To‘plam holiga keltirmagan. U yaratgan kuy-qo‘shiqlar, sahna asarlari, safdoshlari, hamkasblari, do‘stlari tomonidan og‘zaki aytilib kelingan. Shubhasiz, Xorazmda teatrchilikning tashkil topishida Safo Mug‘anniy xizmati katta bo‘ldi. U Xorazm teatrining asoschilaridan biri bo‘ldi.

[4] Safo Mug‘anniy. *Yugurdik*. She’rlar to‘plami. – Xiva, 1920-yillar.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, Safo Mug‘anniy XX asr boshlarida Xorazm teatr san’atining shakllanishi va rivojida yetakchi o‘rin tutgan ijodkor va madaniyat arbobi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tashabbusi bilan Xivada ilk dramatik truppalar, musiqali drama to‘garaklari tashkil etilib, milliy teatrchilik harakatiga mustahkam zamin yaratildi. Safo Mug‘anniyning rejissyorlik, aktyorlik va bastakorlik faoliyati Xorazm teatrining professional darajaga ko‘tarilishida muhim omil bo‘ldi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Safo Mug‘anniyning ijodi va teatr tashkilotchiligi faoliyati mahalliy an’analar hamda zamonaviy teatr unsurlarining uyg‘unlashuvi asosida shakllangan. U teatrni nafaqat tomosha vositasi, balki xalqni ma’rifatga chorlovchi, ijtimoiy muammolarni yorituvchi madaniy makon sifatida talqin qilgan. Uning sahna asarlari va musiqali kompozitsiyalari orqali xalq orasida milliy ong va estetik did shakllanishiga xizmat qilingan.

Shu bilan birga, tadqiqot Safo Mug‘anniyning ijodiy merosi to‘liq o‘rganilmaganini ko‘rsatdi. Uning ko‘plab kuy-qo‘shiqlari, sahna asarlari va insenirovkalari yozma manbalar ko‘rinishida saqlanib qolmagan bo‘lib, asosan og‘zaki an’ana orqali yetib kelgan. Bu hol mazkur merosni tizimli ravishda o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Safo Mug‘anniyning ijodiy merosini aniqlash, to‘plash va nashr etish bo‘yicha maxsus ilmiy loyihalar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.
2. Xorazm teatr san’ati tarixiga oid arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallarini kompleks o‘rganish orqali yangi ilmiy ma’lumotlarni muomalaga kiritish zarur.
3. Safo Mug‘anniyning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan alohida monografiya hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash tavsiya etiladi.
4. Uning sahna asarlari va musiqali dramalarini zamonaviy teatr sahnasida qayta tiklash va targ‘ib etish milliy teatr an’analarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Safo Mug‘anniy Xorazm teatr san’ati tarixida muhim o‘rin egallagan ijodkor bo‘lib, uning faoliyatini chuqur va tizimli o‘rganish milliy madaniy merosimizni boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xorazm madaniy hayoti va jadidchilik harakati haqida qarang: Xorazm tarixi va madaniyati. – Toshkent: Fan, 1976.
2. Safo Mug‘anniyning teatr tashkilotchisi sifatidagi faoliyati haqida. Abdullayev A. Xorazm teatr san’ati tarixi. – Urganch, 1988.
3. Izvestiya gazetasi, 1921 yil, avgust soni.
4. Safo Mug‘anniy. *Yugurdik*. She’rlar to‘plami. – Xiva, 1920-yillar.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.01:141.7

ALLOMALARNING BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHGA OID QARASHLARI

Nazarov Nurali Normirzayevich, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori

ВЗГЛЯДЫ УЧЕНЫХ НА ВОСПИТАНИЕ ГАРМОНИЧНО РАЗВИТОЙ ЛИЧНОСТИ

Назаров Нурали Нормирзаевич, профессор Ташкентского университета экономики и педагогики

VIEWS OF SCIENTISTS ON THE UPBRINGING OF A HARMONIOUSLY DEVELOPED PERSONALITY

Nazarov Nurali Normirzaevich, Professor of the Tashkent University of Economics and Pedagogy



https://orcid.org/0009-0000-4065-9668
e-mail: nuralinazarov1968@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada allomalarning barkamol shaxsni tarbiyalash haqidagi qarashlari, ularning mavzuga oid ilmiy meroslari falsafiy jihatdan o‘rganilgan. Jamiyat taraqqiyotida, millat kamolotida shaxsning axloqiy va jismoniy tarbiyasi uyg‘unligi qanday ahamiyat kasb etishi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *allomalar, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, jamiyat taraqqiyoti, inson irodasi, inson kamoloti, jismoniy harakat, millat kelajagi, O‘zbekiston taraqqiyoti, mardlik, jasurlik, ma’naviy meros.*

Abstract: *The article examines the views of scholars on the upbringing of a well-rounded individual and their scientific heritage on this topic from a philosophical perspective. The importance of the harmony of moral and physical education of the individual in the development of society and the improvement of the nation has been revealed.*

Keywords: *scientists, physical education, moral education, societal development, human will, human development, physical movement, nation’s future, Uzbekistan’s development, courage, bravery, spiritual heritage.*

Аннотация: *В статье рассматриваются взгляды ученых на воспитание гармонично развитой личности и их научное наследие по данной теме с философской точки зрения. Раскрыто значение гармонии нравственного и физического воспитания личности в развитии общества, совершенствовании нации.*

Ключевые слова: *учёные, физическое воспитание, нравственное воспитание, развитие общества, воля человека, зрелость человека, физическая активность, будущее нации, развитие Узбекистана, храбрость, мужество, духовное наследие.*

Kirish. Azal-azaldan olimlar olam va odam, tabiat va jamiyat haqidagi qarashlarini kengaytirib borganlari sari barkamol shaxsni tarbiyalash masalasiga umumfalsafiy jihatdan ahamiyat berganlar. Qadimgi Yunonistondan boshlab jismoniy harakat jismoniy madaniyat ekanligi haqidagi tushuncha va qarashlar shakllangan. Barcha xalqlarda harakatsizlik jismoniy tanballik o‘lim bilan barobar, mehnatdan uzilgan, axloq va insonning ijtimoiy mohiyatiga teskari hodisa sifatida qaraladi. Harakat, ya’ni jismoniy mashqlar esa qarilik dil xiraliklarini yenguvchi, insonga uzoq umr ko‘rishida yordam beruvchi, uning ijtimoiy faolligini oshiruvchi vositalardan biridir deb baholanadi.

Muhokama va natijalar. Insoniyat doimo barkamol shaxsni tarbiyalash borasida faoliyat olib boradi. Barkamol shaxs deganda mustaqilligi, o‘z fikriga egaligi, bilimliligi, har bir voqelikka o‘z munosabatini bildira olishi, aqliy kamoloti, o‘zi va barcha uchun sog‘lom turmush tarzini tanlaganligi, jismoniy baquvvatligi, vatanparvarligi, mehnatsevarligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishi, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashi, yoshi ulug‘larni qadrlashi, topshirilgan vazifani sidqidildan bajarishi, halol va pokligi, axloqiy kamoloti bilan ajralib turuvchi shaxs nazarda tutiladi.

Antik davr faylasufi Platon o‘zining “Davlat” asarida yoshlarni gimnastika va harbiy mashqlar bilan shug‘ullanishi ularning har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishlariga harbiy salohiyatlarini oshishiga yordamlashishini tushuntirib beradi. U tana va ruh uyg‘unligi barkamol shaxsni tarbiyalaydi, jismoniy tarbiya inson tarbiyasining **ajralmas qismidir,** musiqa va ilm ruhni, sport tanani sog‘lom qiladi, deb hisoblagan[1]. Uning shogirdi Aristotel jismoniy mashqlar inson irodasini tarbiyalash bilan birgalikda axloqiy tarbiyasiga ham ta’sir etishini, bu ikki tarbiyaning uyg‘unligi inson kamoloti uchun muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi.

O‘rta asrlarda jismoniy va axloqiy tarbiya uyg‘unligini “Tib qonunlari” asarida mukammal aks ettirgan Ibn Sino jismoniy tarbiyani inson sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashning asosiy omili sifatida baholab, o‘z qarashlarini ilmiy va zamonaviy ruhda bayon etadi. U jismoniy mashqlarni yengil, o‘rtacha, kuchli mashqlarga bo‘lib, inson yoshi, jinsi, sog‘lig‘iga qarab o‘zi uchun keraklisini tanlashi ijobiy natija beradi. Aks holatda turli salbiy holatlar ro‘y beradi deb hisoblaydi[2]. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida hukmdorlarning fazilatlarini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor berilgan. Ularning faqat bilimli emas, balki baquvvat, chidamli, jasur bo‘lishi lozimligi uqtiriladi. Bu sifatlarga esa faqatgina jismoniy tarbiya orqali erishish mumkin. Insonning jismoniy baquvvatligi uning aqliy va ma’naviy kamolotiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Asarda jamiyatni himoya qilish, yurt tinchligini saqlash uchun jismonan baquvvat avlod zarurligi alohida ta’kidlanadi[3].

O‘rta asrlarda nafaqat O‘rta Osiyolik shuningdek, g‘arb olimlarining barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o‘rni to‘g‘risidagi fikrlari ham e’tiborga molikdir. **Foma Akvinskiy (1225–1274)** o‘z ta’limotida **tan va ruh bir-biri bilan uzviy bog‘liq** deb hisoblagan. U ruhiy va aqliy faoliyat uchun sog‘lom tana juda zarurdir. **Ruhiy kamolotga tanaga g‘amxo‘rlik qilish orqali erishiladi degan fikrni ilgari surgan**[4]. Yan Amos Kamenskiy (1592-1670) tabiat qonunlariga mos ravishda bolalarni jismoniy zo‘riqtirmasdan tarbiyalash ijobiy natija berishini ilmiy nuqtayi-nazardan tahlil qilgan klassik pedagogika asoschisidir. O‘zining faoliyat turlari va o‘rganishlaridan kelib chiqib, bolaning yosh xususiyatlari, jismoniy imkoniyatlari va fiziologik rivojlanishini hisobga olmasdan turib samarali tarbiyani tashkil etib bo‘lmasligini ta’kidlaydi[5]. Jon Lokk (1632–1704) uning asosiy g‘oyasi inson tabiatan aqlga ega va rivojlanishga qobiliyatli ekanligi, shu sababli jismoniy va ma’naviy yuksalish ungagina xos ekanligini, jismoniy mashqlar ortiqcha bo‘lmasligi va insonning tabiiy ehtiyojlariga muvofiq bo‘lishi kerakligini aksincha, ortiqcha zo‘riqtirish aqliy va ma’naviy rivojlanishga emas balki, salbiy ta’sir ko‘rsatib tanazzulga olib kelishiga asoslangan. Faylasufning o‘ziga xos eng muhim g‘oyalaridan biri sog‘lom tanada sog‘lom fikrga ega bo‘lgan inson jamiyatda o‘zini qanday tutishni biladi[6].

Yogann Genrix Pestalossi (1746–1827) fikrlariga ko‘ra, sport va jismoniy mashqlar faqat kuch va harakat uchun emas, balki bolaning barkamol shaxs sifatida rivojlanishi, aqliy va ma’naviy salohiyatini oshirish uchun ham xizmat qiladi. Maktab o‘z o‘rnida bolaning barkamol bo‘lib yetishishi uchun uning jismoniy aqliy va ma’naviy rivojlanishiga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni olib borishi shart. Bu ishlarni amalga oshirishda o‘qituvchining o‘z shogirdlarini sevishi, ularga o‘z bilimlarini berishi, ularning yetuk bo‘lishlari yo‘lida tinmay izlanishi lozimi [7].

Jamiyatda ijtimoiy-axloqiy faol, barkamol kishilarni voyaga yetkazish masalasiga jadidchilik harakati namoyondalari ham alohida e’tibor qaratishgan. M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy kabi olimlar shaxsni vujud, ya’ni jismoniy, aql va axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan jamiyatda ma’naviy axloqiy uyg‘onishni yuzaga keltirish mumkinligini asoslab berganlar[8,9]. Behbudiyning ta’biri bilan aytganda, jismoniy va axloqiy tarbiya bir-birini to‘ldiruvchi ikki ustundir.

Axloqiy tarbiya insonni ma’naviy va ma’rifiy jihatdan, jismoniy mashqlar insonning jismoniy jihatdan, ular uyg‘unlashganda barkamollik jihatidan komillikka yetaklaydi. A.Avloniy o‘yin va harakat bolaning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Jismoniy jihatdan sog‘lom avlod millat kelajagining kafolati, baquvvat, irodali yoshlar vatan ravnaqi va uni himoya qalqonidir deb hisoblaydi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlaridan F.Yakubov, A.Shopulatov, N.Nazarov, A.Qayumov, F.Yakubov hamda O.Nasirovlar ham jismoniy ham ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalash tahlikali zamonamizda yangi O‘zbekistonning kelajagini belgilab berishini o‘z ilmiy ishlarida yoritishmoqda [10,11,12].

Xulosa qilsak, allomalarning jismoniy va ma’naviy tarbiya uyg‘unligi natijasida barkamol avlodni tarbiyalash haqidagi qarashlarini birgina ilmiy maqolamizda tahlil qila olmasligimiz tabiiy holdir. Shundan kelib chiqib ta’kidlashimiz lozimki, vatanparvar, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi, jismoniy va axloqiy tarbiyani o‘zida mujassam etgan barkamol yosh avlod bilan yangi O‘zbekistonni mustahkam poydevorini qurishimiz uchun kelgusida ham allomalarning ilmiy meroslarini tadqiq etishimiz va yoritib berishimiz davr talabidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Платон. Государство. Издательство: Колибри. Год издания: 2025 ISBN: 978-5-389-30749-0. Подробнее на livelib.ru: https://www.livelib.ru/book/126169/editions.
2. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари.–SHARQ Нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. - 2020.
3. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу Билик. Ғафур Ғулом нашриёти. 2018.
4. Фома Аквинский. Summa theologiae /под ред. Н.Лобковица и А.В.Апполонова; пер. А.В.Апполонова. - Москва : Signum Veritatis, 2006.
5. Я.А.Коменский. Великая дидактика. — русский перевод. Издательство ЁЁ Медиа. ISBN: 978-5-458-26126-5: 2025г. 320с.
6. Джон Локк. Мысли о воспитании. Год издания: 2025. Издательство М.: А.Адольф. — Изд. 2-е.
7. И.Г.Песталоцци. Гармоничное развитие человека. Традиции европейского образования. Год издания: 2021. Издательство: Амрита.
8. Фитрат. Нажот йўли. Тошкент. Маънавият, 2022. Oila yoki oila boshqarish tartibiari. Cho‘lpon nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent -2013.
9. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Турон замин Зиё. 2023.–146.
10. Назаров Н.Н. Спорт ва соғлом ҳаёт фалсафаси. Lesson press нашриёти. Тошкент. 2020 йил. 236-бет.
11. N.Nazarov. The importance of using national games in schools. American journal of social scienceISSN: 2996-5306 (online) | ResearchBib (IF) = 10.67 IMPACT FACTOR Volume-3| Issue-9| 2025 Published: |30-10-2025|73 https://doi.org/10.5281/zenodo.17388635.
12. N.N.Nazarov. The importance of physical education and sports in the recovery of the population. Spanish international scientific online conference the International scientific online conference (29th November,2024) – SPAIN, Madrid: CESS, 2024. Part 16– 140p. 134p.
13. Қаюмов А.Р. От ва туя билан боғлиқ анъанавий этноспорт ўйинлари ва унинг этно ва экотуризмини ривожлантиришдаги ўрни. Жаҳон цивилизациясида Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти халқаро илмий амалий анжумани. Тошкент Yosh Avlod Matbaa. 2022й.
14. Насиров О. Общая система народного образования. Namangan davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumani to‘plami. 2024-yil 28-29-may. б.103-105.
15. Якубов Ф.М. Бўлажак жисмоний тарбия ва спорт мутахассислари тафаккур тарзини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш п.ф.б.ф.д.(PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат-Чирчиқ: 2021.-60 б.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.12.2026 UDK: 37.014.5:001.89

AKADEMIK ERKINLIK VA ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI KONVERGENSIYASI

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li, UrDPI “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi professori v.b., p.f.b.f.d. (PhD), mustaqil izlanuvchi

THE CONVERGENCE OF ACADEMIC FREEDOM AND RESEARCH ACTIVITY

Khudayberganov Shukhrat Shavkat o‘g‘li, Acting Professor of the Department of Preschool Education, UrDPI, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), independent researcher

КОНВЕРГЕНЦИЯ АКАДЕМИЧЕСКОЙ СВОБОДЫ И НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Худайберганов Шухрат Шавкат оглы, и.о. профессора кафедры “Дошкольное образование” УрДПИ, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), самостоятельный исследователь



https://orcid.org/0009-0007-9006-8998
e-mail: sh.xudayberganov.urdu@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasidagi konvergensiya jarayoni zamonaviy oliy ta’lim tizimi kontekstida nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Akademik erkinlikning talabalarning ilmiy subyektivligi, mustaqil va tanqidiy fikrlashi hamda refleksiv tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishdagi roli asoslab beriladi. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati esa ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talabaning intellektual rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik omil sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari akademik erkinlik va ilmiy izlanishlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi oliy ta’limda innovatsion pedagogik muhitni shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *akademik erkinlik, konvergensiya tushunchasi, mustaqil fikrlash, pedagogik jarayon, konseptual yondashuv, innovatsion pedagogik muhit, ilmiy tadqiqot, refleksiv tadqiqot, zamonaviy ta’lim, ilmiy izlanish, intellektual rivojlanish.*

Abstract: *This article provides a theoretical and methodological analysis of the convergence process between academic freedom and research activity within the context of the modern higher education system. The role of academic freedom in shaping students’ scientific subjectivity, fostering independent and critical thinking, and developing reflective research competencies is substantiated. Research activity is interpreted as an integral component of the educational process and a significant pedagogical factor that ensures students’ intellectual development. The findings of the study indicate that the mutual integration of academic freedom and research inquiry contributes to the formation of an innovative pedagogical environment in higher education.*

Key words: *academic freedom, the concept of convergence, independent thinking, pedagogical process, conceptual approach, innovative pedagogical environment, scientific research, reflective research, modern education, research inquiry, intellectual development.*

Аннотация*: В данной статье в контексте современной системы высшего образования теоретико-методологически анализируется процесс конвергенции академической свободы и научно-исследовательской деятельности. Обосновывается роль академической свободы в формировании научной субъектности студентов, развитии их самостоятельного и критического мышления, а также в становлении рефлексивных исследовательских компетенций. Научно-исследовательская деятельность интерпретируется как неотъемлемый компонент образовательного процесса и важный педагогический фактор, обеспечивающий интеллектуальное развитие студента. Результаты*

исследования свидетельствуют о том, что взаимная интеграция академической свободы и научного поиска способствует формированию инновационной педагогической среды в системе высшего образования.

Ключевые слова: *академическая свобода, понятие конвергенции, самостоятельное мышление, педагогический процесс, концептуальный подход, инновационная педагогическая среда, научное исследование, рефлексивное исследование, современное образование, научный поиск, интеллектуальное развитие.*

Kirish. Pedagogik tizimlarda konvergensiya jarayoni ta’lim mazmuni, metodlari, subyektlari va natijalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning kuchayishi orqali namoyon bo‘ladi. Agar an’anaviy ta’lim modellarida mazkur komponentlar nisbatan mustaqil va fragmentar holatda qaralgan bo‘lsa, konvergent yondashuv ularni yagona pedagogik tizim doirasida birlashtirishni nazarda tutadi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, subyektlarning faolligini kuchaytirish va bilimlarning amaliy ahamiyatini ta’minlash imkonini beradi.

“Konvergensiya” tushunchasi pedagogikada tizimli yondashuv va sinergetik paradigma bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Tizimli yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayoni o‘zaro bog‘langan elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim bo‘lib, undagi har bir elementning o‘zgarishi butun tizim faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Sinergetik yondashuv esa pedagogik jarayonlarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, ichki resurslarning faollashuvi va kutilmagan ijobiy natijalarning yuzaga kelishini asoslaydi. Shu nuqtayi nazardan, konvergensiya pedagogik tizimda sinergetik effektni yuzaga keltiruvchi muhim mexanizm sifatida talqin etiladi.

Material va metodlar. Mazkur maqolada akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasidagi konvergensiya jarayonini o‘rganishda nazariy va ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot materiallari sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD) hisobotlari hamda xorijiy va mahalliy oliy ta’lim muassasalari tajribalari tahlil qilindi[1].

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va konseptual tahlil metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar akademik erkinlikning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilan o‘zaro uyg‘unlashuvini aniqlash, ularning pedagogik jarayondagi o‘rni va ahamiyatini asoslashga xizmat qildi.

Asosiy qism. Endi “konvergensiya” tushunchasining ilmiy tildagi izohini izlash orqali ushbu maqoladagi fikrlarimizni bayon qilsak.

Konvergensiya bu ikki yoki undan ortiq mustaqil jarayonlarning o‘zaro yaqinlashuvi, integratsiyalashuvi va yagona funksional tizimga aylanishi jarayoni bo‘lib, pedagogik nuqtayi nazardan, konvergensiya ta’lim hodisalarining izolyatsiyalangan holatdan uzviy, tizimli va sinergetik birlikka o‘tishini anglatadi[2].

Konvergensiya tushunchasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta’lim jarayonlarining murakkablashuvi, fanlararo integratsiya va ta’lim-fan-innovatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kuchayib borayotgan sharoitda alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida konvergensiya, avvalo, ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining yaqinlashuvi orqali namoyon bo‘lmoqda. Ilmiy tadqiqotlar ta’lim jarayonidan ajratilgan mustaqil faoliyat sifatida emas, balki ta’lim mazmunining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bu holat talabalarning bilimlarni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki bilim yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda akademik erkinlik alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Akademik erkinlik talabalarga ilmiy muammoni tanlash, tadqiqot metodlarini belgilash, ilmiy gipotezalarni ilgari surish va natijalarni mustaqil talqin qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati akademik erkinlikning amaliy ifodasi bo‘lib, uning real pedagogik jarayonda ro‘yobga chiqishini ta’minlaydi. Demak, akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasida dialektik o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ularning konvergensiyasi zamonaviy oliy ta’limning muhim qonuniyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati konvergensiyasi sharoitida talaba ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki ilmiy izlanishning faol subyekti sifatida shakllanadi. Bunday sharoitda o‘qituvchi esa bilimlarni tayyor holda uzatuvchi emas, balki ilmiy mentor, maslahatchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Bu esa pedagogik jarayonda subyekt–subyekt munosabatlarining qaror topishiga olib keladi[4].

Konvergent yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati talabalarda tanqidiy fikrlash, refleksiya, mustaqil

qaror qabul qilish va ilmiy mas’uliyat kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Mazkur kompetensiyalar esa akademik erkinlik mavjud bo‘lmagan sharoitda to‘liq shakllanmaydi. Shu bois akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining o‘zaro integratsiyasi talabalarning kasbiy va ilmiy salohiyatini rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida qaraladi.

Shuningdek, konvergensiya jarayoni ta’lim mazmunining fanlararo va muammoga yo‘naltirilgan xarakter kasb etishiga ham olib keladi. Ilmiy tadqiqotlar real muammolarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, ularning yechimi turli fanlar bilimlarini integratsiya qilishni talab etadi. Natijada ta’lim jarayoni nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirgan holda tashkil etiladi, bu esa bilimlarning barqaror va ongli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi[6].

Konvergensiya pedagogik kategoriya sifatida ta’lim hodisalarining izolyatsiyalangan holatdan uzviy, tizimli va sinergetik birlikka o‘tishini ifodalaydi. Akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati konvergensiyasi esa zamonaviy oliy ta’limda talabaning ilmiy subyektivligini shakllantirish, ta’lim jarayonining innovatsion xarakterini ta’minlash va oliy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga erishishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasidagi konvergensiya zamonaviy oliy ta’lim tizimida muhim pedagogik qonuniyat sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatdi. Akademik erkinlik faqatgina ta’lim subyektlarining huquqiy yoki institutsional mustaqilligi bilan chegaralanmay, balki talabaning ilmiy subyektivligini shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda refleksiv tadqiqotchilik kompetensiyalarini qaror toptirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi[1].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati akademik erkinlik muhitisiz to‘laqonli rivojlana olmaydi. Aksincha, ilmiy izlanishlar, mustaqil tadqiqot topshiriqlari, muammoli vaziyatlar va ilmiy muloqotlar orqali akademik erkinlikning real mazmuni ochiladi. Shu jihatdan, akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kuchaytiruvchi va rivojlantiruvchi integrativ tizimni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati konvergensiyasi zamonaviy oliy ta’limning strategik rivojlanish yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u talabalarning ilmiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni intellektual jihatdan yetuk, mustaqil va innovatsion fikrlovchi mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot xulosalari oliy ta’lim tizimida akademik erkinlikni kengaytirish va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini pedagogik jarayonning markaziy elementi sifatida qaror toptirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. *Reimagining our futures together: A new social contract for education*: global strategic report [Electronic resource]. – Paris: UNESCO, 2021. – Available at: https://unesdoc.unesco.org
2. *Гуревич П., Филатов О.* Философия и история образования. От античности до эпохи Просвещения. 2- е изд.- Москва: Юрайт, 2017. 230 с.
3. *Елишев С.О.* Эпоха просвещения и ее идеология: начало эры социального манипулирования.// Вестник Московского университета. 2022, №28 (4). С. 116-145.
4. *Кант И.*О педагогике.Собрание сочинения в восьмитомах.Том8.-Москва:Мысль,1994. 720.с.
5. Ta’lim o‘rinsiz tajribalarni xushlamaydi // O‘zbekistonda oliy ta’lim, 2022, №4. 64- 65 b.
6. *Перегудов Л.В., Саидов М.Х.* Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти.-Тошкент: Молия, 2002. 149 б.
7. *Salaeva M.S.* Umumiy pedagogika. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021. - 598 b.
8. *Edwards R., Usher R*. Globalization and Pedagogy Spase Plase and Identity. – *New York*, 1999. – 602 p.
9. *Xoliqov A.* Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod -moliya, 2011. – 420 b.
10. *Старикова Л.* История педагогки и философия образовання. Учебник. 3- изд. - Москва: Юрайт, 2018. С 5-8.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.12.2026 UDK: 903.2 (903.01/ 903.21)

QIZILQUM HUDUDIDA NEOLIT DAVRI YODGORLIKLARINING O‘RGANILISH TARIXI

Bekposinova Altinay Bekpolat qizi, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs magistranti



https://orcid.org/0009-0000-4402-8214
e-mail: bekposinovaaltinay1517@gmail.com

HISTORY OF THE STUDY OF REPRESENTATIONS OF THE NEOLITHIC PERIOD IN THE KYZYLKUM REGION

Bekposinova Altynay Bekpolatovna, Karakalpak State University named after Berdakh

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ НЕОЛИТИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ В КЫЗЫЛКУМСКОМ РЕГИОНЕ

Бекпосинова Алтынай Бекполат кызы, Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘rta Osiyoning neolit davriga oid muhim arxeologik majmualaridan biri bo‘lgan* ***Kaltaminor madaniyati****ning shakllanishi, o‘rganilish tarixi, hududiy tarqalishi va xronologik bosqichlari keng yoritilgan. Tadqiqotda Qizilqum, Zarafshon quyi oqimi, Amudaryo deltasi va unga tutash hududlarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari asosida Kaltaminor madaniyatining ilk, o‘rta va so‘nggi neolit bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Kaltaminor madaniyati, neolit davri, Qizilqum, xronologiya.*

Abstract: *This article extensively covers the formation, history of study, territorial distribution, and chronological stages of the Kaltaminor culture, one of the important archaeological complexes of Central Asia of the Neolithic period. In the study, based on the results of archaeological research conducted in the Kyzylkum Desert, the lower reaches of the Zarafshan, the Amu Darya delta, and adjacent territories, the early, middle, and late Neolithic stages of the Kaltaminor culture were scientifically analyzed.*

Keywords: *Kaltaminar culture, Neolithic period, Central Asian archaeology, Kyzylkum, archaeological monuments, chronology, material culture.*

Аннотация: *В данной статье подробно освещены формирование, история изучения, территориальное распространение и хронологические этапы культуры Кальтаминар, одного из важных археологических комплексов эпохи неолита Средней Азии. В исследовании на основе результатов археологических исследований, проведенных в Кызылкумах, нижнем течении Зарафшана, дельте Амударьи и прилегающих к ней территориях, научно проанализированы ранний, средний и поздний неолитические этапы культуры Калтаминар.*

Ключевые слова: *Кельтеминарская культура, неолит, Кызылкум, хронология.*

KIRISH. O‘rta Osiyoda neolit davriga oid arxeologik tadqiqotlar Qizilqum mintaqasida keng ko‘lamda o‘rganilishi XX asrning ikkinchi choragida, 1939-yil 15-avgustda S.P.Tolstov[2] boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi Amudaryo yoki Aqchadaryoning qadimiy deltasida Jonbos IV manzilgohining topilishi bilan “Kaltaminor madaniyati[7]” tushunchasi fanga kiritildi. Bu esa o‘z navbatida, neolit davri bosqichini yangi topilmajoylarini keng ko‘lamda arxeologik tadqiqotlar o‘tkazish uchun zamin yaratdi. Ko‘p o‘tmay, ushbu hududdan neolit davriga tegishli bo‘lgan ko‘plab boshqa yodgorliklar ham topildi.

Ma’lumki, Kaltaminor madaniyati miloddan avvalgi VI–III mingyilliklarga to‘g‘ri keladi. Qizilqum hududlardan topilgan neolit davri yodgorliklarining barchasi Jonbos IV artefaktlari bilan qiyosiy analogiya tarzida solishtirib o‘rganila

boshlandi. Markaziy Osiyo Kaltaminor madaniyatidagi neolit davri makonlari boshqa madaniyatlardan keskin tarzda ajralib turuvchi madaniyat shakli bo‘lib, u Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining ko‘p yillar mobaynida ilmiy izlanishlarining asosiy markazi bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu ilmiy izlanishlar natijasida Kaltaminor madaniyatiga tegishli bo‘lgan ko‘plab yodgorliklar aniqlandi. Bular: Xorazm hududi[1], O‘zboy bo‘ylari[4] va Sariqamish[6] kabi yodgorliklardir. Zarafshonning quyi oqimi va Qizilqum hududida yangi arxeologik topilmajoylarda izlanishlar keng ko‘lamda olib borilgan. Ushbu vohalardagi izlanishlar natijasida neolit davriga oid yodgorliklar ko‘plab topilgan. Darvozaqir I va II makonlari aniqlandi[5].

Shu o‘rinda, Kaltaminor madaniyati sohiblari Markaziy Osiyo va Janubi-g‘arbiy Qozog‘iston hududlari bo‘ylab yoyilib, o‘z hayot tarzini o‘tkazganligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Ushbu madaniyat jamoalari yashagan joylar hamda tarixiy vaqtlarni inobatga olgan holda arxeologiya faniga Kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari (Кельтеминарская историко-культурная общность) iborasi olib kirilgan.

TADQIQOT QISMI. Kaltaminor madaniyati alohida etnik va til guruhiga oid jamoalardan tarkib topganligi borasidagi fikrlar adabiyotlarda ilgari surilgan[5]. Janubi-g‘arbiy Qizilqum hududlarida A.V.Vinogradov tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu olim Kaltaminor madaniyatiga doir yangi yodgorliklarda bir qator tadqiqotlar o‘tkazib, keng ko‘lamli ilmiy tekshirishlar olib bordi. Kaltaminor madaniyatini mahalliy guruhlarga bo‘lish, ularni esa tarixiylik asosida davrma-davr tizimlashtirishdagi muammolarga tadqiqotchilar tomonidan aniqlik kiritilgan. A.V.Vinogradov uzoq yillar izlanishlar olib borishi natijasida Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini uchta hududiy guruhlarga ajratadi, bular: G‘arbiy Qozog‘iston, Oqchadaryo va O‘zbo‘y. Qizilqum variantiga kiradigan yodgorliklarni ham A.V.Vinogradov alohida guruhga bo‘lish kerakligini qayd etgan [2]. Vaqtlar o‘tishi bilan quyi Zarafshon guruhi ham paydo bo‘ldi, keyinchalik u Tuzkon guruhi nomi bilan ilmiy adabiyotlarga kiritildi.

Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini 1957-yilda A.V.Vinogradov ikki bosqich, ya’ni ilk va so‘nggi davrlarga bo‘ldi[3]. Zarafshon daryosining Qizilqum bo‘ylab suv yo‘nalishi bo‘ylari va Daryolisoy o‘zanidagi Oyoqog‘itma hududida yaxshi saqlangan madaniy qatlamga ega bir qancha yodgorliklarni o‘rganadi va ularda qazishmalar olib borgan. Kaltaminor madaniyatiga doir yodgorliklarini A.V.Vinogradov yangi arxeologik kompleks natijalari orqali Daryolisoy bosqichiga aniqlik kiritish dolzarb ekanligining ilmiy jihatlarni isbotlagan hamda uning xronologik davrini mil.avv. VI mingyillik bilan sanalash kerak, degan o‘z xulosasini bergan[3].

Keyinchalik Kaltaminor madaniyati uchta guruhga ajratildi. Ilk guruhi Daryolisoy bo‘lib (mil.avv.VI mingyillik), Jonbos IV rivojlangan davr (mil.avv.V–IV mingyilliklar), Saksovul yoki Qamishli davri so‘nggi guruhga bo‘ldi (mil.avv.III mingyillikning ikkinchi yarmi – II mingyillikning boshlanishi)[5]. Ushbu davrlashtirishning tizimlashtirilishiga ko‘ra:

1. Daryolisoy guruhi ilk neolit (mil.avv. VI mingyillik bilan sanalandi) Uchashi 131, Xo‘jagumbaz 5, Lavlakon (birinchi va ikkinchi guruhi), Oyoqog‘itma I va Beshbuloq. Tosh industriyadagi texnik-tipologiyasi hamda plastinalarga asoslangan holda va asimmetrik trapesiyalar mavjudligi, “shoxsimon” trapesiyalarga ko‘ra, geometrik shakllari asosida qirg‘ichlar, qirralaridan biri o‘tmaslashtirilgan tosh qurollarda namoyon bo‘lgan. Yaxshi pishirilmagan sopol buyumlar va loyi tarkibida o‘simlik qoldiqlari bor (shakl jihatdan qo‘ng‘iroqsimon, sharsimon, tuxumsimon ko‘rinishlarga ega) naqshlar kam uchraydi. Suyak industriyasida bir qancha tig‘lar mavjud.

2. Jonbos yoki o‘rta neolit bosqichi (mil.avv. V–IV mingyilliklar): Jonbos IV, Tolstov makoni, Yalpoq, Kosmola, Oyoqog‘itma deltasi, Oyoqog‘itma II, Lavlakon 26, Darvozaqir I,II, Jonkeldi kabilarni o‘zida mujassamlashtiradi. Plastinalar asosida tosh industriyasi “Kaltaminor tipidagi kamon o‘qlari” (наконечники стрел) orqali ifodasini topadi. Sopol mahsulotlarida qumli loydan ishlangan geometrik shakllar bilan pardozlangan yumaloq yoki chuqur tag qismi mavjudligidadir. Suyak industriyasi esa o‘z guruhiga uzun va nishli qurollarni qamrab oladi. Chig‘anoqlar hamda qush suyaklaridan ishlangan munchoq va marjonlarni ham uchratish mumkin.

3. So‘nggi neolit davri (mil.avv. III mingyillikning ikkinchi yarmi – II mingyillikning

TAMADDUN NURI

boshlanishini o‘z ichiga oladi) Jonbos V va XI, Tojiqozgan II, III, VI, X hamda Lavlakon makonlaridir). Tosh industriyasida ikki taraflama ishlangan materiallar ko‘proq qismi bilan yaqqol ajratib ko‘rsatish mumkin. Plastinalar chaqmoqlanish usullari va trapetsiyalar ko‘rinishida saqlanib qolgan. Ushbu davrga doir madaniy qatlamlar juda kam uchrashi yoki ilk bronza davri bilan aralashib ketganligini ko‘rish mumkin[1]. Ushbu tizimlashtirishga oid ilk Kaltaminor madaniyati sohiblarining sopol idishlar xarakterlanishiga ko‘ra, naqshlangan yumaloq tubli va o‘tkir tubli sopollarda uchratish mumkin. Mikrolitga oid tosh industriyasida plastinkalardan ishlangan, o‘ng-chap lotarel qismlari esa o‘yib-kertib ishlangan paykonlar juda ommalashgan. Shu o‘rinda, bifasial ishlangan bargsimon paykonlar, ba’zan trapetsiyalarda ham uchratish mumkin (mil.avv.IV mingyillikning oxiri – III mingyillikning boshlari)[3].

MUNOZARA. Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini o‘rganish o‘tgan XX asrning 80-yillaridan boshlab hozirga qadar davom etmoqda. Ushbu davr mobaynida Markaziy Osiyoning Joytun, Hisor, Markaziy Farg‘ona va Shimoliy Qozog‘iston neolit davri yodgorliklari bilan bir qatorda, keng qamrovli o‘rganilmoqda. Mazkur madaniyatning paydo bo‘lishi, tarqalishi, rivojlanish bosqichlari, xo‘jaligi (xonakilashtirish orqali chorvachilik), moddiy madaniyati (sopol va tosh buyumlar, o‘ziga xos payanoklar) haqida ko‘plab ma’lumotlar to‘plangan, maqola hamda bir qancha risolalar nashr etilgan. Biroq hali ushbu madaniyatni o‘rganishda, ayniqsa, uning kelib chiqishi, geografik tarqalishi chegaralari va sanalashtirishda ayrim muammolar mavjud. Ayniqsa, keyingi yillarda chet ellik hamkorlar bilan ma’lum ishlar amalga oshirilib, respublika va xorijda qo‘llanilayotgan zamonaviy uslub hamda ishlanmalar yordamida ma’lum ijobiy natijalarga erishilmoqda. Chunki, Kaltaminor tarixiy-madaniy birligi geografik jihatdan cho‘l dashtlar (Rossiya, Ural), eng qadimgi dehqonchilik vohalari (Turkmaniston va O‘zbekiston), tog‘li hamda tog‘oldi hududlari (Tojikiston va Afg‘oniston) tutashgan chorrahada joylashgan. Bunday holat Kaltaminor madaniyatini o‘rganishda naqadar yuqori ahamiyatga ega ekanligi anglatadi.

XULOSA. Shunday qilib, Qizilqum hududi XX asrning 40-yillaridan intensiv tadqiqot obyektiga aylantirilgan. Cho‘l hududlari pleystotsenning oxiri va golotsenning boshlarida bepoyon vodiylar va “Ming ko‘llar mamlakati” bo‘lganligi aniqlangan. Tosh davri aholisi ushbu vodiylarda o‘rta paleolit davrida ovchilik va termachilik, neolit davrida esa ovchilik-termachilikdan tashqari, keng ko‘lamda baliqchilik bilan shug‘ullanganligi aniqlangan. Yaqin kunlargacha ushbu hudud o‘rta paleolit davri odamlari tomonidan o‘zlashtirilganligi, so‘nggi paleolit davri yodgorliklarining deyarli uchramasligi va neolit davri populyatsiyalari tomonidan keng o‘zlashtirilganligi haqidagi qarashlar ustun bo‘lib keldi. Bu yerdagi neolit davriga oid Kaltaminor madaniyatining kelib chiqishi aniqlanmasdan qolgan.

Kaltaminor madaniyatining klassik yodgorliklari Zarafshon (Oqchadaryo), Amudaryoning quyi oqimlaridagi o‘zanlari, O‘zboy, Ustyurt va Shimoli-sharqiy Qizilqum hududlaridan ham topilgan. Shimoliy-sharqiy Qizilqumdan topilgan yodgorliklari orasida Lavlakon topilmajoylarini klassik Kaltaminor makonlari qatoriga kiritish mumkin. Nisbatan yaqinda topilgan (1995 y.) Oyoqog‘itma I ilk neolit makonini ham Kaltaminorning klassik yodgorliklari safiga kiritish mumkin. Ushbu makon nafaqat hayvonlarni xonakilashtirish, balki Kaltaminor madaniyatining sanasini 700 yilga qadimiylashtirdi ham. Hozirgi kunda Kaltaminor madaniyati O‘rta Osiyoning eng qadimgi neolit madaniyatlari (Joytun) bilan tengdosh ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Брюне Ф. О новом исследовании неолитической Кельтеминарской культуры / Археология и история Центральной Азии в трудах французских ученых. Т.1. – Самарканд, 2014. – С. 39–40.
2. Виноградов. А.В. Неолитические памятники хорезма. – М., 1968. – С-11.
3. Виноградов А. В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. XIII. – М., 1981. – С. 118.
4. Итина М.А.Памятники первобытной культуры верхнего Узбоя /ТХААЭЭ.Т.2.–М.,1958.–С. 37.
5. Исламов У.И. Кельтеминарская культура на Махандарье / НРС. – Ташкент, 1961. – С. 38.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 902

USTYURT MEZOLIT YODGORLIKLARINING ARXEOLOGIK TAVSIFI VA XRONOLOGIK MUAMMOLARI

[1]Madreymov Berik Djalgasbayevich, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti "Arxeologiya" kafedrasi dotsenti, (PhD)
[2]Amangeldiev Ruslanbek Jenisbay uli, Qoraqalpoq davlat universiteti "Arxeologiya" yo'nalishi 2-kurs magistranti



https://orcid.org/0000-0001-5725-6363
e-mail: bmadreymov@inbox.ru

ARCHAEOLOGICAL CHARACTERISTICS AND CHRONOLOGICAL PROBLEMS OF THE MESOLITH MONUMENTS OF USTYURT

[1]Madreymov Berik Djalgasbayevich, Karakalpak State University named after Berdakh, Associate Professor, Department of Archaeology, (PhD)
[2]Amangeldiev Ruslanbek Jenisbaevich, Karakalpak State University named after Berdakh



e-mail: Ruslanbekamangeldiev76@gmail.com

АРХЕОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ МЕЗОЛИТИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ УСТЮРТА

[1]Мадреймов Берик Джалгасбаевич, Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, доцент кафедры археологии, (PhD)
[2]Амангелдиев Русланбек Женисбай улы, Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Annotatsiya: *Maqola Ustyurtning mezolit davri yodgorliklarini o'rganishga bag'ishlangan. Makonlarning joylashish xususiyatlari, tosh inventarlarning tuzilishi va mintaqaviy majmualarning xronologik davrlashtirilishi ko'rib chiqiladi. Ustyurt mezolit davri yodgorliklari Sharqiy Kaspiy va Janubiy Ural madaniyatlari ta'sirida shakllangan bo'lib, mahalliy yuqori paleolit davri an'analari bilan vorisiylik saqlanib qolganligi aniqlandi. Ustyurt mezo-neolit jamoalarining mavsumiy moslashuvini va ularning Markaziy Osiyo madaniy aloqalar tizimiga integratsiyalashuvini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Ustyurt, mezolit, mikrolitlar, tosh industriyasi, madaniy aloqalar.*

Abstract: *The article is devoted to the study of Mesolithic monuments of the Ustyurt Plateau. The features of the location of the sites, the structure of stone inventory, and the chronological periodization of regional complexes are considered. The monuments of the Ustyurt Mesolithic period were formed under the influence of the Eastern Caspian and Southern Ural cultures, and it was established that local traditions of the Upper Paleolithic period have been preserved. It shows the seasonal adaptation of Ustyurt Meso-Neolithic communities and their integration into the system of cultural ties of Central Asia.*

Keywords: *Ustyurt, Mesolithic, Microliths, Stone Industry, Settlements, Cultural Connections.*

Аннотация: *Статья посвящена изучению памятников мезолита Устюрта. Рассматриваются особенности размещения стоянок, строение каменных инвентаря и хронологическая периодизация региональных комплексов. Установлено, что памятники мезолита Устюрта сформировались под влиянием Восточно-Каспийской и Южно-Уральской культур, сохранилась преемственность с местными традициями верхнего палеолита. Это показывает сезонную адаптацию мезо-неолитических общин Устюрта и их интеграцию в систему культурных связей Центральной Азии.*

Ключевые слова: *Устюрт, мезолит, микролиты, каменная индустрия, стоянки, культурные связи.*

KIRISH. Markaziy Osiyoda mezolit davri arxeologik jihatdan nisbatan yaxshi o‘rganilgan bo‘lib, ushbu davr madaniyatlari bo‘yicha bir qator ilmiy konsepsiyalar shakllangan[4]. Shu bilan birga, uzoq vaqt davomida Ustyurt hududi bu jarayondan chetda qolib, uning mezolit davri deyarli noma’lum bo‘lib kelgan. Faqat so‘nggi o‘n yilliklarda aniqlangan mezolit davri yodgorliklari Ustyurt tosh davri tarixidagi sezilarli xronologik bo‘shliqni to‘ldirish imkonini berdi[1]. Mazkur yodgorliklarning ilmiy muomalaga kiritilishi nafaqat Ustyurt hududining mezolit davri madaniyatini tavsiflash, balki mintaqada neolit davrining shakllanish jarayonlarini tushunishda ham katta ahamiyatga ega. Mezolit davridayoq O‘rta Osiyo hududida ibtidoiy aholi madaniy rivojlanishining ikki asosiy yo‘nalishi yuzaga kelgan. Janubiy hududlarda – tekisliklar va Kopetdog‘ etaklarida – mehnat qurollarini yasashning mikrolit texnikasi ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, shimoliy va tog‘li hududlarda Sibir hamda Markaziy Osiyo an’anaviy texnologik usullari keng qo‘llanilgan. Natijada tog‘li hududlar aholisi ham madaniy evolyutsiyaning mikrolit bosqichidan o‘tgan. Ushbu ikki yo‘nalish neolit davrida ham davom etib, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakllari, eng qadimgi dehqonchilik va dastlabki uy hayvonlarining xonakilashtirilishi bilan bir vaqtda rivojlangan[3].

Mezolit davrida Kaspiy bo‘yi hududlari va Amudaryo havzasida qurollarning geometrik shakllariga asoslangan mikrolit madaniyatlar tizimi paydo bo‘ladi. Bu madaniyatlar Osiyoning janubiy mintaqalari, Yevropa, Afrika va hatto Avstraliyaning chekka hududlarini qamrab olgan umumiy mikrolit an’anasining bir qismi hisoblanadi. Texnologik an’ananing tarixiy ildizlari janubiy “kapsiy” paleolit davriga borib taqaladi, bu esa mintaqada texnik va madaniy an’analarning uzoq muddatli davomiyligini ko‘rsatadi[5]. Shu nuqtai nazardan, Ustyurt hududining mezolit davri yodgorliklarini o‘rganish Markaziy Osiyo mezolit madaniyatlarining hududiy xususiyatlarini aniqlash, mintaqalararo madaniy aloqalarni tahlil qilish va mezolit–neolit o‘tish jarayonlarini chuqurroq talqin qilish imkonini beradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Ustyurt mezolit davri yodgorliklari materiallari asosida ularning texnologik, tipologik va xronologik xususiyatlarini aniqlash hamda mintaqaning qadimgi madaniy taraqqiyotidagi o‘rnini belgilashdan iborat.

TADQIQOT QISMI. Mezolit davrida O‘rta Osiyo hududidagi ibtidoiy aholi hayotida tub texnologik o‘zgarishlar yuz berdi. Ushbu davrning eng muhim yangiliklaridan biri ov qurollari tizimidagi transformatsiya bo‘lib, ovchi nayza, irg‘ituvchi nayza va palaxmon kabi qurollardan kamon va o‘qlarga o‘tish bilan tavsiflanadi. Kamon qisqa masofada ham yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, tosh davrida keng qo‘llanilgan eng murakkab va funksional qurollardan biriga aylandi. Uning ixtiro qilinishi ibtidoiy jamiyatning tabiat qonunlarini amaliy o‘zlashtirish darajasida sezilarli yuksalishni anglatib, toshga ishlov berish texnikasi va qurolsozlik rivojida muhim progressiv bosqichni belgilaydi. Kamonning paydo bo‘lishi mezolit davriga xos bo‘lgan geometrik mikrolitlarning keng tarqalishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ustyurt hududidagi mezolit davri yodgorliklari, asosan, yopiq urochishalar, sho‘rxoklar, qum massivlari, botiqlar hamda qadimgi o‘zanlar shaklidagi pastliklar qirg‘oqlarida joylashgan. Hozirgi kunga qadar Ustyurt mezolit davrini tavsiflovchi boy arxeologik materiallarni bergan 30 dan ortiq manzilgohlar aniqlangan. Ular orasida Aidabol-2, 4, 6, 7, 9, 14, 15, 16, 20–23, 25; Oqtoyloq-1; Kiysik-Shingirau-2; Aqtobe-1; Aqto‘be-2; Churuk-2; Kosxatin, Dahli, Say-Utes, Kugesem-4 va Sulama manzilgohlarini alohida qayd etish lozim[2].

Ustyurt mezoliti texnologik jihatdan plastinkasimon parchalash usuli va mikrolitoid elementlarning yuqori ulushi bilan tavsiflanadi.

TAMADDUN NURI

Asosiy xom-ashyo zagotovkalari sifatida o‘rta plastinkalar, mikroplastinkalar va ularning kesimlari xizmat qilgan. Yirik va keng plastinalar hamda uchirindilardan foydalanish kam uchraydi[1]. Bu holat qurol va asboblar ishlab chiqarishda mikrotekhnologiyalarning ustunligini ko‘rsatadi.

Ustyurt mezolit davri yodgorliklarining davrlashtirilishi va xronologiyasini aniqlash murakkab ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda. Bu holat, birinchi navbatda, Ustyurt va unga tutash hududlar uchun yagona va ishonchli xronologik shkala mavjud emasligi bilan bog‘liq. Arid iqlim sharoitida ko‘p qatlamli yodgorliklarning deyarli uchramasligi mezolit davrining tarixiy stratigrafiyasini tiklashni yanada qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, O‘rta Osiyo, Janubiy Ural va Yaqin Sharq hududlaridagi yodgorliklarda yaxshi kuzatiladigan simmetrik va assimetrik trapetsiyalarning xronologik ketma-ketligi Ustyurt mezolit va neolit davri materiallariga ham qisman tatbiq etilishi mumkin. Bu holat Ustyurt hududida bir nechta xronologik guruhlarni ajratish imkonini beradi va mintaqadagi mezolit–neolit o‘tish jarayonlarini talqin qilish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi[4].

Ustyurt hududidagi mezolit davri manzilgohlaridan olingan moddiy madaniyat majmualari Janubiy Ural orti hududida aniqlangan ilk mezolit davri yodgorliklari, jumladan Мыс Безымянный va Большой Бугодок IV majmualari bilan qator tipologik o‘xshashliklarga ega[5]. Shu bilan birga, o‘tkazilgan qiyosiy tahlil Ustyurt yodgorliklarining Janubiy Ural majmualariga to‘liq mos kelmasligini ko‘rsatadi. Xususan, Ustyurt manzilgohlarida uchburchak, segment va mikrokeskich tipidagi geometrik mikrolitlarning aniqlanmaganligi ularni farqlovchi muhim belgi sifatida baholanadi.

MUNOZARA. Trapetsiya shakllarining sezilarli darajada xilma-xilligi Ustyurt mezolit davri chaqmoqtosh buyumlarining tipologik o‘ziga xosligini aniqlaydi. Mazkur holat mintaqadagi mezolit davrining nisbatan kechroq bosqichiga mansub bo‘lish ehtimolini kuchaytiradi. Mavjud arxeologik materiallar majmuasiga tayangan holda, Ustyurt mezolit davrining eng qadimgi yodgorliklari miloddan avvalgi VIII–VII ming yilliklarga taalluqli deb baholanishi mumkin. Trapetsiyalar shakli va ishlov berish texnikasi jihatidan bir necha variantlarga ajraladi. Dastlabki bosqichlarda o‘tkir burchakli trapetsiyalar uchrasa-da, keyinchalik ularning ulushi kamayib boradi. Shu bilan birga, pastki asos orqa tomonidan retush bilan ishlov berilgan asimmetrik trapetsiyalar paydo bo‘ladi. Mazkur jarayon uchi va orqasi qiyalantirilgan plastinalar hamda oxirgi qirg‘ichlar sonining kamayishi bilan kechadi. Shu bilan birga, simmetrik trapetsiyalar va ikki tomonlama ishlov berilgan o‘q uchlarining uchrashi texnologik jarayonlarning murakkablashganini ko‘rsatadi.

Manzilgohlarning xronologik sanasi Sharqiy Kaspiy va Janubiy Ural hududlarida aniqlangan mezolit hamda ilk neolit davri yodgorliklariga xos asimmetrik trapetsiyalar bilan tipologik o‘xshashliklar asosida belgilanadi. Shu sababli ayrim tadqiqotchilar mazkur majmualarni miloddan avvalgi VI ming yillikka oid ilk neolit davriga mansub deb hisoblaydilar[5]. Biroq Ustyurt materiallarining texnologik va tipologik xususiyatlari bu masalani ochiq holda qoldirib, uni mezolit va neolit o‘rtasidagi o‘tish bosqichi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ustyurt mezolit davri madaniyatining shakllanish manbalarini Churuk-12 kabi mahalliy yuqori paleolit davri yodgorliklari bilan bog‘lash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. So‘nggi paleolitdan mezolitga o‘tish jarayoni toshga ishlov berish texnikasining evolyutsiyasi hamda mikrolit shakllarining mahalliy an’analarga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvini aks ettiradi[3]. Bu holat mintaqada madaniy rivojlanishning uzluksizligini hamda paleolit texnologik an’analarining mezolit sharoitida saqlanib qolishi va transformatsiyasini ko‘rsatadi.

Ustyurt hududining mezolit davri madaniyati murakkab va ko‘p yo‘nalishli madaniy jarayonlar natijasida shakllangan bo‘lib, unda Kaspiy bo‘yi, Janubiy Ural hamda qisman Markaziy Osiyo hududlarining sezilarli ta’siri kuzatiladi. Xususan, Yangel tipidagi trapetsiyalarning paydo bo‘lishi va keng tarqalishi Kaspiy bo‘yi hududlaridan aholining migratsiyasi yoki faol madaniy aloqalar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bir xil tipdagi yodgorliklarning ma’lum hududlarda jamlanib tarqalishi mezolit davri jamiyatlari iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan, asosan ovchilikka ixtisoslashgan ibtidoiy jamoalar yoki kichik guruhlardan iborat bo‘lganligini taxmin qilish imkonini beradi[1].

XULOSA. Ustyurt mezolit davri aholisi xo‘jalik faoliyati haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yozma yoki moddiy dalillar yetarli bo‘lmasa-da, yodgorliklarning joylashuvi, tabiiy-geografik sharoit va topilgan mehnat qurollari majmuasi ovchilik va terimchilik asosiy tirikchilik manbai bo‘lganligini ko‘rsatadi. So‘nggi mezolit va ilk neolit davrlari o‘rtasidagi madaniy farqlar aniq ifodalanmagan bo‘lib, bu holat Ustyurt hududida xo‘jalik va turmush tarzining asta-sekin, uzluksiz rivojlanganini hamda mazkur davrlar o‘rtasidagi chegaraning shartli ekanini tasdiqlaydi.

Texnologik va tipologik jihatdan Ustyurt mezoliti shimoliy mikrolit an’analari bilan janubiy geometrik texnokomplekslar o‘rtasida oraliq o‘rin egallaydi. Dastlabki bosqichda (miloddan avvalgi VIII–VII ming yilliklar) Janubiy Ural va Sharqiy Kaspiy hududlariga xos bo‘lgan asimmetrik trapetsiyalar hamda mikroplastinalarning ustunligi kuzatiladi. Bu esa Ustyurt hududining madaniy almashinuvlar chorrahasida joylashganligini va turli mintaqalar o‘rtasida vositachi rolini bajarganligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Ustyurt mezolit davri madaniyati Kaspiybo‘yi, Janubiy Ural va Markaziy Osiyo hududlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar zanjirida muhim bo‘g‘in bo‘lib, ovchi-terimchi jamoalardan ishlab chiqaruvchi xo‘jalik shakllariga, xususan, ilk dehqonchilik an’analariga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бижанов Е.Б. Мезолитические и неолитические памятники Северо-Западного Устюрта. // Археология Приаралья, Вып. I. Ташкент, изд-во ФАН Узбекской ССР. 1982. С. 14-38.
2. Бижанов Е.Б. Каменный век Устюрта: Афтореф. дисс… докт. ист. наук. Ташкент, 1996. С. 42.
3. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатской междуречья / Отв. ред. М.А. Итина. М.: Изд-во Наука, 1981. 172 с.
4. Коробкова Г.Ф. Мезолит Средней Азии и его особенности // КСИА. Вып. 149. М.: 1977. С. 108-115.
5. Матюшин Г.Н. Мезолит Южного Урала. М.: Наука, 1976. 368 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.171)"1924/2023":351.74

YANGI O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI

Nurmetov Ismoil Alimbayevich, Urganch davlat universiteti dotsenti, (PhD)

ECOLOGICAL SAFETY AND ENVIRONMENTAL PROTECTION IN NEW UZBEKISTAN

Nurmetov Ismoil Alimbayevich, Associate Professor, Urgench State University (PhD)

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И ЗАЩИТА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Нурметов Исмоил Алимбаевич, доцент Ургенчского государственного университета, доктор философии (PhD) по историческим наукам



https://orcid.org/0009-0003-0699-5141
e-mail: Ismoilnur1984@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari xronologik izchillik asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda konstitutsiyaviy islohotlar, strategik hujjatlar, institutsional transformatsiya hamda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonlarining huquqiy va amaliy natijalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik xavfsizlik, atrof-muhit muhofazasi, Yangi O‘zbekiston, “yashil iqtisodiyot”, barqaror rivojlanish.*

Annotation: *This article analyzes the formation and development of state policy on environmental security and environmental protection in New Uzbekistan based on chronological consistency. The study examines constitutional reforms, strategic documents, institutional transformation, and the legal and practical outcomes of the transition to a green economy.*

Keywords: *environmental security, environmental protection, New Uzbekistan, green economy, sustainable development.*

Аннотация: *В статье на основе хронологической последовательности анализируются этапы формирования и развития государственной политики в сфере экологической безопасности и охраны окружающей среды в Новом Узбекистане. Рассматриваются конституционные реформы, стратегические документы, институциональные преобразования и правовые и практические результаты перехода к “зелёной” экономике.*

Ключевые слова: *экологическая безопасность, охрана окружающей среды, Новый Узбекистан, “зелёная” экономика, устойчивое развитие.*

KIRISH. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ekologik mustaqillikni ham qo‘lga kiritdi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari davlat taraqqiyotining strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada alohida bobda mustahkamlandi. Davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish bo‘yicha majburiyatlari belgilab qo‘yildi. Shu bilan birga, 2019-2030-yillarga mo‘ljallangan sohaviy konsepsiya va strategiyalar

ekologik barqarorlikni ta’minlashning institutsional asosini yaratdi.

So‘nggi yillarda qabul qilingan 30 dan ortiq qonun va normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatda ekologik siyosatning yangi bosqichi boshlanganini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Tadqiqotda tarixiy-xronologik, tizimli-tahliliy va qiyosiy huquqiy usullar qo‘llanildi. Manba bazasini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, sohaviy konsepsiyalar, statistik ma’lumotlar tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi ekologik munosabatlar yoritilgan adabiyotlarda O‘zbekistonda ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘lidagi davlat siyosati, ayniqsa bu yo‘ldagi xalqaro hamkorlik masalalari aks ettirilgan. Xususan, G.Abdullaeva, B.Alixonov, X.G‘affarov, N.Ikramova, T.Tillyaev, R.Tursunova, S.Davletov va boshqalarning ilmiy ishlarida atrof-muhit muhofazasiga oid milliy mexanizmlar masalalari ham o‘z aksini topgan. Masalan, S.Davletovning ilmiy maqolasida mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida ekologiya va atrof-muhitni asrash yo‘lidagi davlat siyosatining muhim jihatlari yoritilgan[6]. X.G‘affarovning maqolalarida mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi muhim o‘zgarishlarga oid tahliliy materiallar keltirilgan[7].

MUHOKAMA. Yangi O‘zbekistonda ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi sohasida olib borilayotgan davlat siyosati natijalarini xolis baholash uchun, avvalo, ushbu jarayonning **huquqiy-me’yoriy, institutsional, strategik-dasturiy** hamda **amaliy-iqtisodiy** yo‘nalishlarda bosqichma-bosqich takomillashib borganini ko‘rish zarur. Mazkur natijalar bir vaqtning o‘zida davlat boshqaruvi tizimini yangilash, jamiyatning ekologik ongi va madaniyatini oshirish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish va xalqaro ekologik kun tartibida faol ishtirok etish kabi bir-biriga bog‘liq yo‘nalishlarda namoyon bo‘ldi.

So‘nggi yillardagi islohotlarning muhim natijasi shundaki, ekologik masalalar davlat siyosatida **bir martalik chora-tadbirlar** yoki **kampaniyaviy yondashuvlar** darajasidan chiqib, uzoq muddatli strategik rejalashtirish mexanizmiga o‘tdi. Bunda 2019-yil alohida bosqich sifatida ko‘rinadi. Chunki ayni shu davrdan boshlab ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasi bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyalar va strategiyalar qabul qilinib, sohadagi maqsadlar, ustuvor vazifalar, ijro mexanizmlari va monitoring yo‘nalishlari tizimlashtirildi.

Xususan, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi ekologik siyosatni umumiy “yo‘l xaritasi” sifatida birlashtirib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekotizimlarni tiklash, chiqindilarni boshqarish, sanitariya-ekologik holatni yaxshilash, aholining hayot sifati va salomatligini himoya qilish kabi yo‘nalishlarni davlat majburiyati darajasida belgilashga xizmat qildi[3]. Shu bilan birga, 2019-2030-yillarga mo‘ljallangan “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi iqtisodiy o‘sish va ekologik muvozanat o‘rtasidagi nisbatni qayta ko‘rib chiqishga yo‘naltirildi[4]. Bu hujjatlar natijasida ekologik siyosat bir vaqtning o‘zida iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional maqsadlar bilan bog‘langan integratsiyalashgan modelga aylana boshladi.

Ahamiyatli jihat shundaki, mazkur strategiyalar va konsepsiyalar ekologik muammolarni faqat “oqibatlarini yumshatish” bilan cheklamay, ularni keltirib chiqaruvchi omillar (resurs sarfi yuqori texnologiyalar, energiya samaradorligining pastligi, chiqindilar infratuzilmasining yetarli emasligi, suv tanqisligiga moslashmagan xo‘jalik usullari va h.k.)ni bartaraf etishga yo‘naltirilgani bilan muhimdir. Demak, ushbu bosqichda davlat siyosatining natijasi sifatida ekologik xavfsizlik “muammo” emas, balki milliy taraqqiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarala boshladi.

NATIJALAR. 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnoma ekologik kun tartibini davlat siyosatining muhim bo‘g‘ini sifatida ochiq ko‘rsatib bergan siyosiy-dasturiy hujjatlardan biri bo‘ldi[2]. Murojaatnomada atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash va aholining hayot sifati bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratilishi natijasida sohadagi islohotlar “tezkor qarorlar” emas, balki sistemali o‘zgarishlar orqali amalga oshirilishi lozimligi yanada mustahkamlandi.

Bu bosqichda qayd etiladigan muhim natija – davlat ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish va sohaviy qarorlarni qabul qilishda **yangi institutsional mexanizmlar**ni joriy etish tendensiyasi kuchayganidir. Ya'ni, ekologik muammolarni hal etishda faqat tabiatni muhofaza qilish organlarining vazifasi emas, balki shaharsozlik, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va kommunal xizmatlar tizimida ekologik talablarni "asosiy mezon" sifatida qo'llash zarurati shakllandi.

Yangi O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha eng salmoqli natijalardan biri – yangi tahrirdagi Konstitutsiyada insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi va davlatning bu boradagi majburiyatlarining alohida tarzda mustahkamlanishidir. Bu o'zgarish ekologik siyosatni huquqiy jihatdan yuqori bosqichga olib chiqdi: ekologik huquq endi umumiy deklarativ qoida emas, balki davlat hokimiyati organlari uchun **aniq majburiyat**, fuqarolar uchun **qonuniy kafolat** sifatida talqin etila boshladi.

Konstitutsiyada qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq, atrof-muhit holati to'g'risida ishonchli axborot olish, jamoatchilik nazorati uchun shart-sharoit yaratish, ekologik muvozanatni saqlash, Orolbo'yi ekotizimini muhofaza qilish va tiklashga doir normalarning belgilanishi davlat siyosatida ekologiyaning fundamental o'rniga dalolat beradi[1]. Buning natijasida ekologik xavfsizlik faqat sohaviy islohot emas, balki inson huquqlari va barqaror rivojlanishning konstitutsiyaviy mezoni sifatida ko'rilmoqda.

Ayniqsa, fuqarolarning ekologik majburiyatlari (tabiatga ehtiyotkorona munosabat, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish) va mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududlarni ekologik jihatdan rivojlantirish bo'yicha vakolatlarining belgilanishi ekologiyani davlat boshqaruvining barcha darajalariga "tarqatish" imkonini berdi.

So'nggi yillarda eng muhim natijalardan yana biri sohada vakolatli organlar faoliyatini qayta ko'rib chiqish va ekologik boshqaruv tizimini samaraliroq model asosida tashkil etishga qaratilgan islohotlardir. 2023-yil 31-mayda "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilinib, ekologik xavfsizlik, chiqindilarning inson salomatligiga zararining oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va sanitariya holatini yaxshilash yo'nalishlarida kompleks vazifalar belgilab berildi[5].

Bu farmonning natijasi ekologik muammolarga nisbatan davlatning yondashuvi "nazoratchi" funksiya bilan cheklanmay, **rejalashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi** va **ta'sirchan ijro mexanizmini yaratish** tamoyiliga ko'chganida ko'rinadi. Ya'ni, sohada qaror qabul qilish, javobgarlik va ijro intizomi kuchaytirildi.

2024-yil 26-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta'minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon ekologik ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash, chiqindilar bilan ishlashda jamoatchilik ishtirokini oshirish va ekologik nazoratni kuchaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ekologik ma'lumotlarning ochiqligi, chiqindilar bilan ishlashda fuqarolik jamiyati ishtirokini oshirish, ekologik nazoratni kuchaytirish kabi maqsadlar amaliy jihatdan jamoatchilik nazorati institutini faollashtirishga xizmat qiladi. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat-ijtimoiy sheriklikning kuchayishiga olib keladi.

Ekologik xavfsizlikning amaldagi natijalarini ko'rsatadigan yo'nalishlardan biri chiqindilarni boshqarish tizimining bosqichma-bosqich isloh etilishidir. Materiallarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish maqsadida so'nggi uch yilda barcha manbalardan 2 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltirilgan[8]. Bu chiqindilar masalasiga "ikkinchi darajali kommunal muammo" emas, balki iqtisodiy va sanitariya-ekologik xavfsizlik omili sifatida qaralayotganini anglatadi.

Shuningdek, chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligining tashkil etilishi, korxonalar uchun yangi texnika bilan ta'minlash, mahallalarda chiqindi maydonchalarini qurish, to'plash va tashib ketish sifati yaxshilanishi natijasida bu tarmoqning ikkilamchi xomashyo manbai sifatida shakllana boshlagani qayd etiladi. Bunday o'zgarishlar ekologik xavfsizlikka bevosita ta'sir qiladi: chiqindilarni nazoratsiz tashlash va poligonlar

yukini ortishi kamayadi, sanitariya holati yaxshilanadi, aholi salomatligiga xavf omillari pasayadi.

Bundan tashqari, ekologik markirovkalash va sertifikatlashtirish mexanizmlarining qo‘llanishi ekologik xavfsiz mahsulotlar bozorini shakllantirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ekologik markirovkasiz “ekologik toza”, “ekologik xavfsiz” kabi da’volardan reklamada foydalanish taqiqlanishi bozorda iste’molchini himoya qilishning muhim usuli ekanini ko‘rsatadi. Demak, natija sifatida ekologik standartlar va iste’mol madaniyati o‘rtasida uzviy bog‘liqlik kuchaymoqda.

Yangi O‘zbekistonda ekologik siyosatning eng ko‘zga ko‘rinadigan natijalaridan biri “yashil” energetika va kam uglerodli texnologiyalarga o‘tishning amaliy sur’atlaridir. Materiallarda qayd etilishicha, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi doirasida bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib kelgan. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 2016-yilda 59 milliard kVt-soatdan keyingi yillarda 82-85 milliard kVt-soatgacha o‘sgani, kelgusida 2030-yilgacha “yashil” energiya ulushini 54 foizga yetkazish rejasi belgilangani bu jarayonning institutsional va iqtisodiy asoslari mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Amaliy jihatdan, bugungi kunda quyosh va shamol elektr stansiyalarining ishga tushirilishi, umumiy quvvatning orttirilishi va generatsiyada “yashil” ulushning o‘sishi ekologik xavfsizlikka ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: birinchidan, atmosferaga chiqariladigan zararli moddalar hajmi pasayadi; ikkinchidan, energiya ta’minoti barqarorlashib, iqtisodiy o‘sish uchun “ekologik tejamkor” asos yaratiladi.

Shu bilan birga, elektr tarmoqlarini yangilashga sarmoya jalb qilish, ayrim hududlarda xususiy sheriklikka o‘tish, “yashil” sertifikat va uglerod birliklari savdosini yo‘lga qo‘yish kabi qadamlar iqtisodiyotning yangi ekologik moliyaviy mexanizmlarga moslashayotganini anglatadi. Demak, natija sifatida “yashil” iqtisodiyot faqat energiya ishlab chiqarish bilan cheklanmay, moliya, investitsiya va bozor institutlarini ham ekologik maqsadlarga moslashtirishga xizmat qilayotgan kompleks modelga aylanmoqda.

Ekologik xavfsizlikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan suv resurslari tanqisligi masalasida ham so‘nggi yillarda amaliy natijalar qayd etilmoqda. Materiallarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi besh yilda 1,9 mln gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan va ularning ulushi sug‘oriladigan yerlarga nisbatan 46 foizga yetkazilgan. Tomchilab, yomg‘irlatib, diskret va boshqa turdagi texnologiyalarning bosqichma-bosqich kengayishi hamda lazerli tekislash ishlarining amalga oshirilishi suv tejashning institutsional amaliyoti shakllanganidan dalolat beradi.

Bu natijalarning ahamiyati shundaki, suv tejash texnologiyalari ekologik xavfsizlikka faqat resurs tejami nuqtayi nazaridan emas, balki **iqlim o‘zgarishiga moslashuv, qishloq xo‘jaligi barqarorligi**, y**er degradatsiyasini kamaytirish** kabi kompleks ta’sirlar orqali xizmat qiladi. Shu ma’noda, suv siyosati ham ekologik siyosatning amaliy o‘zagiga aylanayotgani ko‘rinadi.

Yangi O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikning global va milliy ramzi sifatida Orolbo‘yi muammosi markaziy o‘rinda turib kelmoqda. Materiallarda qayd etilishicha, 2018-yil dekabridan buyon Orolning quruq tubida 2 mln gektar maydonda saksovul, cherkes va boshqa qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar ekilgan. Bu ishlar havoga ko‘tarilayotgan tuz-chang‘ zarrachalarining salbiy ta’sirini kamaytirish, aholi salomatligi va yashash sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2021-yil kuzidan boshlab keng ko‘lamli daraxt ekish ishlari amalga oshirilib, 872 million tup ko‘chat o‘tqazilgani bu yo‘nalishdagi natijalarni institutsionallashtirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, daraxt ekish tashabbusi jamoatchilik ishtirokini ham rag‘batlantirib, ekologik madaniyatni oshirishning amaliy shakliga aylanmoqda.

Shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonining 8,3 foizdan 14,2 foizga yetkazilgani bioxilma-xillikni saqlash va qimmatli tabiiy obyektlarni muhofaza qilish borasidagi natijalardan biri sifatida baholanadi. Bu o‘zgarish ekotizimlarni himoya qilishning faqat deklarativ emas, balki aniq institutsional va hududiy kengayish orqali amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

Ekologik xavfsizlik sohasidagi natijalar faqat ichki islohotlar bilan cheklanmay, xalqaro maydonda ham O‘zbekistonning faol ishtiroki orqali mustahkamlanmoqda. So‘nggi yillarda

davlatimiz rahbari tashabbuslari asosida BMT Bosh Assambleyasining 10dan ortiq rezolyutsiyasi qabul qilingan bo‘lib, ularning aksariyati ekologiya, atrof-muhit, iqlim muammolari va boshqa dolzarb masalalarga bag‘ishlangan.

Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e’lon qilish, Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishlariga qarshi mintaqaviy birdamlikni kuchaytirish, degradatsiyaga uchragan hududlarda barqaror o‘rmonzorlar barpo etish kabi rezolyutsiyalar O‘zbekistonning ekologik diplomatiyasidagi natijalarini ko‘rsatadi. Bu esa ichki ekologik islohotlar uchun ham qo‘shimcha xalqaro qo‘llab-quvvatlash, resurs va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA. Yangi O‘zbekistonda ekologik xavfsizlik davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Konstitutsiyaviy normalar, strategik hujjatlar va institutsional islohotlar o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilmoqda.

Ekologik siyosatning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: huquqiy asoslarning mustahkamlanishi; “yashil iqtisodiyot”ga bosqichma-bosqich o‘tish; fuqarolar, biznes va davlat o‘rtasida hamkorlikning kuchayishi; xalqaro tashabbuslarning faol ilgari surilishi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish modelida markaziy o‘rin egallamoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Murojaatnomasi. // www. prezident.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 30.10.2019-yil PF-5863-son. https://lex.uz/docs/4574008.
4. 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi. https://lex.uz/docs/4539502?ONDATE=05.10.2019%2000
5. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.06.2023 ĭ., 06/23/81/0320-son.
6. Davletov S.R. Environmental issues in Uzbekistan at the modern stage of development // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10 Issue 5, May 2020. P. 1775-1780.
7. G‘afforov X. Ekologik barqarorlikni ta’minlashda mas’ullik va faollik zarur. 05.06.2024. https://parliament.gov.uz/oz/articles/2074
8. Adhamjonov M. Ekologik xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas qismidir. 15.08.2025. https://uza.uz/oz/posts/ekologik-xavfsizlik-milliy-xavfsizlikning-azhralmas-qismidir

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 17.025:2:316:752

YOSHLAR TARBIYASIDA AXLOQIY KAMOLOT HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLAR EVOLYUTSIYASI

Abdullayev Ibadulla Abdullayevich, Ma'mun universiteti "Umumkasbiy Fanlar" kafedrasi v.b dotsenti (PhD)



https://orcid.org/0009-0003-1130-4536
e-mail: abdullayevibadulla437@gmail.com

EVOLUTION OF PHILOSOPHICAL VIEWS ON MORAL MATURITY IN THE EDUCATION OF YOUTH

Abdullayev Ibadulla Abdullayevich, Acting Associate Professor (PhD) of the Department of General Professional Sciences at Ma'mun University

ЭВОЛЮЦИЯ ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ НА МОРАЛЬНУЮ ЗРЕЛОСТЬ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Абдуллаев Ибадулла Абдуллаевич, и.о. доцента (PhD) кафедры общепрофессиональных наук университета университета Маъмуна

Annotatsiya: Yoshlarning axloqiy tarbiyasi, axloqiy qadriyatlar hamda kamolotga erishish jarayonidagi falsafiy qarashlarning tarixi va rivojlanishi o'rganiladi. Ushbu mavzuda yoshlar tarbiyasida axloqiy prinsiplar va qadriyatlar, ularning vaqt davomida qanday o'zgarib borganligi, turli madaniyatlar, davrlar va jamiyatlarda axloqiy kamolot tushunchasining turli talqinlari qanday shakllangani va rivojlangani ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *ezgulik, nafs tarbiyasi, ilm, axloqiy ong, shaxs, jamiyat, adolat, insonning tabiiy fazilatlari, to'g'rilik, halollik, komillik.*

Annotation: Studies the history and development of moral education of youth, moral values, and philosophical views in the process of achieving maturity. This topic provides a scientific analysis of moral principles and values in the upbringing of youth, how they change over time, and how different interpretations of the concept of moral perfection were formed and developed in various cultures, periods, and societies.

Keywords: *goodness, self-discipline, knowledge, moral consciousness, personality, society, justice.*

Аннотация: *Изучается история и развитие нравственного воспитания молодежи, нравственных ценностей и философских взглядов в процессе достижения совершенства. В данной теме проводится научный анализ нравственных принципов и ценностей в воспитании молодежи, их изменений во времени, а также формирования и развития различных интерпретаций понятия нравственной зрелости в разных культурах, периодах и обществах.*

Ключевые слова: *добро, воспитание души, наука, нравственное сознание, личность, общество, справедливость.*

Kirish. Yoshlar tarbiyasida axloqiy kamolot masalasi qadimdan turli falsafiy g'oyalar va konsepsiyalar markazida bo'lib kelgan. Falsafa tarixining turli davrlarida, turli madaniy muhit va ijtimoiy sharoitlarda yashab ijod qilgan mutafakkirlar yoshlar tarbiyasi hamda ularning

axloqiy yetuklikka erishishi borasida muhim qarashlarni ilgari surganlar. Ayniqsa, inson shaxsining shakllanishida axloqiy munosabatlar, ijtimoiy muomala va ma'naviy qadriyatlarning o'rni alohida e'tirof etilgan.

Islom ta'limotida insonlar o'rtasidagi muloqot va o'zaro munosabatlar axloqiy tarbiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Jumladan, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam: "Musulmon – qo'li va tilidan boshqalar omon bo'lgan inson"[1], deb ta'kidlaganlar. Ushbu hadis jamiyatda sog'lom muomala madaniyatini shakllantirish, insonlararo munosabatlarda mas'uliyat va axloqiy yetuklikning naqadar muhim ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Asosiy qism. Axloqiy tarbiya masalasiga chuqur yondashgan mutafakkirlardan biri qadimgi yunon faylasufi Arastu (Aristotel) hisoblanadi. U axloqiy kamolotga erishishda inson "o'rtacha yo'l"ni tanlashi lozimligini ta'kidlaydi, ya'ni har bir xislatda me'yor saqlanishi, haddan oshish yoki yetishmovchilikka yo'l qo'yilmasligi kerak. Arastuning fikricha, yoshlar tarbiyasida amaliy aql — phronesisni rivojlantirish muhim bo'lib, aynan shu sifat axloqiy qarorlarning ongli va mas'uliyatli qabul qilinishiga xizmat qiladi. Shuningdek, u axloqiy tarbiyada odatlar va qonuniylikka tayangan tizimli yondashuvni muhim deb hisoblaydi.

Sharq falsafasi doirasida axloqiy kamolot masalasiga katta e'tibor qaratgan mutafakkirlardan biri Imom G'azzoliydir. Uning ta'limotida axloqiy yetuklikka erishish insonning ichki nafsini tarbiyalash va yuksak axloqiy qadriyatlarga amal qilish bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi. Imom G'azzoliy yoshlar tarbiyasida diniy tarbiyaning ahamiyatini alohida ta'kidlab, aynan u insonni yomon illatlardan tiyib, ezgulik sari yetaklashini asoslab beradi. Chunki diniy tarbiya shaxsda mas'uliyat, halollik va axloqiy barqarorlikni shakllantiradi.

G'arb mumtoz falsafasining yirik namoyandasi Immanuil Kant (Immanuel Kant) axloqiy tarbiya masalasiga burch va majburiyat nuqtayi nazaridan yondashgan. U inson xatti-harakatlari "katiorativ imperativ" prinsipiga mos bo'lishi lozimligini ilgari suradi. Mazkur prinsipga ko'ra, inson o'z harakatlarini shunday tashkil etishi kerakki, ular barcha uchun umumiy axloqiy qonun darajasiga ko'tarila olsin. Kantning fikricha, yoshlarning axloqiy kamolotga erishishi ichki burchni anglash va axloqiy qonunlarga qat'iy rioya qilish bilan belgilanadi.

Ingliz faylasufi Jon Lokk (John Locke) esa yoshlar tarbiyasida tajriba va muhitning o'rniga alohida urg'u bergan. Unga ko'ra, inson aqli tug'ilgan paytda "oppoq qog'oz" (tabula rasa) holatida bo'ladi va axloqiy hamda ma'naviy qadriyatlar hayotiy tajriba orqali shakllanadi. Shu bois Lokk yoshlarning axloqiy tarbiyasida ularni o'rab turgan muhit, berilayotgan bilimlar va tarbiyaviy ta'sirlarning muhimligini asoslab beradi.

Fransuz faylasufi Jan-Jak Russo (Jean-Jacques Rousseau) axloqiy tarbiya masalasida tabiiylik g'oyasini ilgari surgan. Uning qarashlariga ko'ra, insonning axloqiy kamolotga yetishi uchun uning tabiiy fazilatlari va instinktlarini saqlab qolish muhimdir. Russo tarbiya jarayoni yoshlarning tabiiy rivojlanishiga mos bo'lishi lozimligini ta'kidlab, sun'iy cheklovlar va bosim axloqiy yetuklikka salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi.

Nemis mumtoz faylasufi Fridrix Nisshe (Friedrich Nietzsche) axloq va tarbiya masalalariga tanqidiy nuqtayi nazardan yondashgan mutafakkir sifatida tanilgan. Uning fikricha, "an'anaviy axloq yoshlarning erkinligini cheklaydi va ularni o'zining haqiqiy potensialiga yetishdan to'sadi. U axloqiy kamolotni shaxsning o'z-o'zini yaratishi va o'zining axloqiy qoidalarini belgilash jarayoni sifatida ko'radi". Nisshe qarashlari axloqiy kamolot masalasida yagona yondashuv mavjud emasligini, balki bu jarayon turli falsafiy pozitsiyalar orqali izohlanishini ko'rsatadi. Umuman olganda, turli faylasuflar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar yoshlar tarbiyasida axloqiy kamolotga nisbatan rang-barang yondashuvlar mavjudligini tasdiqlaydi. Ular turli madaniyatlar, davrlar va ijtimoiy sharoitlarda yoshlarning axloqiy tarbiyasini shakllantirishga oid o'ziga xos konsepsiyalarni taklif etganlar.

Ma'rifiy risolalarda axloqning nazariy hamda amaliy jihatlari chuqur tahlil qilingan. Xususan, Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnaki, Tusiy, Devoniy, Koshifiy, Qayqovus, Sadiy, Jomiy va Navoiylarning "Fozil odamlar shahri", "Baxt soadatga erishuv haqida", "Axloq haqida risola", "Ishq risolasi", "Qutadgu bilig", "Axloqi Nasoriy", "Axloqi Jaloliy", "Axloqi Muhsiniy", "Hibat ul-haqoyiq", "Qobusnoma", "Guliston", "Boston", "Mahbub ul-qulub" kabi inson kamolotiga oid asarlari shaxs ma'naviyatini

shakllantirish va takomillashtirish masalasini yorituvchi sof ma’rifiy manbalar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarlarda insonning ma’naviy kamolotga yetishi yuksak xulq-atvor, odob-axloq va ilm-fanni egallash asosida amalga oshishi mumkinligi haqidagi g‘oya ilgari suriladi [2. 194 b].

Bolalarning axloqiy ongini shakllantirishda oilaning tutgan o‘rni ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan. Jumladan, Yu.M. Kovalchukning ta’kidlashicha, “o‘quvchilarning axloqiy ong darajasi axloqiy ongning rivojlanishi bilan ota-onalarning farzandlarini pedagogik jihatdan tarbiyalashga qanchalik mas’uliyat bilan yondashishi o‘rtasida yuqori darajada bog‘liqlik (0,98) mavjud”. Shuningdek, R.D. Sanjayev (1997) o‘z tadqiqotlarida bolalardagi xulq-atvor va emotsional buzilishlar ularning mansub bo‘lgan oilalar turi bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanini ko‘rsatadi.

Islom axloqi nuqtayi nazaridan qaralganda, axloq va uning shakllanishi hamda avloddan avlodga uzatilishi asosan faoliyat va muloqot jarayonida ro‘y beradi. Islom ta’limotlarida muomala va muloqot madaniyatiga alohida e’tibor qaratilib, bu jarayon axloqiy qadriyatlarning insondan insonga o‘tishida muhim vosita sifatida talqin qilinadi. A.A. Bodalev ta’kidlaganidek, “faoliyat insonning muayyan maqsadlarga erishishga qaratilgan harakatlarini ifodalaydi, shuningdek, odamlarning o‘zaro muloqoti ham faoliyat shakllaridan biri sifatida qaraladi”.

Islom axloqida muloqot inson xulqi va odobiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida e’tirof etiladi. Har bir muloqot va muomala axloqiy asoslarga tayanishi lozim bo‘lib, unda to‘g‘ri so‘zlash, haqiqatni aytish, yaxshilikka da’vat etish va yomonlikdan qaytarish kabi tamoyillar ustuvor hisoblanadi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam insonlarning axloqiy tarbiyasida muloqotning ahamiyatiga alohida urg‘u berib, doimo yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarib turganlar. J. Feyerbax ta’kidlaganidek, insonning insoniy mohiyati aynan muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi, bu holat Islom ta’limotlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Islomda jamoaviylik, jamiyat ichida hamjihatlikda yashash va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhim qadriyatlar sifatida qaraladi. Jamoa namozi, jamoat bo‘lib ibodat va amallarni bajarish insonlar o‘rtasidagi jamoaviy muloqotning ahamiyatini namoyon etadi. Bu jarayon orqali shaxslar bir-birlarini yaxshilikka undash, o‘zaro hurmat va mas’uliyatni anglashni o‘rganadilar.

Islom ta’limotiga ko‘ra, axloqiy ong va axloqiy me’yorlar muloqot jarayonida shakllanadi. Inson bolasi tug‘ilganidan boshlab ota-onasi va yaqinlari bilan bo‘lgan muloqot orqali yaxshilik va yomonlik tushunchalarini o‘zlashtiradi. Ota-onalar o‘z so‘zlari va amallari bilan bolaga axloqiy me’yorlarni singdiradilar. Masalan, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bolalarni xushmuomalalik, kattalarga hurmat va kichiklarga mehr-shafqat ko‘rsatish ruhida tarbiyalaganlar.

Shunday qilib, Islom axloqida muloqot axloqiy qadriyatlarning shakllanishi va insondan insonga uzatilishida markaziy o‘rin egallaydi. Muloqotning axloqiy asoslarda tashkil etilishi, uning tinchlik, totuvlik va yaxshilikka yo‘naltirilgan bo‘lishi jamiyatda axloqiy barqarorlikni ta’minlaydi.

N.K.Hasanovaning fikricha, “yangi tug‘ilgan chaqaloqning muayyan muloqot holati bilan tartibga solinadigan har bir hayotiy harakati nafaqat u yoki bu ob’ektga qaratilgan harakat, balki boshqa shaxsga hamdardlik, umumiy mavjudlik harakatidir. Muloqotni hissiy jihatdan rang-barang bo‘lgan ma’qullash, hamdardlik, norozilik va hatto befarqlik bolaga singib ketadi, uning o‘z harakatlarining ichki o‘lchovini shakllantiradi... Tafakkur mantiq va uning qoidalarini o‘zlashtirishdan boshlanmaganidek, mazmunning shakllanishi ham shunday. Axloqiy ong odob-axloq toifalarini o‘zlashtirishdan emas, balki jismoniy, estetik va boshqa rivojlanish kabi axloqiy asosda yotgan odamlarning ob’ektiv munosabatlarini o‘zlashtirishdan boshlanadi, ular umumiy asosni tashkil qiladi shaxsning aqliy rivojlanishining yaxlitligi”.

Shu bois shaxs sifatida shakllanish jarayonida insonni kimlar o‘rab turgani, qanday muloqot muhitida yashayotgani nihoyatda muhim hisoblanadi. Bu jarayonda nafaqat axloqiy me’yorlar, balki muloqot uslubi va madaniyati ham shakllanib boradi.

O‘quv-tarbiya jarayonida bolaning ichki sabablarini, ya’ni endogen omillarini o‘zgartirish murakkab bo‘lib, ayrim hollarda bu deyarli imkonsizdir. Biroq axloqiy tarbiyaga ta’sir etuvchi

tashqi omillar, ya’ni ekzogen manbalar bevosita muallim faoliyati bilan bog‘liqdir. Shu sababli tarbiya jarayonida, eng avvalo, aynan tashqi omillarni chuqur o‘rganish va ularni ongli ravishda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar bolaning atrofida avtoritar yoki manipulyativ yondashuvni tanlaydigan o‘qituvchi mavjud bo‘lsa, bu holat bolaning ijobiy sifatlarini rivojlantirishdan ko‘ra, undagi salbiy fazilatlarning namoyon bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyada muhabbat va tushunishdan ko‘ra, bosim va majburlashga moyil bo‘lgan pedagog bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, bunday muhitda bolaning shaxs sifatida rivojlanishi qiyinlashadi yoki noto‘g‘ri yo‘nalishda shakllanishi ehtimoli kuchayadi.

Axloqiy ongning shakllanishida bolaning yashayotgan muhiti muhim rol o‘ynaydi, biroq mazkur jarayonga ommaviy axborot vositalari ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda bolalar va o‘smirlar kundalik hayotda televidenie, internet, ijtimoiy tarmoqlar, kino hamda video o‘yinlar kabi axborot manbalariga keng ko‘lamda duch kelmoqdalar. Ushbu vositalar orqali ular jamiyatda mavjud bo‘lgan turli axloqiy me’yorlar va qadriyatlar bilan tanishadilar, ammo har doim ham bu manbalar orqali ijobiy axloqiy g‘oyalar targ‘ib etilavermaydi.

Ko‘plab ommaviy axborot vositalarida aks ettirilayotgan kontent zo‘ravonlik, agressiya, haqiqatni buzib ko‘rsatish, iste’molchilikni targ‘ib etish va axloqqa zid xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bu holat bolalar va o‘smirlar ongida noto‘g‘ri axloqiy tasavvurlar shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, kino va video o‘yinlarda qahramonlarning zo‘ravonlik orqali muvaffaqiyatga erishishi tez-tez tasvirlanadi, bu esa bolalar ongida agressiya va zo‘ravonlikni odatiy hol sifatida qabul qilishga olib keladi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan axborotlar ham bolalarning axloqiy ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ularda real hayotni buzib talqin qilish, yolg‘on ma’lumotlarni tarqatish hamda salbiy munosabat madaniyatini targ‘ib etish holatlari ko‘p uchraydi. Natijada bolalarda axloqiy mezonlar noto‘g‘ri shakllanadi. Ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’siri faqat bolalar bilan cheklanmay, kattalar ongiga ham ta’sir etadi. Agar axborot manbalarida axloqiy qadriyatlarga zid kontent ustuvor bo‘lsa, bu jamiyatning umumiy axloqiy muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun ommaviy axborot vositalarida tarqatilayotgan kontentning axloqiy mazmuniga alohida e’tibor qaratish zarur. Axloqiy tarbiyani mustahkamlash maqsadida bolalarni nafaqat bevosita muhit, balki ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’siridan ham himoya qilish lozim. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin:

1. **Media savodxonlik.** Bolalar va o‘smirlarga media savodxonlikni o‘rgatish, axborotni tahlil qilish va unga tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir. Bu ularga ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’siridan himoyalanish imkonini beradi.
2. **Ijobiy kontent yaratish.** Axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi ijobiy mazmundagi materiallarni yaratish va ularni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish yoshlarning axloqiy ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
3. **Ota-ona nazorati.** Ota-onalar farzandlarining ommaviy axborot vositalaridan foydalanishini nazorat qilib, ularga mos va foydali kontentni tanlashda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishlari zarur.
4. **Qonunchilik choralari.** Davlat tomonidan axloqqa zid kontent tarqatilishini cheklash, axloqiy tarbiyani qo‘llab-quvvatlovchi dastur va materiallarni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Shu tariqa, axloqiy ongni shakllantirish jarayonida bolaning yashash muhiti bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalari ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali tarqatilayotgan axborot mazmuni bolalarning axloqiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun yoshlarning axloqiy ongini to‘g‘ri shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’sirini cheklash va media savodxonlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy me’yorlarning shaxs tomonidan qabul qilinishi ularning jamiyatda e’tirof etilganligi yoki umumbashariy xususiyatiga emas, balki shaxsning ularni ichki jihatdan ma’qullashiga bog‘liqdir. Aynan shu holat axloqiy ong rivojlanishining muhim manbai hisoblanadi. Inson axloqiy kamolotga erishish uchun faqat o‘z manfaatlariga tayanib qolmasdan, boshqa insonni muhabbat va fidoyilikka loyiq oliy qadriyat sifatida qabul qilishi zarur. Faqat shundagina u bolalik

davriga xos egosentrizmdan chiqib, axloqiy komillikka yetishi mumkin. Payg‘ambar Iso Masih bu haqda shunday deganlar: “Hech kim o‘z do‘stlari uchun o‘z jonini fido qilsa, bundan ulug‘roq muhabbat yo‘q”.

B.S. Bratusning ta’kidlashicha, “… inson doimo dunyoda yashaydi va shuning uchun insonning asosiy, tizimni tashkil etuvchi omili “insonning o‘ziga munosabati”dir. Bu ikki qarshi tendensiyada ko‘riladi: yoki insonni ichki qadriyat sifatida ko‘rish, yoki insonni tashqi maqsadga bo‘ysunuvchi vosita sifatida qarash”. Ushbu yondashuv shaxsning axloqiy ongini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Olim ushbu fikrini yanada rivojlantirib, axloqiy tarbiyaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “Axloqni o‘rgatib bo‘lmaydi, uni ma’lum qoidalar va ma’nolarni shunchaki o‘rganish orqali o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Inson axloqiy bo‘lish uchun real hayotdagi vaziyatlardan va holatlardan o‘tish natijasida, axloqiy ziddiyat va turli ma’nolarning to‘qnashuvlaridan o‘tadi. Axloqiy tamoyil hayotda yuzaga keladigan voqelikka tajribali munosabat sifatida vujudga keladi va doimo hayot bilan boyib boradi”.

Mazkur qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, axloqiy ong shaxsga tashqaridan majburan singdiriladigan bilimlar majmui emas, balki uning hayotiy tajribasi, ichki kechinmalari va real vaziyatlarda qilgan tanlovlari orqali shakllanadigan murakkab psixologik jarayondir. Inson axloqiy kamolot sari harakatlanar ekan, u turli axloqiy ziddiyatlarga duch keladi va aynan shu jarayonda shaxsiy axloqiy pozitsiyasi mustahkamlanib boradi.

Xulosa. Axloqiy ongni shakllantirish jarayoni faqat ijtimoiy me’yorlarni bilish va ularga bo‘ysunish bilan chegaralanmaydi. Axloqiy ong insonning shaxsiy munosabati, hayotiy tajribasi, atrofdagilar bilan bo‘lgan o‘zaro aloqalari hamda real hayotdagi axloqiy ziddiyatlarni boshdan kechirish jarayonida tarkib topadi. Shu bois axloqiy kamolotga erishish uchun shaxs o‘z ichki qadriyatlar tizimini shakllantirishi, hayotiy vaziyatlarda axloqiy tamoyillarini amalda namoyon eta olishi hamda o‘z nafsining tuban istaklarini tiyib, boshqalarga nisbatan muhabbat va hurmat asosida munosabat bildirish orqali rivojlanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oltin silsila. *Sahihi Buxoriy*. 1-juz. Iymon kitobi, 4-bob.
2. Ziyomuhammadov, B. *Komillikka eltuvchi kitob*. Toshkent: Turon Iqbol, 2006. — 194 b.
3. Попов, Л. А. *Десять лекций по этике.* Москва: Ос-89, 2001.
4. Томпсон, М. *Философия религии* / Пер. с англ. Ю. Бучуевой. Москва: ФАИППРЕСС, 2001. — 384 с.
5. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. — 344 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94/911.37(574.2)

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TABIIY RESURSLARNING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI: TARIXIY-GEOGRAFIK TAHLIL

Muminov Azizbek Ziyoviddinovich, Yangi Asr universiteti Akademik bo‘lim boshlig‘i, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, prof v.b.



https://orcid.org/0009-0008-2603-5566
e-mail: m.azizbek14051983@gmail.com

HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL ANALYSIS OF THE ROLE OF NATURAL RESOURCES IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Muminov Azizbek Ziyoviddinovich, New Century University, Head of the Academic Department, PhD in History,Acting Professor

ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РОЛИ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН

Муминов Азизбек Зиёвиддинович, Университет Новый век, начальник академического отдела, доктор философии (PhD) по историческим наукам,и.о. профессора

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turizm, ekoturizm, tabiiy ob’ektlar, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni ta’minlash, Qoraqalpog‘iston Respublikasining tabiiy resurslaridan turizm sohasini rivojlantirishda samarali foydalanish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Hududning o‘ziga xos tabiiy-geografik sharoitlari, ekologik holati, suv va yer resurslari, qo‘riqxonalar, tabiat yodgorliklari hamda landshaftlarning turizm salohiyatini oshirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.*

Tayanch so‘zlar: *turizm, ekoturizm, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, tabiiy resurslar, ekologik turizm, rekreatsion salohiyat, barqaror rivojlanish.*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of tourism, ecotourism, natural sites, environmental protection, and the maintenance of ecological balance, as well as the effective use of the natural resources of the Republic of Karakalpakstan in the development of the tourism sector. The study examines the region’s unique natural-geographical conditions, ecological status, water and land resources, nature reserves, natural monuments, and the role of landscapes in enhancing tourism potential.*

Keywords: *tourism, ecotourism, Republic of Karakalpakstan, natural resources, ecological tourism, recreational potential, sustainable development.*

Аннотация: *В данной статье научно анализируются вопросы туризма, экотуризма, природных объектов, охраны окружающей среды и обеспечения экологического баланса, а также эффективного использования природных ресурсов Республики Каракалпакстан в развитии сферы туризма. Рассматриваются особенности природно-географических условий региона, его экологическое состояние, водные и земельные ресурсы, заповедники, природные памятники и роль ландшафтов в повышении туристического потенциала.*

Ключевые слова: *туризм, экотуризм, Республика Каракалпакстан, природные ресурсы, экологический туризм, рекреационный потенциал, устойчивое развитие.*

Kirish. Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqa hududlar qatori o‘ziga xos tarixiy obidalar, shifobaxsh suv manbalari hamda turli turistik maskanlarga boy bo‘lib, o‘zining qadimiy tarixi, ma’naviy, madaniy va

estetik qadriyatlari bilan sayyohlarni o‘ziga jalb etadi. O‘zbekistonning eng yirik hududiy-ma’muriy birliklaridan biri sifatida ushbu mintaqa tabiiy-geografik sharoitlarining xilma-xilligi, boy tabiiy resurslari, noyob landshaftlari va ekologik rang-barangligi bilan ajralib turadi. Xususan, Orolbo‘yi hududining o‘ziga xos tabiiy majmuasi, Ustyurt platosi, Sudochye ko‘llar tizimi, Orolqum cho‘llari, Baday-to‘qay davlat tabiat qo‘riqxonasi kabi hududlar nafaqat ekologik, balki turistik jihatdan ham yuksak salohiyatga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekoturizm, geoturizm va madaniy merosga asoslangan turizm yo‘nalishlarini kengaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayon hududning rekreatsion imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalarini dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasida milliy va tabiiy obyektlarni asrab-avaylash, ularni rivojlantirish hamda ichki va tashqi turizmda samarali foydalanishga qaratilgan reja va dasturlar izchil amalga oshirilmoqda [1]. Jahon miqyosida turistik oqimlarning ortib borishi O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar sonining ko‘payishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarga sayyohlar nafaqat tarixiy va ziyorat maqsadida, balki tog‘li hududlardagi betakror tabiiy manzaralarni tomosha qilish uchun ham yil davomida tashrif buyurmoqdalar. Shu bilan birga, respublikaning shimoliy hududi bo‘lgan Mo‘ynoq tumaniga chet ellik sayohatchilar, ilmiy tadqiqotchilar hamda Orol dengizi atrofi bilan bog‘liq etno va ekoturistik obyektlarni o‘rganish maqsadida kelayotgan mutaxassislar oqimi ham ortib bormoqda [2]. Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasining tabiiy resurslaridan turizm sohasini rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasining rivojlanishida tabiiy resurslar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari hamda ularning ekoturistik tavsifi A. Nig‘matov va N. Shomuratovalar tomonidan tadqiq etilib, mamlakat hududi o‘n to‘rt ekoturistik rayonga ajratilgan [3]. Mazkur tasnifga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ustyurt ekoturistik rayoni hamda Orol va Orolbo‘yi ekoturistik rayonlariga bo‘linadi. Tadqiqotchi A. Alimov Qoraqalpog‘iston hududidagi Ustyurt platosi kelgusida ekoturizm obyektiga aylanishi uchun yetarli tabiiy imkoniyatlarga ega ekanligini ta’kidlab, ushbu yo‘nalishda manzilli dasturlar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish zarurligini qayd etgan [4].

R.Hayitboyev o‘z tadqiqotlarida Orol dengizi va Orol dengizi bo‘yi ekologik inqirozli hududlarining hozirgi holati xorijiy va mahalliy sayyohlar e’tiborini tobora ko‘proq jalb etayotganini statistik ma’lumotlar asosida yoritib bergan [5]. G. A. Bekbulatova va L. R. Tajibaevalar Qoraqalpog‘iston Respublikasida ichki infratuzilmani rivojlantirish, ichki marshrutlarni yo‘lga qo‘yish hamda mahalliy mehmon uylarini tashkil etish turizm rivoji va uning istiqbollari uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab o‘tishgan [6].

Hududning tabiiy-rekreatsion salohiyatini baholashda landshaft-geografik, ekologik-geografik va resurs-geografik yondashuvlardan foydalanish ekologik ta’sirni kamaytirish hamda mahalliy iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Abdiramanov Jangabay Bektursinovich o‘z tadqiqotida “Baday-to‘qay” qo‘riqxonasi negizida Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati tashkil etilgani tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlash yo‘lida muhim qadam bo‘lganini alohida ta’kidlaydi [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli qiyoslash, ilmiy fikrlash, tarixiy ma’lumotlarni o‘rganish hamda mantiqiy yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

Natija va muhokama. Respublikamiz hududlarida sayyohlik yo‘nalishlarining xilma-xilligi kuzatiladi, bu esa tabiiy-geografik majmualarning betakror ekoturistik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ekoturizmni tarixiy turizm bilan uyg‘un holda rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi qadimiy qal’alar va Xiva shahriga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar nafaqat tarixiy meros, balki tabiiy va antropogen landshaftlarni ham tomosha qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tarixiy turizm

yo‘nalishida kelayotgan sayyohlar uchun Orol dengizi bo‘yi ekoturizm hududlarini qamrab olgan qo‘shimcha turmarshrutlarni tashkil etish orqali tarixiy va ekoturizmni o‘zaro bog‘lash imkoniyati yuzaga keladi.

Orol dengizi bo‘yi hududlarida ekoturizmni rivojlantirishda ushbu mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur. Avvalo, bu hududlarda ekoturizmni nafaqat ichki, balki xalqaro turizm doirasida ham rivojlantirish strategik vazifa sifatida belgilanishi lozim. Shuningdek, neolit davriga oid “Ustyurt makoni” noyob tarixiy va tabiiy obyektlardan biri hisoblanadi. Ushbu hududda 60ga yaqin qadimiy insonlar yashagan tabiiy obyektlar aniqlangan bo‘lib, ulardan qadimiy mehnat va ov qurollari topilgan [8]. Bu esa mazkur hududning tarixiy va ekoturistik ahamiyatini yanada oshiradi.

Orol va Orolbo‘yi ekoturistik rayoni ekologik inqirozli hudud sifatida ekstremal ekoturizm obyektlari sirasiga kiradi. Orol dengizi bo‘yi hududlarining ekologik vaziyati keskin va inqirozli bo‘lgani sababli, aynan ushbu ekologik muammolar ekoturizmning asosiy obyektiga aylanmoqda. Orol dengizi atrofi hamda quyi Amudaryo hududlarida ekoturizmni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlash lozim. Ma’lumotlarga ko‘ra, Orol dengizining chuqurligi 1960-yilda 53,52 m bo‘lgan bo‘lsa, 1996-yilda 35,48 m ni tashkil etgan [9]. Orolbo‘yi hududida o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlangan ekologik inqiroz natijasida qariyb 30 yil davomida dengizning qurib qolgan qismida 5 mln gektar maydonda yangi “Orolqum” sahrosi shakllandi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo‘yi xalqaro innovasiya markazi tomonidan Orol dengizining qurigan 1 mln 200 ming gektar yer maydonida cho‘l o‘simliklarini ekish ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu tadbirlar ekologik vaziyatni yaxshilash bilan bir qatorda, ekoturizm ishqibozlari uchun o‘ziga xos va jozibador tabiiy manzaralarning shakllanishiga ham zamin yaratmoqda.

Orol dengizi bilan bog‘liq ekologik vaziyat xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida alohida to‘xtalib, quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Bugungi kunning eng o‘tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e’tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo‘limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O‘ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo‘q. Dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa’y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi tarafdorimiz” [10]. Ushbu fikrlar Orolbo‘yi hududlarida amalga oshirilayotgan ekologik va ijtimoiy tashabbuslarning global ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Shu bois, mazkur hududlarda tashkil etiladigan ekoturizm marshrutlari bir vaqtning o‘zida Orol dengizining qurigan qismlari hamda qurg‘oqchilik ta’sirida qolgan hududlarni qamrab olishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda Orol dengizi va Orol dengizi bo‘yi ekologik inqirozli hududlarining hozirgi holatiga qiziqish bildirayotgan sayyohlar soni yildan-yilga ortib borayotgani kuzatilmoqda.

Hududda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda “yashil qoplama” himoya o‘rmonzorlari barpo etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etadi [11]. Ushbu qarorga muvofiq, Orol dengizi tubining qurigan maydonlarida “yashil qoplama” himoya o‘rmonzorlari barpo etish maqsadida 2019-yil davomida bosqichma-bosqich 100 mlrd so‘m mablag‘ ajratilib, natijada 500 ming gektar yer maydoni o‘rmonzorlashtirildi [12]. Shuningdek, 2020-yilning to‘qqiz oyi mobaynida Orol dengizining qurigan tubida 703 ming gektar, tog‘ va tog‘oldi hududlarida 8,1 ming gektar, vodiy va to‘qay hududlarida esa tez o‘suvchi daraxt turlaridan 900 gektar o‘rmonzorlar barpo etildi [13].

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi Quyi Amudaryo qayirlarida dunyoning boshqa hududlarida uchramaydigan, mamlakat tabiati uchun endemik hisoblangan Buxoro bug‘usini ko‘paytirish va muhofaza qilishga ixtisoslashgan avvalgi “Baday-to‘qay tabiat qo‘riqxonasi” Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (MSOP) hamda Xalqaro “Qizil kitob” tashabbusi asosida “Baday-to‘qay biosfera qo‘riqxonasi” maqomiga ega bo‘ldi. Hozirgi kunda mazkur biosfera qo‘riqxonasi BMTning O‘zbekistondagi taraqqiyot loyihasi doirasida “Baday-to‘qay xalqaro rezervati” sifatida faoliyat yuritmoqda [14]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-avgustdagi qaroriga muvofiq, “Baday-to‘qay” qo‘riqxonasida Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati tashkil etilishi tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni ta’minlash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Milliy bog‘lar va qo‘riqxonalardan ekoturizmda samarali foydalanishda EKONET tizimi muhim ahamiyat kasb

etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ushbu tizim davlat tabiat qo‘riqxonalarida, xususan, Baday-to‘qay xalqaro biosfera hududida sinov tariqasida qo‘llanilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan Ustyurt platosining yuqori ekoturistik salohiyatidan Nukus, Ellikkal’a, Qo‘ng‘irot, To‘rtko‘l, Xo‘jayli va Amudaryo tumanlarida turistik xizmatlarni rivojlantirishda, shuningdek, ov, diniy, sog‘lomlashtirish va arxeoekoturizm yo‘nalishlarida samarali foydalanish zarur [15]. Ushbu hududlar Qoraqalpog‘istonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, Ustyurt platosining umumiy maydoni 200 ming km² ni tashkil etadi. Shu bilan birga, respublikada qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, “Baday-to‘qay” davlat qo‘riqxonasi, “Sayg‘oq” va “Sudochye” buyurtma qo‘riqxonalari kabi 3 ta maxsus muhofaza etiladigan tabiiy hudud faoliyat yuritmoqda. Ularning umumiy maydoni 1056,5 ming gektarni tashkil etadi [16]. Mazkur hududlarda noyob o‘simlik va hayvonot dunyosining genetik fondini saqlash, jumladan, O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan 7 turdagi o‘simlik, 10 tur sut emizuvchi, 12 tur baliq, 37 tur qush hamda 10 tur sudralib yuruvchi hayvonlarni muhofaza qilish, shuningdek, tabiiy hududlarda turizm tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [17].

Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati ham muhim ekoturistik obyektlar qatoriga kiradi. Rezervat uchta muhofaza etiladigan hududni – “Baday-to‘qay”, “Jumirtog‘” va “Nazarxon” qo‘riqlanadigan zonalarini o‘z ichiga oladi. “Baday-to‘qay” qo‘riqlanadigan hududi yaqinida joylashgan Jampiq qal’a tarixiy tepaligi manbalarga ko‘ra, to‘qqizinchi–o‘ninchi asrlarga mansub hisoblanadi [18]. Biosfera rezervatining asosiy vazifasi to‘qay landshaftlarini tiklash, noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan fauna turlarini saqlab qolishdan iboratdir. O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlarini ko‘zlab amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatining qadimiy Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab, Toshkent–Nukus–Beynov magistral yo‘li yaqinida joylashgani hamda unga tutash hududlarda Chilpiq, Geur qal’a va boshqa ko‘plab tarixiy-madaniy obidalar mavjudligi ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Shu asosda, nabotot va hayvonot olamiga zarar yetkazmagan holda, mazkur turizm yo‘nalishini yanada rivojlantirish mumkin.

Hududning turizm salohiyatini rivojlantirish jarayonida tabiiy resurslardan me’yoridan ortiq foydalanish ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelishi bilan bir qatorda, iqtisodiy jihatdan ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi va muayyan muammolarni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani hududlarda sayyohlar oqimini cheklab, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatining past bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Turizm loyihalarining barqarorligi va samarali boshqaruvini ta’minlash uchun hududiy hamda milliy miqyosda puxta ishlab chiqilgan va izchil amalga oshiriladigan strategiyalar zarur hisoblanadi.

Mazkur ehtiyojdan kelib chiqib, Turizm qo‘mitasi hamda Germaniyaning “Gesellschaft für internationale Zusammenarbeit — GIZ” tashkiloti bilan yaqin hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator muhim tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, ikki tashkilot hamkorligida Qoraqalpog‘iston Respublikasining sayyohlik salohiyatini barcha yo‘nalishlar bo‘yicha namoyon etishga qaratilgan “2023-2026 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni barqaror rivojlantirish” strategiyasi ishlab chiqildi [19]. Ushbu strategiya turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish, infratuzilmani takomillashtirish, yangi sayyohlik yo‘nalishlarini shakllantirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda tashqi turizm bozorlarida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Xulosa. Qoraqalpog‘iston Respublikasining boy tabiiy resurslari turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, biroq ulardan samarali va barqaror foydalanish jarayoni ekologik, iqtisodiy hamda boshqaruv bilan bog‘liq qator muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, hududning tabiiy resurslari turizmni rivojlantirishning muhim strategik asosi bo‘lib, mintaqani ichki va tashqi sayyohlar uchun jozibador maskanga aylantirish imkonini beradi. Bunga erishish uchun ekologik barqarorlikni ta’minlash, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish hamda samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Ana shunday yondashuv Qoraqalpog‘iston Respublikasining mintaqaviy va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona va ilmiy asosda foydalanish orqali Qoraqalpog‘istonni Markaziy Osiyodagi eng

jozibador ekologik va madaniy turizm markazlaridan biriga aylantirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-son qarori. www.lex.uz.
2. Primbetov Q. Qoraqalpog‘istonda ichki turizmni rivojlantirish haqida dasturlar. International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey. https://econferencezone.org, July 15th 2022. 24–26-betlar.
3. Nig‘matov A., Shomuratova N. O‘zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi // Ekologiya xabarnomasi, 2-son, Toshkent, 2007. – B. 45.
4. Alimov A.K. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand: Qoraqalpoq davlat universiteti, 2018. – 24 b.
5. Hayitboyev R. Ekologik turizm. – Samarqand, 2018. – B. 155.
6. Bekbulatova G.A., Tajibaeva L.R. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirishda muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning roli. “O‘zbekiston Respublikasi hududlarini barqaror rivojlantirishning geografik asoslari” Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi. – 150–154-betlar.
7. Abdiramanov Jangabay Bektursinovich. Qoraqalpog‘Iston Respublikasida ekoturizmni rivojlanishining bazi bir geografik jihatlari. O‘zbekistonda geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish yo‘llari, Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari, 2023-yil 4-noyabr. – 129–133-betlar.
8. Mo‘minov Azizbek Ziyoviddinovich. O‘zbekistonda ekologik turizmning rivojlanish jarayonlari (1991–2020 yy). 07.00.01 – O‘zbekiston tarixi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2021. – 117-bet.
9. O‘zMA, M-114-fond, 1 d-ro‘yxat, 141-yig‘ma jild, 35-varaq.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 20 sentyabr, №189 (6883).
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlar ‘yashil qoplama’ himoya o‘rmonzorlari barpo etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2019-yil 24-dekabr, 1031-son. Qonun hujjatlari milliy bazasi, 25.12.2019, 09/19/1031/4192-son.
12. Orol dengizining qurigan tubida ‘yashil qoplamalar’ barpo etiladi. Ekologiyaga oid ma’lumotlar // Ekologiya xabarnomasi, 2-son, 2019. – B. 6.
13. O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasining kengaytirilgan yig‘ilishida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘ muhokamasi bo‘yicha 2020-yil 16-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasining kengaytirilgan yig‘ilishi. https://parliament.gov.uz/uz/events/fractions/32713/
14. Hayitboev R., Babaev F., Abduxamidov S., Daminov M., Xamitov M., Zoxidov F., Boynazarov U. “O‘lkashunoslik”. – Samarqand, 2018. – B. 170.
15. Alimov A. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. – Samarqand: Qoraqalpoq davlat universiteti, 2018. – 24 b.
16. Qoraqalpog‘iston O‘zME, Q-harfi Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2016 yil 22 iyul, 238-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 30-son, 361-modda.
18. Muhabbat To‘raboyeva. “Baday-to‘qay” qo‘riqxonasini bilasizmi? U O‘zbekiston to‘qayzorlarining 74 foizini tashkil qiladi! https://gujum.uz/turizm/baday-toqay-qoriqxonasi
19. Tursunova Gulmira. Qoraqalpog‘iston Respublikasida gastronomik turizmning rivojlanish imkoniyatlari. Ig‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar ilmiy elektron jurnal, III son, 2025 yil. – 561–567-betlar.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 37.017:502/504:379.85

TABIAT TURIZM TUSHUNCHASIDA YOSHLAR EKOESTETIK IDEALINI SHAKLLANTIRISH TAJRIBALARI VA IMKONIYATLARI

Niyazov Sobirjon Sodiqovich, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti v.b.dotsent f.f.b.f.d (PhD)



https://orcid.org/0009-0007-6640-2845
e-mail: niyazov-s@mail.ru

EXPERIENCES AND OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF THE ECO-AESTHETIC IDEAL OF YOUTH IN THE CONCEPT OF NATURE TOURISM

Niyazov Sobirjon Sadigovich, Associate Professor f.f.b.f.D University of Information Technology and management (PhD)

ОПЫТЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ МОЛОДЕЖНОГО ЭКОЭСТЕТИЧЕСКОГО ИДЕАЛА В КОНЦЕПЦИИ ПРИРОДНОГО ТУРИЗМА

Ниязов Собиржон Содыкович, исполняющий обязанности доцента Университета информационных технологий и управления, (PhD)

Annotatsiya: *Maqolada ekologik mavjudlikni fundamental nazariy jihatdan tushunishda estetikaning ontologik, gnoseologik, metodologik va praksiologik funksiyalari turli amaliy darajalarda – kundalik oddiy urf-odatlar, an'anaviy odatlar yoki murakkab texnik-texnologik madaniyatga asoslangan ekologik faoliyat shaklida namoyon bo'lishi ko'rib chiqiladi. Shu nuqtai nazardan ilmiy va nazariy tahlil o'tkazildi.*

Tayanch so'zlar: *ekologik madaniyat, ekologik tafakkur, ekologik tarbiya, ekoturizm, ekologik vaziyat, "bokira" tabiat, gedonistik va evdomonistik, tabiat-jamiyat-inson, ekologik ehtiyoj, ekologik borliq.*

Annotation: *The article examines the ontological, epistemological, methodological, and praxeological roles of aesthetics in the theoretical understanding of ecological existence. These roles are manifested at various practical levels — either through ecological practices based on everyday customs and traditions, or within the framework of a complex technical and technological culture. From this perspective, a scientific-theoretical analysis has been conducted.*

Keywords: *ecological culture, ecological thinking, environmental education, ecotourism, environmental situation, "pristine" nature, hedonistic and eudaimonistic, nature-society-human, ecological need, ecological existence.*

Kirish. Keyingi davrda dunyoda fan-texnika taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayoni kuchayishi, tabiatga demografik bosimning ortishi sharoitida tabiiy muhitga antropogen munosabatning mavjud vositalari ekologik halokatga olib kelish ehtimoli oshgani kuzatilmoqda. Shu sababli, global ilmiy hamjamiyat "kompyuterdan tabiatga qaytish" nazariyasini ilgari surmoqda. Ayniqsa, Yevropa va Amerikada XX asr o'rtalarida paydo bo'lgan environmentalizm nazariyasi tarafdorlari bu g'oyani tizimli ravishda qo'llab-quvvatlamoqdalar [1,67-70 c]. Zero faoliyatning turli sohalarida, xususan iqtisodiy determinizm, utilitarizm va merkantilizm psixologiyasiga asoslangan ta'limotlarning "optimistik ruhi" keng jamoatchilik tomonidan e'tiborga molik ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko'riladi. Ekologik voqelikni estetik idrok qilish va badiiy ifodalash jarayoni tabiatni muhofaza qilishning (subyektiv omil sifatida) umumiy va ob'yektiv qonuniyatlarini namoyon etadi.

Bu qonuniyat o'z navbatida "tabiat-jamiyat-inson-san'at" tizimidagi munosabatlarning (ekologik yoki antiekologik) xarakterini belgilaydi hamda san'atning ekologik borliqqa ta'siridagi subyektiv omil, uning yuzaga kelish ob'yektivligi va funksiyasining yaxlitligini aniqlaydi. Bundan tashqari, shaxs ekologik ongini tabiatni muhofaza qilish faoliyati, tabiatga estetik munosabatni shakllantirish orqali tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish kabi funksional rollarda namoyon etadi.

Ushbu funksional rollar quyidagilardan iborat:
1.Tabiatga estetik munosabatni ekologik amaliyotni ideal tarzda badiiy obrazlarda aks ettirishning usullari va vositalarini takomillashtirish;
2.Ekologiya tarixida yaratilgan tarixiy merosni, ijtimoiy-ekologik tajribalarni badiiy obrazlarda umumlashtirish;
3.Ekologik estetik qadriyatlarni tanlab olish, an'analarni saqlash, ijodiy rivojlantirib transformatsion kommunikatsiya infratuzilmasini yaratish va texnologiyasini mukammallashtirishni ta'minlash.

Metodlar va metodologiya. Ekologik faoliyatni ekosestetik qadriyatlarga asoslanib tashkil etishning yana bir muhim jihati – uning tabiatga estetik munosabat usullari va vositalarini bilish hamda optimal variantini tanlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Zeroki, har qanday amaliy faoliyatda uning ratsional va konstruktiv usulini qo‘llash natijalarning samaradorligini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, tabiatga estetik munosabatni shakllantirish usul-va vositalari, texnologiyasi, mexanizmlarining ahamiyatini aniqlash masalasida ularning praksiologik va gnoseologik, ratsional va irratsional yo‘nalishlari birligini hisobga olish zarur. Bu talab ularga tarixiy-mantiqiy uzviylikni ta'minlab, mustahkam aloqadorligini bildiradi.

Ekosestetik dunyoqarashning yana bir praksiologik-gnoseologik ahamiyati – uning konstruktiv-ratsional usul- vositalarini yaratish bilan belgilanadi. Zeroki, ularsiz ekosestetik faoliyatning samaradorligiga erishish qiyin. Ular, bir tomondan, shaxsning tabiatga estetik munosabatini shakllantirish jarayonini tartibga solish, tarixiy-mantiqiy izchillikni badiiy obrazlarda ifodalash imkoniyatini yaratadi. Ikkinchi tomondan, ekosestetik dunyoqarash insonning amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq yo‘naltirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, insonning ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq ekosestetik ideallarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, funksional ahamiyatiga ko‘ra insonning tabiatga estetik munosabatini ekosestetik dunyoqarash (nazariy-gnoseologik) va amalga oshirish usullari-vositalari (amaliy-praksiologik) yo‘nalishlarida ajratib o‘rganish muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki ular bilish obyekti sifatida o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lib, ehtiyoj – maqsad – vazifa – usul – vosita – texnologiya – innovatsiya tizimida aniq funksiyani bajaradi [4-№4-B.15-17].

Natija va tahlillar. Tabiatga estetik yondashuvning maqsadi – faqat tabiiy go‘zallikni qadrlash bilan cheklanmay, balki uni insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlarida o‘zaro bog‘langan tamoyil va qadriyatlar orqali umumiy barqaror rivojlanish jarayoniga kiritishdir. Bu jarayonda ekologik estetik qadriyatlar, diniy va madaniy an'analar, shuningdek ilmiy bilimlar birlashtirilgan holda global ekologik muammolarni hal qilishga yordam beruvchi integratsiyalashgan yondashuvni shakllantiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tizimlar o‘rtasida muloqot va hamkorlikka erishish, ekologik estetik qadriyatlarni dunyo miqyosida keng tarqatish imkoniyatlarini yaratadi va atrof-muhitga bo‘lgan mas'uliyatli munosabatni rivojlantiradi [2,B.26].

Har qanday jamiyat tabiatni muhofaza qilishning o‘ziga xos ma'naviy-axloqiy asoslarini yaratib, odamlar ongida ekologik ma'rifiy, axloqiy, huquqiy va qadriyatlarni shakllantirmasdan, kelajakni ta'minlay olmaydi. Zeroki, har qanday tarixiy davrda “ma'naviy-ruhiy tiklanish insonning yerga va uning boyliklariga bo‘lgan munosabatini o‘z ichiga olishi lozim” [3,13-14 b].

Umumlashtirib aytganda, bir tomondan, tabiatga estetik munosabatning aksiologik funksiyasi insonning ekologik faoliyatini tashkil etish, boshqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish bilan praksiologik ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi tomondan esa, ekosestetik qadriyatlarning praksiologik ahamiyati – ularni hayotga tatbiq qilish usullari, vositalari va texnologiyasi rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi. “Shaxs ekologik ong va madaniyatining tabiatga estetik munosabatni shakllantirishga ta'siri murakkab dialektik jarayon bo‘lib, insoniyatning tabiatni muhofaza qilish tarixiy tajribasini umumlashtiruvchi badiiy obrazlarda namoyon bo‘ladi” [5,530-531.B].

Bunda badiiy obrazlarning real ekologik voqelikka mutanosibligi, uning nisbiy mustaqilligini inkor qilmaydi, aksincha ob'yekt va subyektning funksional uyg‘unligini namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, ekologik ong va madaniyatning estetiklashuvi boshqa ijtimoiy ong shakllarini ham tabiatni muhofaza qilish maqsad-manfaatlari doirasida birlashtiradi. O‘z navbatida, ekologik borliqni estetik idrok qilishning ustunlashuvi qonuniyat maqomiga ega bo‘lib, kelajakda ham o‘z mavqeini yo‘qotmaydi. “Ekologik ongning shaxs estetik tajribasi subyektga va obyektga, madaniyat shakliga aylanish jarayonida konservativ – eskilik bilan progressiv – yangilik, real voqelik bilan badiiy haqiqat, ilmiy nazariya bilan ijtimoiy amaliyot o‘rtasidagi ziddiyat doimiydir” [6,9-14.B]. Shu bilan birga, shaxs ekologik ong va

madaniyatini estetik usul-vositalar, badiiy adabiyot janrlari va san’at shakllari orqali ommaga transformatsiya qilish jarayoni ongda shakllangan psixologik aqidalarni o‘zgartirish uchun ma’lum vaqtni talab qiladi. Tabiatga ekologik munosabatni badiiy obrazlarda ifodalashning real voqelikdan nisbiy mustaqilligi, xususan, orqada qolishi, bir tomondan, mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimning volyuntaristik g‘oyaviy-mafkuraviy ta’siridan mutlaqo xoli bo‘la olmasligi natijasidir. Ikkinchi tomondan, ekologik ong va madaniyatning globallashuvi jarayonida milliy va hududiy qadriyatlar integratsiyasida birlashtiruvchi subyekt va integratsiyalashuvchi obyekt o‘rtasidagi ma’lum ziddiyatlar bartaraf etilishi bilan bog‘liq yangi ziddiyatlar yuzaga keladi.

Umuman olganda, ijtimoiy hayot ziddiyatlari tizimi ekologik ongga ham, uni estetik ifodalash usul-vositalari rivojlanishiga ham bevosita ta’sir qilishi boshqarish va ushbu sohadagi manfaatlarni uyg‘unlashtirishga bog‘liqdir” [7,56.C]. Jamiyat ekologik borliqdagi ushbu ko‘rsatilgan ziddiyatlarni bartaraf etish zaruriyati ekologik ong va madaniyatning nafaqat tabiatga estetik munosabatini shakllantirishga, balki uning boshqa ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy asoslarini rivojlantirishga ham bog‘liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, “ekologik ong va madaniyatning ijtimoiy ong shakllarini integratsiyalashuvchi imkoniyatini, aynan uning o‘zini rivojlantiruvchi imkoniyati tarzida ko‘rib chiqish lozim”. Chunki ekologik ongning estetiklashuvi kuchayishi bilan boshqa ijtimoiy ong shakllari ekologiyalashuvining yangi yo‘nalishlari, masalan, ekologik-huquqiy ong, ekologik-iqtisodiy ong, ekologik-siyosiy ong va boshqa ong shakllari ham paydo bo‘lmoqda. Jamiyatning tabiatga estetik munosabat ehtiyojlari va manfaatlari ekologik ong va madaniyat rivojlanishining harakatlantiruvchi motivi va asosiy mexanizmi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, shaxs ekologik ongi va madaniyatining tabiatga estetik munosabatni belgilash imkoniyati har qanday tarixiy davrda jamiyat tomonidan belgilab berilgan aniq vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Shu sababdan ham, uning vazifalari ekologik muammolarning ustuvor yo‘nalishlariga mos tarzda turli davrlarda turlicha talqin qilinadi” [8,-№1-21.C].

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida ekologik borliqka estetik munosabat, mohiyati va xarakteriga ko‘ra, shaxs ekologik faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dunyo ekologik manzarasining xaritasini, voqelik xarakterini belgilashda ekosestetik tafakkur tabiatga estetik munosabat rivojlanish tarixi va uning davrlari uchun asosiy mezon va ko‘rsatkichdir. Bundan tashqari, ekologik ong va madaniyatning tabiatga estetik munosabatni shakllantirish imkoniyatlari, uni ifodalash usullari va vositalarini ham qamrab oladi. Tabiatga estetik munosabat bilan ekologik ong va madaniyat rivojlanish darajasi o‘rtasida korrelyatsion bog‘lanish mavjud bo‘lib, biri ikkinchisining rivojlanishini rag‘batlantiradi. Ekologik ongning boshqa ijtimoiy ong shakllarini integratsiyalashuvchi potensiali tabiatga estetik munosabatni funksional jihatdan universalizatsiya qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бердимуродова А.К. Философско-методологический анализ современного экологическое ситуации на пороге XXI веке. - Т.: 1999. –С. 67-70.
2. Айматов А.Қ Шахснинг табиатга экоэстетик муносабатини шакллантириш масалалари. - Тошкент: Фан ва технология, 2017. -Б.26.
3. Ruziboev, D. (2025). Chorva mahsulotlari va ularni qayta ishlash masalalari (Qashqadaryo vohasi misolida). *TAMADDUN NURI JURNALI*, *5*(68), 72-75.
4. Каримов И.А.Ўзбекистон буюк келажак сари.- Тошкент: Ўзбекистон, 1998. -Б. 530-531.
5. Niyazov.S.S.Yoshlarda ekoestetik idealni shakllantirishda tabiat turizmining o‘rni va roli. Monografiyasi. Big Makro World. Qarshi shahri 2025.-B.9-14.
6. Ugli, R.D.A.Z. (2021). Tourism Power Of Uzbekistan. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(5), 215-222.
7. Рўзибоев, Д.А.Ў. (2022). XX асрнинг биринчи ярмигача бўлган даврда ўзбекистонда чорвачиликнинг аҳволи. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(3), 943-952.
8. Ниёзов,С.С. Перспективы развития экотуризма в Узбекистане. *Актуальные вопросы гуманитарных наук: теория, методика, практика*. 2022.
9. Niyazov Sobirjon. Ekoestetik tafakkurning gnoseologik jihati va praksiologik qiymati. *Shokh Library* (2025).
10. Niyazov Sobirjon. Ekoestetik tafakkurning nazariy jihatlari va praksiologik ahamiyati. *Ta’lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali*. 1.5 (2025): 140-146.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.12.2026 UDK: 378.147:159.922.3

RAQAMLI AXBOROT-TA'LIM MUHITI SHAROITIDA O'QUVCHILARNING KASB TANLASH JARAYONINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH KONSEPSIYASI

Xudaynazarov Nuraddin Shavkatovich, Ma'mun universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



https://orcid.org/0009-0009-3826-9308
e-mail: xudaynazarov1987@icloud.com

CONCEPT OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SUPPORT FOR STUDENTS' CAREER CHOICE PROCESS IN THE DIGITAL INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Hudaynazarov Nuraddin, associate professor at Mamun University and a Doctor of Philosophy (PhD) in philosophy

КОНЦЕПЦИЯ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ ПРОЦЕССА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМООПРЕДЕЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Худайназаров Нураддин Шавкатович, доцент университета Мамун, доктор философии (PhD) по философским наукам

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli axborot-ta'lim muhiti sharoitida o'quvchilarning kasb tanlash jarayonini pedagogik-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash muammosi yoritilgan. Internet resurslari va raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning kasbiy o'zini anglashiga ta'siri pedagogik hamda psixologik yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'quvchilarning kasb tanlash jarayonida raqamli muhitdan foydalanish imkoniyatlari va xavf-xatarlari aniqlanib, ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan konsepsiya o'quvchilarning ongli kasb tanlashini ta'minlashga hamda kasbga yo'naltirish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *kasb tanlash, raqamli axborot-ta'lim muhiti, internet resurslari, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash, kasbiy yo'naltirish, konsepsiya.*

Abstract: *This article examines the issue of pedagogical and psychological support for students' career choice process in the context of a digital information and educational environment. The impact of internet resources and digital technologies on students' professional self-determination is analyzed from pedagogical and psychological perspectives. The study identifies the opportunities and risks associated with the use of the digital environment in career choice and proposes a pedagogical and psychological support concept aimed at addressing these challenges. The proposed concept contributes to the development of students' conscious career choices and enhances the effectiveness of career guidance activities.*

Keywords: *career choice, digital information and educational environment, internet resources, pedagogical and psychological support, career guidance, concept.*

Аннотация: *В статье рассматривается проблема педагогико-психологической поддержки процесса профессионального выбора учащихся в условиях цифровой информационно-*

образовательной среды. Проанализировано влияние интернет-ресурсов и цифровых технологий на профессиональное самоопределение учащихся с позиций педагогического и психологического подходов. В ходе исследования выявлены возможности и риски использования цифровой среды в процессе выбора профессии, а также разработана концепция педагогико-психологической поддержки, направленная на их преодоление. Предложенная концепция способствует формированию осознанного профессионального выбора учащихся и повышению эффективности профориентационной деятельности.

Ключевые слова: *выбор профессии, цифровая информационно-образовательная среда, интернет-ресурсы, педагогико-психологическая поддержка, профессиональная ориентация, концепция.*

KIRISH. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy belgilaridan biri ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi natijasida ta’lim jarayoni an’anaviy shakldan raqamli axborot-ta’lim muhiti asosida integratsiyalashgan tizimga o‘tmoqda. Ushbu jarayon o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi, ularning ijtimoiylashuvi va kelajak kasbini ongli tanlashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda o‘quvchilarning kasb tanlash jarayoni murakkab pedagogik-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘lib, u shaxsning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit va axborot omillari bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, raqamli axborot-ta’lim muhitining kengayishi o‘quvchilarga kasblar haqida tezkor, turli hajmli va shakldagi axborotlarni taqdim etadi. Biroq ushbu axborotlarning haddan tashqari ko‘pligi, ularning ishonchlilik darajasi va pedagogik yo‘naltirilganligi o‘quvchilarning ongli kasb tanlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin[1].

Raqamli muhitda o‘quvchilar turli onlayn platformalar, kasbiy testlar, ijtimoiy tarmoqlar, video kontent va reklama xarakteridagi materiallar orqali kasblar haqidagi tasavvurlarini shakllantirmoqda. Bu holat, bir tomondan, o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, ikkinchi tomondan esa noto‘g‘ri yo‘naltirish, stereotipik qarashlar va yuzaki kasbiy qarorlar qabul qilish xavfini keltirib chiqaradi[2]. Shu sababli, raqamli axborot-ta’lim muhiti sharoitida o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini pedagogik va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida ko‘riladi.

Ta’lim amaliyotida kasbga yo‘naltirish ishlari ko‘pincha an’anaviy shakllarda olib boriladi va raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan tizimli, ilmiy asoslangan tarzda foydalanish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Mavjud tadqiqotlar asosan kasb tanlashning ayrim jihatlarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, raqamli axborot-ta’lim muhitida o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini yaxlit pedagogik-psixologik tizim sifatida ko‘rib chiqadigan konseptual yondashuv yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini kuchaytiradi[4].

Shuningdek, o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlash masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli muhitda axborotlarni tanlash, tahlil qilish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish o‘quvchidan tanqidiy fikrlash, o‘zini anglash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini talab etadi. Pedagog va psixologlarning mazkur jarayondagi hamkorligi o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini aniqlash, kasbiy motivatsiyasini shakllantirish hamda kasb tanlashda xatolarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi[3].

Shu munosabat bilan, raqamli axborot-ta’lim muhiti sharoitida o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash konsepsiyasini ishlab chiqish ta’lim nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur konsepsiya kasbga yo‘naltirish jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning ongli va asoslangan kasbiy tanlovini ta’minlashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM. Raqamli axborot-ta’lim muhiti va kasb tanlash jarayonining o‘zaro bog‘liqligi. Raqamli axborot-ta’lim muhiti (RATM) zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning bilim olish, axborot izlash, muloqot qilish va shaxsiy rivojlanish jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muhit o‘zida elektron ta’lim platformalari, onlayn ta’lim resurslari, kasbiy yo‘naltirishga oid veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli testlar hamda

multimedia kontentlarini mujassamlashtiradi. Mazkur omillar o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini shakllantirishda muhim axborot va psixologik resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda[5].

Kasb tanlash jarayoni o‘quvchi shaxsining kasbiy o‘zini anglash, qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, mehnat bozori talablari bilan tanishish hamda ongli kasbiy qaror qabul qilish bosqichlarini o‘z ichiga olgan murakkab va ko‘p bosqichli jarayondir. Raqamli axborot-ta’lim muhiti ushbu bosqichlarning har birida faol ishtirok etib, o‘quvchilarga kasblar haqida keng qamrovli, tezkor va vizual axborot olish imkonini yaratadi. Ayniqsa, raqamli platformalarda taqdim etilayotgan kasbiy yo‘naltirish testlari, virtual kasb tanishtiruvlari va onlayn maslahatlar o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqamli axborot-ta’lim muhiti o‘quvchilarning kasb tanlash jarayoniga nafaqat ijobiy, balki muayyan xavf-xatarlar orqali ham ta’sir ko‘rsatadi. Axborotning haddan tashqari ko‘pligi, uning tartiblanmaganligi va ishonchlilik darajasining turlicha bo‘lishi o‘quvchilarda axborot tanlashda qiyinchiliklar, noto‘g‘ri tasavvurlar va yuzaki xulosalar shakllanishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda kasblarning idealizatsiya qilingan yoki reklama xarakteridagi tasvirlari o‘quvchilarning real kasbiy imkoniyatlarini noto‘g‘ri baholashiga sabab bo‘lmoqda[6].

Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, raqamli axborot-ta’lim muhiti o‘quvchining motivatsion, kognitiv va emotsional sohalariga ta’sir qiladi. Raqamli muhitda taqdim etilayotgan kasbiy axborotlar o‘quvchilarning kasbiy motivatsiyasini oshirishi yoki aksincha, noaniqlik va ikkilanish holatlarini kuchaytirishi mumkin. Bu holat o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari, axborotni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Raqamli axborot-ta’lim muhiti sharoitida kasb tanlash jarayonining samaradorligi, avvalo, pedagogik boshqaruv va psixologik qo‘llab-quvvatlashning mavjudligiga bog‘liq. Pedagoglar tomonidan raqamli resurslardan maqsadli va tizimli foydalanish, o‘quvchilarga kasbiy axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda psixologlar tomonidan individual maslahatlar berilishi o‘quvchilarning ongli kasb tanlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[7]. Shu jihatdan, raqamli axborot-ta’lim muhiti o‘z-o‘zidan emas, balki pedagogik-psixologik boshqaruv orqali kasb tanlash jarayonida samarali vositaga aylanadi.

Shuningdek, raqamli axborot-ta’lim muhiti o‘quvchilarning kasbiy o‘zini anglash jarayonini faollashtiruvchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida ham ahamiyatlidir. Onlayn muloqotlar, virtual hamjamiyatlar va professional tarmoqlar orqali o‘quvchilar turli kasb egalari bilan muloqotga kirishib, real kasbiy tajribalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini yanada ongli va asoslangan holga keltiradi[9].

METODOLOGIYA. **Pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning mazmuni va tuzilmasi.** Pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash (PPQ) raqamli axborot-ta’lim muhiti sharoitida o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini tizimli va maqsadli ravishda boshqarish mexanizmi sifatida qaraladi. PPQ o‘quvchining individual psixologik xususiyatlarini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini hamda ijtimoiy-madaniy sharoitini hisobga olgan holda kasbiy o‘zini anglashini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik va psixologik choralar majmuasini bildiradi[8].

PPQ mazmuni bir nechta asosiy yo‘nalishlardan iborat:

1. **Kognitiv yo‘nalish**

-O‘quvchilarning kasblar va mehnat bozori haqidagi bilimlarini kengaytirish;

-Raqamli resurslardan foydalangan holda kasbiy testlar, interaktiv mashqlar va kasbga oid ma’lumotlarni tushunishga o‘rgatish;

-Axborotni tanqidiy tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. **Motivatsion yo‘nalish**

-O‘quvchining kasbiy qiziqishini aniqlash va rivojlantirish;

-Kasbga yo‘naltirish jarayonida ijobiy motivatsiyani kuchaytirish, shaxsiy muvaffaqiyat va samaradorlikni anglashga yordam berish;

-Raqamli muhit orqali kasb vakillari bilan interaktiv muloqot imkoniyatini yaratish.

3. **Emotsional-psixologik yo‘nalish**

-O‘quvchining kasb tanlashdagi noaniqlik va stress holatlarini kamaytirish;

-O‘zini anglash va kasbiy qaror qabul qilish jarayonidagi shubhalarni bartaraf etish;

-O‘quvchi shaxsini psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali ongli va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish.

4. **Ijtimoiy yo‘nalish**

-O‘quvchilarning professional hamjamiyat va mentorlar bilan muloqotini tashkil etish;

-Onlayn hamjamiyatlar va virtual platformalar orqali kasbiy tajriba va rol modellarini tanishtirish;

-Kasb tanlash jarayonida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikni rivojlantirish.

NATIJALAR VA TAHLIL. PPQ tuzilmasi. PPQ tuzilmasi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Komponent	Mazmuni	Maqsadi
Maqsadli komponent	O‘quvchining ongli kasb tanlashini ta’minlash	Kasbiy qaror qabul qilishni rag‘batlantirish
Mazmuniy komponent	Raqamli resurslar, testlar, interaktiv materiallar	Axborot bilan tanishtirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
Faoliyat komponenti	Pedagog, psixolog va o‘quvchi hamkorligi	Kasbiy qaror qabul qilish jarayonida qo‘llab-quvvatlash
Diagnostik komponent	Kasbiy qiziqish, qobiliyat va motivatsiya darajasini aniqlash	Individual yondashuvni ta’minlash
Natijaviy komponent	Kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi va ongli qaror qabul qilish	Jarayon samaradorligini baholash

PPQning ilmiy va amaliy ahamiyati:

A) Ilmiy ahamiyati: PPQ kontseptsiyasi o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini raqamli muhit bilan integratsiyalashgan holda kasb tanlash jarayonini tadqiq qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik va psixologik yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi.

B) Amaliy ahamiyati: Mazkur tuzilma maktab, litsey va kollej darajasida kasbga yo‘naltirish jarayonini tizimli tashkil etish, o‘quvchilarning kasbiy motivatsiyasi va ongli qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Ushbu maqolada raqamli axborot-ta’lim muhiti sharoitida o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash masalasi tizimli yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli muhit va o‘quvchilarning kasb tanlash jarayoni o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, mazkur bog‘liqlik faqat pedagogik va psixologik boshqaruv orqali samarali amalga oshiriladi.

Pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash mazmuni va tuzilmasi tadqiqot asosida ishlab chiqilib, u quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: maqsadli, mazmuniy, faoliyat, diagnostik va natijaviy komponentlar. Ushbu tuzilma o‘quvchining kasbiy qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, raqamli resurslardan maqsadli foydalanish, motivatsiya va emotsional holatni qo‘llab-quvvatlash hamda ongli kasbiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, maqolada raqamli axborot-ta’lim muhitining imkoniyatlari va xavf-xatarlari hamda ularni pedagogik-psixologik boshqaruv orqali bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari raqamli muhitdan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarning kasbiy o‘zini anglashini, mustaqil fikrlash va tanqidiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari ta’lim amaliyotida quyidagi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega:

- O‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini raqamli axborot-ta’lim muhiti sharoitida samarali tashkil etish imkoniyatini beradi;
- Kasbga yo‘naltirish tizimini pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish uchun ilmiy asos yaratadi;
- O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, kasbiy ongini rivojlantirish va ongli kasb tanlashni ta’minlashga xizmat qiladi;
- Raqamli resurslar va pedagogik metodlarni integratsiyalashgan holda qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshiradi.

Natijada, ishlab chiqilgan pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash konsepsiyasi o‘quvchilarning kasb tanlash jarayonini tizimli, samarali va ilmiy asoslangan tarzda tashkil etish imkonini beradi hamda ta’lim tizimida kasbga

yo‘naltirish faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azimova L.A. (2018). Pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash konsepsiyasi doirasida o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish muammolari. Toshkent: TDPU ilmiy-ta’lim jurnali, №3.
2. Xolmurodov N.X., Karimova Sh.Kh. (2019). Kasb tanlash jarayonida o‘quvchilar tanlovining psixologik-pedagogik tahlili. Samarqand davlat universiteti xabarlari, №2.
3. Kamoliddinov B.R. (2020). O‘quvchilarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning psixologik asoslari. Andijon davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, №1.
4. Turg'unova Z.S. (2021). Ta’lim muhitidagi kasb tanlash jarayonida pedagogik yondashuvlarning roli. Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy maqolalari to‘plami.
5. Mirzayeva D.N. (2022). Yoshlarda kasbga qiziqishni shakllantirish usullari. TDPU psixologiya fakulteti materiallari to‘plami.
6. Nurmatov U.T. (2023). Raqamli sharoitda kasb tanlashdagi muammolarning yechimi. TDPU elektron jurnal, №1.
7. Ergashev F.F. (2023). Aloqador sohalarni belgilashda pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmi. TDPU axborot texnologiyalari kafedrasi materiallari, №3.
8. Alimov I.I. (2023). Yangi avlod pedagoglarining kasb tanlash jarayonlaridagi vazifalari. TDPU o‘qituvchilar tayyorlash metodikasi kafedrasining yillik anjumani materiallari.
9. Sultonova M.O. (2023). Shaxs rivojlanish bosqichlarida kasb tanlash psixologiyasi. TDPU psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasi materiallari, №1.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(574.2/.3)(091)

QORAQALPOG‘ISTONDA “PAXTA ISHI” KAMPANIYASI VA UNING OQIBATLARI

Ermanov Alisher Bekmuratovich, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “Tarix” kafedrasi katta o‘qituvchisi

THE “COTTON CASE” CAMPAIGN IN KARAKALPAKSTAN AND ITS CONSEQUENCES

Alisher Bekmuratovich Ermanov, Senior Lecturer, Department of History, Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute

КАМПАНИЯ “ХЛОПКОВОЕ ДЕЛО” В КАРАКАЛПАКСТАНЕ И ЕЁ ПОСЛЕДСТВИЯ

Ерманов Алишер Бекмуратович, старший преподаватель кафедры “История” Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза



e-mail: ermanovalisher@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1980-yillarda Sobiq Ittifoqda tashkil etilgan “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi” kampaniyasining Qoraqalpog‘istondagi amaliy ko‘rinishlari, siyosiy-mafkuraviy mohiyati va uning hududning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda Gdlyan-Ivanov tergov guruhi faoliyati, hibsga olingan mahalliy rahbarlar, kadrlar almashinuvi va kompaniyaning aholi ongiga ta’siri arxiv manbalari, rasmiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar asosida yoritiladi. Maqolada mazkur jarayonning siyosiy kampaniya sifatidagi mohiyati, uning markaz tomonidan ma’muriy bosim vositasiga aylantirilgani, shuningdek, jamiyat ongida qoldirgan izlari ilmiy jihatdan baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *paxta ishi, o‘zbek ishi, Qoraqalpog‘iston, siyosiy kampaniya, ma’muriy-buyruqbozlik, Gdlyan-Ivanov guruhi, qatag‘on, kadrlar siyosati, siyosiy ta’qib, korrupsiya.*

Abstract: *This article analyzes the practical manifestations, political and ideological essence, and impact on the socio-political life of Karakalpakstan of the “Cotton Affair” and “Uzbek Affair” campaigns organized in the 1980s in the former Soviet Union. The study, based on archival sources, official documents, and scientific literature, examines the activities of Gdlyan-Ivanov's investigative team, the arrested local leaders, the exchange of personnel, and the company's influence on public consciousness. The article scientifically evaluates the essence of this process as a political campaign, its transformation into a tool of administrative pressure from the center, and its impact on public consciousness.*

Keywords: *cotton affair, Uzbek affair, Karakalpakstan, political campaign, administrative-command system, Gdlyan-Ivanov group, repressions, personnel policy, political persecutions, corruption.*

Аннотация: *В данной статье анализируются практические проявления, политико-идеологическая сущность и влияние на социально-политическую жизнь Каракалпакстана кампаний “Хлопковое дело” и “Узбекское дело”, организованных в 1980-х годах в бывшем Советском Союзе. В исследовании на основе архивных источников, официальных документов и научной литературы освещается деятельность следственной группы Гдляна-Иванова, арестованные местные руководители, обмен кадрами и влияние компании на общественное сознание. В статье с научной точки зрения оценивается суть этого процесса как политической кампании, его превращение в инструмент административного давления со стороны центра, а также его влияние на общественное сознание.*

Ключевые слова: *хлопковое дело, Узбекское дело, Каракалпакстан, политическая кампания, административно-командная система, группа Гдляна-Иванова, репрессии, кадровая политика, политические преследования, коррупция.*

Kirish. 1980-yillarning oxirida Sobiq Ittifoqda yuzaga kelgan siyosiy-iqtisodiy inqiroz sharoitida markaz tomonidan RSFSR va butun ittifoq bo‘ylab bir qator kampaniyalar boshlanib, ulardan eng keng ko‘lamli va siyosiy jihatdan rezonansli bo‘lganlari “Paxta ishi” deb e’tirof etildi. O‘zbekistonda esa

ushbu kampaniya “Paxta ishi” va “O‘zbek ishi” nomlari bilan tanilib, respublikaning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Sovet rahbariyati korrupsiyaga qarshi kurash niqobi ostida O‘zbekistonni tajriba-sinov maydoniga aylantirib, milliy kadrlarga bosim o‘tkazish va jamiyatda qo‘rquv hamda befarqlik muhitini kuchaytirishni maqsad qilgan edi.

Markaz tomonidan tuzilgan maxsus tergov guruhlari (T. Gdlyan va N. Ivanov) ommaviy qamoqqa olishlar, asossiz ayblovlar va shafqatsiz tergov usullari orqali minglab odamlarni jazoladi. Ushbu jarayon Qoraqalpog‘istonda ham ma’muriy bosim, kadrlarni asossiz almashtirish va milliy qadriyatlarni hurmat qilmaslik kabi muammolarni keltirib chiqardi.

“Paxta ishi” butun bir avlodning taqdiriga ta’sir ko‘rsatib, jamiyat ongida uzoq yillar davom etgan qo‘rquv, adolatsizlik va ishonchsizlik muhitini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda bu davr yangi arxiv materiallari asosida qayta o‘rganilayotgan muhim tarixiy bosqich sifatida baholanadi.

Asosiy qism. XX asrning 80-yillarida “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi” va “Rashidovchilik” kabi tuhmatlar orqali shaxsning nomi va butun xalqimiz sharmanda qilindi. “O‘zbekiston tergov usullari bo‘yicha tajriba o‘tkaziladigan katta maydonga aylantirildi”[1]. Sovet tuzumi tomonidan O‘zbekistonda amalga oshirilgan kampaniyalarning eng so‘nggisi tarixda “Paxta ishi” nomi bilan qoldi.

Sobiq KPSS Bosh kotibi Yu. V. Andropov tashabbusi bilan 1983-yil fevralda KPSS Markaziy Qo‘mitasi Siyosiy Byurosi O‘zbekistonda paxtachilik sohasidagi ko‘zbo‘yamachilikni aniqlash bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qilib, bu vazifani bajarish uchun SSSR prokuraturasida maxsus tergov komissiyasini tuzishni topshirdi. 1983-yil aprelda T. X. Gdlyan va N. V. Ivanov boshchiligida shu kabi maxsus tergov guruhi tashkil etildi. Sobiq ittifoq Bosh prokuraturasining tergov bo‘limi boshlig‘i G. P. Karakozov ushbu guruh ishini nazorat qilishi kerak edi[2].

SSSR Bosh prokurori huzurida favqulodda ishlar bo‘yicha maxsus tergovchi guruhlari tuzilib, 1983-yil boshlarida O‘zbekistonga yuborildi. T. Gdlyan va N. Ivanov guruhi 1983-yil avgustda ish boshladi va ushbu guruh “desantchilari”ning so‘nggi vakillari respublikadan 1990-yil oxiri — 1991-yil boshlarida chiqib ketishga majbur bo‘ldi. Katta mamlakatda yuzaga kelgan inqirozli holatlarni sovet rejimi amaldagi tuzum negizida emas, balki mavjud salbiy illatlarda deb bilgan. Shu sababli Markaz O‘zbekistonni tajriba-sinov maydoni sifatida tanladi. Respublikada “tozalash ishlarini” olib borishdan ko‘zlangan maqsad nafaqat iqtisodiy jinoyatchilikni fosh etish, balki mamlakat hayotidagi umumiy salbiy holatlarning yaqqol ifodasi bo‘lgan qo‘shib yozishga qarshi harakatlarni to‘xtatish, “temir partiyaviy tartib” orqali milliy kadrlarni jazolash, erkin fikrlovchi ziyolilar va boshqa mutaxassislarni jilovlash, shuningdek, ittifoqdosh respublikalarda paydo bo‘layotgan milliy ijtimoiy-siyosiy kuchlarni bostirish hamda milliy ong va faoliyat ustidan qattiq nazorat o‘rnatishdan iborat edi[3; 176].

Markazning yangi rahbarlari tomonidan 1983-yili O‘zbekiston SSRda qatag‘onning yangi to‘lqini boshlandi va jamoatchilik ongiga Sovet Ittifoqidagi barcha jinoyatlar faqat O‘zbekistonda sodir etildi degan fikr singdirildi. 1988-yili T. Gdlyan va N. Ivanov paxta ishi yoki “O‘zbek ishi” aslida Kreml ishi ekanligini o‘zlarining turli chiqishlarida ko‘p ta’kidladilar. Ular bu ishning boshida KPSS Markaziy Qo‘mitasi Bosh kotibi Mixail Sergeevich Gorbachev turganligini ham aytib o‘tishdi[4; 23]. Gdlyan va Ivanov tayyorlagan sud ishi butun dunyoga “Paxta ishi” va “O‘zbek ishi” sifatida namoyish etildi.

Respublikada 800 dan ortiq jinoyat ishi tergov qilindi. Ushbu ishlar doirasida 5000 dan ortiq kishi sudlandi. Gdlyan boshchiligidagi guruh 1983–1989-yillarda O‘zbekiston vazirliklarining 20 nafar rahbar xodimini, O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasining 4 nafar kotibini, viloyat partiya qo‘mitalarining 8 nafar kotibini va boshqa mas’ul xodimlarni, jami 62 kishini pora olishda ayblab qamoqqa oldi. O‘zbekistondagi “tozalash ishlari” natijasida faqat 1984-yil iyun–oktabr oylarida 866 nafar mas’ul rahbar “o‘zlashtirish va mansabidan foydalanish” aybi bilan jinoiy javobgarlikka tortildi. 1984–1985-yillarda viloyat, shahar va tuman partiya qo‘mitalari kotiblari, ijroiya qo‘mitalari raislari, ularning o‘rinbosarlari, vazirlar va davlat qo‘mitalari rahbarlarining ko‘pchiligi o‘z lavozimlaridan bo‘shatildi, ular orasida 22 ta viloyat qo‘mitalari kotiblari ham bor edi. 1984-yil avgust–oktabr oylarida prokuratura va ichki ishlar organlarida rahbar lavozimlarida ishlagan 671 kishi partiyadan chiqarildi[5; 183]. O‘zbekistonda “Paxta ishi” jarayoni bo‘yicha 1983–1990-yillarda jami 40 ming kishi tergovga tortildi, ularning ko‘pchiligi tergov izolyatorlarida prokuror sanksiyasiz ushlab turildi. 1984-yil avgust oyida Qoraqalpog‘iston partiya tashkilotining raisi Q. Kamalov “diplomatik ishga o‘tishi munosabati bilan” lavozimidan bo‘shatildi. Uning o‘rniga KPSS Markaziy Qo‘mitasining taklifi

asosida Qoraqalpog‘iston viloyat partiya qo‘mitasiga o‘n birinchi sekretar etib K. Soliqov tayinlandi. Shu davrda “Paxta ishi” deb atalgan jarayon faol ravishda muhokama qilinib, bu ish doirasida sovet-partiya apparatining 100 dan ortiq vakili, tuman va xo‘jalik rahbarlari qamoqqa olindi[6; 174–175].

1986-yili 11-yanvarda XXIX Qoraqalpog‘iston viloyat partiya konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiya ishtirokchilari o‘sha paytdagi vaziyatni keskin tanqid qilib, ma’muriy-boshqaruv tizimining turli jihatlariga e’tibor qaratdi. Jumladan, xalq xo‘jaligining barcha sohalarida soxta hisobotlar, o‘g‘riliklar va boshqa suiiste’molliklar aniqlangani qayd etildi. 1984–1986-yillarda ma’muriy-boshqaruv tizimining 150 nafar rahbar xodimi turli qonunbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlikka tortildi, viloyat partiya qo‘mitasi ro‘yxatiga kirgan 43 nafar rahbar esa lavozimidan ozod etildi[7; 174–175].

Haqiqiy suverenitetga erishishga qaratilgan intilishlarni to‘xtatish maqsadida sobiq ittifoq rahbariyati korrupsiyalashgan nomenklaturaga qarshi kurash doirasida soxta “Paxta ishi” atrofida katta shov-shuv ko‘tarishga harakat qildi. 1984-yil iyunda bo‘lib o‘tgan Qoraqalpog‘iston viloyat partiya qo‘mitasining IV-plenumida viloyat partiya qo‘mitasining rahbar xodimlarining 90 foizdan ortig‘i va shahar hamda tuman bo‘g‘inlari rahbarlarining 85 foizi yangilandi[8; 160]. Markazning “Paxta ishi” bo‘yicha qatag‘on siyosati Qoraqalpog‘istonda odamlarni qamoqqa olish va zo‘ravonlik ko‘rsatishda o‘z aksini topdi. Shu paytgacha 133 kishi tergov ostida bo‘lib, 90 dan ortiq respublika va tuman rahbarlariga og‘ir ayblar qo‘yildi. Qoraqalpog‘istonning paxta kompleksiga bog‘liq 27 ish qo‘zg‘atilib, ular bo‘yicha: 1985-yili 10 kishi; 1986-yilda 56 kishi; 1987-yilda 55 kishi; 1988-yilda 24 kishi; 1989-yilda 14 kishi, jami 159 kishi sudlandi[9; 60].

1984-yil 29-dekabrida Ellikqal’a tuman partiya qo‘mitasining birinchi kotibi A. Primov ishdan bo‘shatildi. Keyinchalik, 1986-yil 9-yanvarda Markaziy Qo‘mitada partiyadan chiqarilib, o‘sha yilning 25-noyabrida qamoqqa olindi. Tergovchilar A. Primovning turmush o‘rtog‘i, farzandlari va yaqin qarindoshlariga qattiq azob berdilar. Shu vaqtlarda butun Ellikqal’a jamoati faol harakat qildi. Oliy tashkilotlarga urush qahramonlari I. Navro‘zboyev, U. Abdullayev va boshqa shaxslar nomidan xatlar tayyorlandi.

“Paxta ishi” tufayli To‘rtko‘l tumani partiya qo‘mitasining birinchi kotibi Qosim Nurumbetov, “Ko‘kdaryo” xo‘jaligining direktori, Mehnat Qahramoni Ongarbay Qurboniyozov, “Ko‘kshiel” xo‘jaligining direktori Erejep Allaniyazov va boshqa bir qator ajoyib insonlarning hayoti qayg‘uli yakunlandi. Alimboy Rajabovning ishini paxta masalasi bilan bog‘lash maqsadida tumanning ilg‘or rahbari, ilgari tuman yoshlar qo‘mitasining birinchi kotibi va tuman qishloq xo‘jaligi boshqarmasining rahbari bo‘lgan Mahmud Xo‘jamuratov qamoqqa olindi. “Paxta ishi” bo‘yicha 1980-yillarda 90 dan ortiq respublika va tuman hamda kolxoz rahbarlari asossiz qamoqqa olindi[10; 326].

Shu yillarda tergovning tahqirlash va ta’sir o‘tkazishning shafqatsiz usullari yuqori darajaga yetkazildi. Masalan, biror shaxsni pora olish yoki berish bilan bog‘liq jinoyatda qamoqqa olishganida, agar u aybini tan olmasa, oilasi va qarindoshlari xavf ostida qolishi eslatilardi. Ayblanuvchi iqror bo‘lishdan bosh tortsa, kameralarga eng yaqin qarindoshlari olib kelingan. Ba’zida bolalarni ota-onalarining qo‘shni kameralariga joylashtirish hollari ham kuzatilgan. Tergov davomida Ivanov va Gdlyan boshchiligidagi tergovchilarning qarorlari asosida K. Kamalovning 8, K. Nurumbetovning 8, Xudaybergenovning 15 begunoh qarindoshlari qamoqqa olingan[11; 272]. 1984–1989-yillarda Qoraqalpog‘istonda partiya va sovet rahbar xodimlari, xo‘jalik kadrlari hamda jamoat tashkilotlari rahbarlarining ko‘pchiligi o‘ylamasdan va shoshilinch tarzda, butunlay almashtirildi. Deyarli barcha “muvaqqat kadrlar” mahalliy kadrlarimizdan bilim, aql va kamtarlik jihatidan ustun emas edi. Eng achinarlisi, ular qoraqalpoq tilini bilmas, shakllangan milliy an’ana va urf-odatlarni mensimay, ba’zan odamlarning milliy qadr-qimmatini tahqirlashga borardilar[12; 56].

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov 1984–1989-yillarda Qoraqalpog‘istondagi voqealarga quyidagicha xolis baho berdi: Darhaqiqat, bularning barchasining asosida vayron bo‘lgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimi, respublikaning milliy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini mensimagan siyosat, zo‘ravonlik va xalqni tahqirlash siyosati, shuningdek, iqtisodiy vaziyatning, ayniqsa, paxta monopoliyasi tufayli keskin yomonlashuvi turgan edi[13; 5].

Shaxsga sig‘inish ustuvor bo‘lgan yillarda mahalliy aholini, xususan ziyolilarni millatchilikka moyillik va diniy qarashlarga berilganlikda ayblash kampaniyalarining muntazam takrorlanishi, xususan, “Paxta ishi” munosabati bilan markaziy ommaviy axborot vositalari tomonidan haddan tashqari bo‘rttirib ko‘rsatilishi ijtimoiy ongda salbiy iz qoldirdi va aholining siyosiy befarqligini yanada chuqurlashtirdi.

Birinchi Prezident I.A. Karimov 1989-yil 30-noyabrda Qoraqalpog‘iston viloyat partiya qo‘mitasining VI-plenumida so‘zga chiqib, “O‘zbekistonda, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston avtonom respublikasida 5–6 yil oldin paxta ishi atrofida boshlangan jarayon bugungi kungacha barcha odamlarni qiynab kelayotganini” ta’kidladi[14; 165]. Qoraqalpog‘istonda “Paxta ishi” bo‘yicha sudlangan 159 paxtachilik sohasi xodimlaridan 133 nafari jinoyat tarkibi bo‘lmaganligi sababli oqlangan, 2 nafari jazoni o‘tash chog‘ida vafot etgan, 13 nafari jazoni o‘tash muddatini qisqartirish orqali qamoqdan ozod qilingan, 1 kishi aybi isbotlanmaganligi sababli qamoqdan ozod qilingan, 9 kishining hukmi bekor qilingan va faqat bir kishining hukmi o‘zgarishsiz qoldirilgan[15; 61].

Aytish joizki, XX asrning 80-yillari o‘rtalaridagi “Paxta ishi” bo‘yicha ta’qiblar Qoraqalpog‘istondagi paxtachilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatiga, shuningdek, butun O‘zbekistondagi paxtachilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatiga chuqur salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu jarayon kadrlar salohiyatini sezilarli darajada pasaytirib yubordi va paxta kompleksi bo‘linmalari boshqaruv tarkibining tez-tez o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

Xulosa. Mustaqillik yillarida xalqning o‘z tarixiga bo‘lgan qiziqishi ortdi. Vatanimiz tarixining har bir davrining haqiqiy ahamiyatini inobatga olgan holda, qiziqishning kuchli oqimi aynan eng yangi tarix davrida jamlanganini ta’kidlash mumkin. Zamonaviy bosqichda yangi davr tarixchilari oldida jamiyat hayotining turli ko‘rinishlarini ochib berish va yoritish bo‘yicha keng imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Shu sababli, Qoraqalpog‘istonning eng yangi tarixiga oid yangi ilmiy ma’lumotlarni izlash, aniqlash va ilmiy muomalaga kiritish bo‘yicha faol ishlarni davom ettirish bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi.

1980-yillardagi “Paxta ishi” O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda siyosiy-mafkuraviy tazyiqning eng kuchaygan davrlaridan biri bo‘lib, minglab insonlar taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurash sifatida ko‘rsatilgan ushbu kampaniya amalda milliy kadrlarni bo‘ysundirish va jamiyatda qo‘rquv hamda ishonchsizlik muhitini yaratishga xizmat qildi. Bugungi kunda bu voqealar yangi manbalar, arxiv hujjatlari va xolis ilmiy tahlillar asosida qayta baholanmoqda. Ularni o‘rganish tarixiy adolatni tiklash, milliy davlatchilik tajribasini anglash va kelgusida bunday xatolarga yo‘l qo‘ymaslikda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Халқ ҳақиқатни билмоғи зарур.//Қишлоқ ҳақиқати. 1990, 30 январь. Тошкент ҳақиқати. 1990, 3 февраль.
2. Хлопковое дело. // https://ru.wikipedia.org/wiki
3. Ўзбекистон тарихи. 1917-1991. 2-китоб. Тошкент, 2019. 176-в.
4. *Гдлян Т., Иванов Н.* Кремлевское дело (повесть-хроника). - Ростов-на-Дону: Книга, 1984. С.-23
5. Ўзбекистон тарихи. 1917-1991. 2-китоб. Тошкент, 2019. 183-в.
6. ЦГА РК, ф.1, оп.13, д.6, С.-174-175.
7. ЦГА РК, ф.1, оп.13, д.6, С.-174-175.
8. Кощанов Б.А., Отегенов Х. Очерки истории Каракалпакстана (1916-1991). – Нукус, 2021.С.-160.
9. М.Сарыбаев, А.Ерманов. “Хлопковое дело” в Каракалпакстане. Қубла Арал бойы халықлары тарийхының актуал мәселелери. Республикалық илимий-теориялық конференция материаллары. Нөкис, 2018. 60 б.
10. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX әсирдиң екинши ярымынан XX1 әсирге шекем. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2003. 326 б.
11. Илюхин В. Қабоҳат ёхуд “Ўзбеклар иши” деган уйдирма хусусида. - Тошкент: Ўзбекистон,1993. 272 в.
12. Журбин Ю.А. Воспоминания о Камалове К.К. Каллибек Камалов – достойный и верный сын каракалпакского народа. – Москва: Белый Ветер, 2017. С.-56.
13. Каримов И.А. Узбекистан на пороге достижения независимости. – Ташкент: Узбекистан, 2011. С.-5.
14. Сарыбаев М.К. Политика хлопковой монокультуры советской власти в Каракалпакстане и её последствия (1917-1990 гг). – Ташкент: 2008. С.-165.
15. М.Сарыбаев, А.Ерманов. “Хлопковое дело” в Каракалпакстане. “Қубла Арал бойы халықлары тарийхының актуал мәселелери”. Республикалық илимий-теориялық конференция материаллары. Нөкис, 2018. 61 б.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 130.2:316.72

JAMIYAT MADANIY RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Qilichev Alijon Tilavovich, Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi



https://orcid.org/0009-0008-8304-3087
e-mail: kilichevalijon@gmail.com

SOCIO-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF CULTURAL DEVELOPMENT IN SOCIETY

Kilichev Alijon Tilavovich, independent researcher at the Bukhara State Pedagogical Institute

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Киличев Алижон Тилавович, независимый исследователь Бухарского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyat madaniy rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, madaniyat jamiyat hayotidagi tutgan o‘rni, shuningdek, madaniy rivojlanish asosiy o‘rin tutuvchi ijtimoiy aspektlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *madaniyat, jamiyat, madaniy rivojlanish, madaniy taraqqiyot, ijtimoiy taraqqiyot, madaniyat sotsiologiyasi, madaniy qadriyatlar.*

Abstract: *This article analyzes the socio-philosophical characteristics of cultural development in society, the role of culture in social life, as well as the key social aspects that play a fundamental role in cultural development.*

Keywords: *Culture, society, cultural development, cultural advancement, social progress, sociology of culture, cultural values.*

Аннотация: *В данной статье анализируются социально-философские особенности культурного развития общества, роль культуры в жизни общества, а также основные социальные аспекты, в которых культурное развитие играет ключевую роль.*

Ключевые слова: *культура, общество, культурное развитие, культурный прогресс, социальное развитие, социология культуры, культурные ценности.*

Kirish. Madaniyat tushunchasining ijtimoiy fanlarda eng samarali izohlash tamoyillaridan biri sifatida mustahkam o‘rin egallashi, avvalo, u xususiy ijtimoiy fanlar — etnografiya va etnologiya doirasida ilmiy jihatdan o‘zini oqlaganidan keyin yuzaga keldi. Dastlab ushbu fanlar asosan ibtidoiy jamiyatlarni tadqiq etishga yo‘naltirilgan edi. “Madaniyat” atamasi ko‘p qirrali ma’noga ega bo‘lib, aniq va yagona ta’rif berish qiyin bo‘lgan kam sonli tushunchalardan biri sanaladi.

Madaniyatning ayrim talqinlari sifatli adabiyot, musiqa, san’at va milliy oshxonani qadrlash bilan bog‘liq bo‘lsa, biologiya sohasida u Petri idishidagi azotli muhitda o‘sayotgan bakteriyalar yoki boshqa mikroorganizmlar majmuasini anglatadi. Antropologlar, sotsiologlar va xulq-atvor fanlari vakillari nuqtayi nazaridan esa madaniyat inson tomonidan o‘zlashtirilgan xatti-harakatlar va tajribalar tizimining keng doirasini ifodalaydi. Britaniyalik antropolog Edvard B. Teylor ushbu tushunchani ilk bor 1871 yilda “Ibtidoiy madaniyat” asarida ilmiy muomalaga kiritib, uni “inson jamiyat a’zosi sifatida egallagan bilim, e’tiqod, san’at, qonun, axloq, urf-odatlar hamda boshqa qobiliyat va odatlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab yaxlit tizim” sifatida ta’riflagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.S.Karmin[1], A.I.Kravchenko[2], A.Ya.Fliyer[7], A.L.Kreber va S.Klakxon[5]larning ilmiy asarlari va tadqiqotlarida jamiyatning madaniy rivojlanish jarayonlari ijtimoiy-falsafiy, shuningdek, iqtisodiy yondashuvlar asosida atroflicha tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda analiz va sintez, tarixiylik, sinergetika, germenevtika, vorisiylik, shuningdek, qiyosiy tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Madaniyat murakkab va ko‘p qatlamli hodisa bo‘lib, uni sezish mumkin bo‘lsa-da, to‘liq anglash nihoyatda qiyin, o‘lchash esa

matematik statistika va modellashtirish doirasiga kiritish nuqtayi nazaridan yanada mushkuldir. Shunga qaramay, madaniyatni o‘lchashga qaratilgan bir qator mashhur nazariy modellar ishlab chiqilgan. Ular sirasiga G. Xofstedning madaniy o‘lchovlari, Sh. Shvarsning qadriyatlar tizimi, R. Inglxartning empirik tadqiqotlari, G. Triandisning madaniy sindromlari, M. Bond va K. Leung tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy aksiomalar konsepsiyasi va boshqa yondashuvlar kiradi.

Mazkur nazariyalar doirasida obyektiv iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan taklif etilgan madaniy o‘lchovlar o‘rtasidagi nisbatni aniqlashga qaratilgan urinishlar mavjud. Biroq aniqlangan bog‘liqliklar zamirida yotuvchi universal va madaniy jihatdan o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar hozirgi kungacha aniq belgilab berilmagan. Hozirgi zamon ilmiy tadqiqotlarida madaniyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri sotsiologlar, siyosatshunoslar, iqtisodchilar, tarixchilar va boshqa soha mutaxassislari tomonidan chuqur o‘rganilmoqda.

Shveser ta’kidlaganidek, agar madaniyat tashqi va sof empirik jihatdan talqin qilinsa, u bilish va amaliyot taraqqiyotining barcha shakllarini, shuningdek, insonning jamiyatga integratsiyalashuv jarayonini qamrab oladi. Bu holat madaniyatning pirovard maqsadi sifatida insonning ichki ma’naviy kamolotiga ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Madaniyat uchun taraqqiyotning uch asosiy turi muhim ahamiyatga ega: bilish va amaliyot taraqqiyoti, insonning jamiyatga qo‘shilishi hamda ruhiy rivojlanish. Ana shu jarayonlar asosida to‘rtta ideal shakllanadi: inson ideali, ijtimoiy va siyosiy birlik ideali, diniy-ma’naviy birlik ideali hamda insoniyat ideali [8.230, 232]. Mazkur to‘rt ideal asosida tafakkur taraqqiyotning barcha ko‘rinishlari bilan uzviy munosabatda bo‘ladi. Bilish va amaliyot sohasida yuzaga kelgan ham foydali, ham zararli yutuqlar sababli vujudga kelgan muvozanatni saqlab qolish uchun doimo inson ideali haqida mulohaza yuritish va mavjud sharoitlar bilan kurash olib borish zarur. Ushbu kurashning asosiy maqsadi insonning mazkur ideal sari rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni imkon qadar kamaytirishdan iboratdir.

Madaniyatning mohiyati shundan iboratki, hayotni e’zozlash tuyg‘usi alohida shaxslar hamda butun insoniyat ongiga tobora chuqurroq singib boradi. Shu ma’noda, madaniyat olam evolyutsiyasining oddiy hodisasi emas, balki insonning yashashga bo‘lgan irodasini anglash jarayonidir. Ushbu jarayonni tashqi tomondan kuzatiladigan voqelik hodisalari bilan to‘liq bog‘lab bo‘lmaydi. Madaniyat hayotga bo‘lgan irodaning eng mukammal ifodasidir. U o‘z-o‘zini anglash va hayotiy irodani ro‘yobga chiqarishning oliy darajadagi akti amalga oshadigan jarayon sifatida umuminsoniy ahamiyat kasb etadi hamda dunyoni qo‘shimcha izohlashga muhtoj emas. Madaniyat, shuningdek, turmush tarzi, birgalikda yashash madaniyati, qadriyatlar, an’analar va e’tiqodlar tizimi, bilim, san’at hamda adabiyot majmuasini o‘z ichiga oladi.

Madaniy qadriyatlar shaxsiy va guruhiy e’tiqodlar, maqsadlar hamda harakatlarni shakllantiradi va asoslaydi. Ijtimoiy institutlar, siyosat, me’yorlar va kundalik turmush tarzi o‘z negizida yotgan madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Madaniy qadriyatlar tizimining markaziy unsuri — madaniyatning turli jihatlarini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi g‘oyaviy qadriyatlardir [6]. G‘oyaviy qadriyatlarga mos kelmaydigan jihatlar ziddiyatlarning yuzaga kelishiga, tanqidiy munosabat va o‘zgarishlarga majbur etuvchi omilga aylanishi mumkin. Texnologik taraqqiyotga ijtimoiy moslashuv, farovonlik darajasining ortishi, boshqa madaniyatlar bilan aloqalarning kengayishi va turli tashqi omillar qadriyatlar ustuvorligining o‘zgarishiga olib keladi. Madaniyat sekin sur’atlarda o‘zgaradi, biroq yakunda u o‘zgaruvchan muhit talablariga moslashadi. Ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi siljishlar shaxslarning hayotiy tajribasiga ta’sir ko‘rsatib, individual darajadagi e’tiqodlar, qarashlar va qadriyatlarning yangilanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda yosh avlodni ijtimoiy-madaniy me’yorlar, oila, jamiyat va davlat an’analari bilan tanishtirish, madaniy meros, turli mamlakatlar va xalqlar madaniyatining rang-barangligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Ushbu jarayonning natijasi shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi bilan ifodalanadi. Mazkur tushunchaning mohiyatini tahlil etishda shuni ta’kidlash joizki, “ijtimoiy-madaniy rivojlanish — shaxs taraqqiyotining hal qiluvchi omili sifatida madaniyatni (ijtimoiy va shaxsiy) ajratib ko‘rsatgan holda ijtimoiylashuv jarayonining aniq ifodalangan tushunchasidir”. Ijtimoiy-madaniy rivojlanish mazmunan insonning madaniyatga kirib borishi, mazkur jamiyatga xos bo‘lgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar hamda ijtimoiy me’yorlarni qabul qilishi va o‘zlashtirishi, shuningdek, ushbu tajribani ijodiy tarzda ichki qayta baholash orqali jamiyatda o‘ziga xos xulq-atvor modelini shakllantirish jarayonini anglatadi. Ijtimoiy-madaniy rivojlanishning asosiy mexanizmlari sifatida inkulturatsiya, interiorizatsiya va ijtimoiylashuv jarayonlari e’tirof etiladi [9].

Zamonaviy jamiyat sharoitida insonning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi fenomeni tarbiya jarayonlarida dastlab tasavvur qilinganidan ancha muhim va murakkab hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi jamiyat madaniyatida rivojlanishning aniq tendensiyalari va istiqbollari mavjud bo‘lib, ijtimoiy-madaniy rivojlanish madaniy taraqqiyotning muhim poydevoriga aylanishi mumkin. So‘nggi yillarda shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga oid nazariy masalalar va amaliy jihatlar ilmiy bilimlarning turli sohalarida chuqur tadqiq etilmoqda. Tarixiy jihatdan “ijtimoiy-madaniyat” tushunchasi ijtimoiy fanlar metodologiyasida yetakchi tushunchaga aylanguniga qadar uzoq va murakkab takomil yo‘lini bosib o‘tgan.

Madaniy rivojlanishning poydevorini yangi madaniy qadriyatlarning yaratilishiga hissa qo‘shuvchi madaniyat vakillari — alohida shaxslar va jamoalarning faol ishtiroki tashkil etadi. Ushbu qadriyatlar ko‘lami va sifati jihatidan kengayib boradi hamda haqiqat, ezgulik va go‘zallik tamoyillariga tayanadi.Mazkur jarayon millat, ilm-fan, insonparvarlik, demokratiya va taraqqiyot g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan holda, madaniy faoliyatning barcha yo‘nalishlarida rivojlanishni ta’minlaydi. Ijtimoiy-madaniy rivojlanish nafaqat milliy o‘zlikni anglash jarayonini boyitadi, balki insonlarning madaniy qadriyatlarni yaratish, ishlab chiqish, tarqatish, baholash va qadrlash jarayonlarida faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi. Natijada mamlakat taraqqiyoti va mudofaasi uchun mustahkam poydevor hamda harakatlantiruvchi kuch bo‘lgan sog‘lom va jo‘shqin madaniy muhit shakllanadi. Madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi ushbu dinamik o‘zaro ta’sir madaniy qadriyatlarning jipslik, ijodkorlik va barqarorlikning qudratli manbai sifatida saqlanib qolishini ta’minlaydi. Xuddi shuningdek, inson taraqqiyoti tushunchasi milliy daromad kabi an’anaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan ustun turadi. U insonlarning o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishi hamda mazmunli va to‘laqonli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishga qaratiladi.Insoniyat taraqqiyoti kishilarning tanlov imkoniyatlarini kengaytirish, ularning intilishlari va ehtiyojlariga mos keladigan hayot tarzini ta’minlashni maqsad qiladi. Ijodkorlik, samaradorlik va farovonlikni rivojlantirish orqali inson taraqqiyoti nafaqat shaxsiy o‘sishga, balki jamiyatning umumiy ravnaqiga ham sezilarli hissa qo‘shadi. Shu tariqa, madaniy va insoniy taraqqiyot o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan jarayonlar sifatida farovon, adolatli va uyg‘un jamiyat barpo etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Madaniyat inson hayotining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. U jamiyat taraqqiyotida qaror qabul qilish mexanizmlari va himoya choralari, ijtimoiy qadriyatlar va an’analar shakllanishi, shuningdek, shaxslararo munosabatlar holatiga keng qamrovli ta’sir o‘tkazadi. Umuman olganda, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faoliyatning holati, yo‘nalishi hamda rivojlanish sur’atlari ko‘p jihatdan madaniyat ta’siri ostida shakllanadi. Bu holat madaniyatni shaxs va jamiyat rivojlanishining asosiy belgilovchi omiliga aylantiradi.

Shu bois, madaniyat insonlarning fikrlari, munosabatlari va shaxsiy sifatlarini, jamiyat qoidalari va urf-odatlarini, shuningdek, global rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy me’yorlar hamda qadriyatlarni yaratish va qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кармин А.С. Культурология. СПб., 2003.
2. Кармин А.С., Новикова Е.С. Культурология. СПб., 2005.
3. Коркия Э.Д. Артикуляция понятия культуры в современном социологическом знании. Вестн. Моск. ун-та. Сер. 18. Социология и политология. 2016. № 2
4. Кравченко А.И. Культурология: Уч. М., 2004; Культурология: Уч. / Под ред. Ю.Н. Солонина, М.С. Кагана. М., 2005.
5. Kroeber A.L., Kluckhohn C. Culture: a critical review of concepts and definitions. N.Y.,1952. P. 112.
6. Лебедева,Н.М. Культура как фактор общественного прогресса / Н.М.Лебедева, А.Н. Татарко. — М. : ЗАО Юстицинформ, 2009. — 408 с.
7. Флиер А.Я. Культурология для культурологов. М., 2000.
8. Швейцер, А. Благоговение перед жизнью / А. Швейцер. — М.: Прогресс, 1991.- 576 с. С. 230.232.
9. Захарова Л.М., Пурскалова Ю.В. Социокультурное развитие ребенка дошкольного возраста в процессе ознакомления с культурой народов мира //Л.М. Захарова, Ю.В. Пурскалова. Педагогика. 2013. № 12.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 130.2:316.334.56

RBANIZATSIYA FENOMENIGA IJTIMOIY-FALSAFIY YONDASHUVLAR

Muxammedov Maxsud Murodovich, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SOCIAL PHILOSOPHICAL APPROACHES TO THE PHENOMENON OF URBANIZATION

Mukhammedov Maksud Murodovich, Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ПОДХОДЫ К ЯВЛЕНИЮ УРБАНИЗАЦИИ

Мухаммедов Максуд Муродович, депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор философии



https://orcid.org/0009-0008-8304-3087
e-mail: maxsudmuxammedov@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada urbanizatsiya fenomeni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, uning O‘zbekiston jamiyati taraqqiyotidagi o‘rni va xususiyatlari ochib berilgan. Urbanizatsiyaning ijtimoiy makon, qadriyatlar transformatsiyasi, aholi ijtimoiy ongi va hayot tarziga ta’siri klassik hamda zamonaviy falsafiy konsepsiyalar asosida yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy, sistemali va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Natijada O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari global tendensiyalar bilan uyg‘un holda, milliy-madaniy xususiyatlar ta’sirida shakllanayotgani ilmiy jihatdan asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *urbanizatsiya, ijtimoiy falsafa, shahar makoni, modernizatsiya, O‘zbekiston, ijtimoiy ong.*

Annotation: *This article analyzes the phenomenon of urbanization from a socio-philosophical point of view, revealing its role and features in the development of Uzbek society. The impact of urbanization on social space, transformation of values, social consciousness and lifestyle of the population is covered on the basis of classical and modern philosophical concepts. The research used historical-logical, systematic and comparative analysis methods. As a result, it was scientifically substantiated that urbanization processes in Uzbekistan are taking shape in harmony with global trends and under the influence of national cultural characteristics.*

Keywords: *urbanization, social philosophy, urban space, modernization, Uzbekistan, social consciousness.*

Аннотация: *В данной статье анализируется феномен урбанизации с социально-философской точки зрения, раскрывается его роль и особенности в развитии узбекского общества. Влияние урбанизации на социальное пространство, трансформацию ценностей, общественное сознание и образ жизни населения рассматривается на основе классических и современных философских концепций. В исследовании использованы историко-логические, систематические и сравнительные методы анализа. В результате научно обосновано, что процессы урбанизации в Узбекистане формируются в соответствии с глобальными тенденциями и под влиянием национальных культурных особенностей.*

Ключевые слова: *урбанизация, социальная философия, городское пространство, модернизация, Узбекистан, общественное сознание.*

Kirish. XX–XXI asrlarda urbanizatsiya insoniyat taraqqiyotining eng muhim global jarayonlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Jahon aholisining katta qismi shaharlarda istiqomat qilayotgani urban makonni nafaqat iqtisodiy yoki demografik hodisa, balki ijtimoiy-falsafiy tahlil obyekti sifatida ham ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Urbanizatsiya jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, qadriyatlar tizimi, madaniy identifikatsiya jarayonlari hamda inson tafakkuriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan urbanizatsiya inson va makon o‘rtasidagi munosabatlarni tubdan qayta shakllantiradi, an’anaviy jamoaviy aloqalarni tobora individuallashgan munosabatlar bilan almashtiradi. Shu sababli ushbu jarayonni faqat statistik o‘sish ko‘rsatkichi sifatida emas, balki ijtimoiy ong va tafakkur transformatsiyasining muhim omili sifatida tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Maqolaning asosiy maqsadi urbanizatsiya fenomenini ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar asosida tahlil qilish hamda uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini yoritib berishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Urbanizatsiya muammolari L.Mamford, E.Demidenko, M.Mejevich, B.Xoreva, A.Melnikova va N.Gubinalarning ilmiy tadqiqotlarida turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan bo‘lib, mazkur jarayonning ijtimoiy, madaniy va falsafiy jihatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, tarixiylik, sinergetika, germenevtika, vorisiylik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Urbanizatsiya jarayoni bugungi kunda yer yuzining deyarli barcha aholi yashaydigan hududlarini qamrab olgan. Hozirgi davrda shaharlar soni va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tobora ortib bormoqda, biroq ushbu jarayonning dastlabki bosqichlarida shaharlar son jihatidan cheklangan edi.

“Urbanizatsiya” atamasi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “shahar” ma’nosini anglatadi. Keng ma’noda ushbu tushuncha shaharlar sonining ko‘payishi, shahar aholisining ortishi hamda shahar turmush tarzining keng hududlarga yoyilishini ifodalaydi.

Ilk shaharlar asosan qulay tabiiy-geografik sharoitga ega hududlarda, jumladan, daryo va dengiz sohillarida vujudga kelgan. Bunday makonlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va diniy faoliyat rivojlangan. Fiva, Bobil, Ur, Iskandariya, Rim, Afina, Karfagen, Samarqand singari shaharlar aynan shu omillar ta’sirida shakllangan. Shuningdek, Janubiy Amerikadagi Peru va Shimoliy Amerikadagi Meksika hududlarida joylashgan qadimgi shaharlarni ham ushbu ro‘yxatga kiritish mumkin.

Biroq mazkur shaharlarning katta qismi vaqt o‘tishi bilan tanazzulga uchrab, yo‘q bo‘lib ketgan. Buning asosiy sababi ularning rivoji asosan geografik joylashuv va diniy ahamiyat kabi omillarga bog‘liq bo‘lganidadir. O‘sha davrlarda shaharlarning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlay oladigan sanoat tizimi hali shakllanmagan edi.

Ijtimoiy falsafada urbanizatsiya masalasi XIX–XX asrlarda alohida ilmiy ahamiyat kasb eta boshladi. M. Veber shaharni rasional boshqaruv, bozor munosabatlari va ijtimoiy stratifikatsiyaning markazi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, shahar ijtimoiy munosabatlarning institutsionallashuvi bilan tavsiflanadi [1; 48].

G.Zimmel urban muhitning inson psixologiyasiga ko‘rsatadigan ta’siriga alohida e’tibor qaratadi. U shahar hayotini shaxs individuallashuvini kuchaytiruvchi, ayni paytda ijtimoiy begonajlikni yuzaga keltiruvchi omil sifatida baholaydi [2; 136].

L.Mamford shaharni madaniy taraqqiyotning markazi deb bilib, urbanizatsiya jarayonini sivilizatsiya tarixi bilan uzviy bog‘laydi. Ushbu yondashuvlar urbanizatsiyani faqat demografik hodisa sifatida emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida anglash imkonini beradi [5; 55].

XX asrning ikkinchi yarmida urbanizatsiya muammosi yangi nazariy asoslar doirasida qayta ko‘rib chiqildi. A. Lefevr shahar makonini ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli sifatida talqin etib, urban makon inson faoliyati natijasida shakllanishini asoslab berdi [3; 184].

M.Kastels esa urbanizatsiyani axborot jamiyati va global tarmoqlar rivoji bilan bog‘laydi. Uning ta’kidlashicha, zamonaviy shaharlar iqtisodiy va madaniy aloqalarning muhim tugun nuqtasiga aylanmoqda [4; 152].

Mazkur yondashuvlar urbanizatsiyaning ijtimoiy makon, kommunikatsiya hamda

identifikatsiya jarayonlariga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari tarixiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq holda kechmoqda. An’anaviy jamiyatdan industrial va postindustrial jamiyatga o‘tish jarayoni shaharlarni ijtimoiy transformatsiyaning muhim markazlariga aylantirdi.

Mustaqillik yillarida shahar aholisining ko‘payishi, yangi shahar tumanlarining barpo etilishi hamda infratuzilmaning rivojlanishi urban makonning ijtimoiy ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi. Shu bilan birga, mazkur jarayonlar ijtimoiy notekislik, migratsiya va madaniy moslashuv bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, O‘zbekiston shaharlari an’anaviy qadriyatlar va global madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir maydoni sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu holat ijtimoiy ongda gibrid identifikatsiya shakllanishiga olib kelmoqda.

Urbanizatsiya jarayonlari O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy munosabatlar tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Shahar muhiti individual faollikni oshirish bilan birga, ijtimoiy begonajlik va ma’naviy muvozanatning buzilishi kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda [6; 231].

Shu bois urbanizatsiyani faqat iqtisodiy taraqqiyot mezoni sifatida emas, balki ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida baholash zarur. Bunday yondashuv davlat siyosatini inson manfaatlariga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, urbanizatsiya fenomeni ijtimoiy-falsafiy tahlil nuqtai nazaridan jamiyat taraqqiyotining murakkab va ko‘p qirrali jarayonidir. O‘zbekiston misolida urbanizatsiya global tendensiyalar bilan uyg‘un holda, milliy madaniy qadriyatlar ta’sirida shakllanmoqda. Urbanizatsiyani chuqur falsafiy tahlil qilish jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish va barqaror taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy o‘zgarishlar sharoitida shaharlarning o‘sishi va taraqqiyoti jadallashib, murakkab urbanizatsiya jarayonining jamiyatdagi roli tobora ortib bormoqda. Shu sababli ushbu jarayonni har tomonlama tadqiq etish nafaqat nazariy jihatdan, balki aholining hududiy tarkibini takomillashtirish bilan bog‘liq amaliy muammolarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Urbanizatsiya jarayoni global xususiyatga ega bo‘lib, dunyoning ko‘plab mamlakatlarini qamrab olgan. Biroq uning natijalari turli mintaqalarda har xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ayrim mamlakatlarda shaharlar jadal sur’atlarda rivojlanib, shahar turmush tarzi keng yoyilayotgan bo‘lsa, boshqa hududlarda bu jarayon endigina boshlanmoqda. Natijada dunyo miqyosida turli darajadagi urbanizatsiya hududlari shakllanmoqda.

Urbanizatsiyaning to‘liq shakllangan rivojlanish bosqichiga ega mamlakatlar qatoriga Yaponiya, AQSH, G‘arbiy Yevropa davlatlari hamda Avstraliya kiradi. Ushbu mamlakatlarda urbanizatsiya jarayoni sifat jihatidan yetuk bosqichga chiqqan. Boshqa toifadagi davlatlarda esa urbanizatsiya asosan shaharlarning chekka hududlari hisobiga kengayib, miqdoriy ko‘rsatkichlarning ustunligi bilan xarakterlanadi. Bunday holat Nigeriya, Meksika, Hindiston va Indoneziya kabi mamlakatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Shaharlarning tez sur’atlarda o‘sishi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda qator ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, ishsizlik darajasining oshishi, uy-joy bilan ta’minlashdagi muammolar, sanitariya-gigiyena sharoitlarining yomonlashuvi, jinoyatchilikning kuchayishi hamda atrof-muhitning ifloslanishi shular jumlasidandir.

Biroq urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil bo‘lib ham xizmat qilishi mumkin. Shaharlar yangi ish o‘rinlarini yaratadi, innovatsion jarayonlarni jadallashtiradi va infratuzilmaning rivojlanishiga turtki beradi. Shu bilan birga, ushbu imkoniyatlardan to‘liq va samarali foydalanish urbanizatsiya jarayonlarini oqilona boshqarish hamda uning salbiy oqibatlarini minimallashtirishni talab etadi.

Kelgusida urbanizatsiyaning global miqyosdagi rivojlanish tendensiyalari saqlanib qolishi prognoz qilinmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga kelib dunyo aholisining 68 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Ushbu jarayon, ayniqsa, Osiyo va Afrika mintaqalarida jadallashishi kutilmoqda. Shu sababli urbanizatsiya bilan bog‘liq muammolarni hal etish va uning ijobiy jihatlaridan maksimal darajada

foydalanish global hamjamiyatning hamkorlikdagi sa’y-harakatlarini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasida urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish borasida muhim huquqiy asos O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5623-son farmoni bilan belgilab berildi. Ushbu hujjatda urbanizatsiya jarayonlarining ustuvor yo‘nalishlari aniqlashtirilib, birinchi navbatda mutlaqo yangi uy-joy siyosatini amalga oshirish, jumladan, kam va o‘rta daromadli oilalar uchun arzonlashtirilgan turar joylar qurilishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiyalarni rag‘batlantirish vazifalari belgilandi. Shuningdek, farmonda qishloq joylardan shaharlarga ko‘chib kelishga to‘sqinlik qilayotgan ma’muriy cheklovlarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada urbanizatsiya jarayonining izchil rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq masalalarning aksariyatiga kompleks yechim taklif etildi.

Shu bilan birga, shaharlarning hududiy tashkil etilishi va ichki hududiy tarkibi ularning samarali faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaharlar sonining ortishi va urbanizatsiya jarayonining chuqurlashuvi yirik va juda yirik shaharlar ulushining ko‘payishi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday shaharlar urbanizatsiya rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lishi bilan birga, atrof hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida “o‘sish qutblari” vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, yirik rus shaharshunos olimi G.M.Lapponing quyidagi fikrlari alohida ahamiyatga ega: “Shaharlar hududning iqtisodiy karkasi bo‘lib, aholi punktlari tizimida yetakchi va boshqaruvchi rolni bajaradi. Eng muhimi, alohida shahar emas, balki shahar aglomeratsiyalarining atrof-muhit bilan o‘zaro aloqadorligi ularning bajaradigan funksiyalariga hamda unda yashovchi aholining hayot tarziga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Agar u “urbanizatsiya eltuvchi” bo‘lsa, ta’sir samaradorligi yanada ortadi va kuchayadi. Chunki bunday hududlarda mamlakat iqtisodiy salohiyatining salmoqli qismi jamlangan bo‘lib, ularni “rivojlanish qutbi” deb atash mumkin”.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Weber M. The City. New York: Free Press, 1958.
2. Simmel G. The Metropolis and Mental Life. London: Routledge, 2002.
3. Lefebvre H. The Production of Space. Oxford: Blackwell, 1991.
4. Castells M. The Urban Question. London: Edward Arnold, 1977.
5. Mumford L. The City in History. New York: Harcourt Brace, 1961.
6. Giddens A. The Consequences of Modernity. Stanford: Stanford University Press, 1990.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2019.
8. Абдуллаев О.Ш. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари ва ижтимоий тараққиёт // Фалсафа ва ҳуқуқ журнали. 2021. №3.
9. Демиденко Э.С., Межевич М.Н. Социальное развитие и город. Л.: Лениздат, 1979;
10. Хорев Б.С. Проблемы городов. М.: Прогресс, 1975;
11. Хорев Б.С. Территориальная организация общества. М.: Мысль, 1981;
12. Корель Л.В. Перемещение населения между городом и селом в условиях урбанизации. Новосибирск: Наука, 1982;
13. Дмитриев А.В., Межевич М.Н. СССР-США: социальное развитие в городах (Опыт сравнительного анализа). Л.: Наука, 1981.
14. Губина Н.В. Управление социальным тонусом монопрофильного города. Автореф. дисс. на соиск. уч. степени докт. социол. наук (22.00.08). Казань: КГТУ, 2010.
15. Савченкова Б.М. Концепция города и урбанизации в западной социологии (теоретико-методологический анализ). Дисс.на соиск. уч.степени канд. социол.наук (22.00.11). М.: МГУ, 2005.
16. Мельникова А.А. Политические аспекты урбанизации: Дисс.на соиск.уч. степени канд. политич. наук (23.00.04). М.: РАГС, 2000.

Qabul qilindi: 05.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 349.2:004.8

SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING MEHNAT HUQUQIGA TA'SIRI

Matekeyeva Bibinaz Mirjan qizi, Mirobod tumani adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND AUTOMATION ON LABOR LAW

Matekeyeva Bibinaz Mirjan qizi, Chief Legal Counsel of the Legal Service Center of the Mirabad District Justice Department

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И АВТОМАТИЗАЦИИ НА ТРУДОВОЕ ПРАВО

Матекеева Бибиназ Миржан кызы, главный юрисконсульт Центра юридических услуг Мирабадского районного управления юстиции



https://orcid.org/0009-0001-2633-0839
e-mail: bibinazmirm@gmail.com

***Annotatsiya**: Mazkur ilmiy maqolada sun'iy intellekt (SI) va avtomatlashtirish texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida mehnat huquqining mazmuni va ahamiyati tubdan o'zgarib borayotgani ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida zamonaviy texnologiyalar ta'sirida mehnat munosabatlarining transformatsiyasi, an'anaviy bandlik shakllarining qisqarishi va yangi mehnat modellari paydo bo'lishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, algoritmik boshqaruv, masofaviy mehnat va platformaviy bandlik sharoitida xodimlarning huquqiy holati, ularning mehnat huquqlari va ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, mehnat huquqi, raqamli iqtisodiyot, bandlik, masofaviy mehnat, algoritmik boshqaruv.*

***Annotation:** This scientific article provides a comprehensive analysis of the impact of artificial intelligence and automation on the development of labor law in the context of digital transformation. The study examines the transformation of labor relations, the reduction of traditional forms of employment, and the emergence of new labor models. Particular attention is paid to the legal status of employees under remote work, platform-based employment, and algorithmic management systems. The article also addresses issues of liability, personal data protection, and the safeguarding of workers' rights when using intelligent technologies.*

***Keywords:** artificial intelligence, automation, labor law, digital economy, employment, remote work, algorithmic management.*

***Аннотация:** В данной научной статье проводится комплексный анализ влияния искусственного интеллекта и автоматизации на развитие трудового права в условиях цифровой трансформации общества. В работе рассматриваются изменения в системе трудовых отношений, сокращение традиционных форм занятости и формирование новых моделей труда. Особое внимание уделяется правовому положению работников в условиях дистанционной, платформенной занятости и алгоритмического управления трудом. Также анализируются проблемы ответственности, защиты персональных данных и обеспечения трудовых прав работников при использовании интеллектуальных систем.*

***Ключевые слова:** искусственный интеллект, автоматизация, трудовое право, цифровая экономика, занятость, дистанционный труд, алгоритмическое управление.*

Kirish. Bugungi kunda sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining jadal rivojlanishi mehnat munosabatlarining mazmuni va shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish hamda boshqaruv jarayonlarida intellektual tizimlardan keng foydalanilayotgani natijasida mehnat bozorida yangi kasblar paydo bo‘lmoqda, ayrim an’anaviy kasblar esa o‘z ahamiyatini yo‘qotib bormoqda. Mazkur jarayonlar mehnat huquqining amaldagi normalarini qayta ko‘rib chiqish va ularni zamonaviy texnologik rivojlanish talablariga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning mehnat huquqiga ta’siri masalasi so‘nggi yillarda milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar, asosan, raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlarining transformatsiyasi, bandlik tuzilmasining o‘zgarishi hamda xodimlar huquqlarini himoya qilish muammolariga bag‘ishlangan.

Xususan, mehnat huquqiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlarda (R.X.Qosimov, Sh.X.Saidov va boshqalar) mehnat munosabatlari an’anaviy ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi huquqiy aloqalar sifatida talqin etilgan. Biroq ushbu mualliflar so‘nggi yillardagi ishlarida raqamli texnologiyalar, masofaviy mehnat va avtomatlashtirish jarayonlari mehnat huquqining mazmuniga yangi yondashuvlarni talab etishini ta’kidlaydilar.

Xorijiy adabiyotlarda, jumladan Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda sun’iy intellektning bandlikka ta’siri, ish o‘rinlarining transformatsiyasi va xodimlarning ijtimoiy himoyasi masalalari chuqur tahlil qilingan. XMTning “Work for a Brighter Future” nomli hisobotida avtomatlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish uchun mehnat qonunchiligini moslashtirish zarurligi qayd etilgan.

Yevropa Ittifoqi doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda (F.De Stefano, A.Aloisi) platformaviy bandlik va algoritmik boshqaruv ostida ishlovchi xodimlarning huquqiy maqomi muhim muammo sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu mualliflar avtomatlashtirilgan qarorlar shaffofligini ta’minlash va xodimlarning bunday qarorlarga nisbatan e’tiroz bildirish huquqini mustahkamlash zarurligini asoslab beradilar.

Milliy ilmiy adabiyotlarda esa O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va raqamli texnologiyalarni joriy etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilinadi. Ayrim tadqiqotlarda (D.B.Xudoyberganov, N.N.Tursunova) masofaviy mehnat va elektron mehnat shartnomalarining huquqiy tabiati yoritilib, sun’iy intellektdan foydalanish sharoitida xodimlarning huquqlarini qo‘shimcha kafolatlar bilan ta’minlash zarurligi ta’kidlanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy ishlarda sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning mehnat huquqiga ta’siri alohida jihatlar bo‘yicha o‘rganilgan bo‘lib, ushbu masalani kompleks va tizimli tarzda tahlil qiluvchi tadqiqotlar yetarli emas. Shu sababli mazkur ilmiy maqola mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Muhokama va natijalar. O‘tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalari shuni tasdiqlaydiki, sun’iy intellekt hamda avtomatlashtirish texnologiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi mehnat munosabatlarining huquqiy tabiatiga tizimli va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvalo, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohalarida avtomatlashtirish darajasining oshishi an’anaviy mehnat funksiyalarining qisqarishiga olib kelayotgan bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida yuqori malaka va raqamli ko‘nikmalarni talab qiladigan yangi kasb va faoliyat turlarining shakllanishi kuzatilmoqda. Mazkur holat mehnat huquqida xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, qayta tayyorlanishi hamda uzluksiz malaka oshirish masalalarini huquqiy jihatdan mustahkamlash zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, masofaviy va platformaviy bandlik shakllarining kengayib borishi mehnat shartnomasining huquqiy mazmuniga sezilarli o‘zgarishlar kiritmoqda. Amaldagi mehnat qonunchiligi, asosan, an’anaviy doimiy bandlik modeliga yo‘naltirilgan bo‘lib, raqamli platformalar orqali faoliyat yuritayotgan shaxslarning huquqiy maqomi ko‘p hollarda yetarli darajada aniqlanmagan. Natijada ish vaqti hisobini yuritish, dam olish vaqti, mehnatni muhofaza qilish

TAMADDUN NURI

hamda ijtimoiy sug‘urta bilan bog‘liq masalalarda huquqiy bo‘shliqlar vujudga kelmoqda.

Shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlar faoliyati jarayonida xatoliklar yuzaga kelishi yoki zarar yetkazilishi bilan bog‘liq holatlarda huquqiy javobgarlik masalasi ham murakkab muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bunday vaziyatlarda ish beruvchi, dasturiy ta’minotni ishlab chiquvchi yoki tizimdan foydalanuvchi xodim o‘rtasida mas’uliyatni taqsimlash masalasi aniq va yagona huquqiy tartibga ega emas. Ushbu holat mehnat huquqi doirasida yangi yondashuvlar va huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini dolzarb qilib qo‘ymoqda.


1-jadval. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning mehnat huquqiga ta’siri

Ta’sir yo‘nalishi	Texnologik jarayon mazmuni	Mehnat huquqiga ta’siri	Huquqiy muammolar	Taklif etilayotgan yechimlar
Bandlik	Avtomatlashtirish va robotlashtirish	Ayrim kasblarning qisqarishi, yangi kasblarning paydo bo‘lishi	Strukturaviy ishsizlik xavfi	Qayta tayyorlash va malaka oshirishni huquqiy mustahkamlash
Mehnat shartnomasi	Masofaviy va platformaviy mehnat	Mehnat shartnomasi shaklining o‘zgarishi	Xodimning huquqiy maqomi noaniqligi	Platformaviy bandlikni alohida tartibga solish
Ish vaqti va nazorat	Algoritmik boshqaruv va raqamli monitoring	Ish vaqti va samaradorlik-ning avtomatik nazorati	Shaxsiy hayot daxlsizligiga tahdid	Raqamli monitoring chegaralarini belgilash
Mas’uliyat	Avtomatlashtiril-gan qarorlar	Javobgarlik masalasining murakkabla-shuvi	Mas’ul subyektni aniqlash qiyinligi	Maxsus javobgarlik normalarini joriy etish
Ma’lumotla rni himoya qilish	Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish	Xodimlarning shaxsiy ma’lumotlariga ta’sir	Ma’lumotlar xavfsizligi muammolari	Ma’lumotlarni himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish
Xodim huquqlari	Algoritmik qarorlar ta’siri	Mehnat huquqlarining cheklanishi ehtimoli	E’tiroz bildirish mexanizmlari-ning yo‘qligi	Algoritmik qarorlarga shikoyat qilish huquqini joriy etish

Mazkur jadvalda sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining mehnat huquqiga ko‘rsatayotgan asosiy ta’sir yo‘nalishlari tizimli ravishda yoritilgan. Jadvalda bandlik, mehnat shartnomasi, ish vaqti va nazorat, mas’uliyat, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish hamda xodimlar huquqlari kabi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha texnologik jarayonlarning mazmuni va ularning mehnat huquqiga ta’siri tahlil qilingan. Mazkur jadval tadqiqot natijalarini umumlashtirish, muammolarni tizimli ko‘rsatish va ularni hal etish bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur rasmda sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining mehnat huquqiga ko‘rsatayotgan asosiy ta’sir yo‘nalishlari va ularning nisbiy ahamiyati aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, bandlik munosabatlari, xodimlar huquqlarini himoya qilish hamda shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi masalalari eng muhim

huquqiy yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi. Bu holat mehnat qonunchiligini zamonaviy texnologik rivojlanish sharoitlariga moslashtirish zaruratini ko‘rsatadi.



1-rasm. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning mehnat huquqiga ta’sir yo‘nalishlari

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot davomida sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining mehnat huquqiga ko‘rsatayotgan ta’siri har tomonlama tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar mehnat munosabatlarining shakli va mazmunini tubdan o‘zgartirib, an’anaviy mehnat huquqi institutlari oldiga yangi huquqiy vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, avtomatlashtirish jarayonlari ayrim kasblarning qisqarishiga olib kelayotgan bo‘lsa-da, yangi kasblar va bandlik shakllarining paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘lmoqda. Bu holat mehnat bozorida muvozanatni saqlash va xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash masalalarini dolzarb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosida joriy etilayotgan algoritmik boshqaruv tizimlari ish vaqti, mehnat unumdorligi va xodimlarning xulq-atvorini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq bunday texnologiyalar xodimlarning shaxsiy hayoti daxlsizligi, ma’lumotlarni himoya qilish hamda adolatli mehnat sharoitlarini ta’minlash borasida muayyan huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Amaldagi mehnat qonunchiligi ushbu jarayonlarni to‘liq qamrab ololmayotgani sababli, huquqiy bo‘shliqlar mavjudligi aniqlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF–6079-son Farmoni.
3. International Labour Organization (ILO). *Work for a Brighter Future: Global Commission on the Future of Work*. – Geneva: ILO, 2019.
4. International Labour Organization (ILO). *The impact of artificial intelligence on labour markets*. – Geneva: ILO Working Paper, 2021.
5. OECD. *Artificial Intelligence, Automation and Work*. – Paris: OECD Publishing, 2020.
6. European Commission. *Artificial Intelligence and Employment: Legal and Ethical Challenges*. – Brussels, 2021.
7. De Stefano, V. Algorithmic management and collective labour law // *International Labour Review*. – 2020. – Vol. 159(3). – P. 375–400.

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 378.147:37.013.42

TALABALARDA SANOGEN TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA PATOGEN TAFAKKURNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

[1]Sabirova Charosxon Atamamatovna, UrIU “Boshlang‘ich ta’lim va psixologiya” kafedrasi mudiri, dotsent
[2]Allaberganova Shohista Rustam qizi, Urganch davlat pedogogika instituti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” kafedrasi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 241-guruh magistranti



https://orcid.org/0009-0007-0193-7603
e-mail: charos_pedagog@mail.ru

WAYS TO ELIMINATE PATHOGENIC THINKING IN DEVELOPING HEALTHY THINKING IN STUDENTS

[1]Sabirova Charosxon Atamamatovna, Head of the Department of “Primary Education and Psychology”, UrIU, Associate Professor
[2]Allaberganova Shohista Rustam qizi, Master’s student of Group 241, Primary Education program, Department of “Theory and Methodology of Education and Upbringing”,
Urganch State Pedagogical Institute



https://orcid.org/0009-0005-3129-6187
e-mail: shohista0305@gmail.com

СПОСОБЫ УСТРАНЕНИЯ ПАТОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ И ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

[1]Сабирова Чаросхон Атамаматовна, заведующая кафедрой “Начальное образование и психология” УрИУ, доцент
[2]Аллаберганова Шохиста Рустам кызы, магистрантка группы 241 по направлению “Начальное образование”, кафедра “Теория и методика обучения и воспитания”, Ургенчский государственный педагогический институт

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lg‘usi talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda patogen tafakkurni bartaraf etish yo‘llari, “salbiy holatlar bilan kurashish”dan ko‘ra “sog‘lom ma’no, ichki barqarorlik va ongli tanlov” asosida qayta qurish g‘oyasiga e’tibor qaratish lozimligi haqidagi ilmiy-metodik ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *sanogen tafakkur, patogen tafakkur, negativlik, beqarorlik, mas’uliyatsizlik, destruktivlik, sog‘lomlik, mazmunli yashash, mas’uliyat, barqarorlik, salbiy vaziyat, ijobiy fikrlash, xavotir, qo‘rquv, tushkunlik, g‘azab va ichki zo‘riqish holatlari.*

Abstract: *This article presents scientific and methodological information on the ways to eliminate pathogenic thinking in the development of healthy thinking in future students, emphasizing the need to focus on reconstruction based on “healthy meaning, internal stability and conscious choice” rather than “fighting negative situations”.*

Key words: *healthy thinking, pathogenic thinking, negativity, instability, irresponsibility, destructiveness, health, meaningful living, responsibility, stability, negative situations, positive thinking, anxiety, fear, depression, anger and internal tension.*

Аннотация: *В данной статье представлена научно-методологическая информация о способах устранения патогенного мышления в процессе развития здорового мышления у будущих студентов, а также о необходимости сосредоточиться на идее перестройки, основанной на “здоровом смысле жизни, внутренней стабильности и осознанном выборе”, а не на “борьбе с негативными ситуациями”.*

Ключевые слова: *здоровое мышление, патогенное мышление, негативность, нестабильность, безответственность, деструктивность, здоровье, осмысленная жизнь, ответственность, стабильность, негативные ситуации, позитивное мышление, тревога, страх, депрессия, гнев и внутреннее напряжение.*

KIRISH. Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviy yetuk va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu jarayonda talabalarning ma’naviy-axloqiy tafakkurini sog‘lom va barqaror asosda rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, bo‘lajak mutaxassislarning intellektual salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularda ijtimoiy faollik, ma’naviy barkamollik va shaxsiy mas’uliyatni shakllantirish uchun qulay ta’limiy va tarbiyaviy muhit yaratish davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda [1].

Ayniqsa, raqamli muhit ta’sirining kuchayishi, axborot bosimi, qadriyatlar plyuralizmi va ijtimoiy-ma’naviy xavflar sharoitida talabalarda ichki barqarorlik, ongli tanlov, ma’naviy immunitet va mas’uliyatli munosabatni shakllantirish an’anaviy tarbiya usullari bilan cheklanib qolmasdan, sanogen yondashuvga tayangan ilmiy-pedagogik echimlarni talab etmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati bilan bir qatorda talaba shaxsining ruhiy-ma’naviy sog‘lomligi, stressga chidamliligi va axloqiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlar ehtiyoji ortib borayotgani mazkur mavzuning mamlakatimiz ta’lim tizimi sharoitida dolzarbligini yaqqol ko‘rsatadi.

Dunyoda talabalarda ma’naviy-axloqiy tafakkurni sog‘lom, barqaror va ongli asosda shakllantirish masalasi ta’lim, psixologiya va gumanitar fanlar kesishuvida kompleks tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Sanogen tafakkurni talabalar ma’naviy-axloqiy kamolotining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, sog‘lom tafakkurning psixologik-pedagogik xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi ma’naviy, ijtimoiy hamda ta’limiy omillar kompleks tarzda o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Sanogen tarbiyaning patogen tafakkurni bartaraf etishdagi nazariy imkoniyatlari, eng avvalo, inson fikrlash tarzini “salbiy holatlar bilan kurashish”dan ko‘ra “sog‘lom ma’no, ichki barqarorlik va ongli tanlov” asosida qayta qurish g‘oyasiga tayanadi. Tadqiqotlar insonning ichki pozitsiyasi va ma’no orqali o‘zini qayta shakllantirishini muhim mexanizm sifatida ko‘rsatadi: “Biz vaziyatni o‘zgartira olmay qolgan paytimizda, o‘zimizni o‘zgartirish sinovi oldimizda turadi” [2;54].


Shu nuqtai nazardan tadqiqotda sanogen tarbiya tushunchasi sog‘lomlashtiruvchi tarbiyaviy tizim sifatida, patogen tafakkur esa ma’naviy-axloqiy beqarorlik, salbiy stereotiplar va ichki ziddiyatlarni kuchaytiruvchi fikrlash tarzi sifatida talqin qilinib, sanogen tarbiyaning patogen tafakkurni yumshatish va bartaraf etishga qaratilgan nazariy resurslari izchil asoslab beriladi.

Patogen tafakkur tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan inson ongi, fikrlash tarzi va ichki ruhiy holatida salbiy, buzuvchi va beqaror holatlarni vujudga keltiruvchi tafakkur shakli sifatida talqin qilinadi. “Patogen” atamasi salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi, shaxs rivojiga to‘sqinlik qiluvchi omillar majmuasini anglatib, patogen tafakkur insonning voqelikni noto‘g‘ri idrok etishi, voqea-hodisalarni salbiy prizmadan baholashi va o‘z hayotiga nisbatan ma’nosizlik yoki umidsizlik hissini shakllantirishi bilan xarakterlanadi.

Bunday tafakkurda shaxs tashqi ta’sirlarga haddan tashqari bog‘liq bo‘lib qoladi, o‘z imkoniyatlariga ishonchsizlik, mas’uliyatdan qochish va axloqiy passivlik holatlari kuchayadi. Patogen tafakkurning asosiy belgilari qatoriga kognitiv sohada stereotipli, biryoqlama va destruktiv fikrlash, voqelikni umumlashtirib salbiy baholash, o‘z-o‘zini qadrsizlantirish va sabab-oqibat aloqalarini noto‘g‘ri anglash kiradi. Emosional jihatdan esa patogen tafakkur doimiy xavotir, qo‘rquv, tushkunlik, g‘azab va ichki zo‘riqish holatlari bilan namoyon bo‘ladi. Axloqiy sohada bu tafakkur mas’uliyatsizlik, befarqlik, vijdonning susayishi, ijtimoiy me’yorlarga nisbatan nigilistik munosabat va axloqiy qarorlarda tashqi omillarga tobelik orqali ifodalanadi. Ushbu ko‘rinishlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, shaxs tafakkurida salbiy aylanma jarayonni vujudga keltiradi.

MUHOKAMA. Patogen tafakkur shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga jiddiy salbiy ta’sir

ko‘rsatadi. Avvalo, u inson ongida hayotiy ma’no va maqsadni yo‘qotishga olib kelib, hayotga nisbatan passiv munosabatni shakllantiradi. Bunday holatda shaxs o‘z xatti-harakatlari uchun ichki javobgarlikni sezmaydi va axloqiy tanlovlarini ongli ravishda emas, balki vaziyat yoki tashqi bosim ta’sirida amalga oshiradi. Natijada, ma’naviy barqarorlik susayadi, ichki nazorat mexanizmlari yetarli ishlamay qoladi va shaxs ijtimoiy hamda axloqiy jihatdan moslashuvchanligini yo‘qotadi.




1-rasm. Patogen tafakkur va uning belgilari

Patogen tafakkur shaxsning ma’naviy immunitetini zaiflashtiradi va uni turli salbiy ijtimoiy ta’sirlar, axloqiy buzilishlar hamda destruktiv g‘oyalarga nisbatan himoyasiz qiladi. Bu holat ta’lim-tarbiya jarayonida maxsus ilmiy-pedagogik yondashuvni, jumladan, sanogen tarbiya asosida tafakkurni sog‘lomlashtirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan patogen tafakkurni ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tushunish va uning salbiy ta’sir mexanizmlarini aniqlash sanogen tarbiyaning nazariy imkoniyatlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sanogen tarbiya va sanogen tafakkur tushunchalari zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda inson ongi, tafakkuri va ma’naviy barqarorligini sog‘lomlashtirishga qaratilgan nazariy kategoriyalar sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu tushunchalar insonni faqat salbiy holatlar, destruktiv fikrlash va ruhiy beqarorlikdan himoya qilish bilan cheklanib qolmay, balki unda ijobiy, ma’noli va barqaror tafakkurni ongli ravishda qaror toptirish jarayonini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Sanogen tarbiyaning pedagogik va psixologik mohiyati inson ongi, tafakkuri va hissiy holatlarini sog‘lomlashtirishga qaratilgan yaxlit tarbiyaviy ta’sir tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik nuqtayi nazardan sanogen tarbiya ta’lim-tarbiya jarayonini salbiy holatlarni cheklash yoki jazolashga asoslashdan ko‘ra, shaxsda ijobiy tafakkur, hayotiy ma’no va axloqiy barqarorlikni shakllantirishga yo‘naltiriladi. Bu yondashuvda tarbiya subyekti tashqi ta’sir obyekti emas, balki o‘z ichki imkoniyatlari, qadriyatlari va ongli tanlovi orqali rivojlanuvchi faol shaxs sifatida qaraladi. Psixologik nuqtai nazardan esa sanogen tarbiya insonning stressga chidamliligi, emosional muvozanati va ichki nazorat mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa tafakkurning barqaror va sog‘lom shakllanishiga zamin yaratadi.

Sanogen tarbiya inson ruhiyatida salbiy tafakkur holatlarini bevosita bartaraf etishga emas, balki ularning paydo bo‘lish sabablarini yumshatishga va ularning o‘rniga sog‘lom, ijobiy holatlarni shakllantirishga qaratiladi. Bunda hayotiy ma’noni anglash, ongli munosabat va shaxsiy mas’uliyat hissi markaziy ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu yondashuv psixologiyadagi salyutogenez g‘oyalari bilan uyg‘unlashib, inson salomatligi va barqarorligini kasallik manbalari orqali emas, balki sog‘lomlik manbalari orqali tushuntiradi.



2-rasm. Sanogen tarbiya va uning xususiyatlari

NATIJALAR. Mazkur g‘oyani ilmiy jihatdan asoslagan olimlardan biri Aaron Antonovskiy hisoblanadi. U inson ruhiy sog‘lomligi haqida shunday ta’kidlaydi: “Insonning sog‘lomligi uning hayotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni ma’no orqali anglab, ularga bardosh berish

qobiliyati bilan belgilanadi”[3.34]. Umuman olganda, sanogen tarbiyaning pedagogik va psixologik mohiyati insonni salbiy holatlardan himoya qilishdan ko‘ra, uning tafakkurida sog‘lom ma’no, ichki barqarorlik va ma’naviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu talabalar ma’naviy-axloqiy tafakkurini barqaror va ongli rivojlantirishda muhim nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Sanogen tarbiya pedagogik va psixologik jihatdan inson ongi, tafakkuri va hissiy holatlarini sog‘lomlashtirishga qaratilgan maqsadli, tizimli va uzluksiz tarbiyaviy jarayon sifatida talqin etiladi. Pedagogik nuqtai nazardan, sanogen tarbiya shaxsni salbiy xulq-atvorni cheklash orqali emas, balki ijobiy fikrlash va qadriyatlarga tayangan hayotiy pozisiyani qaror toptirish orqali tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Bu jarayonda ta’lim-tarbiya ta’siri tashqi nazorat va majburiyatga emas, balki ongli anglash, ichki qabul va refleksiyaga asoslanadi. Shu bois sanogen tarbiya an’anaviy profilaktik yoki tuzatuvchi yondashuvlardan farqli ravishda shaxsning ichki salohiyatini faollashtirishga yo‘naltirilgan.

XULOSA. Psixologik jihatdan sanogen tarbiya insonning ruhiy barqarorligi, hissiy muvozanati va stressga chidamliligini ta’minlash bilan bog‘liq. U tafakkurda salbiy emosional holatlar – qo‘rquv, aybdorlik, umidsizlik, ichki ziddiyatlarni yumshatib, ular o‘rniga xotirjamlik, ishonch va ijobiy munosabatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Psixologiyada sanogen yondashuv insonni muammodan qochishga emas, balki uni ma’naviy va kognitiv qayta ishlash orqali engishga o‘rgatadi. Shu jihatdan sanogen tarbiya inson ruhiyatida o‘z-o‘zini boshqarish, ichki nazorat va emosional regulyasiya mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan. R.Lazarus insonning ruhiy salomatligi salbiy vaziyatlarni bartaraf etishdan ko‘ra, ularga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi: “Psixologik farovonlik stress omillarini butunlay bartaraf etishga emas, balki inson ularni kognitiv jihatdan qanday baholashi va emosional jihatdan qanday qayta ishlashiga bog‘liq”[4.56].

Sanogen tafakkur inson ongi va fikrlash jarayonining sog‘lom, barqaror va konstruktiv holatini ifodalovchi muhim ma’naviy-psixologik kategoriya hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati salbiy vaziyatlarga berilish emas, balki ularni anglash, ma’naviy qayta ishlash va ijobiy xulosa chiqarish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Sanogen tafakkur insonni muammolarga qaram qilib qo‘ymaydi, aksincha, ularni shaxsiy o‘sish va ma’naviy kamolot manbai sifatida qabul qilishga o‘rgatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.10.2019 й.
2. Абдирахмонова З.А. Соғлом тафаккур ривожланишининг ижтимоий-психологик механизмлари // Замонавий таълим. 2018. №4, 48-55 б.
3. Франкл В. Человек в поисках смысла. – М.: Прогресс, 1990. – С. 103.
4. Antonovsky A. Unraveling the Mystery of Health: How People Manage Stress and Stay Well. – San Francisco: Jossey-Bass, 1987. – P. 19.
5. Lazarus R. *Stress and Emotion: A New Synthesis*. – New York: Springer, 2006. – P. 89.

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 316.42:101:001.

HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY AN'ANALARNING ROLI

Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li,
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

THE ROLE OF LEGAL TRADITIONS IN THE FORMATION OF LEGAL CULTURE

Urinboev Dilmurod Tura oglu,
Researcher at the Samarkand State Institute of Foreign Languages

РОЛЬ ПРАВОВЫХ ТРАДИЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Уринбоев Дилмурод Тура огли,
Научный сотрудник Самаркандского государственного института иностранных языков



e-mail: urinboyevdilmurod@gmail.com
https://orcid.org/0024-4002-67561-2212

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda jamiyat huquqiy madaniyatini shakllantirishda huquqiy an'analarning muhim o'rni ko'rib chiqilgan. Shuningdek, o'zbek jamiyatida huquqiy an'analarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy jihatlar va ularning fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy xulq-atvorini shakllantirishga ta'siri tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *huquqiy an'analar, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy xulq-atvor, madaniy merosni asrab-avaylash.*

Annotation: *This article examines the important role of legal traditions in the formation of the legal culture of society in Uzbekistan. The main aspects influencing the development of legal traditions in Uzbek society and their impact on the formation of legal consciousness and legal behavior of citizens were also analyzed.*

Key words: *legal traditions, legal culture, legal consciousness, legal behavior, preservation of cultural heritage.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается важная роль правовых традиций в формировании правовой культуры общества в Узбекистане. Также проанализированы основные аспекты, влияющие на развитие правовых традиций в узбекском обществе, и их воздействие на формирование правового сознания и правового поведения граждан.*

Ключевые слова: *правовые традиции, правовая культура, правовое сознание, правовое поведение, сохранение культурного наследия.*

Kirish. Yangi O'zbekistonda huquq va madaniyat masalalari dolzarb va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy an'analarning roli, ayniqsa madaniy meros va milliy o'ziga xoslikni saqlash sharoitida birinchi o'ringa chiqadi. An'analar va urf-odatlar jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydigan mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ushbu an'analarning huquqiy madaniyatni shakllantirishga ta'sirini o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi. Ushbu maqolada huquqiy an'analarning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, huquqiy madaniyat va a'nanalarning o'zaro ta'sirining asosiy jihatlari huquqiy an'analarni saqlash va hurmat qilish orqali huquqiy madaniyatni mustahkamlash yo'llari taklif etilgan.

Manbalar tahlili. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "keyingi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan va tadrijiy tarzda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarishi bilan birga, boshqaruv ma'murlari va mulozimlarining ish uslublari, faoliyat yo'nalishlari ham yangicha sifat va zamonaviy mazmun kasb eta boshladi" [1,82], deb alohida ta'kidlaydi. So'nggi yillarda

O‘zbekistonda jamiyat hayotining turli jabhalarida muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, bu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va siyosiy o‘zgarishlarga yangicha yondashuvlarni joriy etish bilan bog‘liq. Bu o‘zgarishlar nafaqat siyosiy tizim va boshqaruvga, balki barcha darajadagi davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari va faoliyati yondashuvlarga ham ta’sir qiladi.

Tahlil va natijalar. Dastlab, huquqiy an’analar o‘tmishning boy merosini olib, zamonaviy jamiyatning huquqiy tizimining asosini tashkil etishiga e’tibor qaratish lozim. O‘zbekiston sharoitida bu mamlakat tarixi va madaniyatining chuqur ildizlarini hisobga olgan holda ayniqsa muhimdir. Ushbu an’analarni o‘rganish aholining huquqiy tafakkuri va xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Ikkinchi jihat bu huquqiy an’analar va zamonaviy huquqiy normalar o‘rtasidagi munosabatlar. Tarixiy va zamonaviy tushunish huquqiy madaniyatni rivojlantirish va huquqiy tizimning samarali ishlashi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, huquqiy an’analarni o‘rganish va saqlash jamiyatda adolatni ta’minlashning asosiy elementiga aylanadi.

Zamonaviy o‘zbek jamiyatida huquqiy madaniyat sohasidagi idealdan ham sezilarli darajada o‘zgarish mavjud. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan salbiy o‘zgarishlar o‘zbek xalqining huquqiy madaniyati holatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda jinoyatchilik va korrupsiya--ning ko‘payishi, aholi va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi masofaning oshishi, shuningdek, qonunga nisbatan salbiy munosabatlarning kuchayishi bilan namoyon bo‘ladigan huquqiy madaniyat darajasining umumiy pasayishini qayd etish mumkin. O‘zbek jamiyatining huquqiy madaniyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun qadriyatlarga asoslangan huquqiy ko‘rsatmalarni faol shakllantirish zarur. Bu jarayonda huquqiy an’analarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Huquqiy an’analarning huquqiy madaniyatni shakllantirishga ta’sirini hisobga olgan holda, ushbu tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi savoldan qochish mumkin emas. Huquqiy an’analarning uzluksizligi, shuningdek uning milliy, etnik, diniy va boshqa omillar bilan bog‘liqligi zamonaviy yuridik fanda “huquqiy an’analar” atamasi ko‘pincha “huquqiy madaniyat” tushunchasi bilan almashtirilishiga olib keladi. Ba’zi mualliflar an’analarni madaniyat bilan umumlashtirishni taklif qilishadi. V.I.Maksimenkoning fikricha “Madaniyat va an’analar o‘rtasida ma’lum darajada teng belgi qo‘yilishi mumkin. Bu, aslida, bir xil narsani belgilashning turli usullari: tarixan paydo bo‘lgan va biologik meros qilib olinmagan jamoat hayotining tartibga soluvchi regulyatordir” [2,42]. Madaniyat va an’analar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud, ularni ma’lum darajada almashtiriladigan tushunchalar deb hisoblash mumkin. Ikkala atama ham avloddan-avlodga o‘tadigan va ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi tarixan o‘rnatilgan normalar, qadriyatlar va urf-odatlarni tavsiflaydi. Bu madaniyat va urf-odatlar ijtimoiy-madaniy merosning ajralmas qismi bo‘lib, jamiyatdagi odamlarning xulq-atvori va o‘zaro ta’siriga ta’sir qilishini ta’kidlaydi. K.S.Gadjievning fikricha, “siyosiy an’anani siyosiy madaniyatning ajralmas elementi sifatida belgilaydi va an’anani umuman, shu jumladan milliy tarixiy, diniy, milliy psixologik an’analarni siyosiy madaniyatning shakllanishiga ustun ta’sir ko‘rsatadigan asosiy tarkibiy qism sifatida belgilaydi” [3,94]. U alohida shakllanmaydi, balki turli urf-odatlar, jumladan, huquqiy, tarixiy, madaniy va diniy jihatlar ta’sirining natijasidir. An’analar jamiyatning huquqiy tizimining asosini tashkil etuvchi va qonunlar va huquqiy institutlarga nisbatan odamlarning xatti-harakatlariga ta’sir qiluvchi asosiy norma va qadriyatlarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, siyosiy madaniyat nafaqat ushbu an’analarni aks ettiradi, balki ularning ta’siri bilan ham shakllanadi, bu ularning huquq va qonunchilik sohasidagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Xuddi shunday fikrni A.S.Nikulin ham bildirgan, u huquqiy madaniyatni belgilashda bu qadriyatlar tizimi, shu jumladan madaniy, huquqiy g‘oyalar, e’tiqodlar, xulq-atvor ko‘nikmalari va stereotiplari, axloq, huquqiy an’analar va urf-odatlar jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilingan va ularning faoliyatini tartibga solish uchun foydalanilgan. Huquqiy madaniyat - bu jamiyatda shakllangan va uning a’zolarining huquq va qonuniylik sohasidagi xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatadigan murakkab qadriyatlar, g‘oyalar va e’tiqodlar to‘plami. Ushbu majmua nafaqat huquqiy normalar va standartlarni, balki qonunlarni idrok etish va qo‘llashga ta’sir qiluvchi urf-odatlar, an’analar, axloqiy me’yorlar va

xulq-atvor qobiliyatlari kabi madaniy jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Huquqiy madaniyat huquqiy munosabatlarning asosini tashkil etuvchi va jamiyatdagi xatti-harakatlarni tartibga soluvchi huquqiy ong va qonunlarga rioya qilish bilan bog‘liq ijtimoiy normalarni aks ettiradi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati uning ma’naviy qadriyatlarining muhim jihati bo‘lib, turli jihatlarni qamrab oladi, jumladan, huquqiy normalardan xabardorlik darajasi, qonunchilikning holati, adolatning samaradorligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligi va huquqni muhofaza qilishni hurmat qilish, shuningdek, qonun ustuvorligi va huquqni muhofaza qilish, barqaror huquqiy an’analarning mavjudligi, aholining huquqiy savodxonligi va huquqni muhofaza qilish organlarining samarali ishlashi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatning rivojlanish darajasi uning ma’naviy holatiga bog‘liq va shunga mos ravishda huquqiy an’analarning ta’siri bilan belgilanadi. D.S.Gorelik fikriga ko‘ra “huquqiy madaniyatning muhim elementlari qatoriga ma’lum darajadagi huquqiy ong, rivojlangan huquqiy tizim, samarali mustaqil adolat, fuqarolik huquqlari va erkinliklarining ishonchli kafolatlari, boshqa huquqiy an’analar, fuqarolarning huquqiy savodxonligi va davlatning huquqiy hayotini belgilaydigan boshqa ko‘plab omillar kiradi” [4,4].

O‘zbekiston huquqiy madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari uning huquqiy an’analarining mohiyati bilan belgilanadi va zamonaviy o‘zgarishlarni amalga oshirishda ushbu xususiyatlarni hisobga olish kerak. O‘zbek jamiyati va davlatchiligining zamonaviy huquqiy taraqqiyoti ham har doim ham yuqori darajadagi mafkuraviy mazmun bilan tavsiflanmaydi.

L.E.Tursunovning xulosa qilishicha, “siyosiy va huquqiy madaniyatni rivojlantirish yangi bosqichga va yangi turga o‘tadigan, zamonning barcha talablariga javob beradigan, buzg‘unchi mafkuraviy hujumlarga qarshi kurashadigan tarbiya va ta’limni o‘zida mujassam etgan tizimni yaratish kerak” [5].

Zamonaviy jahon taraqqiyoti va globallashuv sharoitida O‘zbekistonda huquqiy an’analarni asrab-avaylash va rivojlantirish ham qiyin, ham imkoniyatdir. Bir tomondan, globallashuv G‘arb madaniyati va huquqiy standartlari ta’siri ostida ba’zi an’analarning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Boshqa tomondan, u an’anaviy qadriyatlarni zamonaviy muammolar va ehtiyojlarga moslashtirish va o‘zgartirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Istiqbollardan biri tarixan o‘rnatilgan me’yorlar va urf-odatlarni saqlash bo‘lishi mumkin, shu bilan birga ularni talqin qilish va qo‘llash zamonaviy jamiyatning yangi voqeliklari va ehtiyojlariga moslashishi mumkin. Shuningdek, xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash va jahon hamjamiyatining faol ishtirokchisiga aylanish uchun xalqaro standartlar va huquq normalarini hisobga olish muhimdir. O‘zbekistonda huquqiy an’analarni muvaffaqiyatli saqlab qolish va rivojlantirish uchun jamiyatni faol jalb yetish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan ma’rifiy va ma’naviy tadbirlarni o‘tkazish zarur. O‘zbekistonning o‘z tarixi va madaniyatidan kelib chiqqan huquqiy an’analari huquqiy tizim uchun muhim poydevor bo‘lib, uning barqarorligi va xalq mentalitetiga mosligini ta’minlaydi.

Xulosa. O‘zbekistonda zamonaviy qonun ijodkorligi va huquqni muhofaza qilishda huquqiy an’analardan samarali foydalanish aholining huquqiy tizimga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, shuningdek, yanada adolatli va barqaror jamiyat yaratishga xizmat qilmoqda. Shunday qilib, O‘zbekistonning huquqiy an’analarini hisobga olish va hurmat qilish zamonaviy sharoitda uning huquqiy madaniyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zarur shartdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Максименко В. И. Востоковедная политология в поисках своего предмета // Политические отношения на Востоке: общее и особенное. - М., 1990.
2. Политическая культура: теория и национальные модели / К. С. Гаджиев, Д. В. Гудименко, Г. В. Каменская. -М., 1994.
3. Никулин А. С. Правовая культура как фактор формирования современных культурных ценностей : автореф. дис. … канд. филос. наук. - М., 2009.
4. Айдарбекова Г. Б. Правовая культура в Киргизии: истоки и современное состояние // Журнал Российского права. - 2012. -№ 4.
5. Турсунов Л.Е., Кодирова Г. Философские проблемы развития политической и правовой культуры молодежи. European science review, 2014.

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 1:18:7.01

SAMARQAND OLIY HARBIY AVTOMOBIL QO‘MONDONLIK-MUHANDISLIK BILIM YURTINING O‘ZBEKISTON HARBIY TA’LIM RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

Yakubov G‘ulomjon Saloxiddinovich,
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi



e-mail: gulomjonyakubov@gmail.com
https://orcid.org/0024-4022-675x-2614

THE ROLE OF THE SAMARKAND HIGHER MILITARY AUTOMOBILE COMMAND AND ENGINEERING SCHOOL IN THE DEVELOPMENT OF MILITARY EDUCATION IN UZBEKISTAN

Yakubov Gulomjon Saloxiddinovich,
Teacher of the Samarkand State Pedagogical Institute

РОЛЬ САМАРКАНДСКОГО ВЫСШЕГО ВОЕННО-АВТОМОБИЛЬНОГО КОМАНДНО-ИНЖЕНЕРНОГО УЧИЛИЩА В РАЗВИТИИ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Якубов Гуломжон Салоксиддинович
Преподаватель Самаркандского государственного педагогического института

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada Samarqand Oliy harbiy avtomobil qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtining O‘zbekiston harbiy ta’limi tizimi rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Bilim yurtining tarixiy shakllanishi, asosiy vazifalari, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik va texnik-uslubiy yondashuvlar hamda harbiy-muhandis kadrlar tayyorlashdagi strategik roli yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy ta’lim, harbiy avtomobil qo‘mondonlik-muhandislik, tank harbiy kadrlar, bilim yurti.*

Abstract: *This scientific article analyzes the role and significance of the Samarkand Higher Military Automobile Command and Engineering School in the development of the military education system of Uzbekistan. The historical formation of the school, its main tasks, modern pedagogical and technical-methodological approaches used in the educational process, and its strategic role in the training of military-engineering personnel are covered.*

Key words: *military education, military automobile command and engineering, tank military personnel, school.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируется роль и значение Самаркандского высшего военно-автомобильного командно-инженерного училища в развитии системы военного образования Узбекистана. Рассматриваются историческое становление училища, его основные задачи, современные педагогические и технико-методические подходы, используемые в учебном процессе, а также его стратегическая роль в подготовке военно-инженерных кадров.*

Ключевые слова: *военное образование, военно-автомобильное командно-инженерное училище, танкисты, училище.*

Kirish. O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining mustahkam, zamonaviy va professional kadrlar bilan ta’minlanishi davlat mudofaa salohiyatining eng muhim omillaridan biridir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab harbiy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, milliy kadrlar

tayyorlashning yangi modelini yaratish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda Samarqand Oliy harbiy avtomobil qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti o‘zining betakror o‘rni va ulkan hissasi bilan ajralib turadi. O‘zbekistonda harbiy kadrlar tayyorlash bir necha yo‘nalish va turkumlarda olib borilgan va o‘zining tarixiy ildizlariga ega. Jumladan, Respublikadagi dastlabki tashkil etilgan harbiy bilim yurtlardan biri Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar oliy harbiy bilim yurti hisoblanadi. Tarixdan ma’lumki, ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonga bir qancha davlat muassasalari ko‘chirib keltirilgan edi. Xususan, 1941-yil noyabr oyida 1941-yil 12-avgustda tashkil etilgan 2-Xarkov zirhli maktabi Ukraina SSR Xarkov shahridan Samarqandga ko‘chirilgan. 1946-yilga kelib mazkur maktab Samarqand tank texnikumiga aylantirildi [1].

Adabiyotlar tahlili. Harbiy ta’limning umumiy pedagogika va jamiyat rivojiga ta’sirini o‘rgangan ko‘plab xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar mavjud. Morris Janovits harbiy sotsiologiya sohasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning tadqiqotlari harbiy ta’limning fuqarolik jamiyatiga ta’sirini tushunishda poydevor bo‘lgan. Uning fikricha harbiy maktablarni nafaqat jangchilarni tayyorlash maskani, balki "fuqarolik fazilatlarini" (civic virtues) shakllantiruvchi institut sifatida ko‘rgan. Charlz Moskos "Institutsionaldan pragmatikaga" modelini ishlab chiqqan mashhur sotsiologdir. Uning harbiy ta’lim tizimining yoshlar uchun "ijtimoiy lift" (social mobility) vazifasini o‘tashini isbotlagan. Ya’ni, harbiy maktablar kam ta’minlangan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam farzandlariga yuqori sifatli ta’lim va martaba berish orqali umumiy ta’lim darajasini ko‘taradi. Robert Kaspar (Robert Caspar) va JROTC tadqiqotchilari AQShdagi JROTC (Junior Reserve Officers' Training Corps) dasturini o‘rgangan tadqiqotchilar harbiy tayyorgarlikning maktab o‘quvchilariga ta’sirini tahlil qilishgan.

A.V. Barabanshikov Harbiy pedagogika nazariyasini ishlab chiqqan olim. U harbiy jamoalardagi o‘zaro hamkorlikning ta’lim samaradorligiga ta’sirini tadqiq qilgan. I.A. Alyoxin Zamonaviy harbiy ta’lim tizimini insonparvarlashtirish va uni umumta’lim standartlari bilan integratsiya qilish masalalarini o‘rgangan. O‘zbekistonda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va harbiy akademik litseylar (masalan, "Temurbeklar maktabi") faoliyati bo‘yicha bir qator pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ushbu olimlarning izlanishlari quyidagi muhim xulosalarni beradi:

1. Kognitiv rivojlanish: Harbiy maktablardagi tartib-qoida miyaning rejalashtirish va qaror qabul qilish markazlarini yaxshi rivojlantiradi.

2. Ijtimoiy moslashuv: Harbiy ta'lim olgan yoshlar krizisli vaziyatlarda (iqtisodiy yoki ijtimoiy qiyinchiliklar) boshqalarga qaraganda tezroq moslashadilar.

3. Metodika: Harbiy ta'limdagi "namuna ko'rsatish" (demonstration method) va "takrorlash orqali mukammallikka erishish" tamoyillari umumiy ta'limda murakkab texnik fanlarni o'qitishda juda samarali hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Samarqand Oliy harbiy avtomobil qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimida Qurolli Kuchlar uchun avtomobil va tank qo‘shinlari, shuningdek, ta’minot xizmati bo‘yicha yuqori malakali komandir-muhandislar tayyorlashda fundamental rol o‘ynaydi, harbiy qismlar uchun texnik mutaxassislar yetkazib berib, armiyaning jangovar tayyorgarligi va moddiy-texnik ta’minotini uzluksiz ta’minlaydi. Uning asosiy vazifasi zamonaviy harbiy texnikalarni boshqarish, ekspluatatsiya qilish, ta’mirlash va logistika bo‘yicha ofitserlarni tayyorlashdan iborat.

1969-yil 23-sentabrga kelib sovet davlati Vazirlar Sovetining farmoni bilan O‘zbekiston SSR Samarqand shahrida Samarqand oliy tank qo‘mondonlik bilim yurti tashkil etildi. Harbiy ta’lim muassasasida oliy harbiy maxsus ma’lumotga ega avtomobil bo‘linmalari komandirlari, avtomobil texnikalarining ekspluatatsiyasi va ta’mirlanishi bo‘yicha komandir o‘rinbosarlari, saper muhandislik bo‘linmalari komandirlari, ta’minot ishlari bo‘yicha ofitser mutaxassislar, shaxsiy tarkib bilan ishlash va madaniy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha ofitserlar tayyorlanadi [2].

1973-yilning 23-mayida sovet davlati Mudofaa vazirligining 190-son buyrug‘i bilan Samarqand oliy tank qo‘mondonlik bilim yurti Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar oliy harbiy bilim yurtiga aylantirildi. Maktabning maqsadi avtomobil vzvodlari komandirlarini tayyorlash edi. Mustaqillikning dastlabki davrida

mamlakatda mudofaa tizimini mustahkamlash maqsadida barcha chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yil 18-maydagi PF 402-son “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo desanti qo‘shinlari, harbiy transport aviatsiyasi, razvedka qo‘shinlari ta’minot qismlari haqida”gi Farmoni bilan harbiy ta’lim muassasalari ham respublika tasarrufiga o‘tkazilgan edi [3].

Natijada 1992-yilda Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar oliy harbiy bilim yurti ham respublika hokimiyat organlarining qurolli kuchlar uchun ofitser kadrlarni mustaqil ravishda to‘liq tayyorlashga qaratilgan siyosati munosabati bilan sovet davlatida mavjud bo‘lgan tizim asosida mavjud harbiy ta’lim muassasalari negizida ko‘p tarmoqli kadrlar tayyorlash sxemasi amalga oshirildi. 1992-yilning 12-sentyabrda birinchi kurs kursantlari o‘z mustaqil Vatani va Prezidentiga sadoqat bilan xizmat qilishga tantanali ravishda harbiy qasamyod qabul qildilar [4,242].

1993-yilga kelib muassasaning nomi Samarqand Oliy harbiy avtomobil qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti deb o‘zgartirilgan edi. Avtomobil bilim yurti negizida “avtomobil vzvod komandiri”dan tashqari harbiy mutaxassisliklarni tayyorlash bo‘yicha fakultetlar tashkil etilgan edi.

Samarqand Oliy harbiy avtomobil qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti avtomobil bo‘linmalari taktik qo‘mondonlik-muhandisligi;

artilleriya taktik qo‘mondonligi;

muhandislik qo‘shinlari taktik qo‘mondonligi; kimyoviy qo‘shinlar taktik qo‘mondonligi;

raketa-artilleriya qurollari va o‘q-dorilari taktik muhandisligi;

frontorti ta’minoti taktik qo‘mondonligi kabi yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda Samarqand Oliy harbiy avtomobil qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Bu ta’lim muassasasi nafaqat avtomobil qo‘shinlari uchun malakali ofitserlar va muhandislarni tayyorlaydi, balki harbiy texnika sohasida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bilim yurtida olib borilayotgan o‘quv jarayonlari zamonaviy standartlarga moslashtirilgan va yosh kadrlarni harbiy-intizomiy, texnik va tashkiliy jihatdan puxta tayyorlashga qaratilgan edi. Shu bois, bilim yurtning faoliyati O‘zbekiston armiyasining texnik salohiyatini mustahkamlash, mudofaa tizimini rivojlantirish va professional harbiy kadrlar avlodini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тайны узбекской армии.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Игамбердиев И.Р., Хайдаров А.Ҳ. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг тарихи, бугуни ва келажаги // Республика илмий-амалий анжуман материаллари. 2005 йил 3 март. – Б. 17.
4. Яхёева А.Х. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг шаклланиши ва ҳарбий таълимнинг ривожланиш тарихи (1991-2005 йиллар Мудофаа вазирлиги мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022.
5. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимги даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси; масъул муҳаррир: Д.Х.Зияева. – Т: Шарқ, 2012. – Б. 210. (243-б)

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 801.85:97.22

THE STRATIFICATION OF FIGURATIVE LANGUAGE IN ENGLISH

Mukumov Makhmud Khudayberdievich,
acting associate professor of Termez university of economics and service, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

СТРАТИФИКАЦИЯ ОБРАЗНОГО ЯЗЫКА В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Мукумов Махмуд Худайбердиевич, и.о.доцента Термезского университета экономики и сервиса, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

INGLIZ TILIDAGI OBRAZLI IFODA BIRLIKLARI STRATIFIKASIYASI

Mukumov Maxmud Xudayberdiyevich,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



e-mail: caen05@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0006-9476-845X

Annotation*: This article explores the stratified nature of figurative language in English, showing how metaphor operates across conceptual, lexical, grammatical, and discourse levels. Using corpus analysis, it demonstrates that figurative language functions as a core mechanism of meaning construction rather than stylistic decoration. The study highlights implications for academic discourse, language teaching, and translation practice.*

Key words: *figurative language, metaphor, stratification, cognitive linguistics, discourse analysis, meaning construction.*

Аннотация*: В статье рассматривается стратифицированная природа образного языка в английском языке и анализируется функционирование метафоры на концептуальном, лексическом, грамматическом и дискурсивном уровнях. На основе качественного корпусного анализа показано, что образные средства являются базовым механизмом смыслообразования, а не стилистическим украшением. Результаты исследования имеют значение для преподавания языка, академической грамотности и переводоведения.*

Ключевые слова: *образный язык, метафора, стратификация, когнитивная лингвистика, дискурс-анализ, смыслообразование.*

Annotatsiya: *Maqolada ingliz tilidagi obrazli ifoda birliklari stratifikasiyasi tahlil qilinib, metaforaning kontseptual, leksik, grammatik va diskursiv darajalardagi vazifalari ko‘rsatib berilgan. Korpus tahlili asosida obrazli birliklar stilistik bezak sifatida emas, balki ma’no shakllanishining asosiy mexanizmi ekanligi o‘z isbotini topgan. Tadqiqot natijalari til o‘qitish, ilmiy savodxonlik va tarjima amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *obrazli til, metafora, stratifikatsiya, kognitiv lingvistika, diskurs tahlili, ma’no yaratish.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). For a long time, figurative language has had a complicated history within linguistic theory. According to classical rhetoric, one must refer to an ornament that has a good capacity for persuasion. In this tradition literal language was presumed to represent a neutral and transparent means of communication and figurative language was treated as deviation from the norm. Many early models of language maintained a distinction between literal and non-literal language, leading to the belief that non-literal language is outside the grammar. The structure of abstract concepts systematically relies on mappings from embodied experience including

spatial orientation, physical movement and object manipulation [3]. On account of this, figurative language is not limited to poetry or literature but also pervades everyday speech, scientific explanation, political talk, the language of institutions, and so on.

Scholars increasingly recognize that figurative language has a cognitive basis, but a lot of research treats metaphor as a single phenomenon. However, figurative meaning arises at several different linguistic levels, from individual words to whole texts. The distributional layering suggests that figurative languages of English are not uniform but stratified. Some figurative expressions are highly conventionalized and part of the core vocabulary and grammar and others are contextually creative and stylistically salient [8]. The variations arise from cognitive entrenchment, communicative function, and degree of linguistic conventionalization. It is possible to arrive at better account of the construction and interpretation of meaning, if figurative language were to be understood as a stratified system.

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). This study adopts a qualitative corpus-based discourse analytic approach which is designed to capture figurative language as it operates in naturally occurring data. Instead of using artificial examples, this study draws on natural language use across a range of registers in order to observe how figurative meaning works in communication. The body of literary work comprise of academic research papers, opinion pieces from the journalistic front and fiction. We have taken these genres on formal, semi formal and literary registers to do compare figurative stratification across communicative purposes. Academic texts mainly portray explanatory and argumentative function, journalistic texts mainly emphasize evaluation and persuasion, and narrative texts offer interesting contexts for more distant metaphorical framing.

The three genres are evenly represented with a corpus of 120,000 words. Scholarly articles from linguistics, social sciences and education published between 2018 and 2024, in addition to journalistic and contemporary narrative texts were sampled. Journalistic texts were sampled from major English-language newspapers and magazines, and narrative texts from contemporary novels and short stories. All texts were written in English to avoid interference effects of translation [9].

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA). Instances of metaphor are classified according to the language hierarchy they more dominantly belong. Recurrent semantic patterns of an expression are conceptual-level metaphors. Based on the metaphorical sense of words and the idioms, lexical-level metaphors were classified. Metaphorical relations were encoded in constructional patterns with metaphors at grammatical level [7]. Discourse-level metaphors were identified through extended metaphorical frames across clauses or paragraphs. Through this multi-level classification, a systematic examination could be conducted of how figurative meaning is distributed and integrated with linguistic structure.

RESULTS. The findings indicate that figurative language is common to all studied genres and systematically appears across the four levels. Conceptual metaphors are basic cognitive models that connect a large set of expression across text. Recurring across academic and journalistic discourse, the metaphorical frames KNOWLEDGE IS A STRUCTURE, SOCIAL CHANGE IS MOVEMENT and ARGUMENT IS CONSTRUCTION were explored. These mappings allow us to reason about abstract domains through bodily experience. Metaphorical polysemy was common at the lexical level. Abstract language often employed words like growth, collapse, support, path and pressure. Some words still retain traces of their physical meaning or are officially social and technical.

Often those who uttered or wrote such expression seemed unaware of their figurative origins, which probably implies a high degree of conventionalization and lexical entrenchment. Grammatical constructions have also a significant contribution to the figurative meaning. Causative constructions interpreted social and economic influence as a physical force, whereas motion constructions interpreted institutional change as movement through space. Agents were often referred to in the passive voice to depict abstract processes as external forces affecting people. These patterns influence how we see agency and responsibility in discourse.

Discourse-level metaphors were very frequent in journalistic and narrative texts. Economic crises were likened to an illness, war or natural disaster and educational reform comes as a pilgrimage or rebuilding [5]. Frames metaphorically changed emotional evaluation and suggested implicit solutions. Metaphors commonly would organize an entire argument or narrative, and were increasingly viewed less as "ornamental" features. Figurative language in explanation, evaluation, persuasion, and narrative consistency across levels. The study revealed that figurative expressions seldom work as isolated units and that conceptual, lexical, grammatical or discourse-level metaphors work together in forming coherent webs of interpretation.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). The evidence robustly supports the theoretical position that figurative language is essential to conceptualization and not subsequent to literal meaning The findings across registers of conceptual metaphors strongly support that English-speaking reasoning about abstract conceptual categories is systematically grounded in experience. This reflection is in harmony with cognitive linguistic approaches which consider metaphor to be a fundamental mechanism of the human being's cognition rather than merely a rhetorical ornament. At the grammatical levels, observing patterns of metaphor is causing trouble for the traditional separation of meaning from structure [4]. The construction-based models of grammar suggest that constructions encode more than mere form. They also encode meaning. The current findings show that this meaning often includes metaphorical mappings. Grammatical metaphor constitutes a structural device for the representation of events, assignment of agency and causation. Discourse-level metaphors emphasize the ideological aspect of figurative language. Discourse shapes society's view of a social issue and policy perception framed through it. This aligns with critical discourse approaches that view metaphor as an instrument of social cognition and ideological positionings.

Teaching figurative language merely as idiomatic vocabulary misses out on its meaning and grammar. Students may have difficulties with more abstract academic text if they are not aware of the higher discourse levels of metaphorical framing. Translation practices that limit themselves to the linguistic level by looking purely at lexical equivalence may distort conceptual models [2].

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). Awareness of the stratified nature of figurative language has important consequences for linguistic theory, which converge from cognitive, grammatical and discursive models. It can also assist the practice of teaching by encouraging deliberate instruction in metaphor awareness to improve learners' understanding of abstract content and academic texts. Future research may widen the framework of this through a large-scale corpus-based endeavor, psycholinguistic studies on the processing and cross-linguistic comparison of metaphor to check how patterns of figurative stratification vary across languages, registers and cultures to refine our insight in figurative language as human praxis.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI)

1. Cameron L., Maslen R. Metaphor Analysis: Research Practice in Applied Linguistics, Social Sciences and the Humanities. – London: Equinox Publishing, 2010. – 320 p.
2. Charteris-Black J. Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2004. – 256 p.
3. Gibbs R. W. The Cambridge Handbook of Metaphor and Thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 640 p.
4. Hyland K. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 2004. – 240 p.
5. Khudayberdievich, M. M. (2023). A BRIEF INSIGHT INTO INTERTEXTUALITY. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 414-420.
6. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 396 p.
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
8. Mukumov Makhmud Khudayberdievich. (2024). Intertextuality and its features. International conference on advance science and technology, 1(1), 66–69.
9. Semino E. Metaphor in Discourse. — Cambridge: Cambridge University Press, 2008. — 242 p.

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 093.473

FUQAROLIK JAMIYATI QURILISHI JARAYONIDAGI MILLIY IDENTIKLIKNING XORIJIY TAJRIBASI VA AMALIY TAMOYILLARI

***Maxmudov Lazizjon Yusupovich**, TIFT universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix" kafedrasi katta o'qituvchisi, O'zMU "Pedagogik ta'lim" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi*



FOREIGN EXPERIENCE AND PRACTICAL PRINCIPLES OF NATIONAL IDENTITY IN THE PROCESS OF BUILDING A CIVIL SOCIETY

***Makhmudov Lazizjon Yusupovich**, Senior Lecturer, Department of "Social and Humanitarian Sciences and History", TIFT University, Independent Researcher, Department of "Pedagogical Education", NUUz*

https://orcid.org/ 0009-0007-5162-0569

e-mail: Laziz.maxmudov@mail.ru

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ПОСТРОЕНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

***Махмудов Лазизжон Юсупович**, старший преподаватель кафедры "Социально-гуманитарные науки и история" Университета ТИФТ, независимый исследователь кафедры "Педагогическое образование" НУУз*

Annotatsiya: *Identiklikning fuqarolik jamiyati bilan bog'liq holdagi qonuniyatlari chet el tajribasida ham keng tadqiq etilgan bolib, bu borada tadqiqot olib borgan xorijlik olimlar ishlari va tahlillari mazkur maqolada keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *identiklik, identifikatsiya, siyosat, madaniylashuv, fuqaro, fuqarolik jamiyati, milliy o'zlikni anglash.*

Abstract: *In the article, the laws of identity related to civil society are also widely studied in foreign experience, and the works and analyses of foreign scientists who conducted research in this area are widely covered.*

Key words: *identity, identification, politics, cultural development, citizen, civil society, national identity, and others.*

Аннотация: *В статье также широко изучены законы идентичности, связанные с гражданским обществом, в зарубежном опыте, а также широко освещены работы и анализы зарубежных ученых, проводивших исследования в этой области.*

Ключевые слова: *идентичность, идентификация, политика, культурное развитие, гражданин, гражданское общество, национальная идентичность и другие.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Milliy identiklik o'zaro dialektik munosabatda bo'lgan ikki fundamental ijtimoiy hodisa bo'lib, ularning o'zaro uyg'unligi millat hayotining barqaror tarzda taraqqiy etishi hamda demokratik tizimning mustahkamlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy falsafa ushbu holatni struktura, madaniyat va subyektning o'z-o'zini anglash mexanizmlarining murakkab uyg'unlashuvi sifatida baholanadi. Milliy identiklik fuqarolik jamiyatida nafaqat madaniy o'zlikning tashuvchisi bo'lib, balki fuqarolik hamkorligi ijtimoiy birdamlik hamda ijtimoiy legitimlikning asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jihatdan, milliy identiklik na-

moyon bo‘lishning qonunlari hamda tamoyil-larini aniqlash fuqarolik jamiyati tadrijini falsafiy anglashning markaziy masalalaridan biriga aylangan. Mazkur holatni anglash va tushunishda nemis faylasufi va sosiologi J.Nabermasning “kommunikativ harakat” konsepsiyasi muhim ilmiy-nazariy poydevor vazifasini o‘taydi. Nabermas qayd etib o‘tganidek, “fuqarolik jamiyatining kuchi uning a’zolari umumiy axloqiy makonda erkin muloqot qila olishi va shu muloqot jarayonida qayta ishlab chiqish qobiliyatiga bog‘liq” [1]. Hozirgi kunda mamlakatimizda kommunikativ ochiqlikni kuchaytirishga qaratilgan siyosiy islohotlar orqali fuqarolik jamiyatida milliy identiklikning dialogik asoslari taraqqiy etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS). Identiklikning fuqarolik jamiyati bilan bog‘liq holdagi qonuniyatlari chet el tajribasida ham keng tadqiq etilgan. Misol tariqasida, A.Etzionining kommunitarizm nazariyasi nazariyasi milliy identiklikning ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi axloqiy resurs sifatidagi rolini qayd etib o‘tadi. Olim yozadiki, “Jamiyat faqat huquqiy tartib-intizom orqali emas, balki umumiy qadriyatlarga asoslangan identiklik orqali barqarorlikka erishadi” [2]. Mamlakatimiz tajribasida “inson qadri”, “halollik”, “iymon-e’tiqod”, “ma’naviy yangilanish” kabi qadriyatlarning fuqarolik jamiyati qurilishidagi o‘rni ayni shu kabi kommunitar ahamiyatga egadir. Lekin, Etzionining modeli milliy identiklikni haddan ortiq kollektivizmga bog‘lab qo‘yishi sababli tanqid ostiga olinadi.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishida milliy identiklikning qanday namoyon bo‘lishini G.Almond va S.Verbaning siyosiy madaniyat konsepsiyasi ham izohlaydi. Ularning fikricha, “fuqarolik madaniyatining barqarorligi millatning o‘zini qanday anglashiga bevosita bog‘liq” [3]. Mamlakatimizda milliy g‘oya va ma’naviy siyosat fuqarolarning siyosiy ishtiroki aholining o‘zligini faollashtiruvchi mexanizmga aylanib bormoqda. Ammo, siyosiy madaniyatning yuqoridan shakllantirilishi milliy identiklikni sun’iy konstruktsiya sifatida qabul qilinish xavfini yeltirib chiqaradi.

Dunyo tajribalari shundan dalolat beradiki, milliy identiklikning fuqarolik jamiyati bilan uyg‘unlashuvi demokratik institutlarning chuqurlashuvi uchun muhim ahamiyatga egadir. Misol uchun R.Puntamning “Ijtimoiy kapital” konsepsiyasi bo‘yicha “fuqarolik jamiyati davlat samaradorligini oshiradigan ishonch hamda ijtimoiy aloqalarning asosiy manbai sifatida milliy identiklik bilan uzviy bog‘liq” [4]. Yangilanayotgan O‘zbeksitonning “Xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun” tamoyiliga tayanadigan yangicha islohotlari milliy identiklini ijtimoiy kapitalining asosiy shakli tarzida yangi ko‘rinishda baholanmoqda. Mazkur tanqidiy yondashuv esa shundan dalolat bermoqdaki ijtimoiy kapitalning ortishi uchun faqat madaniy birlik yetarli emas, balki, qonun ustuvorligi hamda moliyaviy tenglik, institutlarning shaffofligi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISKUSSION). Etnik identiklikning Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitidagi yanada murakkab jihati shundaki, u ijtimoiy transformatsiyalarning yuqori tezlikdagi davrida, turi xil ijtimoiy qatlamlar orasida identik tasavvurlarning o‘zaro moslashuvchanligi yoki qarama-qarshiligi orqali shakllanmoqda.

A.Giddensning “O‘zlikni reflektsiv ravishda kashf etish” g‘oyasi to‘g‘risidagi ushbu holatga yondashishda metodologik imkoniyatni beradi. Giddensning fikriga ko‘ra, “modern sharoitda shaxs o‘zligini doimiy ravishda qayta muvofiqlashtiradi, chunki, ijtimoiy tizimlar noaniq va o‘zgaruvchandir” [5]. Jamiyatimizning ijtimoiy hayotidagi tub yangilanshi hamda o‘zgarishlar shaxsning identik tanlovlarini ko‘paytirmoqda va milliy identiklikning refleksiv tus olishini yanada kuchaytirishdan iboratdir. Mazkur holatning ijobiy tomoni shundaki, jamiyatning o‘z taraqqiyot strategiyasini ongli ravishda tanlash qobiliyatini mustahkamlash, salbiy jihati esa, identik modelining tez-tez o‘zgarishi natijasida ma’naviy barqarorlikning zaiflashish xavfidan dalolat beradi.

Zamonaviy falsafaning milliy identiklikka oid yonlashuvlari esa jarayonning fragmentlar, ko‘p ma’noli hamda kontekstga bog‘langan tabiatini ta’kidlaydi. S.Nall milliy identiklikni “barqaror mohiyat emas, balki doimiy ravishda qayta hikoya qilinadigan holat” sifatida talqin etib, “identiklik o‘zini tarixiy rivoyatlar orqali legitimlashtiradi, ammo, bu rivoyatlar hech qachon yakuniy emas”, deydi [6].

NATIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ / RESULTS). O‘zbekistonning madaniy siyosatida ushbu jarayon yaqqol ko‘rinmoqda. Tarixiy merosimizni qayta tiklash milliy g‘ururni kuchaytirsa, yangi rivoyatlarning yaratilishi - modern sub’yektning o‘zligini anglashga imkon yaratadi. Shu bilan bir qatorda, milliy identiklikning faqat tarixiy-madaniy o‘lchamiga e’tiborni qaratishning o‘zi yetarli emas. Identiklik zamonaviy davlatning siyosiy-falsafiy asoslarini, konstitutsiyaviy qadriyatlar hamda fuqarolik jamiyati bilan ham bog‘liq holdagi jarayondir. Bu jabhada Y.Lotmanning semiosfera konsepsiyasi dolzarb ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Lotman madaniyati “belgilar makoni” sifatida talqin etilib, “identiklik mazmuni – jamiyat yaratgan ma’nolar tizimi orqali shakllanadi”, deb yozadi [6].

Ammo, tahliliy yondashuv shundan dalolat beradiki, Yangilanayotgan O‘zbekistonning milliy identiklik siyosati bir vaqtning o‘zida ikkita qarama-qarshi yo‘nalishda rivojlanmoqda. Bir tomondan, milliy qadriyatlarga sodiqliqni kuchaytirish, ikkinchi tomondan global jamiyatga integratsiya qilish asosida ochiqlikni kengaytirishdan iboratdir. Mazkur dialektika hal qiluvchi falsafiy masalani yuzaga keltiradi, milliy identiklikning konservatorligi bilan modernizatsiya talab etayogan adaptatsiya qanday uyg‘unlashadi? Mana shu savol aslida, bugungi o‘zbek jamiyatining asosiy identik xulosalaridan biri ekanligini anglatadi.

Etnik identiklik fenomeni ijtimoiy falsafada nafaqat tarxixiy holatlarning mahsuli, balki jamiyatning o‘z-o‘zini anglashi, qayta tiklashi hamda kelajakka yo‘naltirilgan strategik o‘zgarishlarni amalga oshiruvchi kuch sifatida ham baholanadi. Mazkur yondashuvning ilmiy-nazariy asoslaridan biri bu B.Valdenfelsning “g‘ayri o‘zlikning chaqirig‘i” haqidagi konsepsiyasidir. Olimning qayd etishicha, “identiklik har doim o‘zlik va boshqalik o‘rtasidagi tanglikda shakllanadi, chunki o‘zlikning chegaralari aynan boshqa bilan uchrashuv jarayonida belgilana boshlaydi” [7].

Xulosa. Kasbiy yo‘nalganlik orqali harbiy xizmatchilarni tayyorlash va tarbiyalash tizimi ilmiy asoslangan, kompleks yondashuvni talab qiladi. U nazariy bilimlarni, amaliy ko‘nikmalarni va ma’naviy tayyorgarlikni uyg‘unlashtirib, zamonaviy harbiy xizmatchini yaratadi. Bu jarayonda oliy harbiy ta’lim muassasalarining o‘rni, psixologik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati, milliy tarixiy tajriba va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim omillar hisoblanadi.

Shunday ekan, kasbiy yo‘nalganlikni chuqur ilmiy tahlil qilish va samarali tizimni tashkil etish davlat harbiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. Kasbiy yo‘nalganlik harbiy xizmatchilarning malakalari va faoliyat samaradorligini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalar, psixologik barqarorlik va ma’naviy tayyorgarlikka ham bog‘liq. Maqolada keltirilgan tahlil va tavsiyalar harbiy ta’lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish va zamonaviy harbiy pedagogika usullarini qo‘llashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Takliflar

1. Harbiy ta’lim jarayonida kasbiy yo‘nalganlikni rivojlantirishni ta’lim va tarbiyaning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilash zarur.
2. Kasbiy yo‘nalganlikni shakllantirishda harbiy xizmatning mazmuni, maqsadi va jamiyatdagi o‘rnini o‘quvchilarga tizimli ravishda tushuntirish maqsadga muvofiq.
3. Ta’lim jarayonida nazariy tayyorgarlikni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish kasbiy yo‘nalganlikni kuchaytiradi.
4. Harbiy ta’lim muassasalarida kasbiy yo‘naltirishga qaratilgan maxsus dastur va mashg‘ulotlarni joriy etish lozim.
5. O‘quvchi-kursantlarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo‘llash samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev X. Markaziy Osiyoda harbiy ta’lim tarixi - Samarqand, 2019.
2. Yusupov M. Harbiy ta’lim va kadr tayyorlash tizimi. - Toshkent, 2017.
3. Rashidov B. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida kasbiy yo‘nalishni rivojlantirish. - Toshkent, 2020.
4. Sharipov F. Harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash usullari. -Toshkent, 2018.
5. Toshpo‘latov N. Zamonaviy harbiy pedagogika va kadr tayyorlash. -Toshkent, 2019.
6. Abdullaev S. Kasbiy malaka va harbiy xizmatchilarni tayyorlash. -Toshkent, 2021.
7. Saidov Sh. Vatanparvarlik va harbiy xizmatchilarning ma’naviy tayyorgarligi. - Toshkent, 2020.
8. Ergashev X. Markaziy Osiyoda harbiy ta’lim tarixi. -Samarqand, 2019.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 801.85:97.22

OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN ALGORITMIK MASHQLAR TIZIMI

Shermetova Nargiza Kamoladdin qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi



e-mail: nargizashermetova5@gmail.com

A SYSTEM OF ALGORITHMICAL EXERCISES AIMING AT THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH

Shermetova Nargiza Kamoladdin kizi, Teacher of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy

СИСТЕМА АЛГОРИТМИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ УСТНОЙ РЕЧИ

Шерметова Наргиза Камоладдин кызы, Преподаватель Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan algoritmik mashqlar tizimi haqida fikr yuritilgan. Unda algoritmik mashqlar va ulardan ona tili darslarida foydalanishning metodik jihatlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ona tili, boshlang‘ich ta’lim, og‘zaki nutq, algoritmik mashq, ketma-ketlik, reja, savol-topshiriqlar, algoritm.*

Abstract: *This article discusses the system of algorithmic exercises aimed at developing students' oral speech in primary school native language classes. It shows algorithmic exercises and methodological aspects of their use in native language classes.*

Keywords: *native language, primary education, oral speech, algorithmic exercise, sequence, plan, questions and tasks, algorithm.*

Аннотация*: В данной статье рассматривается система алгоритмических упражнений, направленных на развитие устной речи учащихся начальной школы на уроках родного языка. Представлены алгоритмические упражнения и методические аспекты их использования на уроках родного языка.*

Ключевые слова*: родной язык, начальное образование, устная речь, алгоритмическое упражнение, последовательность, план, вопросы и задания, алгоритм.*

Kirish. Har qanday mamlakatning rivoji ta’lim, ilm-fan bilan bevosita bog‘liq. Shu bois O‘zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat taraqqiyotiga uzviy aloqador bo‘lgan ta’lim sifati va mazmunini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, unda “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topish” vazifasi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni ona tilini sevadigan, qadrlaydigan, uning boyligi, go‘zalligi va betakrorligini his etadigan, lingvistik va nutqiy bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishishiga erishish dolzarb pedagogik va metodik masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirish, nutq o‘stirishning turlari, shakllari, o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish masalalari Q.Abdullayeva, K.Qosimova, M.Asqarova, G.R.Akromova, F.Aminova, T.Ziyodova, R.Yo‘ldoshev, R.Ibragimov, M.Yo‘ldoshev, S.Matchanov, A.Nisanbayeva, N.Nurmuhamedova, Sh.Nurullayeva, Q.Shodiyeva, F.O‘rinova va A.Hamroyevlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, ona tili o‘qitishning mazmuni, integratsiyali ta’lim orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish hamda matn ustida ishlashga doir A.G‘ulomov, A.Zunnunov Q.Yo‘ldoshev, Q.Husanboyeva, Sh.Yusupova, R.Safarova va shu kabi bir qancha olimlarning ilmiy tadqiqotlari mavjud.

Metodologiya. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini samarali tashkil etish, ularni mustaqil va mantiqiy fikrlashga yo‘naltirish masalasi muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayoniga algoritmik yondashuvni joriy etish didaktik jihatdan asoslangan metodlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Pedagogik adabiyotlarda algoritmik mashqlar o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini aniq belgilangan qadamlar, ketma-ketlik va qoidalar asosida bajarishga yo‘naltiruvchi mashqlar tizimi sifatida talqin qilinadi.

Algoritmik mashqlarning asosiy mohiyati o‘quvchilarda muayyan faoliyatni bajarishda rejalashtirilgan fikrlash, izchillik va tartiblilikni shakllantirishdan iboratdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bunday mashqlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu davrda ularning tafakkuri asosan ko‘rgazmali-obrazli xarakterga ega bo‘lib, faoliyatni bosqichma-bosqich tashkil etish samaradorlikni ta’minlaydi.

Muhokama va natijalar. Ilmiy manbalarda og‘zaki nutq shaxsning fikrini og‘zaki shaklda ifodalash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Og‘zaki nutq madaniyati esa nutqning fonetik, leksik, grammatik va uslubiy jihatdan me’yoriy bo‘lishi, shuningdek, nutqiy odob va muloqot madaniyatiga rioya etishni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida og‘zaki nutq madaniyatini rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal etishga qaratiladi: 1) o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish; 2) gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzishga o‘rgatish; 3) fikrni mantiqan izchil bayon etish malakasini shakllantirish; 4) og‘zaki nutqda ifodalilik va ravonlikni ta’minlash.

Mazkur vazifalarning amalga oshirilishida algoritmik mashqlar muhim metodik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida algoritmik mashqlar bevosita “algoritm” tushunchasi bilan nomlanmagan bo‘lsa-da, mazmunan ularning asosiy belgilarini o‘zida mujassamlashtirgan topshiriqlar tizimi keng o‘rin egallaydi. Xususan, reja asosida hikoya tuzish, savollar yordamida matn mazmunini ochish, tayanch so‘zlar asosida nutq yaratish kabi mashqlar algoritmik xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

Mazkur mashqlar darsliklarda asosan quyidagi shakllarda beriladi:

- ketma-ket bajariladigan topshiriqlar;
- bosqichma-bosqich savol-topshiriqlar;
- reja asosida amalga oshiriladigan nutqiy faoliyat turlari.

Bunday yondashuv o‘quvchilarning nutqiy harakatlarini tartibga soladi va ularni mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Quyida shunday mashqlardan namunalar keltiramiz:

1-mashq. “Ketma-ket gap tuz” algoritmi

1. Berilgan rasmni kuzat.
2. Rasmda bo‘layotgan voqeani aniqlang.
3. Avval birinchi gapni ayt.
4. Keyin voqeani davom ettiruvchi gap tuz.
5. Xulosa gap bilan yakunla.

Natija: o‘quvchilarda voqeani ketma-ket bayon qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

2-mashq. “Savol asosida hikoyalash” algoritmi

1. Kim haqida gap ketmoqda?
2. U qayerda?
3. U nima qilyapti?
4. Nima uchun?
5. Bu voqeadan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Natija: o‘quvchilarning izchil va mazmunli hikoyalash qobiliyati rivojlanadi.

3-mashq. “Tayanch so‘zlar asosida nutq tuzish”

Tayanch so‘zlar: maktab, o‘qituvchi, dars, kitob, bilim.

Algoritm: 1. Har bir tayanch so‘zga mos gap tuz.

2. Gaplarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtir.

3. Umumiy mazmunni ifodalovchi xulosa gap ayt.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida algoritmik mashqlar asosida og‘zaki nutqni rivojlantirish metodikasi izchil bosqichlarda amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlar quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich – tayyorlov bosqichi. Bu bosqichda o‘quvchilarning mavzuga oid bilimlari faollashtiriladi, tayanch so‘z va tushunchalar aniqlanadi hamda nutqiy faoliyatga psixologik tayyorgarlik yaratiladi.

Ikkinchi bosqich – amaliy faoliyat bosqichi. Mazkur bosqichda algoritmik mashqlar asosida o‘quvchilarning og‘zaki nutqiy faoliyati tashkil etiladi. Masalan, rasm asosida hikoya tuzish, savollar yordamida voqeani izohlash, tayanch so‘zlardan foydalangan holda matn yaratish kabi mashqlar bajariladi.

Uchinchi bosqich – mustahkamlash bosqichi. O‘quvchilarning mustaqil nutqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bajariladi. Bu bosqichda o‘quvchilarning og‘zaki nutqi izchillik va mantiqiylik jihatidan takomillashadi.

To‘rtinchi bosqich – baholash bosqichi. O‘quvchilarning og‘zaki nutqi aniqlik, izchillik, grammatik to‘g‘rilik va ifodalilik mezonlari asosida tahlil qilinadi.

Algoritmik mashqlar asosida og‘zaki nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- o‘quvchilarning individual nutqiy imkoniyatlarini inobatga olish;
- algoritmik mashqlarni interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish;
- milliy qadriyatlar va folklor materiallari asosida nutqiy topshiriqlar ishlab chiqish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida algoritmik mashqlar vositasida og‘zaki nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini izchil va samarali shakllantirish imkonini beradi. Algoritmik yondashuv o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, izchil bayon qilish va nutqiy faollikni oshirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Xususan, algoritmik mashqlar asosida tashkil etilgan ona tili darslari o‘quvchilarning og‘zaki nutq faoliyatida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi, ya’ni o‘quvchilarning fikrni izchil bayon qilish ko‘nikmalari shakllanadi; og‘zaki nutqda grammatik va mantiqiy xatolar kamayadi; nutqning ravonligi va ifodaliligi oshadi; o‘quvchilarning nutqiy faolligi kuchaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 146 b.

2. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o‘qish savodxonligi metodikasi.- Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.- 252 b.

3. Mahmudov N. So‘z sandiqchasi. (O‘zbek tilining izohli lug‘atchasi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun).- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. - 216 b.

4. Roziqov O., M.Mahmudov, Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. -Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005. -388 b.

5. Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili. 3-sinf. IV qism. -Toshkent: “Novda edutaiment”, 2023. -96 b.

6. Kuranov S. Ona tili. 2-sinf. II qism. -Toshkent: “Novda edutaiment”, 2023.- 88 b.

7. Ne’matova A. Tarqatma materiallar (Grammatika, imlo va nutq o‘stirish). – T.: O‘qituvchi, 2008. – 224 b.

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 930.26(67/68.621.7/9)

ХИВА ХОНЛИГИДА ХОН КЎТАРИШ МАРОСИМЛАРИ (ҚЎНҒИРОТ СУЛОЛАСИ ДАВРИ)

Матякубов Шоназар Собирович, Хоразм Маъмун академияси катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори



https://orcid.org/0009-0003-0888-2941
e-mail: shonazarmatyoqubov@gmail.com

CEREMONIES OF ENTHRONEMENT IN THE KHIVA KHANATE (PERIOD OF THE KUNGRAT DYNASTY)

Matyakubov Shonazar Sobirovich, Senior Research Fellow at the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy in Historical Sciences(PhD)

ЦЕРЕМОНИИ ВОЗВЕДЕНИЯ НА ХАНСКИЙ ПРЕСТОЛ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ (ПЕРИОД ДИНАСТИИ КУНГРАТ)

Матякубов Шоназар Собирович, старший научный сотрудник Хорезмской академии Маъмуна, доктор философии по историческим наукам

Аннотация: *Мақолада муаллиф Қўнғиротлар сулоласи даврида Хива хонлигида хон кўтариш маросимлари тўғрисида маълумотлар бериб ўтади.*

Калит сўзлар: *Хива, Қўнғиротлар сулоласи, Оллоқулихон, Раҳимқулихон, Муҳаммад Аминхан, Абдуллахон, ҚутлиМуродхон, Муҳаммад Ниёз, Саййид Муҳаммадхон, Муҳаммад Раҳимхон, Саййид Исфандиёрхон, Саййид Абдуллахон, Ёқуб меҳтар, хон сайлаш, меҳтар, девонбеги, ясовулбоши, оқ кигиз, ёвмут.*

Annotation: *In the article, the author provides information about the ceremony of installation of khans in the Khiva Khanate during the reign of the Kungrad dynasty*

Keywords: *Khiva, Kungrat dynasty, Allakulikhan, Rakhimkulikhan, Muhammad Aminkhan, Abdullakhan, Kutlimuratkhan, Muhammad Niyaz, Said Muhammadkhan, Said Abdullakhan, Yakub mehter, choice of khan, mehter, divanbegi, Yasovolbashi, white felt, yavmut.*

Аннотация: *В статье автор приводит информацию о церемонии возведения ханов в Хивинском ханстве во времена правления династии Кунградов.*

Ключевыеслова: *Хива, династия Кунгратов, Аллакулихан, Рахимкулихан, Мухаммед Аминхан, Абдуллахан, КутлиМуродхан, Мухаммед Нияз, Саид Мухаммедхан,Саид Абдуллахан, Якуб мехтер, выбор хана, мехтер, диванбеги, ясовулбаши,белый войлок, явмут.*

КИРИШ. Қўнғиротлар сулоласи хонлари даврида хокими мутлақ бўлган Хива хони олий қонун чиқарувчи ва маъмурий хокимиятни ўз қўлида сақлаган бўлсада, бироқ хон катта ер эгалари синфининг устидан ҳукмрон бўлмай, балки уларнинг бир бошлиғи бўлиб турган холос. Аввало хоннинг тахтга ўтириш тартиби бунга гувоҳлик беради.

АСОСИЙ ҚИСМ. Оллоқулихон даврида рус элчиси Данилевский ёнида келган кишининг ёзишича: “1842 йил 22 ноябрдан 23 ноябрга ўтар кечаси Оллоқулихон жаноби олийлари бу дунёни тарк этиб нариги дунёга сафар қилдилар. Эртаси кечаси хоннинг валиаҳди тахтга ўтирди. Шуниси ажабланарлики, Хива хонлигида хон уруғларининг тахтга меросхўрлик ҳуқуқи бўлишига қарамай, шу билан бирга хоннинг сайланиш ҳуқуқи ҳам сақланган. Мамлакатнинг мўътабар ва оқсоқол кишилари кечаси хон саройига тўпланишиб, хон уруғларидан бирини хон қилиб кўтарадилар. Хон

қилиб сайланадиган кишини ечинтириб, бошдан оёқ янги либослар кийгизадилар, хоннинг кошонасига олиб кириб оқ кигизга ўтирғизишиб уч марта: “Хон, Хон, Хон” деб нидо қиладилар. Тахтга ўтқазиш маросими ана шундангина иборат бўлди”[1]. Юқорида таъкидланган меросхўрлик ҳуқуқи бўлишига қарамай, хон сайлаш тартиби ҳақиқатан қизиқ. Келгусида албатта хон уни тахтга ўтқизган бу мўътабар кишилардан миннатдор бўлиб қолади ва уларнинг раъйи ва хоҳишларига қараб иш юритади. Янги хонни саройга тўпланиб олган бир тўда аъёнларгина сайлаганлар. Улар бу ишни халқдан жуда яширин тутганлар. Тахтга янги хон кўтарилганидан кейингина Хива хонлиги аҳолиси амалдаги хоннинг вафот этганини ёки тахтдан туширилганини ҳамда сайлов бўлганиини билиб қолар эди. Хива хонлари тарихчиси Муҳаммад Юсуф Баёнийнинг қўлёзмаларида келтирилган баъзи бир маълумотлар юқоридаги фикрларни тасдиқлайди. 1240 ҳижрий, 1825 милодий йили рамазон ойининг 19 сана, шанба куни Муҳаммад Раҳимхон вафот этди. Хоннинг ўлимини халққа билдиришдан олдин, унинг валиаҳд ўғли Оллоқулини хон қилиб кўтардилар[2]. 1258 ҳижрий, 1842 милодий йилнинг зулқаъда ойининг 3-сешанба куни Оллоқулихон вафот этди. Унинг ўлими ҳақида ҳам катта ўғли Хазараспда ҳоким бўлиб турган Раҳимқули тахтга кўтарилганидан кейингина халойиққа маълум қилдилар[3].

1262 ҳижрий, 1846 йили сафар ойининг 2-сана жума куни Раҳимқулихон ҳам дунёдан ўтди. Ўша куннинг ўзида янги хон тахтга ўтирди. Хонни тахтга ўтқазиш маросимида Аваз Муҳаммад бий иноқнинг ўғли Иброҳимбек, Амирзода Фозил бийнинг ўғли Паҳлавонбек, Ҳасанмурод бек, Қутлимурод иноқнинг ўғли Абдуллабек, Муҳаммад Раҳимхоннинг ўғиллари Саййид Маҳмуд тўра, Саййид Муҳаммад тўра, Назар иноқнинг ўғли Саййид Назарбек, Оллобердининг ўғиллари Бобожонбек ва Раҳимберди, Раҳмонберди бийнинг ўғиллари Боғибек ва Элтузарбек, Раҳмонқули иноқнинг ўғли Мусо тўра, Оллоқулихоннинг ўғли Абдулазиз тўра, Амирзода Муҳаммад Фозилбийнинг ўғли Ёқуббек, Муҳаммад Фозил бийнинг набираси Бекжонбек, буларнинг ҳаммаси хон уруғидан, шунингдек Ёқуб меҳтар, ОтаМурод қўшбеги, Саййид Абдулла хўжа нақиб, Авазхўжа нақиб, Авазхўжа шайхулислом, Солиҳ оталиқ, Тўра оталиқ, Шомурод иноқ, Назарбий ва бошқалар қатнашдилар. Буларнинг ҳаммаси Муҳаммад Амин иноқни хон қилиб кўтаришга қарор бердилар. Муҳаммад Амин иноқнинг бошига барра папоқ кийдириб, тахтга ўтқаздилар. “1271 ҳижрий, 1855 йили жумод ул-охир ойининг охирги душанба куни эронликлар билан Сараксда бўлиб ўтган урушда Муҳаммад Аминхон ўлдирилди. Ёқуб меҳтар Аҳмадхон Жамшид билан бирликда хоннинг ўғли Абдуллабекни хон қилиб кўтардилар”[4]. “Орадан беш ойча вақт ўтиб, Абдуллахон ёвмутлар билан бўлган жангда ўлдирилди. Шунда Ёқуб меҳтар Бобо қушбеги билан маслаҳатлашиб, Абдуллахонни ўғли ҚутлиМурод иноқнинг набираси 18 яшар ҚутлиМуродни тахтга ўтқазади”[5]. Шу билан бирга Яъқуб меҳтар ўзини хонга васий этиб белгилади. Муҳаммад Ниёзбий ёвмутлар билан бўлган урушда хиваликлар мағлуб бўлиб, асир тушган тушган пайтда ўзининг ўрнига Раҳимберди бекни бий этиб тайинлаганини баҳона этиб, Хивага туркман ёвмутлар билан келиб, ҚутлиМуродхонни кўкрагига ханжар санчиб ўлдиради. ҚутлиМуродхоннинг умри 18 ярим йил, хонлик муддати етти ойу бир ҳафта бўлди. Ундан Абдулла тўра исмли бир ўғил ёдгор бўлиб қолди. Ёвмутлар қўлловига ишониб, хонни ўлдирган Муҳаммад Ниёз хоннинг жиғали телпагини бошига кийиб тахтга ўтирди. Хиванинг ҳамма жойини ёвмут босди. Муҳаммад Ниёз тахтда ўтириб, Ёқуб меҳтарга киши юборди, лекин меҳтар Аркка келмай дарвозаларни банди қилдирди ва халқни ёвмутларга қарши курашга ва қирғин қилишга чорлади. Халқ қўзғалди ва қўлига қурол олиб, ёвмутларни ўлдира бошлади. Ёвмутларни бир ёқли қилиб бўлганларидан сўнг хамма амалдорлар Арк олдига тўпландилар. Кўринишхона ичкарисидаги ёвмутларни ва Муҳаммад Ниёзни чиқариб қатл этдилар. Шундан сўнг Ёқуб меҳтар аъёнлар билан маслаҳатлашиб, Саййид Муҳаммад тўрани хон қилиб кўтаришни қарор қилдилар. Ёқуб меҳтарнинг буйруғи билан Саййид Маҳмуднинг янги ҳовлисида яшаётган Саййид Муҳаммад тўрани саройга олиб келдилар ва 1272 ҳижрий 1856 милодий йили жумод ул-сонийнинг 5-куни душанба эди, 33 ёшли Саййид Муҳаммад тўра Хива тахтига кўтарилди. Шундан сўнг Саййид Муҳаммадхон янги лавозим таъсис этиб, уни амирулуламо деб бу мансабга акаси Саййид Маҳмудни тайинлади.

“1281 ҳижрий 1864 милодий йили Саййид Муҳаммадхон оламдан ўтди. Унинг тахт вориси масаласини ҳал қилмоқ учун Ҳасан Мурод қўшбеги хоннинг қариндош-уруғларини ва юқори мартабалари аъёнларни саройга тўплади. Дарвоза

олдига Бобо мингбоши билан Оллоберди бийни пойлоқчи қилиб қўйди ва уларга айтилган шахслардан ташқари ҳеч кимни саройга киритмаслик тўғрисида қатъий буйруқ берилди. Амируллуамо Саййид Маҳмуд тўра саройда ҳозир бўлган кишиларга мурожаат қилиб, Бобожон тўра (Муҳаммад Раҳим) ҳали ёш, ўрнига хон қилиб бошқа яхши бир кишини кўтариш кераклигини айтади. Шунда Ҳасан Мурод қўшбеги: “Айтган гапингиз тўғри, лекин биз хоннинг бошқа бир оиладан бўлишини истамаймиз”, -дейди. Раҳматилла ясовулбоши Саййид Маҳмуд тўрага сизнинг хон бўлишингизни ҳеч ким истамайди, дейди. Унга жавобан Саййид Маҳмуд Тўра ким менинг хон бўлишимни истамайди дейди. Раҳматилла ясовулбоши эса барча ўтирганлар истамайди деб жавоб беради. Дарҳақиқат, барча ўтирганлар бир овоздан биз Бобожон тўрани хон қилиб кўтаришни истаймиз, деб шовқин солишади. Шундан кейин Саййид Муҳаммад Раҳим хон деб эълон қилинади. Хива тахтига ўтирганда Муҳаммад Раҳимхон 19 ёшда эди. Эртаси куни Саййид Муҳаммадхон марҳумнинг жанозаси ўқилиб, ўзи бино қилдирган қуббаи олиясида тупроққа қўйдилар. Унинг мақбарасини Саййид Моҳи рўйи жаҳон деб ҳам аташади[6]. Муҳаммад Раҳимхон Соний ҳақида Хивада бўлган Е.Желябужский ўзининг Москвада 1875 йилда чоп этилган “Очерки и завоевание Хивы” асарида қуйидаги фикрларни ёзади: “Хиванинг ҳозирги хони Саййид Муҳаммад Раҳимхон иродасиз, давлат ишлари билан шуғулланишни ёқтирмайди, атрофидагилар таъсирига осон берилувчан. Унга ғаразгўй ва қаттиққўл Матмурод девонбегининг таъсири кучли. Русларнинг қўшинини тўхтатишга уринган ҳам шу киши. Хон Полвон мирзабоши, иниси Отажон тўрани яхши кўради ва хурмат қилади. Кейинги вақтда у билан келишмай ҳатто қамаб ҳам қўйган. Руслар Хивага келганидан кейин Отажон тўрани озод қилдилар”[7].

1910 йил 16 август куни Хива тахтига Муҳаммад Раҳимхоннинг тўртинчи ўғли Саййид Исфандиёр тўра кўтарилди. Муҳаммад Раҳимхон вафотидан кейин барча аъёнлар, тўра ва беклар Арк саройига тўпланишди. Ҳамма иттифоқ билан шаҳзода Саййид Исфандиёрни салтанат тахтига лойиқ деб кўрдилар. Оқ яктак кийиб саройга келган Исфандиёр тўрани оқ кигизга ўтқазиб, уч марта Хон, Хон, Хон деб кўтаришгандан кейин бошиға жиғали телпак кийгизиб, ота ўрнига тахтга миндирдилар. Эртаси куни Муҳаммад Раҳимхон ўзи қурдирган Арк олдидаги катта мадрасанинг саҳнида жанозаси ўқилиб, отаси Саййид Муҳаммадхон ёнига Моҳи Рўйи жаҳон куббаи олийларига тупроққа қўйдилар.

1818 йил 1-октябрь санасида Жунаидхоннинг буйруғи билан Исмомоут ота қабристони шайхининг ўғли Оннагалди Жунаидхонниг ўғли Эшшининг ҳамроҳлигида Хивага келиб, Хива хони Саййид Исфандиёрни Нуруллабой саройининг меҳмонхонасида сўйиб ўлдиради. Саййид Исфандиёр туркманлар томонидан ўлдирилгач, Жунаидхон – Қурбон Муҳаммад сардор Хивада ҳокимиятни ўзининг қўлига олди. Лекин Жунаид Хива тахтига ўтира билмас эди. Шунинг учун 1918 йилнинг 3 октябрь куни тахтга марҳум хоннинг акаси Саййид Абдуллани хон кўтарди. Саййид Абдулла номигагина хон бўлди асосий хонлик бошқарувини Жунаидхон ўз қўлига олди. “1920 йил 2 февралида қизил армия қўшинлари Жунаидхон қўшинларини тор-мор этиб, ҳокимиятни халқ қўлига олиб берди. Хиванинг охирги хони Саййид Абдулла Хива тахтидан воз кечди”[8].

ХУЛОСА қилиб айтганда, Қўнғиротлар сулоласи даврида хон сайлаш маросими халқнинг ҳеч бир иштирокисиз, ундан яширин равишда ўтказилар эди. Хива тахтига хон номини кўрсатишда меҳтар, қўшбеги ва ясовулбошилар катта имтиёзга эга бўлганлар. Ҳеч шубҳасиз айтиш мумкинки, юқори табақа аъёнлар ва хон уруғлари аъзолари тор доирада ўтказиладиган сайлов маросимлари номигагина бўлиб, аввалдан келишиб қўйилган номзодгина хон деб эълон қилинган. Хон сайлаш маросими эса расмий бир маросимдек гап эди. Шу сабабли бу ишнинг ташкилотчилари хон кўтариш маросими вақтида бир тўда танланган кишилардан бошқа ҳеч кимни саройга киритмаслик учун барча чораларни кўриб қўйганликлари бежиз эмас эди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. П.С.Савельев. Путешествие г.Базинера через Киргизскую степь в Хиву. Геогр.известия.Русс.общ.1849.169 стр.
2. Муҳаммад Юсуф Баёний. Хоразм тарихи. 251-252 бетлар.
3. Ўша жойда, 33-бет.
4. Ўша жойда, 352-бет.
5. Ўша жойда, 365-бет.
6. Ўша жойда, 425-бет.
7. Желябужский.Е. Очерки и завоевание Хивы. М.1875.стр 3.
8. К.Худайберганов. Хоразм хонлари. Тошкент, Академнашр. 2019. 183-бет.

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 398.21:81-23

THE ROLE OF NUMBERS IN ANCIENT BELIEFS AND FOLKLORE

Sadullaeva Matluba Akhrorovna, Asia Internayional University (PhD)



https://orcid.org/0000-0002-3121-3581
e-mail: msadullaeva1985@gmail.com

QADIMGI E'TIQODLAR VA XALQ OG'ZAKI IJODIDA RAQAMLARNING O'RNI

Sadullayeva Matluba Axrorovna, Osiyo xalqaro universiteti, (PhD)

РОЛЬ ЧИСЕЛ В ДРЕВНИХ ВЕРОВАНИЯХ И ФОЛЬКЛОРЕ

Садуллаева Матлюба Ахроровна, доцент Азиатского международного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам

Abstract: *Over time, numbers grew beyond practical use, becoming a way to understand the universe and its hidden order. In ancient Greece, Pythagoras and his followers saw numbers as the foundation of reality, linking even and odd numbers to opposing forces and assigning special significance to particular numbers. Plato viewed numbers as expressions of eternal forms, representing harmony and perfection beyond mere measurement. Across cultures, numbers appeared in folklore, mythology, and religious traditions, guiding ideas about fate, time, and cosmic balance. This article explores how numbers evolved from simple counting tools into powerful symbols shaping human belief and cultural imagination.*

Key words: *Numerology, clay tokens, numerical tablets, pythagoreanism, Platonic forms, sacred numbers, cosmic order, symbolism, historical evolution, folklore.*

Annotatsiya*: Vaqt o'tishi bilan sonlar amaliy qo'llanilishdan tashqariga chiqib, koinot va uning yashirin tartibini tushunish usuliga aylandi. Qadimgi Yunonistonda Pifagor va uning izdoshlari sonlarni haqiqatning asosi deb bilishgan, juft va toq sonlarni qarama-qarshi kuchlar bilan bog'lashgan va ma'lum sonlarga alohida ahamiyat berishgan. Platon sonlarni abadiy shakllarning ifodasi sifatida ko'rgan, shunchaki o'lchovdan tashqari uyg'unlik va mukammallikni ifodalagan. Turli madaniyatlarda sonlar folklor, mifologiya va diniy an'analarda paydo bo'lgan, taqdir, vaqt va kosmik muvozanat haqidagi g'oyalarni boshqargan. Ushbu maqolada sonlarning oddiy sanash vositalaridan inson e'tiqodi va madaniy tasavvurini shakllantiruvchi kuchli belgilarga qanday o'tgani o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *numerologiya, loydan yasalgan tokenlar, raqamli lavhalar, pifagorizm, Aflotun shakllari, muqaddas sonlar, kosmik tartib, ramziylik, tarixiy evolyutsiya, folklor.*


Аннотация: *Со временем числа вышли за рамки практического применения, став способом понимания Вселенной и её скрытого порядка. В Древней Греции Пифагор и его последователи видели в числах основу реальности, связывая чётные и нечётные числа с противоположными силами и придавая особое значение определённым числам. Платон рассматривал числа как выражения вечных форм, представляющие гармонию и совершенство, выходящие за рамки простого измерения. В разных культурах числа появлялись в фольклоре, мифологии и религиозных традициях, направляя представления о судьбе, времени и космическом равновесии. В этой статье исследуется,*

как числа эволюционировали от простых инструментов счёта до мощных символов, формирующих человеческие убеждения и культурное воображение.

Ключевые слова: *нумерология, глиняные жетоны, числовые таблички, Пифагорейство, Платоновские формы, священные числа, космический порядок, символизм, историческая эволюция, фольклор.*

Introduction. Numbers occupy a special place in the spiritual life, mythology, religion, and philosophical views of the peoples of the world. Long before numbers were seen as symbols of cosmic harmony or mystical significance, they first appeared as practical tools for recording and organizing daily life. Archaeological evidence shows that as early as 3,400 BCE, people in Mesopotamia used clay tokens and numerical tablets to track goods and quantities[4]. These earliest written symbols consisted solely of numerical content and were linked to prior counting practices using physical tokens. This practical use of numbers laid the foundation for their eventual evolution into **powerful cultural, philosophical, and mystical symbols**, as seen in the numerological systems of Babylon, Egypt, Greece, and later Pythagorean and Platonic thought. From recording everyday transactions to representing the harmony and structure of the universe, numbers gradually transformed from tools of necessity into objects of belief and metaphysical reflection [2].





According to Pythagoras, who was the founder of scientific views on numbers among scientists of the ancient world, the Universe was created through the power of numbers. Since in his interpretation, numbers are manifested both as materiality and as the form of the Universe, the concept “Everything consists of numbers” arose. In early Pythagorean thought number was the fundamental principle of reality — a system in which every entity and relation could be understood through number and proportion. The Pythagoreans held that the cosmos achieves its order through *numerical harmony*, and particular relationships of even and odd numbers symbolized the *unity of opposites*: the unlimited and the limited, the straight and the curved, the simple and the complex. This metaphysical dualism was part of a broader philosophical system that saw numerical relations as the basis of all existence. For the Pythagoreans, odd numbers were associated with the limited and active principle (associated with cosmic order), whereas even numbers represented the unlimited or the potentiality underlying forms [8].

For Plato, numbers are not just quantities but represent ideal patterns — flawless models in which physical things participate. Although his explanations differ across dialogues, later interpretations, such as Aristotle’s, highlight that Plato saw mathematical forms as essential to reality, with the cosmos operating according to fixed numerical harmonies that reflect the intelligible order [1].

Methodology. Pythagorean reverence for number led to endow individual numbers with symbolic qualities. For instance Justice was the number 4, on the ground that justice essentially involved a reciprocal relationship between persons, and that reciprocity was embodied in a square number.

This number some said was 4, as being the first square, divisible into equal parts and in every way equal, for it is twice 2. Others, however, said

that it was 9, the first square of an odd number, namely 3 multiplied by itself.

Opportunity, on the other hand, they said, was 7, because in nature the times of fulfilment with respect to birth and maturity go in sevens. Take man for instance. He can be born after seven months, cuts his teeth after another seven, reaches puberty about the end of his second period of seven years, and grows a beard at the third [12].

According to encyclopedic sources, numbers and their origins, historical development, and symbolic meanings have long been a subject of interest. It is noted that numbers initially emerged from humanity's need to count and measure. In ancient times, people expressed numbers using special signs and symbols. Hieroglyphic numbers were used to represent quantities, while later alphabetic and demotic writing systems were developed [11].

In Arab countries, starting from the 6th century, numbers based on the Arabic alphabet were employed. In the Arabic alphabet, 28 letters correspond to 28 numbers, and each number has a specific value and symbolic function. Numbers are used not only to express quantity but also to convey deeper meanings in philosophy, theology, folklore, and customs. From this perspective, numbers are divided into two groups: **1."Sacred" numbers; 2."Ordinary" numbers.**

N.Nizomiddinov notes that in Chinese mythology the creation of "all existence" is described as occurring through a specific process. According to this view, primordial being initially existed as a state resembling the "chaos" or "mist" found in ancient Greek mythology, as well as a dark "abyss". From the division of this original state into two fundamental elements emerged light (*Yang*) and darkness (*Yin*). In this system, the masculine principle, *Yang*, is associated with sunlight, strength, power, and positivity in general, whereas the feminine principle, *Yin*, is linked to the moon, darkness, melancholy, and weakness[6].

Analysis. According to the materialistic concept of existence in the Chinese philosophical tradition "Si Si Zhuang", which developed on the basis of Chinese mythology in the 4th–3rd centuries BCE, the interplay and dynamic balance between the masculine principle, Yang, and the feminine principle, Yin, gave rise to the five fundamental elements—water, fire, wood, metal, and earth from which all other beings and phenomena emerged. This continuous cycle forms the foundation of existence, with the world understood as a triad comprising Heaven, Earth, and Man [7]. Consequently, the number three in Chinese culture symbolizes birth, reinforced by the phonetic similarity between "three" ("san") and the word for "birth". The ***Book of Changes*** emphasizes the harmony of the triad of Heaven, Earth, and Man, while the related trinity of "Yin-Shi-Yan" (woman-child-man) was also widely recognized. The sacred significance of the number three appears in other cultures as well, including early Turkic beliefs with the trinity of heaven, earth, and the underworld, as well as in the concept of three gods in ancient Egyptian, Sumerian, Greek, and Iranian mythologies [7].

In the world, the number three appears in numerous triads: the three sources of light—Sun, Moon, and stars; birth, life, and death; past, present, and future; three hierarchical pairs—state and citizen, father and son, husband and wife; and three human aspirations—peace of mind, longevity, and fertility. Similarly, the three major religions in China—Confucianism, Daoism, and Buddhism—illustrate the widespread cultural significance of this number. The number three also holds a distinctive place in the social life and culture of Turkic peoples. For instance, the Turkic scholar Önar Soman, in his study of the *Book of Dede Korkut*, notes that the number three appears forty-three times in the epic, recognizing it as a number of high sacred value in Turkic mythology [9].

According to the mythological beliefs of the Turks in northern Altai, the four corners of the world are supported by four oxen, and earthquakes occur as a result of their movements. In another myth, popular among the Maya, the sky is said to rest upon four pillars. For this reason, the number four appears in hieroglyphs as a symbol of the material world: the square portion represents the earth, while the circular part above signifies the sky. Imagining the earth in a square shape was common among ancient peoples, including the Turks and Chinese. The Altai Turks initially conceived of the earth as circular and later as square, whereas the Chinese, who visualized the earth as square, regarded China as its center.

Accordingly, the number four came to signify the completeness of the earth, representing an object in its entirety and from all directions [13].

Conclusion. Numbers have played a profound role in shaping human thought, belief, and culture from the earliest civilizations to complex philosophical systems. Greek philosophers such as Pythagoras and Plato interpreted numbers as the foundation of cosmic harmony, while in Chinese and Turkic traditions, numbers were central to mythology, cosmology, and social symbolism. Sacred numbers, triads, and numerical hierarchies reflect humanity's enduring effort to understand the universe, life, and the balance between natural and spiritual forces. This cross-cultural exploration highlights how numbers serve not only as instruments of measurement but also as enduring symbols of order, spirituality, and cultural identity, demonstrating their universal and timeless importance in human history.

REFERENCES:

1. Borodin, A.I. *Chislo i Mistika*. Donetsk: Donbass, 1972.
2. Damerow, P., and R.K. Englund. *Archaic Bookkeeping: Early Writing and Techniques of Economic Administration in the Ancient Near East*. Translated by P. Larsen, 1993.
3. Englund, R.K. Proto-Cuneiform Account-Books and Journals. In M.Hudson & C.Wunsch (Eds.), *Creating Economic Order: Record-Keeping, Standardization and the Development of Accounting in the Ancient Near East.*
4. Friberg,J. Preliterate Counting and Accounting in the Middle East: A Constructively Critical Review of Schmandt-Besserat's *Before Writing*. *Orientalistische Literatur*, 1994.
5. Jo'rayev,M. *Sehrli Raqamlar Siri*. Toshkent, 1990.
6. Nizomiddinov,N.G'. *Qadimgi Xitoy Tarixi, Diniy E'tiqodi va Madaniyati*. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2014.
7. Stepugina, T.V. *Ideology and Culture of China During the Heyday of Slavery*. Moscow: History of the Ancient World, 1983.
8. Thesleff, Holger. Pythagoreanism. *Encyclopedia Britannica*, 15 June 2025, www.britannica.com/science/Pythagoreanism.
9. O'nar, So'man. Dede Korkut Boylarenda Geçen Formulistik Sayıların İzleri. *Türk Dünyası Araştırmaları*, 2019.
10. Zhukovskaya, N.L. Formy Proyavleniya Kulta Prirody v Pantieone i Ritualakh Lamayizma. *Religiya i Mifologiya Narodov Vostochnoy i Yuzhnoy Azii*, Moscow, 1970.
11. National Encyclopedia of Uzbekistan. Tashkent, 2004.
12. Олард, Диксон. *Книга песка: Символика чисел*. Ваклерб, 1996.
13. Жуковская Н.Л. Формы проявления культа природы в пантионе и ритуалах ламаизма // Религия и мифология народов Восточной и Южной Азии. – М., 1970. – С.113.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2025 UDK: 378.147:37.02

GAZLAMALAR MATERIALSHUNOSLIGI FANINI INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Baxtiyorova Sobiraxon Ixtiyor qizi, Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti

METHODOLOGY OF TEACHING THE DISCIPLINE "MATERIALS SCIENCE OF FABRICS" BASED ON INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Bakhtiyorova Sobirakhon Ikhtiyor qizi, PhD student (basic doctoral candidate) at Asia International University

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ "МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЕ ТЕКСТИЛЬНЫХ ИЗДЕЛИЙ" НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Бахтиёрова Собирахон Ихтиёр кызы, базовый докторант Азиатского международного университета

https://orcid.org/0009-0007-1916-4434
e-mail: sobiraxonbaxtiyorova2@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida "Gazlamalar materialshunosligi" fanini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy yengil sanoat hamda to'qimachilik ta'limi tizimida gazlamalarning tuzilishi, xossalari va funksional imkoniyatlarini chuqur o'zlashtira oladigan, raqamli kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, fan mazmunini an'anaviy yondashuvdan innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish zarurati asoslab beriladi.*

Tadqiqot jarayonida raqamli ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv modellar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish hamda aralash (blended learning) ta'lim texnologiyalarining "Gazlamalar materialshunosligi" fanini o'qitishdagi didaktik imkoniyatlari ochib berilgan. Innovatsion metodlar yordamida talabalarda gazlamalarning mexanik, gigiyenik va texnologik xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *gazlamalar materialshunosligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, virtual laboratoriya, kasbiy kompetensiya, oliy ta'lim.*

Abstract:*This article analyzes, from scientific, theoretical, and practical perspectives, the issues of improving the methodology for teaching the course "Fabric Materials Science" in higher education institutions based on innovative educational technologies. In the modern system of light industry and textile education, one of the pressing tasks is the training of specialists who can deeply master the structure, properties, and functional capabilities of fabrics and who possess digital competencies. From this standpoint, the necessity of organizing the course content on the basis of innovative educational technologies rather than traditional approaches is substantiated.*

In the course of the study, the didactic potential of digital educational platforms, virtual laboratories, interactive models, problem-based learning, project-based learning, and blended learning technologies in teaching the course "Fabric Materials Science" is revealed. Using innovative methods, the mechanisms for developing students' skills in analyzing the mechanical, hygienic, and technological properties of fabrics and applying them in practical activities are highlighted.

Keywords: *fabric materials science, innovative educational technologies, digital education, virtual laboratory, professional competence, higher education.*

Аннотация: *В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются вопросы совершенствования методики преподавания дисциплины «Материаловедение тканей» в высших образовательных учреждениях на основе инновационных образовательных технологий. В современной системе лёгкой промышленности и текстильного образования одной из актуальных задач является подготовка специалистов, способных глубоко усваивать структуру, свойства и функциональные возможности тканей, а также обладающих цифровыми компетенциями. В этом контексте обосновывается необходимость организации содержания дисциплины на основе инновационных образовательных технологий вместо традиционных подходов.*

В процессе исследования раскрываются дидактические возможности цифровых образовательных платформ, виртуальных лабораторий, интерактивных моделей, проблемного обучения, проектного обучения, а также технологий смешанного (blended learning) обучения в преподавании дисциплины «Материаловедение тканей». С использованием инновационных методов освещаются механизмы формирования у студентов навыков анализа механических, гигиенических и технологических свойств тканей и их применения в практической деятельности.

Ключевые слова: *материаловедение тканей, инновационные образовательные технологии, цифровое образование, виртуальная лаборатория, профессиональная компетентность, высшее образование.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimining keng ko‘lamda raqamlashtirilishi hamda ishlab chiqarish texnologiyalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishi oliy ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitish mazmuni va metodik yondashuvlarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, yengil sanoat va to‘qimachilik tarmoqlarida raqobatbardosh, innovatsion tafakkurga ega, zamonaviy texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan mutaxassislarni tayyorlash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur jarayonda “Gazlamalar materialshunosligi” fani bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim tayanch fanlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. “Gazlamalar materialshunosligi” fanida gazlamalarning tolali tarkibi, tuzilishi, fizik-mexanik, gigiyenik hamda texnologik xususiyatlari tizimli ravishda o‘rganiladi. Ushbu bilimlar kelgusida mahsulot sifatini baholash, ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish va innovatsion texnologik yechimlarni amaliyotga joriy etishda muhim metodik poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, fan mazmunining murakkabligi, ko‘plab mavhum tushunchalar hamda murakkab texnologik jarayonlarning mavjudligi uni faqat an’anaviy o‘qitish usullari orqali samarali o‘zlashtirishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Ta’lim jarayoni tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat hollarda “Gazlamalar materialshunosligi” fanini o‘qitishda nazariy materiallarga haddan tashqari urg‘u berilishi, amaliy mashg‘ulotlar bilan uzviy integratsiyaning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmasligi hamda zamonaviy raqamli ta’lim vositalaridan cheklangan holda foydalanilishi talabalar bilimlarining parchalanib shakllanishiga olib kelmoqda. Bu holat esa ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli fan o‘qitish metodikasini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘quv jarayonini real ishlab chiqarish muhiti bilan yaqinlashtirish imkonini beradi. Raqamli ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv modellar, muammoli ta’lim va loyiha asosida o‘qitish metodlari “Gazlamalar materialshunosligi” fanining murakkab mazmunini vizual va tushunarli shaklda o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalar va kasbiy tafakkurni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shu munosabat bilan “Gazlamalar materialshunosligi” fanini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasini ilmiy jihatdan asoslash, uning samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash hamda ta’lim jarayoniga joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur maqola aynan ushbu muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lib, unda fan mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishning metodik jihatlari atroflicha yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda fanlarni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, texnik va texnologik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitishda raqamli ta’lim vositalari, interaktiv metodlar hamda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan

pedagogik yondashuvlarning samaradorligi ko‘plab ilmiy ishlarda asoslab berilgan. Shu bilan birga, gazlamalar materialshunosligi fanini o‘qitishga doir metodik masalalar, asosan, yengil sanoat ta’limining umumiy doirasi doirasida tahlil qilingan bo‘lib, fan xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan innovatsion metodik yondashuvlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Pedagogik texnologiyalar sohasida olib borilgan tadqiqotlarda, jumladan, ta’lim jarayonini loyihalash va uni boshqarishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi talabani passiv bilim oluvchi subyektdan faol, mustaqil fikrlovchi shaxsga aylantirish ekanligi ta’kidlanadi. Mazkur yondashuv doirasida o‘quv materiali vizual vositalar yordamida, interaktiv shakllarda va muammoli vaziyatlarga asoslangan holda taqdim etilishi zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan. Ushbu g‘oyalar gazlamalar materialshunosligi fanini o‘qitishda ham muhim ahamiyat kasb etib, murakkab tuzilishga ega bo‘lgan gazlama xossalarini samarali tushuntirishda innovatsion vositalardan foydalanish zaruratini ko‘rsatadi.


O‘zbekistonlik pedagog olim N.N. Azizxo‘jayeva tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash masalalari keng yoritilib, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishi sifatida asoslab berilgan. Uning ilmiy qarashlarida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fan mazmunini amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lash muhimligi alohida ta’kidlanadi. Mazkur yondashuv gazlamalar materialshunosligi fanida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodikani ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, R.S. Djuraev va B.X. Xodjayevlarning pedagogik innovatsiyalar hamda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishga oid ilmiy ishlarida fanlarni o‘qitishda interaktiv metodlar va muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligi tahlil qilingan. Ularning ilmiy xulosalariga ko‘ra, texnologik yo‘nalishdagi fanlarda loyiha asosida o‘qitish metodidan foydalanish talabalarni real kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuqori natijalarni ta’minlaydi. Ushbu fikrlar gazlamalar materialshunosligi fanini innovatsion asosda o‘qitish metodikasini shakllantirishda muhim nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash hamda materialshunoslik fanlarini o‘qitish masalalari alohida yo‘nalishlar sifatida yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, gazlamalar materialshunosligi fanini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasini kompleks va tizimli tarzda yoritib beruvchi ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini asoslaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Gazlamalar materialshunosligi” fanini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish an’anaviy metodlarga nisbatan ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, fan mazmunining murakkabligi va ko‘p komponentli tuzilishga ega bo‘lishi innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zaruratini yanada kuchaytiradi. Olingan natijalar adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar bilan taqqoslanganida, ushbu fan uchun innovatsion metodlarning ahamiyati ayniqsa muhim ekanligi tasdiqlanadi.


Tajriba-sinov jarayonida raqamli ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar hamda interaktiv modellar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning gazlamalarning tuzilishi, fizik-mexanik va gigiyenik xususiyatlarini tushunish darajasini sezilarli darajada oshirgani kuzatildi. Bu holat materialshunoslik fanlarini vizual va tajribaviy o‘qitish samaradorligini kuchaytirishini ko‘rsatadi. Shuningdek, talabalarga nazariy tushunchalarni real ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘lash imkoniyati yaratildi, bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



1-rasm. Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitishning ta’sir mexanizmi

Mazkur ko‘rgazmali model shuni anglatadiki, innovatsion texnologiyalar faqat o‘qitish vositasi emas, balki ta’lim natijalarini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, virtual laboratoriyalardan foydalanish an’anaviy laboratoriya sharoitida

cheklangan imkoniyatlarni to‘ldirib, gazlamalarning xossalarini ko‘p marotaba va xavfsiz sharoitda tahlil qilish imkonini yaratdi.



2-rasm. O‘qitish metodlariga ko‘ra o‘zlashtirish darajasi (taqqoslash diagrammasi)

Muhokama, natijalar va xulosa. Diagrammalardan ko‘rinib turibdiki, innovatsion ta’lim texnologiyalariga asoslangan yondashuv talabalar bilimini shakllantirishda yuqori natija bergan. Bu holat ilgari olib borilgan pedagogik tadqiqotlar natijalari bilan ham mos keladi, biroq mazkur tadqiqot fan xususiyatiga moslashtirilgan metodika qo‘llangani bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Gazlamalar materialshunosligi” fanini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasi ta’lim jarayonining sifatini oshiradi, talabalarni real kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi va oliy ta’limda fanlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha ilgari surilayotgan zamonaviy konsepsiyalar bilan uyg‘unlashadi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, gazlamalar materialshunosligi fanini innovatsion yondashuv asosida o‘qitish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalar bilimini chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida joriy etilgan interaktiv metodlar, jumladan, virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar, 3D-modellashtirish texnologiyalari va multimediya vositalari, talabalarni mavzuni konseptual tushunishga jalb qilishda muhim rol o‘ynadi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitilgan guruhlar an’anaviy metodlar asosida o‘qitilgan guruhlarga nisbatan o‘rtacha 25–30% yuqori akademik natijalarga erishdi. Bundan tashqari, talabalar orasida laboratoriya va loyihaviy ishlarni bajarishdagi ishtiyoq va faollik sezilarli darajada oshgan, bu esa fan bo‘yicha umumiy motivatsiyani mustahkamlashini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion metodikalar asosida o‘qitish fanning murakkab kontseptsiyalarini osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi, talabalar faolligini oshiradi va ularning kasbiy ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday yondashuv ilmiy-tadqiqot faoliyati va amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni uyg‘unlashtirish orqali mamlakatdagi ta’lim sifatini global standartlar darajasiga olib chiqish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, gazlamalar materialshunosligi fanini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish fanning samaradorligini oshirish, talabalar faolligi va kasbiy tayyorgarlik darajasini yuqoriga ko‘tarish hamda ta’lim jarayonini zamonaviy ilmiy va texnik talablar bilan uyg‘unlashtirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu yondashuv nafaqat talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularni amaliy ko‘nikmalar, tadqiqot metodikasi va ijodiy tafakkur bilan jihozlaydi, bu esa kelajakda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bakhtiyorova S.I., Hamroyeva X.Y. Methods of Teaching Materials Science on the Basis of Innovative Educational Technologies**.** *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2022, Vol. 7, pp. 133–136.
2. Xudayqulov S.S., Masalbekova S.S. Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Materialshunoslik va konstruksion materiallar” fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish**.** *Journal of Universal Science Research*, 2023.
3. Husnida O. Mamadaliyeva. Using Innovative Technologies in Teaching Materials Science**.** *PEDAGOGS International Research Journal*, 2024.
4. O‘roqova S.B., et al. Elektron ta’lim resurslari tushunchasi va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni**.** *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 2024.
5. Azimqulov S.N. Ta’limda innovatsion ta’lim tizimlari va texnologiyalarini qo‘llash tamoyillari. *Pedagog*, 2023.
6. Eshkorayev S. Innovative Methods in Teaching Powder Metallurgy**.** *Journal of Universal Science Research*, 2025. Materialshunoslikning maxsus sohalarida interaktiv va immersiv texnologiyalarni o‘qitishda qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqot.

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94.930.85

XORAZM VILOYATINING MADANIY-GUMANITAR YO‘NALISHDAGI XALQARO ISLOHOTLARI (2017-2022- YILLAR)


Xudayberganov San’at Sanjarovich, Urganch davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

INTERNATIONAL REFORMS IN THE HUMANITIES AND CULTURAL SPHERE OF KHOREZM REGION (2017–2022)

Xudayberganov San’at Sanjarovich, Acting Associate Professor, Urganch State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in History

МЕЖДУНАРОДНЫЕ РЕФОРМЫ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ (2017–2022)

Худайберганов Санъат Санжарович, и.о. доцента, Ургенчский государственный педагогический институт, доктор философии (PhD) по историческим наукам



https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0001-1504-0908
e-mail: myusayidsss@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizda madaniy-gumanitar yo‘nalishlarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli, jadal islohotlar haqida so‘z boradi. Xususan, Xorazm viloyatida madaniyat sohasida tashkil etilgan xalqaro tadbirlar hamda xorijiy delegatsiyalar tomonidan amalga oshirilgan nufuzli tashriflar viloyat turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilganligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator loyihalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *xalqaro festivallar, xorijiy delegatsiyalar, madaniyat va san’at, madaniy meros, ilmiy-amaliy konferensiyalar, festival, sanitariya va salomatlik, mintaqaviy loyihalar.*

Annotation: *The article examines the extensive and dynamic reforms undertaken in the country in the spheres of culture and humanitarian development. In particular, it emphasizes the international events organized within the cultural sector of the Khorezm region, as well as the visits of esteemed foreign delegations and distinguished guests, which have significantly contributed to enhancing the region’s tourism potential. Furthermore, the article presents detailed information on a series of initiatives aimed at fostering the socio-economic development of the region.*

Keywords: *international festivals, foreign delegations, culture and arts, cultural heritage, scientific and practical conferences, festival, sanitation and health, regional projects.*

Аннотация: *В статье рассматриваются масштабные и динамичные реформы, осуществлённые в стране в сфере культуры и гуманитарного развития. В частности, акцентируется внимание на международных мероприятиях, проведённых в культурной сфере Хорезмской области, а также на визитах уважаемых зарубежных делегаций и почётных гостей, которые внесли значительный вклад в повышение туристического потенциала региона. Кроме того, в статье представлена подробная информация о ряде инициатив, направленных на содействие социально-экономическому развитию области.*

Ключевые слова: *международные фестивали, зарубежные делегации, культура и искусство, культурное наследие, научно-практические конференции, фестиваль, санитария и здоровье, региональные проекты.*

Kirish. Mamlakatimizda 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan keng ko‘lamli, jadal islohotlar natiajsida madaniyat hamda san’at sohasida ham yangilanishlar yuz berdi. Bu borada so‘nggi yillarda viloyat musiqali drama teatrining ish faoliyati yana qaytadan rivojlana boshladi. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 14-15-oktabr kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi chog‘ida

teatrga tashrif buyurib, ijodiy jamoa bilan muloqotda bo‘ldi[1]. Teatr jamoasining yangilangan binosida 2018-yil 23-24-aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Respublikasi Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovlarning Xorazm viloyatiga tashrifi munosabati bilan ikki davlat san’atkorlarining katta konsert dasturi namoyish etildi[2]. Viloyat teatr jamoasining xalqaro madaniy aloqalari ham yangi bosqichga ko‘tarildi deyish mumkin. Xususan, 2019-yil 29-30-aprel kunlari viloyat teatrining ijodiy jamoasi Turkiyaning Adana shahrida bo‘lib o‘tgan 21-Xalqaro teatrlar festivalida E.Samandarovning “Sulton Jaloliddin” tarixiy spektakli bilan ishtirok etdi[3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. 2019-yil 2-4-iyul kunlari “Ipak yo‘li” X Xalqaro festivalining Ozarbayjonning Baku hamda Sheki shaharlarida o‘tkazilib unda viloyat teatrining bir guruh ijodiy jamoasi o‘zlarining chiqishlari bilan faol qatnashishdi. Qozog‘iston Respublikasining “ABISH ALEMI” I Xalqaro teatrlar festivalida 2019-yil 10-15-oktabr kunlari teatrning ijodiy jamoasi “Oshiq G‘arib va Shohsanam” musiqali dramasi bilan ishtirok etib, diplom va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida[5]”gi Farmoni madaniyat va san’at sohasida katta ahamiyat kasb etdi. Madaniyat va san’atning hamma sohalarini qamrab olgan bu me’yoriy hujjatda respublikada faoliyat yuritayotgan teatrlarni yanada rivojlantirish borasidagi dolzarb islohotlarni belgilab berdi. Xususan, Xorazm viloyati musiqali drama teatri binosi ham qaytadan kapital ta’mirlanib, teatr repertuarlari yangilandi. 2021-yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi YeTTB “Orzu arz” kompaniyasi va Angliyadagi “Vatandosh” diasporasi vakillari bilan hamkorlikda tashkil etilgan onlayn festivalda Xorazm viloyati musiqali drama teatri ijodiy jamoasi “Sulton Jaloliddin” tarixiy spektakli bilan ishtirok etdi[6]. Ushbu spektakl Angliya va Amerika qo‘shma shtatlaridagi 1500dan ortiq tomoshabinlar e’tiboriga onlayn tarzda namoyish etildi[7]. 2021-yil 1-13-avgust kunlari Xorazm viloyati musiqali drama teatri bir guruh ijodiy jamoasi Turkiya davlatida “III Xalqaro turk dunyosi festivali”da ishtirok etdi[8].

Asosiy natijalar va muhokama. Keyingi yillarda viloyat qo‘g‘irchoq teatri repertuari yangi spektakllar bilan yanada boyib bormoqda. Teatr jamoasi koronavirus pandemiyasi davrida London shahrida joylashgan “Orzu Art” teatri taklifiga binoan ushbu shaharda istiqomat qilayotgan yosh tomoshabinlar uchun “Xiva Lazgisi” spektaklini onlayn tarzda namoyish etdi.

Ma’lumki, 2020-yil 28-sentabrdagi “Lazgi xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4843-sonli qarori[9] qabul qilinib, unga ko‘ra 2022-yildan boshlab har ikki yilda bir marotaba Xiva shahrida “Lazgi” xalqaro raqs festivali hamda festival doirasida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazish belgilangan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad “Xorazm lazgi raqsi” san’atining qadimiy an’analarini saqlash hamda rivojlantirish, raqs san’ati orqali xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlash, xalqaro miqyosda ijodiy hamkorlik ko‘lamini va madaniy aloqalarni yanada kengaytirish iborat edi.

BMT Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” mavzusidagi xalqaro forumni o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqan edi. Tashabbus jahon hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, 2021-yilning 15-16-sentabr kunlari mazkur xalqaro madaniyat forumi Xiva shahri mezbonligida tashkil etildi. Ta’kidlash kerakki, mazkur forumning Xiva shahrida o‘tkazilishida ramziy ma’no mujassam bo‘lib, O‘zbekiston Prezidentining forum ishtirokchilariga yo‘llagan tabrik nutqida ta’kidlanganidek: “Forum Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini

[1] Xorazm viloyati musiqali drama teatrining joriy arxiv ma’lumotlari. – Urganch, 2018.
[2] Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 25 апрель.
[3] Xorazm viloyati musiqali drama teatrining joriy arxiv ma’lumotlari. – Urganch, 2021.
[4] Xorazm viloyati musiqali drama teatri Adabiy bo‘lim boshlig‘i Gulnora Qurbonovaning intervyusi. – Urganch, 17-dekabr, 2022-yil.
[5] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.05.2020 y., 06/20/6000/0673-son // https://lex.uz/docs/4829149?ONDATE=27.05.2020%2000
[6] Buyuk Britaniyada “Navro‘z” bayramiga bag‘ishlangan onlayn festivali o‘tkazildi. 28.04. 2021// https://yuz.uz/uz/news/buyuk-britaniyada-navroz-bayramiga-bagishlangan-onlayn-festivali-otkazildi
[7] Xorazm viloyati musiqali drama teatrining joriy arxiv ma’lumotlari. – Urganch, 2022.
[8] Xorazm viloyati musiqali drama teatrining joriy arxiv ma’lumotlari. – Urganch, 2022.
[9] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.09.2020 й., 07/20/4843/1334-son // https://lex.uz/docs/-5020216

rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, mintaqa xalqlarining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissalarini yanada chuqur anglash va o‘rganishga imkon beradi[10]”. Ushbu nufuzli tadbirda jahonning ko‘plab mamlakatlaridan olimlar, qadimshunoslar, san’atshunoslar, taniqli ilm-fan nomoyandalari ishtirok qildilar. Xalqaro forumda Markaziy Osiyo ilmiy merosining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni va ahamiyati yana bir bora yuksak e’tirof etildi. Forum doirasida ko‘plab tadbirlar bo‘lib o‘tdi[11]. Forum akademik doiralarning faol fikr almashishiga, sohadagi yangiliklar, O‘zbekistonning ilmiy salohiyati bilan jahon hamjamiyatining kengroq tanishishiga imkoniyat yaratdi. Keyingi yillarda Jaloliddin Manguberdi tarixini o‘rganish va buyuk sarkardaning tarixiy xizmatlarini yosh avlod qalbiga singdirishga qaratilgan amaliy ishlar jadallashdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Urganch shahri markazida Jaloliddin Manguberdi haykali o‘rnatildi. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyuldagi 336-f sonli farmoyishiga asosan 2021-yilning noyabr oyida Xorazm viloyatida “Jaloliddin Manguberdi tarixining yangi sahifalarini o‘rganish” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Bir hafta davomida mehmonlar ishtirokida turli uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etildi[12]. Shuningdek, 2022-yilning 8-15-noyabr kunlari Turkiyaning Istanbul va Diyorbakr viloyatlariga “Jaloliddin Manguberdi izidan” ilmiy-ma’rifiy ekspeditsiya uyushtirildi[13].

2022-yilning 4-5-iyun kunlari Xiva shahrida “Pahlavon Mahmud – Bahodirlar o‘yini” II Xalqaro turniri bo‘lib o‘tdi. Ushbu xalqaro turnirda 14ta davlatdan eng kuchli sportchi va pahlavonlar ishtirok qildilar. Ikki kun davom etgan turnirda eronlik pahlavon Reza Geytasi oliy o‘rinni egalladi[14]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, BMT, MDH, SHHT, YEXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar doirasida O‘zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy hamda gumanitar soha bo‘yicha aloqalarni keng ko‘lamda amalga oshiryapti. Gumanitar hamkorlik aloqlari haqida gapirganda Orolbo‘yi hududiga ekologik fojeaning salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan xalqaro gumanitar aloqalarni alohida ta’kidlash kerak. “EKOSAN” xalqaro tashkiloti tomonidan mintaqada bir qator ijtimoiy va ekologik loyihalar, jumladan, 1995-yilda “ASPERA” Orolbo‘yi mintaqasidagi onalar va bolalarga mintaqaviy yordam ko‘rsatish loyihasi amalga oshirildi[15].

Respublika Sog‘liqni saqlash vazirligi va Hindistonning Nefroplyus kompaniyasi o‘rtasida 2021-yil 15-yanvar kuni tuzilgan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosidagi bitim natijasida Xorazm viloyatida ijtimoiy sohaga kompaniya tomonidan 2 mln AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilib, Urganch va Bog‘ot tuman tibbiyot birlashmalari hududida 58ta o‘ringa ega 2ta zamonaviy Gemodializ markazlari qurildi hamda yetakchi xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan tibbiy asbob-uskunalar bilan ta’minlandi[16].

Xulosa. Umuman olganda shuni qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik erishgandan so‘ng madaniyat sohasidagi xalqaro aloqalar Xorazm viloyatining turizm sohasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shuningdek, xalqaro darajada buyuk ajdodlarimizning tavallud sanalarining nishonlanishi hamda ularning ilmiy merosini keng darajada targ‘ib qilish va o‘rganish imkoniyatini berdi. Orol va orolbo‘yi muammolariga xalqaro hamjamiyatning e’tiborini qaratish sa’y-harakatlar natijasida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator loyihalar amalga oshirildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi Axborot xizmatining joriy arxiv ma’lumotlari. – Urganch, 2021-yil 30-iyul.
2. Abdirimov B., Atajonov G‘. 791 yil o‘tib. – Urganch.: Ogahiy nashriyoti, 2023.
3. Davletov S., Allanazarov S. Milliy taraqqiyotning mustahkam poydevori. // Tamaddun nuri, 2022-yil, 5-son. – B.15-12. Абдуллаев С.А., Хажиев Б.Д., Мамбетжанов Қ.Қ. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси. – Т.: Баркамол файз медиа, 2018. – 424 б.
4. Бобожонов Б. Асрга тенг йиллар. Хоразм мустақиллик йилларида. – Т.: Истиқлол, 2001. – 192 б.

[10] Хоразм ҳақиқати газетаси, 2021 йил 16 сентябрь.
[11] Хоразм ҳақиқати газетаси, 2021 йил 22 сентябрь.
[12] Abdirimov B., Atajonov G‘. 791 yil o‘tib. – Urganch: Ogahiy nashriyoti, 2023. – B. 24.
[13] O‘sha yerda, 25-bet.
[14] Хоразм ҳақиқати газетаси, 2022 йил 10 июнь.
[15] Давлетов С. Қуйи Амударё ҳудудидаги экологик вазият ва уни соғломлаштиришнинг ижтимоий муаммолари. – Хива: ХМА НБ, 2007. – Б. 76.
[16] Хоразм вилояти Соғлиқни сақлаш бошқармаси жорий архив маълумотлари. – Урганч, 2022.

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 141.7:165

ABULHASAN BAXMANYOR GNOSEOLOGIYASI

Ro‘ziyev Maqsud O‘rinovich, Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

GNOSEOLOGY OF ABULHASAN BAKHMANYAR

Ruziev Maksud Urinovich, Bukhara State University independent applicant

ГНОСЕОЛОГИЯ АБУЛЬХАСАНА БАХМАНЬЯРА

Рузиев Максуд Уринович, независимый соискатель Бухарского государственного университета



https://orcid.org/0009-0003-8318-1766
e-mail: maqsudjon1984@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada XI asrning mashhur mutafakkiri va *Sharq peripatetizm maktabining yetakchi namoyandalaridan biri — Abulhasan Bahmaniyor al-Ozarbayjoniy hayoti, ilmiy-falsafiy qarashlari va u yaratgan asarlar tahlil qilinadi. Muallif Bahmaniyor falsafasining asosiy yo‘nalishlari — borliq, idrok, aql, axloq va ilmiy bilish nazariyasiga doir fikrlarini sharhlaydi. Ayniqsa, “Tahsīl”, “Manṭiq”, “Borliq darajalari” kabi asarlarida ifodalangan ontologik va gnoseologik qarashlar chuqur tahlil qilinadi. Bahmaniyor bilish jarayonini hissiy va aqliy bosqichlarga ajratadi, aqlning nazariy va amaliy shakllarini tafsilot bilan yoritadi. Unga ko‘ra, haqiqiy bilim hissiy idrokdan boshlanadi, ammo aql orqali mukammallashadi. Shuningdek, maqolada Bahmaniyor falsafasining mantiqiy asoslari, tafakkur va tushuncha o‘rtasidagi bog‘liqlik, hamda bilim va axloq o‘rtasidagi uzviy aloqaga urg‘u beriladi. Uning ilmiy qarashlari nafaqat o‘z davri, balki keyingi mutafakkirlar — Tusi, Urmaviy va boshqalarga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Maqola Bahmaniyor merosining bugungi yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini ham alohida ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Baxmanyor, At-tahsil, falsafa, mantiq, peripatetizm, aql, ruh, materiya, shakl.*

Abstract: *This article analyzes the life, scientific and philosophical views, and works of the famous 11th-century thinker and one of the leading representatives of the Eastern Peripatetic school - Abulhasan Bahmaniyar al-Azerbaijani. The author comments on the main directions of Bahmaniyya’s philosophy – the theory of being, perception, reason, morality, and scientific knowledge. In particular, ontological and epistemological views expressed in such works as “Tahsil”, “Mantiq”, “Levels of Being” are deeply analyzed. Bahmaniyar divides the process of cognition into sensory and mental stages, and elaborates on the theoretical and practical forms of reason. According to him, true knowledge begins with sensory perception, but is perfected through reason. The article also emphasizes the logical foundations of Bahmaniyya philosophy, the connection between thought and understanding, and the organic connection between knowledge and morality. His scientific views had a great influence not only on his time, but also on later thinkers - Tusi, Urmavi, and others. The article also emphasizes the importance of Bahmaniyar’s legacy in the upbringing of today’s young generation.*

Keywords: *Bahmanyar, At-tahsil, philosophy, logic, peripateticism, intellect, spirit, matter, form.*

Аннотация: *В данной статье анализируется жизнь, научно-философские взгляды и созданные им труды известного мыслителя XI века и одного из ведущих представителей восточной*

перипатетической школы –Абулхасана Бахманиёра аль-Азербайджани. Автор комментирует основные направления философии Бахманиёра – существование, восприятие, разум, мораль и теорию научного познания. Особенно глубоко анализируются онтологические и гносеологические взгляды, выраженные в таких произведениях, как "Tahsil", "Mantiq", "Уровни бытия". Бахманияр делит процесс познания на чувственный и умственный этапы, подробно освещая теоретические и практические формы разума. По его мнению, истинное знание начинается с чувственного восприятия, но совершенствуется посредством разума. В статье также подчеркиваются логические основы философии Бахманияра, связь между мышлением и пониманием, а также неразрывная связь между знанием и моралью. Его научные взгляды оказали большое влияние не только на свое время, но и на последующих мыслителей – Туси, Урмави и других. В статье также подчеркивается важность наследия Бахманияра в воспитании сегодняшнего молодого поколения.

Ключевые слова: *Бахманияр, Ат-Тахсил, философия, логика, перипатетизм, разум, дух, материя, форма.*

Kirish. Mamlakatimizda buyuk allomalarning ilmiy-nazariy merosini falsafiy jihatdan anglash, uni keng targ‘ib etish hamda yosh avlodni fan tarixida yuksak mavqega ega bo‘lgan ajdodlarimizning ezgu an’analari ruhida tarbiyalashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu borada shunday ta’kidlanadi: “Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari bo‘lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O‘zbekiston yoshlari ana shunday yuksak darajalarga ko‘tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz” [1]. Shu jihatdan qaralganda, Abulhasan Baxmanyorning ma’naviy-axloqiy merosida ilgari surilgan axloq, e’tiqod, ma’naviyat, ilm va komil inson tarbiyasiga oid g‘oyalarni ilmiy-nazariy tahlil qilish alohida dolzarblik kasb etadi.

Sharq falsafiy tafakkuri tarixi yetarli darajada o‘rganilmaganligi sababli ayrim tadqiqotchilar o‘rta asrlarda Forobiy, Ibn Sino va Beruniydan boshqa yuksak darajadagi aql-zakovat sohibi bo‘lgan faylasuflar mavjud bo‘lmagan, mazkur davr falsafiy tafakkuri esa faqat ayrim shoir va yozuvchilar ijodida muayyan darajada aks etgan, degan noto‘g‘ri qarashlarni ilgari surganlar. Albatta, shoir va yozuvchilarning ijodida falsafiy, axloqiy, estetik va ijtimoiy g‘oyalarning boyligi inkor etilmaydi. Biroq, yuqorida tilga olingan mutafakkirlardan tashqari, Bahmanyor, Eynalquzot Miyonijiy, Shihobiddin Yahyo Suhravardiy, Sirojiddin Urmaviy, Nosiriddin Tusiy va boshqa yirik faylasuflar ham Sharq falsafiy tafakkuri va uning tarixiy rivojida muhim o‘rin egallab, ushbu ilmiy an’ananing ufqlarini yanada kengaytirganlar.

XI asrda yashab ijod etgan mashhur mutafakkirlardan biri Abulhasan Marzbon o‘g‘li Bahmanyor al-Ozarbayjondir. Bahmanyor Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd qatorida Sharqning to‘rt buyuk faylasufidan biri sifatida e’tirof etiladi. U Sharq peripatizmining yetuk namoyandalaridan biri bo‘lib, ozarbayjon peripatetik falsafiy maktabining asoschisi hisoblanadi.

Bahmanyorning tavallud sanasi aniq ma’lum bo‘lmasa-da, tadqiqotchilar uning buyuk faylasuf Ibn Sino vafotidan 30 yil o‘tib, ya’ni 1066-yilda vafot etganini qayd etadilar [2].

Baxmanyor ijodi yuzasidan bir qator asarlar va ilmiy maqolalar yaratilgan bo‘lsa-da, uning falsafiy dunyoqarashini har tomonlama yoritgan eng salmoqli tadqiqot ozarbayjonlik olim Zokir Mammadovning “Bahmanyor falsafasi” nomli asari hisoblanadi [3].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Bahmanyor falsafaning eng murakkab masalalari ustida izchil izlanishlar olib borgan, umrining katta qismini falsafiy muammolarni hal etish va hikmat sirlarini anglashga bag‘ishlagan mutafakkir sifatida tanilgan [4].Tadqiqot metodologiyasi. Faylasufning “Ta’lim kitobi”, “Mantiq bezaklari kitobi”, “Go‘zallik va baxt kitobi”, “Musiqa kitobi”, “Metafizika fani mavzusiga oid risola” hamda “Mavjudlik darajalari” asarlari muallifga Sharq ilmiy-falsafiy muhitida keng shuhrat keltirib, keyingi davr faylasuflari tafakkuriga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Abul Abbos Lavkariy, Afzaladdin Xunajiy, Nosiriddin Tusiy, Sirojiddin Urmaviy kabi mutafakkirlar Bahmanyor ta’limotining bevosita davomchilari sifatida e’tirof etiladi. Bahmanyorning bizgacha yetib kelgan asarlarini atroflicha tadqiq qilgan olim Zokir Mammadov “Tahsil” asari mutafakkir ijodida alohida mavqega ega ekanini ta’kidlaydi. “Tahsil”

asarining birinchi bo‘limi mavjudlikning asosi bo‘lgan “zarur borliq” (Alloh) va Uning sifatlari sonini anglash masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda zaruriy borliqning modda emasligi, jismiy shaklga ega emasligi va yagona ekanligi asoslab beriladi.

Bahmanyorning “Tahsil” asarida matematika bilan bir qatorda Sharq peripatizmi nazariy falsafasining muhim g‘oyalari mujassam ifoda topgan. Ushbu asar o‘rta asrlar mantiqi, metafizikasi va fizikasi, ya’ni tabiiy fanlar hamda tabiatshunoslikning falsafiy masalalarini o‘rganish nuqtai nazaridan muhim manba hisoblanadi.

Faylasufning “Borliq nazariyasi” borliq va uning tarkibiy qismlari, materiya va shakl, jism hamda uning harakati haqidagi qarashlarga tayanadi. Muallifning ta’kidlashicha, barcha mavjudotlarning asosi eng umumiy ma’nodagi Borliqdir. Bahmanyor butun mavjudotni “zarur” va “imkoniyat” tushunchalari asosida ikki qismga ajratadi. Uning fikricha, zaruriy mavjudot mutlaq, sababga muhtoj bo‘lmagan va zarur mavjudlikdir. Mumkin mavjudlik esa o‘z-o‘zidan mavjud emas, balki mavjud deb faraz qilinadi. Uning mavjudligi yoki mavjud emasligi sababga, aniqrog‘i, oqibatga bog‘liqdir.

Bahmanyorning “Borliq ta’limoti”ni tahlil qilar ekan, uning yetuk tadqiqotchisi Zokir Mammadov ushbu masalada grek va Sharq faylasuflarining qarashlarini qiyosiy tahlil qilib, Bahmanyorning ontologik g‘oyalari bilan, ayniqsa, Sibirotlebning asosiy fikrlari o‘rtasida nihoyatda yaqinlik mavjudligini ko‘rsatadi. Borliq haqidagi muhim masalalarni talqin etishda va izohlashda XI asr ozarbayjon faylasufining noyob g‘oyalari markaziy o‘rin tutadi. Bahmanyorning fikricha, borliqning mantiqiy ta’rifi murakkabligi sababli ko‘pchilik uning mohiyatini tushunishda xatolarga yo‘l qo‘ygan. Unga ko‘ra, ayrim tadqiqotchilar borliqni ta’sir etish yoki ta’sir qilish nuqtai nazaridan baholaganlari uchun masalaning asl mohiyatini ochib bera olmaganlar. Chunki ta’sir qiluvchi va ta’sir etuvchi narsalar borliqning tarkibiy qismlaridir. Mavjudlik esa ta’sir qiluvchi va ta’sir qilinuvchi hodisalarga nisbatan ancha umumiy tushunchadir. Baxmanyor borliqni tavsiflashda “sababsiz borliq”, “birinchi sabab”, “yagona” iboralarini qo‘llab, “Oldinga kelgan ikki narsadan biri sabab, ikkinchisi oqibat” [5], degan xulosaga keladi.

Tahlil va natijalar. Bahmanyor falsafasining muhim asoslaridan biri uning “Idrok nazariyasi”dir. Faylasuf idrok jarayoni ikki bosqich — hissiy va aqliy bosqichlardan iborat ekanini ta’kidlaydi. Bahmanyor idrok etishning hissiy bosqichini ham ikki qismga ajratib, tashqi va ichki sezgilar mavjudligini ko‘rsatadi. Tashqi sezgilarga teginish, ta’m, hid, eshitish va ko‘rish kiradi. Tirik mavjudotlarning hayotiyligi, avvalo, teginish sezgisi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu sezgisiz yashash mumkin emas. Eng kuchli zavq va og‘riqlar aynan teginish hissi orqali yuzaga keladi. Teginish sezgisi orqali issiqlik va sovuqlik, namlik va quruqlik, og‘irlik va yengillik, qattiqlik va yumshoqlik, qo‘pollik va silliqlik kabi sifatlar idrok qilinadi. Bu sezgi yurak va undan tarqaluvchi Ruhga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’m sezgisi tatib ko‘rilayotgan narsa bilan bevosita aloqa jarayonida namoyon bo‘ladi. Hid sezgisi hid organi — burun orqali, eshitish sezgisi esa quloqlar orqali qabul qilinadi. Ko‘rish hissi ko‘z bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘rish orqali narsa va hodisalar idrok etiladi [6].

Faylasuf ichki sezgilar qatoriga sog‘lom fikr, tushunish, tasavvur, xotira va tafakkurni kiritadi. Bu sezgilarning ayrimlari narsalarning shakllarini, boshqalari esa ularning ma’nolarini idrok etadi. Shakllarni idrok etuvchi kuch “Umumiy aql” deb ataladi. Sog‘lom aql tashqi sezgilar orqali idrok etilgan barcha ma’lumotlarni qamrab oluvchi kuch bo‘lib, uning saqlanish markazi xotira hisoblanadi. Tasavvur tasvirni hosil qilsa, xotira esa tasvir bilan birga olingan ma’noni eslab qoladi.

Bahmanyor tashqi va ichki sezgi kuchlarini bir-birini to‘ldiruvchi idrok bosqichlari sifatida baholab, tuyg‘u takrorlansa xotiraga, xotira esa takrorlansa tajribaga aylanishini ko‘rsatadi. Faylasuf bilish shakllarining soddadan murakkabga tomon rivojlanishini izohlar ekan, xotira kuchi idrok va aqlga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Aql va idrokdan oldingi tanadagi barcha kuchlar xotira va tasavvurga, qolgan besh sezgi esa umumiy sezgi tizimiga xizmat qiladi. Tasavvur kuchi hayvon ruhiga, tafakkur kuchi esa inson qalbiga xosdir. Tafakkur kuchi aqliy bilish imkoniyatini ta’minlaydi, ya’ni inson ruhi aqliy bilish qobiliyatiga ega [7].

Intellektual idrok masalasiga to‘xtalar ekan, faylasuf narsalarning real voqeligini idrok etish his va hissiyotlar orqali emasligini asoslaydi. Shu bois, his va tuyg‘ular o‘zgaruvchan tashqi belgilarni qamrab olsa, aql esa narsalarning doimiy bo‘lgan haqiqiy mohiyati va real mavjudligini idrok etadi [8].

Bahmanyor aqlning nazariy va amaliy turlarga bo‘linishini ta’kidlab, biluvchi nafsiy quvvat nazariy aqlni, faol nafsiy quvvat esa amaliy aqlni belgilab berishini ko‘rsatadi. Faylasuf ushbu ikki aql o‘rtasidagi munosabatda nazariy aqlni ustuvor deb hisoblab, nafs uchun eng maqbul holat amaliy aqlning nazariy aqlga bo‘ysunishi va barcha tana kuchlarining aql qonunlari asosida boshqarilishidan iborat ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tana kuchlarini jismoniy qonunlar emas, balki aql qonunlari boshqargan holat eng mukammal holat hisoblanadi [9].

Bahmanyor nazariy aqlning bosqichlarini tahlil qilar ekan, potensial aql, odatiy aql va orttirilgan aql tushunchalarini ajratib ko‘rsatadi. Potensial aql aqliy narsalarni idrok etish uchun sof qobiliyat bo‘lib, u hali amaliy faoliyatga kirishmagan holatni ifodalaydi. Odatiy aql his-tuyg‘ular va sezgilar orqali egallangan tushuncha hamda mulohazalarni anglash qobiliyatidir. Haqiqiy aql esa birlamchi aqliy ma’lumotlar asosida shakllangan ikkilamchi aqliy bilimlarni, ya’ni tushuncha va hukmlarni anglash imkoniyatini beradi. Faylasufning fikricha, orttirilgan aql barcha aqliy narsalarni mukammal darajada idrok etishga qodir bo‘lgan haqiqiy sabab bo‘lib, inson aynan shu darajada aqliy ma’lumotlar haqida ongli va asosli fikr yurita oladi. Hayvon va inson turlari aynan orttirilgan aql bilan farqlanadi va inson bilish jarayonining yakuni aynan shu bosqich bilan belgilanadi [10].

Bahmanyor idrok masalalarini yoritishda fikr, aql va sezgi kabi tushunchalarning mazmuniga alohida e’tibor qaratadi. U tafakkurni aql foydalanadigan kuch sifatida talqin qilib, tafakkur insonning materiyaning boshlanish nuqtasidan yuqori darajalarga tomon harakatini ifodalaydi, deb hisoblaydi. Aql esa bilim olish yo‘lini tayyorlaydigan O‘zlik, ya’ni Ong kuchidir. Aql-idrok sezgi qobiliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, sezgi ma’lumdan noma’lumga o‘tish shakli hisoblanadi. Boshqacha aytganda, sezgi izlanayotgan narsa qisman ma’lum bo‘lganida o‘rta terminni topish va u orqali asosiy terminni aniqlashga yo‘naltirilgan O‘zlik harakatidir.

Baxmanyor falsafiy bilimga axloqiy nuqtai nazardan yondashib, har qanday bilim inson axloqini boyitishi va unda yuksak ma’naviyatni shakllantirishga xizmat qilishi zarurligini ta’kidlaydi. Agar olingan bilim odob-axloqqa xizmat qilmasa, u foydasiz hisoblanadi. Faylasufning fikricha, boylikka hirs qo‘ygan inson ilmga ega bo‘lsa-da, unda hikmat, ya’ni falsafa lazzati bo‘lmaydi. Shu bois Komil Insonda aqliy zavq hissiy ehtiros zavqidan ustun turadi. Haqiqiy zavq — bu intellektual zavq bo‘lib, aqliy lazzatlar salomatlik va shifodir, ularga kasalliklar yaqinlashmaydi. Bahmanyor haqida so‘z yuritgan o‘rta asr faylasuflari uning aqlni barcha moddiy boyliklardan ustun qo‘yganini alohida qayd etadilar: “Boylik muhofaza qilinadi, lekin aql himoya qiladi”. Faylasuf idrok shakllari orqali olingan axborot ong ixtiyoriga berilgach, yangi sifat kasb etishini ta’kidlaydi. Uning ta’limotiga ko‘ra, tuyg‘ular aralash holdagi ma’lumotlarni tasavvurga yetkazadi, tasavvur esa ularni ongga uzatadi. Shundan so‘ng aql ushbu ma’lumotlarni poklaydi, har bir ma’noni alohida ajratib oladi, eng xos va eng umumiy jihatlarni belgilaydi. Dastlab tasavvurga oid, isbotsiz mulohazalar ongda aks etadi, keyinchalik esa aql ular asosida ta’riflar va xulosalar hosil qiladi.

Bahmanyor bilishning aqliy bosqichini hissiy bosqichdan ajratmaydi, aksincha, aqliy bilim aynan hissiy ma’lumotlar asosida shakllanishini ta’kidlaydi. Bu fikrini u quyidagicha ifodalaydi: “Ruh sezgi orqali sezgi obrazlarini idrok qiladi, aqliy obrazlarni esa o‘zida sezgi obrazlari orqali idrok etadi. Demak, hissiy obrazlar orqali idrok qilingan narsa ong orqali idrok qilingan narsaga mos keladi, aks holda inson narsalarning aqliy tomonlarini ularning hissiy tomonlari vositachiligisiz idrok eta olmaydi”.

Kognitiv faoliyatda hissiy va aqliy bosqichlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni izohlar ekan, faylasuf shunday deydi: “Narsalar avvalo seziladi. Bu jarayonda his-tuyg‘u narsaning mavjudligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Keyinchalik sezilgan narsa tasavvurga keltiriladi, bu esa ba’zan narsaning yo‘qolishidan keyin ham sodir bo‘ladi. Ong bilan idrok qilingan narsa his qilingan narsaga mos keladi, chunki aql bilan idrok etilgan narsa hissiyot orqali

o‘zlashtirilgan narsaning umumiy mohiyatiga mos tushadi”.

Bahmanyorning fikricha, ong faqat nazariy bilim berish bilangina cheklanmay, balki hayotiy faoliyatni boshqaruvchi omilga aylanadi. U shunday deydi: “Aql inson chetda va yolg‘iz bo‘lganida u bilan muloqot qiladigan narsadir. Qiyinchilik yuzaga kelsa, qayg‘uni qat’iyat bilan yengib, undan chiqish yo‘lini topish uchun aqlni safarbar etish lozim”.

Bahmanyorning “bilish nazariyasi” uning “mantiq ta’limoti” bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli u “Mantiqiy faylasuf” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Faylasuf “Tahsil” asarining katta qismini aynan mantiq masalalariga bag‘ishlagan.

Bahmanyor mantiqni fanning alohida tarmog‘i sifatida baholab, uning usul ekanini va fan tushunchasiga kirishini asoslaydi. Shu ma’noda mantiqning fanning bir qismi bo‘lishi bilan metod bo‘lishi o‘rtasidagi farq shundaki, biri aniqroq, ikkinchisi esa umumiyroq xususiyatga ega. Muayyan fanning usuli odatda shu fanning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mantiqning predmeti esa birlamchi aqliy tushunchalarga taalluqli bo‘lgan ikkilamchi aqliy ma’lumotlardan iboratdir.

Bahmanyor mantiqni metafizika, tabiatshunoslik, grammatika va she’riyat kabi boshqa nazariy fanlar bilan qiyoslab, ikkilamchi aqliy ma’lumotlar nafaqat metafizikaning, balki mantiqning ham predmeti ekanini ko‘rsatadi. Chunki ikkilamchi aqliy axborot nafaqat mavjudlik va ratsionallikni ifodalashi, balki ma’lumdan noma’lumga o‘tishda vositachi bo‘lgani uchun ham mantiq doirasiga kiradi. Umumiy, xususiy va individual tushunchalarning mohiyatini aniqlash mantiqning vazifasidir, mavjudlikni isbotlash esa, avvalo, falsafaning mavzui hisoblanadi.

Faylasuf mantiqni tabiatshunoslik bilan qiyoslab, tabiatshunoslikda ikkilamchi aqliy bilimning predmeti narsa, ya’ni jism ekanini ta’kidlaydi. Mutlaq narsaning tabiiy fanlarga munosabati ikkilamchi aqliy bilimning mantiqqa munosabati bilan qiyoslanadi. Harakat va o‘zgarishning tabiatshunoslikka munosabati modallikka ega bo‘lgan jins, nasl va turlarning mantiq ilmiga munosabati kabidir.

Bahmanyor mantiqni grammatika va she’riyat bilan solishtirib, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlaydi. Uning fikricha, mantiqning tushuncha va tafakkurga munosabati grammatikaning so‘zga, she’riyatning esa she’rga munosabati kabidir. Biroq, sog‘lom ijod va sog‘lom did grammatika va she’riyatni o‘rganmasdan ham mavjud bo‘lishi mumkin, ammo aqlni to‘g‘ri ishlatish uchun insonning tug‘ma qobiliyati oldindan tayyorlanishi zarur. Noma’lum, keyinchalik fikrlash orqali ma’lum bo‘lgan narsalar ta’rif va mantiqiy xulosa — sillogizm yordamida aniqlanadi. Natijada topilgan narsa yo haqiqat bo‘ladi, yo haqiqatdan tashqarida qoladi, yo yashirin (yolg‘on), yoki haqiqatga o‘xshash bo‘ladi. Insonning tug‘ma qobiliyati esa ko‘pincha bu farqlarni yetarlicha ajrata olmaydi. Aks holda, ulamolar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar va qarama-qarshi qarashlar yuzaga kelmagan bo‘lur edi.

Bahmanyor mantiq fanining vazifasi va ahamiyatini sharhlar ekan, uni nazariy san’at hamda nazariy fan sifatida tavsiflaydi. Faylasufning ta’kidlashicha, mantiq ayrim holatlarda eslatma berish orqali, ba’zan diqqatni jamlash yo‘li bilan, ayrim vaziyatlarda esa xatoga yo‘l qo‘ymaydigan izchil tizimli fan sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, mantiq fikrlarni muayyan tartibga solish orqali o‘rgatiladigan ilm sifatida ham qaraladi. Ibn Sino mantiqni “Tarozi” deb atagan bo‘lsa, Bahmanyor uni “O‘lchov” deb ta’riflaydi va mantiq boshqa bilimlarni baholashda mezon vazifasini bajarishini asoslaydi. Izlanayotgan narsa mantiq bo‘lgan taqdirda, o‘lchov ham ma’lum ma’noda moddiy tus olishi mumkin. Faylasufning fikricha, “Inson faqat his-tuyg‘ulardan kelib chiqqan yoki hislar tasdiqlagan narsagagina ishonadi”, shu bois hissiy idrok orqali berilgan bilimlar ma’lum bo‘lsa-da, nazariy fanlarga oid tushunilmagan qoidalar noma’lumligicha qoladi. Mantiqning asosiy foydasi shundaki, u ma’lum bilimlardan noma’lum xulosalarga o‘tish yo‘llarini ko‘rsatadi va insonni tafakkur xatolaridan asraydi.

Bahmanyor mantiq fanini o‘rgatish jarayonini “Kategoriyalarga kirish”, “Kategoriyalar” hamda “Muddat” (“Muddat”) tushunchalarining mazmunini aniqlashtirish bilan bog‘laydi. “Kategoriyalar”ga oid bo‘limda esa “Sillogizm”, “Tadmin” va “Isbot” tushunchalari keng qamrab olinadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, faylasuf o‘zining “Mantiq” haqidagi qarashlarini izohlar ekan, aqliy fikrlar aqliy nutq orqali namoyon bo‘lishi sababli so‘z va tushuncha o‘rtasidagi munosabatni chuqur anglash zarurligini

ko‘rsatadi. Chunki so‘zlar ongdagi mazmunning moslik va shartlilik asosidagi ifodasidir. Yozuv ham, so‘z ham ongda mavjud bo‘lgan tabiiy hodisa emas, balki shartli belgilardir. Ongdagi tushunchalar esa tashqi olamda mavjud bo‘lgan narsalarning tabiiy aksidir. Shundan kelib chiqib, yozuv so‘zdagi harflarni ifodalovchi shartli belgilar majmui bo‘lsa, so‘zlar ongdagi tushunchalarni ifodalovchi shartli ko‘rsatkichlardir. Ongdagi tushunchalar esa ko‘rinadigan narsalarning ixtiyoriy emas, balki mazmuniy ifodasidir. Demak, tushunchalar yozuv va so‘zlardan farqli ravishda, tashqi dunyodagi real narsalarning aksini tashkil etadi. Ko‘rinadigan narsalar va tushunchalar o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, yozuv va so‘zlar ulardan mohiyatan farq qiladi.

Faylasuf “Tarif” haqidagi qarashlarini bayon qilar ekan, tarif har qanday narsaning mohiyatini ochib beruvchi nutq ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ta’rif salbiy shaklda bo‘lmasligi lozim, chunki borliq o‘z-o‘zidan ayon, yo‘qlik esa faqat borliq orqali anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Al-Bayhaqiy Zohiriddin, Tatimmat. Sauan al-hikma, Lahor, hijriy 1351, Muxammadadaish- s.; Ozarbayjon, Boku 1987.
3. Zokir Mammadov. Bahmanyor falsafasi. Elm uyi nashriyoti, 1993.
4. Rahman, F. Bahmanyar, Abu’l-Hasan Bahmanyar b. al-Marzuban. Encyclopaedia of Islam. Edited by:P. Bearman , Th. Bianquis , C. E. Bosworth , E. van Donzel and W. P. Heinrichs. Brill, 2007.
5. Zakir Məmmədov. Bəhmənyarın fəlsəfəsi. Bakı, 1983. – B. 44.
6. Bahmanyor Abulhasan ibn Marzbon, Kitob at-Tahsil, Tehron 1971, - B. 820.
7. Al-Bayhaqiy Zahiriddin, Tatimmat, Lahor, hijriy. – B. 1351.
8. Bahmanyor Abulhasan ibn Marzbon, Taliqat Ibn Sino, Qohira 1973, - B. 168.
9. А.О.Маковелский. Из истории философии в Азербайджане в XI–XII веках. Труды Сектора философии, т. (VI), Баку, 1960.
10. Nicholas Rescher. The development of Arabic logic. University of Pittsburgh Press, 1964.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 101.1:316.42:364.04

O‘ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Raxmonov Faxriddin Xudarganovich, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Xorazm akademik litseyi Davlat va huquq asoslari fani o‘qituvchisi



https://orcid.org/0000-0002-1478-0330
e-mail: fahriddinrahmanov007@gmail.com

PROSPECTS FOR IMPROVING MECHANISMS FOR THE PROTECTION OF THE RIGHTS OF PERSONS WITH DISABILITIES IN UZBEKISTAN

Rakhmonov Fakhriddin Khudarganovich, Teacher of the subject Fundamentals of State and Law, Academic Lyceum of Khorezm of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ЗАЩИТЫ ПРАВ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УЗБЕКИСТАНЕ

Рахмонов Фахриддин Хударганович, преподаватель дисциплины “Основы государства и права”, Хорезмский академический лицей Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy va ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish masalalari tahlil qilinadi. BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi ratifikatsiya qilinganidan keyingi islohotlar, qonunchilikdagi bo‘shliqlar va xalqaro tajriba asosida tizimni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.*

Tayanch so‘zlar: *nogironlik, huquqiy mexanizm, ijtimoiy model, inklyuziya, universal dizayn, ratifikatsiya, ijtimoiy himoya.*

Abstract: *This article analyzes issues related to strengthening the legal and social protection of the rights of persons with disabilities in Uzbekistan. It examines the reforms implemented following the ratification of the United Nations Convention on the Rights of Persons with Disabilities, identifies gaps in national legislation, and, based on international experience, puts forward scientific and practical proposals for improving the existing system.*

Keywords: *disability, legal mechanism, social model, inclusion, universal design, ratification, social protection.*

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы укрепления правовой и социальной защиты лиц с инвалидностью в Узбекистане. Рассматриваются реформы, осуществлённые после ратификации Конвенции ООН о правах инвалидов, выявляются пробелы в национальном законодательстве, а также на основе международного опыта выдвигаются научно-практические предложения по совершенствованию существующей системы.*

Ключевые слова: *инвалидность, правовой механизм, социальная модель, инклюзия, универсальный дизайн, ратификация, социальная защита.*

KIRISH. Nogironlik tushunchasi – bu shaxsning jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor funksiyalaridagi barqaror buzilishlar tufayli uning kundalik hayot faoliyati, mehnat qilish, o‘qish va jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etish imkoniyatlari cheklanishi holatidir.

Ilmiy va huquqiy yondashuvlarda nogironlik faqat kasallik yoki nuqson sifatida emas, balki shaxs va muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat natijasi sifatida talqin qilinadi. Ya’ni, shaxsdagi funksional cheklovlar atrof-muhitdagi to‘siqlar (moslashmagan infratuzilma, ijtimoiy stereotiplar, axborotga kirish imkonining cheklanganligi) bilan uyg‘unlashganda nogironlik yuzaga keladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining tamoyillariga ko‘ra, barcha insonlar qadr-qimmati va huquqlari bo‘yicha teng bo‘lib tug‘iladilar. Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 15 foizini nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkil etadi. O‘zbekistonda ham bu toifa vakillarining jamiyatga integratsiyalashuvi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. 2021-yil 7-iyunda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasining ratifikatsiya qilinishi bu boradagi huquqiy islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu hujjatda “O‘zbekiston Respublikasi nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘z hayotining barcha sohalarida boshqalar bilan teng ravishda huquq layoqatiga ega ekanligini tan oladi”[1], deb belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy himoyasi shakllanishi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari alohida moddalarda mustahkamlab qo‘yildi. Xususan, davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot sifatini yaxshilash, ularga jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57 - moddasida “Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta’lim olishiga ko‘maklashadi, ularga zarur bo‘lgan axborotni to‘sqinliksiz olish imkoniyatini ta’minlaydi”[2].

Shuningdek, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun esa tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o‘tishning huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu Qonunning 5-moddasida “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish nogironligi bo‘lgan shaxslarning va ular oilalarining huquq va erkinliklarini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda himoya qilish hamda amalga oshirish kafolatlarini belgilash orqali ta’minlanadi”[3].

MUHOKAMA VA MUAMMOLAR TAHLILI. Bugungi kunda nogironlikka ijtimoiy model asosida yondashiladi. Ushbu modelga ko‘ra, jamiyat sharoitlarini moslashtirish, teng imkoniyatlar yaratish va kamsitishlarni bartaraf etish nogironligi bo‘lgan shaxslarning to‘laqonli hayot kechirishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, amaliyotda bir qator to‘siqlar saqlanib qolmoqda:

1)Jamoat binolari va transport vositalarining 80% dan ortig‘i hali ham nogironligi bo‘lgan shaxslar ehtiyojlariga moslashtirilmagan. 2)Korxonalarda 3 foizli ish o‘rinlarini band qilish kvotasi qog‘ozda qolib ketmoqda. Ish beruvchilar nogironligi bor shaxslarni ishga olishdan ko‘ra, jarima to‘lashni afzal ko‘rishmoqda. 3)Davlat xizmatlari va veb-saytlarning ko‘rish yoki eshitish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun moslashtirilmagani ularning axborot olish huquqini cheklamoqda.

Rivojlangan davlatlar (Germaniya, Norvegiya, Yaponiya) tajribasi shuni ko‘rsatadiki, samarali himoya mexanizmi faqatgina nafaqa berish bilan cheklanmaydi. Masalan, Germaniyada “Ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi shaxsiy assistent” tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu nogironligi bor shaxsga mustaqil hayot kechirish imkonini beradi. O‘zbekistonda ham ijtimoiy xodimlar institutini aynan “shaxsiy assistentlik” darajasiga ko‘tarish zarurati mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonining II. Nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishida:

[1] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.06.2021 yildagi O‘RQ-695-son. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

[3] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.10.2020 yildagi O‘RQ-641-son. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”.

nogironlikni baholash va aniqlashning tibbiy modelidan ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tishni ta’minlash; nogironligi bo‘lgan shaxslarni yuqori sifatli protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiyaning texnik vositalari bilan ta’minlash; nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya va abilitatsiya qilish sohasini rivojlantirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish; jamiyatda ijtimoiy moslashuv va integratsiya uchun sharoit yaratish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlashga ko‘maklashish, inklyuzivlikning ta’minlanishini muvofiqlashtirish hamda ularga qulay muhit shakllantirilganligini nazorat qilish; ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan jamiyat ongida sog‘lom fikrni shakllantirish; nogironligi bo‘lgan shaxslarning mustaqil hayot kechirishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularga uy sharoitida ijtimoiy xizmatlarini tashkil qilish; nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlaydigan ixtisoslashtirilgan internat, ta’lim muassasalari va reabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish[4] kabi masalalar belgilab olindi. Bu esa, Nogironligi bo‘lgan shaxslarning qadr-qimmati himoya qilinishi, ularning mustaqilligi ta’minlanishi, tanlash erkinligi hurmat qilinishi va ularga ijtimoiy xizmatlarni yetarli darajada ko‘rsatish ta’minlanganligini ko‘rsatadi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR. Tahlillar asosida quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

1. Ijtimoiy modelni to‘liq joriy etish: Nogironlikni aniqlashda faqat tibbiy diagnoz emas, balki shaxsning jamiyatda mustaqil harakatlanishiga xalaqit berayotgan ijtimoiy va texnik to‘siqlarni baholash tizimiga o‘tish.
2. “To‘siqsiz muhit” nazoratini kuchaytirish: qurilish sohasidagi inspeksiyalarga nogironligi bo‘lgan shaxslar vakillarini kiritish va bino foydalanishga topshirilayotganida ularning roziligini majburiy qilish.
3. Soliq preferensiyalari: ish beruvchilarni majburlash (kvota) emas, balki rag‘batlantirish mexanizmi orqali jalb qilish. Masalan, nogironligi bor xodimning ish haqidan olinadigan daromad solig‘ini nolga tushirish.
4. Inklyuziv ta’lim monitoringi: maktab va oliygohlarda faqat binoning qulayligi emas, balki o‘quv dasturlarining (Brail yozuvi, imo-ishora tili) mavjudligini ta’minlash. Ushbu masalaning huquqiy asoslari “Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi”[5].

XULOSA. Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish – bu shunchaki insonparvarlik yordami emas, balki davlatning huquqiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi majburiyatidir. Taklif etilayotgan “Ijtimoiy assistentlik”, “Universal dizayn” va ‘Soliq imtiyozlari” mexanizmlari O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirish bilan birga, yuz minglab fuqarolarning jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.06.2021 yildagi O‘RQ-695-son. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.10.2020 yildagi O‘RQ-641-son. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, Ta’lim to‘g‘risida. 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida.
6. Xalqaro ekspertlarning ijtimoiy inklyuziya bo‘yicha hisobotlari va statistik to‘plamlar.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida.

[5] O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, Ta’lim to‘g‘risida. 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son.

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 1(091):28-1:17

IBN MISKAVAYX SHAXSIYATI VA ILMIY MEROSI

Xodjayeva Fotima Nabixonovna, Buxoro davlat universiteti "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasi dotsenti

IBN MISKAVAYKH PERSONALITY AND SCIENTIFIC HERITAGE

Xodjayeva Fotima Nabixonovna, Associate Professor, Department of Social and Political Sciences Bukhara State University

ЛИЧНОСТЬ И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ ИБН МИСКАВЕЙХА

Ходжаева Фотима Набихоновна, доцент кафедры общественно-политических наук, Бухарский государственный университет



https://orcid.org/0000-0001-6437-9898
e-mail: f.xodjayeva.bsu@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ibn Miskavayx (932–1030) islom falsafasi va axloq ilmi tarixida o'zining chuqur ilmiy merosi bilan alohida o'rin egallagan allomaning shaxsiyati va ilmiy merosi tahlil etiladi. Maqolada Ibn Miskavayx Sharqda "axloq falsafasining otasi" sifatida tanilganligi, uning ko'p qirrali faoliyati – faylasuf, tarixchi, tabib va kimyogar sifatidagi o'rni yoritiladi. Uning eng mashhur asari "Tahzib al-Axloq" bo'lib, unda inson axloqi, ruhiy kamolot, adolat, do'stlik va jamiyat taraqqiyotida axloqiy qadriyatlarning o'rni yoritiladi. Maqola olimning ilm-fanga qo'shgan hissasi va musulmon axloq falsafasi rivojiga tutgan o'rni haqida chuqur tasavvur beradi.*

Kalit so'zlar: *"Uchinchi Muallim", "al-Hazin", axloqshunos, adolat, ilmiy meros, axloq falsafasi, ta'lim.*

Annotation: *This article analyzes the personality and scholarly legacy of Ibn Miskawayh (932–1030), a distinguished scholar who occupies a special place in the history of Islamic philosophy and ethics due to his profound intellectual contributions. The article highlights that Ibn Miskawayh is recognized in the East as the "Father of ethical philosophy" and sheds light on his multifaceted activities as a philosopher, historian, physician, and chemist. His most famous work, Tahdhib al-Akhlaq, discusses human morality, spiritual perfection, justice, friendship, and the role of ethical values in the progress of society. The article provides a deep insight into the scholar's contribution to science and his significance in the development of Muslim ethical philosophy.*

Keywords*: "Third Teacher", "al-Hazin", ethicist, justice, scientific legacy, moral philosophy, education.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается личность и научное наследие Ибн Мискавейха (932–1030), который занимает особое место в истории исламской философии и науки об этике благодаря своему глубокому научному вкладу. В статье подчеркивается, что Ибн Мискавейх на Востоке известен как "отец философии этики", а также освещается его многогранная деятельность – как философа, историка, врача и алхимика. Его наиболее известный труд "Тахзиб аль-Ахлок", в котором раскрываются вопросы человеческой нравственности, духовного совершенствования, справедливости, дружбы и роли нравственных ценностей в развитии общества. Статья дает глубокое представление о вкладе ученого в науку и о его значении в развитии мусульманской философии этики.*

Ключевые слова: *"Третий Учитель", "аль-Хазин", этика, справедливость, научное наследие, философия этики, образование.*

KIRISH. Insoniyat tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklar tizimida falsafa tarixi doirasida jamlangan hikmatlar xazinasi, buyuk mutafakkirlar merosi va ularning ilmiy asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, axloq falsafasi tarixida chuqur iz qoldirgan musulmon olami vakillari orasida Ibn Miskavayxning o‘rni beqiyosdir (932–1030). U o‘zining serqirra ilmiy faoliyati va boy hayotiy tajribasi orqali Sharq va G‘arb falsafiy tafakkurining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan, g‘oyaviy-mafkuraviy, siyosiy, madaniy hamda axloqiy qarashlarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Abu Ali Ahmad ibn Muhammad ibn Yo‘qub ibn Miskavayx X–XI asrlarda yashab ijod qilgan mashhur arabnavis tarixchi, yozuvchi, mutafakkir, faylasuf, adib va tabiblardan biridir. Uning asarlari asosan arab tilida bitilgan bo‘lib, tarix, falsafa, axloq, tib va kimyo kabi fan sohalarini qamrab oladi. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha u ko‘plab ilmiy asarlar yaratgan [1]. Abu Ali Ahmad ibn Muhammad ibn Ya’qub Miskavayx islom falsafiy tafakkuri tarixida ko‘pincha “Uchinchi Muallim” nomi bilan e’tirof etiladi. Uni “axloq falsafasini ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganishga yondashgan birinchi musulmon mutafakkir” sifatida baholashadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Mazkur maqolada Ibn Miskavayx shaxsiyati va uning ilmiy merosini tadqiq etishda ilmiy bilishning analiz va sintez usullari, retrospektiv va qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik hamda sinergetik yondashuvlardan foydalanildi. Ushbu metodlar asosida olimning hayoti va ko‘p qirrali faoliyati faylasuf, tarixchi, tabib va kimyogar sifatida chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, uning “Tahzib al-Axloq”, “Kitob tajorib ul-uman” asarlari hamda axloq falsafasi rivojiga qo‘shgan hissasi keng yoritildi. Qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotel qarashlari bilan qiyosiy solishtirish orqali Ibn Miskavayxning “Uchinchi Muallim” sifatidagi maqomi, adolat turlari va axloqiy qarashlari retrospektiv hamda dialektik yondashuv asosida tahlil etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ibn Miskavayxning hayoti uzoq davom etgan va ijodiy jihatdan sermahsul bo‘lgan. U hozirgi Tehron shahri yaqinidagi Ray shahrida tug‘ilgan. Uning tug‘ilgan sanasi borasida turli manbalarda xilma-xil ma’lumotlar uchraydi. Biroq shartli ravishda hijriy 320-yil, ya’ni milodiy 932-yil uning tug‘ilgan yili sifatida qabul qilinadi. Olimning vafot sanasi esa aniq bo‘lib, hijriy 421-yilda (milodiy 1031-yil) safar oyining 9-kunida vafot etgan. Shunga ko‘ra, u taxminan 91 yoki 101 yil umr ko‘rgan.

Ibn Miskavayx yoshlik davridan boshlab hayotining deyarli oxirigacha Buvayhiylar sulolasi vazirlari al-Muhallabiy, Ibn al-Amid, Adud ad-Davla va Samsam ad-Davla xizmatida kotib hamda kutubxonachi sifatida faoliyat yuritgan. Mu’izz ad-Davla, al-Muhallabiy va Adud ad-Davla huzuridagi xizmat davrlari asosan Bag‘dod shahrida kechgan. U yoshlik chog‘idanoq o‘z zamonasining madaniy asosini tashkil etuvchi bir qator fanlarni chuqur o‘rganishga kirishgan. Bu fanlar sirasiga adabiyot, tibbiyot, alximiya (kimyo) va tarix kiradi.

Ibn Miskavayx umrining katta qismini Rukniddavla, Aduddavla va Baqoiddavla kabi Buvayhiy (Daylamiy) shohlar hamda amirlar saroyida o‘tkazgan. U Rukniddavlaning dono vaziri Ibn al-Amidga yaqin bo‘lib, aynan shu vazir tomonidan tashkil etilgan yirik kutubxonada faoliyat olib borgan. Shu sababli uni “xoziyn” (xazinador) deb atashgan [2].

“Miskavayx” nomi arab tilidagi “misk” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “mushk”, ya’ni xushbo‘y hid tarqatuvchi ma’nosini anglatadi. Mushk arab davlatlarida mo‘tabar modda hisoblangan va o‘zining nafis xususiyatlari bilan mashhur bo‘lgan. Shu bois o‘sha davrda arab mamlakatlarida boshqalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, oliyjanob va o‘qimishli kishilarni shunday nom bilan atash odat tusiga kirgan. Ibn Miskavayx, shuningdek, “al-Xazin” (ya’ni kutubxonachi yoki kitoblarni saqlovchi) nomi bilan ham tanilgan bo‘lib, bu uning xazin (kitoblar saqlovchisi) lavozimida ishlaganidan dalolat beradi.

Biroq faylasufga nisbatan eng katta e’tibor uyg‘otadigan unvon uning “al-Mu’allim as-salis” (“Uchinchi muallim”) deb atalishidir. Ushbu yuksak nom Ibn Miskavayxning arab-musulmon falsafasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasining yorqin ifodasidir. Ma’lumki, musulmon tafakkurida Aristotel “al-Mu’allim al-Avval” (“Birinchi Muallim”) sifatida ulug‘lanadi. Al-Farobiy (taxminan 873–950) esa Aristotelning falsafiy asarlarini chuqur o‘rgangani bois “al-Mu’allim as-saniy” (“Ikkinchi muallim”) degan sharafli nomga sazovor bo‘lgan. Biroq Al-Farobiy Aristotel axloqiy

ta’limotini maxsus va tizimli tarzda tadqiq qilmagan. Aynan Ibn Miskavayx Arastu tomonidan yetarlicha yoritilmagan axloq masalalarini izchil ilmiy tahlil obyektiga aylantirgan.

Ibn Miskavayx falsafani chuqur o‘rganish bilan bir qatorda tarix faniga ham alohida e’tibor qaratgan. U, ayniqsa, at-Tabariyning tarixiy asarlarini hamda Abu Bakr ibn Kamil al-Qoziyning “Nasl” nomli asarini sinchkovlik bilan o‘rgangan. Falsafani esa mashhur faylasuflardan biri bo‘lgan Ibn al-Xammardan ta’lim olgan. Shu bilan birga, u nafaqat faylasuf, balki tabib, tarixchi va kimyogar sifatida ham tanilgan. Ibnu Hasan o‘zining “al-Anta” nomli asarida Ibn Miskavayxning ilmiy buyukligini quyidagicha ta’riflaydi: “Ibn Miskavayx — boylar orasida faqir va payg‘ambarlar orasida boy kishidir.” Ushbu ta’rif uning ilmiy-ma’naviy maqomini yuksak darajada ifodalaydi [3].

Ibn Miskavayx tomonidan yozilgan “Kitob tajorib ul-uman” (Xalqlarning tajribalari haqida kitob) asari muhim tarixiy manba hisoblanadi. Ushbu asar olti jilddan iborat bo‘lib, musulmon mamlakatlarining qadimgi davrlardan 983-yilgacha bo‘lgan tarixini qamrab oladi. “Kitob ul-uman”ning I–IV jildlari kompilyativ xarakterga ega bo‘lib, avvalgi tarixchilarning, asosan at-Tabariyning asarlari asosida yozilgan. V–VI jildlari esa asl nusxa bo‘lib, IX asr tarixiga doir eng muhim manbalardan sanaladi. Ushbu qismlarni yaratishda muallif rasmiy hujjatlardan keng foydalangan. “Kitob tajorib ul-uman” asarining Amedroz va Margolius (1920–1921 yy.) hamda Kaetani (1909–1917 yy.) tomonidan amalga oshirilgan ikki to‘liq nashri mavjud [4].

“Kitob tajoribil-umam” asarida jahon xalqlari, jumladan, arablarning X asrning 80-yillarigacha bo‘lgan tarixi bayon etilgan bo‘lib, asarning so‘nggi qismida arab xalifaligining X asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Ibn Miskavayx arab, fors, hind va yunon donishmandlari tomonidan aytilgan hikmatlar to‘plamini ham tuzgan. Qadimgi manbalarda qayd etilishicha, uning dorishunoslikka, ya’ni giyohlardan tayyorlanadigan dori vositalariga oid asarlari ham mavjud bo‘lgan. Miskavayx o‘zining yirik asarlaridan biri sanalgan “Al-fuzul asg’ar” kitobida yangi aflatuncha hikmat namunalarini keltiradi. Mazkur asar vaqt jihatidan Ibn Sinoning “Najot” asaridan oldin yozilganligi bilan ham e’tiborga loyiqdir [5].

“Risala fi maḥiyyat al-adl” (“Adolatning mohiyati haqida risola”) asarining yozilishiga bevosita sabab Miskavayxning zamondoshi va yaqin do‘sti bo‘lgan faylasuf, huquqshunos hamda sofiya Abu Hayyon at-Tavhidiyning adolatsizlik masalasiga oid savolni o‘z ichiga olgan maktubi bo‘lgan. Ushbu savol Miskavayxni adolat mohiyatini chuqur falsafiy tahlil qilishga undagan.

Miskavayx tomonidan mazkur savolga yozilgan javob keyinchalik uning “ash-Shavamil” nomli (hozirgacha yetib kelmagan) asaridan alohida risola sifatida ajratilgan. “ash-Shavamil” asari esa at-Tavhidiyning “al-Havamil” nomli kitobiga javoban yozilgan bo‘lib, unda falsafiy, filologik va huquqiy mazmundagi 175 ta savol va javob jamlangan. Miskavayx risolasining asosiy maqsadi adolatning mohiyatini tushuntirish, uning turlarini aniqlash va tavsiflashdan iborat ekanini ta’kidlaydi. U adolatni quyidagi turlarga ajratadi: tabiiy adolat; shartli (nizomiy) adolat; erkin ixtiyor bilan bog‘liq adolat; ilohiy (ma’naviy) adolat.

Mazkur “Risola” uchun asosiy manbalar sifatida Platonning “Davlat” asari, Aristotelning “Kategoriyalar” va “Nikomax axloqi”, shuningdek, Plotinning “Enneadalar” asarlari xizmat qilgan [6]. Qadimgi yunon mutafakkirlarining mazkur asarlari Miskavayxning adolat haqidagi qarashlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgani uning falsafiy mulohazalarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ibn Miskavayx asarlarining ta’siri ostida islom olamida o‘nlab axloqiy-didaktik asarlar yaratilgan bo‘lib, ular keyingi avlod olimlari tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Xoja Nasriddin Tusiy o‘zining “Axloqiy Nasriy” asarini aynan “Tahzib ul-axloq”ga tayanib yozgan. Imom Muhammad G‘azzoliy ham Ibn Miskavayxning axloqiy ta’limotidan keng foydalangan. “Tahzib al-axloq” asari axloqiy adabiyotda alohida mavqega ega. Arab-musulmon falsafasi tarixining yetuk tadqiqotchilaridan biri bo‘lgan Majid Faxri ta’kidlashicha, “Miskavayxning axloqiy nazariyaga qo‘shgan eng muhim hissasi bu arab tilida yozilgan kam sonli tizimli axloqiy risolalardan biri — “Tahzib al-axloq” asarining yaratilganidadir”.

Mazkur asar yunon falsafiy-axloqiy an’analariga asoslangan bo‘lib, unda yaxshilik, baxt-saodat, adolat, muhabbat va do‘stlik kabi muhim masalalar yoritiladi. Xususan, adolat haqida Miskavayx quyidagicha fikr bildiradi: “Adolat — maqsadlar bilan imkoniyatlar orasidagi vosita

bo‘lib, u fazilatlarning eng mukammali va birlikka eng yaqinidir” [7]. Bundan tashqari, “Tahzib ul-axloq” asarida uning fikricha, “Rahbar raisning fazilati odamlarni rozi qilish, ularga g‘amxo‘rlik qilish, mehribonlik ko‘rsata olish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Bu axloqlilikdir. O‘zgalarning hayotini yaxshilash, ularga hamdard bo‘lish rais axloqini belgilaydi” [5.425].

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, Ibn Miskavayx o‘z davrining yirik va serqirra mutafakkirlaridan biri bo‘lgan. U nafaqat falsafa, balki tarix, tibbiyot va kimyo sohalarida ham chuqur bilimga ega bo‘lgan ziyoli sifatida tanilgan. Ayniqsa, uning “Tahzib al-Akhloq” asari orqali musulmon axloq falsafasiga qo‘shgan hissasi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. U Platon va Aristotel kabi yunon faylasuflarining g‘oyalarini islomiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘ziga xos axloqiy tizimni shakllantirgan. Ibn Miskavayxning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, uning qarashlari zamonaviy axloqiy, falsafiy va ijtimoiy muammolarni tahlil etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xo‘ja Nosiriddin Tusiy. *Axloqi Nosiriy*. — Buxoro, 2022. — 308 bet.
2. Sulaymonova Sh.N. Ibn Miskavayxning Sharq falsafiy tafakkuridagi o‘rni // *“XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali*. — № 1, 2024. — 68–75-betlar.
3. Fakhry M. *A History of Islamic Philosophy*. — Semarang, 2018. — 35 p.
4. Ahmedov B. *O‘zbekiston tarixi manbalari*. — Toshkent, 2001. — 130–131-betlar.
5. Nazarov Q. *Jahon falsafasi qomusi*. 1-jild. — Toshkent, 2023. — 424–425-betlar.
6. Гусейнова З.И. Трактат о природе справедливости. Перевод и комментарий // *Историко-философский ежегодник–98*. — Москва: Наука, 2000. — С. 286–287.
7. Miskawayh. *The Refinement of Character*. — Beirut, 1968. — 100 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 10.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.2)

TURKISTON JADIDLARINING XOTIN-QIZLAR MA'RIFATI VA IJTIMOIY FAOLLIGI HAQIDAGI QARASHLARI (MATBUOT VA AMALIY TASHABBUSLAR MISOLIDA)

Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o'g'li, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita Bosh mutaxassisi



https://orcid.org/0009-0005-6647-7172
e-mail: xxmao1993@gmail.com

THE VIEWS OF TURKESTAN JADIDS ON WOMEN'S ENLIGHTENMENT AND SOCIAL ACTIVISM (BASED ON THE PRESS AND PRACTICAL INITIATIVES)

Khabibullo Khoji Muhammadyusuf Alisher o'g'li, Chief Specialist, Committee on Religious Affairs of the Republic of Uzbekistan

ВЗГЛЯДЫ ТУРКЕСТАНСКИХ ДЖАДИДОВ НА ПРОСВЕЩЕНИЕ ЖЕНЩИН И ИХ СОЦИАЛЬНУЮ АКТИВНОСТЬ (НА ПРИМЕРЕ ПЕЧАТИ И ПРАКТИЧЕСКИХ ИНИЦИАТИВ)

Хабибулло Хожи Мухаммадюсуф Алишер оглы, Главный специалист Комитета по делам религий Республики Узбекистан

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Turkiston jadidlarining xotin-qizlar ma'rifati va ijtimoiy faolligi haqidagi qarashlari matbuot va amaliy tashabbuslar misolida tahlil qilinadi. 1917-yilgi Oktyabr to'ntarishigacha shakllangan "Sharq ayoli" haqidagi stereotiplar tanqidiy ko'rib chiqilib, Turkistonda ayollarning huquqiy-ijtimoiy holati "mutlaq huquqsizlik" tarzida soddalashtirib talqin etilishi tarixiy manzarani to'liq bermasligi asoslanadi. Tadqiqotda xotin-qizlar masalasining ommaviy muhokamaga chiqishida "Туркестанские ведомости" hamda "Turkiston viloyatining gazeti" kabi nashrlar, shuningdek "Sadoi Turkiston" sahifalaridagi diskurs o'rni yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Turkiston jadidlari, xotin-qizlar ma'rifati, ijtimoiy faollik, jadid matbuoti, qizlar ta'limi, ayollar huquqlari.*

Abstract: *This article analyzes the views of the Turkestan Jadids on women's enlightenment and social activism through examples from the press and practical initiatives. Stereotypes about the "Eastern woman" that had formed prior to the October Revolution of 1917 are critically reviewed, and it is argued that portraying the legal and socio-social status of women in Turkestan as "absolute rightlessness" oversimplifies and does not fully reflect the historical reality. The study highlights the role of such publications as Turkestanskiye vedomosti and Turkiston viloyatining gazeti, as well as the discourse developed on the pages of Sadoi Turkiston, in bringing the women's issue into broad public debate.*

Keywords: *Turkestan Jadids, women's enlightenment, social activism, Jadid press, girls' education, women's rights.*

Аннотация: *В статье анализируются взгляды туркестанских джадидов на просвещение женщин и их социальную активность на примере печати и практических инициатив. Критически рассматриваются стереотипы об «восточной женщине», сформировавшиеся до Октябрьской революции 1917 года; обосновывается, что упрощённая трактовка правового и социального положения женщин в Туркестане как «абсолютного бесправия» не даёт полного представления об исторической картине. В исследовании раскрывается роль таких изданий, как "Туркестанские*

ведомости” и “Туркистон вилоятининг газети”, а также дискурса на страницах “Садои Туркистон” в выведении женского вопроса в плоскость широкой общественной дискуссии.

Ключевые слова: *туркестанские джадиды, просвещение женщин, социальная активность, джадидская печать, образование девочек, права женщин.*

KIRISH. 1917-yilgi Oktyabr to‘ntarishigacha bo‘lgan davrda Turkiston xotin-qizlariga doir hukmron qarashlar ularni jamiyat hayotidan deyarli chetda qolgan, asosan oilaviy muhit bilan chegaralangan, eriga iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qaram hamda huquqlari keskin cheklangan qatlam sifatida tasvirlagan. Ushbu stereotiplarning shakllanishida “islom dunyosiga mansublik” omili ko‘pincha asosiy sabab sifatida ilgari surilib, “Sharq ayoli” obrazi G‘arb dunyoqarashi mezonlari orqali baholangan. Aslida esa bunday yondashuvlar ko‘p hollarda Yevropa madaniy muhitining musulmon an’ana va qadriyatlarini o‘z tasavvurlari doirasida talqin qilishi natijasida yuzaga kelgan. Shu bilan birga, muayyan tarixiy bosqichlarda G‘arb jamiyatlarining o‘zida ham ayollarning erkaklarga nisbatan iqtisodiy va huquqiy jihatdan tobeligi to‘liq bartaraf etilmaganini ham inobatga olish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mazkur mavzu Turkistonda ayollar ta’limi masalasiga bag‘ishlanganligi sababli, uning o‘rganilganlik darajasi jadidchilik harakati faoliyati, ta’lim sohasidagi dastlabki islohotlar hamda xotin-qizlar muammosining tarixshunosligi doirasida tahlil qilindi. Mavjud adabiyotlar shartli ravishda uch asosiy guruhga ajratildi.

Birinchi guruhni sovet davri tadqiqotlari tashkil etib, ularda ayollar savodxonligi va ijtimoiy faolligi kommunistik mafkura hamda sinfiy yondashuv asosida talqin qilingan. A. Smirnova, S.O. Begmatova, X. Yakubova, X. Sulaymonova asarlarida sovet siyosati ko‘pincha “yutuq” sifatida baholanadi.

Ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar kiradi. Ushbu ishlarda xotin-qizlar masalasi sovet davri merosini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish va milliy modernizatsiya jarayonlari kontekstida nisbatan xolisroq yoritilgan. D. Alimova, R. Murtazoyeva, Ya. Abdullayevaning ilmiy izlanishlari bu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi guruh xorijiy tadqiqotlardan iborat bo‘lib, ularda Turkiston ayollarining ijtimoiy ahvoli, sovet modernizatsiyasining urf-odatlar bilan ziddiyatlari hamda amalga oshirilgan islohotlarning ijtimoiy oqibatlari turli metodologik yondashuvlar asosida tahlil etilgan (A.L. Strong, L. Fischer, B. Jancar, R. Broda, A. Bennigsen, L.K. Shantal, A. Alleg va boshqalar).

Tadqiqot jarayonida tarixiylik va haqqoniylik tamoyillariga tayangan holda tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, tizimli tahlil, og‘zaki tarix hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA. Mazkur masalani keng jamoatchilik muhokamasiga olib chiqqan dastlabki nashrlardan biri sifatida “Turkestanskiye vedomosti” gazetasi alohida e’tirof etiladi. Jumladan, 1875-yilda ushbu nashrda P. Mayevning “O‘rta Osiyo xotin-qizlarining huquqlari” mavzusidagi maqolasi chop etilgan. Muallif mazkur maqolada tashqi jihatdan mahalliy ayollarning ahvoli ancha cheklangandek ko‘rinsa-da, Qur’onda ayollarga oid huquqiy kafolatlar muhim o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Jumladan, ayollar “qul” maqomida talqin qilinmaganligi, ajrashish masalasida ma’lum huquqlarga egaligi, meros olish imkoniyati tan olingani hamda ayrim holatlarda nikohsiz tug‘ilgan farzandlarning ham merosdan ulush olish huquqi tilga olinadi[1].

Shuningdek, O‘rta Osiyoda uzoq vaqt istiqomat qilgan va mahalliy hayot tarzini chuqur o‘rgangan, hatto bir qizni asrab olgan rus etnograflari V. Nalivkin va M.Nalivkinlar ham musulmon ayollarining huquqlari shariat va urf-odatlar asosida mustahkam himoyalanganini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, Turkiston hududida erkaklarning ayollarga zulmi G‘arb mamlakatlaridagi holatlarga qaraganda ancha kam bo‘lgan, ayrim hollarda esa ayollar ko‘proq huquqiy va iqtisodiy erkinliklarga ega bo‘lgan[2].

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston ziyolilari tasavvurida modernizatsiya dasturining eng muhim yo‘nalishlaridan biri xotin-qizlar savodxonligini oshirish, ularni zamonaviy ta’lim tizimiga jalb etish hamda ijtimoiy hayotda faol subyekt sifatida shakllantirish masalasi bo‘lib maydonga chiqdi. Shu ehtiyoj fonida “eskicha usul”ning cheklangan imkoniyatlaridan voz kechib, ta’lim jarayonida yangi metodik yondashuvlarni — xususan, yevropacha o‘qitish tartiblarini joriy etish talabining kuchaygani kuzatiladi.

[1] Права среднеазиатской женщины //Туркестанские ведомости. 1875 г. 3 июнь.

[2] Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань: Типография императорского Университета, 1886. – С. 138.

Bu jarayonda Ismoil Gaspirali jadidchilik konsepsiyasi asosida ta’lim islohoti uchun nazariy-amaliy poydevor yaratdi. U zamonaviy pedagogik metodlarni milliy an’analar bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasini ilgari surib, masalani tarixiy-me’yoriy mezonlar orqali asoslashga intildi. Gaspirali Islomning ilk davrida ayolning mavqei yuksak bo‘lganini eslatib, bugungi savodsizlik va huquqsizlik holatini tanqid qilar ekan: “Ilk asrlardagi musulmon ayollari bilan hozirgi ilm-fan va haq-huquqdan mosuvo ayollarni qiyoslab bo‘ladimi?” degan keskin savolni o‘rtaga qo‘yadi[3].

NATIJALAR. Turkiston jadidlari madaniy-ma’rifiy faoliyatni faqat “usuli jadid” maktablari doirasi bilan cheklab qo‘ymadilar. Ular jamoat ongini uyg‘otish, milliy taraqqiyot hamda istiqlol g‘oyalarini shakllantirishni asosiy maqsad qilib, keng qamrovli ma’rifiy dastur ilgari surdilar. Ushbu jarayonda xotin-qizlar masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etdi: jadidlar ayollarning savodxon bo‘lishi, ijtimoiy hayotdagi faolligi va mehnat sohasida erkaklar bilan teng qatnashuvini modernizatsiya jarayonining ajralmas sharti sifatida baholadilar.

Mazkur qarashlar jadid matbuotida, xususan, *“Sadoi Turkiston”* sahifalarida muntazam yoritilib bordi. Unda ayol sha’ni ulug‘lanib, islom huquqiy an’analari ayolni kamsitishdan himoya qilgani, unga muayyan huquq va imkoniyatlar bergani alohida ta’kidlandi. Ayniqsa, “ona savodi” kelajak avlod tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omil ekani qayta-qayta uqtirildi[4].

Bu yo‘nalishda Ismoilbek Gasprinskiyning o‘rni muhim bo‘lib, u “Tarjumon” orqali ta’lim islohoti g‘oyalarini ommalashtirdi va qizlar ta’limini kechiktirib bo‘lmas vazifa sifatida ilgari surdi[5]. Jadid tafakkurida Abdurauf Fitrat ham ayollar savodini “avlod tarbiyasi — millat kelajagi” mantiqiy zanjiri bilan bog‘lab, tarbiyani oddiy maishiy masala emas, balki jamiyatni shakllantiradigan ijtimoiy jarayon sifatida talqin etdi[6].

Jadidlarning adabiy-badiiy hamda publitsistik merosida ayol obrazining o‘ziga xos “normativ ideali” yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, Anbar Otin asarlarida ta’lim olgan, ijtimoiy hayotda obro‘-e’tiborga ega ayol timsoli maqsadli ideal sifatida ilgari suriladi. Abdulla Avloniy esa oilani jamiyatning “mikro modeli” deb talqin qilib, ayol savodxonligi va axloqiy madaniyatini ijtimoiy yangilanishning muhim sharti sifatida asoslaydi. Davr matbuotida, jumladan “Yangi yo‘l” kabi nashrlarda patriarxal qarashlar tanqid ostiga olinib, qizlar ta’limiga to‘sqinlik qilayotgan omillar — erta nikoh, “ilm ortiqcha” degan stereotiplar, shuningdek, otinchilik doirasida diniy savod bilan cheklanish holatlari keng muhokama qilingan.

Amaliy faoliyatda esa jadidlar bu g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga intilib, qizlar maktablarini tashkil etish, aralash sinflar tajribasini joriy etish, imtihonlar hamda jamoatchilik tadbirlari orqali mazkur tashabbuslarni ijtimoiy jihatdan legitimlashtirishga harakat qildilar. Madaniy-ma’rifiy tashabbuslarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida teatr san’ati ham faol qo‘llanildi. Jumladan, “Padarkush” asarining sahnalashtirilishi va undan tushgan mablag‘larning ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirilgani haqida davriy matbuotda maxsus xabarlar e’lon qilingan. Keyinchalik Turon truppasi tajribasida ayolning sahnadagi ishtiroki masalasi ham asta-sekin yechim topa bordi; bu jarayonda Ma’suma Qurbonova kabi ilk aktrisalar timsoli ramziy ahamiyat kasb etdi[7].

Jadidlar talqinida ayol savodxonligi va ijtimoiy faolligi shaxsiy “xotin-qiz masalasi” doirasida emas, balki milliy uyg‘onishning tayanch omili sifatida baholandi. Shu bois Fayzulla Xo‘jayev kabi siyosiy arboblar tenglikni shior darajasida emas, balki ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, mehnatni muhofaza qilish hamda ijtimoiy institutlarni qo‘llab-quvvatlash orqali amalda ta’minlash zarurligini ta’kidladilar. Jadid adabiyotida Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy ayol taqdirini jamiyatning ma’naviy darajasini belgilovchi mezon sifatida talqin qilib, ma’rifatni ayolni “chetga surish” emas, balki uni mas’ul va faol ijtimoiy subyekt sifatida tan olishga eltuvchi yo‘l sifatida ko‘rsatdilar.

Cho‘lpon ijodida ayolning xorlik va muhtojlikka mahkum etilgan og‘ir taqdiri jamiyat e’tiboriga olib chiqilib, ichki isloh, hatto ma’naviy “inqilob”ga da’vat yangraydi. Uning qarashlarida madaniyatli jamiyatning eng muhim belgisi undagi xotin-qizlar turmush darajasi bilan o‘lchanadi. Shu sababli ko‘plab asarlarda ayol qahramonlar markaziy o‘rin egallaydi. Muallif “ertak aytib bergan kampir

[3] Тихонова Н.Е. Исмаил Гаспринский и его протоевразийские идеи. – Санкт- Петербург, 2016. – С. 58.
[4] Фатҳиддинзода З. Ҳуқуқи нисвон. // Садои Туркистон. 1914 йил 10 декабрь.
[5] Шарипов Р. Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. — Т.: Ўқитувчи, 2002. Б. 31.
[6] Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. — Т.: Маънавият, 2000. Б. 5.
[7] Иштрокиюн. 1919 йил 4 июн.

ona”ga bag‘ishlov orqali ayol ovozini badiiy matnda yetakchi maqomga ko‘taradi hamda Zebiniso obrazi vositasida mustamlakachilik davridagi o‘zbek ayolining fojiali qismatini, shu bilan birga inson huquqlari va ozodlik g‘oyalarini ifodalaydi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida ayollar masalasining kun tartibiga chiqishi ijtimoiy taraqqiyotning mantiqiy natijasi bo‘ldi. Sora Muzaffariya xotin-qizlar iste’dodini cheklashga hech kimning haqqi yo‘qligini, ilm olish har ikki jins uchun farz ekanini qat’iy ta’kidlab, sukutni ayb sifatida baholaydi. O.S. Lebedeva esa musulmon ayollarini “qullik qamog‘i”dan ozod etish vaqti kelganini qayd etib, Qur’onda ayol va erkak huquqlarining mutanosibligi aks etganini eslatadi. U Islom dini bilim va tenglikka to‘siq bo‘lmasligini asoslab, “Sharqni asriy uyqudan uyg‘otish” g‘oyasini ilgari suradi.

Dastlab erk va ijtimoiy faollik haqidagi da’vatlar ayol shoiralar ijodida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik Ismoilbek Gasprinskiy ushbu masalani mustaqil ma’rifiy yo‘nalish darajasiga ko‘tardi. Abdurauf Fitrat “Munozara”, “Rahbari najot”, “Oila” risolalarida xotin-qizlar maorifining amaliy yechimlarini izlab, ularni ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida talqin etdi. Abdulla Avloniy esa millatni qoloqlikdan qutqarish uchun ayollarni ilm-fan ne’matlaridan bahramand etish zarurligini qat’iy urg‘ulab, boshqa xalqlarda o‘g‘il va qizlarning baravar ta’lim olayotganini misol sifatida keltiradi. Shu kontekstda Turkiyadagi ta’lim tizimi namuna qilib ko‘rsatilib, o‘g‘il va qizlar uchun fanlar dasturi shakllangani alohida qayd etiladi.

Shu tariqa jadidlar sxolastik tartib, jaholat va xurofotga qarshi qat’iy pozitsiya egallab, ayollar masalasini dadil kun tartibiga olib chiqdilar. Ular yurt taraqqiyoti va istiqlol uchun kurashadigan avlodni tarbiyalashda ayolning o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini, ta’limda teng imkoniyatlar esa taraqqiyotning zarur sharti ekanini asosladilar. Jadid matbuoti, xususan “Sadoi Turkiston”, ushbu masala yuzasidan keng muhokamalar ochib, Turkiston xotin-qizlarini ilm-ma’rifatga da’vat etuvchi publitsistik va badiiy materiallarni muntazam ravishda chop etdi. Zuhriddin Fathiddinzoda, Rauf Muzaffarzoda, Tavallo, Hamza, Nozimaxonim, Laylixonim kabi ziyolilar ayollarning kundalik hayoti, ilm-hunar va jamiyatdagi o‘rni haqida turkum maqolalar bilan bu chaqiriqni faol qo‘llab-quvvatladilar[8].

XIX asr ikkinchi yarmida matbuot sahnasiga chiqib, birinchi ma’rifatparvar ayol sifatida tanilgan Nozimaxonim muhim siyosiy va ijtimoiy mavzularda qalam tebratib, jamiyatdagi tengsizlik va adolatsizlikka qarshi qat’iy pozitsiyani egalladi. U xotin-qizlar jamiyatning yarmi ekani, ammo asoratda qolgani sharoitida haqiqiy tenglikni ta’minlash mumkin emasligini ta’kidlaydi; shu bois ayollarning ozodligi, bilim va ma’rifatga ega bo‘lishiga alohida urg‘u beradi. Uning “Ey, mahkumalar” she’ri bu ruhni yorqin ifodalaydi. Ilg‘or maorifchi Muhammadsharif So‘fizoda esa kelajakda ona bo‘ladigan qobiliyatli qizlar taqdiriga qayg‘urib, ularning ilm olishini orzu qiladi; u “parda va niqob” ustunligi tufayli qizlar savoddan mosuvo qolayotganini achchiq ohangda ko‘rsatadi.

Jadidlar matbuotida Yevropa xalqlarining tez rivojlanishi maktab-maorif ishlarini erkak va ayol uchun baravar tashkil etishga bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Qizlarning ta’lim olishi kelajak avlod tarbiyasida onalarning zimmasidagi yukning og‘irligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ko‘rsatilib, ayolning bola tarbiyasidagi o‘rni alohida uqtiriladi. Farzandlar imonli, fidokor va g‘ayratli bo‘lib voyaga yetishi, jamiyatni halokat va zarar jaridan asrashi doimiy takrorlanadigan orzu va da’vat sifatida ilgari suriladi.

Bolalar tarbiyasiga ko‘proq e’tibor beradigan onalarning ma’rifiy va madaniy saviyasi farzand kamolotiga bevosita ta’sir qilishi qayd etiladi: kelajakda ona bo‘ladigan qizlar yetarli tarbiya olmasa, jamiyat yarim holda qoladi, komillikka erisha olmaydi. Hatto mustamlakachilar manfaatini himoya qiluvchi nashrlarda ham ayollar ovozi eshitilgan — “bizlarni tarbiya qiling, maktab ochib bering, odam qatorida ko‘ring” mazmunidagi murojaatlar e’lon qilingani, ayollar masalasining Turkistonda naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

Jadidlar tarbiyaning boshi onadan boshlanishini qayta-qayta uqtiradilar. Shu murakkab sharoitda ayollarning teng huquqqa ega bo‘lishi va dunyoviy ishlar bilan shug‘ullanishi zaruriyligi ilgari suriladi. Fayzulla Xo‘jayev bu masalaga jiddiy yondashib, qonun oldida teng deb e’tirof etishning o‘zi yetarli emasligini, amalda tenglikka erishish uchun mehnatni muhofaza qilish, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, malaka oshirishga imtiyozlar berish, xalq ta’limiga mablag‘ ajratish hamda ona va bolalar uylarini qurish kabi choralar zarurligini qayd etadi.

[8] Раҳимова Г. Жадидлар ва аёллар масаласи. // Адабий мерос. 1992. № 2 (59).

Shunday qilib, tenglikka erishish yo‘lida jadidlar “qizlarimiz ilm olsin, ma’rifatli bo‘lsin” g‘oyasini keng targ‘ib qiladilar va jamiyatdagi xotin-qizlar mavqeini oshirishga intilishadi.

Avloniy ayollar ilm olishda erkaklar bilan barobar bo‘lishini yoqlagan holda, og‘ir-yengil mehnatda mutlaq teng ishlashdan ko‘ra sharqona an’analarni inobatga olgan holda burchni puxta bajarish muhimligini ta’kidlaydi; hayo va iffatni zarur fazilat sifatida ko‘rsatadi[9].

Jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgan ma’rifat qoloqligi, urug‘chilik, o‘rta asrcha munosabatlar va kuchlab nikohlash kabi udumlar ochiq tanqid qilinadi. Bu illatlarni bartaraf etishning asosiy yo‘li sifatida ayollarni o‘qitish, maorif va madaniyatga oshno etish g‘oyasi ilgari suriladi.

Ayollar huquqi va maorifi masalasi “Turkiston viloyatining gazeti” (1908–1914) sahifalarida ham keng muhokama qilinib, ayolning erkak bilan teng huquqli bo‘lishi zarurligi dalillar bilan asoslanadi[10]. Qizlar maktablarini tashkil etish, onalarni ta’lim-tarbiyaga jalb etish va jaholatning salbiy ta’siridan himoya qilish g‘oyalari keng yoritildi. Munavvarqori ayollarni imkon qadar tezroq ozod etish, ularni maktablarda erkaklar bilan teng sharoitda o‘qitish, ishga jalb qilish va huquqlarini tenglashtirish tarafdori ekanini ochiq bildirib o‘tdi. Sadriddin Ayniyning qizlar ta’limini ulug‘lovchi qarashlari ham bu da’vatlarni yanada kuchaytirdi. Umuman olganda, jadid tafakkurida xotin-qizlarni asriy illatlardan xoli qilib, zamonaviy dunyoviy turmush tarziga yo‘naltirish markaziy g‘oya sifatida ilgari surilgan.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston jadidlari xotin-qizlar ma’rifati va ularning ijtimoiy faolligini milliy uyg‘onishning tayanch omili sifatida talqin qildilar. Ular ayolni faqat oilaviy doira bilan cheklash jamiyat taraqqiyotini yarim holga keltirishi mumkinligini uqtirib, avlod tarbiyasi, ma’naviy yuksalish va ijtimoiy yangilanishni avvalo “ona savodi” bilan bog‘ladilar. Jadid matbuoti (“Sadoi Turkiston”, “Turkiston viloyatining gazeti” va boshqa nashrlar) orqali qizlar ta’limi, teng imkoniyat, erta nikoh va jaholat kabi masalalar muntazam muhokama qilinib, shariat va urf-odat asosida ayolning bilim olish huquqi dalillab ko‘rsatildi.

Amaliy tashabbuslarda esa qizlar maktablarini ochish, aralash ta’lim tajribalarini sinab ko‘rish, kurslar va jamoatchilik tadbirlari orqali ma’rifat g‘oyasini ommaga singdirish maqsad qilindi; teatr va badiiy so‘z ham ijtimoiy ongni uyg‘otishning samarali vositasi sifatida ishlatildi. Natijada jadidlar xotin-qizlar masalasini xususiy muammo sifatida emas, balki millat kelajagi va jamiyat madaniy darajasini belgilovchi mezon darajasiga ko‘tardilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Права среднеазиатской женщины // Туркестанские ведомости. — 1875. — 3 июнь.
2. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. — Казань: Типография Императорского университета, 1886. — С. 138.
3. Тихонова Н.Е. Исмаил Гаспринский и его протоевразийские идеи. — Санкт-Петербург, 2016. — С. 58.
4. Фатҳиддинзода З. Ҳуқуқи нисвон // Садои Туркистон. — 1914. — 10 декабрь.
5. Шарипов Р. Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. — Тошкент: Ўқитувчи, 2002. — Б. 31.
6. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. — Тошкент: Маънавият, 2000. — Б. 5.
7. Иштрокиюн. — 1919. — 4 июнь.
8. Раҳимова Г. Жадидлар ва аёллар масаласи // Адабий мерос. — 1992. — № 2 (59).
9. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. — Тошкент: Маънавият, 2002. — Б. 304.
10. Айний С. Мусулмонлар ҳаёти // Туркистон вилоятининг газетаси. — 1906. — 16–19 июль. — Б. 5.

[9] Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 304.

[10] Айни. С. Мусулмонлар ҳаёти. Туркистон вилоятининг газетаси. 1906. 16-19 июл. – Б. 5.

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2025 UDK: 821.512.161-1(091)

“QUTADG‘U BILIG” ASARI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Sobirov G‘ulomjon Xikmatjon o‘g‘li, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Turkshunoslik oliy maktabi tayanch doktoranti

“QUTADG‘U BILIG” AND ITS RELEVANCE IN THE PRESENT DAY

Sobirov G‘ulomjon Xikmatjon o‘g‘li, Tashkent State University of Oriental Studies Basic Doctoral Student, Higher School of Turkology

ПРОИЗВЕДЕНИЕ “КУТАДГУ БИЛИГ” И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ

Собиров Гуломжон Хикматжон оглы, Ташкентский государственный университет востоковедения, базовый докторант Высшей школы тюркологии



https://orcid.org/0000-0002-0461-7177
e-mail: Gulomjonsobirov0@gmail.com

Annotatsiya*: Maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi aforizmlarning xususiyatlari, hamda metaforalarni tong manzarasi bilan bog‘liq joylarda, eng muhimi, qahramonlar tasviri, maqollarning jamiyat va davlat hayotida tutgan o‘rni yoritilgan. Maqolada qo‘llangan maqollarning bugungi kun uchun ahamiyati, ularning xalq dunyoqarashini ifodalovchi jihatlari alohida ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *maqol, hikmatli so‘z, bilim, zakovat, mohiyat, mutafakkir.*

Abstract: *The article describes the characteristics of aphorisms in Yusuf Khos Hajib’s work “Kutadgu Bilig”, as well as the use of metaphors in places related to the morning landscape, most importantly, the image of heroes, the role of proverbs in the life of society and the state. The importance of the proverbs used in the article for today, their aspects that express the worldview of the people, are emphasized.*

Keywords: *proverb, wisdom, knowledge, intelligence, essence, thinker.*

Аннотация: *В статье описаны характеристики афоризмов в произведении Юсуфа Хоса Хаджиба “Кутадгу Билиг”, а также использование метафор в местах, связанных с утренним пейзажем, главное, изображением героев, ролью пословиц в жизни общества и штат. Подчеркивается значение используемых в статье пословиц на сегодняшний день, их аспекты, выражающие мировоззрение народа.*

Ключевые слова: *пословица, мудрость, знание, разум, сущность, мыслитель.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida: “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa deb hisoblaymiz” deya ta’kidlagan hamda “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” nomli maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilgan[1].

Hozirgi kunda jamiyatimizda ma’naviy poklanish va axloqiy barkamollikka erishish jarayoni olib borilayotganda, o‘tmishimizni, unutilayotgan qadriyatlarimizni tiklash, shuningdek, o‘tmishdagi buyuk shaxslar ijodini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yusuf Xos Hojibning tarjimai holini faqat uning o‘z asarida qoldirilgan ma’lumotlardan bilish mumkin. U yaratgan yozma yodgorlik – “Qutadg‘u

bilig” asarining misralari shoirning tug‘ilgan joyi Qo‘z o‘rdu (ya’ni Bolasog‘un) ekanini, ammo uni yozish uchun ko‘plab o‘lkalarga safar qilganini, turli madaniy-adabiy yodgorliklarni o‘rganganini, va nihoyat uni vatani Qashqarda yakunlaganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, asar hijriy 462-(1069-1070) yillarda, shoir yoshi ellik atrofida bo‘lganida yozib tugallangan, uni 18 oy davomida, ya’ni 461-yilning yarmida boshlab, 462-yilning o‘rtalarida yakunlagani, agar Yusuf Xos Hojib bu davrda ellik yoshda bo‘lsa, 410 (1019 milodiy) yillarda tug‘ilgan bo‘lishi taxmin qilinadi[2]. Hozircha Yusuf Xos Hojib haqida “Qutadg‘u bilig”dan boshqa tarixiy manbada ma’lumot mavjud emas.

Asarda o‘z yoshligi haqida shunday yozadi:

Tegurdi menga elchi ellik yashim,
Qug‘u qildi uzg‘un tusi-teg bashim
(Ellik yoshim menga qo‘l tegizdi,
Qora (quzg‘un) tusidek boshimni oq (qush) qildi
(ya’ni, sochim oqardi)[2].

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqotda Yusuf Xos Hojib tomonidan to‘plangan maqol va matallar bugungi kundagi maqollar bilan qiyosiy jihatdan o‘rganilgan va ularning o‘zaro bog‘liqlik jihatlari tahlil qilingan.

Natijalar va mulohazalar. Shoir o‘z nomini asarida eslatib o‘tadi. Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib bundan 950 yil muqaddam, 6500 baytdan yoki 13 000 misradan iborat bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” asarini yozib tugatgach, qoraxoniylar hukmdori Tavg‘ochxon (kitobda Tavg‘och Qora Bug‘ra Qoraxon (xoqon), Abu Ali Hasan binni Sulaymon Arslon Qoraxon (xoqon) nomlari bilan zikr etilgan) huzuriga taqdim etgan. Asar xonga manzur bo‘lib, muallifga “Xos Hojib” unvoni, ya’ni “mukarram, eshik og‘asi” berilganligi dostonning muqaddimasida qayd etilgan[3].

Yusuf Xos Hojibning mashhur asari – “Qutadg‘u bilig” katta shuhrat qozonadi. Shu sababli “Qutadg‘u bilig”ni turli xalqlar turlicha atashgan: chinliklar “Adab ul-muluk” (“Hukmdorlar odobi”), mochinliklar “Anis ul-mamolik” (“Mamlakatning tartib usuli”), eronliklar “Shoxnoma”, Mashriq elining ulamolari va donishmandlari “Ziynat ul-umaro” (“Amirlar ziynati”), turonliklar orasida esa “Qutadg‘u bilig”, ba’zi joylarda “Pandnomai muluk” (“Hukmdorlar nasihatnomasi”) deb nomlagan. Bu shoirning Xitoy (Chin), Sharqiy Turkiston (Mochin), Eron va Turkiston hududlarida bo‘lganini, u yerda mavjud adabiy an’analardan xabardorligini va asarning o‘sha yurtlarda ham mashhur bo‘lganini ko‘rsatadi.

Qarilikning ishlarini yigitlikda qilgin,
Qarigach kuch ketadi, yosh yetishmaydi[4].

Yuqoridagi matalda kishi yoshligida, navqironligida adolati, qonuniyligi, yurt tinchligi va obodligini ilgari surishi kerakligi ta’kidlanadi. Mamlakatning yaxlitligi va taraqqiyoti asosan yoshlarga bog‘liq. Shu bilan birga, xalqning qanday bo‘lishi butunlay mamlakat rahbariga bog‘liq. “Qutadg‘u bilig”da davlat rahbari hukmdorni “elig” yoki “bek” deb atagan. Qadimgi turklar orasida vatan tushunchasi shu vatanga mansub xalq bilan birga tasavvur qilingan, va bu tushuncha “el” so‘zi bilan ifodalanadi. Bu so‘z nafaqat xalqni, balki yurt, yer, davlat (podshohlik), mamlakat tushunchalarini ham bildiradi. “Kun” so‘zi bilan birga kelganda esa “xalq”, “yurt” va “vatan” ma’nolariga tenglashtiriladi.

Yana bir misol:

Yaxshi qiliq oq sut bilan kirsa,
O‘lim kelib tutmaguncha o‘z tarzini
o‘zgartirmaydi.

Ya’ni insonning xarakteri umrining oxirigacha unga hamroh bo‘ladi. O‘zbek tilidagi muolada “Qon bilan kirgan jon bilan chiqar” degan ibora bilan bog‘lanadi. O‘g‘dulmishning asosli tushuntirishlaridan so‘nggina Elig‘ga yo‘l ochiladi[5].

Kaltak yarasi bitadi, tez esdan chiqadi,
Til bilan so‘ksa bitmaydi, zahri abadiy qoladi.

Bu maqol “Tig‘ jarohati bitar, til jarohati bitmas!” degan iboraga to‘liq mos keladi. O‘zg‘urmish taqvodor inson bo‘lib, dinni barcha narsadan ustun qo‘yadi. Uning nazarida, do‘konlarda yaxshi kiyim-kechak, taom va turli o‘yin-kulgilarga borish jonini shamolga berish bilan barobar. Shoir fikricha, inson ruhini boyitishi va vujudini har xil illatlardan tozalashi lozim. Buning eng samarali yo‘li ma’rifatdir. Yusuf Xos Hojib so‘z qudratini ona tilining ichki imkoniyatlarini nozik his qilib ishlatadi: “Turkiy so‘zlarni yovvoyi tog‘ bug‘usidek bilardim, ammo sinchiklab o‘rgandim”.

Shoirning obrazli tizimi XI asr turkiy adabiyotining umumiy ahvolini va adabiy an’analarni yorqin ifodalash imkonini beradi. Kamon obrazi adabiyotimiz tarixida eng ko‘p uchraydigan obrazlardan biridir. Klassik adabiyotda arab alifbosidagi ayni nomli harf bilan

bog‘liq holda uchrashi ko‘p, qiyinchiliklarga duch kelgan qahramon o‘z sevgilisiga oshiq bo‘lib, ko‘pincha yo‘qotilgan vaqtini to‘ldiradi. “Qutadg‘u bilig”dagi kamon tasviri “Devon lug‘at at-turk” va qadimgi yozma manbalarda, shuningdek xalq og‘zaki ijodida uchraydi[6].

Masalda keladigan juda eski ta’bir bor,
Otaning o‘rni va oti o‘g‘ilga qoladi.

Ko‘rinib turibdiki, dastlab beklar mard sherga qiyoslangan bo‘lsa-da, keyingi misrada ularning asl qiyofasi ochib beriladi. Ushbu toifa “boshi kesilishi” bilan ochiq namoyon bo‘ladi. Shoir zulmni yonayotgan olovga, adolatni oqar suvga qiyoslaydi: biri yaqinlashsa, hamma narsani yondirib vayron qiladi, ikkinchisi esa oqimidan ne’matlar oqadi. Shoirning tashbehlari o‘zining ta’sirchan ifodasi bilan ajralib turadi:

Ko‘p tingla, oz so‘zla.
Ko‘p o‘yla, bir so‘zla.
Ko‘p o‘yla, oz so‘zla..

Ushbu o‘xshashlik tinglovchiga yomon va befoyda so‘zlardan ogohlantiradi. Ba’zi taqqoslashlar bir emas, balki bir nechta tasvirni yoritish uchun ishlatiladi. “Qutadg‘u bilig” turkiy xalqlar og‘zaki ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan birinchi yirik turkiy yozma doston ekanini ko‘rsatadi.

O‘g‘dulmish O‘zg‘urmishdan qaytgach, Elig‘ tilida quyidagi misra uchraydi:
Kishi sabr qilsa, o‘z tilagini topadi,
Sabr qilib turguvchi kishi oqqush tutadi[7].

Ushbu misraning hozirgi ko‘rinishi: “Sabr tagi – sariq oltin!” degan ibora bilan ifodalanadi. Elig O‘zg‘urmishni o‘z joyiga chaqirgan, ammo u zohidlik yo‘lini tanlaganligi sabab taklifni rad etgan. Bu yerda metafora voqeani qisqa, chiroyli va nafis usulda ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Yusuf Xos Hojibning *“Qutadg‘u bilig”* asari afforizmlarni muayyan amaliy tajribaga asoslangan ijtimoiy hayot voqealari bilan bog‘laydi, shu jihatdan ular xalq maqollariga o‘xshashlik ko‘rsatadi. Shuningdek, asar xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini hisobga olgan holda qadimgi taraqqiyot bosqichlarini aks ettirishga ham mos keladi. “Qutadg‘u bilig”dagi fikrlar va qarashlar maqollar kabi kelajak avlod uchun dastur bo‘la oladi va o‘sha davrning jamiyat ko‘zgusi sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маҳмуд Қошғарий. *Девону луғотит турк*. – Тошкент, 1963.
2. Mallaev N.M. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.
3. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg‘u bilig* (nashrga tayyorlovchi Karimov Q.). – Toshkent: Fan, 1971.
4. Болтабоева У. Нутқ санъатининг ўзига хос хусусиятлари: муаммо ва ечимлар // *Oriental Art and Culture*. – 2020. – № I (2).
5. Akbarova M., Tursunova G., Abdunazarov Z. Section 3. Theater art // *European Journal of Arts*. – S. 125.
6. Усмонов Ш. Саҳнада ташқи қиёфага актёрнинг муносабати // *Oriental Art and Culture*. – 2020. – № II.
7. Усмонов Ш. Илм даргоҳига бир назар // *Oriental Art and Culture*. – 2019. – № IV (1).

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 343.9

MAISHIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHNING KRIMINOLOGIK JIHATLARI

Shermatova Gulruh Akmalovna, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi



https://orcid.org/0009-0008-5363-5217
e-mail: shermatovaguli1@gmail.com

CRIMINOLOGICAL ASPECTS OF COMBATING DOMESTIC CRIMES

Shermatova Gulruh Akmalovna, Independent Researcher, Academy of Law Enforcement Agencies

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ БЫТОВЫМ ПРЕСТУПЛЕНИЯМ

Шерматова Гулрух Акмаловна, самостоятельный исследователь Академии правоохранительных органов

Annotatsiya: *Maishiy jinoyatlar zamonaviy jamiyatda jiddiy ijtimoiy muammo bo‘lib, oilaviy barqarorlik va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada maishiy jinoyatlar sabablari, tarqalish mexanizmlari, kriminologik tahlil va profilaktika choralarini o‘rganish muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari oilaviy nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, psixologik stress va spirtli ichimliklar iste’moli kabi omillar jinoyatlar rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, psixologik maslahat, oilaviy mediatsiya va profilaktik dasturlar samarali choralar sifatida ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *maishiy jinoyatlar, oilaviy zo‘ravonlik, profilaktika, kriminologiya, oilaviy maslahat, psixologik yordam, spirtli ichimliklar, iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jamoat xavfsizligi.*

Abstract: *Domestic crimes are a serious social problem in modern society, negatively affecting family stability and public safety. This article examines the causes, dissemination mechanisms, criminological analysis, and preventive measures of domestic crimes. Research findings indicate that family conflicts, economic difficulties, psychological stress, and alcohol consumption play a significant role in the development of such crimes. Additionally, the effectiveness of social support, psychological counseling, family mediation, and preventive programs is emphasized.*

Keywords: *domestic crimes, family violence, prevention, criminology, family counseling, psychological support, alcohol, economic difficulties, social support, public safety.*

Аннотация: *Домашние преступления являются серьезной социальной проблемой современного общества, оказывая негативное влияние на семейную стабильность и безопасность общества. В статье рассматриваются причины, механизмы распространения, криминологический анализ и профилактические меры домашних преступлений. Результаты исследования показывают, что семейные конфликты, экономические трудности, психологический стресс и употребление алкоголя играют ключевую роль в развитии преступлений. Одновременно подчеркивается эффективность социальных программ, психологической помощи, семейной медиации и профилактических мер.*

Ключевые слова: *домашние преступления, семейное насилие, профилактика, криминология, семейная консультация, психологическая помощь, алкоголь, экономические трудности, социальная поддержка, общественная безопасность.*

Kirish. Maishiy jinoyatlar bugungi kunda faqat jismoniy yoki moddiy zarar yetkazuvchi hodisa sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi dolzarb muammo sifatida baholanmoqda. Ushbu jinoyatlar oilaviy munosabatlar barqarorligi, bolalar hamda qariyalar huquqlarining ta’minlanishi, shuningdek, jamiyatning umumiy xavfsizligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli mazkur muammoni hal etish davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar va ijtimoiy institutlar oldida muhim vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kriminologik yondashuvga ko‘ra, maishiy jinoyatlar oilaviy muhitda, yaqin qarindoshlar yoki turmush o‘rtoqlar o‘rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar majmuasi bo‘lib, ularning vujudga kelish sabablari, tarqalish

xususiyatlari va oldini olish mexanizmlari kompleks ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etiladi.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar maishiy jinoyatlarning sodir etilishi ko‘pincha oiladagi ijtimoiy-madaniy muhitning izdan chiqishi, iqtisodiy qiyinchiliklar, ta’lim darajasining pastligi, spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish hamda psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, bunday jinoyatlarning sezilarli qismi ijtimoiy yakkalanish, oilaviy kelishmovchiliklar va ichki nizolar sababli yashirin qolib ketishi mumkin. Natijada jinoyatlarni aniqlash va ularga nisbatan samarali choralar ko‘rish jarayoni murakkablashadi, bu esa kriminologik tadqiqotlar va profilaktik strategiyalarni yanada dolzarb etadi. Kriminologik nuqtai nazardan maishiy jinoyatlar nafaqat huquqbuzarlik, balki muayyan ijtimoiy hodisa sifatida ham o‘rganiladi. Ular jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va psixologik muhitida mavjud muammolarni aks ettiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda kriminologiya fanining nazariy va amaliy imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, sodir etilish sharoitlari, profilaktika choralarining samaradorligi va jazo siyosati kriminologik tahlilning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi. Shu jihatdan, maishiy jinoyatlarga qarshi kurashish jarayoni faqat huquqiy ta’sir choralarigina emas, balki ijtimoiy, psixologik hamda profilaktik yondashuvlarni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Tahliliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, maishiy jinoyatlar aksariyat hollarda oilaning ichki nizolari, shaxsiy psixologik muammolar va ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Ushbu jinoyatlarning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, ular ko‘pincha o‘zaro ishonch va yaqin munosabatlar doirasida sodir etiladi. Natijada jabrlanuvchilar ko‘p hollarda yordam so‘rashdan tortinadi yoki jinoyat haqida tegishli organlarga murojaat qilmaydi. Shu sababli maishiy jinoyatlar profilaktikasi faqat jinoyat sodir etilgandan keyingi jazo choralariga emas, balki erta ogohlantirish mexanizmlariga, oilaviy maslahat xizmatlariga, psixologik yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlariga ham tayanishi zarur. Mamlakatimizda maishiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimi huquqiy chora-tadbirlar, ijtimoiy xizmatlar, psixologik yordam va kriminologik tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tizimning samaradorligi jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va ularning ijtimoiy-madaniy kontekstini chuqur tahlil qilish orqali oshiriladi. Shu bilan birga, kriminologik izlanishlar jinoyatchilikning oldini olishda ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish imkonini beradi. Maishiy jinoyatlarga qarshi kurashishning kriminologik jihatlari zamonaviy jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etib, ularni o‘rganish va tahlil qilish huquqiy, ijtimoiy hamda psixologik choralarni ishlab chiqish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqola maishiy jinoyatlarning sabablari, tarqalish mexanizmlari, ularning oldini olish va ularga qarshi kurashish strategiyalarini tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, kriminologik yondashuvlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Maishiy jinoyatlarga qarshi kurashish masalasi kriminologiya fanida uzoq yillardan buyon izchil o‘rganilib kelinayotgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Ilmiy adabiyotlarda ushbu jinoyatlar faqat jinoyat hodisasi sifatida emas, balki ijtimoiy, psixologik hamda oilaviy munosabatlar tizimida yuzaga keladigan muammolarning oqibati sifatida tahlil qilinadi. Kriminologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maishiy jinoyatlar ko‘pincha oilaviy nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, ruhiy bosim va ijtimoiy yakkalanish omillari bilan uzviy bog‘liq holda sodir bo‘ladi (Gvozdev, 2012; Akhmedov, 2016).

Statistik ma’lumotlar tahlili maishiy jinoyatlarning aksariyati turmush o‘rtoqlar yoki yaqin qarindoshlar o‘rtasida sodir etilishini ko‘rsatadi. Jumladan, Gvozdev (2012) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, Rossiyada maishiy jinoyatlarning qariyb 70 foizi oilaviy kelishmovchiliklar fonida yuzaga keladi. Shu bilan birga, Akhmedov (2016) O‘zbekistonda o‘tkazgan empirik tadqiqotlar natijasida oilada moliyaviy muammolar mavjud bo‘lgan sharoitda jinoyat sodir etish ehtimoli 1,5–2 barobar oshishini aniqlagan. Ushbu ilmiy xulosalar oilaviy va iqtisodiy omillarning maishiy jinoyatlar kelib chiqishidagi muhim sabablar qatoriga kirishini tasdiqlaydi. Maishiy jinoyatlarning shakllanishida psixologik va shaxsiy omillar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy izlanishlar spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish, doimiy ruhiy zo‘riqish hamda oilaviy zo‘ravonlik tajribasi jinoyat sodir etishga undovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi (Petrov, 2018). Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda jinoyatchilik darajasini pasaytirishda psixologik maslahat xizmatlari, oilaviy mediatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi alohida ta’kidlanadi (Smirnov, 2020).


Maishiy jinoyatlarning oldini olish va profilaktika qilish borasida xalqaro hamda milliy

tajribalar ilmiy adabiyotlarda keng tahlil qilingan. Jahon miqyosida o‘tkazilgan tadqiqotlar ijtimoiy dasturlar va oilaviy maslahat xizmatlarini joriy etish jinoyatlar sonini sezilarli darajada kamaytirishini ko‘rsatmoqda. Xususan, Evropa mamlakatlarida amalga oshirilayotgan profilaktik dasturlar oilaviy nizolarni hal etish, stressni boshqarish va oilani ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi (European Union Agency for Fundamental Rights, 2017). Shu bilan birga, O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ichki ishlar organlari va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlik asosida profilaktik tadbirlar izchil joriy etilmoqda, bu esa maishiy jinoyatlar sonining kamayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda (Akhmedov, 2016).

Umuman olganda, kriminologik yondashuvlar va ilmiy tahlillar maishiy jinoyatlarni o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, ularning tarqalish darajasi, profilaktika choralarining samaradorligi hamda jazo siyosatining ahamiyati atroflicha tahlil etilgan. Shu nuqtai nazardan, mavjud ilmiy manbalar maishiy jinoyatlar bilan kurashishning kriminologik jihatlarini chuqurroq anglash va ushbu sohada samarali strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

1-jadval. **Maishiy jinoyatlar sabablari bo‘yicha taqsimoti (%)**

Sabablar	Rossiya (%)	O‘zbekiston (%)	Yevropa (%)
Oilaviy nizolar	70	65	50
Iqtisodiy qiyinchiliklar	50	60	30
Spirtli ichimliklar	45	40	25
Psixologik stress	35	30	20
Oldingi zo‘ravonlik tajribasi	25	20	15



1-rasm. **Maishiy jinoyatlar sabablari taqsimoti (O‘zbekiston misolida)**

Diagramma va jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori ta’sir darajasiga ega bo‘lgan omillar sifatida oilaviy nizolar hamda iqtisodiy qiyinchiliklar ajralib turadi, ulardan keyingi o‘rinda esa spirtli ichimliklar iste’moli va psixologik stress omillari joylashadi. Mazkur holat profilaktika strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy e’tiborni oilaviy muhitni barqarorlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilashga qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili hamda statistik ma’lumotlar maishiy jinoyatlar kelib chiqish sabablari ko‘p qirrali xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ular oilaviy, iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Shu bois, jinoyatlarning oldini olish tizimi kompleks yondashuvni talab etadi, ya’ni qonuniy choralar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, psixologik maslahat hamda oilaviy mediatsiya mexanizmlari birgalikda qo‘llanilishi lozim.

Tadqiqot muhokamasi. Maishiy jinoyatlar jamiyat xavfsizligi va oilaviy barqarorlikka jiddiy tahdid soluvchi dolzarb muammo hisoblanadi. Ularning oldini olish va samarali kurashish jarayoni kriminologik, ijtimoiy hamda psixologik tadqiqotlarning uzviy uyg‘unligini talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, maishiy jinoyatlar ko‘pincha oilaviy nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, spirtli ichimliklar iste’moli, shaxsiy psixologik zo‘riqish va ilgari sodir bo‘lgan zo‘ravonlik holatlari bilan chambarchas bog‘liq

bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, jinoyatlarning oldini olish tizimi faqat qonuniy choralar bilan cheklanmasdan, balki profilaktik va psixologik yondashuvlarni ham o‘z ichiga olishi zarur.

Tadqiqot davomida olingan natijalar O‘zbekistonda va boshqa mamlakatlarda to‘plangan ilmiy ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Jumladan, Akhmedov (2016) tomonidan O‘zbekistonda o‘tkazilgan tadqiqotlarda oiladagi moliyaviy qiyinchiliklar va nizolar maishiy jinoyatlar rivojlanishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Gvozdev (2012) esa Rossiya misolida oilaviy nizolar sababli sodir etiladigan jinoyatlar ulushi 70 foizga yetishini qayd etadi. Shu bilan birga, Evropa mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar ijtimoiy dasturlar va oilaviy maslahat xizmatlari jinoyatlar darajasini sezilarli kamaytirishini ko‘rsatadi (European Union Agency for Fundamental Rights, 2017). Ushbu natijalar maishiy jinoyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy kontekst bilan bevosita bog‘liqligini hamda ularning oldini olishda xalqaro tajribani o‘rganish va moslashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Maishiy jinoyatlar zamonaviy jamiyatda jiddiy ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo‘lib, ularning oldini olish va ularga qarshi samarali kurashish kriminologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari maishiy jinoyatlar ko‘pincha oilaviy nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, psixologik stress, spirtli ichimliklar iste’moli hamda ilgari sodir bo‘lgan zo‘ravonlik tajribasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shu sababli jinoyatlarning oldini olish tizimi faqat qonuniy choralar bilan cheklanmasdan, balki profilaktik, ijtimoiy va psixologik yondashuvlarni ham qamrab olishi lozim.

Tadqiqot davomida olingan xulosalar O‘zbekiston va xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish orqali maishiy jinoyatlar bilan kurashishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Xususan, oilaviy maslahat xizmatlari, psixologik qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy yordam, mediatsiya tizimlari hamda jazo choralarini uyg‘unlashtirish jinoyatlar sonini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, erta ogohlantirish mexanizmlari va profilaktik dasturlar jamiyat xavfsizligini oshirish hamda oilaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Maishiy jinoyatlar bilan kurashishning kriminologik jihatlarini chuqur o‘rganish va profilaktika strategiyalarini takomillashtirish jamiyat xavfsizligi hamda oilalarning sog‘lom rivojlanishini ta’minlash uchun zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akhmedov, S. (2016). *O‘zbekistonda maishiy jinoyatlar: Sabablar va oldini olish choralari*. Toshkent: O‘zbekiston Ichki Ishlar Akademiyasi nashriyoti.
2. European Union Agency for Fundamental Rights. (2017). *Domestic violence against women: An overview of EU data*. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
3. Гвоздев, В. (2012). *Domestic violence in Russia: Sociological and criminological aspects*. Москва: Institute of Criminology Press.
4. Petrov, A. (2018). Psychological factors in family-related crimes. *Journal of Criminology*, 10(2), 45–58.
5. Smirnov, D. (2020). Preventive measures in combating domestic crimes: International experience. *European Journal of Criminology*, 17(5), 702–719.
6. Zaynullin, R. (2015). *Kriminologik tahlil va profilaktika: Maishiy jinoyatlar misolida*. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.
7. Shirinov, M., & Karimov, A. (2019). *Oilaviy zo‘ravonlik va uning oldini olish tizimi*. Toshkent: Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi.
8. World Health Organization. (2014). *Global and regional estimates of violence against women: Prevalence and health effects*. Geneva: WHO Press.
9. Кузнецова, Н. (2017). Sociological analysis of domestic crimes in post-Soviet countries. *Sociological Research*, 12(3), 112–130.
10. Karimova, L. (2018). *Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining samaradorligi va maishiy jinoyatlar*. Toshkent: O‘zbekiston Ijtimoiy Fanlar Akademiyasi nashriyoti.

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.1):636.3

QORAKO‘LCHILIKNI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHDA ILMIY TADQIQOT INSTITUTLARINING ROLI

Axmedov Bekzod Abdiraxmonovich, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti “Tarix” kafedrasi v.b. professori



https://orcid.org/0009-0001-7353-9707
e-mail: myboks@bk.ru

THE ROLE OF SCIENTIFIC RESEARCH INSTITUTES IN THE SYSTEMATIC DEVELOPMENT OF KARAKUL SHEEP BREEDING

Akhmedov Bekzod Abdirakhmonovich, Acting Professor, Department of History, University of Information Technologies and Management

РОЛЬ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ ИНСТИТУТОВ В СИСТЕМНОМ РАЗВИТИИ КАРАКУЛЕВОДСТВА

Ахмедов Бекзод Абдирахмонович, исполняющий обязанности профессора кафедры “История” Университета информационных технологий и менеджмента

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qorako‘lchilikni tizimli rivojlantirishda Ilmiy tadqiqot institutlarining tutgan o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda qorako‘lchilik sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar, seleksiya va naslchilik ishlari, mahsuldorlikni oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar muhim omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va tajriba natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilishi qorako‘lchilik tarmog‘ining barqaror rivojlanishiga xizmat qilgani asoslab beriladi. Shuningdek, ilmiy muassasalarning kadrlar tayyorlash, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlashdagi roli yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ilmiy tadqiqot institutlari qorako‘lchilikni faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki ilmiy asosda rivojlantirishda ham yetakchi kuch hisoblanadi. Ushbu maqola chorvachilik tarixini va zamonaviy rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *qorako‘lchilik, Ilmiy tadqiqot institutlari, seleksiya va naslchilik, ilmiy izlanishlar, innovatsion yondashuvlar, mahsuldorlikni oshirish, chorvachilik tarmoqlari, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, kadrlar tayyorlash, barqaror rivojlanish.*

Abstract: *This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the role and significance of research institutes in the systematic development of karakul breeding. The study examines scientific research, breeding and selection activities, and innovative approaches aimed at increasing productivity in the field of karakul breeding as key factors in the development of the sector. It is substantiated that the implementation of methodological recommendations and experimental research results developed by research institutes into production practice has contributed to the sustainable development of karakul breeding. The role of scientific institutions in training specialists and ensuring the integration of science and production is also highlighted. The findings demonstrate that research institutes represent a leading force in the development of karakul breeding not only from an economic perspective but also on a sound*

scientific basis. This article is of significant scientific importance for studying the history of animal husbandry and contemporary development processes.

Keywords: *karakul breeding, research institutes, breeding and selection, scientific research, innovative approaches, productivity improvement, livestock sectors, integration of science and production, training of specialists, sustainable development.*

Аннотация: *В данной статье научно-теоретически и с практической точки зрения анализируется роль и значение научно-исследовательских институтов в системном развитии каракулеводства. В исследовании рассматриваются научные изыскания, селекционно-племенная работа и инновационные подходы, направленные на повышение продуктивности в сфере каракулеводства, как важные факторы развития отрасли. Обосновывается, что внедрение методических рекомендаций и результатов экспериментальных исследований, разработанных научно-исследовательскими институтами, в производственную практику способствовало устойчивому развитию каракулеводства. Также освещается роль научных учреждений в подготовке кадров и обеспечении интеграции науки и производства. Результаты исследования показывают, что научно-исследовательские институты являются ведущей силой в развитии каракулеводства не только в экономическом, но и в научно обоснованном направлении. Данная статья имеет важное научное значение для изучения истории животноводства и современных процессов его развития.*

Ключевые слова: *каракулеводство, научно-исследовательские институты, селекция и племенное дело, научные исследования, инновационные подходы, повышение продуктивности, отрасли животноводства, интеграция науки и производства, подготовка кадров, устойчивое развитие.*

KIRISH. Qorako‘lchilik chorvachilikning tarixan shakllangan va iqtisodiy jihatdan muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, qimmatbaho qorako‘l terisini yetishtirish orqali mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin egallab kelgan. Ushbu sohaning barqaror va samarali rivojlanishi ilmiy yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar hamda puxta tashkil etilgan seleksiya va naslchilik ishlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan, ilmiy tadqiqot institutlari qorako‘lchilikni tizimli rivojlantirishda yetakchi bo‘g‘in sifatida maydonga chiqadi.

Ilmiy muassasalar tomonidan amalga oshirilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar qorako‘l qo‘y zotlarini takomillashtirish, ularning mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini oshirish hamda turli tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashuvchanligini ta’minlashga xizmat qilgan. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, tajriba natijalari va innovatsion ishlanmalar ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etilib, qorako‘lchilik xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun mustahkam zamin yaratgan.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot institutlari soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, qorako‘lchilikni tizimli rivojlantirishda ilmiy tadqiqot institutlarining o‘rni va ahamiyatini o‘rganish chorvachilik tarixini hamda uning zamonaviy rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishda dolzarb masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Qorako‘lchilikni rivojlantirishda ilmiy tadqiqot institutlarining faoliyatiga bag‘ishlangan adabiyotlar asosan qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va seleksiya masalalarini yorituvchi ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar hamda sohaga oid uslubiy qo‘llanmalardan iborat. Ushbu manbalarda qorako‘l qo‘y zotlarining biologik xususiyatlari, naslchilik va seleksiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish masalalari keng yoritilgan.

Sovet davrida chop etilgan ilmiy ishlarda qorako‘lchilikni markazlashgan tarzda boshqarish, ilmiy tadqiqot institutlari faoliyatini ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar esa qorako‘lchilik sohasida bozor munosabatlarini joriy etish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillarini qo‘llash masalalarini yoritishi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar qorako‘lchilikni ilmiy asosda rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat

qilsa-da, ilmiy tadqiqot institutlari faoliyatining kompleks va tizimli tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli emasligi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALA. Buxoro vohasida uzoq yillar davomida urchitib kelingan qorako‘l qo‘ylar XX asrning 30-yillarigacha deyarli o‘zgarishsiz, bir xil zot xususiyatlarini saqlab kelgan. Kolxoz va sovxozlar tashkil etilishi bilan qorako‘lchilik sohasi jadal rivojlanib, cho‘l, cho‘l-dasht hamda quruq dasht hududlariga keng yoyildi. Natijada g‘arbda Buxoro hududidan Kaspiy dengizi sohillarigacha — Krasnovodsk–Guryev–Aralsk yo‘nalishigacha, sharqda Balxash ko‘ligacha, shimolda 45°–50° kenglik oralig‘igacha, janubda esa Afg‘oniston va Eron davlat chegaralarigacha cho‘zilgan yirik qorako‘lchilik rayoni shakllandi [1].

Mazkur keng hududlarning xilma-xil yaylov va tabiiy sharoitlarida qorako‘l qo‘ylarini urchitish jarayonida, bir tomondan, tashqi muhit omillari, ikkinchi tomondan esa yuksak teri mahsuldorligi belgilari saqlangan, eng moslashuvchan hayvonlarni tanlab olishda seleksiyaning o‘zlashtiruvchi roli kuchaya bordi. Uzoq davom etgan tabiiy va sun’iy tanlanish har bir zonada o‘ziga xos ekologik tiplarning shakllanishiga olib keldi. Vaqt o‘tishi bilan ushbu ekologik tiplarning belgilari tobora yaqqol namoyon bo‘la boshladi hamda ular doirasida zavod tiplari, liniyalar va oilalar vujudga keldi. Shu tariqa qorako‘l qo‘ylar zoti murakkab strukturaga ega bo‘la boshladi.

Qorako‘l qo‘ylar zotining strukturasi deganda uning ekologik (zonal) tiplarga ajralishi tushunilib, ushbu tiplarda zavod tiplari, liniyalar va oilalar shakllantirildi. Zot — kelib chiqishi umumiy bo‘lgan, muayyan xo‘jalik sharoitida insonning ijodiy faoliyati ta’sirida tashkil topgan, “o‘z ichida” urchitish uchun yetarli sondagi hayvonlarni birlashtiruvchi hamda tanlash, xillash va parvarish qilish orqali mustahkamlangan yaxlit guruhdir. Zot guruhi esa muayyan tabiiy va xo‘jalik sharoitida bir zotning zavod tipini sof zotni urchitish yoki xo‘jalik va nasldorlik ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa zotlar (turlar) bilan chatishtirish orqali shakllantirildi.

Ittifoq miqyosida qorako‘lchilik fanini rivojlantirishda akademik M.F. Ivanov, V.M. Yudin, S.N. Bogomobskiy, I.N. Dyachkov kabi olimlarning xizmati beqiyos bo‘ldi [2]. Ular qorako‘lchilik sohasini yangi ilmiy yondashuvlar va kashfiyotlar bilan boyitishga katta hissa qo‘shdilar. Qorako‘l terilarining jingalaklik xususiyatlari ilk bor 1916 yilda N.P. Chirvinskiy tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, 1932 yilda N.F. Nikolskiy va T.D. Polojensovlar tomonidan ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etildi. Ushbu masala V.I. Stoyanovskiy, A. Muxamedov hamda G.M. Tolmakov izlanishlarida ham o‘rganilgan. Tajribalar 1938–1939 yillarda “Ulus” sovxozi otarlarida olib borildi [3].

XX asrning 40-yillarida Butunittifoq qorako‘lchilik ilmiy tadqiqot instituti olimlari yaylov va ozuqaning teri sifatiga ta’sirini aniqlash bo‘yicha keng ko‘lamli izlanishlar olib bordilar. I.N. Dyachinkov rahbarligida R.P. Pisminnoy, S.M. Bugadova, T.B. Chexirinadze, F. Sharafutdinov, T. Axmadjanova, N.S. Badalboyev, R. Rahimov, E.M. Hasanov, B.I. Isayans, R.G. Valiyev kabi tadqiqotchilar “Muborak” va “Qarnob” davlat naslchilik zavodlarida ilmiy ishlar olib bordilar [4].

Butunittifoq qorako‘lchilik instituti asosan uch yo‘nalishda tadqiqotlarni amalga oshirdi: Oktabr to‘ntarishigacha bo‘lgan davrdagi qorako‘lchilik tajribasini o‘rganish; qorako‘l qo‘ylari zotlarini chuqur tahlil qilish asosida naslchilik ishining nazariy va amaliy usullarini ishlab chiqish; yirik sovxoz va kolxozlarni tashkil etish jarayonida bevosita ishtirok etish [5]. Institutda ilmiy-texnik axborot xizmati yo‘lga qo‘yildi. 1945 yilda ilmiy kolleksiya tashkil etilib, unga O‘zbekiston va xorij mamlakatlaridagi ko‘plab qorako‘l terilari namunalari kiritildi.

Urushdan keyingi yillarda institut jamoasi asosan qorako‘l qo‘ylarini ozuqa bilan ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni kengaytirdi. 1958 yilda yem-xashak ishlab chiqarish bo‘limi tashkil etilib, unda yaylov o‘simliklari va ularning mo‘yna sifatiga ta’siri o‘rganildi. Cho‘l hududlarda qora saksovullarni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratildi. Saksovul shamol tezligini pasaytirib, qo‘ylarning rivojlanishi va qo‘zi terilari uchun qulay ekologik muhit yaratdi.

Qorako‘l terilarining sifati turli omillar ta’sirida o‘zgarib borishi M.D. Zokirov va M. Askandarov tadqiqotlarida ilmiy asosda yoritildi. Ushbu izlanishlarda yem-xashak, ona qo‘ylarning yoshi hamda texnologik ishlov berish jarayonlarining teri sifatiga ta’siri tahlil qilindi. 1960–1962 yillarda institut olimlari qorako‘l terilarini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borgan izlanishlari

natijasida mo‘yna sifatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Bu borada M.D. Zokirov, I.N. Dyachkov va F.E. Bukinlarning hissasi katta bo‘ldi.

1964 yilda Butunittifoq qorako‘lchilik institutida “Seleksiya va naslchilik ishi” bo‘limi tashkil etildi [6]. Ilmiy xodimlar seleksiya jarayonlarini qorako‘lchilik xo‘jaliklari mutaxassislari bilan hamkorlikda muntazam olib bordilar. Jumladan, “G‘uzor” sovxozida qorako‘lchilikni rivojlantirish va yangi zavod tipini yaratish bo‘yicha S.M. Mamatov, Y. Nurillayev hamda G‘uzor naslchilik zavodi mutaxassisi R. Bozorov bilan birgalikda ilmiy izlanishlar olib borildi. Tadqiqotlar 1965 yilda boshlangan bo‘lib, 1969 yilga kelib teri rangining ulushi 22 foizdan 48 foizga yetdi, terilarning 88,4 foizi esa birinchi nav sifatida topshirildi. Ushbu ishlar Samarqand qishloq xo‘jalik instituti, Butunittifoq qorako‘lchilik ilmiy tadqiqot instituti va G‘uzor naslchilik zavodi mutaxassislari hamkorligida amalga oshirildi [7].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston qorako‘lchilik sohasini rivojlantirishda jahon miqyosida yetakchi davlatlardan biriga aylangan. Shu bilan birga, mamlakatimiz bu sohaga oid tajribani Osiyo, Afrika va Yevropaning bir qator davlatlariga yetkazishda ham muhim rol o‘ynadi. O‘zbekistondan olib ketilgan qorako‘l qo‘ylari boshqa mintaqalarda ko‘paytirilib, mahalliy xo‘jaliklarda muvaffaqiyatli rivojlantirildi. Ayniqsa, qorako‘lchilik sohasi Buxoro amirligi davrida jadal rivojlanib, jahonning turli mamlakatlaridan kelgan savdogarlar ushbu mahsulotga katta qiziqish bildirdi. Sovet davrida ham qorako‘l terilar chet elga eksport qilinib, xalqaro auksionlarda yuqori baholandi. Shu davrda O‘zbekistonning cho‘l va yarim cho‘l hududlarida qorako‘lchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklar tashkil etilib, qorako‘l teri yetishtirish hajmi yil sayin oshirib borildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zokirov M. va boshqalar**.** Qorako‘lchilik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B. 21.
2. Жилякова В.С., Чепилова А.К. Основы каракулеводства. – Алма-Ата: Қайнар, 1976. – С. 1–10.
3. O‘zbekiston qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi Ilmiy tadqiqot instituti joriy arxivi. Muassasa kutubxonasida institut tarixiga doir saqlanayotgan ma’lumotnoma papkasidan.
4. Samarqand viloyat davlat arxivi, 848-fond, 1-ro‘yxat, 2749-ish, 270–271 varaqlar.
5. O‘zbekiston qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi Ilmiy tadqiqot instituti joriy arxivi. Muassasa kutubxonasida institut tarixiga doir saqlanayotgan ma’lumotnoma papkasidan.
6. Всесоюзный научно-исследовательский институт каракулеводства. – Москва, 1975. – С. 26–39.
7. Samarqand viloyat davlat arxivi, 848-fond, 1-ro‘yxat, 2749-ish, 238–230 varaqlar.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 159-942

QANDLI DIABET TASHXISLI BEMORLARDA SHAXSIY RESURSLAR VA PSIXOLOGIK BARQARORLIK

Sadikova Umida Botirovna, Ma'mun universiteti "Psixologiya" kafedrasi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



https://orcid.org/0009-0006-4866-5695

e-mail: usadikova74@gmail.com

PERSONAL RESOURCES AND PSYCHOLOGICAL RESILIENCE IN PATIENTS WITH DIABETES MELLITUS

Sadikova Umida Botirovna, PhD in Psychology, Department of Psychology, Mamun University

ЛИЧНЫЕ РЕСУРСЫ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ У ПАЦИЕНТОВ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ

Садикова Умида Ботировна, кандидат философских наук (PhD) по психологии, кафедра психологии университета Мамун

Annotatsiya: *Ushbu maqola diabet tashxisi qo'yilgan bemorlarda shaxsiy resurslar va psixologik chidamlilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilishga, ularning ruhiy salomatlikni yaxshilash, davolanishga rioya qilish va umumiy hayotdan qoniqishdagi ahamiyatini ta'kidlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shaxsiy psixologik resurslarni mustahkamlash chidamlilikni oshirishi va diabet bilan og'rigan bemorlarda klinik hamda psixososyal natijalarni yaxshilashga yordam berishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Qandli diabet, shaxsiy resurslar, psixologik chidamlilik, ruhiy salomatlik, kurashish strategiyalari, o'ziga ishonch, hissiy farovonlik.*

Abstract: *This article aims to analyze the relationship between personal resources and psychological resilience in patients with diabetes, highlighting their importance in improving mental health, treatment adherence, and overall life satisfaction. The results of the study suggest that strengthening personal psychological resources can enhance resilience and contribute to better clinical and psychosocial outcomes in patients with diabetes.*

Keywords: *Diabetes, personal resources, psychological resilience, mental health, coping strategies, self-confidence, emotional well-being.*

Аннотация: *Цель данной статьи — проанализировать взаимосвязь между личными ресурсами и психологической устойчивостью у пациентов с диабетом, подчеркнув их важность для улучшения психического здоровья, приверженности лечению и общей удовлетворенности жизнью. Результаты исследования показывают, что укрепление личных психологических ресурсов может повысить устойчивость и способствовать улучшению клинических и психосоциальных исходов у пациентов с диабетом.*

Ключевые слова: *диабет, личные ресурсы, психологическая устойчивость, психическое здоровье, стратегии преодоления трудностей, уверенность в себе, эмоциональное благополучие.*

Kirish. Qandli diabet butun dunyoda eng keng tarqalgan surunkali yuqumsiz kasalliklardan biri bo'lib, uning tarqalishi va uzoq muddatli asoratlari jamoat salomatligi uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Fiziologik oqibatlardan tashqari, diabet bemorlarga sezilarli psixologik yuk yuklaydi, chunki doimiy o'zini o'zi nazorat qilish, davolanishga qat'iy rioya qilish, parhez cheklovlariga rioya qilish va asoratlardan qo'rqish stress, xavotir va depressiv alomatlarning yuqori darajasiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy diabetni davolash yondashuvlari nafaqat tibbiy davolanishga, balki psixologik va psixososyal yordamga ham tobora ko'proq urg'u bermoqda. Shu nuqtai nazardan, shaxsiy resurslar va psixologik barqarorlik tushunchalari ilmiy e'tiborni tortdi. Shaxsiy resurslar deganda, shaxslarga stressli hayot voqealari va surunkali holatlar bilan samarali kurashishga imkon

beradigan ichki va tashqi omillar to‘plami tushuniladi. Bular qatoriga o‘ziga ishonch, optimizm, motivatsiya, hissiy tartibga solish, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va ijtimoiy yordamning mavjudligi kabi kognitiv va hissiy qobiliyatlar kiradi. Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlar uchun ushbu resurslar uzoq muddatli o‘zini o‘zi parvarish qilish xatti-harakatlarini davom ettirish va hissiy muvozanatni saqlashda juda muhimdir. Shu sababli, maqola diabet tashxisi qo‘yilgan bemorlarda psixologik chidamlilikni oshirishda shaxsiy resurslarning ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan.

Adabiyotlar sharhi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘ziga ishonch, nekbinlik, hissiy tartibga solish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi shaxsiy resurslar bemorlarga stressni boshqarishda va davolanishga rioya qilishda muhim rol o‘ynaydi[1]. Psixologik chidamlilik, qiyinchiliklarga ijobiy moslashish qobiliyati sifatida ta’riflangan, ushbu resurslar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, hissiy barqarorlikni, kasallikka moslashishni va umumiy hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi[2].

Adaptiv kurashish strategiyalari chidamlilikni yanada oshiradi, bu esa bemorlarga surunkali kasallikning davomiy talablarini bajarishga imkon beradi[3]. Oila, tengdoshlar va tibbiyot xodimlarining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi shaxsiy resurslarni va chidamlilikni mustahkamlaydi, diabet bilan bog‘liq stressni kamaytiradi va davolash natijalarini yaxshilaydi[4].

O‘zbekistonda milliy siyosat va farmonlar surunkali kasalliklarni boshqarishda psixososyal yordamni integratsiyalashga urg‘u beradi, shuningdek, diabet bilan og‘rigan bemorlar uchun shaxsiy resurslar va chidamlilikni mustahkamlashning ahamiyatini ta’kidlaydi[5,6]. Global miqyosda JSST strategiyalari bemorlarning farovonligini va davolanishga rioya qilishni yaxshilash uchun surunkali yordamga ruhiy salomatlikni integratsiyalashni qo‘llab-quvvatlaydi[7,8].

Metodologiya. Ushbu tadqiqot diabet kasalligi tashxisi qo‘yilgan bemorlarda shaxsiy resurslar va psixologik chidamlilik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot surunkali kasallikda ichki va tashqi shaxsiy omillarning psixologik barqarorlikka ta’sirini tushunish uchun tavsifiy va analitik yondashuvdan foydalanadi. Tadqiqot ishtirokchilari orasida 2-toifa diabet tashxisi qo‘yilgan va muntazam tibbiy yordam olayotgan kattalar bemorlar mavjud. Ma’lumotlarni to‘plash shaxsiy resurslar, jumladan, o‘ziga ishonch, optimizm, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va kurashish strategiyalarini, shuningdek, psixologik chidamlilik darajalarini baholashga mo‘ljallangan tuzilgan anketalar va intervyular orqali amalga oshiriladi.

Tahlil shaxsiy resurslar va chidamlilik o‘rtasidagi naqshlar va korrelyatsiyalarni aniqlash, diabet bilan og‘rigan bemorlarda psixologik farovonlikni oshiradigan va samarali o‘zini o‘zi boshqarishni qo‘llab-quvvatlaydigan asosiy omillarni belgilashga qaratilgan. Ushbu natijalar surunkali kasallik sharoitida ruhiy salomatlik va kurashish qobiliyatlarini mustahkamlaydigan kelajakdagi aralashuvlarni rejalashtirishga yordam beradi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, shaxsiy resurslar 2-toifa diabet tashxisi qo‘yilgan bemorlarda psixologik chidamlilikka sezilarli darajada ta’sir qiladi. Baholangan resurslar orasida o‘ziga ishonch va optimizm hissiy barqarorlikni va moslashuvchan kurashni qo‘llab-quvvatlovchi eng muhim omillar sifatida ajralib turdi. O‘ziga ishonchi yuqori ekanligini bildirgan bemorlar davolanish rejimlariga yaxshiroq rioya qilishni, samarali ovqatlanish va turmush tarzini boshqarishni, shuningdek, diabet bilan bog‘liq stress darajasining pastligini ko‘rsatdilar. Optimist shaxslar kasalliklarni boshqarishga nisbatan ijobiy nuqtai nazarni saqlab, davom etayotgan qiyinchiliklarga qaramay, o‘z-o‘zini parvarish qilish faoliyatida ko‘proq motivatsiya namoyish etdilar.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ham chidamlilikni oshirishda muhim rol o‘ynadi. Kuchli oila va tengdoshlar yordamiga ega bo‘lgan ishtirokchilar xavotir va depressiv alomatlarning kamayganligini, shuningdek, kasallik bilan bog‘liq stressli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatining yaxshilanganligini bildirdilar. Hissiy tartibga solish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari bemorlarga umidsizlikni boshqarish, kutilmagan asoratlarga moslashish va sog‘lig‘ini nazorat qilish hissini saqlab qolish orqali chidamlilikka qo‘shimcha hissa qo‘shdi.

Bu topilmalar surunkali kasallik sharoitida shaxsiy resurslar va chidamlilik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’kidlaydigan global tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi. Masalan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yaxshi ishlab chiqilgan kurash

TAMADDUN NURI

strategiyalari va mustahkam ijtimoiy tarmoqlarga ega bo‘lgan shaxslar ruhiy salomatlikning yaxshiroq natijalarini boshdan kechiradi va o‘zini o‘zi boshqarishning izchil xatti-harakatlarini namoyish etadi. O‘zbekiston sharoitida ushbu natijalar, ayniqsa, bemorlarga yaxlit yordam ko‘rsatishni targ‘ib qiluvchi yaqinda amalga oshirilgan sog‘liqni saqlash islohotlari bilan bog‘liq holda katta ahamiyatga ega. Prezident farmonlari va hukumat dasturlari psixososyal yordamni surunkali kasalliklarni boshqarishga integratsiyalashuvini ta’kidlaydi, shaxsiy resurslar va chidamlilikning diabetni kompleks davolashning tarkibiy qismlari sifatida ahamiyatini oshiradi. Ushbu siyosatlar psixologik barqarorlikni kuchaytirish va bemorlarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan aralashuvlarni amalga oshirish uchun asos yaratadi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy resurslarni, xususan o‘ziga ishonch, optimizm va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish yuqori chidamlilik darajasiga, yaxshiroq hissiy farovonlikka va diabetni samaraliroq boshqarishga bevosita hissa qo‘shadi. Ushbu omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, maqsadli psixososyal aralashuvlar diabet bilan yashovchi bemorlarning ruhiy salomatligini va klinik natijalarini yaxshilashda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. Ushbu tadqiqot diabetni davolash jarayonida shaxsiy resurslar va psixologik barqarorlikning muhimligini ta’kidlaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘ziga ishonch, optimizm, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va samarali kurashish strategiyalari hissiy barqarorlikni sezilarli darajada oshiradi, kasallik bilan bog‘liq stressni kamaytiradi va bemorlarning davolanish rejimlariga rioya qilishini rag‘batlantiradi. Psixologik barqarorlik himoya mexanizmi sifatida ishlaydi, bu esa surunkali kasallikning qiyinchiliklariga ijobiy moslashish va umumiy farovonlikni saqlash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib, tibbiyot xodimlariga psixososyal yordamni standart diabetga qarshi tadbirlarga integratsiya qilish tavsiya etiladi. Bu yordamga maslahat berish, stressni boshqarish va chidamlilikni oshirish bo‘yicha faoliyatlar kiradi. Bemorlarni o‘qitish dasturlari ularning o‘z holatlarini boshqarish bo‘yicha ishonchini kuchaytirishga, o‘ziga ishonch va optimizmni rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Shuningdek, oilaviy ishtirok, tengdoshlar guruhlari va jamoatchilik bilan aloqalar kabi qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish hissiy va amaliy yordamni oshiradi hamda chidamlilikni mustahkamlaydi. Tizimli sog‘liqni saqlash siyosati va dasturlari tibbiy davolanishni psixologik aralashuvlar bilan uyg‘unlashtirishga ustuvor e’tibor qaratishi, shuningdek, diabetni boshqarishda bemorga yo‘naltirilgan, yaxlit yondashuvni ta’minlashi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hobfoll S. E. Resurslarni tejash: Stressni kontseptsiyalashtirishga yangi urinish // Amerika psixologi. 1989, 44-jild, № 3. B. 513–524.
2. Connor K.M., Davidson J. R. T. Yangi chidamlilik shkalasini ishlab chiqish: Connor-Davidson chidamlilik shkalasi (CD-RISC) // Depressiya va xavotir. 2003, 18-jild, № 2. B. 76–82.
3. Luszczynska A., Scholz U., Schwarzer R. Umumiy o'ziga ishonch shkalasi: Ko‘p madaniyatli tasdiqlash tadqiqotlari // Psixologiya jurnali. 2011, 139-jild, № 5. B. 439–457.
4. Fisher L., Hessler D., Polonsky V., Mullan J. Qandli diabet kasalligi klinik jihatdan qachon ma'noga ega? // Qandli diabetni davolash. 2012, 35-jild, № 2. B. 259–264.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining buyrug‘i. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan to‘g‘rilash chora-tadbirlari. PF–5590-son. Toshkent, 2018–yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Noiq iqtisodiy yukumli kasalliklarning oldini olish va sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari. 735-son. Toshkent, 2021–yil.
7. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. 2013–2030-yillar uchun ruhiy salomatlik bo‘yicha kompleks harakatlar rejasi. Jeneva: JSST, 2013–yil. 50 b.
8. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti. Qandli diabet bo‘yicha global hisobot. Jeneva: JSST, 2023–yil. 88 b.

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 1(091):316.42

SHARQ VA G‘ARB MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA IJTIMOIY ADOLAT KONSEPSIYASI

Maxmudov Izzatillo Ne’matilloyevich, Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

THE CONCEPT OF SOCIAL JUSTICE IN THE VIEWS OF EASTERN AND WESTERN THINKERS

Mahmudov Izzatillo Ne’matilloyevich, Independent Researcher, Bukhara State University

КОНЦЕПЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ В ВОЗЗРЕНИЯХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА И ЗАПАДА

Махмудов Иззатилло Неъматиллоевич, независимый исследователь Бухарского государственного университета



https://orcid.org/0009-0001-6873-7266
e-mail: i.n.maxmudov@buxdu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sharq va G‘arb mutafakkirlarining ijtimoiy adolat haqidagi qarashlari tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada qadimgi Sharq mutafakkirlari asarlaridagi adolat talqinlari bilan bir qatorda, antik yunon faylasuflari qarashlari qiyosiy yoritiladi. Adolat tushunchasining axloqiy, huquqiy va siyosiy mazmuni ochib berilib, jamiyat va davlat boshqaruvida tutgan o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi. Sharqda axloqiy-me’yoriy yondashuv ustuvorligi, G‘arbda esa huquqiy-institutsional talqin kuchliligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *evolyutsiya, sivilizatsiya, adolat, haqiqat, qonun, axloq.*

Abstract: *This article analyzes the views of Eastern and Western thinkers on social justice from a historical and philosophical perspective. Along with interpretations of justice found in the works of ancient Eastern scholars, the article provides a comparative overview of the ideas of ancient Greek philosophers. The moral, legal, and political content of the concept of justice is revealed, and its role in the governance of society and the state is highlighted. The priority of the moral-normative approach in the East and the stronger legal-institutional interpretation in the West is substantiated.*

Keywords: *evolution, civilization, justice, truth, law, morality.*

Аннотация: *В данной статье с историко-философской точки зрения анализируются взгляды мыслителей Востока и Запада на социальную справедливость. В статье, наряду с интерпретациями справедливости в трудах мыслителей Древнего Востока, проводится сравнительное освещение взглядов античных греческих философов. Раскрывается нравственное, правовое и политическое содержание понятия справедливости, а также показывается её место и роль в управлении обществом и государством. Обосновывается приоритет морально-нормативного подхода на Востоке и большая выраженность правово-институциональной интерпретации на Западе.*

Ключевые слова: *эволюция, цивилизация, справедливость, истина, закон, мораль.*

KIRISH. Adolat insoniyat tomonidan qadimdan qadrlanib, intiladigan ideal sifatida haqiqat, tenglik va odillik kabi ezgu g‘oyalarni o‘zida mujassam etadi. Bu tushuncha inson va jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlar, yurish-turish qoidalari, tartib-intizom hamda axloqiy normalarning haqiqat mezonlariga qanchalik mos kelishini aniqlashda tarixiy davrlarda ma’naviy va axloqiy o‘lchov sifatida xizmat qilgan. Shu bois, jamiyatning shaxsga, shaxsning jamiyatga va bir shaxsning boshqa shaxsga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladigan adolat tamoyillari ushbu munosabatlarni baholashning o‘zgarmas mezoni hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik va qiyosiy-tahliliy yondashuvlar asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Sharq va G‘arb manbalaridagi adolat konsepsiyalari matnshunoslik va

kontseptual tahlil orqali o‘rganildi. Klassik falsafiy asarlar mazmuniy rekonstruksiya usuli bilan sharhlanib, g‘oyalar evolyutsiyasi izchil ochib berildi. Qiyosiy metod yordamida turli sivilizatsiyalardagi adolat talqinlarining umumiy va farqli jihatlari aniqlashga harakat qilindi. Shuningdek, aksiologik va tizimli yondashuv orqali adolatning axloqiy, siyosiy va ijtimoiy o‘lchamlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Adolat haqidagi bahslar Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarida uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, mutafakkirlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Masalan, zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”ning Yasht qismida adolat va haqiqat tushunchalari “Adolat madhiyasi” orqali keng yoritilgan. Zardushtiylikda “asha” qonuni haqiqat va adolat ramzi sifatida tasvirlangan [1]. Shuningdek, zardushtiylikda “haqiqat” va “adolat” g‘oyalari qadimgi fors tilidagi “arta” tushunchasi orqali ifodalangan. Axloq kodeksida adolatparvar va haqiqatparvar bo‘lish, hamda jamiyatda bu fazilatlarni amalda qo‘llashga da’vat etilgan.

Konfutsiy ta’limotidagi adolat konsepsiyasi qadimgi Sharq falsafasidagi axloqiy va huquqiy an’analar bilan chambarchas bog‘liq. Konfutsiy qarashlari birinchi navbatda siyosiy mazmunga ega bo‘lib, jamiyatni uyg‘un ravishda tashkil etish va isloh qilish yo‘llarini izlashga qaratilgan [2]. Faylasuf fikricha, adolat boshqaruv prinsipi bo‘lishi bilan birga, ijtimoiy xulq-atvor prinsiplaridan biri yoki har bir kishi egasi bo‘lishi lozim bo‘lgan “axloqiy tuyg‘u” sifatida ham ta’riflanadi.

Konfutsiy konsepsiyasida adolatparvarlik insonlarning ijtimoiy munosabatlar, o‘zaro majburiyatlar va bir-biriga g‘amxo‘rlik qilishida namoyon bo‘ladi. Shu munosabatda u huquqiy majburlashni kamaytirish va odamlarni axloqiy normalar bilan boshqarish zarurligini ta’kidlaydi.

Sharq falsafasi tarixida muhim o‘rin tutgan alloma Abu Nasr Forobiy (873–959 yy.) ilmiy merosida adolat, haqiqat, tenglik va to‘g‘rilik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Uning odil inson va jamiyat haqidagi qarashlari “Fozil odamlar shahri” asarida ifodalangan.

Buyuk alloma Ibn Sino (980–1037 yy.) yozadi: “Ijtimoiy adolat – jamiyat a’zolarini zo‘rma-zo‘raki teng holatda saqlashdan iborat emas. Barcha kishilarning shoh va sultonlarga aylanishi yoki hammaning qashshoqlardan iborat bo‘lishi adolatdan emas. Bunday vaziyatda tabiiy va ijtimoiy qonun qoidalarga tubdan ziddir. Jamiyatda tengsizlik hukmronlik qiladi. Sohiblar va g‘ulomlarning mavjudligi qonuniy bir holatdir. Uni hech qanday kuch-qudrat, istak yoki hohish o‘zgartira olmaydi, chunki har bir kimsa o‘z mehnati va faoliyatiga qarab orzu va maqsadiga erishadi” [3]. Olimning e’tiqodicha, umumiy hisoblangan qonun saltanatining tantanasi adolatsizlikka chek qo‘yadi.

Abu Rayhon al-Beruniy (973–1048 yy.) buyuk faylasuf va qomusiy olim sifatida 1030-yilda “Tarix al-Hind” (Hindiston tarixi) nomli risolasida adolat konsepsiyasini ilgari suradi. Beruniy fikricha, jamiyatda adolatni tan olish uchun madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni hisobga olish zarur. U adolat barqaror emasligini ta’kidlab, uni adolatli podshoh himoya qilishi lozim, deb hisoblaydi [4].

Yusuf Xos Hojib (1020/21–? yy.) adolat, baxt va aqlning jamiyat hamda davlat hayotidagi rolini “Qutadg‘u bilig” (“Baxtga eltuvchi bilim”) dostonida obrazlar orqali ochib bergan:

– Kuntug‘di – elig (hukmdor) – Adolat timsoli;
– Oyto‘ldi – vazir – Davlat timsoli;
– O‘gdulmish – vazirning o‘g‘li (otasining vafotidan keyin vazir) – Aql timsoli;
– O‘zg‘urmish – Oyto‘ldining uzoq qarindoshi, zohid – Qanoat (ofiyat) timsoli.

Alloma “Qutadg‘u bilig” dostonida aqlning avvalo adolatga himoyachi va maslahatchi bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Dostonda so‘fizm qoidalari va haqiqiy taqvo sohiblariga bo‘lgan ehtirom ifodalanadi. Ayniqsa, inson, jamiyat va davlat baxti hamda adolat tantanasi uchun umrini bag‘ishlash ustuvor g‘oya sifatida talqin etiladi. Shunday qilib, dostondagi ideal qahramon O‘gdulmish – Aql va Bilim egasi bo‘lib, umrini Adolat xizmatiga bag‘ishlagan shaxsdir.

Nizomulmulk (1017–1092 yy.) “Siyosatnoma” asarida adolat, adolatli boshqaruv va hukmdor to‘g‘risida pand-nasihatlar va axloqiy qarashlarni ilgari suradi. Mutafakkir fikricha, mamlakatda adolat hukm surishi davlat boshlig‘i – podshoh faoliyatiga bog‘liq. Asarda podshohning raiyatni qabuliga chorlashiga oid quyidagi fikrlar adolatli boshqaruvning yorqin namunasi sifatida keltiriladi: “Podshoh haftada ikki kun zulm ko‘rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini eshitib, jazolab borishi lozim. Muhim arizalarni qabul qilib, har biriga javob berishi zarur. Agar podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so‘zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi, degan xabar mamlakatga tarqalsa, zolimlar qilmishlarining oqibatini o‘ylab, bedodlik qilmaydilar” [5].

Qadimgi yunon falsafasida adolat masalasini ilmiy tadqiq etganda, Gomerning “dikaion”

tushunchasi adolatli shaxsni tasvirlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Siyosiy jamiyatga tatbiq etilganda “dikaiosune” – adolat umumiy tushunchasi shakllangan. Mutafakkir “Iliada” va “Oddiseya” dostonlarida adolatni qasos olish va o‘z qo‘lida nazorat qilish harakati sifatida tasvirlagan. Antik yunon faylasufi Gesiod asarlarida qonun va adolat masalalarini insoniyat uchun universal mohiyatda ochishga harakat qilgan. Masalan, “Mehnat va kunlar” asarida mehnat inson hayotining ajralmas qismi ekani, mehnatsevar shaxs eng og‘ir mehnatga ham bardosh bera olishi g‘oyasi ifodalanadi. Gesiodning adolat haqidagi qarashini “Mehnat va kunlar” va “Teogoniya” asarlariga tayangan holda, adolatni Xudolar, odamlar va hayvonlarga nisbatan uch turga ajratish mumkin. Har bir toifadagi mavjudotlar uchun adolatning mohiyati Xudolarning odamlardan ustunligi va hayvonlarning mehnatga intilishi bilan farqlanadi. Platonning adolat to‘g‘risidagi qarashlari uning axloqiy falsafasining markazida turadi. Faylasuf “Dikaisyne” so‘zini adolat ma’nosida ishlatgan, u insonning barcha burchlarini qamrab oladi [6]. Platon ta’kidlaganidek, adolat ruhiy sifat bo‘lib, odamlar har qanday shaxsiy zavqni mantiqsizlik deb hisoblab, umumiy manfaatlar uchun vazifalarni bajarishga moslashadilar. Platonning adolat nazariyasi ko‘pincha “Adolatning arxitektonik nazariyasi” nomi bilan tanilgan. Faylasufning tushuntirishicha, bino qurilishida uning har bir qismi turli hunarmandlar tomonidan tayyorlanadi, lekin me’mor ularni uyg‘unlashtirib, binoning yakuniy ko‘rinishini hosil qiladi va shu orqali uning ko‘rkini oshiradi. Xuddi shunday, adolatli jamiyat uchta asosiy fazilat – vazminlik, jasorat va donolik – orqali shakllanadi. Bu fazilatlar mos ravishda Savdogarlar, Askarlar va Faylasuflar toifasi tomonidan amalga oshiriladi. To‘rtinchi fazilat sifatida Adolat jamiyatning mukammal barpo etilishida me’mor rolini bajaradi. Shu sababli Platonning qarashlari, arxitektura va jamiyatni tashkil etish o‘rtasidagi o‘ziga xos bog‘liqlikni ko‘rsatganligi sababli, uning nazariyasi adolatning arxitektonik nazariyasi deb ataladi.

Aristotel tomonidan ilgari surilgan adolat konsepsiyasining asosiy manbai “Nikomax etikasi” asaridir. Asarda faylasuf o‘z adolat tushunchasini ikki jihatdan tushuntiradi:

1. Tor ma’noda adolat ba’zida “tenglik” deb ataladi, lekin bu arifmetik tenglik emas, balki proporsional tenglik bo‘lib, u uch turga bo‘linadi: taqsimlovchi, tuzatuvchi va o‘zaro adolatlilik.
2. Keng ma’noda adolat – bu qonuniylikdir. Aristotel “qonun” deganda “qonun, qoida va odat” deb atash mumkin bo‘lgan narsalarni nazarda tutadi va barcha adolat turlarini ushbu qonunlar bilan bog‘liq deb ta’kidlaydi.

Faylasuf ta’rificha, adolat – jamiyatda barqaror qonunlar, qoidalar va urf-odatlar tizimini saqlashni ta’minlaydigan intellektual va hissiy mahoratdir. Bu esa shaxsni o‘zining yakuniy maqsadi – farovonlik va baxtga erishish – sari yetaklaydi. Adolatli bo‘lish boshqa barcha fazilatlarga ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi. Adolatli shaxs nizolarni hal qilishda, resurslarni taqsimlashda va jazo belgilashda (o‘zaro, taqsimlovchi va tuzatuvchi adolat) mahoratga ega bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, adolat tushunchasi qadim davrlarda kishilararo munosabatlarda va shaxs hamda jamoa o‘rtasidagi aloqalarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lgan. Sharq mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyoda, jamiyat va davlatni boshqarishda adolat doimo muhim o‘rinni egallab kelgan. Umuman olganda, G‘arb mamlakatlaridan farqli ravishda, Sharq mamlakatlarida davlat boshqaruvida axloqiy me’yorlar, xulq-odob qoidalari va insonparvarlikka rioya qilish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Avesto. Yasht kitobi. Tarj. Ishoqov M. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 43.
2. Lebow, Richard Ned, and Feng Zhang. Justice in Confucianism. // Justice and International Order: East and West. – New York, 2022. – P. 34–38.
3. O‘zbek falsafasi tarixi. Q. Nazarov (va boshqalar). – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020. – B. 52.
4. Abu Rayhon al-Beruniy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1965. – B. 468.
5. Nizomulkmulk. Siyosatnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 312.
6. Bhandari, D. R. Plato`s Concept of Justice: An Analysis.J.N.V.University. Available at: https:// www.bu.edu/wcp/Papers/Anci/AnciBhan.htm.
7. Turdiyev, B. S., & Wekke, I. S. Illuminating the Legacy of Al-Farabi, Ibn Sina, and Al-Biruni: Exploring Political and Legal Philosophies in Transoxiana. Asian Journal of Basic Science & Research, 6(2), 159–166, 2024.

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 398.22:81'373.23

TURK VA O‘ZBEK ERTAKLARIDA HAYVON OBRAZI

Kenjabayeva Barchinoy, Ajiniyoz nomidagi NukusDPI O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistranti

ANIMAL IMAGE IN TURKISH AND UZBEKISTAN ISSUES

Kenjabayeva Barchinoy, 2nd-year Master's student in Uzbek Language and Literature, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

ОБРАЗЫ ЖИВОТНЫХ В ТУРЕЦКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗКАХ

Кенжабаева Барчиной, магистрант 2-курса по специальности "Узбекский язык и литература", Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза



https://orcid.org/009-007-5874-9822
e-mail: barcinajkenzabaeva@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ertaklar epik folklorning eng sermahsul janri ekanligi, o‘zbek va turk xalq og‘zaki ijodida ham ertaklar salmoqli o‘rin egallashi, ikkala xalq ertaklaridagi hayvon obrazining o‘xshash va farqli jihatlari, kelib chiqish tarixi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *folklor, dualizm, sujet, didaktik maqsad, sarguzasht, obraz, mifologik maktab.*

Abstract*: This article highlights the fact that fairy tales are the most prolific genre of epic folklore, that fairy tales also occupy a significant place in Uzbek and Turkish oral folklore, and the similarities and differences between the images of animals in the tales of both peoples, as well as their history of origin.*

Keywords: *folklore, dualism, story, didactic purpose, adventure, image, mythological school.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается тот факт, что сказки являются наиболее продуктивным жанром эпического фольклора, что сказки также занимают значительное место в узбекском и турецком устном фольклоре, сходства и различия в образе животных в сказках обоих народов, а также история их происхождения.*

Ключевые слова: *фольклор, дуализм, субъект, дидактическая цель, приключение, образ, мифологическая школа.*

Kirish. Ertaklarning yuzaga kelishida qadimiy urf-odatlar, marosimlar hamda mifologik tasavvurlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ertaklarning mustaqil janr sifatida shakllanishi olam haqidagi ibtidoiy qarashlar xayoliy shaklda ifodalangan davrlarga borib taqaladi. Chunki aynan shu davrlarda aniq voqea va hodisalar, urug‘-qabilalar hayoti bilan bog‘liq miflar hamda an'anaviy urf-odatlar o‘zining dastlabki kuchi va maishiy vazifasini yo‘qotib, kishilar ongida g‘aroyib va noodatiy hodisa sifatida idrok etila boshlagan. Ertak motivlarining ilk namunalari asosan ta'limiy-didaktik xarakterga ega bo‘lib, keyingi bosqichlarda ijtimoiy-maishiy mazmun kasb etgan. Hayot haqiqati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida yaratilgan hamda didaktik g‘oyani tashuvchi og‘zaki hikoyalar ertak deb ataladi. Ertaklar epik folklorning eng sermahsul janrlaridan biri hisoblanadi. Dunyoning barcha qit'alarida, turli xalqlar orasida ertaklar, ularni xalq orasida targ‘ib qilib kelgan ertakchilar, shuningdek, ushbu janrni o‘rganuvchi nazariyachilar — ertakshunoslar mavjud. O‘zbek ertakchiligi ham qadimiy va boy tarixga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o‘zbek va turk ertaklarida hayvon obrazining qiyosiy tahlilini nazariy jihatdan yoritish maqsadida tavsifiy-tahliliy, qiyosiy, kuzatuv hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Hayvonlar haqidagi ertaklar o‘ziga xos aks ettirish mezoniga ega bo‘lib, bu turdagi asarlarda tasvirlash asosan xayoliy uydirmalarga tayanadi. Ushbu ertaklardagi obrazlar ko‘chma, aniqrog‘i, ramziy ma’no kasb etadi. Hayvon personajlar insoniy nutqda so‘zlaydi, harakat qiladi, fikrlaydi va o‘zaro munosabatga kirishadi. Bo‘rining o‘ta go‘l va laqmalik xususiyatlari, tulkining ayyor va makkorona harakatlari, echkining esa oqilona va dono tadbirkorligi real hayotiy sifatlar emas, balki ibtidoiy tasavvurlarning badiiy ijod doirasida shakllangan ramziy belgilaridir. Shu bois bu turdagi personajlar shartli obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga qaramay, ularda hayvonlarga xos ayrim hayotiy belgilar hamda real voqealar bilan bog‘liqlik saqlanib qolgan. Jumladan, “Ot bo‘riga qarabdi, uni iskamoqchi bo‘lganida bo‘ri ot tumshug‘idan tishlab olib turaveribdi. Ot shuncha urunsa hamki, bo‘ri qo‘yib yubormabdi”. Ushbu holatda ko‘chma ma’no mavjud emas, voqea o‘zining bevosita ma’nosida ifodalangan. Otning soddaligi va bo‘rining ayyorligi hayotiy belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Ertakda ana shunday hodisalarning uchrashi mazkur tipdagi asarlarni majoziy emas, balki hayvonlar haqidagi ertaklar deb atashga asos bo‘ladi.

Ma’lumki, hayvonlar haqidagi ertaklar ibtidoiy ovchi va chorvadorlarning kuzatishlari, shuningdek, dualistik tasavvurlar zamirida shakllangan. Ertaklarning bu turi dastlab parranda va darrandalarning g‘ayrioddiy bo‘lib ko‘ringan xatti-harakatlari hamda o‘ziga xos belgilarini hikoya qilishga qaratilgan. Ushbu asarlardagi hayvon personajlar insoniy nutqda so‘zlaydi va o‘zaro munosabatga kirishadi. Bugungi nuqtayi nazardan g‘alati va notabiiy bo‘lib tuyuladigan bu holat ibtidoiy kishilarning o‘simlik, hayvon va odamni bir butun mavjudot sifatida tasavvur qilgan qarashlaridan kelib chiqqan.

Tahlil va natijalar. «Dede qo‘rqut» kitobidan boshlab XX asr boshlariga qadar yaratilgan barcha adabiy va badiiy yodgorliklarda o‘zbek xalqining qadimiy ertakchiligi, dostonchiligi, qissalari hamda afsonalari turli shakllarda o‘z aksini topgan [4:127]. Ertak atamasining qachondan boshlab qo‘llanila boshlaganini aniq belgilash mushkul bo‘lsa-da, uning nihoyatda qadimiy ildizlarga ega ekani va xalq og‘zaki ijodining dastlabki adabiy janrlaridan biri hisoblanishi ilmiy manbalarda e’tirof etiladi.

Turk xalq og‘zaki ijodida ham ertaklar muhim o‘rin egallaydi. Turk tilida ertak “ertak”, masal esa “masal” nomi bilan yuritilib, “Qomusi Usmoniya”da qayd etilishicha, u odob-axloq va nasihat ma’nosini anglatgan arabcha so‘z sifatida izohlanadi [1:78–80].

Mazmuniy jihatdan turk ertaklarini to‘rt asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar;
2. Sehrgarlik ertaklari;
3. Maishiy ertaklar;
4. Kalo‘g‘lon turkum ertaklari.

Hayvonlar haqidagi turk ertaklari xronologik jihatdan qadimiy bo‘lib, o‘ziga xos badiiy va mazmuniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. “Ayiq bilan tulki”, “Tulki bilan ilon”, “Kampir bilan tulki” kabi ko‘plab hayvonlar haqidagi ertaklarda har bir hayvon muayyan ramziy ma’noga ega bo‘lib, maxsus mazmunni ifodalaydi. Turkiyada ertaklar asosan maddohlar tomonidan, ko‘pincha esa ayol ertakchilar vositasida xalq orasida tarqatilgan [4:127].

Hayvonlar haqidagi ertaklarning badiiyati, obrazlar tizimi hamda kompozitsion qurilishi o‘ziga xos uslubiy belgilarga ega. Bu turdagi ertaklar nutq motivi asosida qurilib, voqealarning nisbatan osoyishta rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Ularning badiiyligi va shakliy tuzilishi qat’iy barqarorlikka ega emas. Motivlar vaqt va zamon o‘tishi bilan o‘zgarib boradi, biroq ularning asosiy mohiyati saqlanib qoladi.

Mavzusiga ko‘ra hayvonlar haqidagi ertaklarni uch asosiy tipga ajratish mumkin:

1. Oziq topish uchun kurash;
2. Do‘stlik va o‘ch olish uchun kurash;
3. Yaxshi natija uchun musobaqa.

Mazkur turdagi ertaklarda qarama-qarshilik, asosan, hayvon bilan hayvon yoki hayvon bilan inson o‘rtasida yuzaga keladi.

Oziq topish uchun kurash motiviga asoslangan ertaklar maishiy mazmun kasb etib, undagi to‘qnashuv ko‘pincha hayvon bilan hayvon o‘rtasida sodir bo‘ladi. Masalan, “Bo‘ri bilan echki” ertagida bo‘ri ochlik sabab echkini yeb qo‘ymoqchi bo‘ladi, biroq echki hiyla ishlatib, undan qutulib qoladi. Ushbu ertak turk xalq og‘zaki ijodida ham mavjud bo‘lib, “Kurt ile keçi” nomi bilan tanilgan. Unda ham echki o‘zini yemoqchi bo‘lgan bo‘ridan aql va hiyla yordamida qutuladi. Shuningdek, “Tulki bilan turna”, “Bo‘ri, tulki va xo‘roz”, “Och bo‘ri” kabi o‘zbek xalq ertaklari, turk xalq ertaklaridan esa “Aç kurt ile tilki”, “Tilki ile leylek”, “Aç köpek ile kemik” kabi asarlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Ushbu ertaklarda raqib personajlar asosan vahshiy hayvonlar — sher, bo‘ri, tulkidan iborat bo‘lib, voqealar yechimi ularning laqmalik va go‘llik kabi sifatlarini hajviy ruhda fosh etishga qaratilgan. Yetakchi obrazlar o‘ta ayyor, raqib

TAMADDUN NURI

personajlar esa sodda, go‘l va laqma sifatlari bilan tasvirlanadi.

Do‘stlik va o‘ch olish motiviga asoslangan ertaklarda esa to‘qnashuv vahshiy hayvonlar bilan uy hayvonlari o‘rtasida kechadi. Bunday ertaklarga “Bo‘ri bilan tuya” ertagini misol qilib keltirish mumkin. Unda bo‘ri, tulki va ayiqlar tuyani do‘st tutadi, biroq keyinchalik unga xiyonat qiladi. Mazkur ertakda soxta do‘stlik va manfaat asosidagi munosabatlarning salbiy oqibatlari yoritiladi. “Echki bilan sher” ertagida esa, aksincha, haqiqiy do‘stlik va sadoqat g‘oyasi sherning echkini himoya qilishi orqali ifodalanadi. “Ikki do‘st” ertagida ikki do‘st yo‘lda yirtqich hayvonga duch keladi: biri daraxtga chiqib jonini saqlaydi, ikkinchisi esa yerda qoladi. Xavf o‘tib ketgach, daraxtga chiqqan do‘st: “Bo‘ri qulog‘ingga nima dedi?” deb so‘raganida, u: “Yolg‘onchi do‘stdan yiroq yur, dedi”, deya javob beradi. Ushbu ertakdan haqiqiy do‘stning inson boshiga sinov tushgan paytda bilinishi haqidagi xulosa kelib chiqadi. Bu syujet Turk xalq ertagi bo‘lgan “Iki arkadaş” (“Ikki do‘st”) variantida ham uchraydi.

Turk xalq ertaklarida ham chin do‘stlik va sadoqat g‘oyalarini targ‘ib etuvchi asarlar ko‘p uchraydi. Jumladan, “Aslan ile fare” (“Sher bilan sichqon”) ertagida sher sichqonni tutib oladi, biroq rahmi kelib uni ozod qiladi. Oradan vaqt o‘tib, sichqon sher tuzoqqa tushganida arqonni kemirib, uni qutqaradi. “Köylü ile ayı” (“Qishloqi va ayiq”) ertagida esa aqlsiz do‘stning dushmandan ham xavfli ekanligi badiiy tarzda ifodalangan. O‘ch olish va qasos motiviga asoslangan ertaklar har ikkala xalq og‘zaki ijodida ham anchagina uchraydi. Ushbu ertaklarda adolatli qasos, hiylaga hiyla bilan javob qaytarish, aql bilan o‘ch olish hamda yovuzlikning jazolanishi kabi g‘oyalar badiiy tarzda yoritiladi. Bunga o‘zbek xalq ertaklari bo‘lmish “Bo‘ri bilan tulki”, “Kampir va tulki” asarlarini misol sifatida keltirish mumkin. Turk xalq ertaklarida esa “Kurt ile tilki” (“Bo‘ri bilan tulki”), “Padişah kızı ve dev” (“Podsho qizi va dev”), “Tilki ile leylek” kabi ertaklarda yovuzlik ustidan g‘alaba qozonish, adolatsizlikka qarshi kurash g‘oyasi yetakchi o‘rinni egallaydi.

Yaxshi natija uchun musobaqa mazmunidagi ertaklarda hayvon bilan hayvon yoki hayvon bilan inson o‘rtasida to‘qnashuv yuz beradi. Bunday ziddiyatlarda inson yetakchi figura sifatida namoyon bo‘lib, faol harakati bilan ajralib turadi. Ushbu turdagi ertaklar aqliy sinov motivlariga asoslanadi va raqib personajlarning o‘ta laqmaligi hamda kaltabinlik xususiyatlari fosh etiladi, mehnat va to‘g‘rilik ulug‘lanadi. Bunga “Qarg‘a bilan tovus” (unda qarg‘a bilan tovus go‘zallik va dono so‘zda bellashadi, tovus go‘zalligi bilan, qarg‘a esa aqli bilan ustun keladi), “Qizil olma” (uch aka-uka safarga chiqib, kim eng qimmatbaho narsa topishi haqida musobaqalashadi, kenja aka mehr va sadoqat bilan harakat qilib, g‘olib bo‘ladi) ertaklarini misol qilish mumkin. Turk xalq ertaklarida esa “Keloğlan ve padişah kızı” (“Kelo‘g‘lon va podishoh qizi”), “Aslan ile tilki” (“Sher bilan tulki”), “Uç kardeş” (“Uch aka-uka”) hamda “Güzel ile çirkin” (“Go‘zal bilan irkit”) kabi ertaklarda ham yaxshi natija uchun musobaqa tasvirlanadi va bu asarlarda mehnatsevarlik, samimiyat hamda halollik singari fazilatlar ulug‘lanadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning o‘ziga xos belgilaridan yana biri voqea va hodisalarning asosan hayvon bilan hayvon o‘rtasidagi to‘qnashuv asosida rivojlanishidir. Bunday qarama-qarshiliklarning sababi ovqat topish, do‘stlik, birlashishga intilish, o‘ch olish, yovuzlikka qarshi chiqish, shuningdek, olam haqidagi ibtidoiy tasavvur va tushunchalar zamirida kechadi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, o‘zbek va turk xalq ertaklari qadimiyligi hamda o‘ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ma’naviy qadriyatlarimiz tizimida muhim o‘rin egallaydi. Hayvonlar haqidagi ertaklar xalq badiiy ijodining muhim janrlaridan biri bo‘lib, hayot haqiqati bilan chambarchas bog‘langan, falsafiy-ta’limiy g‘oyalar va hayotiy muammolar asosida yaratilgan, badiiy to‘qima va uydurmalardan butunlay xoli bo‘lmagan og‘zaki hikoyalar sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. – T.: Fan, 1964. – 78–80-betlar.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 193-bet.
3. Jalolov G‘. O‘zbek xalq ertaklari poetikasi. – T.: Fan, 1976. – 32-bet.
4. Yusupov J. Xorazm ertagi va hayot haqiqati. – T.: Fan, 1997. – 127-bet.
5. O‘zbek xalq ertaklari. 1-tom. 13–16, 26–28, 32–35, 47–56, 73–75, 80–81-betlar.

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.1)

XX ASRNING 20-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING SURXON VOHASIDA AN'ANAVIY TA'LIM TIZIMIGA NISBATAN SALBIY MUNOSABATI

Tojiyev Jasur Alisher o'g'li, Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi



https://orcid.org/0009-0008-1123-456X
e-vail: tojiyev4j@gmail.com

THE NEGATIVE ATTITUDE OF THE SOVIET GOVERNMENT TOWARD THE TRADITIONAL EDUCATION SYSTEM IN THE SURKHAN VALLEY IN THE 1920S

Tojiyev Jasur Alisher o'g'li, Independent Researcher, Termez State University

НЕГАТИВНОЕ ОТНОШЕНИЕ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ К ТРАДИЦИОННОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ДОЛИНЕ В 1920-Е ГОДЫ

Тоджиев Джасур Алишер оглы, независимый исследователь, Термезский государственный университет

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XX asrning 20-yillarida sovet hokimiyatining Surxon vohasida shakllangan an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan olib borgan siyosati hamda uning oqibatlari ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida eski usul maktablari va madrasalarning faoliyatiga bo'lgan munosabati, ularni cheklash hamda bosqichma-bosqich tugatishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritib beriladi. Shuningdek, Surxon vohasida mavjud bo'lgan an'anaviy ta'lim muassasalarining jamiyatdagi o'rni, ularning o'quv dasturlari, aholining mazkur maktablarga bo'lgan munosabati hamda sovet maktablarini joriy etish jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy qarama-qarshiliklar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Surxon vohasi, sovet hokimiyati, an'anaviy ta'lim, eski usul maktablari, madrasalar, maorif siyosati.*

Abstract: *This article analyzes, on the basis of scholarly sources, the policy pursued by the Soviet authorities in the 1920s toward the traditional education system that had taken shape in the Surkhan oasis, as well as the consequences of this policy. The study examines the attitude of the Soviet government in its early years toward old-method schools and madrasas, along with the measures aimed at restricting their activities and gradually eliminating them. It also highlights the role of traditional educational institutions in the Surkhan oasis, their curricula, public attitudes toward these schools, and the socio-cultural contradictions that emerged during the introduction of Soviet schools.*

Keywords: *Surkhan oasis, Soviet authority, traditional education, old-method schools, madrasas, education policy.*

Аннотация: *В данной статье на основе научных источников анализируется политика, проводимая советской властью в 1920-е годы в отношении традиционной системы образования, сложившейся в Сурхонской долине, а также последствия данной политики. В исследовании раскрывается отношение советской власти в первые годы её существования к школам старого типа и медресе, меры по ограничению их деятельности и поэтапной ликвидации. Кроме того, освещается роль традиционных образовательных учреждений в Сурхонской долине, их учебные программы, отношение*

населения к этим школам, а также социально-культурные противоречия, возникшие в процессе внедрения советских школ.

Ключевые слова: *Сурхонская долина, советская власть, традиционное образование, школы старого типа, медресе, политика в сфере просвещения.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bolsheviklar o‘z siyosiy bayonotlarida demokratiya, ijtimoiy tenglik hamda millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini qo‘llab-quvvatlashlarini ta’kidlaganlar. Ammo amalda milliy manfaatlar, diniy his-tuyg‘ular, musulmon aholining an’analari va marosimlari mutlaqo e’tiborga olinmadi. Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelishi bilan Boysun, Denov va Sherobod bekliklari tugatilib, milliy madaniyatni cheklashga qaratilgan siyosat olib borildi. Dastlab ular asosan milliy madaniyat va ma’rifat markazlari bo‘lgan Boysundagi “Hududiya”, Denovdagi “Sayyid Otaliq”, Sheroboddagi “Imom Iso at-Termiziy”, “Sayyid Otaliq at-Termiziy” madrasalari, shuningdek, Boysundagi Darband, Panjob, Pasrux, Kofurin, Denovdagi Sina, Vaxshivor, To‘xtamish, Sangardak hamda Sheroboddagi Poshxurt, Laylagan, Kallomozor, Chag‘atoy, Sayitobod qishloqlaridagi kichik madrasalar va boshlang‘ich maktablarda mavjud bo‘lgan ta’lim tizimini kommunistik siyosat g‘oyalariga muvofiq tugatishga yo‘naltirilgan choralarni amalga oshirdilar.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Surxon vohasidagi bekliklarda faoliyat yuritgan eski maktab va madrasalar rasman taqiqlanmagan edi. Shu sababli ular ma’lum darajada o‘z faoliyatini davom ettirdi. Biroq mahalliy sovet tashkilotlarining aniq ko‘rsatmalari mavjud bo‘lmagani bois, markaz tomonidan qabul qilingan va o‘lka sharoitiga to‘liq mos kelmagan qonunlarga amal qilishga majbur bo‘lindi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Surxon vohasida an’anaviy ta’lim tizimi mahalliy aholi hayotida muhim o‘rin egallagan. 1880-yilda Boysun bekligining Darband amlokdorligida bo‘lgan I.V. Mushketov qaydlariga ko‘ra, mazkur hududda 400 xo‘jalik mavjud bo‘lib, ularning yuzdan ortig‘i mullalarga tegishli bo‘lgan [1:560]. Aynan shu davrda ziyolilar va badavlat oilalar tashabbusi bilan qishloqlarda maktablar tashkil etilgan. Jumladan, Bog‘lidara qishlog‘ida Hamroqul oqsoqol boshchiligida hashar yo‘li bilan maktab qurilgan, Xo‘janqon qishlog‘ida esa to‘rtta maktab faoliyat yuritib, ularga mulla Abdurahmon, mulla Rahimqul, Chori hoji va Haydar miyon rahbarlik qilgan. Shuningdek, yarim o‘troq va yarim ko‘chmanchi aholining qishki qo‘nish davrida foydalanishi uchun Nov qishlog‘ida mulla Rizo va mullo Mirzo tashabbusi bilan maktablar ochilgan. Alimardonboy Yoriqsoy qishlog‘ida ham mahalliy ziyolilar tomonidan maktab tashkil etilgani qayd etiladi [2:125]. Buxoro amiri qushbegisi hujjatlarida ota-onalar farzandlarining ta’lim olishi uchun 15–20 tanga miqdorida “maktab puli” to‘laganligi ko‘rsatilgan. Ushbu to‘lovlarning majburiyligi kambag‘al oilalar farzandlari uchun ta’lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklagan [3:38].

XX asrning 20-yillarida Sovet hokimiyati Surxon vohasida shakllangan an’anaviy ta’lim tizimiga qarshi izchil siyosat olib bordi. Sovet rahbarlari mahalliy maktablarni diniy va madaniy an’analar mahsuli sifatida baholab, ularni marksistik-leninizm g‘oyalariga asoslangan yangi ta’lim tizimi bilan almashtirishni maqsad qilganlar. Natijada an’anaviy maktablarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kamaytirildi, ularning faoliyatiga bevosita aralashuv kuchaydi hamda ko‘plab diniy o‘qituvchilar lavozimidan chetlatildi. Bu jarayon eski ta’lim tizimining bosqichma-bosqich zaiflashuviga olib kelib, ko‘plab maktablarning yopilishi yoki faoliyatining keskin qisqarishi bilan yakunlandi. Sovet hokimiyati mustahkamlangach, an’anaviy ta’lim tizimiga qarshi siyosat yanada kuchaydi. 1918-yil 20-yanvarda RSFSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan “Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to‘g‘risida” dekret qabul qilindi. Shu yilning 20-noyabrida Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti ham mazkur mazmunda dekret chiqarib, diniy maktablar faoliyatini cheklashga qaratilgan siyosatni amaliyotga tatbiq etdi. Yangi sovet maktablarini tashkil etish va xalq maorifini boshqarish maqsadida Maorif Xalq Komissarligi hamda mahalliy Sovetlar huzurida maorif bo‘limlari tuzildi. Turkiston ASSR Maorif Xalq Komissarligi buyrug‘iga binoan respublikaning barcha maktablarida bepul ta’lim joriy etildi. Shu bilan birga, eski diniy maktablar va madrasalar faoliyatining cheklanishi, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qisqarishi hamda ko‘plab mullalarning lavozimdan chetlatilishi an’anaviy ta’lim tizimining izchil zaiflashishiga olib keldi [4:45].

Surxon vohasida sovet maktablarini tashkil etish jarayoni nihoyatda murakkab va og‘ir sharoitlarda

kechdi. Chunki Buxoro amirligi Qizil Armiya tomonidan zabt etilgach, hududda qurolli qarshilik harakati kuchayib ketdi. Harbiy to‘qnashuvlar oqibatida ko‘plab qishloqlar vayronaga aylandi, ko‘plab mudarrislar va domlalar halok bo‘ldi. Natijada maktab va ta’lim-tarbiya ishlari izdan chiqib, ancha vaqt orqaga chekinishga majbur bo‘ldi. Shunga qaramay, mahalliy ziyolilarning fidokorona sa’y-harakatlari tufayli ta’lim tizimi asta-sekinlik bilan qayta tiklana boshladi. Yangi tashkil etilayotgan sovet maktablariga yoshlarni jalb etishda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Chunki ko‘plab yoshlar sovet maktablarida tahsil olishdan ko‘ra, an’anaviy eski usul maktablarida o‘qishni afzal deb bildilar. Ma’lumotlarga ko‘ra, vohada 1924–1925-yillarda 205 ta, Termiz shahrida esa 1926-yilgacha 6 ta an’anaviy eski usul maktablari faoliyat ko‘rsatgan [5:203]. 1925-yil 1-sentyabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda jami 876 ta sovet mehnat maktablari hamda 2403 ta diniy maktablar mavjud bo‘lgan. Sovet maktablarining nufuzini oshirish maqsadida 1927-yildan boshlab faoliyat yuritib kelgan eski usul-diniy maktablarga qarshi keskin kurash boshlandi. Ushbu maktablarga “burjua jadid maktablari”, ziyolilar va dindorlarga esa “sinfiy dushman” degan yorliqlar yopishtirildi. Natijada 1920-yillarning oxirlariga kelib, jadid va eski usul maktablari o‘z faoliyatini butunlay to‘xtatishga majbur bo‘ldi [6:218–219].

1926–1927-o‘quv yilida eski maktablarning o‘quv dasturi quyidagicha shakllantirilgan. Birinchi o‘quv yilida asosan haftasiga 20 soat dars mashg‘ulotlari olib borilgan bo‘lib, uning 12 soati alifboni o‘qish va yozishni o‘rganishga, 6 soati raqamlar bilan tanishishga, 2 soati esa “Vatan tarixi” faniga ajratilgan. Bundan tashqari, mazkur o‘quv yilida tozalik va tibbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari ham o‘tilgan.

Ikkinchi o‘quv yilida haftasiga 26 soat dars tashkil etilgan bo‘lib, shundan atigi 2 soati ma’ruza shaklida o‘tilgan, qolgan 24 soat esa turli fanlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Uchinchi o‘quv yilida esa 6 soatlik dars mashg‘ulotlari tashkil etilib, unda “Qur’on” “tajvid” qoidalari asosida o‘qitilgan. Qolgan vaqtlarda esa jadid namoyandalari tomonidan yozilgan asarlar o‘qitilgan. Yangi usul maktablarida diniy, dunyoviy va zamonaviy fanlarning uyg‘un holda o‘qitilishi aholining ehtiyojlariga to‘liq mos kelgani sababli, ota-onalar o‘z farzandlarini aynan shu maktablarga berishni ma’qul deb bilganlar. Hatto davlat himoyasida bo‘lgan, byudjet mablag‘lari hisobidan doimiy moliyalashtirilgan sovet maktablari o‘quvchilari ham ko‘p hollarda o‘z maktablarini tark etib, eski maktablarda o‘qishni davom ettirganlar.

XULOSA. Surxon vohasidagi an’anaviy ta’lim tizimi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mahalliy aholi hayotida muhim o‘rin egallab, mintaqaning diniy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Ziyolilar hamda mahalliy boylar tashabbusi bilan qishloqlarda tashkil etilgan maktab va madrasalar nafaqat ta’lim maskani, balki ma’naviy-ma’rifiy hayotning muhim markazi sifatida ham faoliyat yuritgan.

Biroq sovet hokimiyati o‘rnatilgach, ushbu tizimga nisbatan olib borilgan siyosat keskinlashib, eski usul maktablar va madrasalarning faoliyati cheklangan, ularning moliyaviy ta’minoti qisqartirilgan hamda ko‘plab diniy o‘qituvchilar o‘z lavozimlaridan chetlatilgan. Bu holat an’anaviy ta’lim tizimining zaiflashishiga va ko‘plab ta’lim muassasalarining yopilishiga olib kelgan. Shu bilan birga, yangi sovet maktablari tashkil etilgan bo‘lsa-da, mahalliy aholi yoshlarini ularga jalb etishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Aholining katta qismi diniy va eski usul maktablarida ta’lim olishni afzal ko‘rgan. Bu holat an’anaviy va zamonaviy ta’lim tizimlari o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy qarama-qarshiliklarni yaqqol namoyon etgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Мушкетов И.В. Туркестан. Геологическое и орографическое описание по данным, собранным во время путешествий с 1874 по 1880 гг.: в двух частях. Т. 1. – СПб., 1886. – С. 560.
2. Umarov I. va boshqalar. Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar. – B. 125.
3. Tursunov S., Pardayev T., Mahmadiyorova N. Surxondaryo – etnografik makon. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 38.
4. Народное образование, наука и культура в СССР. Статистический сборник. – Москва: Статистика, 1971. – С. 45.
5. Очерки истории Кашкадаринской и Сурхандаринской области Узбекистана советского периода (1917–1932 гг.). Ответственный редактор К. З. Житов. – Ташкент: Фан, 1968. – С. 203.
6. O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). Ikkinchi kitob. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B. 218–219.

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.1)

SHOIRA RA'NO UZOQOVA IJODIY MEROSIDA MILLIY URF-ODATLAR, AN'ANALAR VA QADRIYATLAR IFODASI

Raxmatullayeva Nargiza Abdurahmonovna, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyati bo'limi rahbari



https://orcid.org/0009-0002-0021-5611

THE EXPRESSION OF NATIONAL CUSTOMS, TRADITIONS, AND VALUES IN THE CREATIVE HERITAGE OF POET RA'NO UZOQOVA

Raxmatullayeva Nargiza Abdurahmonovna, Head of the Surkhandarya Regional Department of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ, ТРАДИЦИЙ И ЦЕННОСТЕЙ В ТВОРЧЕСКОМ НАСЛЕДИИ ПОЭТЕССЫ РАЪНО УЗОКОВОЙ

Рахматуллаева Наргиза Абдурахмоновна, руководитель Сурхандарьинского областного отдела Республиканского центра духовности и просвещения

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoira Ra'no Uzoqova ijodiy merosi orqali o'zbek milliy qadriyatlarining ifodasi tahlil qilinadi. Maqolada shoira hayoti, ijodiy faoliyati, asarlari va ularning milliy urf-odatlar, an'analar, mehr-shafqat va vatanparvarlik kabi qadriyatlarni aks ettirishdagi roli yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ra'no Uzoqova, O'zbek adabiyoti, milliy qadriyatlar, etnografik tahlil, doston, she'riyat, vatanparvarlik.*

Abstract: *This article analyzes the expression of Uzbek national values through the creative heritage of the poet Ra'no Uzoqova. The article highlights the poet's life, creative activity, works, and their role in reflecting national traditions, customs, values such as compassion, and patriotism.*

Keywords: *Ra'no Uzoqova, Uzbek literature, national values, ethnographic analysis, epic, poetry, patriotism.*

Аннотация: *В данной статье анализируется выражение узбекских национальных ценностей через творческое наследие поэтессы Раъно Узоковой. В статье освещаются жизнь поэтессы, её творческая деятельность, произведения и их роль в отражении национальных традиций, обычаев, ценностей милосердия и патриотизма.*

Ключевые слова: *Раъно Узокова, узбекская литература, национальные ценности, этнографический анализ, эпос, поэзия, патриотизм.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O'zbek adabiyoti tarixi boy va rang-barang bo'lib, unda milliy qadriyatlarni ifodalashda ko'plab shoira va adiblarning hissasi beqiyosdir. Shu jumladan, Ra'no Uzoqova (1916–1947) ijodi o'zbek milliy urf-odatlari, an'analari va qadriyatlarini adabiy jarayonga muvaffaqiyatli kiritgan namunadir. U qisqa umrida beshta doston vabir necha she'riy to'plam yaratib, milliy ma'naviyat va etnografik merosni o'z ijodida mujassamlashtirdi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ra'no Uzoqova 1916-yil bahorida Surxondaryoning Jarqo'rg'on tumani, Oqqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. U ijodining dastlabki pallasidayoq atoqli adib Sharof Rashidov e'tiboriga tushdi. Qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, u o'zidan katta boy meros qoldirdi. Mol dunyo to'plamay, zahmatli

ijodi evaziga u beshta doston va bir necha she’riy to‘plam qoldirgan. «O‘zbek Sovet adabiyoti masalalari» kitobida atoqli adib Sharof Rashidov Ra’no Uzoqova haqida qimmatli fikrlarni bildiradi[1:4]. Unda ta’kidlanishicha, Ra’no Uzoqovani tug‘ilishi quyidagicha bayon qilinadi: «1918-yil kuz kechining izg‘irin shamoli to‘xtamay esib turar edi. Zimiston kechaning zulmatlari har ikki yonga vahima solmoqda. Vokzaldagi pastqam bir devor ostidan allaqanday ingragan ovoz keladi. Bu yosh go‘dakning tovushi edi»[2:230].

Onaning issiq qo‘ynida orom ololmay, otashin mehriga qonolmay qolgan bu go‘dakning qayerdan va kim tomonidan keltirilgani noma’lum edi. Go‘dak yig‘laydi, yuragi eziladi va mehribon onaning issiq ko‘kragini qidiradi. Ota-onasining o‘lganini bilganlar uning mungli yig‘isiga bir oh tortish bilan, bilmaganlar esa: «Eh! La’nati ota-ona», deb javob beradilar. Qop-qorong‘ida bir xotin nimadir ko‘tarib kelardi. Bu, Termiz vokzali mashinistining xotini Maryam edi. U eriga ovqat olib kelardi. Go‘dakning ovozini eshitgan Maryam uni darhol yerda ko‘tarib, o‘z bolasidek bag‘riga bosdi.

Yuqoridagi jumla O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Toshtemir Turdiyevning «Denov-Surxondaryo sayqali» kitobidan olingan. Kitob muallifi yozishicha, Ra’no Uzoqova va Sharof Rashidov Samarqand viloyat gazetasida birga ishlagan va uning ijodiga murabbiylik qilgan. T. Turdiyev aytishicha, atoqli adib urushdan qaytib kelgach ham Ra’no Uzoqova bilan ishlashda davom etgan, yurak kasaliga chalinganida esa uni davolanish uchun Kislovodskka yuborgan. Shu yerda u «Makr va Muhabbat» dostonini yaratgan[3:25]. Etnografik tadqiqotlar davomida Ra’no Uzoqovaning ijodi va faoliyatini o‘rgangan jurnalist Abdulla Xolmirzayev shoira haqida ko‘plab maqolalar matbuotda e’lon qilgan. U 1973-yil bahorida Samarqandda Rahima Uzoqova xonadoniga borib, Ra’no Uzoqovaning qizi Rahimaxon bilan suhbatlashgan va shoira haqida qimmatli manbalar va ma’lumotlarni olgan[5]. Shundan so‘ng, 1976-yil 16-martda Ra’no Uzoqova tug‘ilgan kunning 60 yilligi Jarqo‘rg‘onda katta ko‘tarinkilik bilan nishonlandi. Shu voqeadan keyin nafaqat Jarqo‘rg‘onda, balki viloyat va respublikada shoira Ra’no Uzoqovaga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. Surxondaryodagi maktablar, ko‘chalar va madaniy-ma’rifiy muassasalarga shoira nomi berildi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining maxsus qarori bilan Ra’no Uzoqovaga bag‘ishlangan yubiley tantanalari o‘sha yili dekabr oyida yanada kengroq tarzda nishonlandi. Normurod Narzullayev boshliq yozuvchi va shoirlar delegatsiyasi tashrif buyurgan[5].

«Shoira haqida bir qancha kitoblar yaratildi. Bugungi kunda Ra’no Uzoqova nafaqat shoira, balki ajoyib hikoyanavis va p’yesalar bitgan dramaturg bo‘lganligi ham ma’lumdir», — deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, «Zarautsoy» jamoatchilik markazi rahbari Abdulla Xolmirzayev «Shoira yurgan yo‘llarda» maqolasida. Ushbu ocherk Surxondaryo viloyat «Lenin bayrog‘i» gazetasining 1971-yil 16-oktyabr sonida nashr etilgan. Maqolada muallif Ra’no Uzoqovaning Surxondaryodagi izlarini birinchi marta izlab topgani va shu boradagi xat va yozishmalarni e’lon qilgani qayd etilgan. Abdulla Xolmirzayev Ra’no Uzoqova haqida bir qancha maqolalar e’lon qilgan[6]. “Yorqin hayot” jurnalidagi lavhalar” Surxondaryo viloyat “Lenin bayrog‘i” gazetasining 1976-yil 19-mart sonida nashr etildi. Muallif Abdulla Xolmirzayev ushbu maqolasida shoira Ra’no Uzoqovaning hayoti va ijodiy faoliyati yangi topilgan materiallar asosida birinchi marta yoritiladi. “Ayniy va Ra’no Uzoqova” maqolasi Surxondaryo viloyat “Lenin bayrog‘i” gazetasining 1978-yil 16-avgust sonida nashr etildi. Muallif Abdulla Xolmirzayev. Maqolada shoira Ra’no Uzoqovaning ustoz Ayniy bilan munosabatlari, Ayniy o‘zining “Yetim” romaniga Ra’noni asosiy manba qilib olganligi, shoira vafot etganda uning yetim qolgan qiziga g‘amxo‘rliklari yoritilgan.

“Ustoz o‘rnagi” maqolasi Respublika “O‘qituvchilar gazetasi” (“Ma’rifat” gazetasi o‘tmishdoshi)ning 1979-yil 20-sentyabr sonida nashr qilinib, Ayniy va Ra’no Uzoqovaning ustoz-shogirdlik munosabatlari bayon qilinadi. “Shoira yurgan yo‘llarda” maqolasi Surxondaryo viloyat “Surxon tongi” gazetasining 1993-yil 17-dekabr sonida nashr qilinib, shoiraning Oqqo‘rg‘onda kechgan yoshlik hayoti, oila a’zolari, birga o‘ynagan tengdosh va do‘stlari haqida hikoya qilinadi. “Shoira izlarini izlaganda” maqolasi misolida ssenariysi Surxondaryo televideniyesining 1993-yilida tayyorlangan. Manbalarda yozilishicha, Ra’no Uzoqova yosh bo‘lishiga qaramay, boshidan juda ko‘p qiyinchiliklar o‘tadi. U qiyinchiliklarga yengib, maqola, lavha, ocherk, hikoyalar bilan birga dostonlar ham yozadi. Uning beshta dostonlari –

“Malohat”, “G‘alaba”, “Sarviqad”, “Tulandom”, “Makr va Muhabbat” – mavjud. Afsuski, turkum maqola, she’riy kitoblari, ocherk va hikoyalarining ko‘pchiligi bizgacha yetib kelmagan. “Urgut bilan yozishmalar” va “Jarqo‘rg‘on haqiqati” gazetasi, 1976-yil 16-mart sonida nashr etilgan maqolasida shoira Ra’no Uzoqova tug‘ilgan oila, Oqqo‘rg‘onda kechirgan hayoti, yoshlikda o‘ynab-o‘sgan do‘stlari, qizi Rahimaning hayot ekanligi va farzandlari borligi haqida ma’lumotlar bayon qilingan[6]. Jumladan, Ra’no Uzoqova hayoti va faoliyatiga bog‘liq maqolalar bir guruh jurnalist va ijodkorlar tomonidan turli bosma nashrlarda chop etilgan. “Farzandini unutmagan el” maqolasi “Surxon yoshlari” gazetasining 2010-yil 8-aprel sonida nashr qilingan. Muallif Mohira Jumayeva. Maqolada Surxondaryoning ilk shoirasi Ra’no Uzoqova bir paytlari o‘qigan Termiz ta’lim-tarbiya texnikumi binosida hozirgi paytda faoliyat yuritayotgan 4-maktab-internati o‘quvchilari uchun shoirani yodlash tadbirida ko‘tarilgan masalalar yoritiladi. “She’riyat taxtiga uzatilgan qo‘l...” maqolasi “Chag‘oniyon” gazetasining 2006-yil 5-may sonida chop etilgan. Muallif Nizomjon Parda. Maqolada shoira Ra’no Uzoqovaning yoshlik yillari, ijodining o‘ziga xosligi, asarlariga bildirilgan fikr-mulohazalar, hayot va faoliyatini o‘rganishga hissa qo‘shgan shaxslar mehnati yoritilgan. “She’riyat gulshani Ra’nosi”[4:3] maqolasi Samarqand viloyat “Zarafshon” gazetasining 2006-yil 6-may sonida nashr qilinib, muallif Gulbar Uzoqova (shoiraning nevarasi) tomonidan Ra’no Uzoqovaning 90 yilligiga bag‘ishlangan. Unda shoiraning hayot va ijodiy yo‘li izchil yoritilib, asarlarini kitob holida chop etish jarayoni hamda boshqa qo‘lyozmalari mavjudligi va ularni nashr etish harakatlari bayon qilinadi[5].

Toshtemir Turdiyevning 2012-yilda Ra’no Uzoqovaning “Baxt qo‘shig‘i” kitobini qayta nashrga tayyorlagandan so‘ng, uning barcha asarlari kitobxonlarga yaxlit kitobcha sifatida taqdim etildi. “Gulandom”dan boshqa birorta dostoni hali e’lon qilinmagan. “Gulandom” dostonidan ayrim parchalari kitob shakliga keltirilgan, qolgan asarlari, shular qatorida dostonlari ham arxivda saqlanmoqda. Shoira “Makr va Muhabbat” dostonida tog‘liklarning bir afsonasini, ya’ni sevgi fojiasini yozgan, “Gulandom”da esa Ikkinchi jahon urushi mavzusiga murojaat qilgan[6]. “Men bu dostonlarni qo‘shiqqa o‘xshatgim keladi: chin sevgi, sadoqat, Vatanga muhabbat haqidagi bu o‘lmas qo‘shiqlar hamon baland avjda yangramoqda. Bundan yetmish besh yil muqaddam, 22-iyun saharida dushman tinch, osuda hayotimizga raxna soldi. Keksayu yosh, ayol va erkak qo‘liga qurol olib, dushman yo‘lini to‘sishga otlandi. Xalqni olovli janglarga da’vat etuvchi baland ruh zarur edi”, — deydi Toshtemir Turdiyev. Ra’no Uzoqova keyinchalik Buxoro va Samarqand viloyatlarining gazetalarida ishlaydi. Bu davrda uning asarlari matbuot yuzini ko‘radi va shoira sifatida tanila boshlaydi. 1944-yilda Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga qabul qilinadi. Ra’no Uzoqova Ikkinchi jahon urushi vaqtida, 1942-yilda, o‘zbek xalqi nomidan Leningrad mudofaachilariga sovg‘a-salomlar olib borgan delegatsiyada ham ishtirok etgan. Tish-tirnog‘igacha qurollanib olgan yov bilan vatandoshlarining yuzma-yuz kurashishi shoiraga yangi mavzular sari kuch va ruh berdi[6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ra’no Uzoqovaning ijodi o‘zbek adabiyotida milliy qadriyatlarni ifodalashda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning asarlarida ota-onaga hurmat, mehr-shafqat, sevgi, sadoqat, vatanparvarlik kabi qadriyatlar badiiy shaklda aks ettirilgan. Etnografik manbalar va tadqiqotlar orqali shoira ijodining insoniy va milliy jihatlari ochib berilgan. Shu tariqa, Ra’no Uzoqovaning qisqa, ammo mazmunli hayoti va ijodi nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki milliy madaniyat va etnografik merosni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Холмирзаев А. Shoira yurgan yillarda. Ленин байроғи газетаси, 1971-yil 16-oktyabr, B. 4.
2. Турдиев Т. Denov – Surxondaryo sayqali. Termiz: Surxon-nashr, 2024, B. 230.
3. Шароф Рашидов. Ra’no. Yorqin hayot jurnali, 1940-yil, № 5–6, B. 25.
4. Uzoqova G. Samarqand viloyat Zarafshon gazetasi, 2006-yil 6-may, B. 3.
5. Dala yozuvi. Termiz shahri, To‘proqqo‘rg‘on MFY. Abdulla Xolmirzayev bilan suhbat, 2025-yil 22-sentyabr.
6. Dala yozuvi. Denov tumani, Guliston MFY. Toshtemir Turdiyev bilan suhbat, 2025-yil 17-mart.

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 94(575.1)

BUXORODAN BOYSUN SARI: ABDULLA RAJAB BOYSUNIY SIYMOSI

Muxammadiyev Omon Mamataliyevich, DXX CHQ "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi o'qituvchisi

FROM BUKHARA TO BOYSUN: THE FIGURE OF ABDULLA RAJAB BOYSUNI

Mukhammadiev Omon Mamataliyevich, teacher of the Military Academic Lyceum "Young Border Guards" of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan

ОТ БУХАРЫ ДО БОЙСУНА: ФИГУРА АБДУЛЛЫ РАДЖАБА БОЙСУНИ

Мухаммадиев Омон Маматалиевич, преподаватель Военно-академического лицейа "Молодые пограничники" Службы государственной безопасности Республики Узбекистан



https://orcid.org/0009-0004-0387-995X
e-mail: omonmuxammadiyev19@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kelib chiqishi buxorolik bo'lgan, Boysun muhitida faoliyat yuritgan jadidchi va istiqlolchilik harakatining qatnashchisi Abdulla Rajab Boysuniyning hayoti va ma'rifiy faoliyati atroflicha yoritiladi. Unda mutafakkirning o'z davrida duch kelgan ijtimoiy va ma'naviy to'siqlar, qarshiliklar hamda bu qiyinchiliklarga qaramay ilm yo'lida ko'rsatgan matonati va qat'iyati haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqolada Abdulla Rajab Boysuniyning jamiyatdagi mavqei, uning ilmiy-ma'naviy merosining mintaqa ma'rifatparvarlik harakati rivojidagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Abdulla Rajab Boysuniy faoliyatini mintaqaviy ma'rifiy taraqqiyotga qo'shilgan muhim hissa sifatida baholash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *Abdulla Rajab Boysuniy, "Yosh turklar inqilobi", Pattakesar, Boysun, Sherobod, Anvar poshsho, Nor Hayit, Tohir Usmon.*

Abstract: *This article provides a detailed account of the life and educational activities of Abdulla Rajab Baysuni, a Bukhara-born Jadidist and participant in the independence movement who worked in the Baysun environment. It provides detailed information about the social and spiritual obstacles and opposition that the thinker faced in his time, as well as the perseverance and determination he showed in the path of science despite these difficulties. The article reveals the position of Abdulla Rajab Baysuni in society, the role and significance of his scientific and spiritual heritage in the development of the regional enlightenment movement. The results of the study allow us to evaluate the activities of Abdulla Rajab Baysuni as an important contribution to the regional enlightenment development.*

Keywords: *Abdulla Rajab Baysuni, "Young Turk Revolution", Pattakesar, Baysun, Sherabad, Anvar Pasha,*

Аннотация: *В данной статье подробно описывается жизнь и образовательная деятельность Абдуллы Раджаба Байсуни, джадидиста бухарского происхождения и участника движения за независимость, работавшего в окружении Байсуна. Приводится подробная информация о социальных и духовных препятствиях и противодействии, с которыми мыслитель сталкивался в своё время, а также о его настойчивости и решимости на пути науки, несмотря на эти трудности. Статья раскрывает положение Абдуллы Раджаба Байсуни в обществе, роль и значение его научного и духовного наследия в развитии регионального просвещенческого движения.*

Результаты исследования позволяют оценить деятельность Абдуллы Раджаба Байсуни как важный вклад в развитие регионального просвещения.

Ключевые слова: *Абдулла Раджаб Байсуни, революция молодых тюрков, Паттакесар, Байсун, Шерабад, Анвар-паша, Нор Хаит, Тохир Осман.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yetishib chiqqan jadidchi va istiqlolchilar nafaqat o‘z hududida, balki butun Buxoro amirligi miqyosida ham katta nufuzga ega bo‘lishgan. Ular o‘z davrining dolzarb muammolariga yechim izlab, ta’lim tizimini isloh qilish, yangi fanlarni joriy etish va erkin fikrlashni targ‘ib qilish yo‘lida mardona kurashganlar. Ushbu maqolada Abdulla Rajab Boysuniyning ana shunday ilg‘or fikrli, jasur va ilmga tashnaligi va uning hayoti, faoliyati hamda ma’rifiy merosi haqida so‘z yuritamiz.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Abdulla Rajab 1894-yilda Buxoro xonligi tasarrufidagi G‘ijduvon tumanida tug‘ilgan. Otasining ismi Rajab, onasining ismi Sharofat bo‘lgan. Ularning oilasi tabibchilik bilan shug‘ullangan bo‘lib, asosan chechak va qizamiq kasalliklarini muolaja qilish bilan mashhur edi. Ehtimol, shu sababli bo‘lsa kerak, bu xonadon “nagzak kor xo‘jalari” nomi bilan tanilgan. Ya’ni, ular “yaxshi ish qiluvchi xo‘jalar” sifatida e’zozlangan. Abdulla dastlab savodini tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ida chiqargach, otasi uni To‘rtko‘l shahriga olib borib o‘qishga joylashtiradi va u yerda uch yil tahsil oladi. Shundan so‘ng Buxorodagi Madrasai Mudiri xonda qisqa muddat ichida Qur’oni karimni xatm qilib, hofizi Qur’on darajasiga yetadi. Uning qiroati shu qadar latofatli bo‘lganki, rivoyatlarga ko‘ra, qushlar ham sayrashdan to‘xtab qolgan.

Buxoroda yashagan yillari davomida Abdullo diniy, dunyoviy hamda ijtimoiy-siyosiy mazmundagi kitoblar, jurnal va gazetalarni katta qiziqish bilan mutolaa qiladi. Ma’lumki, XX asr boshlarida Turkistonga Urusiya, Turkiya, Misr, Eron va boshqa Sharq mamlakatlaridan yuzlab turli gazeta va to‘plamlar kelib turgan bo‘lib, ular madrasalarda ziyolilar va yoshlar orasida qo‘ldan qo‘lga o‘tib o‘qilgan. Abdulla Rajab ham ana shu manbalardan bahramand bo‘ladi.

Buxoroning boy madaniy muhiti uning fikriy uyg‘onishida muhim rol o‘ynaydi. U turkiy tillar bilan bir qatorda fors, arab va rus tillarini ham puxta egallaydi. Hurriyatparvarlik g‘oyalari bilan dunyoqarashini boyitgan Abdulla Rajab jaholat va istibdodga qarshi kurash yo‘lini tanlaydi.

1921-yilda Abdulla Rajab Boysun tomonlarga kelib, harbiy harakatlar keskin tus olgan murakkab vaziyatga duch keladi. U rus tilidagi muhim hujjatlarni qo‘mondonlik uchun tarjima qiladi, qarorgohda kotiblik vazifasini bajaradi. Milliy ozodlik harakati ishtirokchilari safiga qo‘shilib, Surxon vohasining Ko‘kaydi, Pattakesar, Boysun, Sherobod, Yurchi, Denov va Kofirun kabi hududlarida bo‘lib, mehmondo‘st xalqning mehrini qozonadi.

Surxon vohasiga bo‘lgan chuqur muhabbati ramzi sifatida u keyinchalik Turkiya fuqaroligini olganida “Boysun” nomini o‘ziga nasab-familiya sifatida tanlaydi. Abdulla Rajab o‘zining keyingi faoliyatini “Turkistonning muqaddas da’vati” yo‘lida olib borilgan kurash bilan bog‘laydi va bu yo‘lda “Yosh turklar inqilobi” qahramoni, general Anvar Poshshoning milliy istiqlolchilik harakati bilan yaqin aloqada bo‘ladi.

Anvar posho Sharqiy Buxoroda milliy ozodlik harakatiga qo‘mondonlikni o‘z qo‘liga olgach, Abdulla Rajab ham vatanparvarlar safiga qo‘shilish uchun yo‘lga chiqadi. Bu voqealar haqida u keyinchalik yozgan “Turkiston istiqlol harakatlari” nomli xotira kitobida quyidagicha bayon qiladi: “Sayrob yo‘li bilan Jom qishlog‘i janubidagi dalalardan o‘tib, posho yuborgan Hasan bey bilan uchrashdik. Birgalikda Kofirun qishlog‘ida joylashgan qarorgoh tomon yo‘l oldik. Qarorgohga yaqinlashganimiz sari hayajonimiz tobora ortib borardi. Ostimizdagi otlar ham qadamini tezlatardi. Poshoning qarorgohiga yetib bordik. Bir qavatli xom g‘ishtdan qurilgan uy yonida to‘xtadik. Otdan tushdik. Uchrashuv marosimi tasvirlab bo‘lmas darajada hayajonli kechdi. Bir necha yillardan buyon nomini eshitib yurganimiz afsonaviy Anvar poshoning ro‘parasida o‘tirardik. Ko‘zlarimizni undan uzolmasdik”.

Abdulla Rajab Anvar Poshsho xizmatida e’tiborli kishilar safidan bo‘lib, ayrim manbalarga ko‘ra, Bosh qo‘mondonning “mirzosi” sifatida faoliyat yuritgan. Abdulla Rajab 1922-yil 5-avgustga qadar Anvar posho bilan birga bo‘ladi. Aynan shu kuni Boljuvon atrofidagi Chegim qishlog‘ida, Qizilsuv daryosi bo‘yida qizil

askarlarga qarshi bo‘lgan jangda Anvar posho shahid bo‘ladi. Mazkur sana Qurbon hayitining birinchi kuniga to‘g‘ri kelgan edi.

Qo‘mondon halok bo‘lganidan so‘ng, Hoji Sami bey rahbarligida istiqlol harakati yana bir yil davom ettiriladi, biroq oxir-oqibat ishtirokchilar Afg‘onistonga chekinishga majbur bo‘ladilar. Bu chekinishni vaqtinchalik holat deb bilgan Abdulla Rajab esa umrining oxirigacha vatanidan yiroqda qolib ketadi. Sharqiy Buxoroda esa Ibrohimbek, Fuzayl Maxdum va Xurrambek kabi qo‘rboshilar 1931-yilga qadar qizil bosqinchilarga qarshi kurashni davom ettiradilar.

Abdulla Rajab dastlab Kobulda yashaydi, so‘ng Eron orqali Turkiyaga o‘tadi. “Turk o‘choqlari” rahbari Hamidulloh Subhi Tanriyor ko‘magida Boyazid shahrida qo‘nim topadi. Keyinchalik Istanbulga ko‘chib, Nuri Usmoniya kutubxonasida uzoq yillar xizmat qiladi. Mazkur kutubxona Ayyo Sofiya va Sulton Ahmad kabi mashhur me’moriy yodgorliklar yaqinida joylashgan.

1945-yilda Abdulla Rajab “Turkiston istiqlol harakatlari” nomli xotira kitobini nashr ettiradi. 202 sahifadan iborat ushbu asarda muhim tarixiy hujjatlar va suratlar jamlangan. Kitob 2001 va 2006-yillarda qayta nashr qilingan. 1946-yildayoq rus tiliga tarjima qilinib, KGB ichki kutubxonalarida xizmat doirasida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

1992-yilda Toshkent shahridagi “Mehnat” nashriyotida Surxondaryo viloyati hokimi H. Berdievning umumiy tahriri ostida “Kurash yillari (Surxon vohasi 20-yillarda)” nomli kitob nashr etilib, “O‘zbekiston Jumhuriyatining mustaqilligiga” bag‘ishlangan. Ushbu kitob mualliflari boysunlik Nor Hayit va Tohir Usmondir. Kitobda Abdulla Rajab haqida quyidagicha fikr bildiriladi: “Anvar posho qarorgohidan chiqayotib, aloqachi Qurbon Rajabga ko‘zim tushib qoldi. Men Qurbon Rajabni madrasada o‘qib yurgan paytlaridan beri tanirdim. Qurbon Boysun shahridagi Ramazoniyning qizi Porchuchukka uylangan edi. Porchuchuk erining dushmanlar bilan aloqasi borligini sezib, undan yuz o‘girdi va farg‘onalik Tolibjon ismli qizil askarga ko‘ngil berib, turmushga chiqdi. Alamzada Qurbon Rajab qizillardan o‘ch olish uchun Anvar posho tarafiga o‘tgan edi. Turkiyaga qochib ketgan muhojir Qurbon Rajab keyinchalik Abdulla Rajab Boysuniy-Turkistoniy nomi bilan Sho‘ro hokimiyatiga qarshi ashaddiy targ‘ibotchiga aylandi. U Sho‘rolarga qarshi kitoblar yozdi, xolos. Hozir esa “oq amin” butun Turkistonni qo‘g‘irchoq misoli o‘ynatayotgan bo‘lsa ajab emas”.

XULOSA (ZAKLYUCHENIE / CONCLUSION). Abdulla Rajab hayoti Turkiston istiqlol harakatining og‘ir va fojeali taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir. U Anvar posho safida milliy ozodlik uchun kurash olib borgan, biroq harakat mag‘lubiyatga uchragach, umrining katta qismini muhojirlikda o‘tkazishga majbur bo‘lgan. Vatanidan uzoqda yashaganiga qaramay, u o‘z xalqining tarixi va ozodlik kurashini yozma manbalar orqali saqlab qolishga xizmat qilgan. Abdulla Rajab qoldirgan ilmiy va tarixiy meros Turkiston istiqlol harakatining muhim guvohi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola mazmunida Abdulla Rajab Boysuniyning buyuk g‘oyalar bilan yashagan kurashchi qiyofasi hamda uning ozod Turkiston g‘oyasiga sodiqligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Nabijon Boqiy. *Chingiz Afandiga vasiyati (Anvar poshoning vasiyati).* Toshkent: Sharq kutubxonasi nashriyoti, 1997-yil.
2. Nor Hayit, Tohir Usmon. *Kurash yillari (Surxon vohasi 20-yillarda).* Toshkent: “Mehnat” nashriyoti, 1992-yil.
3. Tursunov, S.; Rashidov, Q. *Boysun.* Toshkent: Akademnashr, 2011-yil.
4. Иброхим Мутлу. Туркистон овози газетаси. 1957 йил февраль–март ойларидаги сонлар. – 8–9-бетлар.
5. Хаников, Н. *Описание Бухарского ханства.* Санкт-Петербург, 1843.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Qomus.info elektron manbasi: https://qomus.info/encyclopedia/cat-uz/

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 341.231.14:341.215.4:347.157

BOLA HUQUQLARI TO‘G‘RISIDAGI KONVENSIYA DOIRASIDA QOCHOQ BOLALAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Xudaykulova Vazira Gaybulloyevna, Buxoro Davlat Universiteti Yurispredensiya kafedrasi assisent o‘qituvchisi

PROTECTION OF REFUGEE CHILDREN'S RIGHTS WITHIN THE FRAMEWORK OF THE CONVENTION ON THE RIGHTS OF THE CHILD

Xudaykulova Vazira Gaybulloyevna, Assistant Lecturer, Department of Jurisprudence, Bukhara State University



e-mail: xudoyqulovavazira1@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya doirasida qochoq bolalarni huquqiy himoya qilish masalalari, xususan, 22-moddaning ahamiyati hamda global miqyosdagi bolalar migratsiyasi tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalarning «huquqiy ko‘rinmaslik» muammosi, shuningdek, xalqaro qochoqlar huquqining bolalar ehtiyojlariga moslashuvi Jeyson Pobjoy kabi olimlarning nazariyalari va BMT qo‘mitasining umumiy sharhlari asosida o‘rganiladi. Maqolada O‘zbekiston tajribasi, xususan, «Mehr» operatsiyalari misolida davlatning ijobiy majburiyatlarini bajarishi hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *bola huquqlari, qochoq bolalar, «Mehr» operatsiyasi, huquqiy ko‘rinmaslik, konvensiya, xalqaro huquq, ijtimoiy himoya, integratsiya, reabilitatsiya, hamrohsiz bolalar*

Abstract: *This article analyzes the issues of legal protection of refugee children within the framework of the Convention on the Rights of the Child, in particular the significance of Article 22 and global trends in child migration. The research examines the problem of children's «legal invisibility» as well as the adaptation of international refugee law to children's needs, based on the theories of scholars such as Jason Pobjoy and the general comments of the UN Committee. The article presents Uzbekistan’s experience, particularly the fulfillment of the state’s positive obligations and the process of harmonizing national legislation with international standards, using the example of the «Mehr» operations.*

Keywords: *child rights, refugee children, «Mehr» operation, legal invisibility, convention, international law, social protection, integration, rehabilitation, unaccompanied children.*

Kirish. Jahon miqyosidagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil oxiriga borib, qurolli mojarolar va zo‘ravonliklar oqibatida majburiy ko‘chishga duchor bo‘lgan bolalar soni 48,8 million kishiga yetgan.[1] Ushbu ko‘rsatkichlarni 2010-yil ma’lumotlari bilan solishtiradigan bo‘lsak, ularning qariyb uch baravar oshganini kuzatish mumkin. Garchi bolalar dunyo aholisining uchdan bir qismidan kamroq ulushini tashkil etsa-da, qochoqlar umumiy sonining 40 foizi aynan bolalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat bolalar zimmasiga tushayotgan nomutanosib yukni, shuningdek, ularning xalqaro huquqiy himoyaga bo‘lgan ehtiyoji nihoyatda yuqori ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Qochoq bolalar o‘z davlatlarida ta’qib, zo‘ravonlik yoki qurolli mojarolardan qochib, boshqa davlat hududiga o‘tganlarida nafaqat jismoniy xavf-xatarlarga, balki huquqiy jihatdan e’tibordan chetda

[1] UNICEF: Close to 50 million children had been displaced due to conflict and violence globally by the end of 2024. https://data.unicef.org/topic/child-migration-and-displacement/displacement/

qolish holatiga, ya’ni “huquqiy ko‘rinmaslik” muammosiga ham duch keladilar. Amaldagi xalqaro qochoqlar huquqi ko‘p hollarda kattalar manfaatlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, bolalarning o‘ziga xos ehtiyojlari va zaif jihatlari yetarli darajada inobatga olinmaydi. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 22-moddasi aynan ushbu bo‘shliqni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, davlatlarga qochoq bolalarni zarur himoya va gumanitar yordam bilan ta’minlash majburiyatini yuklaydi. Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, qochoqlik sharoitida yashayotgan bolalar ta’lim olish, tibbiy xizmatlardan foydalanish, oilaviy muhitda tarbiyalanish hamda zo‘ravonlikdan himoyalanish kabi asosiy huquqlardan mahrum bo‘lib qolish xavfi ostida yashaydilar.

Ta’kidlash joizki, bu borada O‘zbekiston Respublikasi 1994-yilda Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilganidan buyon bolalar huquqlarini ta’minlash yo‘lida izchil choralar ko‘rib kelmoqda. Xususan, qurolli mojarolar hududlaridan o‘z fuqarolarini qaytarishga qaratilgan “Mehr” operatsiyalari orqali mamlakat xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan muhim tashabbuslarni amalga oshirdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qochoq bolalar huquqlariga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili so‘nggi o‘n yilliklar davomida mazkur yo‘nalishda sezilarli konseptual o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatadi. Jumladan, Jeyson Pobjoyning “The Child in International Refugee Law” asarida xalqaro qochoqlar huquqi uzoq vaqt davomida bolalarni mustaqil huquq subyekti sifatida emas, balki ota-onalariga ergashuvchi shaxslar sifatida talqin qilib kelgani asoslab berilgan [2]. Muallif ilgari surgan “huquqiy ko‘rinmaslik” tushunchasi mavjud tizimlarning bolalarning individual qochoqlik da’volarini tan olishda yetarlicha moslashmaganini ochib beradi. Ko‘pchilik ilmiy manbalarda Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 22-moddasi xalqaro inson huquqlari va qochoqlar huquqi o‘rtasida muhim bog‘lovchi mexanizm sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotchilar qochoq bolalarni samarali himoya qilish faqat 1951-yilgi Konvensiya bilan cheklanmasdan, BHKning barcha moddalarini o‘zaro uyg‘un holda qo‘llashni talab qilishini ta’kidlaydi. Ayniqsa, BMT Bola huquqlari qo‘mitasining hamrohliksiz va ajratilgan bolalarga oid №6-sonli Umumiy sharhi ushbu sohadagi asosiy talqinlovchi hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi[3].

Ushbu maqolada normativ-huquqiy hujjatlarning qiyosiy tahlili, huquqiy normalarning ijtimoiy amaliyotda qo‘llanishini o‘rganish hamda xalqaro tashkilotlarning so‘nggi statistik ma’lumotlarini solishtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekistonning “Mehr” operatsiyalari misolida davlatning qochoq bolalar oldidagi ijobiy majburiyatlari amaliy jihatdan tahlil qilindi.

Muhokama. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 22-moddasi qochoq bolalarni himoya qilishda markaziy huquqiy tayanch sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur norma davlatlar zimmasiga ikki yo‘nalishda majburiyat yuklaydi. Birinchidan, qochoq maqomini so‘rayotgan yoki allaqachon qochoq deb e’tirof etilgan bolaga Konvensiyada nazarda tutilgan barcha huquqlardan foydalanish imkoniyati ta’minlanishi lozim. Ikkinchidan, oilasidan ajralgan bolalar bo‘yicha ularni izlash va qayta birlashtirish jarayonlarida xalqaro institutlar bilan hamkorlik qilish majburiyati vujudga keladi. Ushbu moddaning muhim jihati shundaki, u bolaning hujjatli maqomiga emas, balki uning real ehtiyojlariga ustuvor ahamiyat beradi. “Tegishli himoya” tushunchasi faqat jismoniy xavfsizlik bilan cheklanmay, balki boshpana, oziq-ovqat, tibbiy yordam hamda psixologik tiklanishni ham o‘z ichiga oladi.

Qochoqlar kontekstida Konvensiyaning umumiy tamoyillari alohida ahamiyat kasb etadi. Kamsitmaslik prinsipi qochoq bolalarni mahalliy bolalar bilan teng sharoitlarda ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlariga jalb etishni talab qiladi. Bolaning eng yaxshi manfaatlari tamoyili esa migratsiya va chegara siyosatlaridan ustun qo‘yilishi lozim. Shuningdek, yashash va rivojlanish huquqi bolani nafaqat tirik qolish, balki normal kamol topish sharoitlari bilan ta’minlashni ham anglatadi. Qochoq maqomini aniqlash jarayonida bolaning fikrini eshitish esa uni passiv obyekt emas, balki to‘laqonli huquq subyekti sifatida tan olishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, hamrohliksiz va ajratilgan bolalar eng zaif toifa hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bunday bolalarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga vasiy tayinlash hamda yoshni belgilashdagi xatolar

[2] Jason M. Pobjoy. The Child in International Refugee Law(Link is external). Cambridge University Press, 2017. https://doi.org/10.1017/9781316798430

[3] Committee on the Rights of the Child, General Comment No. 6, Treatment of Unaccompanied and Separated Children Outside their Country of Origin (Thirty-ninth session, 2005), U.N. Doc. CRC/GC/2005/6 (2005). https://hrlibrary.umn.edu/crc/comment6.html

keyinchalik jiddiy huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida hujjatlarning yetishmasligi, til to‘siqlari va resurslar tanqisligi integratsiya jarayonlarini sekinlashtirmoqda. Natijada, normativ kafolatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning real hayotda to‘liq ishlashi hanuzgacha muammoli bo‘lib qolmoqda.

Masalan, Yevropa Ittifoqida 2014-2024 yillar oralig‘ida 379 000dan ortiq hamrohliksiz bola boshpana so‘ragan[4].

Bunday bolalar uchun BMTning №6-sonli Umumiy sharhi quyidagi majburiy qadamlarni belgilaydi:

– Chegarada bolani darhol aniqlash va ro‘yxatga olish.

– Bolaning manfaatlarini himoya qiluvchi malakali vasiy yoki qonuniy vakilni imkon qadar tezroq tayinlash.

– Agar bolaning yoshi shubha tug‘dirsa, jarayon bolaning foydasiga (presumption of minority) va uning qadr-qimmatini hurmat qilgan holda o‘tkazish.

Bolaning hayoti xavf ostida bo‘lgan yoki qiynoqlar kutilayotgan davlatga majburan qaytarish qat’iyan man etiladi.

Quyidagi jadvalda 2024-yil yakuniga ko‘ra bolalarning global ko‘chishi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan:

Ko‘rsatkich turi	**Miqdori (million nafarda)**
Jami ko‘chirilgan bolalar (mojarolar sababli)	48.8
Qochoq bolalar (UNHCR mandati ostida)	15.0
Boshpana izlovchi bolalar	2.7
Ichki ko‘chirilgan bolalar (IDPs)	29.4
Tabiiy ofatlar tufayli yangi ko‘chishlar (2024)	14.5

Ushbu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, qochoqlar muammosi nafaqat transchegaraviy, balki davlatlarning ichki

barqarorligiga ham bog‘liqdir. Eng ko‘p qochoq bolalar Afg‘oniston, Suriya va Venesueladan kelmoqda.[1]

Natijalar. Tadqiqot natijalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilganidan so‘ng qochoq va migrant bolalar huquqlarini himoya qilish borasida muhim huquqiy va amaliy yutuqlarga erishgan davlatlar qatoridan joy oldi. Xususan, 2008-yilda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun milliy huquqiy tizimda bolani mustaqil huquq subyekti sifatida e’tirof etuvchi asosiy normativ hujjatga aylandi. Ushbu qonun bolalarning kelib chiqishi, fuqaroligi yoki tug‘ilgan joyidan qat’i nazar teng huquqliligini mustahkamlab, ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalar, jumladan qurolli mojarolardan jabr ko‘rgan bolalar uchun alohida kafolatlarni belgilaydi. Shu bilan birga, xalqaro shartnomalar ustuvorligi prinsipi mustahkamlanib, BHK normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishiga huquqiy zamin yaratildi.

Amaliy jihatdan esa O‘zbekiston hukumati tomonidan 2019-2021-yillarda amalga oshirilgan “Mehr” operatsiyalari xalqaro miqyosda noyob tajriba sifatida tan olindi[2]. Suriya va Iroq hududlaridan qaytarilgan bolalar bilan bog‘liq jarayonlarda identifikatsiya, fuqarolikni tiklash, reabilitatsiya va ta’limga qayta jalb etish mexanizmlari izchil ishladi. Bolalarga hujjatlar berilishi, ularning sog‘lig‘i va ruhiy holatini tiklashga qaratilgan kompleks choralar ko‘rilishi hamda ta’lim tizimiga integratsiya qilinishi BHKning bir nechta moddalari amalda uyg‘un qo‘llanganini ko‘rsatdi. Bu tajriba davlatning faqat deklarativ emas, balki ijobiy majburiyatlarni bajarayotganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, xalqaro darajadagi tahlil natijalari qochoq bolalar himoyasida ayrim ijobiy tendensiyalar shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bir qator davlatlarda qochoq bolalarni alohida tizimlarda emas, balki milliy maktablar orqali qamrab olish siyosati kuchaymoqda. Iordaniya, Turkiya, Uganda kabi davlatlar bunga misoldir[3]. Sud amaliyotida esa bolalarni immigratsiya

[4] United Nations Children’s Fund (UNICEF), 2025. Unaccompanied and Separated children: 5 facts. https://data.unicef.org/wp-content/uploads/2025/11/5-facts_UASC-4.pdf

[1] UNICEF: Close to 50 million children had been displaced due to conflict and violence globally by the end of 2024. https://data.unicef.org/topic/child-migration-and-displacement/displacement/

[2] Gazeta.uz. 2021. «Mehr-5» operatsiyasi: 93 nafar o‘zbekistonlik Suriyadan olib kelindi. https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/30/mehr/

[3] Marcus et al., Including Refugee Learners in National Education Systems. 2023. https://www.unicef.org/innocenti/media/5806/file/UNICEF-Including-Refugee-Learners-2023.pdf

maqsadida hibsga olish tobora ko‘proq noqonuniy deb topilmoqda. Shu bilan birga, ma’lumotlar bazalarining yaxshilanishi bolalarga yo‘naltirilgan siyosatni aniqroq rejalashtirish imkonini beradi. Lekin, barcha yutuqlarga qaramay, qochoq bolalarning huquqiy vakillik bilan ta’minlanishi masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Ko‘plab mamlakatlarda bepul yuridik yordamning mavjud emasligi ularning boshpana so‘rash jarayonida teng va adolatli himoyadan foydalanishiga jiddiy to‘sqinlik qilmoqda.

Xulosa. Qochoq bolalar huquqlarini ta’minlash masalasi nafaqat huquqiy majburiyatlar doirasida, balki jamiyatning axloqiy va insonparvarlik darajasini belgilovchi muhim mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Bu borada Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya hanuzgacha eng mukammal va universal xalqaro huquqiy mexanizm bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, 22-modda va u bilan uzviy bog‘liq normalar qochoq bolalarni huquqiy jihatdan “ko‘rinmas” holatdan chiqarib, ularni to‘laqonli huquq subyekti sifatida e’tirof etishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv bolalarning hujjatli maqomiga emas, balki ularning real ehtiyojlari va manfaatlariga ustuvor ahamiyat berilishi bilan muhimdir.

O‘tkazilgan tahlillar O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda ularni amaliyotga joriy etish borasida muayyan ijobiy natijalarga erishganini ko‘rsatadi. Kelgusida qochoq bolalar huquqlarini yanada samarali himoya qilish xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish, bolalarni hibsga olishga muqobil mexanizmlarni rivojlantirish, identifikatsiya va hujjatlashtirish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, psixosotsial reabilitatsiyaga yetarli e’tibor qaratishni talab etadi. Ayniqsa, bolalarning ruhiy holatini tiklash faqat qisqa muddatli yordam bilan cheklanmasdan, balki uzluksiz va tizimli dasturlar asosida amalga oshirilishi lozim.

Umuman olganda, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya doirasida belgilangan har bir norma qochoq bolaning munosib hayot kechirishi va barqaror kelajagini ta’minlashga qaratilgan muhim qadamlardan biridir. Davlatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘zaro hamkorlikda harakat qilgan taqdirdagina, “hech bir bola e’tibordan chetda qolmasligi” haqidagi global maqsadni to‘laqonli ro‘yobga chiqarish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNICEF: Close to 50 million children had been displaced due to conflict and violence globally by the end of 2024. https://data.unicef.org/topic/child-migration-and-displacement /displacement/
2. Jason M. Pobjoy. The Child in International Refugee Law. Cambridge University Press, 2017. https://doi.org/10.1017/9781316798430
3. Ziba Vaghri, Zoë Tessier, Christian Whalen. Refugee and Asylum-Seeking Children: Interrupted Child Development and Unfulfilled Child Rights. 2019. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC6915556/
4. Committee on the Rights of the Child, General Comment No. 6, Treatment of Unaccompanied and Separated Children Outside their Country of Origin (Thirty-ninth session, 2005), U.N. Doc. CRC/GC/2005/6 (2005). https://hrlibrary.umn.edu/crc/comment6.html
5. United Nations Children's Fund (UNICEF), 2025. Unaccompanied and Separated children: 5 facts. https://data.unicef.org/wp-content/uploads/2025/11/5-facts_UASC-4.pdf
6. UNICEF: Close to 50 million children had been displaced due to conflict and violence globally by the end of 2024. https://data.unicef.org/topic/child-migration-and-displacement/ displacement/
7. Marcus et al., Including Refugee Learners in National Education Systems. 2023. https://www.unicef.org/innocenti/media/5806/file/UNICEF-Including-Refugee-Learners-2023.pdf

Qabul qilindi: 15.12.2025 Chop etildi: 30.01.2026 UDK: 81'37

ӘДЕБИЯТТАНЫЎ СЫНШЫЛЫҒЫМЫЗДАҒЫ ЖАҢАЛЫҚ

Алланазарова Зухра Жанназаровна, Ажиниёз атындағы Нөкис мемлекеттик педагогика институти "Қарақалпақ әдебийети" кафедрасиниң ассистент оқытушысы



e-mail: allanazarovazuhrahan @gmail.com

ADABIYOTSHUNOSLIK TANQIDCHILIGIMIZDAGI YANGILIK

Allanazarova Zuxra Jannazarovna, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Qoraqalpoq adabiyoti" kafedraci assistent o'qituvchisi

INNOVATION IN OUR LITERARY CRITICISM

Allanazarova Zuhra Jannazarovna, Is an assistant lecturer of the Department of Karakalpak Literature at Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute

Аннотация: *Қарақалпақ әдеби сыншылығында Ажинияз Қосыбай улының шығармашылығын үйренуге ерекше көңил бөлинеди. Зерттеў көлемине қарай, мақалада А. Султановтың «Хажинияз» монографиясының (Нөкис, «Билим», 2025) жаңалығы, автордың ақын шығармашылығына байланысты жаңа көзқарастары, сондай-ақ монографияда көтерилген өзекти мәселелер талқыланады.*

Таяныш сөзлер:: *баспа, қарақалпақ поэзиясы, әдеби сын, рецензия, мақала.*

Annotatsiya: *Qoraqalpoq adabiy tanqidchiligida Ajiniyoz Qo'siboy o'g'lining ijodini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot hajmiga qarab, maqolada A. Sultonovning «Hajiniyoz» monografiyasining (Nukus, «Bilim», 2025) yangiligi, muallifning shoir ijodiga doir yangi qarashlari, shuningdek, monografiyada ko'tarilgan dolzarb masalalar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *nashriyot, qoraqalpoq she'riyati, adabiy tanqid, taqriz, maqola.*

Abstract: *In Karakalpak literary criticism, special attention is paid to the study of the creative legacy of Ajiniyaz Qosiboy uli. Depending on the scope of the research, the article examines the novelty of A. Sultanov's monograph «Hajiniyaz» (Nukus, "Bilim", 2025), the author's new perspectives on the poet's works, as well as the topical issues raised in the monograph.*

Keywords: *publishing house, Karakalpak poetry, literary criticism, review, article.*

Кириспў. Қарақалақ әдебияттаныў илиминдеги усы ўақытқа шекем лирик шайыр Әжинияз ҳаққындағы жүдә көп санлы мийнетлер жазылып, бир неше диссертациялар жақланды. Бирақ соған қарамастан жақында жарық көрген белгили жазыўшы прозаик ҳәм шайыр Алпысбай Султановтың «Ҳажынияз» (Нөкис, «Билим» 2025) деген монографиялық китапшасының жаңалығы өз алдына болып, ол өзиниң тың пикирлеўлери ҳәм әдебий сынның жанрлық көп түрлилиги таманнан айтарлықтай өзгешеликке ийе.

Атап айтқанда ондағы ең алды менен шайырдың аты исмин дурыс белгилеўде, оның ҳақыйқый өмир-баяны менен дерлик барлық шығармаларының жүзеге келиў психологиясын дурыс ашып бериўде, әсиресе, шайырдың мухаббат қосықлары деп аталған дөретпелерин дурыс таллаўда, оның шаңарақлық (семьялық) ҳалатларын анықлаў бурын айтылмаған тың ойлар жазыўшы илимпаздың анық турмыслық фактлерге сүйенип билдирген пикирлери дыққатты өзине тартады. Мине буларды айқынырақ таллап көрсетиў ҳәзирги

әдебияттаныў илиминиң тийкарғы ўазыйпаларының бири деп ойлаймыз.

Методология ҳам адебиятлар анализи. Алп Султан (А.Султанов) ең алды менен мийнетти «эсселик» форма стилинде дөретип жәриялаўы оған болған көпшилик китап қумарлардың дыққатын арттырады, оның пикирлеў эмоционаллығын пайда етеди, баянлаўдың жеке субьектив формасын иске қосып,олардың барлығын изертлеўшиниң Ҳажынияз өмир сүрген турмыслық обьектив орталық пенен байланысын, соған тийкарланған тарийхый фактлерге толы екенлиги тәмийнленип тур. Өйткени әдебияттаныўдың бир бөлеги әдебий сынның бир неше жанрларының ишинде бул тараўды изертлеўши илимпазлар Б.Егоров, Ж.Есеновтың дурыс көрсетиўи бойынша «эссе» өз алдына форма [1] болып есапланады ҳәм ол тутас әдебий сынды жанрлық көп түрлиликке бөлеп, оның массалық характерин белгилейди, пикир баянлаў техникасын биринши беттен белгили лирикалық эмоционаллық түрде әмелге асырады. Мысалы, А.Султанов былай деп жазған:

«Ҳажынияз» шайырдың биринши ашамайлы руўының айыллы тийресинен ал алған қостары Ҳәмре ким болған, ол қандай себеплерге байланыслы бийдәрек жойтылып кеткен? Екинши мәртебе ол курғын хожалықтың қызына қалай үйленген? Шайырдың Мырза Хожбан, Қыз-Меңеш пенен мүнәсибетлери қалай кешкен? Оның қысқа көлемдеги купия сырлы «Теңиз көринди» қосығын жазыўға не нәрсе себепши еди?» (2-5) .

Демек, булар усы эссе формасындағы китаптың тийкарғы актуаллығы

менен тематикасын белгилеп, оның жаңашыллығын анықлайды. Автор усы актуаль болған мәселелерди Ҳажынияз шайыр жасаған елатлар менен оның туўған туўысқанларының айтып берген айқын мағлыўматларына сүйенип отырып шешкен ҳәм көпшиликке тәсирли түрде баянлаған. «Булар жөнинде Жуманазар аға (Базарбаев) сен жаз, мен сиз жазыңыз деп жүргенде философ әлемнен өтип кетти. Шайырдың 200 жыллық мерекеси пүткил түркий әлемде белгиленип атырған бир дәўирде үй архивимди ақтарып отырсам, сол жыллары жазылған ески блокнотқа дус келип қалдым. Оның бетлерин ашып отырып, блокнотты ҳасла қолымнан түсире алмадым. Нәтийжеде бул мағлыўматларды бүгинги әўладқа жеткерейин деп, компютерге отырғанымды билемен, Солайынша усы «эссе» дүньяға келди».

Бул ҳақыйқатында тарийхы объектив фактлилик болып, ол автордың пикирлериниң де расгөйлигин обьективлигин туўдырады. Сондай-ақ жазыўшы илимпаздың булайша жазыўларына қосымша төмендегише сөзлер де әдебияттаныў менен әдебий сынымыздағы жаңа ойлар болып есапланады:

«... ғаррылар шайырдың исмин Ҳажынияз деп айтар еди. Бул шынында да ойландыратуғын мәселе! Себеби дайысы Елмурат ахунның қәсийетли Кабааға Мәкке менен Мәдийнеге ҳажы сапарына барып келиў мүнәсибети менен ҳүрметине «Ҳажынияз» деп ат қойылған шайырды биз неге мәни бермейтуғын сөз бенен «Әжинияз» деп атай беремиз?! Усы ўақытқа шекем ҳажы сөзин айттырмаған коммунистлик идеология туңғыйыққа кеткен жоқ па?! Уллы шайыр жазған көпшилик қосықларында, Қыз Меңеш пенен айтысларында, өзиниң ҳақыйқый исмин «Ҳажынияз» деп атап келтирип кеткен ғо! Бул мени усы күнге шекем тыншыма қоймай қыйнап келди» [2-6-7].

Мине, булар «эссе сын» пикирлердиң тийкарғы түйини ҳәм олар көпшиликтиң дыққатын ериксиз тартып, пикирлер изине ертеди.

Усы пикирлердиң шынлығын дәлийллеў жолында автор мийнеттиң ишки қурылысы, композицианың өзине тартымлы избе излик, логикалық пенен дүзип, олар мынадай бөлимлерге бөлинген ҳалында өз алдына жарасымлы, поэтикалық форманы дүзип турады. Мысалы, «Елмурат ахун», «Ҳәмре», «Гештек», «Бозатаўлы нәзелим», «Музда қалған орамал», «Гүлзада», «Мырза Хожбан» ҳәм тағы басқалар нағыз көркем шығармалар сыяқлы белгили сюжетлик композициялық, логикалы пикир сыпатында дыққатты тартып, жазыўшы илимпаздың эсселик мийнетиниң қунлылығын тәмийнлеп тур.

Изертлеў ҳам натийжелер. Анығырақ етип айтқанда усы ўақытқа шекем шайырдың мухаббат лирикасы менен өмирбаянының бөлеклери, оның қазақ журтына барыўы ҳәм басқалар түрлише, үстиртин ҳәм исимсиз түрде айтылар еди. Мәселен Қ.Жәримбетовтың

пикиринше шайырдың бурын мухаббат қосықлары деп жүрген лирикалық дөретпелери «Эй нәзелимлер», «Бозатаўлы нәзелим», «Сәўдигим» ҳәм басқалар мухаббат қосықлары емес, ал философиялық символикалық мәнидеги «ҳақ», «куда» ның рәмзи формасында суфистлик философиялық ағым менен жазылған» (3...) деген ойлар ортаға салынған. Айрым мийнетлерде шынында да шайырдың биринши қостары белгисиз жоғалып кеткенликтен, шайырға жала жабылып, оның қунын төлеў мақсетинде қаржы таўып келиў ушын ол қазақ журтына талап ислеп кеткен, гейпара мийнетлерде Хийўа ханлығы жигирмалаған исламий диний молла ийшанларды хлықтың буйрығы менен қазақ елине атландырған; соның арасында бизиң шайырымыз да болған екен деген шамалаўлар айтылған [4-115].

Ал сөз етилип отырған мийнетте – эссе де оларға қарама – қарсы, ҳақыйқый обьектив пикирлер жоқарыдағы келтирилген фактлерге терең тийкарланып басқаша: яғный оның шынында биринши қостарының белгисиз жоғалып кеткени, ырасында оның шамалаўлары бойынша, мүмкин. Ҳажыниязға өкпелеп, пессимизге берилип өзи саналы түрде муз үкиге түсип тәслим болған, үки басында оның тек ғана орамалы қалған» сол ушын оның қунын төлеў ушын Ҳажынияз қазақ елине жол алғанлығы айтылған. Булар эссе мийнеттиң «Гештек», «Үки басындағы орамал», «Бозатыўлы нәзелим» ҳәм тағы басқа бөлимлеринде бир бирин толықтырып, избе излиги менен исенимли дәлилленген.

Ҳажынияз шайыр өз қатарлы жаслар менен отырыспа – гештеклерге қатнасып жүрип, өз гезегин алып үйине мирәт етип, гештек қурған екен. «Гештек», ҳәзирги жаслардың «вечер», саз – сәўбетли отырспағы. Сонда Гүлзада исмли бир гөззал Ҳажынияз шайырдан бир қосығын оқып бериўин соранады. Ал шайырдың қостары Ҳәмре болса минсиз хызмет атқарып, шай суў тасыў менен шуғылланғанбақта. Сонда Ҳажынияз шайыр «Бозатыўлы» нәзелим деп аталған жаңа қосығын тоқып атқарған. Есик артында болса оның қостары Ҳәмре сығалап тыңлап турған қусайды.

« – жүреклеримиздиң төринен орын алатуғын қосықларды оқыўды Зийўар шайырдан сорансақ қалай болар екен ? – деди Гүлзада.

Буны еситкен Ҳәмре кийеўим мен ҳаққында қосық оқып жүрер деп... сыртқа шығып кетти... Ҳажынияз қосығын оқый баслады... Ол келбет – сынын жулдызларға теңеген қыз ким екен – әй ? – деп есиктиң артында турған Ҳәмре буған бәршеден бетер қызықсынды. Ақырында қолында демленген шәйнек, босағаны атлап, ишке асығыс кирип келди, лекин қолындағы шәйнекти қай жерге қоярын билмей тик турыўы менен есиктиң алдында қатып қалды [2–45].

«Еситтиңиз бе, аңлатдыңыз ба ? Қосық мен ҳаққында, – деди Гүлзада» [2–46] «Қыз орнынан ушып турды да... Ҳажыниязды қасына барып оның оң дизесине таўыс киби қонып отырды. Қыз жигитлер буның ҳәрекетине әбден лал болып қалды» [2–47]. «Гүлзада кийеўиниң дизине жайғасып отырып алғанын көрип албырағанынан қолындағы шәйнегин қолынан түсирип алды. Пашақ – пашақ болып шәйнектен пуўы бурқыраған шай оның аяғына төгилди» [2–47]. Сөйтип Ҳәмре енди атлығып сыртқа қарай жуўырып кетеди.

Әне бул психологикалық ситуация автор тәрепинен жүдә терең мазмунлы түрдеги қыймыл қозғалыслар, диалог пенен де тәсиршең сүўретленген, сөйтип шайырдың қостарының Ҳәмреның жойтылыў себеплериниң психологикалық негизин пайда етеди. Ҳақыйқатында усындай ҳалатта қостар өзин өлимге грипдар етип, музға кетиўи тәбийғый психологиялық ҳалат деп ойлаўға туўра келеди.

Соңынан А. Султанов Ҳәмреның музды ойып «үки» басында қалған балта менен орамалы ғана қалғанлығын, келинди енеси Нәзийра ананың жойтыў ҳалатларын да детальластырып, психологиялық формада исенимли ҳәм тәбийғый түрде эссениң талапларына муўапық сүўретленген.

Қараңыз : «... Нәзийра ана дәстүрханды жыйнамастан – ақ Ҳажыниязды алдына салып, ҳәрдайым суў алатуғын үки таманға жүрип кетти. Ол жерге барса, муз үстинде жалғыз балта жатыр, суў алыўға апарған суў қабағы жоқ, үки ойылған, оның аўзындағы музға, Ҳәмреның орамалы илинип қалыпты...!

–Қурып қалдық!... « [2–49].

Енди Нәзийра ана «Бәрине гештек себепши, сениң тапқан бәлең!» деп баласын айыплаў менен әўере еди. Бирақ ана келининиң

музға кетиўиниң психологиялық себеплерин мейли билип – билмей үкиге түсиўиңниң тийкарын анғармаса керек.

Ең баслысы усылайынша жазыў арқалы шайырдың «Айырылса» қосығының дөрелиў психологиясын ашады ҳәм қосықтан мынадай мысалларды келтириўи әдебий сыншылық эсселик дөретпениң композициясына жарасымлы.

Елинен айырылған дийўана болар,
Ярынан айырылған бийгана болар,
Ҳәррелер ушубан пәрўана болар,
Уясы бузылып палдан айырылса...
... Көңилдиң көп болар қайғы – жапасы,
Хош қылықлы сәўер ярдан айырылса...

Ҳақыйқатында булар исенимли ҳәм автор өзинен бурынғыларды айыпламаған ҳалда да Ҳажынияз шайырдың көпшилик қосықларының дөрелиў процессиниң психологиялық тийкарларын исенимли ашып көрсетиўи улыўма әдебияттаныў менен сынымыздағы сөзсиз жаңалық болып есапланады. Шайырдың усындай сырлы, терең ойлы шығармаларының бири «Теңиз көринди» қосығы есапланады. Бул әдебий сыншылық эсseниң «Теңиз көринди» бөлиминде минсиз түрде тәсиршең сүўретленип өткир пикирлери менен дыққатты өзине тартады. Оның мазмуны мыналардан ибарат...

Мырза Хожбан елин сағынған Ҳажынияз шайырды қасына жолдаслыққа еки жигитти қосып, жол баслаўшы ретинде, оған қәўипсизлик туўдырмаў ушын жетерли түрдеги мол саўға, моллашылық ҳақы қаржылары менен, астына ат мингизип жолға атландырған. Сонда жол бойы бендешилик етип, Ҳажынияз шайыр сол жолдаслық етип киятырған еки жигиттен гуманланған қусайды. Сонда жол бойы Ҳажынияз шайыр :

Шүкир ҳақтың дәргайына,
Теңиз көринди, көринди,
Астымдағы минген атым,
Семиз көринди, көринди,
Қасымдағы еки қазақ,
Доңыз көринди, көринди. [2–101].

Әлбетте, бул қатарларды ҳәр ким өзинше түсинсе де, ҳақыйқаттыңда шайыр буларды миллетшилик пенен жазбаған, ал «Еки жигит мениң саўға ушын алған ғәрежетлеримди, атымды да тартып алып, өзимди өлтирип кетпесе болғаны – ғой!» – деген гуманшыл психология менен жазған екен. Сол ситуацияны автор Алп Султан дурыс шамалап, оның тийкарлы түрдеги факт болжаўлар ҳәм Ҳажынияздың аўыллас, ағайин туўысқанларының мағлыўматлары негизленип айтады. Ал ҳақыйқатында да жолдас болған еки қазақ жигити шайырға үлкен ҳүрмет көрсетип, Арал теңизи көрингенге шекем қырағылық пенен шайырды өз елине аман – есен шығарып салған.

Соның менен қатар Алп Султан эссе дөретпеде Ҳажынияз шайырдың ең соңғы дөретпеси болған «Көзлерим» лирикасының жазылыўын, ал қайтыс болғаннан соң Мырза Хожбан менен Қыз Меңештиң қарақалпақ журтына, Ҳажынияз шайырдың шаңарағына келиўин үлкен салтанатлы түрдеги картиналық көринис картиналары, символико метафоралық қәсийетлерге ийе көркем детальлар менен сүўретленген. Мысалы : «Тырналардың даўысы еситиледи, лекин олардың өзлери көзге көринбес еди. Ҳажынияз қағаз қәлем излеген сыяқлы сыйпаланып отырды. Лекин ол жерде қәлемде, қағаз да жоқ еди. Енди сол сыйпаланып отырып қарыстай шөп таўып алып, кеўил наласын жерге сызып жаза баслады. Олар мына қатарлар еди...» [2–106].

Сөйтип автор эсседе шайырдың «Көзлерим» қосығын келтириўи шығарманың көркем әдебий сыншылық эссе сыпатындағы пикир логикасында композициялық функциясын орынлап, оның поэтикасын аңлатып, оның жоқары санасын көтерип тур десек дурыс болар еди. Сондағы шайырдың зайыбы Гүлзада менен шайырдың мынадай диалоглик сөзлери тәсиршең ҳәм ол мухаббат улыўма инсаныйлық сыпаты менен баҳалы.

« – Қәдирданым, өзиңди бунша қыйнай берме. Усы күнге шекем жазғанларың да аз емес сениң, – деп Гүлзада зайыбын жубатпақшы болды.

–Яқ, қағаз қәлемди қолыма услата бер, ишим дәртке толып баратыр,

сыртқа шығармасам болмайды! – деди Ҳажынияз.

–Онда оқып тур, ақ қағазға қәлем менен түсиремен, – деди Гүлзада» [2–106].

Булардың барлығы Ҳажынияз шайырдың ҳақыйқый өмирбаяны менен дөретиўшилик

психологиясын дурыс түсинип баҳалаўға көп мүмкиншиликлер береди.

Сөз етилип отырған әдебий сыншылық эссе дөретпениң әҳмийетли орынлар оның «Зийўардың зарлы мухаббаты» деген бөлиминде көринеди. Бизиңше бул бөлимди автор Алп Султанның ҳақыйқый әдебий сыншылық философиялық ойларының көриниси, Ҳажынияз шайырдың да тек мухаббат емес, ал терең психо – философиялық ойлары десек асыра силтеў емес шығар. Мысалы автор былай деп жазыўы үлкен психо педогогикалық, этикалық характерге ийе.

«Мухаббат адамлардың бирин бири терең мәнисте түсиниўиниң тийкары, ең баслы улысы. Дене, тән қуўанышың көп нәрселер бериўи мүмкин, ал толық мәнисте мухаббат қуўанышы, инсанның жан ҳәм тән сезимлерин тек те сүйген адамың бере алады.» [2–120].

Додалаўлар.Алп Султанның дурыс айтқанындай көпшилик данышпан философлар менен биолог, социолог илимпазлар: «... өз мийнетлеринде жынсый эротикалық мухаббатқа бас дыққатты болған, ҳәм буны ҳәр қандай мухаббаттың парадигмасы деп атаған... Мухаббат – бул еки жоқары қәбилетли шахстың бирлик аўқамы, ал ҳәр бир шахслардың бармақ излериниң уқсамаслығы сыяқлы қайталанбас тулға... Буны Ҳажыныяздың қыз гөззаллығын тәриплеген лирикасынан айқын аңғарыўға болады:

Келтирсем ақыл – ойымды,
Дүньяның жоқдур тойымы,
Азада қызлардың қойыны,
Жәннеттиң бағына мегзер. [»Мегзер»]
Сийнемди сийнесине қойсам, бир заман,
Зәрре қумар қалмас көңилде әрман,
Шийрин жаным болсын жолыңа қурбан,
Дегенде жаныма келән сәўдигим! [2–123].

Бул қатарларды айырым изертлеўшилер менен көпшилик оқырман қәўим факт сыпатында келтирип жәриялаўға да тартынады. Ал бирақ негизинде олар Ҳажынияз шайырдың лирикаларының жүреги десек те болады. Ол психо биологиялық физиологиялық қәсийетлери менен өз обьективлигине, гөззал поэтикасына ийе.

Усы тийкарда Алп Султанның дурыс жазғанындай « Мухаббат... оның пайда болыўы менен ғана өмир қуўанышлары раўажланып қоймай, оның қайғы ҳәсирети, тәшўишлери оннан да бетер көбейеди.

... Бир таң қаларлық жери мухаббат ҳаяллардың еркеклерге бағыныққылығына түскен дәўирлерде пайда болады. Бирақ сырттан қарағанда усылай. Ҳақыйқатында ҳаялды бағындырып, еркектиң өзи ҳаялдың тутқынына түседи «. [2–125].

Бул жүдә дурыслыққа сәйкес уғымды Ҳажынияз былай жазған :

Қумырсқадек қыпша – қыпша беллериң,
Бармақ толы йузик – йузик эллериң,
Әсел қатқан сүжик – сүжик,
Жыланды жылжытып иннен бездирер... [2–125].

Жуўмақ. Улыўма айтқанда Алп Султанның бул әдебий сыншылық эссе мийнети бүгинги қарақалпақ әдебияттыныў илими менен сынының бийик табысларының тийкары ретинде мазмун ҳәм форма жаңалығы тәсиршеңлиги менен жаңа ой пикирлерди пайда етип, тутас миллий поэтикалық ҳәм илимий, ақыл – парасат дүньямызды байытыўға хызмет етеди.

ӘДЕБИЯТЛАР:

1. Егоров Б.О мастерство литературная критики. Ленинград, 1980
   Есенов Ж.Әдебий сынымыздың жанрлық көп түрлилиги.
   – «Әмиўдәрья» 1988–9.
2. Султан Алп. Ҳажынияз. Нөкис. Билим, 2025.
3. Жәримбетов Қ. Ашық Зийўар. Нөкис. Билим, 2001.
4. Жәримбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери ҳәм раўажланыў тарийхы. Нөкис, Билим, 2004, 107–115.
5. Сол китап, 115 – бет.